


Darslik

**AVAZ ALIMOV
ELYOR MAXMUDOV
NAMOZALI XAYDAROV**

**JAHON IQTISODIYOTI
VA XALQARO IQTISODIY
MUNOSABATLAR**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

A. M. ALIMOV, E. A. MAXMUDOV, N. X. XAYDAROV

JAHON IQT VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

Toshkent
"Zilol buloq nashriyoti" nashriyoti
2020

UO'K 339(575.1)(075.8)

KBK 65.5(50') ya73

A50

Avaz Alimov,

Elyor Maxmudov, Namozali Xaydarov

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar / Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / – Toshkent: "Zilol buloq nashriyoti", 2020 yil, 432 bet.

Taqrizchilar:

i.f.d., professor, O'zR FA akademigi. Gulyamov S.S.

i.f.n., dotsent Xusanov Ch.Q.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 9 fevraldagi 133-sonli buyrug'iga asosan 5231000-Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan.

O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyotiga tobora chuqur integratsiyalashuvi iqtisodiy fanlar o'qitish tizimini mazkur jarayon talablariga moslashtirib borishni taqazo etmoqda.

Ushbu darslik jahon iqtisodiyotining globallasuvi, xalqaro iqtisodiyot tizimining rivojlanish bosqichlari, uning tarkibiy qismlari: xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, xalqaro kapital harakati, xalqaro valyuta-moliya bozori, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro ilmiy-texnikaviy ayirboshlash sohalarining eng muhim masalalariga bag'ishlangan.

UO'K 339(575.1)(075.8)

KBK 65.5(50') ya73

A50

Mazkur darslikni nashr etishda amaliy yordam bergan MChJ VIMPEL rahbarlari D.V. Pachikin va N.D. Kirezidilarga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

ISBN 978-9943-5856-5-2

©

A. M. Alimov,

E. A. Maxmudov, N. X. Xaydarov

©

"Zilol buloq nashriyoti"

MUNDARIJA

MUNDARIJA	
MUQADDIMA	11
KIRISH	13
<i>Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari</i>	15
<i>I bob. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: nazariy asoslari va harakatiantiruvchi kuchlari</i>	16
Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida	16
Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri	21
<i>II bob. Globallashuv va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari</i>	29
Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlar xususiyatlari	29
Globallashuv va liberallasuv – xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyasi sifatida	33
<i>III bob. Global mintaqaviy milliy moliya bozorlari</i>	37
Jahon moliya tizimi globallashuvining mohiyati va uning oqibatlari	37
Zamonaviy jahon xo'jaligida moliya tizimining vazifalari va uni tartibga solish zarurati	40
Jahon moliya bozorining tasnifi	44
Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy bozorlar rivojlanishining asosiy xususiyatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	53
<i>IV bob. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik</i>	59
<i>V bob. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari</i>	62
Hozirgi davrda milliy innovatsion tizimni yaratish va takomillashtirishning konseptual asoslari	62
Jahon xo'jaligi globallashuvining milliy iqtisodiyotlar innovatsion rivojlanishiga ta'sir yo'nalishlari	73
Innovatsion rivojlanishning jahon tajribasi va milliy innovatsiya tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	84
<i>Bo'lim bo'yicha nazorat savollari</i>	96
IKKINCHI QISM. XALQARO IQTISODIYOT ASOSLARI	98
BIRINCHI BO'LIM. XALQARO IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI	99
<i>I bob. Xalqaro iqtisodiyot asoslari faniga kirish</i>	99
Xalqaro iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari	99

Jahon bozori va zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllari	100
Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida Xning o'ziga xos jihatlari	102
XI jarayonlarida mamlakatlar ishtirokining asosiy ko'rsatkichlari	103
Ishlab chiqarish omillari va ulami xalqaro ayirboshlash jahon iqtisodiyotining moddiy asosi sifatida	103
Jahon bozorida tovar va xizmatlar harakatining xususiyatlari	105
Jahon axborot va texnologiyalar bozori	106
Bo'lim bo'yicha rezyume	110
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	110
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	110
I. I. XALQARO SAVDONING KLASSIK NAZARIYALARI	112
<i>II bob. Merkantilizm va uning chegaralanganligi</i>	112
Oltin – davlat boyligining asosi sifatida.	112
Tashqi savdo siyosati xususiyatlari	113
Merkantilizmning kamchiliklari	114
Mehnat taqsimoti – iqtisodiy o'sishning asosi sifatida	115
<i>III bob. Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari</i>	117
Mutlaq ustunliklar modeli.	117
Muqobil narx va savdodagi narxlar nisbati	118
Savdodan keladigan yutuq	120
Bir necha tovarlar bilan o'zaro savdo	122
Nisbiy ustunlik nazariyasining ahamiyati	124
<i>IV bob. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi</i>	127
Dastlabki postulatlar	127
Ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganlik	130
Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi	133
Leontev paradoksi va uning mohiyati	136
I. II. XALQARO SAVDODA UMUMIY MUVOZANAT	140
<i>V bob. Xalqaro savdoning standart modeli</i>	140
Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning manfaatlari	140
Savdo bo'limagandagi muvozanat	142

Savdo sharoitidagi muvozanat	143
Savdodan keladigan yutuq	145
Kichik va katta mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo	146
Bir tovarni ikkinchi tovardan ustun ko'rish asosidagi savdo	147
<i>VI bob. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari</i>	150
O'zaro talabning xususiyatlari	150
Xalqaro muvozanat	152
Qiyamat orqali baholash tamoyillari	154
Rivojlanishning asosiy tendensiyalari	155
<i>VII bob. Xalqaro savdoni tahlil qilish vositalari</i>	157
Savdo shartlari	157
Eksport va import egiluvchanligi	158
Daromad va o'rnini qoplash samarasi	159
Iqtisodiy o'sish turlari	161
Daromadning qayta taqsimlanish samarasi	164
<i>VIII bob. Xalqaro savdoda sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli</i>	168
Taklifning shakllanishi	168
Talabning shakllanishi	169
Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar muvozanati	170
I. III. XALQARO SAVDONING MUQOBIL NAZARIYALARI	172
<i>IX bob. Xalqaro savdo klassik nazariyalarining rivojlantirilishi</i>	172
Klassik nazariyalarning cheklanganligi	172
Noan'anaviy yondashuvlar	173
<i>X bob. Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi</i>	176
Maxsus va harakatchan omillar	176
Ichki muvozanat	178
Xalqaro balans	181
<i>XI bob. Xalqaro savdoning daromadga ta'siri</i>	186
Savdodan keladigan daromadning taqsimlanishi	186
Maxsus ishlab chiqarish omillari modelida daromadning taqsimlanishi	187

Tovar narxlari o'zgarishining ishlab chiqarish omillaridan keladigan daromadga ta'siri	189
Omillar taklifining ishlab chiqarishdan keladigan daromadga ta'siri	191
Kuchaytirish samarasi	193
XII bob. Keng ko'lamlilik samarasi, nosog'lom raqobat	195
Keng ko'lamlilik samarasi asosidagi savdo	195
Yakka hokimlik raqobati sharoitida savdo	197
XIII bob. Tarmoq doirasidagi xalqaro savdo nazariyasi va xalqaro savdoda talab va revers nazariyalari	202
Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo savdoning farqi	202
Tarmoq ichidagi savdo modeli	205
Tarmoq ichidagi savdoni o'lchash	207
Kesishuvchi talab	207
Ishlab chiqarish omillari reversi	209
Bo'lim bo'yicha rezyume	213
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	218
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	220
IKKINCHI BÔ'LIM. ERKIN SAVDO VA PROTEKSIONIZM	221
XIV bob. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish	221
Tashqi savdo siyosatining mohiyati	221
Erkin savdo va proteksionizmning o'ziga xos jihatlari	222
Proteksionizmning ijobiy va salbiy tomonlari	224
Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy usullari	225
Tashqi savdoni tartibga solishning tarifli usullari tavsifi	225
Tashqi savdoni notarif cheklashning asosiy turlari	226
XV bob. Bojxona bojlari va bojxona tariflari	230
Bojxona bojlarining mohiyati va turlari	230
Tarif siyosatining asosiy shakllari	232
Proteksionistik chora-tadbirlar joriy qilishdan ishlab chiqaruvchilar ko'radigan foydalar	232
Davlat uchun proteksionizmning yaqin va uzoq istiqboldagi oqibatlari	234
Proteksionizm sharoitida iste'molchilar turmush farovonligini pasayishi	234
XVI bob. Xalqaro savdoni tartibga solish	236

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning mohiyati va shakllari	236
KOKOM faoliyati	236
GATTning imzolanishi sabablari	237
GATTning tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi	237
Umumjahon savdo tashkiloti (UST)ning tashkil etilishi va uning GATTdan farqi	239
Umumjahon savdo tashkilotining tamoyillari, maqsad va vazifalari	239
Umumjahon savdo tashkiloti tuzilmasi va faoliyati	240
XVII bob. Xalqaro tovarlar nomenklaturasi va xalqaro savdodagi o'zgarishlar	247
Xalqaro tovarlar nomenklaturasining xususiyatlari	247
Xalqaro savdodagi o'zgarishlar	252
Tovarlar oqimining asosiy yo'nalishlari	254
XVIII bob. Xalqaro savdoda narx belgilash	256
Narx va narx belgilash nazariyasi	256
Narx belgilashning asosiy mexanizmlari	257
Jahon narxlari tizimi va uning vazifalari	259
XIX bob. Tashqi savdo balansi	260
Tashqi savdo balansining umumiy tavsifi	260
Tashqi savdo balansiga ta'sir etuvchi omillar	261
Bo'lim bo'yicha rezyume	262
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	263
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	265
UCHINCHI BO'LIM. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI	267
XX bob. Kapital olib chiqishning mohiyati va shakllari	267
Jahon kapital bozorining mohiyati va rivojlanish bosqichlari	267
Kapital olib chiqish shakllari	268
Kapital eksporti nazariyasi	268
Umumjahon banki guruhining faoliyati	270
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mohiyati va ahamiyati	279
Portfel investitsiyalarning xususiyatlari	280
Investitsion muhit tushunchasi	280
XXI bob. Xalqaro kapitalning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri yo'nalishlari	282

Investitsiya oqimlari yo'nalishining o'zgarishidagi asosiy tendensiyalar	282
Xalqaro kapital harakatining zamonaviy jug'rofiy tuzilmasi	283
Xorijiy investitsiyalarning eksport qiluvchi mamlakatlar uchun ahamiyati	284
Xorijiy kapital qo'yilmalarning import qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan o'rni	284
«Erkin iqtisodiy hududlar» xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida	285
XXII bob. Xalqaro kredit	291
Xalqaro kredit shakllari	291
Xalqaro kredit bozorlari	291
Tashqi qarzdorlik muammosining mohiyati	292
Tashqi qarzdan qutulish yo'llari	293
XXIII bob. Xalqaro iqtisodiyotda transmilliy korporatsiyalarning tutgan o'rni	295
Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko'rinishlari	295
TMKning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati	296
TMK faoliyatining yangi ko'rinishlari: lizing va faktoring	297
Bo'lim bo'yicha rezyume	300
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	302
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	302
TO'RTINCHI BO'LIM. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI	304
XXIV bob. Xalqaro valyuta hisob-kitob munosabatlari	304
Xalqaro iqtisodiyot tizimida valyuta hisob-kitob munosabatlarining mohiyati	304
"Valyuta" tushunchasi mohiyati	306
Xalqaro valyuta-moliya tizimining zamonaviy xususiyatlari	306
Xalqaro hisob-kitob ko'rinishlari	311
Valyuta kliringi	314
Valyuta cheklashlarning mohiyati	315
Valyuta konvertirlanishining tavsifi va shartlari	316
Valyuta kursning asosiy tamoyillari	317
Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar	318
XXV bob. Valyutaga talab va taklif	320
Valyuta rejimi turlari	320
Valyuta tavakkalchiligi va uni sug'urtalash usullari	321

Valyuta bozori turlari	322
Valyuta operatsiyalari asosiy tiplarining tavsifi	323
XXVI bob. To'lov va hisob-kitob balansi	326
To'lov balansining mohiyati va tuzilmasi	326
To'lov balansining xalqaro soddalashtirilgan sxemasi	332
To'lov balansini tartibga solish vositalari	333
Bo'lim bo'yicha rezyume:	334
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	335
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	336
BESHINCHI BO'LIM. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI	337
XXVII bob. Jahon ishchi kuchi bozori	337
Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo'lish sabablari	337
Mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va markazlari	338
Xalqaro mehnat migratsiyasi ko'rinishlari	339
XXVIII bob. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga ta'siri	341
Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy samaralari	341
Jahon ishchi bozoridagi asosiy eksportyor mamlakatlar	342
Migratsiya jarayonlarining importyor mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri	343
«Aqll chiqib ketishi» muammosining mohiyati	344
Bo'lim bo'yicha rezyume	345
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	345
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	346
OLTINCHI BO'LIM. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA	347
XXIX bob. Jahon xo'jaligida integratsiya jarayonlari	347
Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning dastlabki shart-sharoitlari va mohiyati	347
Integratsiya jarayonlari jahon markazlari	347
Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri	349
Integratsion guruhlar tipologiyasi	352
Erkin savdo hududlari (ESH)ning mohiyati	352
Bojxona ittifoqlari	353
Umumiy bozor	354

Mundarija

Iqtisodiy ittifoq	355
XXX bob. Yevropa Ittifoqi	356
Yevropa Ittifoqi evolyutsiyasi bosqichlari, maqsadlari, tamoyillari va faoliyati	356
Yevropa Ittifoqi tuzilmasi, zamonaviy bosqichdagi muammolari va istiqbollari	358
Bo'lim bo'yicha rezyume	359
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	360
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	360
YETTINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA	362
XXXI bob. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati	362
O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va milliy raqobatbardoshlikni oshirish	362
O'zbekistonning tashqi savdosi dinamikasi tahlili	366
Jahon kapital bozorida O'zbekistonning o'rni	376
Bo'lim bo'yicha rezyume	382
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	383
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	383
GLOSSARIY	384
TESTLAR	393
MASALALAR	399
ADABIYOTLAR	404
Darslikda foydalanilgan jadval, rasm va dlagrammalar mundarijasi	408
СОДЕРЖАНИЕ	415
CONTENT	422

MUQADDIMA

HURMATLI KITOBXON!

Ushbu darslik mualliflari A.Alimov, E.Maxmudov, N.Haydarov sizning e'tiboringizga Davlat ta'lim standartlariga mos keladigan "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" darsligini taqdim etadilar.

XXI asr arafasida O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga, bozorga asoslangan xo'jalik mexanizmiga o'ta boshladi. Juda ko'p muammolarga biz birinchi marta duch keldik. Iqtisodiyotda va jamiyatda ma'muriy-boshqaruv tizimi bilan xayrlashar ekanmiz, bozor iqtisodiyotini shakllantirishimiz va uni rivojlantirishimiz zarur, bu birdaniga amalga oshmaydi, albatta. Mamlakatimizda ochq iqtisodiyotni barpo qilish va rivojlantirib borishni xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanini o'rganish nafaqat iqtisodchilar balki boshqa kasb egalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishining eng muhim masalalariga bag'ishlangan ushbu darslikda nazariy tamoyillar va amaliy materiallar xronologik asosda yoritilgan.

Bu darslikning o'ziga xos tomoni shundaki, mualliflar o'z oldiga jahon iqtisodiyotining

globallashuvi, xalqaro iqtisodiyotning tarkibiy qismlari: xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, xalqaro kapital va ishchi kuchi global bozorlari, xalqaro valyuta-moliya bozori, xalqaro iqtisodiy integratsiya, ilmiy-texnikaviy ayirboshlash sohalarining milliy xo'jalik tuzilmalari va turli miqyosdagi xalqaro tashkilotlarning faol ishtirokidagi o'zaro ta'sirining tabiati va xususiyatlarini ochib berish maqsadini qo'ygan.

Mazkur darslikni tayyorlashda yurtimiz va xorijiy iqtisodchilarning umumlashtiruvchi va maxsus tabiatdagi ishlari, XIM rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha turli o'quv-uslubiy adabiyotlar, shuningdek, statistik ma'lumotnomalar va davriy nashrlar materiallaridan foydalanildi.

Mualliflar materiallarni qisqa va lo'nda bayon etishgan, bu kitobxon diqqatini xalqaro iqtisodiyotning eng muhim masalalariga qaratishini yengillashtiradi. Darslik kirish, 2 qism, 7 bo'lim, 36 bobdan iborat asosiy matndan tashqari bo'limlarning qisqacha mazmuni, glossariy, bo'lim bo'yicha nazorat savollari, mulohaza uchun muammolar, testlar va masalalarni o'z ichiga olgan.

Mavzularni o'rganishda jahon iqtisodiyoti globallashuvining tobora chuqurlashib borayotganligiga, zamonaviy xalqaro iqtisodiyotning kompleks tabiati va uning ayrim sohalarini hamisha o'zgarib borishiga e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari siyosiy hodisalarning

Muqaddima

Iqtisodiy jarayonlarga ta'siri bizning mamlakatimizda ham, xorijda ham hanuzgacha yuqori darajadiligini hisobga olish zarur.

Ushbu darslik mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, uning xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini kengaytirish va bu munosabatlar sifatini oshirish sharoitida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalari va tinglovchilari uchun xalqaro iqtisodiyot asoslari kursi bo'yicha to'laqonli har tomonlama mukammal tayanch qo'llanmani tayyorlashga dastlabki harakatdir. Shuning uchun ham ushbu darslik kamchliklardan holi bo'lmasligi mumkin.

Mualliflar darslik mazmuniga taalluqli har qanday tanqidiy mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va ushbu darslik o'qituvchilar, talabalar, tadbirkorlar, zamonaviy xalqaro iqtisodiyot muammolari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mamlakatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari rivojlanishining asosiy tamoyillarini chuqurroq tushunishga yordam beradi deb umid qilib qoladi.

Darslik nihoyasiga yetkazilib, texnik ishlar tugallanay deganda beshafqat o'lim mualliflardan biri Avaz Alimovni oramizdan olib ketdi. Uning porloq xotirasi hamisha qalbmizda qoladi.

KIRISH

Jahon xo'jaligining globallashuvi, milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi hamda bir-biriga qaramligining o'sishi sharoitida tashqi rivojlanish omillaridan samarali foydalanish muammolari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarini chop etishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Iqtisodiyotchilarni tayyorlash bo'yicha deyarli barcha davlat ta'lim standartlarida "Jahon iqtisodiyoti" fanining o'qitilishi ko'zda tutilganligi bejiz emas. "Jahon iqtisodiyoti" va "Tashqi iqtisodiy faoliyat" mutaxassisliklari o'quv rejasiga mustaqil "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kursi ham kiritilgan. Ushbu kurslarning davlat ta'lim standartlariga asoslangan tarkibi bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, ular ilmiy mazmun-mohiyatining ham yagona tushunchasi hali-hanuz mavjud emas. Shu fanlarni o'qitish borasida to'plagan ko'p yillik tajribamizdan kelib chiqib, "Jahon iqtisodiyoti" fanini keng va tor ma'noda o'rganish mumkin, deb hisoblaymiz. Tor ma'noda jahon xo'jaligi mamlakatlari iqtisodiyotlari va tarmoqlarini tadqiq etish ushbu fanning predmeti bo'lsa, keng ma'noda – fanning predmetiga xalqaro iqtisodiy munosabatlarning turli shakllari ham kiritiladi. Umumiy tibbiyot fani atamalarini qo'llagan holda "Jahon iqtisodiyoti" fani jahon iqtisodining anatomiyasini o'rgansa, "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" uning fiziologiyasini

o'rganadi, - deb ta'kidlash joizdir. Masalan, O'zbekiston Milliy Universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan 2015 yilda 34 bo'limdan iborat "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" nomli darslik chop etildi¹.

Bundan tashqari, "jahon iqtisodiyoti" tushunchasi bilan birga so'nggi vaqtlarda ilmiy dolrallarda uning sinonimi sifatida "xalqaro iqtisodiyot" termini ishlatilmoqda. Fikrimizcha, ushbu termin jahon xo'jaligida sodir bo'layotgan hodisalarni aniq va to'liq aks ettira olmaydi. Dunyoda kuzatilayotgan integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlariga qaramay, mamlakatlar o'z milliy maqomlarini saqlab kelmoqdalarki, ularning iqtisodiy salohiyatlari o'z xalqlarining mulki bo'lib qolmoqda, va aynan shu mamlakatlar o'rtasida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil bo'lmoqda. "Xalqaro iqtisodiyot" atamasi esa, "xalqaro iqtisodiy munosabatlar" atamasi bilan ma'nosiga ko'ra o'xshash bo'lib, G'arb davlatlarida o'qitiladigan "International Economics" kursi inglizcha nomining aynan tarjimasini sifatida qaralishi mumkin.

Mualliflarning fikricha, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kursi bo'yicha chop etilgan o'quv adabiyotlarida o'quv materiallarini bayon etishda ikki yondashuvni kuzatish mumkin. Mualliflarning

¹ Vaxabov A.V. va boshq. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. – Toshkent: Baktria press, 2015. - 584 b.

Kirish

bir guruhi (A.P. Kireyev, G.P. Ovchinnikov, N.A.Volgina va boshq.) ushbu fanni iqtisodiy nazariyaning bir qismi degan fikrni ilgari suradilar². Taniqli xalqaro iqtisodchilarning ko'pchiligi esa, uni amaliy yo'naltirilgan fan

deb hisoblaydilar. Taqdim etilayotgan kitobda ushbu o'quv kursining nazariy jihatlar va amaliy yo'nalishi uyg'unlashgan degan fikrga ko'proq urg'u berilgan.

²Ovchinnikov G. П. Международная экономика. СПб, 1998; Киреев А.П. Международная экономика. Часть 1. 2. М., 2000.; Волгина Н.А. Международная экономика: Учеб.пособие. – М., 2006. -736 с.

BIRINCHI QISM

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA OMILLARI

I bob. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi: nazariy asoslari va harakatlantiruvchi kuchlari

Globallasuv jahon iqtisodiyoti baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida

Globallasuv zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi eng asosiy jarayonlarning biri bo'lib, xo'jalik hayoti baynalminalashuvining yuqori bosqichi hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqasi va bir biriga bog'liqligi tobora kuchaymoqda. Hozirgi davrda tashqi omillarni hisobga olmasdan davlatlarni iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Ma'lumki, mamlakatlar iqtisodiyotlarining bir-biriga bog'liqligi kuchayishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy iqtisodiyotlarga ta'sirining ortishi, katta-kichik davlatlarning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki faollashuvi xo'jalik faoliyatining baynalminalashuvidir. Iqtisodiyot baynalminalashuvi bir qator bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, dastlabkisi xalqaro iqtisodiy hamkorlik hisoblanadi va bunda tashqi savdoning roli g'oyat muhimdir. Davlatlar o'rtasidagi xalqaro xo'jalik aloqalarining me'yoriy-huquqiy ta'minlanishi, qayta ishlab chiqarish jarayonlarining milliy chegaralardan tashqariga chiqishi xalqaro iqtisodiy hamkorlikdir.

Baynalminalashuvning keyingi bosqichi "xalqaro iqtisodiy integratsiya" atamasi bilan bog'liq. Bu davr xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapital harakati jo'shqinligining kuchayishi, ilmiy-texnik rivojlanish umumbashariy xarakterga ega bo'lganligi, milliy iqtisodiyotning ochiqligi va erkin savdo darajasi ortishi bilan izohlanadi. Integratsiya (integratio) so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, ma'lum bir qismlarning umumlashishi, yagona bir shaklga kelishi va birlashishini anglatadi. Mintaqalar doirasida ayrim mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro yaqinlashib, bir-birini to'ldirishi hamda baynalminalashuv jarayonida yagona bir ishlab chiqarish va boshqarish tizimida faoliyat yuritishi mintaqaviy integratsiya deb ataladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mehnat taqsimoti asosida ma'lum bir davlatlar xo'jaliklarining birlashishi hamda o'zaro aloqalarining samarali rivojlanishi oqibatida milliy iqtisodiyotlarga turli shakl va darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo'jalik munosabatlari baynalminalashuvining yangi va shu bilan birga murakkab bosqichi bo'lib, jahon iqtisodiyotining yuqori, samarali va kelajakka yo'naltirilgan rivojlanish nuqtasi hisoblanadi. Bunda faqatgina milliy xo'jaliklar birlashibgina qolmasdan, balki iqtisodiy muammolarning yechimi hamkorlikda hal etilishi ta'minlanadi. Shu o'rinda aytish joizki, iqtisodiy integratsiya mamlakatlarni birgalikda faoliyat yuritishga

yetaklovchi jarayon sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- turli mamlakatlarning milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik hamda ularning to'liq yoki qisman umumiylashuvi;
- mamlakatlar o'rtasida tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi harakatidagi to'siqlarning qisman yoki to'liq bartaraf etilishi;
- yagona bozor yaratish maqsadida ma'lum bir davlatlar bozorlarining bosqichma-bosqich birlashuvi;
- turli mamlakatlarga taalluqli bo'lgan xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi farqlarning birin-ketin bartaraf etilishi;
- har bir hamkor davlatda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi chet el sub'ektlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.
- Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama, bir nechta mamlakatlar va hududlararo bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonda integratsion birlashmalarining asosiy masalalaridan biri ularning hududiy darajada rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bu masalada odatda davlatlararo boshqaruv tizimi joriy etilib, yakka umumiy mintaqaviy xo'jalik majmui tashkil etiladi. Hozirgi bosqichda xalqaro aloqalar tizimining barcha jabhalarida izchil o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Uning aksariyati globallashuv jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir.
- **Baynalminalashuv jarayonlarining rivojlanish bosqichlari 1.1-rasmda aks ettirilgan. Globallashuv baynalminalashuvning eng yuqori bosqichi bo'lib, shu nuqtai nazardan bu faqatgina inson va tovarlar harakatining kuchayishigina emas,**

balki ko'p jihatdan bilimlar va ma'lumotlar almashuviga asoslanadi.

1.1-rasm. Xo'jalik faoliyatining baynalminalashuv bosqichlari



Globallashuvga atroflicha ta'rif berilganda, aholning erkin migratsiyasi, tovar va xizmatlar, texnologiya va ma'lumotlarning milliy chegaralardan to'siqsiz erkin o'tishi, xorijiy investitsiyalar hajmining kengayishi, hududiy va ixtisoslashgan bozorlarning o'zaro integratsiyalashuvi, ekologik, demografik muammolarning umumbashariy masalaga aylanganligi tushuniladi.

Aksariyat ekspertlar fikriga ko'ra, hech bir jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa soha yoki harakatlarni globallashuvdan tashqarida, atroflicha ko'rib

chiqib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jahon iqtisodiyotining globallasuvi jamiyat hayoti hamda faoliyatidagi turli soha va jabhalarni bir-biriga ta'sir etishi hamda bog'liq bo'lib qolishining kuchayotganini anglatadi.

Globallasuv – bu iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi jamiyat taraqqiyotining murakkab bosqichi hisoblanadi. Globallasuv o'zining boshlang'ich bosqichidanoq barqaror rivojlanishga yangi tahdidlarni vujudga keltirdi. Ular bir qarashda G'arbiy davlatlardan boshqa barcha mamlakatlarga taalluqli bo'lib ko'rinadi, aslida bu chaqiriq yer yuzidagi aksariyat insoniyatga tegishli. Bu esa jahonda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalar hamda jahon tizimini barqarorlashtirish bo'yicha olib borilayotgan harakatlarda hamma davlatlarning mas'uliyatini oshirishga da'vat etadi.

Globallasuv jahon xo'jaligida barcha hudud va sohalarni o'z ichiga qamrab olib, milliy xo'jaliklar rivojlanishidagi tashqi va ichki omillar muvozanatini birinchisining foydasiga hal etadi. Bugungi kunda ishlab chiqarish omillariga, asosan texnologiya va kapitalga doimiy talab mavjudligidan kelib chiqqan holda, hech qanday mamlakat o'z milliy iqtisodining hajmi (yirik, o'rta, kichik) va rivojlanganlik darajasidan (rivojlangan, rivojlanayotgan yoki o'tish davridagi) qat'iy nazar o'zini-o'zi to'liq yoki yetarlicha ta'minlay oladi, deb ta'kidlab bo'lmaydi. Jahon xo'jaligi tizimidagi asosiy ishtirokchilarning hattiharakati va olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini hisobga olmasdan, hech bir

mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish strategiyasini maqsadli shakllantirib, samarali amalga oshira olmaydi.

Globallasuv tushunchasi ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda uchraydi. Lekin hech birida ushbu terminga aniq va to'liq ta'rif berilmagan. Maxsus adabiyotlarda mualliflar ushbu tushunchani turlicha talqin qiladilar. Masalan, AQShdagi Kaliforniya universiteti sotsiologi, professor M. Kastels globallasuvni «yangi kapitalistik iqtisodiyot» deb ta'riflab, uning quyidagi asosiy ko'rinishlariga e'tibor qaratgan: informatsiya (ma'lumot), bilim va informatsion texnologiya ishlab chiqarish darajasi hamda raqobat o'sishining asosiy manbai sifatida³.

Ayrim tadqiqotchilar globallasuvni oddiy jarayon ko'rinishida, tor ma'noda tasavvur qilishmoqda: dunyo bo'yicha iste'molchilar xohishlari yaqinlashganligi va taklif etilayotgan mahsulot turlarini umumiylashganligi sababli jahon mahsulotlari milliy mahsulotlarni bozordan siqib chiqarmoqda⁴.

Mazkur kurs doirasida biz, jahon iqtisodiyotining globallasuvi deb, turli mintaqa, mamlakat tarmoq va sohalarda kechayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqlik darajasining kuchayishi tufayli bosqichma-bosqich jahon xo'jaligining yagona tovar, xizmatlar, kapital, ish kuchi, ma'lumot va bilimlar bozoriga aylanib borayotganligini tushunamiz.

Globallasuv jarayoni jahon iqtisodiyotidagi turli jabhalarni qamrab olmoqda, ya'ni:

³ Postindustrial dunyo va globallasuv jarayoni. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. M. 2000 №3 - 91 b.

⁴ Р. Кох Менеджмент и финансы от А до Я - СПб «Питер» 1999 г. - С 65

- tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual (aqliy) mulk ob'ektlarining milliy, xalqaro va jahon savdoal;
- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati (tabiiy resurslar ishchi kuchi, kapital va texnologiyalar);
- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalar ko'lamining kengayishi (beg'araz moliyalashtirish va yordam, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlariga kredit va zayomlar, qimmatbaho qog'ozlar savdoal, maxsus moliya mexanizmi va vositalari);
- ishlab-chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va informatsion hamkorlikning chuqurlashuvi;
- o'zaro tovar almashuvidan ishlab chiqarish baynalminallashuviga o'tilishi ya'ni bir nechta mamlakatlarning ishlab chiqaruvchilari ma'lum bir tayyor mahsulot yaratishda turli shakl va bosqichda ishtirok etishlari va pirovard natijada ishlab chiqarish baynalminallashuvining institutsional shakli sifatida transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi;
- kapital baynalminallashuvi ya'ni mamlakatlar o'rtasida xalqaro kapital harakatining jadallashuvi (bevosita xorijiy investitsiya larning tashqi savdo va ishlab chiqarishga nisbatan tez sur'atlar bilan oshib borayotganligi), fond bozori rivojlanish darajasining o'sishi;
- xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya doirasida texnologik bilimlar, ilmiy-texnika va ishlab chiqarish vositalari almashuvining kuchayishi;
- xalqaro hamkorlikni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi global moddiy, informatsiyaviy, tashkiliy-iqtisodiy infrazuzilmani yaratish;
- xalqaro savdo tizimidagi an'anaviy odatlarni sifat va ko'lam jihatdan o'zgartirish va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi asosida tovar almashuvining baynalminallashish darajasini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikning eng asosiy yo'nallishi sifatida moddiy ishlab chiqarishga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan xizmatlar sohasini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining atrof muhitga ta'sirining kuchayishi va mazkur yo'nallishda xalqaro hamkorlikning kengayishi;
- va nihoyat, ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi ko'lamining haddan ziyod kengayishi. Rivojlanayotgan mamlakatlardan oqib kelayotgan ishchilar rivojlangan mamlakatlarda past yoki umuman malaka talab etmaydigan ishlarga jalb etilmoqdalar. Shu bilan birga yuqori malaka talab etmaydigan, kam ish haqi to'lanadigan ish o'rinlarini to'ldirish uchun xorijiy ish kuchidan foydalanayotgan mamlakatlar immigratsiya miqdorini kerakli darajada ushlab turishga harakat qilmoqdalar. Hozirgi kunda telekommunikatsiya texnologiyalari sohasining rivojlanishi immigratsiya jarayonlariga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Masalan biron bir Yevropa, Shimoliy Amerika yoki Yaponiya kompaniyasi osonlik bilan dunyoning istalgan mamlakatidagi komp-

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

yuter mutaxassisiga ma'lum bir dastur yaratish yuzasidan o'z joyidan turib topshiriq bera olishi mumkin.

Globallasuv va integratsiyalashuv - bu murakkab jarayon bo'lib, quyidagi darajalarda kuzatilmoqda:

- *mintaqalar, mamlakatlar (makrodarajada);*
- *tovar, kapital, mehnat va valyuta bozorlari (mezodarajada);*
- *ma'lum kompaniya va korporatsiyalar (mikrodarajada).*

Mamlakatlar va mintaqaviy integratsion birlashmalar savdoni erkinlashtirish, investitsion va migratsion cheklovlarni olib tashlash hamda erkin savdo yoki umumiy bozor hududini barpo etish hisobiga o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faollikka intilishlari globallasuvning makroiqtisodiy darajasida ko'zga tashlanmoqda.

Kompaniyalar o'z faoliyatini kengaytirgan holda, ichki bozordan tashqariga yo'nalganligi orqali globallasuv mikroiktisodiy darajada namoyon bo'lmoqda. Aksariyat yirik transmilliy korporatsiyalar hozirgi davrda global sharoitda faoliyat yuritmoqdalar. Ular har qanday chegara va milliylikdan qat'iy nazar, har doim iste'molchilarning talabini qondirishga intiladilar. Shu tufayli ular iste'molchilar talabi yuqori bo'lgan barcha bozorlarni egallab olmoqdalar.

Globallasuv sharoitida kompaniyalar xalqaro darajadagi iste'molchilar, texnologiyalar, xarajatlar, strategik raqobatlar haqida bosh qotiradilar. Ular o'zlarining maqsad va rejaları doirasida ishlab chiqarish va sotuv bo'linmalarini turli mamlakatlarga joylashtirib, global sharoitda vaziyatni o'zlari uchun yengillashtirmoqchi bo'ladilar. Transmilliy kompaniyalar va firmalarni tashkil etish va

rivojlantirish esa turli hildagi to'siqlarni yengib o'tishga imkoniyat yaratadi (ya'ni, transfer narxlar, qayta ishlab chiqarishga qulay sharoit, milliy bozor muhitini yaxshi o'rganish, qo'shimcha daromad va boshqalar hisobiga).

Hozirgi davrning dolzarb masalasi erkin va samarali tadbirkorlik faoliyatini olib borish, global tovar va xizmatlar, kapital, ishchi kuchi bozori ishtirokchisiga aylanish, mamlakatlarni yagona jahon iqtisodiy xo'jaligi majmuiga birlashtirish uchun umumbashariy iqtisodiy, huquqiy, informatsionva madaniy muhitni yaratishdan iborat.

Bu vaziyatda, globallasuv jarayonining asosiy sub'ektlari sifatida transmilliy korporatsiyalar ichki xo'jalik faoliyatiga nisbatan o'zlarining tashqi iqtisodiy faoliyatlariga alohida e'tibor qaratib va globallasuvning moddiy asosi va harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqdalar.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda xo'jalik muhitining xilma-xilligi globallasuv jarayonlarining yanada avj olishiga to'sqinlik qilayotgan omillardan biridir.

Kapital aylanmasining intensivlashuvi va savdo tizimining umumiylashuvi yagona iqtisodiy xo'jalik muhitini vujudga keltiradi. Xalqaro iqtisodiy tizimini tashkil etuvchi 200 dan ortiq mamlakatlar milliy xo'jaliklarining har biri o'ziga xos xususiyatiga egaligi tufayli jahon yalpi ichki mahsuloti rivojlanish ko'rsatkichlari barqaror emas.

Texnologiyalar bilan ta'minlanganligi nuqtai nazaridan, mamlakatlar orasidagi farq oshib borayotganligi sababli jahon iqtisodiy muhiti xilma-xilligicha qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalarining 4-5-avlodi qo'llanilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2-3-

aviodi, qoloq yoki o'tish davridagi mamlakatlarda esa sanoatlashuv davrining boshidagi texnologiyalardan foydalanilmoqda. Asosan rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyalarga egaligi sababli ilm talab tovar va xizmatlarni past va o'rta darajada rivojlangan mamlakatlarga eksport qilib, katta foyda olmoqdalar.

Globallashuvning zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi asosiy ziddiyati jihati belgisi integratsiya va avtonomizatsiya jarayonlarning uyg'unlashuvidir⁵. «Neysbitt paradoksi» muallifi fikriga ko'ra, ushbu jarayon bir tomondan siyosiy mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish, ikkinchi tomondan iqtisodiy uyushma va birlashmalar tashkili etilishiga olib kelmoqda⁶.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jamiyat qanchalik boy va baquvvat bo'lsa, shunchalik uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi, qanchalik resurslar oqilona va maqsadli ishlatilsa, shunchalik integratsion aloqalarning imkoniyatlaridan foydalanish va global bozor sharoitiga moslashuv darajasi yuqori bo'ladi.

Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri

Jahon xo'jaligi zamonaviy globallashuvining asosiy xususiyatlaridan biri kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakatida inson intellektual qobiliyatidan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon

bo'ladi. Ushbu omil ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globallashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bo'lib, shu bilan birga iqtisodiy siyosat yuritganda, uning e'tiborga olinmasligi salbiy oqibatlarga olib keluvchi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xalqaro kapital migratsiyasi. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar taraqqiyoti natijasida bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallar xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy resurslar xalqaro oqimining o'sish sur'atlari xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining jadallashib borayotgani diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikning diversifikatsiyasiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foiz stavkalari darajalari yuqori bo'lib, bu investorlarning o'z kapitalarini yuqoriroq foyda miqdorini ta'minlovchi hududlarga yo'naltirishiga turtki bo'ladi.

Malumki, o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy xo'jalik tizimini takomil-

⁵ Н. Иванов Глобализация ва проблемы оптимальной стратегии развития (Мировая экономика и международные отношения) М. 2000 й. №2 - 15 с.

⁶ Neisbitt Global Paradox N. Y. . 1994 p. 11.

lashtirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuviga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj baland. Bir vaqtning o'zida, mazkur guruhga kiruvchi aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq o'xshash muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahon kapital bozoriga chuqur integratsiyalashuv ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiyotni isloh qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda investitsiyalarni keng jalb qilish orqali jahon moliya bozorlari afzalliklaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Investitsiya jalb qilish natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish kapitalning qaysi shaklda kirib kelishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalaga shu nuqtai nazardan yondoshilganda, odatda bevosita xorijiy investitsiya laming yuqori darajadagi afzalliklarga ega ekanligi etirof etiladi. Bevosita xorijiy investitsiyalar ko'rinishidagi xalqaro kapital harakatida ishtirok etish ustuvorligini belgilovchi omillardan biri – bu transmilliy kompaniyalarning intellektual mulki bo'lmish ilg'or texnologiyalarning jahon bozorida to'g'ridan-to'g'ri sotilmasligi bo'lib, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari bunday imkoniyatga faqatgina bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqaligina ega bo'lishlari mumkin. Bu jihatdan bevosita xorijiy investitsiyalarning o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun afzal xususiyatlari: hamkor transmilliy kompaniyalarning mavqei, ularning xomashyo yetkazib

beruvchilar bilan aloqasi, tayyor mahsulot sotuv kanallari, jahon bozori doirasida marketning tadqiqotlari, boshqaruv malakasi va ishlab chiqarish sirlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash dasturlaridan iborat bo'lib, bu va boshqa omillardan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyot samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasining oshishiga olib kelmoqda. Mamlakatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining tashkil etilishi erkin raqobat muhitini yaratish orqali tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish tannaxsini pasaytirish va avvallari bozorning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan monopollashtirilgan tarmoqlarida tovar va xizmatlar sifat standartlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Tovar va xizmatlar erkin savdosi globallashuvning muhim jihatidir. Ma'lumki, milliy iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlarda ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qo'shimcha manbai bo'lib hisoblanadi. Fan-texnika yutuqlaridan foydalanish natijalari xalqaro savdo orqali boshqa mamlakatlarga bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri tarqaladi. To'g'ridan-to'g'ri tarqalish fan-texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilganida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilganida sodir bo'ladi. Bilvosita tarqalish yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshganida va tovarlar sifatining yaxshilanganida ro'y beradi.

Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo'lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga

yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini vujudga keltirib, tovar tannaxining pasayishini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchi mahsulotlarning raqobat mavjud jahon bozorida ta'minlashi, ahamiyatli tovar va xizmatlar sifatining oshishi va tannarx pasayishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Globallasuv jarayonlari tasirida raqobat kuchayib, mehnat resurslarining ma'lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-texnik ustuvorlik hamda sifatli infratuzilmaga talab oshadi. Faqatgina ishlab chiqarish omillari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o'z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Globallasuv narx-navo va iste'mol tovarlari sifati unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Iqtisodiy yopiqlik, proteksionizm, qolaversa jahon bozorlari global raqobatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etmasligi resurslarning optimal taqsimlanishi va foydalanilishiga to'sqinlik qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Globallasuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. U izlanish va tadqiqotlar, ta'lim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo'shma loyihalar va xorijda tajriba almashinishning jadallasuvi natijasida o'zini

milliy iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik sub'ektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, ular boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga xos qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo'lmoqdalar.

Globallasuv jarayonlari jahon xo'jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi va undan qayta ta'sirlanadi. Bozorning turli ishtirokchilari o'z manfaatlarini yo'lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o'zgarib turishi sababli, jahon xo'jaligi subektlarining bir-biriga bog'liqlik darajasi oshib bormoqda. G.Fisherning ta'kidlashicha, jahon xo'jaligida global o'zgarishlar tarqalishining o'ziga xos mexanizmi mavjud. Bunga "Buyuk turg'unlik davri" misol bo'lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'pincha zanjirsimon shaklda tarqalgan: bozorning torayishi, kapitalning boy berilishi – talabning qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish – davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojhona to'siqlarining o'rnatilishi – xalqaro savdo hajmining kamayishi savdo-sotiq bo'yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi va xokazo.

⁷ Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы.

Автореферат докторской диссертации. –М., 2000. – 12 с.

Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari ko'pchilik mamlakatlarda tarqalgan biznes yuritish tamoyillarini qayta shakllantirmoqdalar. Ular faoliyat maydonida go'yoki o'zlarining tashkiliy va texnik to'rlarini yoyib tashlamoqdalar. Bu kabi korporativ to'rlar bilan birgalikda diasporaviy, diniy, mafiozli va megapolisli to'riar ham shakllanagan bo'lib, ular tovar va pul oqimi bilan hamohang ravishda transmilliylashuv va bog'liqlik darajasining yanada kuchayishiga olib kelmoqdalar. Mahalliy hukumatlarning xalqaro miqyosida amalga oshiradigan vazifalari o'zgarimoqda. Nodavlat birlashmalarining xalqaro munosabatlarga shiddat bilan kirib kelishi davlatlar xukumatlarining xalqaro miqyosdagi yakka hokimligiga to'sqinlik qilib, siyosiy hokimiyatni iqtisodiyotdan tortib to diniy va madaniy masalalargacha jamiyat fikri bilan murosqa qilishga majbur qilmoqda.⁸

Globalashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo'lishi shubhasiz, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga tegishli iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etmoqda. Bu vaziyatda milliy iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimalashtirish, balki ushbu holatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir.

Albatta, aksariyat rivojlangan mamlakatlar ham globalashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodi-

yotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqdalar. Globalashuv sharoitida amalga oshiriladigan chora - tadbirlarining bozor tamoyillariga qat'iy amal qilishi muhim ahamiyatga egadir.

Xususiyashtirish Globalashuv sharoitida xususiyashtirish va unga xos mulkchilikning milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishdagi o'rnini tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z daromadini maksimalashtirishdan manfaatdor mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish, tovarlar sifatini oshirish, mahsulot tannaxrini pasaytirish hamda xorijiy investitsiya larni jalb etishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.⁹

Barqaror iqtisodiy muhitda xususiyl mulkchilik iste'molchilar talabiga munosib javob beradi, raqobatbardoshlik ustuvorliklariga faol ta'sir o'tkazadi, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga sababchi bo'ladi, iqtisodiy o'sish sur'atlariga hamohang faoliyat olib boradi hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi. Xususiyl korxonalar rahbari har qanday sharoitda faoliyat bilan bog'liq mas'uliyatni to'la qonli ravishda o'z zimmasiga oladi. Korxonaning yuqori daromadli faoliyat yuritishidan birinchi o'rinda manfaatdor hisoblangan rahbar ichki imkoniyatlarni to'g'ri baholash, strategiyani aniq belgilash, kutilishi mumkin bo'lgan xavfni puxta anglab yetish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda taraqqiyot yo'nalishi korxonalar

⁸ Игорь Пугач «Экономическое Обозрение» декабрь, 1998 год.

⁹ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год.

salohiyatini to'liq anglab yetish imkoniyatiga ega bo'lmagan yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki bevosita mutasaddi rahbar tomonidan belgilanadi.

Resurslarning mutanosib ravishda taqsimlanishi, ishlab chiqarish vositalaridan eng samarali va tejamkor holda foydalanilishi xususiy mulkchilikka xos xususiyatlardandir.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to'siq bo'lib hisoblangan muammo, bu – moliyaviy tizimga ishonchsizlik oqibatida fond bozorining to'la qonli ravishda shakllanmay qolishi, korxonalar rentabellik darajasining pastligi va qimmatli qog'oz egalarida haqiqiy mulkchilik hissining yo'qligidir. Makrodarajadagi moliyaviy barqarorlik (byudjet tanqisligining qisqarishi, foiz stavkalari real qiymatining ijobiy o'zgarishi, inflyatsiya darajasining pasayishi), ishlab chiqarish likvidlik darajasining oshishi, sohalarda tarkibiy jihatdan qayta tashkilashtirish natijasida korxonalar moliyaviy axvolining yaxshilanishi hamda investitsiyalar samaradorlik darajasining o'sishi ko'p jihatdan investision faollikning oshishi va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi.¹⁰

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakat xo'jaligining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi darajasini oshirish jarayonida ichki imkoniyatlarning cheklanganligi hamda tashqi qarzni idora etib bo'ladigan darajadagi me'yorini ta'minlash sanoat siyosatini olib borishda mavjud

resurslardan oqilona va samarali tarzda foydalanishni taqozo etmoqda. Tashqi savdoni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy qiyinchilikka uchragan barcha sohalarda uchun subsidiyalar ajratish davlat byudjeti uchun mushkul hisoblanadi. Shu sababli qaysi tarmoqlar raqobatda yutib chiqa oladi, qaysi tarmoqlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi kerak va qaysi tarmoq ishchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan kifoyalanib qolish kerakligi chuqur tahlil qilinmog'i lozim. Bundan tashqari global raqobat va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sharoitiga milliy iqtisodiyotning moslashuvi natijasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlar mavjud tizimni qayta shakllantirishga turtki bo'lishi hamda davlatning hal qiluvchi loyihalarga homiylik qilishini taqozo etishi mumkin. Umuman olganda, xususiy tadbirkorlikka davlat aralashuvini imkon qadar qisqartirish zarur. Globallashtirish sharoitida davlat faol mulkdorlik hissidan voz kechib, samarali iqtisodiy siyosat olib borishi va islohotlarning huquqiy asosini ta'minlab berishi kerak.

Monetar siyosat Globallashtirishning zamonaviy bosqichida monetar siyosat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim o'rin egallaydi. Oqilona monetar siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni, bank tizimiga ishonch oshirishini, moliya bozorlarining kengayishi va mustahkamlanishini, qulay investitsiyaviy muhit vujudga kelishini va mamlakatga xorijiy investitsiya larning keng qamrovli kirib kelishini ta'minlaydi. Shubhasiz, bu chora-tadbirlar

¹⁰ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год.

majmuasi iqtisodiy qayta qurish jarayonlarini tezlashtirib, milliy xo'jalik tizimining raqobatbardoshlik darajasini oshiradi va pirovard natijada mamlakatning globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etishi evaziga yutuqqa erishishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida barqaror pul bozorining shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u markaziy bankning maqbul hamda har tomonlama ishonchli va samarali pul-kredit siyosatini olib borishni ta'minlaydi.¹¹ Banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalar va olib borilayotgan valyuta siyosati ko'p tomonlama iqtisodiy rivojlanishni belgilab beradi. Masalan, foiz stavkasining haddan tashqari ko'tarilib ketishi bank daromadlarining kamayishi va uning natijasida kredit operatsiyalari miqdorining qisqarishiga olib keladi. Valyuta kursini boshqarish natijasida monetar siyosatda qattiq shartlarning vujudga kelishi ichki aktivlar narxlarining bir xil holatini ta'minlansa, shu vaqtning o'zida kelajakda valyuta kursining pasayishi milliy iqtisodiyot uchun xavfli hisoblangan tashqi qarzning oshishiga sabab bo'ladi.

Moliyaviy sektorni isloh qilish. Rivojlangan va ma'lum muvozanatga ega moliyaviy tizim globallashuv sharoitida iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan qayta qurilishi va milliy xo'jalik raqobatbardoshlik darajasining oshishida iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi, jamg'arishning samarali tarzda investitsiya ga aylantirilishini ta'minlaydi.

Mamlakat moliyaviy tizimining erkinlashtirilishi natijasida belgilangan maqsadlarga erishish bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ular sirasiga makroiqtisodiy va institutsional islohot o'tkazish hamda umumiy barqarorlikni ta'minlash kiradi. Shu bilan birga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham islohot o'tkazmay turib, moliyaviy tizimni erkinlashtirib bo'lmaydi. Aks holda maqsadga muvofiq bo'lmagan kapital harakati, foiz stavkalarining oshib ketishi hamda moliyaviy korporatsiyalarning qisqa vaqt ichida tushkun ahvolga tushib qolishiga olib keluvchi jarayonlar avj olishi mumkin.

Globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy siyosatga bog'liq. Erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini har qancha ishga solsa, global raqobat uning vazifasi nechog'liq murakkab ekanligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda tashqi va ichki o'zgarish-larga mos valyuta siyosatini yuritish ma'qul sanaladi. Marshal-Lerner teoremasiga ko'ra eksport-import va tashqi qarzga xizmat ko'rsatishda valyuta kursining munosib ravishda optimal tanlanishi mamlakat milliy manfaatlariga mos keladi. Globallashuv sharoitida jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir mamlakat va mintaqalardagi moliyaviy vaziyatni dolmiy tarzda o'rganib turish mamlakat moliyaviy tizimiga mas'ul rahbarlarning eng muhim vazifalaridan biridir. Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayonlari to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan banklar va

¹¹ Георг Фишер, «Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы», М. 2000 год.

korxonalarda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyotda huquqiy va raqobatbardosh muhit yaratish hamda mazkur masalalar yechimini ta'minlovchi boshqaruv va nazorat tizimini joriy etish bilan birgalikda olib borilishi iqtisodiy islohotlarning ko'zlangan maqsadlarga erishishini kafolatlaydi.

Mamlakatda bir necha valyuta ayirboshlash kurslarining mavjudligi monetar siyosat olib borishda o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi, eksport va import operatsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi. Har xil valyuta kurslari, shuningdek, iqtisodiy agentlarga «yolg'on» ma'lumot berib, ishlab chiqarish resurslarining samarasiz ravishda taqsimlanishiga olib keladi. Masalan, bu holat mamlakat uchun norentabel deb topilgan import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning oshishiga turtki bo'lishi mumkin. Valyuta kursini unifikatsiyalashtirish tashqi savdo siyosatida muhim ahamiyatga ega, chunki milliy valyutaning devalvatsiyasi eksport hajmini sun'iy ravishda oshiradi, shuningdek, import imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, milliy valyuta ayirboshlash kursining oshib ketishi eksport mahsulotlarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etadi va eksport hajmining qisqarishiga olib keladi. O'z navbatida bu o'zgarishlar mamlakat tashqi savdo aylanmasining salbiy balansiga olib keladi.

Fiskal siyosat. Globallasuv sharoitida yuqori soliq to'lovlari nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi, daromadlarning yashirilishi va noqonuniy iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi, ishlab

chiqarish va eksport tarkibi diversifikatsiyalashuvi jarayonini susaytiradi, balki kapital va malakali ishchi kuchining keng miqyosda chetga chiqib ketishiga ham olib keladi. Ushbu muammolarning ijobiy hal qilinishi fiskal siyosat olib borishning qay darajada maqbul ekanligiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, soliq tizimi to'lov va imtiyozlar yordamida siyosat olib borish yo'li bilan iqtisodiy taraqqiyot omiliga aylanishi mumkin.

Erkin raqobat muhiti va huquqiy asoslangan xo'jalik tizimini yaratish uchun soliq yuki va undagi imtiyozlar turli tarmoq va sohalarga nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishi lozim. Buning uchun sohalarda solishtirma tahlil olib borilib, ularning qay birida soliq to'lovi oshirilishi evaziga boshqa sohalarga imtiyoz berilishi samarali ekanligi aniqlanadi.

Shu tarzda globallasuv jarayonlarining mamlakat iqtisodiyotiga o'tkazayotgan ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda soliq tizimi fiskal siyosat vazifasigina emas, balki rag'batlantiruvchi omil sifatida to'lovlarning pasaytirilishi va soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining oshib borishiga xizmat qilishi kerak bo'ladi.

Investitsiya siyosati. Globallasuv sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyasiga erishish orqali mamlakatning jahon xomashyo bozori noabarqaror kon'yunkturasiga bog'liqlik darajasini pasaytirish va aholi daromadlari oshishini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida faol investitsiya siyosati hamda investorlar uchun qulay muhitni yaratish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Jamg'arish va investitsiyaning maqbul me'yori milliy iqtisodiyotning uzoq kelajakdagi raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil bo'lib borayotganligi sababli ularning o'rnini va ahamiyatini aniqlash o'ta muhimdir. Qolaversa, investitsiya siyosati iqtisodiy siyosatning boshqa turlari qatorida eng murakkablaridan biri bo'lib, uni amalga oshirish butunlay mamlakat ixtiyorida mavjud resurslar va ularning sifatiga bog'liq.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarda investitsiyalarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, unga iqtisodiy taraqqiyotning mezon sifatida qaraladi. Investitsiya siyosati asosan mamlakat qiyosiy afzalliklarga ega yoki ustuvorlikka erishishi mumkin bo'lgan tarmoq va sohalarga resurslarning yetib borishini ta'minlashi, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilishi zarur. Shuningdek, jamg'armani rag'batlantiruvchi qulay investitsiyaviy muhit yaratish hamda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-

tadbirlar ishlab chiqilishi kerakki, bu o'z navbatida iqtisodiyotning turli sohalarida – soliq-byudjet, pul-kredit va tashqi iqtisodiy faoliyatda majmuaviy dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Tashqi savdo siyosati. Globallashuv jarayonlarining mamlakat tashqi savdosi shart-sharoitlariga, rivojlanish istiqbollariга ko'rsatadigan ijobiy ta'sirlarini maksimalishtirish va uning tahdidlarini minimalishtirishda milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham amalga oshiriladigan majmuaviy islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, valyuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalari rag'batlantirilsa, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish mumkin. Mamlakatda oqilona sanoat siyosatining olib borilishi esa strategik muhim eksport tovarlarining jahon bozori konyuktural o'zgarishlariga bog'liqlik darajasini bir qadar kamaytirishga olib kelishi mumkin.

II bob. Globallashuv va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlar xususiyatlari

Globallashuv jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu sharoitdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanish tendensiyalarining quyidagi jihatlari ko'rib chiqish mumkin.

Ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va texnologik nuqtai nazaridan globallashuv natijasida yangi yuqori texnologik ishlab chiqarish usuliga o'tilishi va yangi texnologiyalarning tez va keng tarqalishi orqali ishlab chiqarish ko'lamining keskin kengayishi, yuz beradi ya'ni tovar, xizmat va kapital harakati oldidagi to'siqlar imkon qadar bartaraf etiladi.

Transport va aloqa tizimi sifatining keskin yaxshilanishi, tovar va xizmatlarning tez tarqalishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda ma'lumot almashinuvi deyarli bir zumda amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy imkoniyat va shartnomalar haqidagi ma'lumotlar jahon uzra tezlik bilan uzatilmoqda. Eksport va import tovarlarini bir joydan ikkinchi joyga yetkazib berish uchun esa bir necha kun yoki haftalar talab etiladi xolos. Agar yer kurrasining bir bozorida o'zgarish sodir bo'lsa, bir-ikki daqiqada u dunyoning boshqa joylarida ma'lum bo'ladi. Bu asosan fond birjalari, valyuta va tovar bozorlari, shuningdek ilmiy yangiliklar va ularni hayotga tatbiq etilishi voqeliklariga xos bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, hozirgi davrda bir biridan uzoqda

bo'lgan hamkorlar uchun masofa jiddiy muammo emasligini ta'kidlash joiz.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi tufayli transport va telekommunikatsiya chiqimlari qisqardi, qayta ishlash, saqlash va ma'lumotlardan foydalanish xarajatlari sezilarli darajada pasaydi. Bu esa milliy bozorlarning global integratsiyalashuviga yengillik yaratadi. Misol uchun, London va Nyu-York o'rtasidagi uch daqiqalik telefon suhbatini 300 dollardan (1930 yil) 1 dollarga (1998 yil) tushganligi yoki bir birlik ma'lumotni kompyuterda qayta ishlash qiymati 20 yil davomida (1975 yildan 1995 yilgacha) har yili 30 %ga kamayib borganligi o'tgan asr oxirlarida e'tirof etilgan edi. Globallashuv jarayonlarining institutsional jihatlari kelsak, ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini yuritishning xalqaro miqyosdagi tashkiliy shakli bo'lgan transmilliy korporatsiyalar (TMK) o'z faoliyatlarini asosan bir davlatning chegarasidan tashqariga chiqqan holda olib boradilar va xalqaro iqtisodiy – moliyaviy aloqalari orqali yagona bozor muhitini yaratadilar.

Bundan tashqari davlatlararo va nodavlat tashkilotlarning xalqaro darajaga chiqishi natijasida BMT, XVF, Jahon savdo tashkiloti, Butunjahon banki kabi xalqaro tuzilmalarning global ahamiyati bir qadar oshdi hamda ko'p millatli kompaniya va integratsion birlashmalar global iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilariga aylandilar.

Globallashuv natijasida jahon xo'jaligining iqtisodiy liberallashtirish darajasi ham oshib bormoqda. Natijada tovar va xizmatlar savdosi, kapital bozori va boshqa iqtisodiy munosabatlar erkinlashtirilib, proteksionizm siyosati ko'tami ancha qisqartirildi. Endilikda jahon savdo tizimi yanada takomillashtirilib, erkin muhit yaratish borasida faol harakatlar olib borilmoqda.

Globallashuv jarayonlarining tashkiliy jihatlaridan yana biri moliyaviy-iqtisodiy resurslarning tez suratlarda o'sishi, kapital harakatining baynalminallashuvi, valyutalararo shartnomalar amalga oshirish muddatining qisqarishidir. Bundan tashqari xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ishtirokchi davlatlarga yagona makroiqtisodiy siyosat mezonlarining tatbiq etilishi, soliq, hududiy, agrar, antimonopol va bandlik siyosatiga bo'lgan talablarning yagonalashuvi sodir bo'lmoqda. Unifikatsiya va standartlashtirish jarayonlarining kuchayishi natijasida barcha mamlakatlar uchun texnologiya, ekologiya, moliya tashkilotlarining faoliyatiga, buxgalteriya, va statistik hisobotlarga yagona talablar qo'yilmoqda. Maorif va madaniyat sohasiga ham bu kabi talablar joriy etilmoqda.

Transport-aloqa uslubi va ishlab chiqarish, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy ma'lumotlar almashuvining tezlashuvi, ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash tizimida yangi texnologiyalarning vujudga kelishi hamda rivojlanishi natijasida moliya, nou-hau, malakali xizmat va tovarlar bozorlarini o'zida birlashtirgan global tarmoq yuzaga kelishiga imkon yaratildi. Internet va elektron pochta yaratilishi axborot-telekom-munikatsiyalari xizmatiga yetarli qulayliklar yaratdi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, turli mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarish ob'ektlarini markazlashgan holda boshqarish va turli muammolarni yechish imkonini beruvchi va qisqa muddatda ma'lumot almashuvini ta'minlovchi tizimning tashkil topishi, menejment va marketing, moliyaviy va investitsiyaviy vositalarni boshqarish sohasidagi inqilob bo'lib, yangi savdo-sotiq (elektron savdo) majmuasini yuzaga keltirdi. Elektron va plastik kartochkalar, uyali aloqalar tizimlarining kompyuterlashtirilishi moliyaviy ma'lumotlarni olish, shartnomalar tuzish, va mamlakatlararo joylashuvidan qat'iy nazar hisob-kitoblarni bir zumda amalga oshirish imkoniyatini bermoqda.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining siyosiy jihatlariga aholi, tovar, xizmatlar va kapitalni davlat chegaralaridan o'tish jarayonining erkinlashtirilishi hamda «sovuq» urushning barham topganligi, Sharq va G'arb orasidagi kelishmovchiliklarning bir qadar hal etilganligini kiritish mumkin.

Ijtimoiy va madaniy sohalarda globallashuv natijasida milliy urf-odatlar va an'analar ahamiyatining susayishi, xalqaro migratsiyaning kuchayishi sodir bo'ldi. Erkin savdo tizimi va bozor iqtisodiyotini ta'riflashda global yagona fikrning vujudga kelishi bu borada g'arb va sharq yo'nalishidagi tafovutlarning barham topishi bilan birga ularning o'rniga umumbashariy bozor xo'jalik tizimi haqida yagona qarashlar o'rnatilishiga olib keldi. Ta'lim, san'at, madaniyat va ommaviy axborot vositalari globallashgan birlamchi qatlamning shakllanishi, asosiy muloqot vositaiga aylanib borayotgan ingliz tili orqali ijtimoiy, madaniy, siyosiy va o'zaro aloqalarning yo'lga qo'yilishi

xalqaro munosabatlar tizimi uchun yengillik yaratmoqda.

Masofali ta'lim tizimining rivojlanishi bilan ta'lim sohasida chegaralar yengib o'tildi. Malakali mehnat resurslari tayyorlovini erkinlashtirish «inson kapitali»ning qayta ishlovida davlat nazoratining kamayishiga olib keldi.

Globallashuv jarayonining ko'rib o'tilgan jihatlari uning ijobiy tomonlarini belgilab beradi, ya'ni ushbu jarayon inson imkoniyatlarini kengaytiradi, hayotiy faoliyatning barcha tomonlarini qamrab oladi va yashash uchun qulay sharoitlar yaratadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi insoniyatga taalluqli umumiy muammolarni samarali hal etishga asos yaratadi.

Hozirda jahon xo'jaligining globallashuv jarayoni turlicha baholanmoqda. Bu xususan faqatgina olimlar, mutaxassislar yoki ekspertlarga emas, balki oddiy fuqarolar ham o'z fikrlariga egadirlar. Globallashuv jarayoni asosan rivojlangan mamlakatlar tomonidan ma'qullanilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda unga xavotirlik nazari bilan qaraladi. Bunga sabab globallashuv foydalarining mamlakatlara teng taqsimlanmasligida bo'lib, ushbu jarayonda kim yutadi-yu, kim yutkazadi? - degan savol barchani qiziqtiradi.

Hozirda globallashuv jarayoni avvalambor, sanoati rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirsa, uning ma'lum qismi rivojlanayotgan mamlakatlarning ilg'or guruhiga ham tegishlidir. Ushbu jarayon birinchi navbatda mazkur davlatlar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, har bir milliy iqtisodiyotga globallashuv jarayonining ta'sir etishi uning jahon xo'jaligida egallagan o'rni va mavqeiga bog'liq holda foydaning asosiy qismi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelishi e'tirof etilmoqda.

Globallashuv foydasining notekis taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va global miqyosda ma'lum ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda. Bu masalada asosiy muammo davlatlarning daromadlarini oshirish yoki tenglashtirish emas, balki ularni to'g'ri tomonga yo'naltirishdir. Mazkur jarayonda tez rivojlanayotgan mamlakatlar yetakchilar qatoriga qo'shilib, qoloq mamlakatlar ahvoli yanada nochorlashib boraveradi. Oqibatda globallashuv jahonning yangi modelini yaratib, unda resurslarning 80 foizini «oltin milliard» doirasidagi mamlakatlar boshqarmoqda. Jahondagi aholining beshdan biri istiqomat qiladigan (AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining 70 foizi). rivojlangan mamlakatlar hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining deyarli 85 foizi, jahon savdosining 84.2 foizi to'g'ri keladi.

Mutaxassislar va ekspertlar globallashuvdan G'arb dunyosida istiqomat qiluvchi aholining 14.5 foizi, shu bilan birga Xitoy, Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqalari aholisi qisman foyda ko'rishlarini ta'kidlamodalar. Shu bilan birga, MDH davlatlari, Afrika, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari katta iqtisodiy zarar ko'radigan hududga aylanib qolishlari mumkinligini taxmin qilmoqdalar.

¹² «Постиндустриал дунё ва глобаллашув жараёни». Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро муносабатлар М. 2000 –№3 - 93 бет.

Globallashuvning salbiy oqibatlari ko'proq o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kuzatilmoqda. Ularning aksariyati baynalmillashuv jarayonida jahon bozoriga asosan xomashyo va mehnattalab mahsulotlar yetkazib beruvchilar bo'lib, shu bilan birga sanoati rivojlangan mamlakatlarning yanada taraqqiy etishlariga hissa qo'shgan holda, past va nobarqaror jahon narxleri kon'yukturasiga bog'liq ravishda daromad oladilar.

Yuqorida bir necha bor ta'kidlanganidek, globallashuv jarayonlarida ishtirok etishdan asosan rivojlangan mamlakatlar foyda ko'rib, ular yanada ko'proq daromad ko'rish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish maqsadida, ular yuqori qo'shimcha qiymat keltiradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslangan holda ko'p mehnattalab va atrof muhitga ziyon yetkazuvchi mahsulotlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga joylashtirishga urinmoqdalar. Lekin rivojlangan davlatlarda ham ishsizlik va moliya bozorlarida muammolar kelib chiqishi ehtimoldan holi emas va 2008-yildan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi buning yaqqol isboti bo'lganligini e'tirof etish mumkin.

Globallashuv afzalliklarining nomutanosib taqsimlanishi faqatgina davlatlar orasida emas, balki ma'lum bir sohalar bo'yicha kuzatilayotganligini ham e'tirof etish joizdir. Eksport bilan bog'liq bo'lgan va tashqi savdodan foyda ko'rayotgan sohalar boshqalarga nisbatan katta hajmdagi kapital tushumi va yuqori malakali ish kuchi jalb qilinishi bilan ajralib turadilar. Foyda ko'rmaydigan sohalar ochiq bozor sharoitida tobora avj olib borayotgan erkinlashuv oqibatida raqobatga bardosh bera olmay

globallashuv jarayonida milliy yoki jahon iqtisodiyotidagi ilgari egallagan mavqelarini boy bermoqdalar. Oqibatda bunday sohalar-dan malakali ishchi kuchi va kapital ko'chishi kuzatilib, xo'jalik yuritish sharoitlari yomonlashmoqda. Mazkur holatning oldini olish va ularni global sharoitga moslashtirish uchun xalqaro darajada kerakli chora-tadbirlar belgilanish kerak bo'ladi. Agarda bunday ishlar amalga oshirilmasa, aksariyat hollarda ishchilar xizmat joylarini yo'qotib, ishsizlik ko'payadi yoki boshqa sohani egallash maqsadida ko'pchilik xizmatchi-ishchilar qayta malaka oshirishlariga to'g'ri keladi. Bu esa qisqa muddatda katta ijtimoiy xarajalar evaziga amalga oshirilishi mumkin.

Globallashuv oqibatida vujudga kelayotgan yana bir muammo milliy iqtisodiyotlar boshqaruvi nazoratining boshqa mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar vakolatiga o'tib borayotganligidir. Globallashuvning bu jihati ayrim mamlakatlarning milliy mustaqilligiga tahdid solmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar siyosiy-iqtisodiy hayotini korporativ kapital boshqarayotganligi sir emas. Mutaxassislar fikriga ko'ra, jahonda integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi, moliya bozorlarining globallashuvi milliy chegaralarning yo'q qilinishiga va ayniqsa moliyaviy sohada davlat mustaqilligining susayishiga olib kelishi mumkin.

Ishchi kuchining jadal sur'atlar bilan harakatlanishi jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 1995 yili jahonda o'z mamlakatidan tashqarida 125 mln. aholi faoliyat yuritgan, bo'lsa bugungi kunga

kelib, bu raqam 3-4 martaga oshgan. Arzon ishchi kuchining rivojlangan mamlakatlarga oqib borishi natijasida, u yerning mehnat bozorida raqobat bir qadar kuchayib doimiy istiqomat qiladigan ishchilar uchun bandlik muammosi paydo bo'la boshladi. Bu esa xalqlar o'rtasidagi etnik nizolarga sabab bo'lmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga bog'liqlik darajasi tobora oshib borayotganligi sababli bir davlatdagi barqarorsizlik boshqa davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Masalan, 1997 yildagi Tailandda sodir bo'lgan moliyaviy inqiroz barcha Janubiy-Sharqiy Osiyoni, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oldi.

Yuqorida qayd etilgan globallashuvning salbiy oqibatlari mamlakatlar o'rtasida kutilmagan noroziliklarni keltirib chiqarishi tabiiy bo'lib, ushbu muammoni global siyosiy hamkorlik samaradorligini oshirish va yangi betaraf xalqaro tashkilotlarni yaratish orqali hal etish mumkin. Bu borada har bir davlat ushbu sharoitga ko'nikma hosil qilib, jahon iqtisodiyotida o'z mavqegini egallashi uchun samarali harakatlar qilishi zarur. Fikrimizcha, mamlakatlar hukumati alohida e'tiborni tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligi va global muhitdagi o'zgarishlarga qaratib, mazkur jarayonlarni boshqarish uchun aniq maqsadlar asosida faoliyat yuritmo'gi kerak.

Globallashuv va liberallasuv – xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyasi sifatida

XXI asr bo'sag'asidagi jahon xo'jaligi - o'z miqyosi va rivojlanishi xususiyatiga ko'ra globaldir. U to'liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillariga, xalqaro mehnat taqsimotining ob'ektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalminallashuviga asoslanadi.

Globallashuv ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n yilliklarda jahon xo'jaligi rivojining yetakchi tendensiyalaridan biriga aylanib, ko'plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuz tutgan iqtisodiy ochiq tipdagi xo'jalikka o'ta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. .

Ikkinchi jahon urushidan g'olib va yanada boyib chiqqan AQSh dunyoning eng ilg'or savdo mamlakati sifatida «Erkin savdo», «Ochiq iqtisodiyot» shiori ostida yangi iqtisodiy tartib o'rnatish taraddudiga tushdi. Bunday tamoyil hukmron iqtisodiyotning boshqa davlatlarga qarshi quroli Amerika korporatsiyalarining tutib bo'lmas ekspansiyaga intilishlari edi.

Ammo XX asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy xolatning o'zgarib borishi bilan ochiq iqtisodiyot haqidagi tezis bir tomonlamalik tavsifini, ya'ni amerika ekspansionizmining manfaatlariga yo'naltirilganlikni yo'qota bordi va ob'ektiv omillar ta'siri doirasida, jahon xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi asosidagi jarayonga aylandi.

Jahon iqtisodiyoti baynalminallashuvi miqyosi va tavsifiga, uning ochiqlik darajasining oshishiga katta ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan asosiy omillar qaysilar?

Ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda, birinchi navbatda har bir davlat hukumati katta rol o'ynaydi. Aynan mutasaddi davlat organlari tovar va xizmatlar eksportini rag'batlantirib, importni tartibga solib, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga keng yo'l ochib chet eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axborot oqib kelishini yengillashtirgan mustahkam huquqiy asos yaratishlari mumkin.

Mamlakatlarning ochiq iqtisodiyotga o'tishlari transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyati bilan yanada tezlashdi. Yangi bozorlarni o'zlashtirishga intilib, turli mamlakatlarda ko'plab filiallar, shu'ba korxonalari tashkil etib, TMK lar davlatning proteksionistik to'siqlarni aylanib o'tgan holda xalqaro iqtisodiy ayirboshlashni baynalminalashtirdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida transport, axborot-aloqa vositalarining sezilarli rivojlaniishi ham milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining o'sishida, axoli harakatchanligining oshishida katta rag'batlantiruvchi rol o'ynadi.

Bosqichma-bosqich uzoq vaqt mobaynida davlatlarni bir-biridan ajratib turgan savdo-iqtisodiy, valyuta-mollyaviy to'siqlar olib tashlandi. Xalqaro ayirboshlashning erkinlashtirilishi milliy xo'jaliklarning tashqi sharoit va ta'sirlarga moslashuvini yengillashtirdi, ularning xalqaro mehnat taqsimotida yanada faolroq ishtirok etishiga imkon yaratdi.

60-yillardan boshlab liberallashtirish jarayonlari qator rivojlanayotgan mamlakatlarda ham avj ola boshladi. Shu o'rinda avvalambor «ochiq iqtisodiyot» tushunchasi mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritishimiz kerak bo'ladi.

Birinchi, «Erkin savdo» va «ochiq iqtisodiyot» tushunchalarini farqlash lozim. «Erkin savdo» haqidagi tezis A. Smit siyosiy

iqtisodiyotidan boshlangan bo'lib, zamonaviy amerika iqtisodchilarining kashfiyoti emas. «Ochiq iqtisodiyot» tushunchasi ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valyutalar o'zaro almashuvining erkin harakatini o'z ichiga olgan tovarlar savdosi sifatida «erkin savdo» tezisidan kengroq tushunchadir.

Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishi jahon xo'jaligi rivojlanishining ob'ektiv tendensiyasi bo'lib, uning tamoyillariga mos ravishda harakat qilish, bu-jahon bozori standartlarini tan olish, uning qonuniyatlari asosida harakat qilish demakdir.

Ochiqlik milliy iqtisodiyotning yaxlitligini, jahon xo'jaligiga, jahon bozoriga chuqur integratsiyalashgan yagona iqtisodiy majmuani nazarda tutadi. Ochiq iqtisodiyot, bu – turli hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllaridan faol foydalanish, erkin tadbirkorlik zonalarini tashkil qilish, tashqi savdoda davlat yakka hokimligini yo'qotish (aksariyat sohalar bo'yicha), xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning nisbiy ustunliklaridan samarali foydalanishdir.

Iqtisodiyotning eng muhim o'lchovlaridan biri ma'lum iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va xalqaro raqobatbardoshlik doirasida (soha va makroiqtisodiy darajada) kapital qo'yilmalar, texnologiyalar, axborot oqimini rag'batlantiruvchi qulay investitsiya viy muhitidir. Ochiq iqtisodiyot milliy bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchining oqimi uchun maqsadga muvofiq darajada yo'naltirilganligini nazarda tutadi.

Ochiq iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilardir:

- *ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va koperatsiyalashuvining chuqurlashtirishi;*

- *resurslarni tejamkorlik bilan samaradorlik darajasiga qarab taqsimlash;*
- *xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orkali jahon tajribasining tarqalishi;*
- *jahon bozorida munosib o'rin egallash uchun milliy ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatning kuchayishi.*

Milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri eksport va importning mamlakat yalpi mahsulotiga nisbatini ifodalaydi. Ularning kombinatsiyasi alohida olingan davlatning jahon bozori bilan aloqasining miqyosi haqida ma'lumot beradi.

Mamlakat ichki bozorining hajmi, uning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, shuningdek mamlakatning xalqaro ishlab chiqarishda qatnashuvining miqyosi milliy iqtisodiyot ochiqligi va uning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillardir.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar har doim ham milliy iqtisodiyot ochiqligining darajasini to'liq ifoda eta vermaydi. Masalan, tashqi savdo kvotasi ma'lum ma'noda milliy iqtisodiyot ochiqligini namoyish qilsada, uni jahon xo'jaligi bilan bog'liqlik holatini to'la qonli ko'rsata olmaydi. Tashqi savdo kvotasi asosan davlatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki darajasini belgilaydi xalos.

Shunday qilib, baynalminallashtirish alohida milliy iqtisodiy tizimlarning oshib borayotgan o'zaro aloqa va bog'liqligini tavsiflovchi jarayondir. XX asr o'rtalaridan boshlab tovar ayirboshlash baynalminallashtirish kapital va ishlab chiqarishning baynalminallashtirishga aylandi, fan-texnika inqilobi (FTI) ta'sirida jahon iqtisodiyoti rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xalqaro ixtisoslashuv va

ishlab chiqarish kooperatsiyasi keskin kuchaydi. Yirik miqyosdagi ixtisoslashgan ishlab chiqarish uchun ichki bozorlar doirasi torlik qila boshladi va u ob'ektiv ravishda milliy chegaralardan chiqqa boshladi.

FTI ta'sirida ishlab chiqarish baynalminallashtirish shunday holatni yuzaga keltirdiki, milliy iqtisodiyotlar yanada chuqurroq jahon xo'jaligiga integratsiyalashdilar. Ishchi kuchi harakati, malakali kadrlar tayyorlash, mutaxassislar bilan almashuv jarayoni yanada baynalminal xarakterga ega bo'la boshladi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi chuqurlashishi jahon savdosining erkinlashuviga, miqdoriy chegaralarning bekor qilinishiga va bojxona stavkalarining pasayishiga turtki bo'ldi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab dunyoda mavjud bo'lgan ikki qarama-qarshi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qarshiligining barham topishi va jahon savdosida yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi global iqtisodiyot tamoyillarini yanada rivojlantirdi.

Xalqaro savdo rivojining istiqbolli shakllanishi qonuniyatlarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida globallashtirish kapital, tovar va xizmatlarning yagona planetar bozorini tashkil qilish va alohida davlatlarni yagona jahon xo'jaligi majmuiga birlashtirishga yo'naltirilgan jarayondir. Bu esa global iqtisodiyot masalalarini xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tizimi majmui sifatida o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi va xalqaro savdo munosabatlarning yangi, yuqoriroq darajasidir.

Globallasshtirish fenomenini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin. Makroiqtisodiy darajada globallashtirish davlatlar va alohida mintaqada

larning o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat ko'rsatishga bo'lgan umumiy intilishlari bo'lib, ularning asosiy ko'rinishlari quyidagilar: liberalizatsiyalashuv, savdo va investitsiya viy to'siqlarning olib tashlanishi, erkin tadbirkorlik zonalarini tashkil etish va h. k.

Mikroiqtisodiy darajada globallashuv deganda korxonalar faoliyatining milliy bozor chegaralaridan tashqarida kengayishi tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatining millatlararo yoki ko'pmilliy yo'nalganligidan farqli ravishda globallashuv jahon bozori yoki «jahon uchligi» (Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Yaponiya) bozorlarini o'zlashtirishda yagona yondoshuvni anglatadi.

Jahon xo'jaligi rivojlanishidagi oxirgi o'n yilliklar tendensiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab mamlakatlarning hukumatlari proteksionizm siyosatidan voz kechib, ochiq, liberal savdo siyosatini qo'llashga o'tmoqdalar.

Liberallashuv va globallashuv jarayonlari xalqaro savdo rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Dunyodagi barcha mamlakatlar (shu jumladan eng qolqoq mamlakatlar ham) ishchi kuchi, tabiiy, moliyaviy, ishlab chiqarish, xom-ashyo resurslariga egadirlar. Ularni oqilona ishlatib, har bir mamlakat milliy bozor yoki jahon bozori uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqishi va sotishi mumkin. Globallashuv «Nisbiy ustunlik» nazariyasiga asoslangan bo'lib, uning tom ma'nosi har qanday davlatning gullab-yashnashi uchun mamlakat hukumati mavjud resurslarni qanday qilib boshqa mamlakatlarga nisbatan yaxshiroq va arzonroq ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratishga yo'naltirishi bilan bog'liq masalaning hal etilishini anglatadi.

III bob. Global mintaqaviy milliy moliya bozorlari

Jahon moliya tizimi globallashtirishining mohiyati va uning oqibatlari

Zamonaviy sharoitda globallashtirish jahon iqtisodiyoti va milliy xo'jaliklar o'sishining muhim rag'batlantiruvchi omiliga aylandi. Mazkur jarayon shaxsiy muloqot hamda inson shaxsining ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. U ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, sayyorada inson hamda moddiy va tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi bilan asosanadiki, ulardan yanada umumiy foydalanish uchun xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyani chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Yuqorida qayd etilganidek, jahon iqtisodiyotining globallashtirish integratsiyalashuviga nisbatan kengroq jarayon bo'lib, u yaxlit jahon xo'jaligi mexanizmining to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lmagan qismlari o'zaro bog'liqligini ham nazarda tutadi.

Globallashtirishning iqtisodiyot liberallashtirishiga ta'siri mamlakatlarning o'zaro bog'liqligi va xalqaro davlatlararo va nodavlat tashkilotlarda ishtirokining ortib borishida namoyon bo'lmoqda. Aynan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish davlatlarning davlat va nodavlat segmentlarini qamrab olgan institusional tuzilmalari shakllanishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy globallashtirish milliy xalqaro va jahon bozorlari inson faoliyatining barcha sohalaridagi milliy iqtisodiyotlarning tizimlashgan integratsiyasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida barqaror iqtisodiy o'sish, zamonaviy

texnologiyalar va boshqaruv usullari tatbiq etilishining jadallashtirish yuzaga keladi. Globallashtirish jarayoni rivojlanishi hozirgi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, alohida mamlakatlar va hududlarning nafaqat o'zaro, balki jahon xo'jaligining yaxlit tarzidagi holati va o'sish sur'atlariga bog'liqligi ham tobora ortib bormoqda.

Jahon moliya tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi va davlatlararo valyuta-moliyaviy operatsiyalarni umumlashtiruvchi yagona unsur sifatida o'ta muhim rol o'ynaydi. Jahon xo'jaligi globallashtirishning zamonaviy bosqichida uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. U xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirib, mamlakatlararo tovar ayirboshlash hajmini oshiradi va xalqaro savdo o'sishini rag'batlantirgan holda, jahon xo'jaligining yalpi o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi (xorijiy investitsiyalar oqimi ko'p mamlakatlar uchun ishlab chiqarish kapitali yetishmaslik masalasini hal qiladi, ularning investitsiya salohiyatini oshirib, iqtisodiy o'sish sifatlarini jadallashtiradi).

Xalqaro moliya mamlakatlar orasida moliyaviy aloqalarning chuqurlashtirish, narxlarining va investitsiya oqimlarining liberallashtirish, hamda global transmilliy moliyaviy guruhlarining takmil etilishi oqibatida vujudga kelgan va baynalminallashtirish jarayoni doirasidagi eng murakkab va yuksak taraqqiy etgan tizimdir.

Moliya sohasining globallashtirish hozirgi kunga kelib ham milliy, ham jahon xo'jaligida sodir bo'layotgan eng asosiy jarayonlardan biri

bo'lib, unga bir qator ijobiy yoki salbiy xususiyatlar xosdir.

Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy operatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlaridan ustuvorlik qilmoqdalar. Moliyaviy soha rivojlangan mamlakatlarning YaIM va iqtisodiy tuzilmasida tutgan roliga ko'ra real sektordan ustunlik qilmoqda. Moliyaviy bozorlarning ahamiyati, ularning ko'lamida namoyon bo'lib, narx-navo harakati real tovar bozorlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar firma-kompaniyalari aktivlari tarkibida soxta kapital ulushi ancha yuqori bo'lib, moliyaviy bozorlardagi operatsiyalardan tushgan daromadlar ular uchun ahamiyatli o'rinni egallaydi. Hozirda rivojlangan mamlakatlar aholisi moddiy boyliklarning oddiy jam'aruvchilaridan faol birja o'yinchilariga aylandilar: amerikaliklarning 45 foizidan ziyodi aksiya egalari hisoblanadilar. Ular o'z mablag'larining ko'p qismini moliyaviy vositalar turlaridan biriga aylantirmoqdalar. Natijada moliya sohasi o'z-o'zini ta'minlovchi tizimga aylanib, ichki resurslarni sohaning o'sishi uchun sarflamoqda.

Bozor iqtisodiyoti sust rivojlangan iqtisodiy tuzim va past eksport salohiyatiga ega spekulativ kapital resipientlari, kapitalning harakatlanish jadalligi hamda an'anaviy va moddiy texnologiyalarni yaratish muddati o'rtasidagi nomutanosiblikdan zarar ko'rmoqdalar. Kapitalning birinchi navbatdagi maqsadi bo'lmish global tovar oqimiga xizmat qilish vazifasi borgan sari ikkinchi darajaga aylanmoqda. Moliyaning yetakchilik xususiyati uning bozor xo'jaligida bosh resurs sifatida tan olinishi bilan izohlanadi. Moliyaviy operatsiyalar jadalligi esa har qanday ishlab chiqarish,

texnologik jarayonlar va savdo operatsiyalaridan ustun kelmoqda. Moliyaviy sohaning jadal rivojlanishi butun dunyoni qamrab olish imkoniyatini bermoqda. Ekspertlarning baholashicha qimmatli qog'oz va pul birliklarining faqatgina 10-15 foizigina moddiy ko'rinishga ega, ya'ni real tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan ta'minlangan, xalos.

Kommunikatsiya va axborot texnologiyalari ta'siri ostida moliyaviy soha o'zining alohida tarmoq moliyaviy xizmat va vositalari doirasini kengaytirib, umumjahon darajasiga ko'tarildi. Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bir vaqtning o'zida 24 soat davomida deyarli barcha jahon birjalarida faoliyat yurgazish imkonini bermoqda. Bu esa moliya kapitali harakatini bir necha marotaba jadallashtiradi.

Iqtisodiyotning, xususan tadbirkorlikning rivojlanishi, biznes yuritishning yangi tamoyillarini, jumladan elektron tijoratni tadbir etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Moliyaviy tizimning axborotlashuvi bank xizmatlari, dasturiy ta'minot yoki musiqani yozib olish ko'rinishida olib borilayotgan operatsiyalar xarajatlarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi.

Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining yil sayin oshib borayotganligi birja o'yinlarida qatnashayotgan aholi ulushining ham ko'payib borayotganligidan dalolat beradi. Xususiy investorlar professional bilimga ega ham bo'lmay turib, ommaviy axborot vositalaridagi axborot, konsalting firmalarining ma'lumotnomalari va boshqa manbalardan olgan ma'lumotlarga tayangan holda ko'rkona ish tutib, ularning natijasida moliyaviy

bozorlar nobarqarorligi va tanazzullarga moyilligi oshib ketishiga turtki bo'lmoqdalar.

Moliyaviy bozorlarning globallashuvi va geomoliyaning shakllanishi nafaqatgina axborotlashuv asosida, balki moliyaviy kapitalning mamlakatlararo harakatlanish cheklovlariga barham berilishi, ichki moliyaviy bozorlarni erkinlashtirayotgan va offshor markazlarni rivojlantirayotgan neoliberalizm tamoyillarining kengayishi natijasida ham yuz bermoqda. Kezi kelganda ta'kidlash joyizki, ko'pgina mamlakatlarda investitsiya rejimlari liberallashtirish kuchayishi buni o'tgan asrning 80-yillariga to'g'ri keldi. Ular qatoriga xorijiy investorlarning milliy hususiyashtirish jarayonlariga keng jalb etilishi, soliqlarning pasaytirilishi, xorijiy investitsiyalar hissali ishtiroki cheklovlarining bekor qilinishi va kapital repatriatsiyasi erkinlashuvi kiradi.

So'nggi yillarda taraqqiy etgan mamlakatlarda markaziy banklari faoliyatida moliya bank sohasi ustidan nazorat qilish vazifalaridan qisman voz kechib, ko'proq monetar masalalar yechimiga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda (Buyuk Britaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarda). Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar orasida yagona Markaziy bank tizimini shakllantirish g'oyasi keng tarqalmoqda.

Tijorat banklari tomonidan investitsiyalash masalalari bo'yicha sho'ba kompaniyalarni tuzishni man etuvchi qoidalarning bekor qilinishi, moliyaviy operatsiyalarni keng spektrini amalga oshiruvchi qudratli moliyaviy xoldinglarni paydo bo'lishiga olib keldi. Fond operatsiyalari ko'p yillir davomida Stikorp, Morgan benk, Benk of Amerika, hamda Merill Linch, Salomon brazers, Goldman Saks kabi

yirik investitsiya banklari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Buning natijasida moliyaviy tashkilotlarning asosiy faoliyatlaridan qat'iy nazar, ularning diversifikatsiyalashuvi sodir bo'lmoqda. Yirik banklar mijozlarni moliyaviy, investitsiya va tovar bozorlari bilan bog'lovchi qudratli axborot tizimini shakllantirmoqdalar. Shu bilan birga axborotni egallash uchun mavjud bo'lgan barcha kanallardan foydalanilmoqda. Banklar axborotni egallagan holda, bozor holati va unda faoliyat yurgazayotgan korxonalar to'g'risida ma'lumotlar beruvchi keng qamrovli konsalting xizmatlarini taqdim etmoqdalar. Konsalting xizmati yirik banklar daromadlarining 25 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda. Ko'plab banklar ixtisoslashgan konsalting kompaniyalarini o'z bozorlaridan siqib chiqarmoqdalar.

Shuningdek, bank va sug'urta faoliyatlarining yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Yevropada banklar ulushi sug'urtaning 19 foizini tashkil etmoqda. Masalan Fransiya banklari sug'urta kompaniyalari vazifasini to'la o'z zimmasiga olib, bu sohada ustunlik qilmoqdalar.

Shu bilan birga bank sohasida offshor biznesi ham keng tarqalmoqda. Transmilliy banklar (TMB) global moliyaviy bozorlarning to'la huquqli ishtirokchisiga aylanishlari uchun o'z sho'balarini moliyaviy markazlarda tashkil etsalar, ularning ayrimlari bu sho'balarni offshor hududlarida yaratmoqdalar. Moliyaviy markazlarda yig'ilgan qadrsiz pullar offshor sho'balarga yo'naltirilmoqda. Ular yuqori foiz asosida kreditlar bermoqdalar va deyarti soliq undirilmaydigan foydani o'zlarida jamlamoqdalar.

So'nggi davrda kuzatilayotgan tendensiyalardan biri shundaki, bozorlarida sug'urta

kompaniyalar, nafaqa va turli investitsiya fondlari moliya bozorlaridan banklarni siqib chiqarmoqdalar. Bu ayniqsa AQSh da kuzatilib, u yerda aholi mablag'lari nobank moliyaviy tashkilotlarga jalb etilgan umumiy hajmining ulushi 50 foizidan ortmoqda. Ushbu tashkilotlarning yalpi aktivlari 28 trln. AQSh doll. atrofida baholanmoqda. Bu investitsiyalarning 90 foizi fond bozorlariga yo'naltirilmoqda.

AQShda hozirgi davrda juda tez sur'atlar bilan xedj-fondlari taraqqiy etmoqda. Ularning soni 3000 dan oshiq bo'lib, aktivlari nisbatan ko'p bo'lmasada (400 mlrd. doll.), ularning moliyaviy bozorlardagi roli balanddir. Ma'lumki rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlaridagi xorijiy kapitalning aksariyat qismi faqatgina xedj-fondlari tomonidan kiritilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moliyaviy bozorlar, moliyaviy xizmat ko'rsatish tuzilmalari birlashib, yagona xalqaro bozor doirasida moliyaviy resurslar harakatlanishining hajmi va jadalligi yildan-yilga o'sib bormoqdaki, bu ularning juda ham mobilligidan dalolat beradi. Mazkur jarayonning nafaqat ijobiy, balki salbiy jihatlari ham mavjuddir.

Moliyaviy globallasuv milliy iqtisodiyotlarga katta xatar tug'dirishi mumkin. Chunki globallasuv sharoitida bir mamlakatdagi nobarqarorlik boshqa mamlakat va hududlarga o'tishi ehtimoli yuqoridir.

Zamonaviy tangliklar avvalgi tanazzullarga qaraganda murakkabroq va to'satdan kelib chiqish tabiatiga ega. Shu tufayli ulardan himoyalanih va ularni bashorat qilish borgan sari noreal bo'lib bormoqda.

Butun dunyo bo'ylab harakatlanayotgan mobil moliyaviy kapital xalqaro iqtisodiy tizim

mexanizmini nobarqarorlashtirmoqda. Ushbu kapital rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki bozorlariga joylashib,

Milliy valyuta kotirovkalari dinamikasini belgilagan holda, ustuvorlikni o'z qo'liga olmoqdalar. Investitsiya fondlari mablag'larini boshqarayotgan xorijiy menejerlar moddiy ta'minlanmagan foyda ketidan quvib istagan paytda mahalliy moliyaviy bozorlar kon'yunkturasi ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Jahon moliya tizimida yuz bergan tub o'zgarishlar uning funksiyalarini ham o'zgartirdi. Uning imkoniyatlari va vazifalarining kengayishi esa bu tizimni tartibga solish zaruratini vujudga keltirdi.

Zamonaviy jahon xo'jaligida moliya tizimining vazifalari va uni tartibga solish zarurati

Jahon moliyaviy resurslari barcha mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy markazlar moliya resurlarining yig'indisidan iborat. Tor ma'noda - bu tashqi iqtisodiy faoliyatda, ya'ni rezident va norezidentlar o'rtasidagi munosabatlarda foydalaniladigan moliyaviy resurslardir.

Jahonning moliyaviy resurslari doimo harakatda bo'lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchilari o'rtasida qayta taqsimlanib boradi. Bu resurslarning bir qismi oltin-valyuta zahiralari tushadi, bir qismi yordam tariqasida imtiyozli shartlar bilan chet elga taqdim etilsa, asosiy qismi jahon moliya bozorlarida (jahon kapital bozorlarida) sotiladi va sotib olinadi.

Jahon moliya resurslari uch qismga: moliyaviy yordam, oltin-valyuta zahiralari va jahon moliya bozoriga bo'linadi. Moliyaviy yordam davlatlararo kreditlar va grantlar yoki xalqaro tashkilotlarning kreditlari va grantlari tariqasida beriladi. Oltin-valyuta zahiralari rasmiy va xususiy zahiralardan iborat. Jahon moliya bozorlariga valyuta, aksiyalar, sug'urta, derivativlar va kredit bozorlari kiradi. Kredit bozori o'z navbatida bank kreditlari va qimmatbaho qog'ozlar shaklidagi qarz majburiyatlariga bo'linadi.

Jahon moliya resurslarining asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Bu mamlakatlarning jismoniy shaxslari, kompaniyalari, tashkilotlari, hukumatlari moliyaviy resurslarning asosiy qismiga egalik qiladilar. Ularning moliyaviy vositalari jahon moliya bozorida muomalada bo'lib, jahondagi moliyaviy yordamning asosiy manbai ham bo'lib hisoblanadi.

Jahon moliya bozori moliya-kredit tashkilotlarining yig'indisidan iborat bo'lib, ular vositachi sifatida kreditorlar va qarz oluvchilar hamda moliyaviy resurslarni sotuvchi va sotib oluvchilari o'rtasida moliyaviy aktivlarni qayta taqsimlaydilar.

Jahon moliya bozorini turli nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin. Ishlatish yo'nalishlariga ko'ra uni valyuta, derivativ, sug'urta xizmatlari, aksiya, kredit bozorlariga bo'lish mumkin, o'z navbatida bu bozorlarning o'zi torroq doiraga bo'linadi, masalan, kredit bozorlari uzoq muddatli qimmatbaho qog'ozlar va bank kreditlari bozorlaridan iborat. Ko'pincha qimmatbaho qog'ozlar ko'rinishidagi moliyaviy aktivlar bilan bo'lgan operatsiyalar barcha qimmatbaho qog'ozlarning bozori sifatidagi

fond bozoriga birlashtiriladi, lekin ko'pincha fond bozori faqat aksiya bozori sifatida qaraladi.

Moliyaviy aktivlarning aylanish muddatiga ko'ra jahon moliya bozori ikki qismga ajratiladi: pul bozori (qisqa muddatli) va kapital bozori (uzoq muddatli). Jahon moliya bozori katta qismining qisqa muddatligi uni moliyaviy vositalarning o'zgarishiga ta'sirchan qilib qo'yadi. Undan tashqari shunday moliyaviy aktivlar mavjudki, ular bir maqsadga, jumladan, pul bozorida chiqqovchilik operatsiyalari hisobiga, eng yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan.

Jahon moliya bozorining turli unsurlari o'rtasida aniq chegaralar mavjud emas. Ularning ko'pchiligi moliya bozorining bir segmentidan boshqasiga hech qanday qiyinchiliklarsiz yo'naltirish mumkin. Buning oqibatida, jahonning turli mamlakatlarida valyuta kurslari (valyuta bozorlaridagi holat bilan belgilanadi), bank foizlari (qimmatbaho qog'ozlar bozorida holat bilan belgilanadi) va aksiyalar kurslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchaymoqda. Natijada, bir tomondan jahon moliya bozorida beqarorlik kuchayib bormoqda, ikkinchi tomondan esa, jahon moliya resurslarining globalashuvi sharoitida bir milliy moliya bozorida tanazzul boshqa mamlakatlar moliya bozoriga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Qisqa muddatli kapitalning katta hajmda tashqariga oqib ketishi xavfi ko'pchilik mamlakatlarda moliyaviy tanazzulga sabab bo'lishi mumkin. Buni 1997 yilning yozida Janubiy-Sharqiy Osiyoda boshlangan va keyinchalik Rossiya va Lotin Amerikasining qator mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy krizis, 2008 yilda Amerika ipoteka bozori

tanazzulidan boshlanib butun dunyoni qamrab olgan va huzur davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz yaqqol namoyish etdi.

Jahon moliya bozorining asosiy agentlari - bu transmilliy kompaniyalar va institusional investorlardir. Shu bilan birga, chet elga qarzlarni joylashtirish va taqsimlashni amalga oshiruvchi davlat muassasalari va xalqaro tashkilotlar ham katta o'rinni egallaydilar. Kapital jahon bozorlarida bilvosita, ya'ni institusional investorlar orqali jismoniy shaxslar ham faoliyat ko'rsatadilar.

Institusional investorlarga pensiya fondlari va sug'urta kompaniyalari hamda investitsiya viy fondlar ayniqsa, hamkorlikdagi fondlar kiradi. Institusional investorlar aktivlarining hajmi juda katta bo'lib, ular AQSh YalMdan ancha katta, Yevropa Ittifoqi umumiy YalMga tenglashadi. Bu aktivlarning asosiy qismi turli qimmatbaho qog'ozlarga, shu jumladan, xorijiy qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirilgan.

Jahondagi eng katta institusional investorlar bu o'zaro hamkorlikdagi fondlar bo'lib, ular o'z paychilarining, asosan, o'rta hol jismoniy shaxslarning mablag'larini yig'ib borib, ayniqsa AQShda juda katta sarmoya egasiga aylandilar. 2000 yillarga kelib, ular aktivlarining hajmi 4 trln. dollarga yetdi, va bu mablag'ning yarmi aksiyalarga, shu jumladan xorijiy kompaniyalar aksiyalariga joylashtirilgan. Hamkorlikdagi fondlarning bu qadar rivojlanishi mayda jamg'armachilarning o'z sarmoyalarini bankda saqlagandan ko'ra ko'proq daromad beradigan moliyaviy tuzilmada joylashtirishga qaror qilganlari bilan bog'liq. Bunday fondlar mijozlarining mablag'larini turli xil qimmatbaho qog'ozlarga joylashtiruvchi jamg'arma banklari


va investitsiya banklari (kompaniyalari) afzalliklarini o'zida mujassamlashtiradi. Investitsiya fondlarining bir qismi umuman xorijiy qimmatbaho qog'ozlar bilan yoki alohida mamlakatlar va hududlarning qimmatbaho qog'ozlari bilan ishlash uchun yaratilgan.

Moliya resurslarining eng faol oqimi jahon moliya markazlari hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur markazlarda turli mamlakatlar rezidentlari o'rtasidagi moliya aktivlarining savdosi ayniqsa katta hajmda amalga oshiriladi. Bu birinchi navbatda AQShda - Nyu-York va Chikago, Yevropada - London, Frankfurt, Parij, Syurix, Jeneva, Lyuksemburg, Osiyoda - Tokio, Singapur, Gonkong, Baxreynlardir. Ba'zi offshor markazlari, birinchi navbatda Karib dengizi ko'rfazida joylashgan Panama, Bermud, Bagam, Kayman, Antil orollari ham jahon moliya markazlariga aylanib bormoqdalar.

Jahon moliya markazlarida xalqaro moliya bozori aktivlarining asosiy qismi to'plangan bo'lib, ular nafaqat moliya markazi joylashgan mamlakat kapitali, balki jahonning boshqa hududlaridan yo'naltirilgan kapital hamdir. Ayniqsa bu xolat uncha katta bo'lmagan mamlakatlarda joylashgan moliya markazlariga xos xususiyatdir.

Hozirda juda katta miqdorda xorijiy valyutadagi to'lovlar va undan ham yuqori hajmdagi derivativlar bilan chayqovchilik operatsiyalarining amalga oshirilishi oqibatida jahon valyuta bozori haddan ziyod kengayib, jadallik bilan o'sib bormoqda. Bir kunda bu bozorda amalga oshiriladigan bitimlarning hajmi 1,5 trln dollar, bir yildagisi esa deyarli 400 trln. dollarni tashkil etadi.

3.1-rasm. Jahon moliya bozorining tasnifi



Markaziy banklar ham milliy valyuta bozorlarining faol ishtirokchilaridandir. Ko'pchilik bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda valyuta kurslari suzuvchan bo'lib, valyuta bozorlari ishtirokchilari tomonidan xorijiy va milliy valyutaga bo'lgan talab va taklif asosida aniqlanadi. Talab va taklifning kuchli

tebranishlari (va ayirboshlash kurslarining noxush o'zgarishi) oldini olish uchun markaziy bank valyuta intervensiyalari orqali ushbu jarayonni tartibga soladi.

Valyuta va valyuta derivativlari savdosi ham birinchi navbatda jahon moliya markazlarida olib boriladi. Valyuta ayirboshlash

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

operatsiyalari bo'yicha London birinchi o'rinni egallasa, valyuta fyucherslar savdosi eng ko'p Chikagoda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, asosini oddiyroq moliyaviy vositalar: aksiyalar, obligatsiyalar, valyuta tashkil etuvchi derivativlarning eng keng tarqalgan turlari opsionlar (egasiga valyuta va aksiyalarini qat'iy belgilangan kurslarda sotib olish va sotish huquqini beradi), svoplar (ma'lum bir muddat davomida pul to'lovlari bilan ayirboshlash haqidagi bitimlar) fyucherslardir (valyutani kelajakda kelishilgan qat'iy belgilangan kurs bo'yicha yetkazib berish haqidagi bitim). Derivativlar bozori valyutalarni yoki qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlash orqali valyuta bozorlari bilan uzviy bog'liq. Hozirda moliyaviy derivativlar bozori unda aylanuvchi qimmatbaho qog'ozlarning qiymatini hisobga olinsa 60-70 trln. dollar atrofida baholanmoqda. Bu bozorning asosiy qismi qisqa muddatli valyuta fyucherslari va svoplarga to'g'ri keladi.

Jahon kredit bozorining hajmi juda salmoqli bo'lganligi tufayli, u qismlarga bo'linib, qimmatbaho qog'ozlar shaklidagi qarz majburiyatlari va bank kreditlari bozori bo'yicha tahlil qilinadi.

Jahon moliya bozorining tasnifi

Umuman, moliya bozori atamasi juda keng tushunchadir. U haqiqatdan ham serqirra ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi hamda muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro ta'sirda bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya egalari, qarz oluvchilar bilan qarz beruvchilar o'rtasidagi munosabatni aks

ettiradi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun moliya bozori o'ziga xos «asab markazi» rolini bajaradi. Uning rivojlanish darajasiga qarab mamlakat iqtisodiyotining ahvoriga baho bersa bo'ladi. Chunki moliya bozoriga maqbul ta'sir ko'rsatib, jamiyat iqtisodiy faolligini oqilona boshqarish mumkin.

Insoniyat tarixida puldan foydalanishning eng keng tarqalgan uch usuli ma'lum: naqd pullarni saqlash (bu uncha samarali emas) yoki omonat banklariga qo'yish yoki qimmatli qog'ozlar sotib olish. Jamg'armalarning ko'pchilik qismini jamiyatning uy xo'jaliklari, iqtisodiyotga investitsiya lar qo'yishni esa asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amalga oshiradi.

Hozirgi zamon moliya bozorining asosini ko'p sonli moliya muassasalari yoki vositachilar tashkil qiladi. Bu – sotuvchilar va xaridorlar, sotiladigan va xarid qilinadigan tovarlar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozor.

Shu bilan birga moliya bozorlari pul mablag'lari jamg'armalarining egalari qarz oluvchilarga yetib boradigan ko'plab turli-tuman kanallar bilan ta'minlanib turadi. Iqtisodiy adabiyotda ular ikki asosiy guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga pul mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri jamg'armalarning egalari qarz oluvchilarga yetib boradigan sarmoya bilan bevosita moliyalash usullari kiradi. Ular o'z navbatida ikki qismga bo'linadi: kapital moliyalash - unga muvofiq, tadbirkor mablag'ni o'z mulkining bir qismiga almashtirish hisobiga oladi (oddiy aksiyalar) va qarz olish yo'li bilan moliyalash - unga muvofiq firma mablag'ni oldindan kelishilgan foiz bo'yicha qaytarish va

firmaga egalik qilish huquqini olmaslik haqidagi shart bilan oladi (masalan, obligatsiyalar). Ushbu vositalar qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini belgilaydi.

Bilvosita mablag' bilan ta'minlashga omonatchilarning mablag'larini moliya muassasalariga: tijorat banklari, sug'urta va trast kompaniyalari, pensiya fondlari va hokazolarga qo'yishga doir barcha operatsiyalar kiradi. Masalan, moliya muassasalari omonatchilarning mablag'laridan foydalanib, turli loyihalarni mablag' bilan ta'minlaydilar. Moliya bilan ta'minlashning «bilvositaligi» shundaki, omonatchilarning o'zlarini mablag'larini ushbu loyihalarga bevosita qo'ymaydilar.

Jismoniy va yuridik shaxslarning uzoq muddatli pul omonatlari moliya vositachilari tomonidan investitsiya kreditlari sifatida berish uchun foydalaniladi, investitsiya kreditlari uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bilan birga sarmoyalar bozorida oldi-sotdi qilinadi.

Omonatlar faqat uzoq muddatli investitsiya largagina qo'yilmaydi, ularga qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar - xazina majburiyatlari, veksellar va hokazolarni ham sotib olish mumkin. Fuqarolar va yuridik shaxslarning qisqa muddatli omonatlari hamda pul massasining boshqa elementlari bilan birgalikda ular pul bozorini tashkil qiladi.

Pul bozori davlat xazinasiga bevosita naqd pul tushishini ta'minlaydi va firma yoki jismoniy shaxsga o'zlarining vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan daromad olishga imkon beradi. Pul bozorisiz to'liq ma'nodagi moliya bozori bo'lishi mumkin emas.

Moliya tizimi mamlakat iqtisodiyoti uchun hayotiy zarur bo'lgan ko'pgina muhim vazifalarni bajaradi.

Jamg'arma vazifasi. Moliya muassasalari tizimi aholiga, korxonalariga foizli va foizsiz omonatlar, qimmatli qog'ozlar – deposit sertifikatlar, obligatsiya va aksiyalar shaklidagi pul jamg'armalarining xilma-xil shakllarini taklif qiladi. Moliya muassasalari korxonalar va uy xo'jaliklari «vaqtinchalik harakatsiz pullari»ning xarid qobiliyatini saqlash va ko'paytirish majburiyatini oladi.

Kreditlash vazifasi. Bu – birinchi vazifa bilan chambarchas bog'liqdir, chunki moliya muassasalarining, xususan, banklarning kredit berish salohiyati mamlakat iqtisodiyotida jamg'arilayotgan moliya mablag'lari hajmiga bevosita bog'liq.

To'lovlarga xizmat ko'rsatish vazifasi. Har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovar, moliya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar doimo va katta hajmlarda amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (korxonalar) o'z xodimlariga ish haqi va mukofotlar beradi, xom ashyo va tovar yetkazib beruvchilarga haq to'laydi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi va hokazo.

Iqtisodiy siyosat vazifasi. Markaziy bank va hukumat moliya tizimining pul-kredit va fiskal dastaklariga ta'sir ko'rsatib, davlat iqtisodiy siyosatini maqsadga muvofiq holda yo'naltiradi.

Moliyaviy resurslar jahonning eng globalashgan resursi hisoblanadi. Moliyaviy resurslar globalashuvining ham salbiy, ham ijobiy jihatlari mavjud. Jarayonning ijobiy tomoniga misol sifatida jahonda moliyaviy resurslar yetishmasligining oldini olish

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

imkoniyati ko'payishini keltirish mumkin. Buning oqibatida hozirgi sharoitda ayniqsa rivojlangan va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital (birinchi navbatda pul shaklida) tanqisligiga barham beriladi. Globallasuv milliy moliya bozorlaridagi raqobatni kuchaytiradi va buning natijasida moliya-kredit vositachiligi (moliya xizmati)ning narxi pasayadi.

Jahon moliya bozori globallasuvining salbiy oqibatlariga misol sifatida, avvalam bor, milliy moliya bozorlari nobarqarorligining kuchayishini keltirish mumkin. Bunday nobarqarorlik birinchidan alohida hududlardagi moliyaviy inqirozlar (ayniqsa yirik moliya markazlarining mavjudligida) boshqa mamlakatlar va hududlarga ko'proq ta'sir ko'rsatganligi sababli, ikkinchidan, milliy moliya bozorlarining liberallasuvi tufayli sodir bo'lmoqda.

Globallasuvning yana bir salbiy oqibati bu jahon xo'jaligining real kapital (iqtisodiyotning real sektori) faoliyatiga emas, moliya (pul) sektoriga tobora bog'liq bo'lib borayotganligidir. Rivojlangan mamlakatlarda ilgariroq boshlangan bu jarayon butun jahon iqtisodiyotiga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatib bormoqda. Uning mohiyati shundaki, moliya va real kapital tizimida ular o'rtasidagi bog'liqlik tobora susaya borib, birinchisi ikkinchisidan ustun ham turmoqda. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish holati ular moliyalarning ahvoriga tobora ko'proq bog'lanib qolmoqda.

Ma'lumki, globallasuv sharoitida milliy moliya tizimi mamlakat moliya bozorida faol ishtirok etayotgan norezidentlar hamda jahonning boshqa mamlakatlari va hududlari moliya

bozorlarining holati, ayniqsa xalqaro moliya markazlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Jahon moliya resurslarining globallasuvi oqibatida mamlakat hukumatining milliy moliya bozoriga ta'siri susayib borib, bir vaqtning o'zida milliy moliya bozorlariga transmilliy korporasilarning hamda xalqaro institutsional investorlar va xalqaro chayqovchilarning ta'siri kuchayib bormoqda.

Xalqaro integratsiya birlashmalarining ishtirokchilari bo'lgan mamlakatlar moliya tizimiga (Yevropa Ittifoqi doirasida kuzatilyotgan) qabul qilingan umumiy qarorlar yoki umumiy moliya siyosatining ta'siri kuchaymoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti davlatlari moliya bozorlariga xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning (birinchi navbatda Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon banki) ta'siri o'sib bormoqda. 1997-1999 yillardagi Osiyo moliyaviy krizisi natijasida ko'pchilik iqtisodchilar shunday fikrga keldilarki (buni hozirda davom etayotgan global inqiroz yanada tasdiqlamoqda), jahon moliya tizimi Xalqaro Valyuta Fondi yoki undanda nufuzliroq, keng doiradagi huquq va manbalarga ega bo'lgan yangi xalqaro moliya tashkiloti tomonidan yanada faolroq tartibga solinishi zarur.

Jahon moliya bozorining chuqur globallasuviga qaramay, hozirda ham ko'pchilik milliy moliya bozorlarida kapitalning xalqaro harakati va xalqaro valyuta hisob-kitob munosabatlari uchun jiddiy cheklovlar mavjud. Ayrim mamlakatlar kredit, aksiya va sug'urta xizmatlari bozorida moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy banklar, sug'urta kompaniyalari

va boshqa tashkilotlar faoliyatiga yuqori to'siqlar o'rnatilgan.

Globallashuv uchinchi ming yillikning o'ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu mavzudagi izlanishlar mualliflari jahon xo'jaligida jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari tufayli paydo bo'layotgan ziddiyatlarni aniqlashga urinmoqdalar. Gap asosan uch xil toifadagi ziddiyatlar ustida bormoqda.

Birinchidan, iqtisodiy jarayonlar tobora global tus olayotganligi bilan milliy xo'jalik va qonunchilik doiralarida tartibga solish mexanizmlari o'rtasida nomuvofiqlik ko'zga tashlanib turibdi.

Ikkinchidan, ayrim globallashuv jarayonlarining rivojlanish sur'atlaridagi tafovutlar keskin oshib bormoqda: milliy xo'jalik tizimlari va boshqa sub'ektlar global darajaga bir vaqtning o'zida chiqmaydi va ushbu jarayonni sinxronlashtirish mexanizmlari esa yo'q. Shu boisdan ayrim jarayonlarning globallashuv darajasi, ular "o'zlashtirgan" hududlar bir xil emas. Bu esa nizolar keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, chegaralar ochiqligi xo'jalik sub'ektlarini (ular o'z faoliyatlarini milliy iqtisodiyotlar doirasi bilan cheklaganida ham) global darajadagi raqobat ishtirokchisiga aylantiradi. Bir tomondan, g'arb mamlakatlari (va ulardagi transmilliy korporatsiyalar) va, ikkinchi tomondan, boshqa mamlakatlar o'rtasida moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslari, axborot ta'minotidagi jiddiy tafovut mavjudligi aksariyat mamlakatlarning global iqtisodiyotda samarali ishtiroki imkoniyatini cheklab qo'ymoqda.

Abstrakt-nazariy jihatdan, global jarayonlar rivojlanishi yaxlit jahon xo'jaligining barcha qatnashchilari uchun beqiyos ne'matdir. Milliy iqtisodiyotlarning bunday ochiqligi ishtirokchilarning tashqi bozorlarga chiqishlarinigina emas, balki chet el moliya resurslaridan foydalanishlarini ham ta'minlaydi. Bu iqtisodiy yuksalish va ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirish imkonini beradi. Lekin globallashuvning yuqorida qayd etilgan jihatlari xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi: uning ne'matlarini notekis taqsimlanishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha jiddiy tafovutlarni qisqartirishga ham yo'l bermayapti. Milliy xo'jaliklar ichida aholi turli qatlamlari o'rtasidagi daromadlarning tabaqalanishi kuchayib bormoqda. Bu tendensiya ba'zi rivojlangan davlatlarda ham namoyon bo'lmoqda. Moliya sohasi iqtisodiy globallashuv jarayonida asosiy yetakchi soha bo'lishga da'vogarlik qilmoqda. Bu sohaning xalqaro rivojlanishi alohida muammolar doirasi bilan bog'langan.

XX asr so'nggi o'n yill boshida kapitalning xalqaro transfertlari kuniga 1,3 trln. dollardan ko'p bo'lib, bu 20 yil mobaynida taxminan 130 barobar o'sish ro'y berganligini anglatar edi. Shu davrda valyutaning yillik savdosi 400 trln. dollardan oshgan, bu esa butun jahon savdosining 80 yillik hajmiga yaqinlashar edi; ikki o'n yillikda mazkur ko'rsatkich 40 barobar oshgan. Mutaxassislar bunday o'sishga qisqa muddatli komponentlar, ayniqsa, savdo-sotiq, eng yuqori foyda olishni ko'zlagan xolda mamlakatlar o'rtasida ko'chib yuruvchi tijorat banklaridagi 10 trln. dollardan ko'p chet el depozitlari kuchli ta'sir ko'rsatganini ta'kidlamodalar. Chet el kapitali bozorining

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

yillik aylanmasi ushbu o'n yillik boshida 60 trln. dollarni (jahon YaIMidan ikki barobar ko'p va jahon savdo hajmidan deyarli 12 barobar ko'proqni) tashkil etdi.

deyarli 4 trln. dollarni tashkil etdi. Bevosita (lekin yuqori darajada harakatchan bo'lmagan) chet el investitsiyalari hajmi ham ancha ko'paydi – 3 trln. dollardan oshdi.

Jahon aksiyalar savdosi jami jahon savdosi hajmidan bir ozgina kamroqni – yiliga

3.1–jadval. Jahon moliya oqimlari: kapital kiritish va chiqarish hajmi (million AQSh dollari)

	2005	2006	2007	2008	2009	2005	2006	2007	2008	2009
	Kapital kiritish					Kapital chiqarish				
	AQSh									
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	112.6	243.2	271.2	328.3	134.7	-36.2	-244.9	-414.0	-351.1	-268.7
Portfel investitsiyalari	832.0	1126.7	1156.6	520.1	366.7	-257.5	-498.9	-390.7	285.9	-393.5
Boshqa investitsiyalar	302.7	695.3	679.8	-393.7	-195.7	-267.0	-544.3	-670.9	226.2	573.9
Jami	1247.3	2065.2	2107.7	454.7	305.6	-546.6	-1286	-1476	156.1	-140.4
	Kanada									
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	25.9	60.3	117.7	55.9	19.9	-27.6	-46.4	-57.7	-82.2	-40.4
Portfel investitsiyalar	10.9	27.4	32.0	30.3	97.2	-44.2	-69.4	-42.8	10.0	-6.2
Boshqa investitsiyalar	30.0	35.9	59.4	13.0	19.0	-17.8	-30.8	-57.7	-33.9	-36.0
Jami	66.7	123.6	145.1	99.2	136.1	-91.0	-147.4	-162.1	-107.9	-93.0
	Yaponiya									
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	3.2	-6.8	22.2	24.6	11.8	-45.4	-50.2	-73.5	-130.8	-74.6
Portfel investitsiyalar	183.1	198.6	196.6	-103.0	-56.3	-196.4	-71.0	-123.5	-189.6	-160.2
Boshqa investitsiyalar	45.9	-89.1	48.9	62.0	-64.2	-106.6	-86.2	-260.8	139.5	202.7
Jami	232.3	102.6	267.7	-16.4	-108.6	-370.8	-239.4	-494.2	-211.9	-59.0
	Buyuk Britaniya									
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	177.4	154.1	202.1	93.5	24.8	-80.8	-85.6	-328.1	-163.1	-46.7
Portfel investitsiyalar	237.0	283.0	435.9	389.3	284.1	-273.4	-257.0	-179.7	199.7	-240.5
Boshqa investitsiyalar	902.0	651.0	1450.8	1240.7	-540.6	-926.2	-708.3	-1474	981.6	502.4
Jami	1316.5	1088.1	2088.7	-757.9	-231.7	-1282	-1050	-1985	1021	205.6
	Yevrozona									
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	194.1	328.6	555.7	187.4	292.9	-453.6	-542.7	-658.1	-481.2	-397.1

Uchinchi bob. Global mintaqaviy milliy moliya bozorlari

Portfel investitsiyalar	660.3	890.5	801.2	513.8	529.4	-514.6	-650.5	-599.6	-23.7	-103.9
Boshqa investitsiyalar	801.7	945.7	1271.8	300.2	-927.5	-737.7	-999.0	-1301	-168.1	663.2
Jami	1656.1	2164.7	2628.6	1001.4	-105.2	-1683	-2195	-2564	-677.8	102.3
Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodili davlatlar										
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	337.5	420.8	615.9	695.4	410.7	-85.0	-162.6	-198.7	-256.5	-169.9
Portfel investitsiyalar	179.9	297.7	421.1	12.7	196.7	-175.1	-411.2	-400.7	-164.3	-89.2
Boshqa investitsiyalar	121.7	189.9	693.7	148.0	63.3	-205.3	-269.4	-538.2	-347.0	-92.7
Jami	639.0	908.4	1730.6	856.2	670.6	-1050	-1599	-2346	-1506	-850.1

Manba: IMF, International Financial Statistics and World Economic Outlook databases as of September 24, 2010.

3.2-jadval. Jahon moliya resurslarining geografik tarkibi dinamikasi (mird AQSh dollarida)

Yillar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	346.146	376.897	133.757	81.811	197.477	6.553	184.361
Portfel investitsiyalari	-738.499	-904.297	-201.994	-328.793	-143.502	162.068	152.909
Boshqa investitsiyalar	62.885	-41.855	-222.721	323.216	298.217	190.872	21.670
Yevromintaqa							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	83.365	138.978	14.366	-77.667	79.231	120.930	-
Portfel investitsiyalari	-109.771	-454.537	-181.329	-5.105	150.554	223.401	-
Boshqa investitsiyalar	-53.019	142.298	256.026	522.275	199.553	-145.554	-
Asosiy rivojlangan mamlakatlar (G7- Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, AQSh, Fransiya, Yaponiya)							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	280.221	414.005	290.400	249.278	214.987	78.062	170.033
Portfel investitsiyalari	-503.972	-851.309	-210.060	-303.566	-224.723	-16.813	151.608
Boshqa investitsiyalar	-95.864	-199.306	-452.995	-370.936	-9.769	-32.873	-430.052
Boshqa rivojlangan mamlakatlar (G7 va Yevromintaqadai mamlakatlardan tashqari)							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	94.275	-6.674	-23.416	17.973	-22.378	-106.244	0.253
Portfel investitsiyalari	-50.666	42.710	139.680	121.443	184.594	334.441	241.680
Boshqa investitsiyalar	-17.069	93.442	-97.725	160.797	133.968	-8.207	67.751
BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH IQTISODIYOTILI VA RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR							

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-455.835	-534.448	-481.569	-470.120	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-235.090	-142.770	-245.003	-139.386	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	-8.137	183.059	424.597	129.136	-	-	-
MDH mamlakatlari							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-9.412	-16.118	-27.850	3.609	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-14.276	17.929	3.508	17.388	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	50.861	81.191	61.830	48.805	-	-	-
Osiyoning bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotli va rivojlanayotgan mamlakatlari							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-224.272	-277.289	-221.741	-272.994	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-93.305	-57.934	-115.548	-64.649	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	-103.484	-28.785	208.531	-78.303	-	-	-
Yevropaning bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotli va rivojlanayotgan mamlakatlari							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-26.965	-39.980	-27.189	-25.340	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-45.376	-53.161	-70.219	-39.866	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	-52.541	-30.147	7.248	-13.985	-	-	-
Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasida joylashgan mamlakatlar							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-112.016	-147.479	-150.687	-145.020	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-106.865	-107.166	-95.264	-107.007	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	3.975	16.294	24.201	38.847	-	-	-
Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Afg'oniston, Pokiston							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-49.316	-22.921	-25.297	-8.603	-	-	-
Portfel investitsiyalari	25.040	73.285	57.266	72.056	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	59.424	124.615	105.001	142.099	-	-	-
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-47.030	-21.177	-24.372	-7.237	-	-	-
Portfel investitsiyalari	24.883	73.616	57.020	72.015	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	63.610	124.263	104.291	138.788	-	-	-

Manba: IMF, International Financial Statistics and World Economic Outlook databases as of October, 2016.

Kapital massalarining amalda nazorat qilinmaydigan jadal (ba'zida vahimali) transchegaraviy ko'chib yurishi milliy xo'jaliklarga, ayniqsa, rivojlanuvchi va o'zgarib boruvchi iqtisodiyotlarga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, boz ustiga, kapitallarning (chet el kapitallari va mahalliy kapitallarning) "qochishi", yuqori foyda olish maqsadida mamlakatga chet el moliyaviy unsurlarining ko'pdan-ko'p oqimlari kelishi ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Fikrimizni 2008 yilda boshlangan va hali-hanuz davom etayotgan global moliyaviy inqirozga oid ma'lumotlar yaqqol tasdiqlaydi.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz deb nom olgan ushbu fenomen tahlili uni keltirib chiqargan juda murakkab sabablarni aniqlab berdi. G'arbdagi tahlil chilar, shu jumladan, yetakchi xalqaro moliya tashkilotlari vakillari ichki moliyaviy va bank tizimlarining zaifligiga, to'lov balansi tanqisligiga, fond bozorida qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk qiymati oshirib yuborilganligiga, nisbatan qattiq boshqariladigan valyuta kurslari saqlanayotganligiga, qisqa muddatli investitsiya larning o'rinsiz tarzda yirik hajmlari jalb etilayotganligiga e'tiborni qaratmoqdalar. Eng muhimi esa, ular inqiroz boshlangan davlatlarning yuzaga kelgan muammolarga mos tarzda javob qila olmasliklarini, bu esa chet ellik investorlarning vahimaga tushgandek harakat qilishiga sabab bo'lganligini ta'kidlashmoqda. Tashqi va ichki investorlarning faolligiga (shu jumladan, nosog'lom faolligiga) aldangan XVF mazkur mamlakatlarda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining nomukam-malligini e'tirof etmoqda.

Institusional siyosatdagi, shu jumladan, investitsiya siyosatidagi zaruriy o'zgartishlarni inkor etgan holda makroiqtisodiy sohani "da'volash"ga yo'naltirilgan, XVF uchun an'anaviy bo'lgan yangi liberal mafkuraga asoslangan yalpi harakat dasturlari samaradorligi pastligi ham kutilmagan mummolar keltirib chiqardi. Mutlaqo yangi liberal usullar qo'llanilishi (foiz stavkalari oshishi, davlat xarajatlarini kamaytira borish va hokazolar) ishlab chiqarish hajmlari pasayishini, bank sektorida turli muommolarni, import qisqarishi tufayli tashqi savdo muvozanati buzilishini keltirib chiqardi; muammoli banklar bankrotligini tezlik bilan e'lon qilishga chaqiriqlar esa, aholi orasida vahima boshlanishiga va jamg'armalarning yalpisiga qaytarib olinishiga sabab bo'ldi.

Tarkibiy buzilishlarni tuzatmay, sanoat siyosatini ishlab chiqmay va izchil amalga oshirmay "makroiqtisodiy barqarorlashtirish"ga zo'r berish inqirozdan qutulish masalasining cho'zilishiga sabab bo'ldi va bu ko'plab moliyaviy resurslar jalb etishni taqozo qildi va globallashuv davrida iqtisodiy tizimlar juda o'zgaruvchan ekanligining yana bir dalili bo'ldi. Jahondagi mavjud iqtisodiy tuzilmaga tub o'zgartishlar kiritish zaruriyati borgan sayin ko'pchilik mutaxassislariga ayon bo'lib bormoqda.

Hozirgi paytda moliyaviy resurslarning niqoyatda yuqori darajada mobilligi tufayli mamlakatlar o'rtasida ulkan kapital oqimlari harakati kuzatilmoqda. Shu boisdan moliyaviy sektorda «yangi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy arxitektura»ni qaror toptirish va uni tartibga soluvchi mexanizmlarni isloh qilish jiddiy

muammo bo'lib turibdi. Bu muammolar rivojlanayotgan va o'tish davri mamlakatlari uchun ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Ularning ko'pchiligi to'laqonli bozorlar ("emerging markets")ni shakllantirish bosqichida bo'lib, ayni shu mamlakatlar yuqorida aytib o'tilgan larzalar tufayli ko'p talafot ko'rdilar.

Yuqorida qayd etib o'tilgan muammolarni hal etish quyidagi savollar javobini izlashni taqozo etadi: real ishlab chiqarishdan mutlaqo ajralib qolgan valyuta-moliya soha sida inqirozlar oldini olish uchun nimalar qilish kerak? Mabodo, inqirozlar muqarrar bo'lsa, ularning qachon boshlanishini qanday qilib o'z vaqtida va aniqroq bashorat qilish mumkin? Inqiroz oqibatlaridan yumshatish va yuksalish yo'liga tezroq qaytish uchun qanday vositalardan foydalanish kerak?

Inqirozga qarshi siyosat yuritishda tartibga soluvchi mexanizmlar va moliyaviy soha institutlariga ularning barqarorligini oshirish hamda investor va qarzdorlar uchun tavakkalchilik xatarini kamaytirish jihatidan muhim o'rin ajratiladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi avj ota boshlagan 2009-yilning o'rtalarida yig'ilgan "Katta yigirmalik" sammiti "yangi xalqaro moliyaviy arxitektura"ga o'z qat'iy qarashlarini bildirgan holda, bu tizim jahon iqtisodiyotini rivojlantirish manfaatlariga javob berishi, inqirozlar oldini olishga va bozorlarning samarali ishlab turishiga ko'maklashishi kerak, - degan xulosaga keldi. O'sha sharoitda hamkorlikdagi islohotchilik harakatlarining quyidagi yo'nalishari taklif qilingan edi:

- *Bosh xalqaro moliyaviy institutlar – Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankini*

mustahkamlash hamda isloh qilish, xalqaro hamkorlik sohasida tegishli chora-tadbirlar ko'rish;

- *Moliyaviy institutlar va bozorlar ochiq-oydinligini oshirish, bozor sub'ektlarining sifatli axborot va tavakkalchilikdagi ehtimoliy xatarlarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishlariga imkon beradigan har qanday harakatlarni rag'batlantirish;*
- *Kredit irtizomini mustahkamlashga qaratilgan, kreditlarni o'z operatsiyalari bilan bog'liq, tavakkalchilik xatarlarini puxtaroq chamalab ko'rishga undaydigan sanoati rivojlangan mamlakatlar moliyaviy tizimlarini tartibga solishni kuchaytirish;*
- *Qarz oluvchilari xalqaro moliyaviy tizimga qo'shilihning ijobiy tomonlaridan foydalanishlarini ta'minlaydigan tarzda makroiqtisodiy siyosatni va bozorlari shakllanayotgan mamlakatlar moliyaviy tizimlarini takomillashtirish;*
- *Inqirozlarning oldini olish va ularni boshqarish ishlariga xususiy sektorni jalb etgan qolda ushbu faoliyatni yaxshilash, o'z tavakkalli harakatlari salbiy oqibatlarining o'zlari uchun muqarrarligini bozor sub'ektlarining o'zlari payqaydigan sharoitlarni yaratish, moliyaviy bozor "kasallikni yuqtirib olishi" xavfini susaytirish;*
- *Kambag'allar va aholining nochor qatlamlariga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish.*

Jahon moliyaviy tizimini isloh qilishning yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatmoqdaki, uni tartibga solish jarayonida milliy, hududiy va global miqyosda ko'pdan-ko'p tuzilmalar va institutlar ishtiroki kerak

bo'ladi. Mazkur masala yechimiga XVF, Jahon banki, shuningdek, Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi va Moliya bozorlari ustidan nazorat qilish xalqaro tashkiloti kabi institutlarga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Ularning barchasi chegaralovchi qoidalar va andozalarni, turli kodekslar va deklaratsiyalarni (masalan, "Yaxshi amaliyot kodeksi", "Ochiq-oydinlik prinsiplari deklaratsiyasi"ni) shakllantirishda muayyan darajada yondashadi. "Ettilik" rahbarlari XVF makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda, moliyaviy inqirozlarning oldini olishda markaziy rol o'ynamog'i lozimligi to'g'risida bayonot berdilar. Ularning fikricha, bu murakkab vazifani bajarish uchun Fond o'z tuzilmasini isloh etishi kerak.

Umuman, yaqin istiqbolda moliyaviy barqarorlikni saqlash va jahon moliya bozorlarida operatsiyalar hajmi va tezligi mutassil oshib borishi tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy muammolar va qiyinchiliklar oldini olish uchun yanada samaraliroq harakatlar, shu jumladan, institusional o'zgarishlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy bozorlar rivojlanishining asosiy xususiyatlari va unqa ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Jahon xo'jaligi globallashuvining zamonaviy bosqichida xalqaro moliyaviy tizim rivojlanishining ziddiyatli jihatlaridan biri unga davlat aralushivining kuchayib borayotganligidir. Ko'pchilik rivojlangan va rivojlana-yotgan mamlakatlar hukumatlari o'z moliyaviy

tizimlari doirasida foiz stavkalarini chegara-lash, majburiy rezerv me'yorlarining nisbatan yuqoriligi va kredit taqsimotini markazlashtirish orqali faqatgina milliy iqtisodiyotlarigagina emas, balki xalqaro moliya tizimiga ham o'z ta'sirlarini o'tkazmoqdalar. Bu albatta, turli darajali xo'jalik sub'ektlari uchun moliyaviy tizimning jozibadorligini pasaytiradi.

Xalqaro moliya tizimining hozirgi zamon rivojlanish xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri oqibatlarini ko'rib chiqamiz.

Jahon moliya tizimi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri bu kreditlarni joylashtirish masalalariga davlat aralashuvi bo'lib, bunda hukumatlar huquqiy tizimni o'zgartirish va shartnomalarni bajarish intizomini mustahkamlash (mulkiy huquqlarni oydinlashtirish va kredit ta'minoti qonun-qoidalarini takomillashtirish); bank boshqaruvi va nazorati, muxosiblar va auditorlar tayyorlash tizimi va axborotni to'g'ri yoritib berishni ta'minlashni yaxshilash yo'li bilan kreditorlarning uzoq muddatli sarmoyani taqdim etish va aksionerlik kapitalini rivojlantirishga bo'lgan manfaatdorligini oshirish imkoniga egadirlar.

Lekin zarur moliyaviy muassasalarni yaratish uzoq muddat va ma'lum mablag'ni talab qiladi va o'z-o'zidan tushunarliki, hukumatlar tezroq natija olishni afzal ko'radilar. Undan tashqari, davlatlar moliyaviy tizim imkoniyatlaridan yuqori ijtimoiy natijalar beruvchi loyihalarga mablag'larni joylashtirish, daromadlarni qayta taqsimlash, davlat korxonalarini qo'llash, cheklangan savdo siyosati va valyuta kurslari tafovutini qoplash

kabi qator maqsadlarga erishish uchun foydalanadilar.

Hukumat organlari ko'pincha foiz stavkalari va davlat, hamda xususiy korxonalariga beriladigan kredit ustidan nazoratni amalga oshirib, maqsadli kredit dasturlari orqali moliyaviy yordam va institusional qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etishga urinadilar.

Rivojlangan mamlakatlar hukumatlari ham moliyaviy soha faoliyatiga aralashuv siyosatini o'tkazib, kredit oqimlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'ladi. Lekin foiz stavkalari va kredit ustidan nazorat rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda unchalik katta emas, nisbatan past darajada bo'lib, bunda asosiy e'tibor moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlovchi choralarga qaratiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aksariyat holatlarda davlat nazorati va aralashuvi maqbullik chegarasidan chiqib ketayotganligi kuzatiladi. Bu mamlakatlarning hukumatlari kreditlarni joylashtirish faoliyatida yetakchi o'rinni egallamoqchi bo'ladi.

Ko'pincha bir mamlakatning o'zida bir vaqtda harakat qiluvchi dasturlar doirasida turli foiz stavkalari, kreditlarni so'ndirish muddatlari va muvofiqlik mezonlari ko'zda tutiladi.

Direktiv kredit dasturlari odatda ko'proq davlat korxonalari, kichik va o'rta firmalar, sanoat va qishloq xo'jaligining alohida tarmoqlari va kamroq darajada uy-joy qurilishi, eksport tarmoqlari va qoloq hududlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Sanoatni rivojlantirish dasturlarining maqsadi uzoq muddatli arzon sarmoyalar va horijiy valyuta bilan ta'minlash bo'lib, bunday sarmoyalash jarayoni industrilashtirishni tezlatishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligini kreditlashning asosiy

maqsadi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishdir. Kichik korxonalariga beriladigan kreditlar qo'shimcha ish joylari yaratishga va aholining kambag'al qatamlarini uy-joy bilan ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan. Eksport krediti dasturlari ishlab chiqarish muddati bilan to'lov amalga oshiriladigan vaqt o'rtasidagi uzilishni bartaraf qilib, eksportchilar manfaatini cheklovchi tashqi savdo va tarkibiy siyosatni amalga oshirish natijasida keladigan ularning zararlarini qoplashga yo'naltirilgan.

Ayrim mamlakat hukumatlari ustuvor rivojlantiriladigan tarmoqlar uchun odatdagi kreditlarga o'rnatiladigan foiz stavkalaridan ancha past bo'lgan imtiyozli foiz stavkalari o'rnatadilar (ba'zi hollarda davlat kafolati ostida). Yuqori rivojlangan mamlakatlarda kredit kafolatlari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. Kamerun, Kolumbiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Malayziya, Marokko, Nepal, Filippin, Shri-Lanka kabi rivojlanayotgan mamlakatlar kichik va o'rta biznes korxonalari uchun rasmiy kafolotlar tizimini yaratganlar. Braziliya, Hindiston, Meksika, Panama va Shri-Lanka kabi mamlakatlarda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun davlat kafolatlardan va hosilni davlat tomonidan sug'urtalash faoliyatidan keng foydalaniladi. Bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda tovarni qabul qilib olishdan avvalgi bosqichlarda eksport kreditlarini kafolotlash tizimi mavjud bo'lsa, ayrim mamlakatlar umuman eksport tizimini sug'urtalash tizimini joriy qilganlar.

Moliyaviy tizim va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi yana bir kuchli omil dalat tomonidan

taqdim etiladigan direktiv dasturlarning mavjudligidir.

Ekspertlar fikricha, yuqori proteksionizmga asoslangan savdo tizimi va makroiqtisodiy barqarorlikka ega bo'lmagan mamlakatlar (masalan, Tailand)da direktiv kreditlash mavjud tarkibiy nomutanosibliklar va baho muvozanati buzilishlarini yanada kuchaytiradi. Savdo cheklovlari kamaytirilib, makroiqtisodiy holat barqarorlashganda ko'pchilik kredit olgan korxonalar no-rentabel bo'lib chiqdi. Baho va boshqa buzilishlar bartaraf qilingan, hamda makroiqtisodiy barqarorlik saqlanib turilgan mamlakatlarda (masalan, Janubiy Koreyada) direktiv kreditlash ko'proq muvaffaqiyat qozondi.

Kreditlashning direktiv dasturlaridan moliyaviy tizimni barqarorlashtirish maqsadida emas, sarmoyalarning yetarli samaradorligi ta'minlanishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotning ustivor sohalariga yo'naltirish uchun foydalanildi. Lekin iqtisodiy muammolarni yechishning samaradorroq usullari mavjud. Tovar bozorlariga bevosita ta'sir o'tkazish, daromadlarni qayta taqsimlash, qishloq xo'jaligi baholarini isloh qilish, kam daromadlilarga yordam ko'rsatish va boshqa chora-tadbirlar orqali qo'yilgan maqsadlarga erishish va kreditlarni besamar ishlatilishiga chek qo'yish mumkin.

Iqtisodiy o'sish va daromadlar taqsimotiga direktiv kreditlarning ta'siri haqida turli fikrlarning mavjudligiga qaramay, shu narsa ayonki, bunday kreditlash moliyaviy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Direktiv qarzlarning ko'pchiligi to'lanmagan qarzlarga aylandi. Past foizlar bilan qarz olish imkoniyati nosamarador sarmoyalarni rag'batlantiradi. Ko'pchilik holat-

larda daromad me'yori uncha yuqori bo'lmagan loyihalar, kreditlarni qaytarish imkoniga ega bo'lmay qoladilar. Mablag'larni noto'g'ri joylashtirish va moliyaviy intizomni buzish moliyaviy vositachilarning besamar faoliyatiga, ba'zi hollarda esa ularning hatto xonavayron bo'lishiga olib keladi. Juda katta hajmdagi past foiz stavkali markazlashtirilgan moliyalash dasturlari mablag'larni safarbar qiluvchi moliyaviy muassasalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va moliyaviy vositachilik saviyasining ham pasayishiga olib keladi. Undan tashqari korxonalami arzon kreditlashga murojaat qilishga rag'batlantirib, direktiv kredit dasturlari qimmatbaho qog'ozlar bozori rivojlanishining sekinlashuviga sabab bo'lmoqda.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalaridan bo'lgan majburiy rezerv me'yorlari va davlat qimmatbaho qog'ozlarini majburiy sotish moliya bozoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Majburiy rezervlarning yuqori me'yorlarini o'rnatish, agar ular banklar ixtiyoriy ravishda qo'llab turishga rozi bo'lgan darajadan yuqori bo'lsa, pul mablag'larining milliy moliyaviy tizim doirasidan tashqariga oqib ketishiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda yana bir muammo rezerv me'yorlarining o'zgaruvchan emasligidir. Majburiy rezerv me'yorlarining o'sishi banklarning normal ishlashini cheklaydi va ulardan qo'shimcha xarajatlar talab qiladi. Ma'lumki, rezerv majburiyatlari deb, odatda bozor kurslaridan ancha past bo'lgan foiz asosida markaziy bankka beriladigan majburiy ssudalarga aytiladi. Yana bir yo'nalish, bank, sug'urta kompaniyalari va boshqa muassasalar mablag'larining bir qismini past daromadli davlat obligatsiyalariga joylashtirish

talabidir. Bunday usul, masalan, Hindiston va Pokistonda yirik byudjet kamomatlari arzon moliyalash uchun qo'llaniladi. Yuqori rezerv majburiyatlari va past foizli davlat qimmatbaho qog'ozlarini majburan tarqatish xususiy sektorni kreditlash jarayonlariga va umuman moliyaviy vositachilik sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yashirin soliq vositachilik muassasalarining daromadini qisqartiradi, yoki depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari yoki yuqori ssuda foizi shaklida jamg'armachilar va qarz oluvchilar zimmasiga yuklatiladi. Masalan, Turkiya va Filippinda qo'llanilgan moliyaviy vositachilikni ochiq soliqqa tortish depozitlar bo'yicha stavkalarining pasayishiga, ssuda foizlarining o'sishiga olib keldi.

Moliyaviy tizim faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar bank foizlari ustidan nazorat va inflyatsiya ko'pchilik mamlakatlarda moliyaviy tizim rivojining sekinlashuviga sabab bo'lmoqda. Hukumatlar qisman investitsiyalarni rag'batlantirish, qisman daromadlarni qayta taqsimlash, hamda o'zlarini arzon kreditlarga ega bo'lish maqsadida bank foizlarini past darajada ushlab turishga harakat qiladilar. Ularning ko'pchiligi fikricha, depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari moliyaviy mablag' jamg'armalarining kamayishiga olib kelmaydi.

Jahon tajribasi ayrim hollarda mazkur amaliyot noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Ma'lumki, real foiz stavkalari va inflyatsiya moliyaviy jamg'armalarga katta ta'sir ko'rsatadi hamda moliya jamg'armalarining hajmi va ularning kredit uchun taqdim qilinadigan foiz stavkalari bevosita iqtisodiy o'sish bilan bog'liq.

Inflyatsiyaning real foiz stavkalariga shu tariqa ta'siri tufayli makroiqtisodiy barqarorlik moliyaviy sohani rivojlantirish uchun hayotiy

ahamiyatga ega. Muvofiqlashtirilgan pul va soliq siyosatini amalga oshirish yo'li bilan past va barqaror inflyatsiya darajasiga erishilgan mamlakatlarda bank foizlari o'rta miyona nazorat qilinsa ham, moliyaviy soha ancha tez rivojlandi.

Sun'iy ravishda pasaytirilgan foiz stavkalari kreditga bo'lgan talabni oshirib yuboradi va bu bilan moliya muassasalarini qarz berish jarayonlarini kvotalashga majbur qiladi. Faqat juda past foiz stavkali kredit olishga rozi bo'lgan qarz oluvchilarga bu juda qo'l kelishi mumkin. Direktiv kredit dasturlari bilan birgalikda bunday choralar (past foiz stavkani qo'llash) iqtisodiyotda raqobat darajasini susaytiradi. Inflyatsiya, depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari siyosati bilan birga kapitalning chiqib ketishiga olib keladi va buning natijasida moliyaviy vositachilar ixtiyoridagi mablag'lar hajmi kamayadi. Lekin norasmiy bozorlarning rivojlanishi foiz stavkalarini boshqarish tadbirlari, hamda nazoratning boshqa turlari salbiy oqibatlarini yumshatadi.

Foiz stavkalari ustidan nazorat kelajakda olinishi mumkin bo'lgan mablag'larning to'lov qobiliyatiga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Foiz stavkalari boshqarilmaydigan sharoitda ham kelajakdagi inflyatsiya darajasiga ishonchsizlik kreditorlar va qarz oluvchilarning bir birlari bilan maqsadga muvofiq ravishda kat'iy belgilangan nominal foiz stavkalarini kelishib olishga xalaqit beradi. Chunki inflyatsiya darajasi qanchalik o'zgaruvchan va uzoq muddatli bo'lsa, xavflar ham shuncha yuqori bo'ladi. Argentinaga o'xshagan mamlakatlarda 80-90-yillarda 30 kundan ortiqroqqa berilgan kreditlar favqulodda hodisa deb hisoblanar edi.

Uzoq muddatli va davomli inflyatsiya holatida bo'lgan ba'zi mamlakatlarda, masalan Braziliya, Chili, Kolumbiya va Isroilda, indeksatsiyalanadigan kredit shartnomalaridan foydalanishga ijozat berilgan. Ba'zi mamlakatlar, shu jumladan, Urugvay, Turkiya va Yugoslaviya, indeksatsiyalash o'rniga xorijiy valyutadagi depozitlar sxemasini joriy etdilar. Bu sxemalar depozitlarni valyuta kursi bo'yicha indeksatsiyalaydilar.

Ba'zi moliyaviy aktivlarning likvidligiga cheklovlar o'rnatish ya'ni naqd pul aylanmasini cheklash orqali ham moliyaviy tizimga ta'sir ko'rsatish mumkin.

Birinchi navbatda, sobiq sotsialistik mamlakatlarga xos bo'lgan bunday cheklash naqd pul bilan naqd pulsiz mablag'lar qiymati o'rtasidagi tafovutning vujudga kelishiga, hamda mamlakat moliyaviy tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Bunday siyosat natijasida pul massasi tarkibida naqd pul ulushining ko'payishi va bank tizimi moliyaviy mablag'lari hajmining kamayishi yuz beradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bunday cheklov sharoitida tijorat banklarining ortiqcha rezervlari joriy likvidlikni saqlash uchun zarur bo'lgan darajadan yuqori bo'lib, banklar daromadlarini pasaytiradi.

Xalqaro moliyaviy tizim faoliyatiga so'nggi yillarda kuchli ta'sir ko'rsatayotgan omil bu rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari va ulardagi moliyaviy inqirozdir.

So'nggi vaqtlarda xususiy kapital oqimlarining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati keskin o'sdi va bu sharoitda, moliyaviy sohaning ochiqligi va erkinligi iqtisodiyot rivoji uchun juda katta foyda olib keladi. Jamg'armalarni ulardan foydalanishning eng

samarador sohalariga yo'naltirish, kapitalning erkin harakati sarmoyalarning ko'payishiga, iqtisodiyotning o'sishiga va pirovard natijada farovonlikka olib keladi. Oqilona amalga oshirilgan va shunday siyosat doirasida, ko'p yoqlama moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga asoslangan moliya oqimlarini erkinlashtirish amaliyoti, moliya bozorlarining globallasuvi sharoitida samaradorlik bilan faoliyat ko'rsatayotgan milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlari tajribasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, moliya mablag'lari erkin harakatining kuchayish yo'nalishi saqlanib qoladi. Muhim masala moliya oqimlarini erkinlashtirish qachon, qanday qilib va qanday shart-sharoitlarda amalga oshirilishini hal etishdir.

Osiyo moliya inqirozi tartiblashtirilgan va maqsadga muvofiq ketma-ketlikda amalga oshiriladigan moliya oqimlarini erkinlashtirish jarayonlarining muhimligini, tegishli makroiqtisodiy va valyuta siyosatini olib borish zaruratini, hamda moliyaviy sohaning iqtisodiyotning rivojlanishidagi hal qiluvchi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

Indoneziya, Koreya va Tailand kabi davlatlar o'z moliyaviy sohalarining zaifligi, ya'ni moliyaviy muassasalarning xavflarni baholash va ularni boshqarish imkoniyatlarining cheklanganligi, huquqiy nazoratning yetarli emasligi, kapital harakatini erkinlashtirish choralarining betartib amalga oshirilgani tufayli katta talofot ko'rdilar.

Kapital harakatini erkinlashtirish siyosati amalga oshirilayotgan sharoitda yana bir muhim masalalardan biri davlat byudjeti va valyuta rezervlarining joriy holatidir. Agar

xususiy sektor davlat moliyasining zaifligini his etsa, bu holat kapitalning tashqariga oqib ketishiga va ayirboshlash kurslarining keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 80-yillarda Meksikada qarzlarni qaytarib berolmaslik tanazzul holati, mamlakat 1982 yilning ikkinchi yarmida valyuta rezervlarini deyarli tugatgandan so'ng sodir bo'ldi. Bunday holat 80-yillarning boshlarida qoplash imkoni bo'lmagan salmoqli byudjet kamomadi va

byudjet ustidan nazorat yo'qotilganligi natijasida vujudga keldi.

Shunday qilib milliy moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirishda yuqorida sanab o'tilgan omillar albatta inobatga olinib, ular ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda moliyaviy islohotlarni o'tkazishda maqsadga muvofiq ravishda foydalanilishi kerak.

IV bob. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik

Hozirgi zamon jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida aksariyat davlatlarda, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan "bozor" islohotlari nafaqat ular milliy iqtisodiyotlarining ildam rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashi, balki pirovard natijada har bir mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Ma'lumki, xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga siyosiy xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik va boshqa sohalaridagi xavfsizlik masalalarini qamrab oladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat xavfsizligini ta'minlashda faqat harbiy salohiyatni mustahkamlash bilangina chegaralanib qolmay, keyingi paytlarda xavfsizlikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jihatlarini o'z ichiga oladigan keng qamrovli faoliyat ekanligini anglash ancha kuchaydi. Mazkur masala yechimiga tizimli yondashgan holda, shuni ta'kidlash joizki, sanab o'tilgan yo'nalishlar o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib turadi. Shu binal birga, ular orasida "asosiy va hal qiluvchi" rol iqtisodiy xavfsizlikka tegishlidir. Unga mamlakat aholisining normal darajada hayot kechirishini va milliy iqtisodiyotni barqaror holda resurslar bilan hamda davlat manfaatlarini har tomonlama to'liq ta'minlovchi xo'jalik tizimining muhim sifat tavsifi sifatida qaraladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning ob'ekti shaxs, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, suverenitet, hududiy yaxlitlik, davlat va iqtisodiyot boshqaruvi tizimlari hisoblanadi. Uning sub'ekti qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatini namoyon qiluvchi davlatdir.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanishning barqarorligini ta'minlovchi muhitni tashkil etuvchi omillar yotadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustivor yo'nalishlari milliy manfaatlar, real va potensial xavflarga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Mustaqil o'zbekistonning milliy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash: davlatning bo'linmasligi, chegaralarning daxlsizligi, geosiyosiy mavqei, terrorizm, narkobiznes va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosiga umuman yo'l qo'yilmaslik, inson huquqi, milliy yetukligi va mamlakatni jahon hamda mintaqaviy xavfsizlik tizimida faol ishtiroki, ekologik va yadroviy xavfsizlikka alohida e'tibor berilishi, siyosiy ekstremizm va diniy niqob olgan millatchilik, korrupsiya va boshqa jinoiy hatti-harakat larga qarshi murosasiz kurash kabi tamoyillarga asoslanganligini e'tirof etish joizdir.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning uzviy elementlaridan biri bo'lib, u mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'li, vositasi va usullari yig'indisidir. Konseptual jihatdan iqtisodiy xavfsizlik davlatning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqadigan milliy xavfsizlikning quyidagi: iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-demografik, etnografik-iqtisodiy, infor-matsion-

axborot va harbiy-siyosiy omillar tahliliga asoslanadi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shundan dalolat beradiki, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi davlat mustaqilligi, uning barqaror rivojlanishi garovidir. Bu avvalambor iqtisodiyot-jamiat, davlat va shaxa faoliyatidagi muhim omil ekanligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan milliy xavfsizlik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining samaradorlik darajasi, uning mumkin bo'lgan tashqi va ichki tahdidlar oldida mustahkam rivojlanishi imkoniyatlariga bog'liq holda aniqlanadi. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi milliy manfaatlarining ustuvor yo'nalishlari sirasiga kirishi bejiz emas.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim sifat jihati deb qaraladi va u asosan, quyidagi uchta o'zaro bog'langan muammolarni hal etishga qaratilgan:

- *yeterli darajada va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;*
- *ijtimoiy iste'molni samarali qondirish;*
- *ichki va tashqi tahdidlardan davlat, jamiat va shaxsning iqtisodiy manfaatlarini milliy va xalqaro darajad himoya qilish.*

Mutaxassislar tomonidan ta'kidlanishicha, iqtisodiy xavfsizlik mohiyatining ochib berilishida, uning quyidagi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqligini anglash muhimdir.

1. *Iqtisodiy mustaqillik.* Ma'lumki, iqtisodiy mustaqillik mutlaq xarakterga ega emasdir. Chunonchi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi milliy iqtisodiyotlarning birligiga bog'liq holda rivojlanishini taqozo etadi. Globallashuv sharoitida iqtisodiy mustaqillik

milliy resurslar ustidan nazorat qilish va mamlakatning jahon savdosida teng xuquqli ishtirokini ta'minlay oladigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligiga erishish, hamda ilmiy-texnik yutuqlarini ayirboshlash darajasiga erishilishini anglatadi.

2. *Milliy iqtisodiyotning barqarorligi va muqimiligi.* Bu mulkchilikning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati uchun ishonchli shart-sharoitlar va kafolatlarni taqdim etish, ichki vaziyatni nobarqarorlashtiruvchi (milliy iqtisodiyotda jinoy tuzilmalarga qarshi kurash, aholi daromadlari o'rtasida keskin farqlanishlarning oldini olish va hokazolar) omillarning oldini olish kabi hatti-harakatlar majmuidir.

3. *O'zini-o'zi rivojlantirish va taraqqiyotga molikligi.* Investitsiya va innovatsiyalar uchun maqbul muhitni yaratish, ishlab chiqarishni doimiy tarzda modernizatsiyalashtirish, xodimlarning professional, ta'lim va ma'naviy-madaniy darajasini ko'tarish, ushbu holatga erishish omillari sirasini tashkil etadi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki jahon xo'jaligi globallashuvining zamonaviy bosqichida iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqaror va mutanosib rivojlanishi, doimiy tarzda innovatsiyalar asosida yangilanib-modernizatsiyalashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoit va omillar yig'indisidan iboratdir.

Ma'lumki, iqtisodiy xavfsizlik darajasi bir qator mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Iqtisodiy xavfsizlik mezonini belgilash – bu iqtisodiy xavfsizlik mohiyatini

aks ettiruvchi muhim jarayonlar nuqtal-nazaridan milliy iqtisodiyot holatini baholash demakdir. Uning mezonlari sirasiga – mavjud resurslar salohiyati va ularni kengaytirish imkoniyatlari, mamlakat iqtisodiyotining milliy va xalqaro raqobatbardoshligi, hududiy va ishlab chiqaruvchi makonning yaxlitligi, tashqi tahdidlar oldini olish va ularga bardosh bera olish imkoniyatlari, ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish va hal etish kabilar kiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *iqtisodiy o'sish (milliy ishlab chiqarish va milliy daromad dinamikasi va tarkibi, sanoat ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari milliy ko'rsatkichlari, xo'jalikning tarmoq tuzilmasi va alohida tarmoqlar dinamikasi, kapital qo'yilmalar va boshqalar);*
- *mamlakatning tabiiy-resurs, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy salohiyati ko'rsatkichlari;*
- *xo'jalik mexanizmining jo'shqinligi va moslashuvchanligi, hamda uning ichki va tashqi omillari inflyatsiya darajasi, byudjet va to'lov balansi holati milliy valyutaning barqarorligi, ichki va tashqi qarz ko'rsatkichlari;*
- *hayot darajasi (YalMning aholi jon boshiga ulushi, aholi qatlamlari bo'yicha daromadlarning differentsiyalashuv darajasi, aholining moddiy ta'minot va xizmatlar bilan ta'minlanganligi, aholning mehnatga layoqatligi, atrof-muhitning holati va boshqalar) ko'rsatkichlari.*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlik – bu davlatning jamiyat ehtiyojarini milliy va xalqaro darajalarda samarali ta'minlashga qodirlik darajasidir. U milliy iqtisodiyotning samarali dinamik ravishda o'sishi, jamiyat, davlat, individ ehtiyojarini qondirishi, ichki va tashqi bozorlarda turli tahdidlardan kafolatlovchi, raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha shart-sharoitlar majmuidir.

O'zbekistonda keng ko'lamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va bozor munosabatlariga o'tish jarayonlari globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotimiz xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligini taqozo etmoqda. Chunonchi, hech bir davlat o'zining barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga o'z milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlamasdan erisha olmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtisodiy xavfsizlik masalalari sirasiga kiruvchi, uning komponentlaridan biri hisoblangan tashqi iqtisodiy faoliyat xavfsizligi hozirda xo'jalik munosabatlarining globallashuvi jarayonida alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir davlatning iqtisodiy mustaqilligi, uning aholisi turmushi farovonligi ko'p jihatdan uning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanganligi, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining asosi bo'lgan ishlab chiqarish va ilm-fan tizimining muvofiqashtirilganligi bilan o'chani. Shulardan kelib chiqib, keyingi o'rinda asosiy e'tibor iqtisodiy xavfsizlikning innovatsiya omiliga, intellektual mulkni muhofazalash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratiladi.

V bob. Globallasuv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari

Hozirgi davrda milliy innovatsion tizimni yaratish va takomillashtirishning konseptual asoslari

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiyalar omili ko'p jihatdan mamlakatlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini belgilab bermoqda va iqtisodiy o'sishning ustuvor manbasiga aylanmoqda.

Globallasuv innovatsiyalar hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omiliga aylantirib nafaqat milliy xo'jaliklar chegarasida, balki xalqaro miqyosda – intellektual mulk munosabatlarining o'rnatilishi va rivojlanishiga, ilm talab tovarlar ishlab chiqarish va ayirboshlashga qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Bu, o'z navbatida, innovatsion salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotlari bilan bir qatorda, o'zlashtirilgan innovatsiyalarni moslashtira oladigan va ulardan samarali foydalanadigan milliy iqtisodiyotlarning ham barqaror rivojlanishi uchun muhim ustuvorliklar yaratmoqda.

Intellektual mulk munosabatlari ob'ektlar, sub'ektlar va jarayonlar o'rtasida murakkab bog'lanishlarni o'z ichiga oladi hamda boshqarishning muvofiqashtirilgan mexanizmlarini va alohida tartibga solish tizimini talab qiladi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar amali-

yoti ko'rsatishiga, intellektual mulk huquqlari sohasidagi hozirgi zamon global siyosat afsuski, tor yuridik xarakterga ega va milliy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olmaydi. Bundan tashqari, u texnologiyalarning "sof" importeri bo'lgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi ham mumkin. Mazkur muammolarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda intellektual mulk huquqlarini himoyalashning mavjud qoida va usullari bir tomondan innovatsiyalarni rag'batlantirish va boshqa tomondan bilimlardan foydalanish darajasini kengaytirish o'rtasidagi muvozanatni qay darajada ta'minlashi kerakligi nuqtai nazaridan yetarli darajada yoritilgan bo'lsada, mavzu doirasida intellektual mulk munosabatlarining iqtisodiy mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarning xalqaro intellektual mulk munosabatlarida ishtirokini kengaytirish, xalqaro tajriba asosida ushbu mamlakatlar intellektual mulk muhofazasi tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalam bor, milliy innovatsion tizim, ilmiy-texnikaviy va intellektual faoliyatning asosiy metodologik tushunchalari mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratsak. So'nggi vaqtlarda ilmiy va o'quv-uslubiy risolalarda "fan-texnika taraqqiyoti, "fan-texnika inqilobi", "ilmiy-texnikaviy salohiyat", "innovatsiyalar", "intellektual mulk"

va boshqa bir qator atamalarga o'rin berilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti asosan ikkita talqinga ega. Birinchidan, bu – bozor iqtisodiyotining uzviy tarkibiy elementi bo'lib, uning asosida ijtimoiy ishlab chiqarishning davomiy intensivikasiyalashuvi va samaradorligining oshishi sodir bo'ladi. Ikkinchidan esa, bu – asosiy texnologiyalar va texnika yo'nalishlarini ketma-ket (evolyusion yoki revolyusion tarzda) almashtirish, ilg'or texnika va ishlab chiqarishning yangi uslublarini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosi bo'lgan moddiy ne'matlar (mahsulotlar va xizmatlar)ning yangilarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish ko'rinishidagi ilmiy ixtirolar bazasida fan va texnikaning yagona o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladigan rivojlanish jarayonidir.

Fan-texnika taraqqiyoti o'z navbatida ikkita tashkiliy qismdan iborat – fan taraqqiyoti va texnika taraqqiyoti. Fan taraqqiyoti – fundamental fan tomonidan yaratiladigan, olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan – ixtirolardir. Ular uncha ko'p emas, chamasii 100 nafar atrofida, va ular amaliy fanlar rivojlanishiga katta turtki bo'lib, sivilizatsiya rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdilar.

Texnik taraqqiyot – texnikaning ilgarilab rivojlanishidir. Ishlab chiqarish texnik bazasi rivojlanishining ikki bosqichini ajratish mumkin: 1- texnikani an'anaviy takomillashtirish; 2- texnikaning sifat jihatdan yangicha rivojlanishi. Agar birinchi bosqichda mehnat unumdorligi 2-3 martaga oshsa, ikkinchi bosqichda – mashinalarning kombinatiyalashtirilgan tizimini tadbqiq etishda 10-15 martaga, fundamental fanning yutuqlari va ixtirolariga

asoslangan texnologik tizimlar joriy qilinganda 50-60 martaga ortadi.

Texnologik taraqqiyot – ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi mehnat ashyolariga ta'sir usullaridagi o'zgarishlar bo'lib, bunda samaradorlik bir necha martaga ortadi.

Fan – texnika taraqqiyoti ikki yo'nalishda: birinchidan, ilmiy-texnikaviy faoliyat ko'rinishida; ikkinchidan, ishlab chiqarishda yangiliklar ustuvorligini va ularni milliy xo'jalikda keng tadbqiq etishni ta'minlovchi, ma'lum ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish shaklida amalga oshiriladi.

Fan – texnika taraqqiyoti birinchi navbatda ishlab chiqarish sohasiga – mehnat vositalari va predmetlari, texnologiyalarni va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Milliy xo'jalikdagi fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari ko'p jihatdan iqtisodiy tizimning yangiliklar ta'sirchanligiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik mexanizmining xususiyatlari bilan belgilanadi. Har qanday ijtimoiy jarayon kabi fan-texnika taraqqiyoti ham ma'lum qonuniyatlarga ega va unga turli darajada maqsadli ta'sir ko'rsatilishi, mumkin. Bundan har qanday mamlakat hukumatining faol tarkibiy va innovatsion siyosatli naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi kelib chiqadi va bu bir martalik amalga oshiriladigan tadbqiq emas, balki turli shakldagi tadbqiqorlikning butun innovatsion bazasini optimal rivojlantirish va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlatning faol tartibga solish siyosati doirasida doimiy amalga oshiriladigan jarayon sifatida tushuniladi.

Fan-texnika taraqqiyotini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi fan-texnika salohiyati parametrlarini belgilovchi resurs (miqdoriy) ko'rsatkichlardan, hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatdan foydalanish darajasini, texnika-ning yangi namunalarini yaratishda ilmiy ixtirolardan samarali foydalanilayotganligini baholash imkonini beruvchi natijaviy (sifat) ko'rsatkichlardan tashkil topgan.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning ko'lam va sifati bir qator omillar, ya'ni: fan rivojiga qilinayotgan xarajatlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatining samaradorligi, umuman ilmiy xodimlarning soni va ilmiy darajasi, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish shakllari va usullari va boshqalar bilan belgilanadi. Mazkur omillar fan-texnika taraqqiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi va bu, birinchi navbatda, ushbu sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ko'lamiga bog'liq. Shuning uchun ilmiy-tadqiqot-tajriba konstruktorlik ish (ITTKI)larini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga ko'pchilik mamlakatlarda katta ahamiyat beriladi.

Milliy ilmiy-texnikaviy salohiyat ilmiy ixtirolar va texnologik yangiliklar yaratishga shuningdek ilm-fan sohasi oldiga qo'yiladigan milliy va xalqaro muammolarni yechishga qaratilgan har bir mamlakat tasarrufidagi mavjud resurslar majmuasidan iborat.

Ilm-fan sohasi ilmiy-tadqiqot faoliyatini (tadqiqotlar va izlanishlar) amalga oshiruvchi tashkilotlar yig'indisi bo'lib, ular asosan yangi bilimlarni olish va ularni qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat olib boradilar. Ilmiy faoliyat o'z navbatida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar yo'nalishiga bo'linadi.

Fundamental ilmiy tadqiqotlar – atrof tabiiy muhit tuzilishi, jamiyat, inson taraqqiyotining ko'rsatishi asosiy qonuniyatlari haqida bilim olishga yo'naltirilgan eksperimental yoki nazariy faoliyatdir. Amaliy ilmiy tadqiqotlar - aniq maqsadlarga erishish va amaliy masalalarni hal etish uchun yangi bilimlarni qo'llashga qaratilgan faoliyatdir.

Mavjud xalqaro statistikada fan sohasi holati va rivojlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar va tavsiflarga quyidagilar kiradi:

- *aholi jon boshi hisobiga, yalpi milliy mahsulot (YaMM) va davlat byudjetiga nisbatan foizda ITTKIga xarajatlar absolyut ko'rsatkichda:*
- *“fan va ilmiy xizmat ko'rsatish” tarmog'ining oraliq xarajatlari, foyda va qo'shimcha qiymati;*
- *fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, shu jumladan fanning akademik institutlar, oliy o'quv yurtlari, tarmoq, korxonalar kabi sohalarida tadqiqotlar va izlanishlar bilan bandlarning soni va tarkibi;*
- *ro'yxatga olingan ixtirolar va yangiliklar (patentlar, ilg'or texnologiyalar va h. k.) soni.*

Fan sohasi faoliyatining bevosita natijalariga qo'shimcha qiymat (yoki YaMM), “fan va ilmiy xizmat ko'rsatish” tarmog'ining foydasi va yalpi ishlab chiqarishi kiradi.

Ilmiy-texnikaviy faoliyat – texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarni yechish, fan, texnika va ishlab chiqarishni yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun yangi bilimlarni olish va ularni qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalariga ixtiro-larga patentlar va texnik xarkatarga ega nou-xau, shuningdek ular asosida yaratilgan va o'zlashtirilgan mashina, uskuna va apparatlar yangi tiplarining namunalari kiradi.

Ixtiro patenti (bundan keyin "patent" deb yuritiladi) ixtironing yangiligini, ixtirolik darajasini, uning haqiqiyiligini va patent egasining ixtiroga egallik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Nou-xau – o'z ichiga u yoki bu turdagi (korxonada faoliyatida qo'llaniladigan) ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan, lekin patentdanmagan, qo'llanilishi egalariga ma'lum afzalliklarni (foйда yoki daromad keltiradigan) ta'minlaydigan, texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ma'muriy-boshqarish, tijorat va moliyaviy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, to'liq yoki qisman konfidensial bilimlar majmuasidir.

Mashina, uskuna va apparatlarning yaratilgan va o'zlashtirilgan yangi namunalari miqdori va ularga sarflangan xarajatlar ham ilmiy-texnikaviy, ham innovatsion faoliyatga bir xil darajada tegishlidir.

Ushbu ko'rsatkichlar ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini aks ettirib, bir vaqtning o'zida ularning ishlab chiqarishga tadbiiq etish salohiyatini belgilab beradi. Bu ma'noda ular ilmiy-texnikaviydan innovatsion faoliyatga o'tish jarayonini belgilab beradi. Litsenziya shartnomasi intellektual mulk ob'ekti sifatidagi ilmiy-texnikaviy natijadan muddatli-manfaatli foydalanish huquqining topshirillishini ifodalaydi.

Intellektual mulk – fuqaro yoki yuridik shaxsning ilmiy, adabiy, badiiy, sanoat

sohalaridagi ijodiy faoliyati natijalariga mualliflik va boshqa huquqlarini qamrab oluvchi yuridik tushuncha bo'lib, quyidagi huquqlarni ifodalash uchun qo'llaniladi:

- *adabiyot, san'at, fan va texnika, masalan, ITTKI sohasidagi, shuningdek ijodning boshqa sohalaridagi intellektual (ijodiy) faoliyat natijalariga;*
- *xo'jalik (fuqarolik) oborotining ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxsni individuallashtirish, mahsulot, bajarilayotgan ishlar, tovarlar yoki xizmatlarni individuallashtirish vositalariga (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va h. k.);*
- *g'irrom raqobatdan muhofazalanishga qaratilgan huquqlar.*

Intellektual mulk ob'ektlariga mavjud shaklda ifodalangan va moddiy tashuvchilarda belgilangan intellektual faoliyat natijalari (asarlari) kiradi.

Ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy natija – o'z ichiga yangi bilimlar yoki yechimlarni olgan va har qanday axborot tashuvchi aks ettirilgan ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy faoliyatning intellektual mahsulidir.

Ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy mahsulot – ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy natija, shu jumladan, sotish uchun mo'ljallangan intellektual faoliyat natijasidir, ya'ni bu bozorga "chiqarilgan" intellektual mahsulot. Intellektual mahsulotlarning bozorda sotish uchun mo'ljallanmagan qismi ilmiy-texnikaviy mahsulot tushunchasiga kiritilmaydi.

Fan sig'imli mahsulot – tovarning umumiy sotilish qiymatida ITTKIga ajratilgan xarajatlarning ulushi 2,5 foizdan kam bo'lmagan mahsulotdir. Fan sig'imli iqtisodning afzalligi quyidagilardan iborat:

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

- *resurs (xomashyo) va energiya sig'iminining pastligi; demak o'tkir ekologik muammolarning yo'qligi;*
- *aholi ijtimoiy-madaniy darajasining ko'tarilishiga olib keluvchi mahsulotning yuqori ilmiy salohiyatligi;*
- *aholining yuqori turmush darajasini ta'minlaydigan ishlab chiqarish samardorligining oshib borishi.*

Yuqori texnologik tovarlar – umumiy sotilish qiymatida ITTKlga ajratilgan xarajatlarning ulushi 3,5 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan mahsulotdir.

Shuni ta'kidlash joizki, intellektual mahsulotlar bozoriga chiqish hamma vaqt ham ularning ishlab chiqarishda yoki ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishi va katta o'zgarishlarga olib kelishini anglatmaydi. Ularning ma'lum qismi bozorda sotilmay qolishi va ularga ehtiyoj paydo bo'lmasligi ham mumkin. Yana bir ma'lum qismi esa boshqa intellektual mahsulotlarni yaratishda qo'llanilishi mumkin va xuddi shunday amaliyotda foydalanilmasligi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tarmoqlariga kelib tushgan ba'zi intellektual mahsulotlar ham ma'naviy eskirishi, raqobatbardosh emasligi, o'ta murakkabligi, ishlab chiqarishning uni o'zlashtirishga yetarlicha tayyor emasligi va boshqa sabablarga ko'ra amaliyotda ishlatilmay qolishi mumkin. Intellektual mahsulotlarning ma'lum qismigina ishlab chiqarishda qo'llaniladi, moddiylashtiriladi va ma'lum samarani ta'minlaydi.

Innovatsiya sohasi innovatsiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar majmuasi bo'lib, mazkur faoliyatga konstruktivlik ishlanmalari, tajriba namunalari

tayyorlash, yangi mashinalar, uskunalar, apparatlar va h. k. namunalari sinash va sanoatda o'zlashtirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish kabilar kiradi.

XX asrning 60-yillarida innovatsiya sohasi ilmiy-texnikaviy rivojlanishning jadallashuvi tufayli bir qator olimlar tomonidan izchil o'rganila boshlandi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi Y. Shumpeter konsepsiyasi bo'yicha olib borildi. Uning asosida ilmiy-texnikaviy va innovatsiyaviy jarayonning asosiy tavsiflari ishlab chiqildi.

Texnika va texnologiyalarda innovatsiyaga asoslangan o'zgarishlarni tayyorlash va izchillik bilan amalga oshirish – ilmiy-texnikaviy innovatsiyaviy jarayon deb ataladi.

Texnik-texnologik yangiliklarda innovatsion jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: "ilm", "tadqiqot", "ishlanma", "ishlab chiqarish", "bozorga chiqarish va iste'mol".

"Ilm" bosqichi u yoki bu sohalardagi fundamental tadqiqotlarni qamrab oladi va mavjud muammoni hal etishga umumnazariy yoki konseptual yondashuv ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

"Tadqiqot" bosqichi amaliy-nazariy tadqiqotlarni, eksperimental tadqiqotlar va tekshirishlarni, eksperimental modellar yaratishni nazarda tutadi.

"Ishlanma" bosqichida namuna ko'rinishidagi mahsulotning texnik tavsiflarini aniqlash, uni loyihalash va ushbu mahsulot ishlab chiqarishni texnologik ta'minlash sodir bo'ladi.

"Ishlab chiqarish" bosqichida ushbu mahsulot ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko'rish operatsiyalarining barcha majmui, shu jumladan, moddiy-texnika ta'minoti, ishlab chiqarishning o'zlashtirilgan qismini boshqa-

rish, tayyor mahsulotni sotish amalga oshiriladi.

"Bozorga chiqarish va iste'mol" bosqichida yangilikning mahsulot yoki xizmat ko'rinishidagi sotilishi va uning iste'molchi tomonidan foydalanilishi, shu jumladan, o'rnatilgan muddatdagi kafolatli xizmat ko'rsatish sodir bo'ladi.

Innovatika nazariyasida innovatsion jarayon innovatsiyaviy faoliyat bo'yicha ishlar majmuasi bilan belgilanib, bu ishlar yangi innovatsion mahsulot (texnologiyalar, texnika, yangi mahsulotlar yoki xizmatlar) yaratish, ularni raqobat sharoitida tijoratlashtirish uchun tashkil etish va resurs bilan ta'minlash bosqichlari bilan tartibga solinadi.

Innovatsion jarayon (umumiy holda) – bu ma'lum ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan va muhim ijtimoiy o'zgarishlarga olib keladigan iqtisod, ijtimoiy, siyosiy va inson hayot faoliyatining boshqa sohalarida ulkan yangi o'zgarishlarni tayyorlash va asta sekin amalga oshirish jarayoni bo'lib, intellektual mahsulot hayotiy siklining o'zgarib borish bosqichlari ko'rinishida sodir bo'ladi va bir vaqtning o'zida qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar manbalidir.

Ishlab chiqarish sohasiga tadbir etilgan va unda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan intellektual mahsulotlar – innovatsiyalar (yangiliklar) deb tavsiflanishi mumkin.

Innovatsiya – ishlab chiqarish jarayonining yangi ilmiy g'oyalar, texnik yechimlar, texnologik jarayonlar, xom ashyo va materiallarning yangi turlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan texnik va texnologik jihatdan o'zgarishini tavsiflovchi atamadir. Innovatsiya konsepsiyasining asoschisi avstriyalik olim Y.Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish

nazariyasi" (1911 y.) asarida innovatikaning bir qator qonuniyatlarini (nazariy tadqiqotlar va ishlab chiqarish, fundamental nazariyalar va amaliy tadqiqotlar o'rtasida bog'liqlikning mavjudligini) ochib berdi, texnik-texnologik o'zgarishlar jarayonida qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni belgiladi, yangiliklarning to'planishi va tarqalishi shart-sharoitlarini aniqladi, yangiliklardan foydalanishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ta'riflab berdi.

Biroq "innovatsiya" atamasi texnik-texnologik o'zgarishlar bilangina cheklanib qolmaydi. Y. Shumpeter ushbu iboraga ancha keng ijtimoiy mazmun bergan. Uning fikricha, innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim vositasi bo'lib, texnik-texnologik yangiliklar ma'lum iqtisodiy oqibatlarga sabab bo'ladilar, bozorlar uchun kurashni rag'batlantiradilar, raqobat muhitini o'zgartiradilar va bu bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydilar.

Innovatikaga bundan ko'ra kengroq yondashuvni amerikalik iqtisodchi va sotsiolog, boshqarish bo'yicha mutaxassis P.Druker namoyish qildiki, unga ko'ra innovatsiya – texnikaviydan ko'ra ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy tushunchadir, chunki texnik-texnikaviy yangiliklar holatida ham iste'molchi resurslardan oladigan qiymat va iste'mol sifatlari o'zgaradi, yangiliklarning o'zi esa, tadbirkorlarning ilg'or vositasi bo'lib, uning yordamida biznes yoki xizmatlarning yangi turi amalga oshiriladi.

Vengr iqtisodchisi va sotsiologi B. Santo ham yangiliklarni aynan shu yo'nalishda tadqiq qildi, uning fikricha innovatsiyalar shunday ijtimoiy, texnikaviy, iqtisodiy jarayonki, g'oyalar va ixtirolardan unumli foydalanish xossalari

ancha yaxshilangan mahsulotlar va texnologiyalar yaratilishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, innovatsiyalarga ehtiyoj ijtimoiy va ishlab chiqarish tuzilmalari (tashkilotlari) faoliyatlarining turli shakllarida vujudga keladi. Yangiliklar faqat texnologik xususiyatga ega bo'lishi, boshqarish tizimini modernizatsiyalashga tegishli bo'lishi, tashkilotning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir mexanizmini yangilash bilan bog'liq bo'lishi mumkin va bu o'z navbatida tashkilot faoliyati, tarkibi hamda uni boshqarishni butkul qayta qurishni nazarda tutadi.

Innovatsion o'zgarishlar tizimli xarakterga ega, innovatsiyalarning o'zi esa – ishlab chiqarish, ijtimoiy soha va boshqarishda qo'llash uchun mo'ljallangan fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridir.

Shunday qilib, innovatsiya – ishlab chiqarish jarayoni yoki boshqarishni tashkil etishdagi qandaydir bitta yoki qisman yangilikning mahsuli bo'lmay, barcha tashkilot tizimini o'zgartiradigan o'zaro faoliyat majmuasining natijasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, innovatsiyalarga quyidagicha umumlashtiruvchi ta'rif berish mumkin. Innovatsiyalar – iqtisodiyotda, inson faoliyatining ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarida ijtimoiy iste'mol (bozor talabi) ni yaxshiroq va (yoki) to'laroq qondirish uchun intellektual mahsulotlarni yaratish, tarqatish va foydalanishning iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatida juda katta o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, ma'lum samara, natija olish maqsadidagi tizimli, majmuaviy jarayonidir va bir vaqtning o'zida – intellektual mulk


huquqlarini himoyalash va amalga oshirish bilan bog'liq zarur va yetarli institutlar infratuzilmasini hamda boshqarishning iqtisodiy, investision, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, texnologik, ijtimoiy, siyosiy mexanizmlarini shakllantirishning intellektual asosidir.

Bunda samara yoki natija innovatsiyalarning samaradorligini belgilashi lozim. Samara deganda, yangilikni tadbiiq etishdan olinadigan ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik yoki boshqa natijaga aytiladi. Inson faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa turlariga sanoat tramoqlari, mahsulot (xizmatlar), texnologiyalar va nou-xau ishlab chiqarish va sotish, faoliyatning barcha shakl va darajasidagi xo'jalik sub'ektlari, boshqarish, ta'lim, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy sohalar kiradi.

Innovatsiyalar alohida individlar, ijodiy jamoalar intellektining, millatlar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va intgeratsiyalashuvi sharoitida esa – integratsion uyushmalar (hamkorlikdagi korxonalar, transmilliy korporatsiyalar, mamlakatlar guruhi) va butun insoniyat umumiy intellektual salohiyatining maqsadli hatti-harakatlari tufayli yaratiladi. Bir tomondan, innovatsiyalar ijtimoiy iste'mol (bozor talabi) ni qondirishga asoslansa, boshqa tomondan – ularning maqsadi iqtisodiy agentlar faoliyatiga shunday o'zgartirishlar kiritishki, ulardan foydalanish ma'lum samaraga ega bo'lish imkonini beradi.

"Intellektual mahsulot", "ilmiy-texnikaviy mahsulot", "yaxshilanish", "innovatsiya" tushunchalarining o'zaro bog'lanishi 5.1-rasmda keltirilgan.

5.1-rasm. Innovatsiya intellektual tovar sifatida



Shuni ta'kidlash joizki, Innovatsiyalar har qanday maqsadli faoliyatning ustuvor omilga aylanishi sharoitida ilmiy bilimlar, axborot, ixtirolar va ulardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini, uning raqobat-bardoshligini belgilab beribgina qolmay, milliy xo'jaliklar aksariyat tarmoqlarining iqtisodiy o'sish dinamikasini ta'minlaydi. Shuning uchun intellektual faoliyat mahsuloti (Innovatsion mahsulot)ni iqtisodiy tahlilning mustaqil sohasi sifatida tadqiq qilish va bu tushuncha bilan ifodalangan munosabat-larning iqtisodiy mohiyati va tavsifini alohida ajratish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion mahsulot bozor munosabatlarining ob'ektiga aylanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ushbu mahsulot oldi-sotdi jarayonida o'z yaratuvchisining ixtiyoridan butunlay ketmaydi, moddiy tovarlardan farqli o'laroq bir necha marta sotilishi mumkin va iste'mol paytida butunlay yo'q bo'lib ketmaydi.

Intellektual mahsulot ishlab chiqarilayotgan tovarlar nomenklaturasi, ularning texnik va texnologik, sifat xususiyatlari tezkor o'zgarayotgan sharoitda ishlab chiqariladi va, demak, milliy iqtisodiyot va uning xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirda innovatsion mahsulotning iqtisodiy mohiyatini belgilab beruvchi ko'pgina masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Innovatsion mahsulotga nisbatan mulkiy munosabatlar mohiyatini ochib berish, raqobat sharoitda mazkur mulk shaklining boshqa mulk shakllari bilan o'zaro bog'liqligi darajasini baholash shular jumlasidandir. Bu o'rinda innovatsion mahsulotlar bozorini shakllantirish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Innovatsion mahsulot – inson intellektining, ijodining moddiy mahsulidir. Ushbu mahsulotga mulk huquqi mulk egalari daromad olish uchun, undan foydalanuvchi iste'molchilarga esa, innovatsion faoliyat

natijalarini iqtisodiyotga keng ko'lamda tadbiq etish natijasida olinadigan daromadga egalik qilish uchun zarur me'yoriy rasmiylashtirish va muhofaza imkoniyatini ta'minlaydi. Demak, intellektual mahsulotga mulk huquqi innovatsion faoliyatni amalga oshirishning boshlang'ich sharti bo'lib hisoblanadi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida intellektual mahsulotga mulk huquqi uning ob'ektlari oldi-sotdisi bilan tavsiflanadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida innovatsion mahsulotni sotish uning egasiga albatta daromad keltiradi. Mana shunday iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgani tufayli innovatsion mahsulotga mulk huquqi iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Iqtisodiy kategoriya sifatida innovatsion mahsulotga mulk huquqi o'zining miqdoriy bahosiga ham egadirki, u innovatsion faoliyat ob'ektlarini xo'jalik oborotiga kiritish shartlariga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion mahsulotga mulk huquqi butkul shakllangan iqtisodiy tushuncha bo'lmay, balki iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning murakkab va tezkor rivojlanayotgan tizimidir.

Innovatsion mahsulotga mulk huquqini amalga oshirish mexanizmi oshkor monopoliyani o'rnatish bilan bog'liq bo'lib, tijorat sirini, shuningdek ITTKI sohasidan innovatsion mahsulotga kiritiladigan sanoat va intellektual mulk ob'ektlari muhofazasini ham ko'zda tutadi.

Intellektual mulk tushunchasi 17-19 asrlar orasida, yangi ixtiro qilingan ishlab chiqarish usullari ko'pchilik mamlakatlarda, ayniqsa Yevropa va Amerikada keng qamrovli sanoatlashtirishga olib kelgan davrda vujudga

keldi. Industriallashtirish davrining yangi g'oyalari, kuchli markazlashgan hukumatlarning paydo bo'lishi ko'pchilik mamlakatlarda intellektual mulk sohasida birinchi qonunlarning qabul qilinishiga olib keldi. Parij (1883 y.) va Bern (1886 y.) konvensiyalarining qabul qilinishi bilan intellektual mulkchilikning xalqaro tizimi tashkil topdi.

Ma'lumki, intellektual mulk alohida jismoniy shaxs, shaxslar guruhi yoki yuridik shaxs bo'lishi muallifning intellektual mulk faoliyati natijalarini yuridik muhofazalashga huquqini aks ettiradi. Muallifning yuridik muhofazaga huquqi ilmiy ixtirolarga, san'at asarlariga, tovar va firma belgilariga beriladigan hujjatlarda o'z aksini topadi. Mualliflikni mustahkamlash va mutanosib haqni o'rnatish jarayonidagi xo'jalik sub'ektlarining o'zaro munosabatlari fuqarolik huquqi me'yorlari va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi.

Keng ma'noda, intellektual mulk atamasini ma'lum bir shaxsning intellektual mulk faoliyati natijalari va individuallashtirish vositalaridan foydalanishining istisnosiz huquqlari yig'indisi sifatida taqin qilish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, intellektual mulk deganda mualliflik huquqlari (adabiy, badiiy asarlarga, foto ishlarga, kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazasiga), turdosh huquqlar (asarlar, fonogrammalar ijrosiga va video mahsulotlariga), sanoat mulki ob'ektlari (ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, geografik nomlar, firma atamaları), shuningdek noan'anaviy ob'ektlar (o'simlik navlari, hayvon zotlari, integral mikrosxemalar topografiyalari, tijorat sirlari, ilmiy ixtirolar) tushuniladi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti intellektual mulkning universal qimmatiga hamda kundalik hayotimizni yaxshilovchi va boyituvchi ixtirolar va asarlarning ulkan salohiyatiga ishonadi va uning iqtisodiy rivojlanishning barcha millatlarga xos bo'lgan manbai deb hisoblaydi.

Har bir mamlakat yuqori iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasiga va jamiyatning turmush farovonligini oshirish uchun rivojlangan intellektual mulk muhofazasi tizimiga ega bo'lishi lozim. Intellektual mulk muhofazasi ixtirochilar va ijodkor talantlarni yanada rag'batlantirish, ular yaratgan yangiliklardan umumli foydalanish, bu sohaga investitsiya larni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga ko'maklashadi.

Patent huquqining paydo bo'lishi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishida mashina-texnika taraqqiyoti va tovar-pul munosabatlarida ixtirolarning roll oshgan davrga to'g'ri keladi. Bu tadbirkorlar va ixtirolarning mualliflari orasida yangi huquqiy munosabatlar, ya'ni patent huquqi shakllanishiga olib keldi.

O'zbekistonda intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi ularning yaratilganlik fakti asosida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida va boshqa Qonunlarida ko'zda tutilgan tartibda vakolat berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda intellektual mulk ob'ektlari muhofazasi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi 1536-sonli

qarori bilan ta'sis etilgan vakoiatli davlat organi zimmasiga yuklatilgan.

Milliy patent tizimini rivojlantirishning ilk qadamlaridan boshlab ilg'or tajribaga tayanildi, xalqaro tashkilotlar, nufuzli xorijiy mutaxassislar bilan aloqalar yo'lga qo'yildi.

Mazkur Agentlik sanoat mulki ob'ektlarini, jumladan ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlarini, shuningdek seleksiya yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari va integral mikro-sxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi.

O'zbekistonda intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi va qo'llanilishi sohasidagi munosabatlar quyidagi normativ hujjatlarda belgilab berilgan:

- *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (42-modda);*
- *Fuqarolik kodeksi (IV bo'lim);*
- *O'zbekiston Respublikasi qonunlari:*
- *Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida;*
- *Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida;*
- *Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida;*
- *Seleksiya yutuqlari to'g'risida;*
- *Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida;*
- *Integral mikro-sxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi to'g'risida.*

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

Jahon iqtisodiy hamjamiyatida o'z o'rnini va nufuziga ega bo'lish hamda xorijiy mamlakatlar bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston intellektual mulk ob'ektlari huquqiy muhofazasining global tizimi doirasida ushbu sohadagi eng muhim xalqaro shartnomalar va bitimlarda ishtirok etmoqda. 1993 yil 5-maydan boshlab O'zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkilot (BIMT)ining to'la qonli a'zosi va bir qator xalqaro shartnomalar qatnashchisidir. Bular:

- *BIMTni ta'sis etuvchi Konvensiya;*
- *Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha Parij Konvensiyasi;*
- *Adabiy va badiiy asarlar muhofazasi to'g'risidagi Bern Konvensiyasi;*
- *Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimiga doir Bayonna;*
- *Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (RST);*
- *Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi shartnoma (TLT);*
- *Patent huquqi to'g'risidagi shartnoma (PLT);*
- *Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni xalqaro depozitlashni tan olish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi;*
- *O'simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konvensiya (UPOV);*
- *Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro klassifikatsiyasi to'g'risidagi Nissa bitimi;*
- *Xalqaro patent klassifikatsiyasi to'g'risidagi Strasburg bitimi;*
- *Sanoat namunalarining xalqaro klassifikatsiyasi to'g'risidagi Lokarno bitimi.*

Mamlakat patent tizimini yanada takomillashtirish, intellektual mulk ob'ektlarining milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi hissasini oshirish, shubhasiz, intellektual mulk bozorini rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liq. Birinchi navbatda, biznes muhitining liberallashuvi yangi raqobatbardosh tovar va buyumlarni ishlab chiqish, ularni intellektual mulk ob'ektlari sifatida har tomonlama himoya qilish va keyinchalik tijorat oborotiga muvaffaqiyatli kiritish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda jahon tajribasi asosida samarali ishlaydigan innovatsiya infratuzilmasini tashkil etish va rivojlantirish yana bir muhim vazifa hisoblanib, milliy iqtisodiyot ilmiy-texnologik va industrial taraqqiyoti aynan shu masalaning muvaffaqiyatli hal qilinishiga bog'liq. Bunday infratuzilmaning bo'g'inlari sifatida kichik va o'rta innovatsiya firmalari intellektual mulk ob'ektlari ishlab chiqaruvchilarining takliflari hamda tovar va xizmatlar milliy va xorijiy bozorlari talabi o'rtasida ko'priklar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga innovatsiya sektorining muvaffaqiyatli faoliyati va patent tizimining rivojlanishi bir-biriga bog'liq ekanligini e'tirof etish joizdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi zamon bozor tizimi intellektual mulk munosabatlaridan tashqarida samarali rivojlanishi mumkin emas. Yangi bilimlar va ixtirolarga huquqiy monopoliyaning mavjudligidagina novator-firmalar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan bo'lgan qo'shimcha daromadga ega bo'ladilar.

Boshinchi bob. Globallashtirish sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari

Jahon xo'jaligi globallashtirishning zamona-viy bosqichida sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsion mahsulotlar ular firma va kompaniyalari tomonidan faqatgina sotib olinib yoki yaratilbigina qolmay, innovatsiyalarni aniq faoliyat sohasiga tezkorlik bilan tadbir qilish va mo'ay daromad olish maqsadida innovatsion mahsulotlar uchun kuchli raqobat kurashi ketmoqda. Bu, o'z navbatida innovatsion faoliyatni yanada rag'batlantiradi, intellektual mulk ob'ektiga aylanayotgan innovatsion mahsulotlar hajmini ham son, ham sifat jihatdan o'sishiga olib keladi.

O'zbekistonda innovatsion mahsulotlar bozori shakllanish bosqichida bo'lib, innovatsiyaviy faoliyatni tashkil etish va moliyaviy ta'minlash masalalari mazkur jarayonni milliy iqtisodiyotning turli shakl va darajalarida oqilona tartibga solishni taqozo etadi. Uning asosiy vazifalari ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va bu sohaga investitsiya larni rag'batlantiruvchi iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Jahon xo'jaligi globallashtirishning milliy iqtisodiyotlar innovatsion rivojlanishiga ta'sir yo'natishlari

Iqtisodiy aloqalarning globallashtirish va buning natijasida xalqaro savdning liberallashuvi hozirgi zamonning ko'p yoqlama ta'sir kuchiga ega bo'lgan murakkab jarayonlaridandir. Umuman olganda, bu ob'ektiv jarayonlar bo'lib, shubhasiz jahon va milliy iqtisodiyotlar samaradorligining oshishiga turtki beradi. Bozorlarning kengayishi ishlab chiqarish o'sishi va ixtisoslashuv chuqur-

lashuvini rag'batlantiradi hamda raqobat kurashini keskinlashtiradiki, bu innovatsiyalarga va ularni jahon bozorida ishonchli muhofazalash tizimiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, intellektual mulk, ayniqsa sanoat mulkining huquqiy muhofazasi tizimi ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Chunki aynan ushbu tizim tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarining muhofazasini ta'minlaydi va shuningdek ilmiy-texnikaviy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, milliy savdo to'siqlarining bosqichma-bosqich bartaraf etilishiga olib kelayotgan globallashtirish jarayonlari o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari va rivojlanayotgan mamlakatlarni teng bo'lmagan raqobat girdobiga duchor qilmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning yaqqol ko'rinib turgan raqobat ustunliklariga ega bo'lgan yirik monopoliyalari va yuqori texnologik kompaniyalari o'z mahsulotlarining tezkor yangilanishi va ularni ishlab chiqarishning past xarajatlari tufayli rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari xo'jalik tarmoqlarini osonlik bilan tanglik holatiga tushirib qo'yishlari mumkin.

Raqobat tengsizligi intellektual mulk aktivlarining notekis taqsimlanishi bilan yanada chuqurlashadi. Ushbu aktivlardan monopol foydalanishga patent va mualliflik huquqlari raqobatchilar va iste'molchilar manfaatlariga zid ravishda yirik patent egalari ustun shart-sharoitlar yaratishi tabiiydir.

Xalqaro savdning liberallashuvi raqobat kurashini yanada keskinlashtirib, "intellektual qarochilik"ning o'sishiga ham sabab bo'lmoqda. XX1 asrning boshida kontrafakt mahsulot jahon tovar aylanmasining 6 foizini

yoki yiliga 240 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi¹³. Bu muammo, ko'p jihatdan, iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi sharoitida hududiy chegaralangan intellektual mulk huquqlarini moslashtirish qiyinchiliklari tufayli qujudga keladi. Shuning uchun intellektual mulkni muhofazalash tizimi milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga ushbu tizimda foydalanilayotgan vositalarni uyg'unlashtirish (garmonizatsiya) orqali pirovard natijada global intellektual mulk tizimini yaratishga yo'naltirish bilan javob berishga majburdir.

Iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi sharoitida intellektual mulk huquqi egalari o'z tovarlari va xizmatlari bozorlarini milliy chegaralardan tashqariga kengaytirishga harakat qilar ekanlar, bu jarayon har bir tomon o'z manfaatlarini himoya qilishida ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni keskinlashtiradi.

Millatlararo patentlarning mavjud emasligi tufayli innovatsion firmalar keng qamrovli xorijiy patentlashni amalga oshirish imkoniga ega emaslar. Natijada patentlash tizimi savdo rivojlanishi uchun qo'shimcha notarif cheklovlarini yaratadi va patentlangan tovarlar xalqaro bozorini segmentlaydi.

Globallashuv sharoitida innovatsion faoliyat chegaralarini kengaytirish, milliy innovatsion tizimlar ochiqlik darajasini oshirish hisobiga rivojlanishdagi notekisliklarni bartaraf etish imkoniyati tug'ladiki, bu barcha darajalarda global iqtisod manbalaridan foydalanish, yuqori texnologiyali mahsulot

ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, xorijiy resurslardan, shuningdek bilimlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishi hamda xalqaro hamkorlik natijalaridan foydalanish imkonini beradi.

Intellektual mulk(IM) hozirgi zamon innovatsion iqtisodiyotining markaziy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bu mualliflarning sanoat, fan, adabiyot va madaniyat sohasida ularning intellektual faoliyati natijasida ishlab chiqarilgan axborot va bilimlarga xususiy mulki bo'lib, ular bozorga kelib tushar ekan, iqtisodiy qimmatga ega bo'ladilar. Intellektual mulk huquqiy munosabatlar ob'ekti sifatida yuridik, mulk turi sifatida institusional, intellektual faoliyat vositalari va natijalarini sotib olish/sotish va foydalanish bo'yicha insonlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning tizimi sifatida iqtisodiy mohiyatga egadir.

Mualliflarning intellektual mehnati natijalarini muhofazalash uchun har qanday ilg'or jamiyat intellektual mulk huquqlarini shakllantiradi. Bu intellektual mahsulotlardan ruxsatsiz foydalanishning oldini oluvchi yuridik qoidalar, me'yoriar va tartibga soluvchi hujjatlardir. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari o'rtasida intellektual mulk munosabatlari tizimi, ya'ni IM ob'ektlarini yaratish, egalik qilish, sotib olish va foydalanish bo'yicha IM sub'ektlari o'rtasida vujudga keladigan aloqalar shakllantirilishi tobora avj olib bormoqda.

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida IM munosabatlari turli milliy, mintaqaviy, xalqaro darajalarda vujudga keladi va boshqarish hamda tartibga solishning muvofiqlashtirilgan

¹³ Глобализация экономики и интернационализация системы охраны интеллектуальной собственности. -М. : ИНИЦ Распечатка – 2002. -С 3

mexanizmlarini talab qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, IM ob'ektlari bo'yicha xaiqaro intellektual mulk munosabatlari jahonning turli mamlakatlari rezidentlari o'rtasida o'rnatilmoqda, shuning uchun ularni tartibga solish millatlararo darajada amalga oshirilishi zarur.

Ilm-fanning baynalminallashuvi va global innovatsiya sohasiga integratsiyalashuv jarayoni XX asrning 90-yillaridan innovatsiya sohasi barcha segmentlari rivojlanishining yangi yo'nalishini belgilab berdi. Asosiy maqsad sifatidagi texnologik mustaqillik o'tmishga aylandi, uning o'rniga yangi strategiya keldiki, uning mohiyati o'zaro texnologik to'ldirishdan foydalanishdir. Global integratsiya yo'nalishlaridan biri bo'lib hamda bir vaqtning o'zida innovatsion sohada xaiqaro mehnat taqsimotining eng muhim segmenti bo'lib texnologiyalar savdosi oldingi o'ringa chiqmoqda (5.1-jadval). Qaysi bir mamlakat texnologik to'lov balansi saldosi bo'yicha absolyut ko'rsatkichlari qanchalik yuqori, AQSh, Yaponiya va Yel patent idoralarida ro'yxatga olingan patent arizalarining soni

qanchalik ko'p, yuqori texnologiyali eksportning ulushi katta, ilmiy texnik rivojlanish darajasi yuqori bo'lsa, ushbu mamlakat kompaniyalarining jahon xo'jaligidagi o'rnini va mavqei shunchalik baland bo'ladi.

Xaiqaro ilmiy va texnologik hamkorlikning o'sishi, 90-yillardagi fan sig'imli tovarlar va xizmatlar jahon savdosining yuqori o'sish suratlari, yangi eksporter mamlakatlarning paydo bo'lishi, shuningdek sig'imli ilm talab tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ro'yxatining kengayishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning omili sifatida innovatsion soha globallashtiruv strategiyasining samaradorligidan dalolat beradi.

Rossiyalik olim Gurova M.V. globallashtiruv va baynalminallashuv jarayonlarining intellektual mulk tizimiga ta'sirini tadqiq qilib, intellektual mulk baynalminallashuvining uch shaklini ajratib ko'rsatadi: intellektual mulk ob'ektlarining xaiqaro savdosi, xalqaro patent hamkorligi, IM munosabatlarini xaiqaro tartibga solish¹⁴.

5.1-jadval. 2008 yili texnologiyalarning global savdosi

Mamlakat	Texnologik to'lov balansi, mln. dol.			Triadadagi* patentlar soni	Ishlov berish sanoatining yuqori texnologik tarmoqlarning** IHTT umumiy eksportidagi ulushi, %
	tushumlar	to'lovlar	balans		
Kanada	2033.9	1050.5	983.4	519	2.34
Finlyandiya	1468.2	1231.0	237.2	489	1.04
Fransiya	3196.4	2695.3	501.1	2127	6.76
Germaniya	15756.4	21295.0	-5538.6	5777	10.78
Italiya	2977.7	2992.8	-15.1	767	2.81
Yaponiya	10259.4	4512.3	5747.1	11757	11.20

¹⁴ Гурова М. В. Интеллектуальная собственности в инновационном развитии мировой экономики. - Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М. 2010, с 12

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

Koreya Respublikasi	-	-	-	478	5.49
Shvesiya	-	-	-	811	1.60
Buyuk Britaniya	17104.9	7713.2	9391.7	1794	9.59
AQSh	44142	19258.0	24884.0	14985	22.11

*Triada - Yevropa, Yaponiya va Amerika patent idoralari.

**Yuqori texnologik tarmoqlar -xalqaro klassifikatsiyada ularga aviatsiya va kosmik texnikasi, farmasevtika tovarlarni ishlab chiqarish, ilmiy asbobsozlik, shuningdek o'z ichiga elektronika, kompyuterlar, aloqa vositalari, dasturiy ta'minotni olgan axborot texnologiyalari majmuasi kiritilgan.

Manba: OECD Observer. 2010. P. 74-75.

5.2-jadval. Dunyoning eng yirik novator mamlakatlari

2008-yil			2015-2016-yil	
Mamlakat	1 mln kishiga patentlar soni	O'rin	Mamlakat	O'rin
AQSh	301.48	1	Shveysariya	1
Yaponiya	273.40	2	Finlyandiya	2
Tayvan (Xitoy)	241.38	3	Isroil	3
Shvesiya	190.34	4	AQSh	4
Shveysariya	189.44	5	Yaponiya	5
Isroil	165.08	6	Germaniya	6
Finlyandiya	155.58	7	Shvesiya	7
Germaniya	137.52	8	Gollandiya	8
Kanada	109.62	9	Singapur	9
Singapur	97.62	10	Daniya	10
Gollandiya	86.94	11	Tayvan (Xitoy)	11
Lyuksemburg	82.59	12	Buyuk Britaniya	12
Daniya	80.38	13	Norvegiya	13
Koreya Respublikasi	79.87	14	Qatar	14
Belgiya	70.10	15	Lyuksemburg	15
Fransiya	67.59	16	Belgiya	16
Avstriya	65.43	17	Avstriya	17
Buyuk Britaniya	64.29	18	Fransiya	18
Norvegiya	53.78	19	Koreya Respublikasi	19
Islandiya	45.94	20	Malayziya	20
Avstraliya	44.00	21	Irlandiya	21
Yangi Zelandiya	36.84	22	Kanada	22

Boshinchi bob. Globallashtiruv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari

Irlandiya	33.85	23	Avstraliya	23
Gonkong (Xitoy)	33.29	24	Yangi Zelandiya	24
Italiya	30.49	25	Islandiya	25
			Arab Amirliklari	26
			Gonkong (Xitoy)	27
			Italiya	32

Manba: Global Competitiveness Report 2010. Global Competitiveness Report 2015.

Intellectual sohaning globallasuvi va baynalminallashuvining asosiy harakatlan-tiruvchi kuchlari bu transmilliy kompaniyalar bo'lib, ular turli mamlakatlarda tadqiqot markazlarini joylashtirgan holda jahon bo'yicha yuqori malakali kadrlarning harakatlanishiga yordam beradilar, shuningdek o'zlari faoliyat olib borayotgan mamla-katlarda amalga oshirilayotgan ilmiy va tajriba konstruktorlik tadqiqotlariga investitsiya larni yo'naltiradilar. Ilim-fanning transmilliyashuvi va patent hamkorligi jarayonida intellektual mulkning asosiy sub'ektlari bo'lib butun jahonning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni yaratish ustida ishlayotgan olim va ixtirochilar - turli mamlakatlar rezidentlarining faoliyati oldingi o'ringa chiqadi.

Fanning transmilliyashuvi va patent hamkorligi faqatgina birgalikdagi ilmiy tadqi-qotlardagina emas, ITTKI natijalaridan hamkorlikda foydalanishda ham namoyon bo'lmoqda. Intellektual soha baynalminal-lashuvining ushbu shakli mamlakatlarning texnologik va innovatsion salohiyatiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon rivojlanishiga global qiymat hosil qilish zanjirlarining, u yoki bu mamlakatlarda tadqiqotlar o'tkazish uchun sarflanadigan xarajatlarda farqlarning va ko'pchilik mamlakatlarda milliy boshqarish

siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritilgani (birinchi navbatda, intellektual mulk huquqlarining kuchayishi va ITTKI uchun soliq rejimlari) sabab bo'ldi. Globallashtiruv sharoitida fanning transmilliyashish qonuniyatlari shunda namoyon bo'lmoqdaki, bir mamlakat rezident olimlari tomonidan yaratilgan ixtirolar xorijdan moliyalashtirilmoqda va xorijiy kompaniya-larning mulkiga aylanmoqda; turli mamlakat kompaniyalari tadqiqotlarga birgalikda investitsiya larni amalga oshirmoqdalar; turli davlatlarning olimlari hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqot va ixtirochilik faoliyatini olib bormoqdalar. Hamkorlikdagi tadqiqotlar natija-sida yaratilgan va patent himoyasini olgan texnologiyalar iqtisodiy aktivlar qatoriga qo'shilib, intellektual mulk savdosi ob'ektlariga aylanmoqdalar.

Xalqaro patent hamkorligi hozirgi davrda asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- mahalliy ixtirolarning xorijiy mulkka aylanishi;
- xorijda amalga oshirilgan ixtirolarning milliy mulkka aylanishi;
- hamkorlikdagi ixtirolar va patentlar.

Hozirda jahon iqtisodiyotida umumiy patentlar miqdoridagi xorijiy mulkdorlarning mahalliy ixtirolarda va mahalliy mulkdorlarning xorijiy ixtirolarda ulushi 10-18 foizni,

hamkorlikdagi ixtirolar esa – 4-6 foizni tashkil qiladi.

Globalashuv sharoitida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu patent faoliyatining yuqori sur'atlar bilan o'sishi bo'lib, bu jarayon bilimlarga asoslangan iqtisodda ixtirolarning nechog'lik muhim ekanligini aks ettiradi. Bunda asosiy o'rinni eng muhim novatorlar qatoriga kiruvchi rivojlangan mamlakatlar egallab kelmoqda (5.2-jadval).

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan boshlangan 2008 yili Yevropa, Yaponiya va AQShda 1992 yildagi 600 ming patent talabnomalariga nisbatan 1010 mingdan ortiq arizalar berildi. Oxirgi o'n yillikda patentlarning o'sishi deyarli barcha texnologik tarmoqlarda kuzatildi, ayniqsa biotexnologiya, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida bu jarayon ayniqsa sezilarli bo'ldi. IHTT (IXRT) mamlakatlarida patentlarining o'rtacha 35 foizi AKT hissasiga to'g'ri keladi, bunda ularning ba'zilarida bu ko'rsatkich ancha yuqori, masalan, Finlyandiya (57 foizi), Isroilda (50 foizi), Koreya Respublikasida (49 foizi), Gollandiyada (46 foizi).

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish ham milliy, ham xalqaro darajada texnologiyalarning ustuvor ahamiyatini va rolini belgilab beradi. Intellektual mulk shaklidagi innovatsiyalar mehnat va kapital kabi iqtisodiy jihatdan muhim aktivga aylanib, turli mamlakat rezidentlari o'rtasida savdo sotiq munosabatlarining predmeti bo'lib bormoqda. Intellektual mulk ob'ektlari bilan savdo o'z mohiyatiga ko'ra yangi bilimlarga mulkchilik huquqini taqdim etishdan iborat. XVF tomonidan taqdim etilgan Xizmatlar bilan xalqaro savdo statistikasi bo'yicha

Qo'llanmaga muvofiq intellektual mulk ob'ektlariga oid barcha bitimlar yoki xizmatlar savdosiga, yoki kapital bilan operatsiyalarga kiritiladi. (5.2-rasm).

Shuni ta'kidlash joizki, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida bilimlarning asosiy eksporterlari bo'lib rivojlangan yetakchi novator mamlakatlar hisoblanadi.

Hozirgi zamon global innovatsion rivojlanish sharoitida IM iqtisodiy mohiyatining ahamiyati shundan iboratki, intellektual mulk munosabatlari doirasida ixtirochilarda intellektual faoliyat bilan shug'ullanish uchun rag'bat paydo bo'ladi va bu o'z navbatida innovatsiyalar rivojlanishning asosiga aylanmoqda. Biroq, bilimlar alohida individga tegishli aktiv bo'lsada, butun jamiyatga foyda keltirishi mumkin. Intellektual mulk munosabatlariga xos bo'lgan ushbu xususiyat tufayli turli qarama-qarshiliklar vujudga kelishi va bu innovatsiyalarni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanishda turli xo'jalik sub'ektlarining o'zaro chambarchas bog'langan faoliyatini talab qiladigan innovatsion rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Asosiy ziddiyat shundan iboratki, mualliflar xizmatlari va ularning bilimlar rivojlanishiga qo'shgan hissasi bozor bahosining institutsional asosini tashkil qiluvchi intellektual mulk huquqlari butun jamiyat manfaatlarini yo'lida yangi bilimlarning tezkor tarqalishiga qandaydir ma'noda to'siqlik qiladi. Bu vaziyatda bir tomondan, salohiyatli innovatsiya yaratuvchilarning ixtirochilik va ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari bilan turli mamlakat rezidentlari o'rtasida tijoriy almashinuvni rag'batlantiruvchi IM huquqlarini muhofazalash talab qilinsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotning

Beshinchi bob. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanishga zaruriyati va tendensiyalari

innovatsion rivojlanishi uchun yangi bilimlarning tarqalishi va butun jamiyat ulardan foydalana olishi uchun imkoniyat yaratilishi muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bu muammo-

ning hal etilishi jahon iqtisodiyoti doirasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi innovatsion nomutanosiblikni yo'qotish nuqtai nazaridan ayniqsa dolzarbdir.

5.2-rasm. Intellektual mulk ob'ektlari bilan savdoning yo'nalishlari



Mavjud qarama-qarshiliklarning bartaraf etilishi IM ob'ektlarining xalqaro savdosida millatlararo boshqarish va nazorat tizimini taqozo etadi. Hozirgi intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solish to'la qonli mexanizmlarining mavjud emasligi intellektual mulk ob'ektlaridan samarali foydalanishga va oqibat natijada milliy iqtisodiyotlar innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solish mexanizmini ishlab chiqishda intellektual mulkni muhofazalash bo'yicha xalqaro bitimlar katta ahamiyatga egadir. Innovatsion iqtisodiyot yaratish yo'lida ildam qadamlar bilan borayotgan mustaqil O'zbekiston uchun ham ushbu bitimlarda ishtirok etish

muhim ekanligini e'tiborga olib, ularning asosiylarini ko'rib o'tamiz.

Sanoat mulki bo'yicha xalqaro bitimlar. Sanoat mulkini muhofazalash bo'yicha Parij konvensiyasi 1884 yili kuchga kirgan bo'lib, sanoat mulki ob'ektlarining xalqaro muhofazasini ko'zda tutadi. Mazkur xalqaro bitim Konvensiya ishtirokchilariga konvension ustuvorlik huquqini taqdim etish yo'li bilan bir mamlakat ob'ektlarining boshqa mamlakatlarda muhofazalash shartlarini yengillash-tiradi. Bu shuni anglatadiki, Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan birinchi mamlakatda ixtiroga berilgan talabnoma berilgan vaqtdan boshlab bir yil davomida boshqa mamlakatlarda ustuvorlikka ega bo'ladi. Konvension

ustuvorlik shuningdek foydali modellarni (12 oy mobaynida), sanoat namunalarini va tovar belgilarini (6 oy mobaynida) ro'yxatdan o'tkazishda ham taqdim etiladi.

Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (RST) 1970 yili imzolangan, bir nechta RST ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlarda ixtirolarni muhofazalash talab qilinganda yagona xalqaro talabnoma (BMT Xalqaro byurosining biror ish tilida) topshirilishini ko'zda tutadi. Bu bir necha mamlakatlar ixtirolarni patentlash xarajatlarini ancha tejash imkonini beradi.

Yevropa patent konvensiyasi 1987 yili kuchga kirgan bo'lib, ingliz, fransuz, nemis tillarida yagona talabnoma berish yo'li bilan YePK ishtirokchilari bo'lgan har bir (beshta yoki undan ko'p) mamlakatda patent muhofazasini olish imkonini beradi.

Yevroosiyo patent konvensiyasi (YeAPK) 1995 yili kuchga kirgan, Konvensiya ishtirokchilari bo'lgan barcha davlatlarda harakat qiluvchi muhofaza hujjatlarini olish protsedurasini soddalashtirish va arzonlashtirishni ta'minlaydi, ya'ni bir tildagi bitta yevroosiyo talabnomasi – bitta ekspertiza – yagona yevroosiyo patenti.

Patent huquqi to'g'risidagi shartnoma milliy va mintaqaviy patent idoralari tomonidan patent talabnomalarini ko'rib chiqish, patentlarni kuchda saqlab turish, shuningdek patent idorasida elektron talabnoma topshirish, patent vakillari va ro'yxatga olish protseduralari talablari kabi boshqa rasmiy talablarni tartibga solish va uyg'unlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, 2000 yilda kuchga kirgan.

Sanoat namunalarini deponentlash haqida Gaaga bitimi 1925 yili imzolangan va undan

keyin bir necha marta qayta ko'rib chiqilgan. Muhofaza so'ralayotgan davlatlar ko'rsatilgan namuna yuzasidan xalqaro deponentlashga talabnomani milliy idoraga yoki bevosita TIMT Xalqaro byurosiga topshiradilar. Xalqaro muhofazalash muddati 1960 yil Aktiga muvofiq 5 yilni tashkil etadi.

Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni xalqaro depozitlashni tan olish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi har qanday deponentlash bo'yicha xalqaro tashkilotdagi bitta deponentlash barcha kelishilgan davlatlar milliy idoralarda patent protsedurasi uchun yetarilishini ko'zda tutadi.

Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimi 1891 yilda imzolangan bo'lib, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari xalqaro muhofazasini soddalashtirish uchun mo'ljallangan.

Tovarlarni kelib chiqish joylari nomlari va ularni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Lissabon bitimi 1958 yili imzolangan.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha xalqaro bitimlarga quyidagilar kiradi.

Adabiy va badiiy asarlar muhofazasi to'g'risidagi Bern Konvensiyasi 1886 yilda imzolanib, mualliflik huquqlarini himoyalashga asos soldi. Keyinchalik u 1971 yili Parijda ko'rib chiqilgan "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi Butunjahon konvensiyasida o'z rivojini topdi, ushbu konvensiya mualliflarning adabiy, ilmiy va badiiy asarlarga, shu jumladan yozma, musiqaviy, dramatik va kinomatografik asarlarga, rassomlik, grafika va haykaltaroshlik asarlari yuzasidan huquqlariga tegishlidir.

Fonogramma ishlab chiqaruvchilarning muhofazasi to'g'risidagi 1961 yil Rim konvensiyasi va uning qoidalarini rivojlan-

tiruvchi Jeneva konvensiyasi ijrochi-artistlar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va eshitirish tashkilotlari manfaatlarini muhofazalashga bag'ishlangan.

So'nggi yillarda internet mualliflik huquqi bilan muhofazalanayotgan ishlarni ular yaratuvchilari va egalari tomonidan sotish imkoniyatlarini misli ko'rilmagan darajada kengaytirib, bir vaqtning o'zida ilgari ko'rilmagan huquqbuzarliklar va tijoriy qaroqchilik xavfini vujudga keltirdi. Bunga javoban BIMT rahnamoligida ikkita yangi shartnoma qabul qilindi.

Mualliflik huquqi bo'yicha shartnoma "nashr qilingan ishlar" tavsifini elektron nashrlarga nisbatan qo'llashga yo'l qo'yuvchi Bern konvensiyasi qoidalarini aniqlab beradi. Muhofaza qilinayotgan ob'ektlar tarkibiga EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari kiritildi.

Ijrochilik va fonogrammalar bo'yicha shartnoma fonogramma ishlab chiqaruvchilari va ijrochilarga yuqorida zikr qilingan shartnoma qoidalari bilan muvofiqlashtirilgan mutlaq huquqlarni taqdim etadi.

Yangi shartnomalar asosiy e'tiborni raqamli elektron muhitda mualliflik va turdosh huquqlarga rioya qilishga qaratgani uchun "Internet-shartnomalar" nomini oldi.

Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotidagi muhim jarayonlarning tartibga solinishini va monitoringini amalga oshiruvchi davlatlararo xalqaro tashkilotlar intellektual mulk munosabatlarini har tomonlama va samarali tartibga solish maqsadida o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Ma'lumki, ular bajaradigan vazifalar ta'sir darajasiga qarab to'rt yo'nalishga

bo'linadi: ko'maklashish, kuzatish, nazorat va tartibga solish.

Xalqaro tashkilotlarning intellektual mulk munosabatlariga ta'sirining ikki – yuridik (huquqiy) va iqtisodiy jihatini ko'rsatish mumkin. Bunda huquqiy tartibga solishning vazifasi ixtirochi yaratayotgan ob'ekt muhofazasini ta'minlash orqali uni intellektual faoliyatga rag'batlantirish bo'lsa, iqtisodiy tartibga solish – rivojlanishni ta'minlash maqsadida inson va jamiyat manfaatlarini muvozanatini saqlash funksiyalaridan iborat. Huquqiy tartibga solish xalqaro shartnomalar, bitimlar, konvensiyalar vositasida iqtisodiy tartibga solish – jamiyat ehtiyojlariga muvofiq moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqa re-surslarni taqsimlashga yo'naltirilgan dasturlar orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibga solish intellektual mulk sohasidagi turli xalqaro bitimlarni amalga oshirishda ma'muriy vazifalarni bajaruvchi aksariyat vaziyatlarda nazorat va tartibga solish bilan shug'ullanuvchi BMT va BST faoliyatlarida asosiy o'rin tutadi. JB va IHRning intellektual mulk sohasidagi faoliyatida iqtisodiy yondashuv ustun bo'lib, ularning ta'siri ko'maklashish va kuzatish yo'nalishida amalga oshiriladigan, intellektual mulk munosabatlarini va ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini chuqurroq tushunishga ko'maklashuvchi statistik ma'lumotlar va tadqiqotlar natijalarini ommalashtirishdan iborat.

BSTning fan-texnika sohasi faoliyatini tartibga soluvchi bitimlar majmuasida birinchi navbatda Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari to'g'risidagi bitimni (TRIPS) ajratib ko'rsatish mumkin. Bu Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimlar hamda Xizmatlar

savdosi bo'yicha bosh bitim qatoridagi uchinchi bitimdir.

Ushbu bitimda BST ga a'zo mamlakatlar uchun intellektual mulk huquqlari muhofazasini ta'minlash bo'yicha talablar va me'yori-larning alohida eng kam to'plami ko'rsatib berilgan. Barcha a'zo mamlakatlar ushbu me'yoriarni qo'llashi shart bo'lib, ular umumiy majburiyatlardan, fuqarolik va ma'muriy protseduralardan, vaqtinchalik va chegaraviy choralariga tegishli bo'lgan maxsus choralar-dan, shuningdek jinoiy protseduralardan tashkil topgan. Ushbu qoidalar bitimni imzolagan tomonlardan intellektual mulk huquqi egalari uchun quyidagi imkoniyatlarni ko'zda tutuvchi protseduralar o'rnatishni talab qiladi: ular huquqlarini samarali himoyalash, tovarlarni to'xtatish yoki vaqtinchalik hibsga olish, kriminal korxonalariga qarshi va egalari huquqlarini buzuvchi tovarlarga qarshi choralar qo'llashni talab qilish, shuningdek sudlar, polisiya, bojxona va boshqa ma'muriy organlar kabi ushbu masalalarga javobgar huquqmat tashkilotlaridan doimiy yordam olib turish.

Shuni ta'kidlash joizki, aytib o'tilgan protseduralar BST doirasidagi majburiy yurisdiksiyaga asoslangan bo'lib, bu yerda talablar bajarilishini ta'minlashning yetarli darajada jiddiy mexanizmlari mavjud. Talablar bajarilmaganligining isbotlangan holatida jabrlanuvchi tomon foydasiga kompensasion choralar qo'llanilishi ham ko'zda tutilgan. Ushbu choralar majmui intellektual mulkni qo'llab-quvvatlashga, ko'p yoqlama savdo tizimini yanada kengaytirishga, shuningdek

ijod va innovatsiyalarni qo'llashga yo'nal-tirilgan bo'lib, mutaxassislarning fikricha kelajakda TRIPS bitimi quyidagilarga asos yaratishi mumkin¹⁵:

- *jismoniy shaxslar va kompaniyalarga ijodiy faoliyatlarining mahsulini olish imkoniyatini berib, ilmiy tadqiqotlar, texnologik yangilik-lar va ijodiy jarayonni rag'batlantirish;*
- *intellektual mulk huquqlarining mamlakat ichida, xalqaro doirada, aholi turmush darajasi past bo'lgan mamlakatlarda xavsizroq bo'lishini ta'minlash;*
- *savdo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsi-yalar, shuningdek bir mamlakatdan bosh-qasiga texnologiyalar va nou-xauni uzatish sohasida operatsiyalarni o'tkazish xarajat-larini pasaytirish;*
- *rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatining ishlov berish tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish;*
- *rivojlangan mamlakatda sanoatning fan sig'imi tarmoqlarining o'sishiga yordam berish.*

Xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish jara-yoni nuqtai nazaridan TRIPS bitimi jahon bozorida o'sib borayotgan raqobat va nomoliyaviy tashqi iqtisodiy operatsiyalarning murakkablashuvi masalalarini hal qilish imkoniyatini beruvchi yangi va ishonchli milliy qonuniyatlarni majmui yaratishdan iborat. Bunda, bir tomondan, iqtisodiy rivojlanish uchun "quvib yetish" siyosatiga tayangan rivojlanayotgan davlatlar uchun erkin faoliyat sohasi torayadi, boshqa tomondan esa – texnologik sohada yetakchilik mavqeini saqlab

¹⁵ Барабашев А. Г., Бромберг Г. В. Интеллектуальная собственность и государство: зарубежный опыт. – М.: ИНИЦ Роспатента, 2004. – с. 80

qolishga intilayotgan sanoati rivojlangan davlatlar savdo siyosatining merkantilistik vositalaridan voz kechib, asosiy diqqatni sanoat siyosatining choralari qaratishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvga, jahon xo'jalik aloqalarining rivojlanishida, global integratsion jarayonlarni mustahkamlashda ishtirok etishga intilishi, uni 1994-yilda BSTga a'zo bo'lish uchun murojatnoma topshirish qaroriga asos bo'ldi.

Xalqaro savdo tizimiga qo'shilishning asosiy afzalligi shundaki, O'zbekiston tovarlar va xizmatlar savdosida BSTga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan teng huquqlarga ega bo'ladi, ya'ni mahalliy kompaniyalar diskriminatsiya choralari ozod bo'ladilar. Bunday teng huquqlilik o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilarning o'z raqobatbardosh tovarlari va xizmatlari bilan tashqi bozorga chiqish shartining bajarilishi bilangina ta'minlanishi mumkin.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz intellektual mahsulotining xorijda patentlash va tashqi litsenziya savdosi hajmi milliy ilmiy-texnikaviy va innovatsion tizim salohiyati darajasida emas. Shu bilan birga tovarlar va xizmatlarning xalqaro raqobatbardoshligiga ularni yaratishda intellektual faoliyatning eng yangi natijalarini qo'llash orqaligina erishish mumkin. Huquqiy muhofaza innovatsiyalar qo'llanilgan tovarlar va xizmatlar tijoriy foyda keltirishiga o'zini oqlaydi. Boshqa tomondan, intellektual faoliyat natijalarining huquqiy muhofazasi ulardan noqonuniy foydalanishga yo'l

qo'ymaydi va bunday tovarlar va xizmatlarning yuqoriroq narxlarda sotilishiga imkon yaratadi.

BST orqali xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuv milliy sanoat ishlab chiqarishi samaradorligi oshishi va yuqori sur'atlarda o'sishining o'ziga xos katalizatori bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning sanoat va savdo siyosati mahalliy sanoat raqobatbardosh mahsulotini xorijiy bozorlarga yetkazib berish va import o'rnini bosishga yo'naltirilgan innovatsion siyosat bilan o'zaro uyg'unlikda va u bilan to'liq muvofiqlashtirilgan holda shakllantirilishi lozim.

Shunisi muhimki, TRIPS bitimi intellektual mulk huquqlarining xalqaro savdo bilan bog'liq jihatlarni tartibga soladi, chunki intellektual mahsulotga jahon bozorida tobora talab oshib bormoqda va uni ayirboshlash bilan bog'liq talablar xalqaro darajada muvofiqlashtirilishi zarur.

Xususan, ushbu Bitimda "intellektual mulk" atamasi an'anaviy tushunchalar bilan bir qatorda boshqa ma'lumotlarni ham qamrab olgan. Bu bitimning asosiy xususiyati shundaki, intellektual mulk haqidagi bitimlarda asosiy jihat bo'lgan milliy rejim tamoyili bilan bir qatorda, u eng ko'p qulaylik tamoyilini ham ko'zda tutadi. Shu tufayli mahalliy va xorijiy talabnoma beruvchilar uchun patent bojlari va ro'yxatga olish yig'implari o'rtasidagi farqlardan davlat ancha zarar ko'rmoqda.

TRIPS Bitimining intellektual mulk muhofazasini ta'minlash bo'yicha qoida va me'yorlari unga a'zo mamlakatda huquqiy va ma'muriy protseduralarni jiddiy isloh qilishni talab qiladi.

BSTga a'zo bo'lish soxta tovar belgilari bilan markirovka qilingan yoki mualliflik

huquqlarini buzuvchi tovarlar savdosiga chek qo'yish bo'yicha bojxona organlari vakolatlarini kengaytirishni talab qiladi. Bitimda ko'zda tutilgan protseduralar chegaraviy choralarga nisbatan intellektual mulk huquqlarini qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bojxona organlari ularni tovar belgilari yuzasidan huquqlar yoki mualliflik huquqlari buzilib olib kiritilishi shubha qilinayotgan tovarlarga nisbatan intellektual mulk egasining yozma arizasiga ko'ra amalga oshirishlari mumkin.

TRIPS Bitimida bojxona organlari tomonidan tegishli tovarlarni ushlab tamojillari, uning muddati, import qiluvchiga va tovar egasiga zararni qoplash, tekshirish va ma'lumot berish huquqi aniq belgilanganligi uchun O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligiga shunga muvofiq qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritishni hamda bojxona organlarini tegishli tayyorgarlik ko'rgan kadrlar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi globallashuv sharoitida O'zbekistonning BSTga va demakki, TRIPS Bitimiga qo'shilishi mamlakatimizda intellektual mulk muhofazasini kuchaytirishga hamda innovatsion va investitsiya iqlimini yaxshilanishiga yordam beradi.

Innovatsion rivojlanishning jahon tajribasi va milliy innovatsiya tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirishning ustuvor vazifasi mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy modernizatsiyalash, innovatsion faoliyatni qo'llab-

quvvatlash va rag'batlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat. XXI asr bo'sag'asida fan-texnika taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda boshqa ishlab chiqarish omillariga nisbatan hal qiluvchi iqtisodiy omilga aylanar ekan. Milliy innovatsiya tizimini takomillashtirish orqali mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi asosiy raqobat ustunligini ta'minlab bermoqda.

Zamonaviy jahon xo'jaligining rivojlanish tendensiyalaridan biri taraqqiyot etgan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotning yangi, ustun darajada bilimlarni to'plash, tarqatish va ulardan foydalanishga asoslangan modelni yaratish bosqichiga o'tish hisoblanadi. Inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirish, moddiy va ma'naviy resurslarni joylashtirishning samarali usuliga aylanib bormoqda. Nomoddiy aktivlar firmalar va korporatsiyalar mulkida sezilarli o'rin egallamoqda. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish va ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish innovatsion siklining keskin qisqarishi, mahsulotlar va texnologiyalarning yangilanish sur'atlarini jadallashtirishga olib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, globallashuv sharoitida har qanday mamlakatning bosqichma-bosqich ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniishi va uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi rivojlangan milliy innovatsiya tizimining mavjudligi asosida ta'minlanadi. Milliy innovatsiya tizimi tarkibi elementlarini shakllantirish va o'zaro samarali aloqadorligini ta'minlash davlat innovatsiya siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Innovatsiya siyosati sanoati rivojlangan mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda

rivojlanishi bilan bog'liq holda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning alohida ustuvor yo'nalishi sifatida shakllana boshladi.

XXI asrning boshlarida jahonning 20 dan ortiq (AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Finlyandiya, Shvetsariya va b.) davlatlari innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlar sifatida tan olindi. Ushbu rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti quyidagi xususiyatlari bilan alohida guruh sifatida ajratiladi:

- *ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lish, yangi texnologiyalar yaratish va ularni amaliyotga qo'llashga e'tibor qaratish;*
- *fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini omma-lashtirishni ta'minlab beruvchi axborot infratuzilmasini yaratishni jadallashtirish;*
- *yangi texnologiyalar asosida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish;*
- *innovatsiyalarni ishlab chiqarish va boshqaruvdan tashqari boshqa sohalarga ham joriy etishga olib keluvchi iqtisodiy tarkibni o'zgartirish;*
- *yangi bilimlarni muntazam ravishda o'zlashtirish jarayonini yo'lga qo'yish.*

Shuningdek, ushbu mamlakatlarni amalga oshirayotgan innovatsion siyosatiga qarab quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- *Ilm-fan sohasida yetakchilikni saqlab qolishga intilayotgan mamlakatlar. Odatda, ushbu mamlakatlarda innovatsion siklining hamma bosqichlarini qamrab oluvchi yirik miqyosli maqsadli loyihalar amalga oshiriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya).*

- *Qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot tarkibini maqbullashtirishga yo'naltirilgan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya).*
- *Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahondagi ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini qabul qilishni ta'minlash, turli sektorlarning fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish yo'li orqali yangiliklarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar (Yaponiya, Koreya Respublikasi).*

Dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish darajasi turli xalqaro reytinglar doirasida bir qator indekslar orqali baholab boriladi. Ularga Jahon iqtisodiy forumi tomonidan hisoblanadigan Global innovatsion indeks (GII), Texnologik tayyorgarlik indeksi (NRI), Axborot kommunikatsiya texnologiyalari indeksi (GITR), Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI)ni kiritish mumkin. Ushbu reytinglarga ko'ra ilmiy-texnika salohiyati yuqori, fanda peshqadamlilikni saqlab qolishga intilayotgan mamlakatlar yetakchilik qilmoqdalar (5.3-jadval).

Ma'lumki, jahon mamlakatlarining innovatsiyalar sohasidagi nufuzi, ularning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga ajratayotgan xarajatlariga bevosita bog'liqdir. Masalan, global ITTKI xarajatlarning 1/3 qismidan ko'prog'i birgina AQShning hissasiga to'g'ri keladi (5.4-jadval). ITTKI xarajatlari tarkibining tahlili ko'rsatishicha, ushbu sohaga sarflanayotgan mablag'larning muhtaq miqdori bo'yicha ham AQSh yetakchilik qiladi (5.5-jadval).

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

5.3-jadval. Dunyo mamlakatlarning innovatsion rivojlanish bo'yicha xalqaro reytingi

Global innovatsion indeks (GII) 2016 y ¹⁶ .	Texnologik tayyorgarlik indeksi (NRI) 2015 y ¹⁷ .	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari indeksi (GITR) 2015 y. ¹⁸	Global raqobatbar-doshlik indeksi (GCI) 2015-2016 yy. ¹⁹
1 Shvetsariya	1 Singapur	1 Koreya Respublikasi	1 Shvetsariya
2 Shvetsiya	2 Finlyandiya	2 Daniya	2 Singapur
3 Buyuk Britaniya	3 Shvetsiya	3 Islandiya	3 AQSh
4 AQSh	4 Niderlandiya	4 Buyuk Britaniya	4 Germaniya
5 Finlyandiya	5 Norvegiya	5 SHvetsiya	5 Niderlandiya
...
25 Xitoy	62 Xitoy	82 Xitoy	60 Xitoy
66 Hindiston	89 Hindiston	131 Hindiston	55 Hindiston
49 Rossiya	41 Rossiya	45 Rossiya	45 Rossiya
69 Braziliya	84 Braziliya	61 Braziliya	75 Braziliya
54 JAR	75 JAR	88 JAR	49 JAR

5.4-jadval. Global ITTKI xarajatlarida ayrim mamlakatlar ulushi, foiz hisobida²⁰

	2012 y.	2013 y.	2014 y.
Jami	100,0	100,0	100,0
Amerika mintaqasi	34,5	34,0	33,9
AQSH	32,0	31,4	31,1
Osiyo mintaqasi	37,0	38,3	39,1
Xitoy	15,3	16,5	17,5
Yaponiya	10,5	10,5	10,2
Hindiston	2,7	2,7	2,7
Evropa mintaqasi	23,1	22,4	21,7
Germaniya	6,1	5,9	5,7
Boshqa mamlakatlar	5,4	5,3	5,3

¹⁶ http://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2016/article_0008.html

¹⁷ www.weforum.org/docs/WEF_Global_IT_Report_2015.

¹⁸ <http://www.itu.int/net4/ITU-D/idi/2015/>

¹⁹ <http://reports.weforum.org/global-competitiveness-report-2015-2016/the-global-competitiveness-index-2015-2016/>

²⁰ 2014 GLOBAL R&D FUNDING FORECAST DESEMBER 2013 www.rdmag.com

Beshinchi bob. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari

5.5-jadval. ITTKI xarajatlari bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari²¹

Mintaqalar va mamlakatlari	ITTKI xarajatlari, YAIMga nisbatan %da			ITTKI xarajatlari, mln. doll. XQP bo'yicha			ITTKI xarajatlari, jamiga nisbatan %da		
	2012 y.	2015 y.	2016 y.	2012 y.	2015 y.	2016 y.	2012 y.	2015 y.	2016 y.
	AQSH	2,8	2,8	2,8	447	496,8	514	32	26,4
Xitoy	1,8	2	2	232	372,8	396,3	15,3	19,8	20,3
Yaponiya	3,4	3,4	3,4	160	169,6	166,6	10,5	9	8,5
Germaniya	2,8	2,9	2,9	92	107,4	109,2	6,1	5,7	5,6
Jan. Koreya	3,6	4	4	59	74,5	77,1	3,8	3,9	3,9
Hindiston	0,9	0,9	0,9	43	66,5	71,5	2,7	3,7	3,7
Fransiya	2,3	2,3	2,3	52	59,2	60	3,4	3,1	3
Rossiya	1,5	1,5	1,5	36	51,5	50,9	2,5	2,7	2,6
Boshqalar	0,4	0,4	0,4	394	483,7	502,1	23,7	25,7	26
Jami	2	1,6	1,7	1517	1882	1947,7	100	100	100

ITTKI xarajatlari bo'yichayetakchi mamlakatlar ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchilar soni bo'yicha ham yetakchilik qilishadi. Jumladan, 2014 yilda har ming kishiga to'g'ri keluvchi ilmiy xodimlar soni Koreya Respublikasida 13,5 kishini, Yaponiyada – 10,5, AQSHda – 8,9, EI-28da – 7,7 kishini tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich Rossiyada -6,6, Xitoyda esa – 2,0 kishini tashkil etdi²².

Industrial rivojlangan mamlakatlarda ITTKI xarajatlarning katta qismi tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga sarflanadi. Misol uchun, AQSHda 2016 yilda ITTKI xarajatlarning 64% tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga, 20% amaliy tadqiqotlarga, 16% esa fundamental tadqiqotlarga sarflanishi rejalashtirilgan. Fun-

damental tadqiqotlar uchun sarflangan mablag'larning 56% universitetlar, qolgan qismi xususiy sektor tomonidan o'zlashtirilgan²³.

Jahonda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi tahlili ko'rsatishicha, ushbu sohada sanoati rivojlangan mamlakatlar ulushi qisqarib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortib borishi esa asosan Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. Misol uchun Xitoy 1999 yilda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha AQSHdan 10 baravar (mahsulotlar qiymati bo'yicha) ortda qolgan bo'lsa, 2014 yilga kelib ushbu ko'rsatkich bo'yicha AQShga tenglashdi (5.6-jadval).

Sanoati rivojlangan mamlakatlar va ularni ketma-ket "quvib yetayotgan" davlatlar tajribasi

²¹ 2016 Global R&D Funding Forecast. Winter 2016, p. 5.

²² http://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=MSTI_PUB

²³ R&D Magazine Winter 2016, p. 7.

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

dalolat berishicha, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qo'shimcha o'sish sur'atlarining 2/3 qismi fan sig'irkorligi yuqori, ishlab chiqarish omillaridan jadal va samarali foydalanish hisobiga erishilmoqda.

5.6-jadval. BRIKS, NAFTA va EI ning jahon yuqori texnologik tovarlar ishlab chiqarish hajmidagi hisssasi, %²⁴

	1999	2000	2004	2008	2010	2012	2014
NAFTA	40,4	41,2	36,0	33,0	33,8	31,3	30,9
EI	22,4	19,8	22,9	22,7	18,1	16,8	17,0
BRIKS	5,9	6,1	10,4	17,9	22,0	27,4	31,1
Braziliya	1,2	1,4	1,1	1,7	1,8	1,9	1,7
Rossiya	0,7	0,3	0,5	0,9	1,0	1,1	1,2
Hindiston	0,5	0,3	0,5	0,7	0,9	0,9	0,8
Xitoy	3,4	4,0	8,1	14,5	18,2	23,4	27,3
JAR	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1

5.7-jadval. Dunyo mamlakatlarining ilg'or texnologiyalar sohasidagi o'rni, 2015 y. (%)²⁵

Mamlakatlar/ (Texnologiyalar)	AQSh	Xitoy	Fransiya	Germaniya	Yaponiya	Rossiya	Koreya Respublikasi	Buyuk Britaniya	Boshqa mamlakatlar
Yangi materiallar	59	15	1	12	7	1	2	2	2
Qishloq xo'jaligi (oziq-ovqat)	68	10	3	5	2	1	1	1	10
Avtomatlashtirish	22	6	1	29	32	0	8	0	2
Kosmik texnologiyalar	62	3	10	6	1	13	1	2	2
Aloqa	57	13	0	2	13	0	4	4	6
Energetika	49	10	3	20	7	1	1	1	8
Atrof-muhit	37	1	6	26	8	1	2	6	12
Asbobsozlik	41	9	1	14	22	1	9	1	2
Sog'liqni saqlash	43	2	7	18	7	0	2	9	12
Qurol-yarog'	78	6	1	1	0	11	1	1	2
Farmasevtika	56	4	3	16	5	1	1	7	8

²⁴ Science and Engineering Indicators – 2016. Appendix (tables 6) ma'lumotlari asosida hisoblangan.

²⁵ 2016 Global R&D Funding Forecast. Winter 2016, p. 21.

Innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlarning sezilarli qismi tijorat qiymatiga ega bo'ladi va bozorlarda sotiladi. Ushbu mahsulotlar asosida mamlakatning fan sig'lmkorligi yuqori tarmoqlari rivojlantiriladi. Tahlillarga ko'ra, 2015 yilda jahon yuqori texnologiyalar bozorida AQSh yetakchi mavqega ega bo'ldi. AQSh murakkab elektronika, dasturiy ta'minot, farmatsevtika mahsulotlari, tibbiyot texnologiyalari, biotexnologiyalar, avia- va raketa-kosmos texnologiyalari va boshqa sohalarda boshqa mamlakatlarni ishlab chiqarish va eksport hajmi bo'yicha ortda qoldirmoqda (5.7-jadval).

Innovatsion tarmoqlarning ba'zi yo'nalishlarida jumladan, optika asbob-uskunalar sohasida Xitoy (36,6%) va Janubiy Koreya (24,7%) rivojlangan mamlakatlarga raqobat-chilik qilmoqda²⁶.

Jahondagi yuqori texnologiyalar harakati bilan bog'liq xizmatlar savdosi tarkibida holat ham mamlakatlar o'ri taxminan yuqori texnologik mahsulotlar bozorida kabi ko'rinishga ega. JST ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda

jahon royalti va litsenzion to'lovlarning 43,1% i AQSh, 34,3% i EI-28 va 11,1% i Yaponiya hissasiga to'g'ri kelgan.

Jahonda intellektual mulk huquqi bozorida patent talabnomalarining soni jadal sur'atlarda ortib bormoqda. Umumjahon intellektual mulk tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2013 yilda 9,5 mln. patent amalda bo'lib, ularning 26% i AQSh (2,4 mln.) va 19% i Yaponiya hissasiga to'g'ri kelgan. Jumladan, 1995-2013 yillarda ushbu talabnomalar soni 2,6 martaga ortib, 2 mln. 567 mingtani tashkil etdi va qo'shimcha yillik o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5% ga teng bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham patent talabnomalari soni yildan-yilga o'sib bormoqda. Tahlillar, 2003-2013 yillarda ular tarkibida yuqori daromadli mamlakatlar ulushi 85,7% dan 60,35 gacha qisqargani holda, o'rta yuqori daromadli mamlakatlar ulushi 11,9% dan 36,4% gacha, o'rta quyi daromadli mamlakatlar ulushi esa 1,9% dan 2,9% ga qadar ortganligini ko'rsatmoqda (5.8-jadval).

5.8-jadval. Jahondagi intellektual mulk huquqi savdosida patent talabnomalarining umumiy soni va rezidentlarning geografik tarkibi²⁷

	Talabnomalar soni		Rezidentlar ulushi, %		Jahondagi ulushi, %	
	2003	2013	2003	2013	2003	2013
Jahon bo'yicha, jami	1490300	2567900	62,5	66,5	100,0	100,0
YUqori daromadli mamlakatlar	1276 800	1548 900	66,1	61,0	85,7	60,3
O'rta yuqori daromadli mamlakatlar	177700	933900	40,3	79,0	11,9	36,4
O'rta quyi daromadli mamlakatlar	28600	74500	29,0	23,2	1,9	2,9
Past daromadli mamlakatlar	7200	10600	87,5	84,0	0,5	0,4

²⁶ 2014 GLOBAL R&D FUNDING FORECAST DESEMBER 2013 www. rdmag. com

²⁷WIPO statistics database, Oktober 2014. www. wipo. int

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari


Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda yuqori texnologik mahsulotlar eksportidan keladigan foyda miqdori jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Jumladan, ushbu faoliyatdan olinadigan yillik daromad miqdori AQSHda – 700 mlrd., Germaniyada – 530 mlrd., Yaponiyada – 400 mlrd. dollardan yuqoridir.

Umumjahon intellektual mulk tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda xalqaro miqyosda xalqaro patent talabnomalari 2 567 900 taga etib, birinchi beshlikni Xitoy, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa Patent tashkilotlari tashkil etdi. Masalan, shu yili Xitoy 825,1 ming, AQSH 571,6 ming, Yaponiya 328,4 ming, Janubiy Koreya 204,6 ming ixtiroga patent berib, ularni fuqarolik muomalasiga kiritgan²⁸.

Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra, 2016-2020 yillarda jahonda yuqori texnologik mahsulotlar savdosi hajmi 4 trln. dollar atrofida bo'lishi mumkin. Xalqaro tovarlar va xizmatlar bozorining istiqbolli va barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotgan ushbu segmentida kuchli raqobat mavjud. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda raqobat kurashiga Xitoy, Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Hindiston kabi mamlakatlar ham qo'shilmogdalar. Jumladan, Xitoy XX asrning oxirgi o'n yilliklarida fan sig'imkorligi yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 27 martaga oshirishga erishdi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining yuqori o'sish sur'atlari bilan bir qatorda ushbu mahsulotlarning ulushi 8,1%dan 35,4% ga qadar o'sdi. Xitoy yuqori

texnologik mahsulotlar eksportini yiliga 15-20%ga qadar oshirib, ular eksporti miqdorini 31 martaga ko'paytirishga va mutanosib ravishda eksport tarkibida xomashyo ulushini 4 martaga qisqartirishga erishdi. Hozirgi vaqtda jahon fan sig'imkorligi yuqori mahsulotlar bozorida "quvib yetuvchi iqtisodiy rivojlanish modeli"ni qo'llayotgan yangi industrial mamlakatlar ulushi 15% atrofida baholanmoqda.

5.1-diagramma. AQSH, Xitoy va EI mamlakatlarida ITTKI xarajatlari dinamikasining o'zgarish istiqbollari²⁹



Xitoy ITTKI xarajatlari oxirgi 20 yilda yiliga 12-20%ga oshib borayotgani holda AQSHda ushbu ko'rsatkich 6-10%ni tashkil etmoqda. Natijada Xitoyning ushbu sohaga sarflayotgan mablag'lari miqdori joriy narxlarda AQSH xarajatlarining deyarli 2/3 qismini tashkil etib, ushbu farq tobora qisqarib bormoqda. Xitoy

²⁸ www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2008/article_006.html

²⁹ 2014 GLOBAL R&D FUNDING FORECAST DECEMBER 2013 www.rdmag.com

ITTKI xarajatlari hajmi bo'yicha 2020 yilga borib AQSH ko'rsatkichidan oshib ketishni rejalashtirgan (5.1-diagramma).

Hisob-kitoblarga ko'ra ushbu xarajatlar miqdori 600 mlrd. dollarni tashkil etishi mumkin. Xitoy o'z taraqqiyot dasturlarida innovatsion infratuzilmani yaratish uchun mablag' sarflash masalasiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bu o'z navbatida yangi, ilg'or texnologiyalarga asoslangan mahsulotlarni past narxlarda ishlab chiqarish va xalqaro bozorlarni egallash imkonini beradi.

Xitoyda innovatsion iqtisodiyotni yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni quyidagi ustuvor yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- *Mamlakatda innovatsion rivojlanish asosida erishilayotgan iqtisodiy o'sish natijasida o'rta sinf ulushini navbatdagi o'n yillik davomida 35%dan 75%gacha o'rta sinfni ta'minlash;*
- *ITTKI xarajatlarining YAIMga nisbatini yaqin besh yillikda 2,2% atrofida ushlab turish.*

Sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlili modernizatsiya birinchi o'ringa mamlakatning ishlab chiqarish kuchlarini takomillash-tirish, sanoatning texnologik darajasini tubdan oshirish, iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlarini texnologik jihatdan qayta qurollantirish bilan bog'liq jarayon ekanligini ko'rsatdi.

Innovatsion faollik va qayta ishlash tarmoqlarining texnologik darajasi o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli ularni alohida ko'rib chiqib, bo'lmaydi. Texnologik jihatdan qo'lg'och iqtisodiyot innovatsion faollikni eplay olmaydi. Shuning uchun rivojlanayotgan mamlakat-

larda milliy iqtisodiyotni innovatsion taraqqiyot yo'lga o'tkazish uchun qayta ishlash tarmoqlarining texnologik darajasini tubdan oshirish zarur. Ushbu muammoni "quyib o'tuvchi modernizatsiyalash" modelini umumiy qo'llash vositasida ilg'or, amaliyotda yuqori samaradorlikni namoyish etayotgan g'arb texnologiyalarini ommaviy va samarali o'zlashtirish orqaligini hal etish mumkin. Jumladan, Yaponiya, Koreya Respublikasi va "osiyoyo'lbarlari" ilg'or g'arb texnologiyalarini samarali o'zlashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muvafaqqiyatga erishganlar. Oxirgi o'n yilliklarda Xitoy va Hindiston ushbu tajribadan samarali foydalanmoqda. Janubi-Sharqiy Osiyoning yetakchi mamlakatlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlardan biri innovatsiya siyosatini amalga oshirish rejali, maqsadli davlat dasturlari doirasida olib borilishidir (5.9-jadval).

Milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda innovatsiyalar va modernizatsiya yoki o'zlashtirilgan texnologiyalarning o'rni baholash muhim ahamiyatga ega. Ayrim tadqiqotlar ko'rsatishicha, bron-bir mamlakat faqat o'z texnologiyalari hisobidan 3%lik ko'rsatkichdan yuqori texnik taraqqiyot sur'atlarini ta'minlab bera olmaydi. Ushbu tajriba 1970-1995 yillarda Koreya Respublikasi tomonidan amalga oshirildi va iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 10%dan yuqori bo'ldi.

Oxirgi 20 yil mobaynida Xitoy xorij texnologiyalarini o'zlashtirish va o'z texnologik bazasini rivojlantirish orqali barqaror yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda.

5.9-jadval. Janubi-Sharqiy Osiyoning ayrim mamlakatlari innovatsiya siyosati xususiyatlari³⁰


Strategiya	Muddati	Vazifalari
Yaponiya		
Fan va texnologiyalarni rivojlantirish Strategiyasi	2013-30 yy.	a) fan va texnologiyalar taraqqiyotini ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish; b) inson kapitali va manfaatdor tashkilotlarning rolini oshirish; v) innovatsiya siyosatini amalga oshirishning jamiyat tomonidan maqullanganligi (jamiyat hayotida fan, jamiyat uchun fan).
Fan va texnologiyalarni rivojlantirishning to'rtinchi dasturi	2011-16 yy.	Ustuvor sohalar: atrof-muhit; energiya; sog'liqni saqlash va tibbiyot; ijtimoiy muammolar. Miqdoriy ko'rsatkichlar: ITTK xarajatlarini 2020 yilgacha YAIMga nisbatan 4%ga qadar oshirish.
Janubiy Koreya		
Fan va texnologiyalarni rivojlantirishning uchinchi dasturi	2013-2017 yy.	a) ilmiy tadqiqotlarga sarflanayotgan investitsiyalar hajmi va samaradorligini oshirish; b) milliy innovatsiya strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashuvchi texnologiyalarni ishlab chiqish; v) o'rta va uzoq muddatda ijodkorlik faoliyatini kuchaytirish; g) yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar ajratish; d) ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash. Miqdoriy ko'rsatkichlar: a) ITTK xarajatlarining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini 40%ga etkazish; b) fan va texnologiyalar sohasida 640 000 ish o'rnini yaratish.
Xitoy		
Fan va texnologiyalarni o'rta va uzoq muddatda rivojlantirish milliy dasturi	2006-20 yy.	a) ilmiy-tadqiqotlar va yangiliklarni joriy etishni kuchaytirish; b) xitoy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta qurishda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va yangiliklaridan jadal foydalanish; v) atrof-muhit va jamiyat o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish (atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish); g) ilmiy-tadqiqotlar natijalari orqali amaliyotga joriy etiladigan yangiliklar ustuvorligini ta'minlash. Miqdoriy ko'rsatkichlar: a) ITTK xarajatlarini 2020 yilgacha YAIMga nisbatan 2,5%ga qadar oshirish; b) patentlar va xalqaro havollar bo'yicha birinchi beshlikka kirish.
Fan va texnologiyalarni rivojlantirishning o'n ikkinchi dasturi	2011-15 yy.	a) ilmiy tadqiqot ishlari, inson resurslari, ijodiy faoliyat va yangiliklarni joriy etishda o'zaro raqobat muhitini shakllantirish; b) iqtisodiyotni modernizatsiyalashni qo'llab quvvatlash maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish; c) ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va uni amaliyotga tadbiq etish jarayonida qatnashuvchi tegishli muassasa va tashkilotlarning funksiyalarini belgilash va ular faoliyatlari uchun qulay sharoit yaratish;

30 OECD (2014), *OECD Science, Technology and Industry Outlook 2014*, OECD Publishing.

http://dx. doi. org/10. 1787/sti_outlook-2014-en маълумотлари асосида тузилган.

Miqdoriy koʻrsatkichlar: a) ITTK xarajatlarini YAIMga nisbatan 2,2%ga qadar oshirish; b) ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, ularga investitsiyalar sarflash darajasini oshirish (ishlab chiqarish korxonalarini daromadlarining 1,5% ga qadar); c) ilmiy-tadqiqot bilan shugʻullanuvchilar sonini har 10 000 xodimga nisbatan 43 nafarga etkazish; d) fuqarolarning ilmiy tajribalarini 5%dan kam boʻlmagan darajada oshirish

5.2-diagramma. Dunyoning ayrim mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot tarmoq tarkibining sifat oʻzgarishi³¹



1970-yillarda Yaponiya jahonda texnologiyetakchi mamlakatga aylanganidan soʻng ustun darajada oʻz innovatsion texnologiyalarini rivojlantira boshladi. Ammo Yaponiya texnologik rivojlanish darajasini 3%dan oshira olmadi va 1990 yillarga kelib ushbu koʻrsatkich 2%ga qadar pasayib ketdi. XIX va XX asrlarda texnologiyetakchi mavqega ega boʻlgan AQSH va Buyuk Britaniyada mehnat unumdorligining oʻsish surʼatlari turli davrlarda

1-3%gacha oʻzgarib turgani holda 3%dan oshmagan (5.3- diagramma).

Bu davrda xorij texnologiyalarini faol oʻzlashtirgan Yaponiyada mehnat unumdorligining oʻsish surʼatlari 5% atrofida boʻlgan. XX asrda muvaffaqiyatli innovatsion-texnologik taraqqiyotni bosib oʻtgan boshqa mamlakatlarda ham mehnat unumdorligi yuqori boʻlganligini kuzatish mumkin. Hisob-kitoblar, iqtisodiy oʻsish surʼatlarida mahalliy va xorijdan oʻzlashtirilgan texnologiyalar hisssasi mos

³¹ Акаев А. А. Среднесрочная импортозамещающая модернизация – пусковой механизм стратегии формирования инновационной экономики России. //Модернизация. Инновации. Развитие, №2(14), 2013. С. 6

ravishda 1/3 va 2/3 nisbatda bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Demak, quvib yetuvchi iqtisodiy rivojlanish modelining harakatlantiruvchi kuchi xorijdan keltirilgan ilg'or texnologiyalarni samarali o'zlashtirish

hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu jarayon uzoq muddatli milliy innovatsiya tizimini faol rivojlantirayotgan mamlakatlar uchungina unumli ekanligi o'z tasdig'ini topgan.

5.3-diagramma. AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniyada mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari, %³²



Milliy innovatsiya tizimlari aksariyat hollarda texnologik ukladlar almashinadigan davrda yaratiladi. Milliy innovatsiya tizimlari shakllanayotgan boshlang'ich davrda innovatsion faoliyat sub'ektlari o'rtasidagi aloqalarning yaxlit tizimi mavjud bo'lmagani mumkin. Ushbu aloqalarni yo'lga qo'yish va umumiy innovatsion strategiyani rivojlantirishda davlat alohida o'rin tutadi. Keyinchalik aksariyat sanoati rivojlangan mamlakatlarda kuzatilganidek, ushbu sohada biznes yetakchi mavqega ega bo'lib boradi. Ammo aynan qaysi

model u yoki bu milliy innovatsiya tizimi uchun maqbul bo'lishi noma'lum. Jahon amaliyotidan kelib chiqib, milliy innovatsiya tizimini yaratayotgan har bir mamlakat uchun quyidagi masalalar hal etilishi maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir:

Innovatsion rivojlanishga nisbatan yondashuvning tashkiliy jihatlarini ishlab chiqish. Odatda rivojlangan mamlakatlarda milliy innovatsiya tizimini yaratish uzoq muddatga mo'ljallangan milliy loyihalarga aylanadi. Mamlakat innovatsion rivojlanish zaruriyatidan

³² Акаев А. А. Среднесрочная импортозамещающая модернизация – пусковой механизм стратегии формирования инновационной экономики России. //Модернизация. Инновации. Развитие, №2(14), 2013. С. 8

kelib chiqqan holda ichki iqtisodiy muammolarga bog'liq bo'lmagan holda innovatsion faoliyat sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash dardor.

Innovatsiyalarni kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarish mexanizmini yaratish. Hozirgi vaqtda jahonda innovatsiyalarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, ammo ushbu jarayon zarur innovatsion talabning yo'qligi sababli sust bormoqda.

Innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish. Ushbu vazifa to'lovga qobiliyatli talabni oshirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy bazani kengaytirish, milliy innovatsiya tizimi sub'ektlari, xususan, ilmiy soha va biznes o'rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalarni shakllantirishni taqozo etadi.

Innovatsion jarayonlarni muvafaqqiyatli rivojlantirish sharti sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Jahon hamjamiyatida, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik ta'minlanmas ekan ushbu holat ijtimoiy beqarorlikka olib keladi, innovatsiyalarni rivojlantirishga bo'lgan rag'batni so'ndiradi. Uzoq muddatli, aniq innovatsion rivojlanish strategiyasiga ega bo'lmasdan turib samarali milliy innovatsiya tizimini yaratish mumkin emas.

Global innovatsion tizimning uzviy qismi sifatida O'zbekiston milliy innovatsiya tizimining samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida istiqbolda milliy innovatsiya tizimining jadal rivojlanishini ta'minlaydigan davlatning maqsadli faol siyosatini ishlab chiqish lozim. Shu maqsadda davlat va biznes hamkorligida maqsadli innovatsiya dasturlarini

yaratish zarur. Ularning vazifasi texnologik rivojlanishda ilg'or xorijiy texnologiyalarni faol o'zlashtirish orqali ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlaridan milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash amaliyotida unumli foydalanishdir.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishning xorij tajribasi tahlili quyidagi umumlashgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoni berdi:

XXI asrga kelib fan-texnika taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda boshqa ishlab chiqarish omillariga nisbatan hal qiluvchi iqtisodiy resursga aylandi. Fan-texnika taraqqiyoti mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi asosiy raqobat ustunligini ta'minlab bermoqda.

Innovatsion faollik va qayta ishlash tarmoqlarining texnologik darajasi o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli ularni alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Texnologik jihatdan qoloq iqtisodiyot innovatsion rivojlanish yo'liga o'ta olmaydi. Buning uchun birinchi navbatda sanoat sohasida qayta ishlash tarmoqlarining texnologik darajasini tubdan oshirish va iqtisodiyotning an'anaviy, bazaviy tarmoqlarini ilg'or xorij texnologiyalarini samarali o'zlashtirish orqali rivojlantirish lozim.

Mamlakat innovatsion rivojlanishining uzoq va o'rta muddatli strategiyasi davomida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- *fundamental bilimlardan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va "inson kapitali"ning sifat darajasini oshirish maqsadida byudjet mablag'larini ITTKini moliyalashtirishga yo'naltirishni rag'batlantirish;*

Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish tendensiyalari va omillari

- ilmiy tadqiqot natijalarining raqobatbar-doshligini ta'minlash, jumladan, olinayotgan natijalarning kapitallashgan qismi salmog'ini oshirish uchun amaliy ishlarni bozor mahsulotiga aylantirishni ta'minlaydigan innovatsion infratuzilmani takomillashtirish;
- innovatsiya sohasida davlat-xususiy sherikligi mexanizmidan unumli foydalanish – amaliy ishlanmalar va innovatsion infratuzilmani takomillashtirish jarayonini davlat ishtirokida amalga oshirish, texnologik modernizatsiyalarda esa asosan biznes yordamiga tayanish.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?
- Baynalmillashuv jarayonining rivojlanish bosqichlarini tavsiflang?
- Nima uchun globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi jamiyat taraqqiyotining murakkab bosqichi hisoblanadi?
- Globallashuv jahon iqtisodiyotining qaysi jabhalarida namoyon bo'lmoqda?
- Globallashuv va integratsiyalashuv darajalariga tavsif bering?
- Globallashuv jarayonlarining yanada avj olishiga qanday omillar ta'sir qilmoqda?
- Jahon xo'jaligi globallashuvining milliy iqtisodiyotlarga ta'siri yo'nalishlarini tavsiflang.
- Globallashuvning iqtisodiy-tashkiliy, texnologik, ijtimoiy-ma'daniy va siyosiy jihatlarini tavsiflang.
- "Ochiq iqtisodiyot", "Erkin savdo" va "milliy iqtisodiyotning liberallasuvi" tushunchalari mohiyatini tavsiflang.
- Ochiq iqtisodiyot afzalliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
- Milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini tavsiflang.
- Globallashuvning zamonaviy bosqichida xalqaro savdo rivojlanishining xususiyatlari qanday?
- Hozirgi davrda xalqaro savdo liberalashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatmoqda?
- Jahon moliya tizimi globallashuvining mohiyatini, ijobiy va salbiy jihatlarini tavsiflang.
- Global moliyaviy – iqtisodiy inqiroz boshlanishi va avj olishida jahon moliyaviy tizimining o'rnini qanday?
- Globallashuv sharoitida jahon moliyaviy tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
- Globallashuvning zamonaviy bosqichida milliy moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirishda qanday omillar inobatga olinishi kerak?
- Milliy va iqtisodiy xavfsizlik va uni ta'minlash tushunchalarining asosiy maqsadi va mohiyati nimada?

Beʼsinchi bob. Globallashuv sharoitida milliy xoʻjaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari

- *Globallashuv sharoitida O'zbekiston milliy iqtisodiyotining xavfsizligi qanday tamoyillarga asoslanadi?*
- *Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash qaysi masalalar yechimini hal etishga qaratilgan?*
- *Iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlovchi mezon va ko'rsatgichlar tizimiga tavsif bering.*
- *Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va uni belgilovchi ko'rsatgichlar tizimiga tavsif bering.*
- *Innovatsiya tor va keng ma'noda qanday talqin etiladi?*
- *Innovatsion jarayon nima va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday?*
- *Innovatsion mahsulot qanday xususiyatlarga ega?*
- *Innovatsion mahsulotga mulk huquqi nima va uni amalga oshirish mexanizmi qanday?*
- *O'zbekistonda intellektual mulk ob'ektlari huquqiy muhofazasining tashkiliy-huquqiy asoslarini tavsiflang.*
- *Milliy iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotida intellektual mulk himoyasi tizimini takomillashtirishning ahamiyati.*
- *Intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solishning huquqiy mexanizmiga tavsif bering.*

IKKINCHI QISM

XALQARO IQTISODIYOT ASOSLARI

BIRINCHI BO'LIM. XALQARO IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI

I bob. Xalqaro iqtisodiyot asoslari faniga kirish

Xalqaro iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari

Xalqaro iqtisodiyot – iqtisodiy nazariyaning bir qismi bo'lib, turli davlatlarga tegishli xo'jalik sub'yektlarining xalqaro tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish omillari harakati, moliyalashtirish va xalqaro siyosatni shakllantirish sohasidagi o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi. Xalqaro iqtisodiyot *xalqaro mikroiq-tisodiyot va xalqaro makroiqtisodiyotdan tashkil topgan.*

Xalqaro mikroiq-tisodiyot xalqaro savdo va xalqaro ishlab chiqarish omillari harakati qonuniyatlarini, shuningdek ularning tavsiflari (talab, taklif, narx va hokozolar)ni o'rganadi. *Xalqaro makroiqtisodiyot* globallashuv sharoitida ochiq tipdagi milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqalarini va jahon xo'jaligini o'rganadi. Bunday ketma-ketlik tasodifiy emas, u xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'rinishlarining tarixiy rivojlanishiga asoslangan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ilk davlatlar bilan bir paytda ob'ektiv reallik sifatida paydo bo'lgan keng ko'lamdagi rang-barang aloqalar va munosabatlarning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Uzoq tarixga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi sivilizatsiyalar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq, iqtisodiy sohada o'zaro aloqalar olib borishganiga doir bir talay misollarga duch kelamiz, chunki ular hoh

Qadimiy Misr yoki Shumer madaniyati bo'lsin, xoh Ind vodiysi madaniyati yoki Shan-In davridagi Xitoy bo'lsin, kelib chiqishining avtohtonligi (avtonomligi) va jug'rofiy jihatdan ajral-ganligiga qaramasdan, bir-birlari bilan xo'jalik munosabatlarini o'rnatishga va ularni keyin ham davom ettirishga intilishgan.

Juda ko'p manbalar shundan guvohlik beradiki, ahyon-ahyonda tartibsiz tabiatdagi natural tovar ayirboshlash ko'rinishdagi munosabatlar o'rniga asta-sekin antik davr (eramizdan avvalgi I minginchi yillar - eramizning I minginchi yillarining o'rtalari)ga xos bo'lgan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosidagi doimiy xo'jalik aloqalari vujudga keladi.

O'rta asrlarning boshlanishi XIMning ilgari lanma harakatida iqtisodiyotning yalpi naturallashuvi, mulkning korporativ-tabaqalangan tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarning sakralizatsiyasiga asoslangan orqaga chekinishni keltirib chiqardi. Biroq shaharlarning o'sishi va savdo-sudho'rlik kapitalining rivojlanishi Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy sohada aloqalarning misli ko'rilmagan darajada kengayishiga va Yevropadagi yetakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya va Britaniyaning kolonial imperiyalari tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan o'lg'a siljishni ifodalagan XVIII asming oxiri - XIX asrning boshlaridagi sanoat to'ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko'rinishdagi XIMning shakllanishi uchun zarur bo'lgan muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga keltirish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, insoniyatning XIX-XX asrlar bo'sag'asida taraqqiyotning industrial davriga o'tishi an'anaviy ko'rinishdagi hududiy xo'jalik tizimlari evolyutsiyasidan oldingi davrga yakun yasadi, jahon miqyosida Yevropa (to'g'rirog'i, ingliz-amerika) bozor iqtisodiyoti modelining g'alabasini ifodaladi.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan Yevropa, Shimoliy Amerika va, ma'lum darajada, Yaponiya milliy xo'jaliklarini, ikkinchi tomondan keng ko'lamdagi mustamlaka periferiyalarni o'z ichiga olgan jahon iqtisodiy kompleksi (majmuasi)ning yuzaga kelishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining shunday ko'rinishining yaratilishiga olib keldiki, bu ko'rinish shu holatda ma'lum o'zgarishlar bilan hozirgi kunda ham mavjud bo'lib kelmoqda. Albatta, o'tgan yigirma yillik davr XIM tabiati va tuzilmasiga ma'lum o'zgartirishlar kiritdi.

Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar (150 dan ortiq) deb atalmish guruhlarining vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSh, Yevropa, Yaponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi. SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'lga o'tishi rejali-buyruqbozlik

xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi. Va, nihoyat, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvi bilan birga kuzatiluvchi ishlab chiqarishning baynalmillatlashuvi bir qator integratsion guruhlar, shuningdek, universal va ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar paydo bo'lishini rag'batlantirdi.

Bu barcha hodisalar Xni iqtisodiy fanlarning bir sohasi sifatida nazariya va amaliyot doirasida har tomonlama tahlil qilishni talab qiladi. Bu fanning o'rganish ob'ekti *iqtisodiy ayirboshlash sohasidagi davlatlararo munosabatlar* bo'lsa, predmeti - tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan *milliy, hududiy va global miqyosdagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir*.

XI sub'ektlari haqida gap ketganda, *davlatlar* (rivojlangan, rivojlanayotgan, o'tish davri iqtisodiyotli), *hududiy integratsion guruhlar* (masalan, Yevropa ittifoqi), *xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalarni qayd etish mumkin*.

Jahon bozori va zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllari

Zamonaviy jahon xo'jaligining murakkab, ko'p funktsiyali majmuasi - turli davlatlar va hududiy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar tizimining bir sohasi sifatida moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan (axborotlar, ba'zi xizmat turlari) ko'rinishdagi ijtimoiy mahsulotning yaratilish bosqichlarini, ya'ni ishlab

chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'molni birlashtiruvchi jahon bozori muhitida taraqqiy etib boradi.

Jahon bozori mamlakatlar o'rtasidagi mehnat va boshqa ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimotiga asoslangan barqaror tovar-pul munosabatlari sohasidir. Jahon bozori o'zining hozirgi ko'rinishiga bir necha tamoyillar ta'sirida kelgan bo'lib, bu tamoyillarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- *yopiq tipdagi milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o'tish;*
- *xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;*
- *davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi;*
- *transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi;*
- *baynalmilal iqtisodiy ayirboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi;*
- *fan va texnikaning rivojlanishi.*

Davlatlarning yopiq tipdagi xo'jalik tizimi (avtarkiya)dan qutilishga intilishi haqida gapirganda, yetakchi mamlakatlar o'z siyosatlarida global bozor makrotizimini qurishning asosiy sharti bo'lgan barcha uchun barobar raqobat muhitini saqlash yoki yaratishni ilgari suruvchi «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» tamoyillarini amalda qo'llaganliklarini qayd etib o'tish kerak.

Xalqaro mehnat taqsimotiga kelsak, iqtisodiy turmushning ushbu favqulodda hodisasi xo'jalik taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy tarkibiy qismi birinchi darajali ahamiyat kasb etganligi tufayli yangi sifatlarga ega bo'ldi. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi

va kooperatsiyalashuvi jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy-jug'rofiy omil ikkinchi darajali bo'lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Transmilliy korporatsiyalar (TMK) nomini olgan xalqaro monopolistik guruhlar davlat chegaralarini kesib o'tish orqali sayyoramizning barcha mamlakatlari va hududlari bo'ylab menejment va marketingning yangi uslublarini tarqatish yo'nalishida XIM tuzilmasiga ta'sir etmoqda.

Xo'jalik sohasida baynalmilal ayirboshlash mexanizmlari sezilarli darajada murakkablashdi - ko'plab yangi huquqiy me'yor va tartiblar paydo bo'ldiki, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi hamda iqtisodiy masalalar bo'yicha ikki va ko'p tomonlama bitimlarda mustahkamlandi.

Oxirgi ellik yil davomida bir necha rivojlanish bosqichlarini, ya'ni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, biologizatsiya kabilarni boshidan kechirgan ilmiy-texnikaviy inqilob jahon bozorida tamomila yangi segmentning - axborotlar va texnologiyalar bozorining paydo bo'lishiga olib keldi.

Global xo'jalik makrotizimi tuzilmasini tabiiy ravishda murakkablashuvi bozor muhiti funksiyalarining tabaqalanishi bilan birga kuzatiladi. Bu funksiyalarning asosiylari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *indikativ — bozor agentlari, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va iste'molchilarni tovar va xizmatlarga talab va taklif tamoyillari yo'nalishi to'g'risida axborotlardan xabardor qilish;*
- *tartibga solish — jahon narxlari harakatiga ta'sir o'tkazish;*

- *kommunikativ — harakatdagi bozor agentlari o'rtasida aloqalarni ta'minlash;*
- *sanatsiyalash — raqobat kurashi jarayonida bozorning «o'z-o'zini davolashi» jarayoni, ya'ni iqtisodiy jihatdan samarasiz kompaniyalarni bartaraf etish va talabga ega bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarishni to'xtatish.*

Bozor ko'rinishidagi xo'jalik muhitida tuzilmaviy-funksional rivojlanishning milliy, hududiy va global miqyosdagi taraqqiyoti XIMni quyidagi ko'rinishlarining vujudga kelishiga olib keldi:

- *xalqaro tovar va xizmatlar savdosi;*
- *xalqaro kapital harakati;*
- *xalqaro valyuta hisob-kitob tizimi;*
- *xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi;*
- *xalqaro axborot va texnologiyalar ayirboshlash.*

Qayd etib o'tilgan har bir ko'rinish o'ziga xos fazilatga ega, biroq bu ularning bir-biriga kirib borishiga to'sqinlik qilmaydi. Bu holatni TMK faoliyati, integratsiya guruhlarining tashkil topishi va erkin iqtisodiy hududlar faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin.

Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida Xining o'ziga xos jihatlari

XX asming oxirgi choragi XIni o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Mutaxassislar uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini

muhokama qilishni davom ettirayotgan bo'lsalar-da, hozirgi kundayoq Xining zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o'z-o'zidan namoyon bo'lib turibdi:

- *samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejovchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;*
- *konveyer, keng xalq ommasi iste'moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va, ayniqsa, xususiy kompaniyalarning alohida yo'naltirilgan kreativ (ijodiy) xo'jalik faoliyatiga o'zgartirish;*
- *milliy iqtisodiyotlarni ochiq qilish tamo-yillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo'shilib ketishi;*
- *xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;*
- *hal etilishida jahondagi barcha mamlakatlarning jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xom ashyo, demografik kabi muammolarning keskinlashishi.*

Zamonaviy Xining eng muhim belgilarini sanab o'tgan holda, kasbiy faoliyati xo'jalik sohasi bilan bog'liq har bir mutaxassis uchun o'z faoliyatida alohida korxonada doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta'sir qilish omillarini u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo'lishidan qat'iy nazar, bilishi va hisobga olishi kerak bo'ladi. Shuning uchun Xining asosiy ko'rinishlarini o'rganish, ularni modellashtirish usullari ko'p omillarga asoslangan tahlil va statistikani qo'llanishiga qarab turli-tuman bo'lishiga qaramasdan,

makro va mikro darajada jahon va milliy xo'jalik kon'yunkturasidan muvaffaqiyatli xabardorlikning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

XI jarayonlarida mamlakatlar ishtirokining asosiy ko'rsatkichlari

Xalqaro iqtisodiyotda davlatning tutgan o'рни va ahamiyati statistik ko'rsatkichlar majmuasi bilan belgilanadi. Ular qatoriga, odatda, quyidagilarni kiritishadi:

- *mamlakat tashqi savdosi hajmining mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbati (eksport yoki import kvotasi)*

$$E_{kv} = \left(\frac{E}{YaIM} \right) \times 100\%,$$

bu yerda E_{kv} – eksport kvotasi, E – yillik eksport miqdori, $YaIM$ – yalpi ichki mahsulot;

$$IM_{kv} = \left(\frac{IM}{YaIM} \right) \times 100\%,$$

bu yerda IM_{kv} – import kvotasi, IM – yillik import miqdori, $YaIM$ – yalpi ichki mahsulot;

$$TSA_{kv} = \left(\frac{TSA}{YaIM} \right) \times 100\%,$$

bu yerda TSA_{kv} – tashqi savdo kvotasi, TSA – yillik tashqi savdo aylanmasi miqdori, $YaIM$ – yalpi ichki mahsulot;

- *aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tashqi savdo aylanmasi miqdori (yoki eksport va importning alohida olingan miqdori);*
- *aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tashqi investitsiyalar (eng avvalo, to'g'ri investitsiyalar) hajmi ko'rsatkichi.*

Indeks ko'rinishi bo'yicha murakkabroq bo'lgan boshqa bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud, ularni tahlil qilish mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi darajasi, shuningdek, butun XI tizimi rivojlanishidagi global tahdidlar to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish omillari va ularni xalqaro ayirboshlash jahon iqtisodiyotining moddiy asosi sifatida

Ma'lumki, odamlarning biologik tur (antropogenez) sifatida rivojlanish jarayoni tabiat ne'matlarini o'zlashtirish ko'rinishidagi ibtidoiy xo'jalik doirasida kechgan. Faqatgina eramizdan avvalgi VI-V ming yilliklardagi neolitik inqilob insoniyat faoliyatining ikki muhim sohasida, ya'ni dehqonchilik va chorvachilikda, keyinchalik shahar tipidagi qishloqlar paydo bo'lishi bilan esa hunarmandchilikda ham ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishining boshlanishiga asos soldi.

Ana shu davrdan boshlab, ishlab chiqarish haqida iqtisodiyotning moddiy asosi sifatida, resurslar to'g'risida esa *ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi imkoniy zarur bo'lgan shart-sharoitlar yig'indisi* sifatida gapirish mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada quyidagi resurslar guruhlarini ajratib ko'rsatiladi:

- *Tabiiy — tabiatning tabiiy kuchlari va moddalari.*
- *Moddiy - inson tomonidan yaratilgan moddiy ishlab chiqarish vositalari.*
- *Mehnat — mehnat qilish qobiliyati yoshidagi aholi (15—60-65 yosh).*

- *Moliyaviy — ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi pul mablag'larini.*
- *Axborot — ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar manbai va axborot oqimlari.*

XX va XXI asrlar bo'sag'asidagi iqtisodiyot, yuqorida aytib o'tganimizdek, sanab o'tilgan resurslar ichida axborot resurslarining ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Ayni paytda boshqa guruh resurslar ham yangi sifatli mazmunga ega bo'lgan holda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Resurslardan farqli ravishda, ishlab chiqarish omillari — bu oqilona foydalanish jarayoniga haqiqatan jalb qilingan tabiiy, moddiy, demografik, moliyaviy va axborot muhitining element (unsur)laridir. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish omillari ishlab chiqaruvchi resurslarni aks ettiradi.

Ishlab chiqarishga haqiqatan jalb qilingan tabiiy resurslar ichida, odatda, yer bosh omil sanalsa, moddiy va moliyaviy resurslar ichida — kapital, mehnat resurslari ichida — aholining iqtisodiy faolligi, axborot resurslari ichida esa — inson aqliy faoliyati natijalarining yig'indisi asosiy omil hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning har qanday omili ba'zi-bir sifatli jihatlarga ega bo'lib, ular qatoriga ishlab chiqarish omilining egasiga foyda keltirish qobiliyati, jahon bozorida sotilish va xarid qilinish imkoniyati, XIM doirasida mamlakatlar va hududlar orasida harakatlanish ehtimoli kiradi.

Eng avvalo, ishlab chiqarish omillarining harakati Xidagi doimiy o'zgarishlarning zaruriy sharti ekanligini qayd etish kerak. Ishlab chiqarish omillari harakati xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib boruvchi ikki asosiy

ko'rinishi: ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuviga asoslangan.

XX asr davomida ayrim ishlab chiqarish omillarini ayirboshlash tabiati jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Uning ko'lami va jadalligi sezilarli o'sib bordi, yer va boshqa tabiiy-moddiy unsurlar o'rnini ko'rinmas iqtisodiyotning moddiylashmagan omillari — kapitalning bir mamlakatdan boshqasiga naqdsiz operatsiyalar orqali oqib o'tishi va axborotlar oqimining hududlar o'rtasida kompyuter tarmoqlari orqali ko'chishi egalladi.

Qayd etib o'tilgan omillarni ayirboshlashning ilgari harakati hozirgi kunda quyidagi asosiy jihatlarga asoslangan:

- *jahon bozoridagi AQSh — G'arbiy Yevropa — Yaponiya — Xitoy «to'rtburchagi»ning yetakchi roli;*
- *kapital va axborotlar transferti (ko'chishi) muhitida TMKlar tuzilmasining ko'pligi;*
- *ishlab chiqaruvchi resurslarning jami aylanmasida «inson omili» ahamiyatining ortib borishi;*
- *yuqoridagi omillar harakat mexanizmlari va kanallarining keng ko'lamdagi o'zaro uyg'unlashishi.*

Agar ilgari ayirboshlashning tijoriy tashkil etuvchisi (asosan, oldi-sotdi yoki ijara orqali) hukmron mavqega ega bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda ijtimoiy yordam, muhtojlarga ko'maklashish, kompensatsiya asosidagi faoliyatning qo'shma dasturlari kabi notijoriy ko'rinishlari oldingi o'ringa chiqmoqda. Ayni paytda ishlab chiqarish omillarini iqtisodiy jarayonga jalb qilinishining ikkilamchi natijasini ifoda etuvchi xalqaro tovar va xizmatlar harakatini alohida o'rganib chiqish kerak.

Jahon bozorida tovar va xizmatlar
harakatining xususiyatlari

Keyingi o'n yil davomida xalqaro tovarlar va xizmatlar harakatining tabiati eksport-import operatsiyalari hajmining ortib borishi va nomenklaturasining o'zgarishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, XX asr davomida ishlab chiqarishga nisbatan savdo dinamikasining tezlashishi kuzatiladi, ya'ni ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, ishlab chiqarishdagi har 10 foiz o'sishga tovar va xizmatlar aylanmasining 16 foizga ortishi to'g'ri keladi. Ammo XXI asrga kelib bu tendensiya yo'qolib bormoqda. Masalan, 2015 yilda jahon ishlab chiqarishi 2,4 foizga ortgan bo'lsa, jahon eksporti o'zgarimas narxlarda 2,7 foizga o'sdi.

Qayd etilgan tamoyillarning asosiy sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *rivojlangan iqtisodiyotlarda tashqi savdoni erkinlashtirish;*
- *rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'liga kirishi;*
- *fan-texnika inqilobi sharoitida ixtisoslashish va kooperatsiyalashtirishning rivojlanishi;*
- *integratsiya to'loqining sayyoramizning barcha hududlariga tarqalishi;*
- *milliy iqtisodiyotlarni davlat tomonidan tartibga solish jarayonining faollashuvi;*
- *TMKlar faoliyati ko'lamining kengayishi.*

XX asr so'ngidagi iqtisodiy vaziyatning farq qilib turuvchi xususiyati – xizmatlar sohasining shiddat bilan o'sishi hisoblanadi. Agar 60-yillarda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulot (YalIM)dagi hissasi, ya'ni bir davlat hududida bir yil davomida yaratilgan jami qiymatdagi ulushi rivojlangan g'arb mamlakat

katlari uchun 55 foizdan oshmagan bo'lsa, 90-yillarda bu ko'rsatkich 70-75 foizni tashkil etdi, boz ustiga, xizmatlar bilan bog'liq sohalarda bandlar soni rivojlangan mamlakatlarda 80 foizga yetdi. 2015 yilda jahon yalpi mahsulotida xizmatlar sohasining ulushi 68. 5 foizni tashkil etdi.

Ko'rsatib o'tilgan tamoyillar xizmatning tovar sifatidagi xususiyati bilan belgilanadi, aniqroq qilib aytganda, tovarning moddiylik tabiati, ishlab chiqarish va iste'molning bir paytda yuz berishi, aslini olganda, tovar eksportining kapital va ishchi kuchi harakati bilan birgalikdagi ta'siriga asoslan gan. Xalqaro xizmatlar ayirboshlashning ko'payib borishini sekinlashtiruvchi ta'sir sifatida davlatlarning himoyalash (proteksionistik) faoliyatini ko'rsatish mumkin. Davlatlar turli-tuman kommunal, transport va boshqa turdagi xizmatlarni monopollashtirib, ularni tijoriy ayirboshlashga jalb etishga yaroqsiz qilib qo'yimoqda.

Ko'pchilik mutaxassislarining ta'kidlashicha, xizmatlarni sinflash xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotnomalarida hali yetarlicha o'z aksini topgani yo'q. Masalan, Xalqaro valyuta fondida xizmatlarning faqat to'rt turi ajratib ko'rsatiladi: fraxt (transport vositasini ijaraga olish, yuklarni sug'urtalashni ham o'z ichiga oladi), boshqa transport xizmatlari, turizm va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, xizmatlarni quyidagicha sinflash to'g'ri bo'ladi:

- *transport xizmatlari (fraxtni o'z ichiga oladi);*
- *moliyaviy xizmatlar (bank, birja va broker xizmatlari);*
- *sug'urta xizmati;*

- *huquqiy xizmat ko'rsatish;*
- *axborot-texnologiya, vositachilik xizmatlari;*
- *rekreatsion xizmatlar (turizm).*

Xalqaro xizmatlar savdosi bilan 40 dan ortiq tuzilma shug'ullanadi, ularning ichida jahon tovarlar va xizmatlar bozori tamoyillari va tartiblarini ishlab chiqishni moslashtirishga, shuningdek, aqliy mulk huquqlarini himoyalash masalalarini hal qilishga qaratilgan Umumjahon savdo tashkiloti yetakchi hisoblanadi.

Jahon axborot va texnologiyalar bozori

XX asrning asosiy xususiyatlaridan biri fan va texnikaning miqdor ko'rilgan darajada rivojlanishi bo'ldi. So'nggi yuz yil davomida Xning yangi axborot-texnologiya tuzilmasi vujudga keldi va shakllandi. Uning negizini Jahon axborot va texnologiyalar bozori (JATB) tashkil etadi.

Iqtisodiy nuqtadan nazardan axborot - bu bizni qiziqtirayotgan ob'ekt to'g'risidagi bilimlarimiz hajmini kengaytiruvchi yangi ma'lumotlar yig'indisi bo'lib, u quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflandi: foydalanish jarayonida yo'qotilib ketmasligi, moddiy predmetlar amortizatsiyasiga nisbatan boshqacha «qarish» mexanizmiga egaligi va universal qiymat bahosining mavjud emasligi.

Texnologiya jahon bozoriga ishlab chiqarishning usul va uslublari, shuningdek, uni tashkil etish hamda boshqarish ko'rinishlari to'g'risidagi ilmiy-texnik bilimlar majmuasi sifatida chiqadi. Har qanday yangi texnologiya ma'lum «hayotiy tsikl»ni o'tadi. U yaratilgandan so'ng marketing, reklama kabi omillarga bog'liq

ravishda o'z iste'molchisiga ega bo'luvchi tovar hisoblanadi xalos. Keyinchalik, muvaffaqiyatli joriy etilsa, bu texnologiya o'zining yaratuvchisiga foyda olib keladi, foyda miqdori vaqt o'tishi bilan maksimumga erishadi va shundan so'ng kamayib boradi. «Hayotiy tsikl»ning oxirgi bosqichida texnologiya zamonaviylashtiriladi yoki yangisi bilan almashtiriladi.

Shunday qilib texnologiya-tovarni tijoriy mavjud bo'lish bosqichlari har qanday mahsulotning «tug'ilish, yetuklik va qarish» bosqichlariga mos keladi. Biroq boshqa tovarlardan farqli o'laroq, axborot va texnologiyalarning qiymati ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar qiymatiga o'xshaydi, ya'ni ularidan foydalanishdan keladigan foyda miqdoriga bog'liq bo'ladi va texnologiya/axborotlar bozorida sotish davomida vujudga keladigan qo'shimcha daromad bilan belgilanadi. Bu yerda gap texnologik renta xususida ketyapti.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, JATBning ob'ektlari – bu moddiy (qurilmalar) va nomoddiy (turli ko'rinishdagi axborotlar, ishlab chiqarish tajribalari va bilimlar) ko'rinishidagi intellektual faoliyat natijalaridir. JATBda davlat tuzilmalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, xususiy kompaniyalar va jismoniy shaxslar-mutaxassislar qatnashadi. Ma'lumotlar va texnologiyalar jahon bozori juda tez rivojlanmoqda. 90-yillarning o'rtalariga kelib, axborot va texnologiyalar tarmog'i AQSh YalMining salkam 75 foizini ta'minlagan. Mamlakat faroonligi manbalari an'anaviy ishlab chiqarish omillaridan axborot resurslari tomon ko'chmoqda.

Ijod jarayoni, ayniqsa, ilmiy-texnik sohadagi ijod qilish jarayoni rivojlangan

mamlakatlarda taraqqiyotga yordam beruvchi yo'ldoshgina emas, balki taraqqiyotning asosiy omiliga aylanib bormoqda, zero bu jarayon ishlab chiqarish sohasiga kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Alohida davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarining differensialashuvi kuchaymoqda, natijada milliy iqtisodiyotlarning ilmiy-texnik yetukligi darajasidagi farq ortib bormoqda. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya va Buyukbritaniya ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga dunyoning qolgan barcha mamlakatlarning birgalikdagi xarajatlaridan ko'proq mablag' sarflaydi. Bu besh davlatning ichida AQShning ulushi 50 foizdan oshadi. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa yangi industrial davlatlarning qoloqlikni bartaraf etish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, tashqi bozorlarga o'z tovarlari bilan chiqish uchun yangi texnologiya va axborotlarga qiziqishi ortib bormoqda.

JATBda xalqaro ayirboshlashning kengayishiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida TMKlar faoliyatini keltirish mumkin. Yirik TMKlar raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish jarayoniga texnologiyalar bilan yorib kirish uchun o'zlarining ilmiy-tadqiqot markazlarini yaratishmoqda. O'rta va kichik kompaniyalarga kelsak, ular zarar ko'rmaslik uchun yirik kompaniyalardan axborot va texnologiyalar sotib olishga majburdirlar. JATBning rivojlanishiga harbiy ishlab chiqarishni konversiyalash jarayoni ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq yo'l innovatsion faoliyat deb ataladi. Xalqaro tajribalardan ma'lumki, bu jarayonning asosiy

unsuri – ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni tijoratlashtirish, axborot bilan ta'minlash va xodimlar treninggiga ixtisoslashuvchi innovatsion-texnologik markazlar (ITM)ni yaratishdir. ITMlar ko'plab o'rta va kichik korxonalarni birlashtiruvchi konglomeratlar sanaladi. Davlat esa bunday markazlarga ilmiy-ishlab chiqarish va servis erkin iqtisodiy hududlari doirasida ilg'or loyihalar va yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun o'ziga xos «inkubator»larni yaratish orqali ko'maklashishi mumkin.

ITMlardan tashqari innovatsion faoliyatda NIOKR bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlariga ega bo'lgan TMKlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ilmiy-texnikaviy yangiliklarga qilinadigan xarajatlar «IBM» va «Kodak» kompaniyalari savdodan tushgan daromadlarining 6 foizigacha miqdorga yetadi, «Voyets»da — 5,5 foiz, «Xerox»da esa — 4,7 foiz. Sotib olingan patentlar va litsenziyalarning 4/5 qismi xalqaro korporatsiyalarga to'g'ri keladi.

Innovatsion faoliyatning kengayib borishi yangi kashfiyotlar va resurslarni tejoychi texnologik jarayonlarni joriy etishga asoslangan ilm sig'imli tovarlarni ishlab chiqarish bilan bog'liqlik, ular xarajatlarni kamaytirish va buyumning iste'mol xususiyatlarini yaxshilashni ta'minlaydi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari NIOKRga katta miqdorda byudjet assignatsiyalarini ajratishadi. Masalan, Yaponiyada bu maqsadlarga YalMning 3, AQShda – 2,54, Frantsiyada — 2,34, Germaniyada — 2,26, Buyukbritaniyada — 2,05 foizi sarflanadi.

Axborot va texnologiyalar bilan xalqaro ayirboshlash hamkorlar o'rtasidagi uzoq

muddatli o'zaro aloqalar jarayonini aks ettiradi. U axborot/tehnologiyalarni tanlash va sotib olish, ularni aniq lokal sharoitlarni hisobga olgan holda o'zlashtirish, keyinchalik modifikatsiyalash yoki boshqa yangi, zamonaviylariga almashtirishni nazarda tutadi.

Axborot-tehnologiyalar ayirboshlashni asosiy kanallariga quyidagilar kiritiladi:

- *davlatlararo (ilmiy-texnikaviy hamkorlik dasturlari yoki tashqi savdo bitimlari bo'yicha);*
- *firmalararo (xorijiy hamkorlar bilan keng ko'lamdagi shartnomalar bo'yicha);*
- *firma ichidagi (bir korporatsiya tuzilmalari o'rtasida, ya'ni turli mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi shaxobchalar va sho'ba korxonalar o'rtasida).*

Keyingi yillarda aynan firma ichidagi axborot-tehnologiyalar yetkazib berish xalqaro ayirboshlash kanallari ichida, ayniqsa, patent-litsenziya savdosi sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ayirboshlashga tasvif berishda shuni qayd etish joizi, ayirboshlash ham tijoriy, ham notijoriy ko'rinishlarda mavjud bo'lishi mumkin. Hamma narsa sotuvchi va xaridor (ishlab chiqaruvchi va iste'molchi) o'rtasidagi bitimda pul to'lovlarining amalga oshirilish oshirilmassligiga bog'liq.

Notijoriy ko'rinishlardan boshlaylik, ular quyidagilarni ko'zda tutadi:

- *ma'lumotlar manbalari (maxsus adabiyotlar, Internetning axborot massivlar, ma'lumotlar bazasi kabilar)dan tekin foydalanish;*
- *konferensiya, ko'rgazma va klublarda olimlar va kashfiyotchilar o'rtasidagi*

shaxsiy aloqalarda g'oyalar, tamoyillar, yangiliklar bilan ayirboshlash;

- *mutaxassislaming chet ellardagi davlat va xususiy kompaniyalarda tajriba ortirib kelishi;*
- *ilmiy texnikaviy kadrlarning vaqtinchalik yoki qaytib kelmaslik asosidagi migratsiyasi.*

Notijoriy transfertda yetakchi o'rinni patentlashtirilmagan (mualliflik huquqi to'g'risidagi guvohnoma bilan himoyalangan) ma'lumotlar va tehnologiyalar egallaydi.

Intellectual faoliyat natijalarini tijoriy ayirboshlashga kelsak, ularning ichida eng keng tarqalgan ko'rinishlari ichida quyidagilarni qayd etib o'tish joiz: tehnologiyalarni moddiy ko'rinishda sotib olish-sotish va ijaraga olish, patent-litsenziyalar ayirboshlash, bozorda nou-xaular sotish, injiniring, franchayzing, konsalting.

Texnologik qurilmalarni oldi-sotdisi umuman olganda tovar va xizmatlar savdosi sohasiga kiradi. Binobarin, yuqoridagi qarab o'tilgan barcha holatlar (qurilmalar va tehnologiyalarni ijaraga olish, xususan lizing) unga ham xosdir. Boshqa tijoriy ko'rinishlarga kelsak, bu yerda patentli-litsenzion ayirboshlash muhim rol o'ynaydi. Huquqiy nuqtai nazardan patent – bu uning egasiga o'z kashfiyotini ma'lum hududda ma'lum vaqt orallig'ida tanho ishlab chiqarish, sotish huquqini beruvchi hujjat hisoblanadi.

Ilmiy yangilarni joriy etish muddatlarini qisqartirish zaruriyati litsenziyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Litsenziya axborot-tehnologiyalar ayirboshlash sohasida yangilik muallifining uchinchi shaxslarga o'z kashfiyotidan vaqtincha va ma'lum shartlar

asosida bonus to'lovi evaziga foydalanishga ruxsat etishidir.

Agar litsenziya sotuvchi litsenziyalanayotgan ob'ekt masalasida sir saqlanishidan manfaatdor bo'lsa, opsiya kelishuvdan foydalaniladi. Unga ko'ra xaridor litsenziya umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida pul o'tkazadi va sir saqlash sharti bilan axborotlarga ruxsat oladi va shundan keyin uni sotib olish masalasini hal etadi. Agar u litsenziyani sotib olsa, o'tkazilgan pul bitimning umumiy hajmida hisobga olinadi, agar xarididan voz kechsa, avans to'lovi sotuvchida qoladi.

Litsenziya shartnomasini imzolashda umumiy to'lovlar royalti yoki paushal to'lov ko'rinishida amalga oshiriladi. Royaltida umumiy to'lov litsenziya bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot birligidan amalga oshiriladi, paushal to'lovda esa umumiy summa bo'lib-bo'lib (masalan, 20 foizi shartnoma tuzilganda, 30 foizi texnik hujjatlar imzolanganda, 30 foizi mahsulot chiqarib boshlaganda, 20 foizi kafolat to'lovlari ko'rinishida) to'lanadi. Litsenzion bitimlarning amal qilish muddati odatda 10 yildan oshmaydi, o'rtacha 5-7 yil.

Axborot-texnologiyalar ayirboshlashning rivojlanishini so'nggi yillarda nou-naulardan foydalanishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Nou-xau patentlashtirilmagan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlaridir. Nou-xau oldi-sotdisi patensiz litsenziyalar deb ataluvchi savdo sxemasida amalga oshiriladi. Bunday bitimlarning muddati 3-7 yilga teng bo'ladi. Patentli-litsenzion ayirboshlashdan farqli

ravishda nou-xauni sotib olish va undan foydalanish asosini tijoriy sir tashkil etadi. Bunda raqobatchilar texnologiyalarni ana shunday nou-xau asosida mustaqil ravishda ishlab chiqish imkoniyatiga egadirlar.

JATB sohasida injiniring, franchayzing va konsalting keng tarqalgan. Injiniring ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektlini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish va xizmat ko'rsatishni bildiradi. Franchayzing bir kompaniya tomonidan boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish bilan bog'liqdir. Konsalting konsalting firma tomonidan har qanday iste'molchiga keng ko'lamdagi maslahat xizmatlari ko'rsatishni bildiradi.

JATBni kuzatish Umumjahon savdo tashkiloti (UST), Umumjahon intellektual mulk bo'yicha tashkiloti (shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan, 156 mamlakat a'zo), Yevropada esa Yevropa patent tashkiloti kabilar tomonidan amalga oshiriladi. Yevropa patent tashkiloti, Yaponiya patent boshqarmasi va AQSh patent va tovar belgilari byurosining uch tomonlama hamkorligi 1983 yildan beri amalga oshirilib kelmoqda, unda dunyodagi 90 foiz kashfiyotlar qayd etilgan.

Intellektual mulkni himoya qilish sohasida xalqaro va milliy muassasalar oldida turgan eng muhim muammo «qaroqchilik» va sanoat josisligiga qarshi kurash hisoblanadi.

1.2. Jahon iqtisodiyoti

Xalqaro iqtisodiyot – iqtisodiy nazariyaning bir qismi bo'lib, turli davlatlarga tegishli xo'jalik sub'yektlarining xalqaro tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish omillari harakati, moliyalashtirish va xalqaro siyosatni shakllantirish sohasidagi o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi. Xalqaro iqtisodiyot xalqaro mikroiqtisodiyot va xalqaro makroiqtisodiyotdan tashkil topgan.

Xalqaro iqtisodiyot — bu milliy, hududiy va global miqyosga ega bo'lgan, besh asosiy: xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, xalqaro kapital harakati, xalqaro valyuta hisob-kitob tizimi, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro axborot va texnologiyalar ayirboshlash ko'rinishida namoyon bo'luvchi o'zgaruvchan makrotizimdir; zamonaviy XI rivojlanishining bosh tamoyili jahon iqtisodiyotini

axborotlashtirishdir; xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash savdo hajmi, tashqi investitsiyalar va yalpi ichki mahsulot kabi bir necha muhim ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati zamonaviy XIning muhim sharti hisoblanadi; bu jarayonning o'zgarib borishi va ko'rinishlari global ayirboshlashda ishtirok etuvchi elementlarning sifatiiy tarkibi bilan belgilanadi; tovar va xizmatlar harakati o'sish sur'ati bo'yicha ishlab chiqarishdan ancha oldinda bormoqda va ishlab chiqarishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatmoqda; xizmatlar tarmog'i XIning eng o'zgaruvchan sohasini aks ettiradi, xizmatlar sohasi XXI asr jahon iqtisodiyotini belgilab beradi.

1.2.1. Jahon iqtisodiyoti

- *XI predmetini aniqlang.*
- *XI muhiti nima?*
- *Jahon bozori tuzilmasi va funksiyalarini ayting.*
- *XX-XXI asr bo'sag'asida XIMning asosiy ko'rinishlari qaysilar?*
- *Zamonaviy XIning yetakchi tamoyillarini aniqlang.*

1.2.2. Xalqaro iqtisodiyot

- *Iqtisodiy xavfsizlikni tahlil etishda qaysi asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi?*
- *Resurslar va ishlab chiqarish omillari qaysilar?*
- *Ishlab chiqarish omillarini xalqaro ayirboshlashning xususiyati nimada?*
- *Jahon bozorida tovar va xizmatlar harakatining asosiy tamoyillarini ayting.*

1.2.3. Xalqaro iqtisodiyot

- *Xitoy ishchi kuchi bilan, Rossiya esa yer bilan yaxshi ta'minlangan. Xitoy ishchi*

kuchi va Rossiyaning yeri qanday ishlab chiqarish omiliga kiradi? Bu omillar ushbu

mamlakatlarning uzoq muddatli konkret ustunligiga asos bo'la oladimi? Nima uchun? Qanday tovarlarni ishlab chiqarishda?

- *2015 yilda O'zbekiston Respublikasi eksporti 11. 4 mlrd. dollar, importi 11. 8*

mlrd. dollarga, yalpi ichki mahsuloti esa 66 mlrd. dollarga teng bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining ochiqlik darajasiga baho bering.

1.1. XALQARO SAVDONING KLASSIK NAZARIYALARI

1.1.1. Merkantilizmning chegaralaruqumi

Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari o'z tarixiga ega, albatta. Mamlakatlarning nima sababdan o'zaro oldi-sotdi qilishi masalasi XVII asrning boshlaridanoq iqtisodchi olimlarni qiziqtirib kelgan. Endigina vujudga kelgan iqtisodiy ta'limot maktablari tashqi savdoni rivojlantirishga o'z e'tiborlarini qaratishgan.

1.1.1.1. O'rta asrlar feodalizmining taraqiyoti

O'rta asrlar feodalizmining taraqqiyoti davrida dengiz sayyohchiligi yutuqlariga asoslangan buyuk jug'rofiy kashfiyotlar yangi qit'alarga borish imkoniyatini berdi. G'arbiy yarim sharda topilgan oltin undan pul sifatida foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Milliy davlatlar mustahkamlana bordi, ularning eng kuchlilari esa kuchsizlarini bosib olib o'zlarining koloniyalariga aylantirdi va o'z ta'sir doiralarini kengaytirish uchun kurash olib bordi. Shaharlar iqtisodiy markazlar sifatida yana ham muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi. San'atdagi Uyg'onish davri ta'lim sohasida ham sifat jihatdan yangi pog'onaga sakrashga olib keldi. Ana shunday tarixiy vaziyatda o'z-o'zini ta'minlashga qaratilgan feodal nazariyalar doirasidan chetga chiqq oladigan va yangi xo'jalik tizimi doirasida tovarning ahamiyatini asoslab beradigan hamda milliy davlatlarning xorijga ekspansiyalarini amalga oshirishi zarurligini isbotlab beruvchi iqtisodiy nazariyaga ehtiyoj

tug'uldi. Merkantilizm ana shunday nazariyaga aylandi. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotning bir yo'nalishi bo'lib, u yevropalik olimlar (Tomas Mun (1571-1641), Charles Davenant (1656-1714) Jaen Baptiste Colbert (1619-1683), Sir William Petty (1623-1687)) tomonidan ishlab chiqilgan. Merkantilistlar ishlab chiqarishning tovar tabiatiga urg'u berishgan.

Merkantilistlar nuqtai nazariga ko'ra, dunyo cheklangan miqdordagi boyliklarga ega, shuning uchun bir mamlakatning boyishi faqatgina boshqa mamlakatning kambag'allashuvi hisobiga yuz berishi mumkin. Boylikning ko'payishi qayta taqsimlanish orqali mumkin bo'lganligi bois, har bir mamlakatga kuchli iqtisodiyotdan tashqari armiya, harbiy va savdo flotini o'z ichiga olgan kuchli davlat "mashina"si ham kerakki, u mamlakatning boshqa mamlakatlardan ustun-ligini ta'minlay olsin. Merkantilistlar iqtisodiy tizimni uch tarmoqdan – ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va xorijiy koloniyalardan tashkil topgan deb hisobla-shadi. Savdogarlarga iqtisodiy tizimning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan eng muhim guruh, mehnatga esa asosiy ishlab chiqarish omili sifatida qaralgan.

Mamlakat boyligini bu mamlakatda mavjud bo'lgan oltin va kumush miqdori bilan bog'lagan holda, tashqi savdoning merkantilistik maktabi namoyondalari milliy mavqeni

mustahkamlash uchun davlat quyidagilarni amalga oshirishi kerak deb hisoblaydi:

- *ijobiy savdo balansini ushlab turish – tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga ko'proq olib chiqish, zero bu mamlakatga oltin kirib kelishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida ichki xarajatlar, ishlab chiqarish va bandlikni oshiradi;*
- *ijobiy savdo qoldig'ini ta'minlash maqsadida eksportni ko'paytirish va importni qisqartirish uchun tashqi savdoni tariflar, kvotalar va savdo siyosatining boshqa dastaklari yordamida tartibga solish;*
- *chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash yoki ta'qiqlash, mamlakatda qazib olinmaydigan xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, bu oltin zahiralarni jamlash va tayyor mahsulotlarning eksport narxlarini past darajada ushlab turish imkoniyatini beradi;*
- *koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan har qanday savdosini ta'qiqlash, faqat metropoliyagina koloniyalarda ishlab chiqarilgan tovarlarni xorijga sotishi mumkin, shu bilan birgalikda koloniyalarda tayyor tovarlar ishlab chiqarishni ta'qiqlash orqali ularni metropoliya uchun xomashyo yetkazib beruvchiga aylantirish.*

Merkantilistik qarashlardan iqtisodiy tizim to'la bo'lmagan bandlik sharoitida faoliyat olib borayotganligi kelib chiqadi, buning natijasida esa chetdan kirib kelgan qo'shimcha oltin ortiqcha ishchi kuchi bilan birlashishi va ishlab

chiqarishni ko'paytirishi mumkin. Aks holda esa, ya'ni to'liq bandlik nazarda tutilsa, chetdan oltin kirib kelishi inflyatsiyani o'sishiga olib keladi, bu esa ushbu oltinlardan samarali foydalanish imkoniyatini bermaydi.

Merkantilizm namoyondalarining dunyo-qarashlari bilan asoslangan amaliy iqtisodiy siyosat qimmatbaho metallarni ishlatish va ayirboshlash ustidan davlat nazoratini o'rnatilishiga olib keldi. Hukumat xususiy shaxslar tomonidan oltin va kumushni chetga olib chiqishni ta'qiqlab qo'yishga harakat qila boshladi. Qo'lga tushib qolganlar turli jazolarga, hattoki o'lim jazosigacha mahkum qilindi. Hukumat tashqi savdoni amalga oshirishni alohida yo'nalishlar bo'yicha va alohida kompaniyalargagina ruxsat berardi. Bu kompaniyalarning asosiy vazifasi savdo balansini ijobiy qoldiqqa erishishini ta'minlash edi. O'sha paytda vujudga kelgan savdo monopoliyalari — «Hudson Bay Company» va «Dutch East India Trading Company» — bir necha o'n yillab, XVIII asrning o'rtalarigacha faoliyat olib bordi. Bundan tashqari, hukumat eksportga subsidiyalar ajratgan, istemol tovarlar importiga bojxona bojlari joriy etgan, ayni paytda eksport tovarga aylantirish mumkin bo'lgan xomashyo importiga boj joriy etilmagan. Merkantilistlarning xalqaro savdo nazariyasi uchun sezilarli hissasi shundaki, ular mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida xalqaro savdoning ahamiyatini qayd etdilar va uni rivojlantirish modellaridan birini ishlab

chiqdilar. Ular zamonaviy iqtisodiyotda ishlatiladigan to'lov balansi tushunchasini birinchilardan bo'lib izohlab berishgan. Merkantilistlar dunyoqarashlarining chegaralanib qolganligi shundaki, ular bir mamlakatning boyishi faqatgina u savdo olib borayotgan boshqa mamlakatning kambag'allashuvi hisobiga yuz berishi mumkin deb hisobladilar, xalqaro iqtisodiyot rivojlanib borishini, binobarin mamlakatning rivojlanishi mavjud boylik chegarasida emas, balki bu boylikni ko'paytirish hisobiga ham yuz berishi mumkinligini tushuna olmadilar. Biroq bir muncha keyinroq vujudga kelgan fiziokratlar ta'limotlaridan farqli o'laroq, merkantilistlarning qarashlari ilmiy tafakkurni xalqaro iqtisodiyotda klassik maktab g'oyalari tomon undadi.

Merkantilistlar maktabi iqtisodiyotda bir yuzi ellik yil hukmronlik qildi. Buning natijasida XVIII asrning boshlariga kelib, xalqaro savdo barcha mumkin bo'lgan, ba'zan umuman sun'iy cheklashlar to'ri bilan o'rab tashlandi. Turli davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan savdo qoidalari nafaqat o'zaro savdo yo'lga ulkan g'ov bo'lardi, balki tug'ilib kelayotgan kapitalistik ishlab chiqarish ehtiyojlariga ham mos kelmas edi.

Ingliz iqtisodchisi David Xyum (David Hume, 1711-1776) "narx-oltin-oqimlar" («price-specie-flow») o'zaro ta'siri mexa-nizmini ishlab chiqish orqali birinchilardan bo'lib merkantilistlarga zarba berdi. U merkantilistlarning, mamlakat o'zida mavjud oltin miqdorini cheksiz ko'pautirib borishi

mumkin, bu uning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatmaydi, degan fikrlarining noto'g'riligini ko'satib berdi. David Xyum savdo balansini ijobiy qoldiqda ushlab turish natijasida oltinning oqib kirishi mamlakat ichida pul taklifining ortishiga, ish haqi va narxlarning ko'tarilishiga olib kelishi mumkinligiga o'z e'tiborini qaratdi. Narxlarning oshishi natijasida mamlakatning raqobatbardoshligi pasayadi. Aksincha, oltinning chiqib ketishi mamlakat ichida pul taklifining kamayishiga, ish haqi va narxlarning pasayishiga olib keladi va mamlakat raqobatbardoshligi ortadi. Binobarin, mamlakat savdo balansini qoldig'ini hamisha ijobiy holatda ushlab tura olmaydi – bunga ichki iqtisodiy omillar yo'l qo'ymaydi. Oltinning harakati milliy iqtisodiyotlarni sozlab turadigan nozik mexanizm hisoblanadi, buning natijasida eksport miqdori import miqdori bilan tenglashadi va savdo qoldig'i nolga aylanadi.

	Amaldagi savdo balansining ijobiy qoldiq	Amaldagi savdo balansining salbiy qoldiq
Dastlabki vaziyat	$X > IM$	$X < IM$
1-bosqich	Oltinning kirib kelishi	Oltinning chiqib ketishi
2-bosqich	Pul miqdorining ko'payishi	Pul miqdorining kamayishi
3-bosqich	Narxlar va ish haqining oshishi	Narxlar va ish haqining pasayishi
4-bosqich	Importning ortishi va eksportning kamayishi	Eksportning ortishi va importning kamayishi
Natija	$X = IM$	$X = IM$

Faraz qilaylik, A mamlakat B mamlakat bilan o'zaro savdoda ijobiy savdo balansi qoldig'iga ega. Ikkinchi mamlakatning savdo balansi qoldig'i o'z navbatida salbiydir. David Xyum fikriga ko'ra, har ikki mamlakat savdo balansining muvozanat holatiga kelishi to'rt bosqichda yuz beradi (2.1-jadval).

Bu tamoyil quyidagilarga asoslanib ishlab chiqilgan:

- *Muomaladagi pul miqdori bilan narx darajasi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud (bu keyinchalik pulning miqdoriy nazariyasi nomini olgan);*
- *Har ikki mamlakatda to'liq bandlik hukmron;*
- *Sotiladigan tovarlarga talab narx bo'yicha egiluvchan (narxning ko'tarilishi sotiladigan tovarlarga sarflanadigan xarajatlarning qisqarishiga olib keladi va aksincha);*
- *Tovarlar bozorida ham, ishlab chiqarish omillari bozorida ham sof raqobat hukmron;*
- *Milliy valyuta oltinga, oltin milliy valyutaga erkin ayirboshlanadi (bu keyinchalik "oltin standarti" deb yuritilgan).*

Mana shu shartlar bajarilganda savdo balansining muvozanatlashuvi avtomat ravishda yuz beradi.

Shunday qilib, merkantilistlar birinchi bo'lib xalqaro savdoning o'ziga xos modelini taklif etdilar. Ular mamlakatning boyligi mamlakatda mavjud bo'lgan oltin va kumush miqdori bilan bog'liq deb hisobladilar. Merkantilistlar tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga ko'poq olib chiqish, eksportni ko'paytirish va importni qisqartirish uchun tashqi savdoni tartibga solish, chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash

yoki ta'qiqlash, xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan har qanday savdosini ta'qiqlash kerak deb ta'kidlaydilar. Bu maktab namoyondalari ilk bor tashqi savdo va mamlakatning ichki iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib berdilar.

Keyinchlik klassik nomini olgan maktab vakillari tashqi savdoga merkantilistcha qarashlarga keskin zarba berishdi.

1870-yillarda Merkantilistlar o'zlarining asosiy siyosati

Merkantilistlarga keskin zarba bergan iqtisodchilardan biri Adam Smit bo'ldi. Adam Smit millat boyligi to'plangan oltin miqdoriga emas, balki mamlakatning pirovard tovar va xizmatlar ishlab chiqara olish qobiliyatiga ko'proq bog'liqligini aniq-ravshan asoslab berdi. Suning uchun ham asosiy masala oltinga ega bo'lishda emas, asosiy masala mehnat taqsimoti va mehnat kooperatsiyasi hisobiga ishlab chiqarishni rivojlantirish hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy jihatdan mutlaq erkin, mavjud qonunlar doirasida o'z faoliyatlari turini mustaqil ravishda tanlay oladigan sharoitlarda eng yaxshi natijaga erishish mumkin. Bu siyosat "lesse-fer" nomini oldi.

① *Laissez-faire* (fr. laissez-faire) — iqtisodiyot va erkin raqobatga davlatning aralashmaslik siyosati.

Adam Smitning tashqi savdo siyosati bir qancha farazlarga asoslangan. U quyidagilarni aksioma sifatida qabul qiladi:

- *Mehnat yagona ishlab chiqarish omili;*

- *To'liq bandlikka erishilgan, ya'ni barcha mavjud resurslardan tovar ishlab chiqarishda foydalaniladi;*
- *Xalqaro savdoda ikki mamlakat ishtirok etadi, bu mamlakatlar ikki xil tovar bilan o'zaro savdo olib boradi;*
- *Ishlab chiqarish xarajatlari doimiy, ularning kamayishi tovarga bo'lgan talabni ko'paytiradi;*
- *Bir tovarning narxi ikki tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan ifodalangan;*
- *Tovarni bir mamlakatdan ikkinchisiga tashish bo'yicha transport xarajatlari nolga teng;*
- *Tashqi savdo cheklashlar va reglamentatsiyalardan holi.*
- *Adam Smit qarashlariga muvofiq ravishda:*
- *Hukumat tashqi savdoga aralashmasligi, ochiq bozorlar rejimi va erkin savdoni qo'llab-quvvatlashi kerak;*
- *Millatlar, xususiylar ham, o'zlari ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va bu tovarlarni ishlab chiqarilishida boshqa mamlakatlar ustunlikka ega bo'lgan tovarlarga ayirboshlash asosida savdo qilishi kerak;*
- *Tashqi savdo bozorni mamlakat sarhadlaridan tashqariga kengaytirish orqali mehnat samaradorligini rivojlantirishni rag'batlantiradi;*
- *Eksport mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy omil sanaladi, zero u mamlakat ichkarisida*

sotish imkoniyati bo'lmagan ortiqcha tovarlarni sotish imkoniyatini beradi;

- *Eksportga subsidiyalar ajratilishi aholi uchun ortiqcha soliq hisoblanadi va ichki narxlarning ortishiga olib keladi, shuning uchun bu subsidiyalar bekor qilinishi kerak.*

Ⓢ *Mutlaq ustunlik nazariyasi* (absolute advantage theory) — mamlakatlar o'zlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan (ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan) tovarlarni eksport qiladi va boshqa mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqariladigan (ishlab chiqarishda savdo hamkorlari mutlaq ustunlikka ega bo'lgan) tovarlarni import qiladi.

Shunday qilib, merkantilistlar birinchi bo'lib xalqaro savdoning o'ziga xos modelini taklif etdilar. Ular mamlakatning boyligi mamlakatda mavjud bo'lgan oltin va kumush miqdori bilan bog'liq deb hisobladilar. Merkantilistlar tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga ko'poq olib chiqish, eksportni ko'paytirish va importni qisqartirish uchun tashqi savdoni tartibga solish, chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash yoki ta'qiqlash, xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan har qanday savdosini ta'qiqlash kerak deb ta'kidladilar. Bu maktab namoyandalari ilk bor tashqi savdo va mamlakatning ichki iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib berdilar.

1.1.1. Mutlaq ustunlik nazariyasi

Adam Smit nazariyasiga ko'ra, ishlab chiqarish omillari mamlakat ichkarisida to'liq harakatchan, ya'ni ular yuqori mutlaq ustunlikka ega bo'ladigan hududlarga bemalol ko'chib o'ta oladi. Ertami kechmi ishlab chiqarish omillarining ko'chib o'tishi natijasida bir hududning boshqasidan ustunligi yo'qolib boradi va omillardan keladigan foyda barobarlashib boradi. Demak o'zaro savdo to'xtab qolishi kerakdek tuyuladi. Biroq David Rikardo mutlaq ustunliklar nazariyasini rivojlantirdi va ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo ulaming hech biri ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bolmaganda ham foydali bo'lishini ko'satib berdi.

1.1.1.1. Mutlaq ustunlik nazariyasi

Agar ikki mamlakat savdo hamkoriga nisbatan kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan (ya'ni mamlakat ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lgan) tovarlar bilan o'zaro savdo qilganda xalqaro savdo foydali bo'ladi. Mehnat yagona ishlab chiqarish omili bo'lganligi bols ishlab chiqarish xarajatlarida mutlaq ustunlik sarti bir birlik tovarni ishlab chiqarishga sarflanadigan vaqt bir mamlakatda ikkinchisidan kamroq bo'lishini anglatadi. Agar to'liq bandlik hukmron bo'lsa, ya'ni tovarlar ishlab chiqarishda barcha mavjud resurslardan to'liq foydalanilayapti deb faraz qilaylik, bir mamlakat doirasida bu shartning bajarilishini quyidagi formula orqali ifodalanilishi mumkin:

1.1.1.2. Mutlaq ustunlik nazariyasi

Bu yerda A_1 — bir birlik birinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, A_2 — bir birlik ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, Q_1 — ishlab chiqarilgan birinchi tovar miqdori, Q_2 — ishlab chiqarilgan ikkinchi tovar miqdori, L — mamlakatdagi mavjud mehnat resurslari.

Formuladan ko'rinib turibdiki, birinchi tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun mamlakat ikkinchi tovar ishlab chiqarishini qisqartirishga majbur. Va, aksincha, ikkinchi tovar ishlab chiqarilishining har qanday ko'paytirilishi birinchi tovar ishlab chiqarilishining kamayishiga olib keladi.

Ikkinchi mamlakatni ko'rib chiqaylik. Bu mamlakatda A_1' — bir birlik birinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, A_2' — bir birlik ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt.

Agar birinchi mamlakatda birinchi tovarni ishlab chiqarish uchun ikkinchi mamlakatga nisbatan kam vaqt sarflansa (bu birinchi mamlakat ikkinchisiga nisbatan mutlaq ustunlikka ega ekanligini bildiradi) bu mamlakat bu tovarni ikkinchi mamlakatga eksport qiladi:

1.1.1.3. Mutlaq ustunlik nazariyasi

Agar ikkinchi mamlakatda ikkinchi tovarni ishlab chiqarish uchun birinchi mamlakatga nisbatan kam vaqt sarflansa (bu ikkinchi mamlakat birinchisiga nisbatan mutlaq ustunlikka ega ekanligini bildiradi) bu

mamlakat ikkinchi tovarni birinchi mamlakatga eksport qiladi:

$$A_1/A_2 < A_1^*/A_2^* \quad (3.2.1)$$

Mutlaq ustunlik nazariyasining kuchli tomoni shundaki, u mehnatning qiymat nazariyasiga asoslangan va mehnat taqsimotining yaqqol ustunliklarini nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham ko'rsatib beradi. Xalqaro savdoni tushuntirib berishda uning cheklanganligi ham yaqqol ko'rinib turadi. Bu nazariya u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlik bo'lmaganda mamlakatlar nima sababdan o'zaro savdo olib borishini tushuntirib bera olmaydi. Bu savolga Adam Smitning izdoshlari juda chiroyli javob berishgan.

$$\frac{A_1/A_2 < A_1^*/A_2^*}{A_1^*/A_2^* < A_1/A_2} \quad (3.2.2)$$

Mutlaq ustunlik nazariyasidagi kabi ma'lum bir farazlardan kelib chiqib, nisbiy ustunlik nazariyasi muqobil narx yoki boshqacha qilib aytganda o'rnini qoplash xarajatlari (narxi) tushunchasidan foydalani-ladi. Muqobil narx ikki tovarning ularni ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqti orqali ifodalangan narxlarini solishtirishni aks ettiradi (1 birlik tovar ishlab chiqarishga 2 soatlik mehnat sarflangan). O'rnini qoplash xarajatlari ma'no jihatidan muqobil narxga deyarli mos keladi, farqi shundaki, bunda mehnat sarfiga teskari miqdorlar – vaqt birligida ishlab chiqarilgan tovar birliklari solishtiriladi (1 soat vaqt birligida 1/5 birlik tovar ishlab chiqarilgan).

(opportunity cost) — bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur

bo'lgan ish vaqtining boshqa bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti bilan ifodalanishidir.

Ikki o'zgaruvchi orasidagi to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikni hisobga olgan holda, 2-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan vaqt miqdori bilan ifodalangan 1-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan muqobil xarajatlar A_1/A_2 ni tashkil qiladi.

Faraz qilaylik, ma'lum bir tovarlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan muqobil xarajatlar I mamlakatda II mamlakatga nisbatan kamroq, ya'ni:

$$(A_1/A_2) < (A_1^*/A_2^*) \quad (3.2.3)$$

Yoki boshqacha qilib ifodalaganda,

$$(A_1^*/A_1) < (A_2^*/A_2) \quad (3.2.4)$$

3.2.1 formula nisbiy ustunlikni ifoda etuvchi formula bo'lib, u ma'lum bir mamlakatda 2-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xarajatlar orqali ifodalangan 1-tovarga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari boshqa mamlakatda xuddi shu tovarni (2-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xarajatlar bilan ifodalangan) ishlab chiqarish xarajatlaridan kamligini ko'rsatadi. Bu har qanday ikki mamlakat va har qanday ikki tovar uchun o'rinlidir, zero nisbiy ustunlik faqatgina har bir mamlakatdagi mehnat camaradorligi nisbatiga bog'liq bo'ladi.

(3) Nisbiy ustunlik nazariyasi (comparative advantage theory) — agar bir mamlakat boshqa mamlakat bilan solishtir-ganda nisbatan kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara oladigan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutlaq samaraliroq


bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun foydali bo'ladi.

Rikardo misol sifatida Angliya va Portugaliya, movut va vinodan foydalangan. Quyida nisbiy ustunlik nazariyasi har qanday sondagi mamlakatlar va turli xildagi tovarlar uchun ham o'rinli ekanligi ko'rsatib beriladi. Nisbiy xarajalar u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori bilan hisoblanishi shart emas.

Tovarlar jahon savdosida qanday narxda ayirboshlanadi degan savolga Rikardoning izdoshi Djon Styuart Mill o'zining "Siyosiy iqtisod tamoyillari" asarida javob beradi. Bu asarning bir bo'limi baynalmilal qiymat qonuniga bag'shtlangan. Erkin savdo sharoitida tovarlar ularning har ikki mamlakatdagi nisbiy narxlari orasida o'rnatilgan narx nisbatida ayirboshlanadi. O'zaro savdodagi pirovard narx har ikki tovarga bo'lgan jahon taklifi va talabiga bog'liq bo'ladi.

② O'zaro talab nazariyasi (reciprocal demand theory) — import qilingan tovar narxi shu tovar uchun to'lovni amalga oshirish uchun eksport qilinadigan tovar narxi bilan belgilanadi, shuning uchun narxlarning pirovard nisbati ana shu tovarlarga o'zaro savdo olib borayotgan mamlakatlardagi ichki talab bilan aniqlanadi.

O'zaro talab nazariyasi nisbiy ustunlik nazariyasining tahliliy modelni biroz rivojlantirishni talab qiladi. Nisbiy talab (RD — relative demand) va nisbiy taklif (RS — relative supply) grafiklarini chizish uchun I va II mamlakatlarda ishlab chiqarilgan 1-tovar va 2-tovarlarning nisbiy miqdori bilan ularning nisbiy narxlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish kerak. (3.1-rasm).



Faraz qilaylik,

- Q_1 — I mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan 1-tovar miqdori,
- Q_2 — I mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan 2-tovar miqdori,
- Q_1' — II mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan 1-tovar miqdori,
- Q_2' — II mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan 2-tovar miqdori,
- P_1 — 1-tovarning jahon narxi,
- P_2 — 2-tovarning jahon narxi,

U holda har ikki mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan 1-tovarning nisbiy miqdori quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{Q_1}{Q_2} = \frac{P_2}{P_1} \cdot \frac{Q_1'}{Q_2'}$$

1-tovarning nisbiy jahon narxi esa quyidagilga teng bo'ladi:

Bu yerda yuqorida faraz qilganimizdek, I mamlakat 1-tovarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega (3.2.3 formula). Bu esa 1-tovarning sarflangan mehnat xarajatlarini solishtirish orqali ifodalangan nisbiy narxi II mamlakatdagiga nisbatan kamligini bildiradi va rasmda 1-tovarning II mamlakatdagi nisbiy narxi (A_1/A_2) dan pastroqda joylashgan. 1-tovarning nisbiy taklifi uning I va II mamlakatlardagi nisbiy bahosi hamda uning jahon bozoridagi nisbiy narxiga bog'liq bo'ladi (3.2.4 formula).

Shunday qilib, nisbiy taklif egri chizig'i (RS) ikki gorizontal qismlar (bu vaziyatda jahon narxi I va II mamlakatdagi nisbiy narxlarga teng va har ikki mamlakat har ikki tovarni ishlab chiqaradi) va vertikal qismdan (bu har ikki mamlakat o'z nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishini bildiradi) tashkil topgan.

O'z navbatida nisbiy talab egri chizig'i (RD) 1-tovarni 2-tovar bilan almashtirish samarasini ifodalaydi. 1-tovarning narxi qanchalik ortib borsa, iste'molchilar 2-tovarni abzal ko'rib 1-tovarni shunchalik kamroq sotib oladilar. Agar nisbiy talab egri chizig'i nisbiy taklif egri chizig'ini grafikning vertikal qismida kesib o'tsa (talab va taklifning muvozanat nuqtasi E), bu har bir mamlakat uchun o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv foydali ekaningini anglatadi. Agar nisbiy taklif egri chizig'i (RD') (RS) grafikning gorizontal qismlarining birini kesib o'tsa, bu mamlakatlar o'rtasida savdoni rivojlantirish ma'noga ega emasligini anglatadi, chunki tovarlarning savdo natijasida o'rnatiladigan narxlar o'zaro savdo bo'lmagan vaziyatdagi kabi yoki undan ham yomonroq bo'ladi.

O'zaro talab nazariyasi nisbiy ustunlikni e'tiborga olgan holda narxni belgilashning asosi sifatida juda sezilarli kamchilikka ega: uni faqatgina savdo olib boruvchi har ikki mamlakat ko'lamini jihatidan deyarli teng bo'lganda, bir mamlakatning ichki talabining o'zgarishi ikkinchi mamlakatdagi narxlarga ta'sir ko'rsata olganda qo'llash mumkin. Nazariyani, masalan, AQSh va Kanada savdosini tadqiq qilganda qo'llash mumkin. AQSh va Venesuela o'rtasidagi savdoda bu nazariyadan foydalanib bo'lmaydi, zero Venesuelada neftga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi AQShdagi neft narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. AQShdagi neft narxlarining salgina o'zgarishi esa Venesuela neft bozoridagi vaziyatga darhol ta'sir ko'rsatadi.

Savdodan keladigan yutuq

Mamlakatlar o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun qay daragada nafilligini qanday hisoblash mumkin degan haqli savol tug'iladi.

⊗ *Savdodan keladigan yutuq* (gains from trade) — mamlakatlar o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda savdoda ishtirok etuvchi har ikki mamlakat bu savdodan oladigan iqtisodiy naf.

Savdodan keladigan yutuq mamlakatning o'z tovarlari hisobiga ichki bozordagiga nisbatan chetdan xorijiy tovarlarga ko'proq ega bo'lishi natijasida vujudga keladi. Savdodan keladigan yutuqqa ikki taraflama qarash

mumkin: mehnat xarajatlarini tejash va ict'e'molning ko'payishi.

I mamlakat bir birlik ish vaqtida $1/A_1$ ta 1-tovarni va $1/A_2$ ta 2-tovarni ishlab chiqara oladi, 1-tovarning 2-tovar narxi orqali ifodalangan nisbiy narxi avvalgidek, P_1/P_2 ga teng. Binobarin, mamlakat vaqt birligida $(1/A_1) \times (P_1/P_2)$ ta 2-tovarni import qila oladi. Toki 1-tovarni xorijga sotish orqali II mamlakatdan 2-tovarni o'z ichki bozoriga nisbatan ko'proq sotib olish imkoni bor ekan, chetdan tovar sotib olish I mamlakat uchun foydali bo'ladi, ya'ni:


$$(1/A_1) \times (P_1/P_2) > 1/A_2 \quad (3.3.1)$$

Yoki tengsizlikni har ikki tomonini $(1/A_1)$ ga bo'lsak:

$$P_1/P_2 > A_2/A_1 \quad (3.3.2)$$

3.3.2 tengsizlik nisbiy ustunlik nazariyasining mamlakatlar o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifoda etuvchi asosiy tenglamasi (3.1.1)ga ekvivalent. Shuning uchun I mamlakat 2-tovarga ega bo'lishning eng samarali usuli 1-tovarni ko'proq ishlab chiqarib uni 2-tovarga ayirboshlashdan iborat. II mamlakat uchun esa aksincha, 1-tovarga ega bo'lishning eng samarali usuli 2-tovarni ko'proq ishlab chiqarib uni 1-tovarga ayirboshlashdan iborat.

Savdodan keladigan yutuqni har ikki mamlakatda birinchi va ikkinchi tovarlar iste'moli miqdorining qanchaga ko'payishi ham belgilaydi. (3.2-rasm).



Agar I mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i AB , II mamlakatniki

esa A^*B^* ni tashkil etsa, mamlakatlar o'rtasida savdoning rivojlanishi natijasida ularning har

biri birinchi va ikkinchi tovarlarni ko'proq miqdorda iste'mol qila oladi. Natijada I mamlakat ixtiyorida C ta 2-tovar, II mamlakat ixtiyorida esa C^* ta 1-tovar bo'ladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, har ikki holatda ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i surildi va OCB hamda OA^*C^* uchburchaklarning yuzi oldingi AOB (I mamlakat uchun) hamda OA^*B^* (II mamlakat uchun) uchburchaklar yuzidan sezilarli darajada kattaroqdir.

Nisbiy ustunliklar nazariyasida jahon ikki mamlakatdan iborat va ular ikki tovar bilan savdo qiladi deb faraz qilingan edi. Amalda esa bunday holatning bo'lishi mumkin emas, albatta. Jahondagi mamlakatlar ichidan ikkitasining faqat ikki tovar bilan o'zaro savdosini o'rganmoqchi bo'lsak ham, bu savdoni ushbu mamlakatlar va boshqa mamlakatlar umumiy savdosidan hamda juda ko'p miqdordagi tovarlar orasidan ajratib olishning imkoni yo'q.

Bir necha tovarlar bilan o'zaro savdo

Nisbiy ustunlikning asosiy "ikki mamlakat – ikki tovar" tamoyilini bir necha tovar va ikkidan ortiq mamlakatlar uchun ham qo'llash mumkin. Faraz qilaylik, biz qarab chiqayotgan ikki mamlakat ikkita emas, balki undan ko'proq tovar ishlab chiqaradi, tovarlarning aniq soni bizga noma'lum, aytaylik 1 dan N gacha. Avvalgidek, har bir tovarning qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat birligi bilan aniqlanadi, i tovarning qiymati A_i ni tashkil etadi. Birinchi mamlakatdagi har bir tovar uchun ularning nafaqat ushbu mamlakatda ishlab chiqarilgan boshqa tovarlarga

sarflangan ish vaqti bilan, balki xuddi shu tovarni xorijiy mamlakatda ishlab chiqarilganda sarflangan ish vaqti orqali ifodalangan nisbiy narxini ham hisoblash mumkin. U 3.1.2 formuladagi kabi A_i/A_j ga teng bo'ladi. Endi 1 dan N gacha tovarlarni shunday ketma-ketlikda qo'yish kerakki, bunda har bir keyingi tovarning nisbiy narxi oldingi tovarnikidan katta bo'lsin:

$$(A_1/A_2) < (A_2/A_3) < \dots < (A_{N-1}/A_N) \quad (3.4.1)$$

Shunday qilib, nisbiy narxi o'sib boruvchi tovarlardan tashkil topgan qatorga ega bo'ldik. Savdo munosabatlari o'rnatilishi natijasida birinchi mamlakat qaysi tovarlarni, o'z navbatida ikkinchi mamlakat qaysilarini ishlab chiqarishga ixtisoslashishini qanday aniqlash mumkin degan savol tug'lladi. Bu yerda biz har ikki mamlakatdagi mehnatning qiymatini, boshqacha qilib aytganda, har ikki mamlakatda bir birlik ish vaqti uchun to'lanadigan ish haqi nisbatini bilishimiz kerak bo'ladi, xalos, zero modelimiz shartlariga ko'ra, mehnat yagona ishlab chiqarish omili sanaladi.


Birinchi mamlakatda mehnat qiymati – W , ikkinchi mamlakatda – W' , ularning nisbati esa W/W' ga teng bo'lsin. Birinchi mamlakatda i tovarni ishlab chiqarish xarajatlari ushbu tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat miqdorini uning qiymatiga ko'paytmasiga teng – $A_i W$, ikkinchi mamlakatda esa mos ravishda – $A_i' W'$ ni tashkil qiladi.

Birinchi mamlakatda i tovar arzon bo'ladi, agar bu tovarni ishlab chiqarish xarajatlari ikkinchi mamlakatga nisbatan pastroq bo'lsa, ya'ni $A_i W < A_i' W'$. Tengsizlikning har ikki tomonini $A_i W'$ ga bo'lsak, $W/W' < A_i'/A_i$ kelib chiqadi. Qandaydir i tovar unga sarflangan

nisbiy ish haqi ushbu tovarning unga sarflangan mehnat sarfi orqali ifodalangan ikkinchi mamlakatdagi nisbiy narxidan kamroq bo'lsin, u holda bu tovar birinchi mamlakatda ishlab chiqariladi. Xuddi shunday, agar $A_i/W > A_i^*/W^*$ tengsizlik bajarilsa i tovar ikkinchi mamlakatda arzon bo'ladi. Tengsizlikning har ikki tomonini A_i/W ga bo'lsak, $W/W^* > A_i^*/A_i$ tengsizlikka ega bo'lamiz. Bu esa xuddi shu i

tovar unga sarflangan nisbiy ish haqi ushbu tovarning unga sarflangan mehnat sarfi orqali ifodalangan ikkinchi mamlakatdagi nisbiy narxidan yuqoriroq bo'lsa bu tovar ikkinchi mamlakatda ishlab chiqarilishini anglatadi. Sodda qilib aytganda, har qanday tovar nisbiy ish haqi kamroq, uni ishlab chiqarish arzon bo'lgan mamlakatda ishlab chiqariladi.

3.3-rasmi. Bir nechta tovarning ikki o'zaro savdo modelida nisbiy ish haqi.



Shunday qilib, A_i/A_i^* nisbiy mehnat sarflari qatori uchun W/W^* nisbiy ish haqi chizig'i ikkiga ajratuvchi chegara vazifasini bajaradi, bu chiziqning chap tomonida birinchi mamlakat ishlab chiqaradigan tovarlar joylashsa, uning o'ng tomonidan ikkinchi mamlakat ixtisoslashadigan tovarlar joy oladi. Agar qaysidir tovar uchun nisbiy mehnat sarflari

nisbati nisbiy ish haqiga teng bo'lsa, bu tovarni har ikki mamlakat ishlab chiqarishi mumkin. Aytganlarimiz har qanday sondagi mamlakatlar uchun to'g'ri bo'ladi, chunki alohida olingan mamlakatning savdo munosabatiari olib borayotgan barcha mamlakatlarni bir guruhga yig'ish mumkin. Nisbiy ustunlik tamoyillarini nafaqat ikkidan

ortiq mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo, balki bir mamlakatning alohida tumanlari, viloyatlari o'rtasidagi savdoni tahlil qilishda ham qo'llash mumkin.

Bir necha tovarlar bilan o'zaro savdo modelida qaysi tovarni qaysi mamlakat ishlab chiqarishi masalasini tushuntirishda nisbiy ish haqini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Bunda tovarga bo'lgan nisbiy talab bilan bir qatorda, unga sarflangan mehnatga nisbiy talabni ham ko'ra bilish kerak. Bu yerda o'zaro bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi: agar mehnat qimmatlashsa, bu mehnat yordamida ishlab chiqarilgan tovarlar ham qimmatlashadi. Agar ish haqi oshsa, mamlakatda tovarlar kamroq, xorijda esa ko'proq ishlab chiqariladi, bu mehnatga talabni kamaytiradi.

3.3-rasmda I va II mamlakatlarda nisbiy ish haqi (W/W) va bir necha tovarlarni ishlab chiqarishga sarflanadigan nisbiy mehnat xarajatlari (L/L) nisbati aks ettirilgan. Mehnatga nisbiy talab RD egri chizig'i bilan ifoda etilgan. Mehnatga nisbiy taklif eca RS to'g'ri chizig'i bilan ko'rsatilgan (bu vertikal to'g'ri chiziq ko'rinishida, chunki u mamlakatda mavjud ishchi kuchining nisbiy miqdori bilan aniqlanadi). Nisbiy talab har safar nisbiy taklif egri chizig'ini kesib o'tganda mehnat taqsimoti yuz berishi ta'biy hol, albatta. Nisbiy talab nisbiy taklif egri chizig'i (RS)ni uning gorizontal qismida kesib o'tganda bu tovarni har ikki mamlakat ishlab chiqaradi, ixtisoslashadigan tovarlar esa o'ng va chap tomonda joylashadi. Muvozanat ish haqi – E nisbiy talab va nisbiy taklifning kesishadigan nuqtasida bo'ladi. Uning aniq koordinatalari mamlakatlarning ko'lami nisbatiga (mamlakatda mavjud ishchi kuchi miqdoriga) bog'liq bo'ladi.

Nisbiy ustunlik nazariyasining ahamiyati

Nisbiy ustunlik nazariyasining ahamiyatini baholash juda mushkul, albatta. U bir necha o'n yillar davomida xalqaro savdoni tushuntirub beruvchi va barcha iqtisodiy bilimlarga kuchli ta'sir o'tkaza olgan asosiy nazariyalarning biri bo'lib qoldi. Iqtisodiyotdagi klassik maktab vakillari tomonidan qilingan ko'p sonli o'zgartirishlar va kengaytirishlar bilan nisbiy ustunlik nazariyasi amalda birinchi bo'lib jami talab va jami taklif muvozanatini izohlab berdi. Tovar qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori bilan aniqlanishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, nisbiy ustunlik nazariyasi tovarning qiymati ushbu tovarga ham mamlakat ichidagi, ham xorijdagi jami talab va taklifning nisbati bilan aniqlanishini ko'rsatib berdi.

Nisbiy ustunlik nazariyasining muhim yutuqlaridan biri o'sha paytda hukmron bo'lgan merkantilistik qarashlarga qaqshat-qich zarba berdi va o'zaro savdoda ishtirok etuvchi barcha mamlakatlar bu savdodan manfaat ko'rishini isbotlab berdi. Bu nazariya savdoni rivojlantirish imkoniyatlari qanchalik ko'proq bo'lsa va tovar oqimlari yo'lga qanchalik kamroq to'siqlar qo'yilsa, mamlakatlarning bu savdodan oladigan foydalari shunchalik ko'proq bo'lishini ko'rsatib berdi.

Nisbiy ustunlik nazariyasining hozirgi paytdagi ahamiyati shundaki, u tashqi iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda qurish imkoniyatini beradi. Bu esa shu jihatdan ham ahamiyatliki, nisbiy ustunlik nazariyasi mohiyatini tushunmaslik oqibatida iqtisodiy amaliyotda bir qator keng tarqalgan tushunmovchiliklar

vujudga kelgan. Masalan, ba'zi iqtisodchilimlar har bir mamlakat o'zining kuchsiz tarmoqlarini xorijiy raqobatdan himoya qilishi kerak, mamlakat uchun erkin savdo u xorijiy tovarlar bilan raqobatlasha olgandagina foydali, ya'ni mamlakat sanoati etarli darajada rivojlanmagan sharoitda uni xorijiy raqobatdan turli xil vositalar yordamida himoya qilish kerak deb ta'kidlaydilar. O'zbekistonda ham bu yondashuv importni turli usullar bilan cheklashda namoyon bo'ladi. Bu esa turli tarmoqlarning arzon va sifatli xorijiy tovarlar bilan raqobatlasha olmasligi natijasida kelib chiqadi.

Aytilganlar bu yondashuv tarafdorlarining mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarining farqini tushunmasligidan dalolat beradi. Ular ma'lum bir tarmoqni bu tarmoq xorijiy hamkorlar bilan solishtirganda mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lgandagina xorijiy raqobatga ochish kerak, deb ta'kidlamoqchi bo'ladilar. Lekin biz yuqorida ko'rib chiqqani-mizdek, mutlaq ustunlikning mavjudligi nisbiy ustunlikka ega bo'lish uchun na zaruriy, na etarli shart bo'la oladi. Nisbiy ustunlik nazariyasi esa nafaqat ikki mamlakatdagi mehnat samaradorligi nisbati, balki bir xil tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori nisbatiga ham bog'liq bo'ladi, bu oxir-oqibat ish haqi nisbatida o'z ifodasini topadi. Mamlakat ma'lum bir tovarni ishlab chiqarish boyicha mutlaq ustunlikka ega emas. Agar ana shu tovarni ishlab chiqaruvchi ishchilarga savdo bo'yicha hamkor mamlakatdagi ishchilarga nisbatan kamroq ish haqi berilsa, u holda birinchi mamlakatda ushbu tovar bo'yicha nisbiy ustunlik yuzaga keladi.

Nisbiy ustunlik nazariyasi bilan bog'liq tushunmovchiliklarning yana biri XX asrning 70-yillarida yaqqol namoyon bo'ldi: bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining rivojlangan mamlakatlar bilan savdosining noekivalent tabiati haqidagi tezisni ilgari surdilar. Ularning fikricha, agar mamlakat o'zi eksport qiladigan tovarlarga bu tovarlar hisobiga oladigan import tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnatdan ko'proq mehnat sarflasa, savdo ekspluatatsiyaning niqoblangan ko'rinishi hisoblanadi. Bu yondashuv tarafdorlarining xatolari shundaki, ular rivojlanayotgan mamlakatdagi eksportga mo'ljallangan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat xarajatlarini rivojlangan mamlakatdan import qilinayotgan tovarga sarflangan mehnat xarajatlari bilan solishtirishadi. Amalda esa import amalga oshirilmaganda ana shu import o'rini qoplash uchun rivojlanayotgan-importyor mamlakat ishlab chiqarishga majbur bo'ladigan tovarlar uchun sarflanadigan xarajatlar solishtirilishi kerak. Agar rivojlangan mamlakat kamroq nisbiy xarajatlar bilan tovar ishlab chiqarib, uni rivojlanayotgan mamlakatga eksport qila olar ekan, demak u bu tovarni ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega. Bundan rivojlanayotgan mamlakat hech narsa yutqazmaydi, balki import natijasida nisbatan arzon tovarlarga ega bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, kasaba uyushmalari doirasida import tovarlaridan himoyalanish kerak, chunki xorijda ish haqi kamligi bois bu tovarlar raqobatbardoshroq degan tezis keng tarqalgan. Bu ham nisbiy ustunlik nazariyasini to'g'ri tushunmaslikdan dalolat beradi. Chunki

xorijda mehnatning arzonligi importning foydaliligi muammosiga umuman aloqasi yo'q. Eng asosiysi, bu tovarning qiymati o'z mamlakatida ishlab chiqarilganga nisbatan uni xorijdan sotib olinganda arzon bo'ladi.

Albatta, nisbiy ustunlik nazariyasi mavhum va juda soddalashtirilgan tabiatga ega va xalqaro savdoga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator hodisalarni e'tiborga olmaydi. Nazariyaning cheklanganligi uni yaratilishida qilingan farazlar bilan bog'liq. Shuning uchun u yoki bu tovar oqimlarini nisbiy ustunlik nazariyasini qo'llagan holda tahlil qilishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak, ya'ni bu nazariya:

- *transport xarajatlarini e'tiborga olmaydi, bu xarajatlar shunday miqdorga etishi mumkinki, mamlakat bir tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat xarajatlari bo'yicha nisbiy ustunlikka ega bo'lsa-da, ushbu tovarni xorijga eksport qilish naf keltirmasligi mumkin;*
- *mamlakat ichida daromadlarning qayta taqsimlanishiga, narx va ish haqining o'zgarishiga, inflyatsiya, xalqaro kapital harakatiga tashqi savdoning ta'sirini inobatga olmaydi;*
- *faqat bitta ishlab chiqarish omili (mehnat) mavjudligidan kelib chiqadi, mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi kabi xalqaro savdoning dastlabki shartlariga e'tibor bermaydi;*
- *to'liq bandlik shartidan kelib chiqadi, ya'ni ishchilar bir tarmoqdan ketar ekan, boshqa yanada samaraliroq tarmoqda ish topadi, ishsiz qolmaydi deb faraz qilinadi;*
- *biri ikkinchisi oldida nisbiy ustunlikka ega bo'lmagan taxminan bir xil mamlakatlar*

o'rtasidagi savdoni tushuntirib bera olmaydi.

Shunday qilib, Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan mutlaq ustunlik nazariyasiga muvofiq, agar ikki mamlakatning har biri hamkor-mamlakatga nisbatan eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan tovarlar bilan savdoga kirishsagina xalqaro savdo foydali bo'ladi. Mamlakatlar o'zlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni eksport qiladi va boshqa mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqariladigan ustunlikka ega bo'lgan) tovarlarni import qiladi. Muqobil narx – bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtining boshqa bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti bilan ifodalanishidir. Nisbiy ustunlik nazariyasiga muvofiq, agar bir mamlakat boshqa mamlakat bilan solishtirganda nisbatan kamroq xarajati bilan ishlab chiqara oladigan, ya'ni muqobil narxi pastroq bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutlaq samaraliroq bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun foydali bo'ladi. Mamlakatlar o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda savdoda ishtirok etuvchi har ikki mamlakat bu savdodan oladigan iqtisodiy naf savdodan keladigan yutuq deyiladi. Nisbiy ustunlik nazariyasi istalgan miqdordagi tovarlar va istalgan miqdordagi mamlakatlar uchun o'rinli bo'ladi. Bu nazariyani bir mamlakat hududidagi alohida rayonlar, viloyatlar o'rtasidagi savdoni tahlil qilishda ham foydalanish mumkin.

IV bob. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi

Oldingi boblarda ko'rib chiqilgan nazariyalar xalqaro savdoni turli mamlakatlarda tovarlar ishlab chiqarishga sarflanadigan mehnat xarajatlarining turlichaligi bilan tushuntirgan edi. XIX asr davomida mehnatning qiymat nazariyasi ishlab chiqarish omillari nazariyasining turli variantlari bilan surib chiqarila boshlandi, klassik maktab asoschilarining izdoshlari bo'lgan neoklassik iqtisodchilar xalqaro savdoni ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi orqali tushuntirishga harakat qildilar. Biroq faqatgina XX asrning 20-yillarining o'rtalarida xalqaro savdo nazariyasi rivojida ulkan qadam tashlandi. Shved iqtisodchilari Eli Xeksher va uning shogirdi Bertil Olin xalqaro savdo sohasida yangi nazariya yaratdilar. Keyinchalik bu nazariya Xeksher-Olin nazariyasi deb atala boshlandi.

Distrikt-proportsiya:

Nisbiy narxlardagi farq mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganligi bilan tushuntiriladi degan g'oyani ilgari suruvchi xalqaro savdo nazariyasi ham mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari kabi bir qator gipotezalarga asoslangan. (4.1-jadval).

4.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi ishlab chiqarish omillari, bozor, ishlab chiqarish, tovarlar tabiatiga o'ziga xos munosabat jihatidan gipotezalarga asoslangan. Bu gipotezalarning ko'pchiligidan mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarida ham foydalanilgan.

Farqi shundaki, ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasida avvalgidek ikki mamlakat va ikki tovar bo'lsa-da, tovarning biri mehnat sig'imli, ikkinchisi kapital sig'imli bo'lib, ishlab chiqarish omillari ham ikkita: mehnat – L hamda kapital – K . Bundan tashqari har ikki mamlakat ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmagan. Mehnatning qiymat nazariyasi inkor etilmaydi, faqatgina qiymatning yaratilishida mehnatdan tashqari boshqa ishlab chiqarish omillari ham ishtirok etadi degan fikr bilan to'ldiriladi. Ayni paytda mamlakat u yoki bu tovarga to'liq ixtisoslashmaydi va har ikki mamlakatda texnologiya bir xil.

Shunday qilib, ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasidagi asosiy gipotezalardan biri alohida olingan tovarning mehnat yoki kapital sig'imlilik hamda mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi hisoblanadi.

② *Omilar intensivligi (factor intensity)* — ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini belgilovchi ko'rsatkich.

2-tovar 1-tovarga nisbatan kapital sig'imliroq hisoblanadi, agar bu tovarni ishlab chiqarishda sarflangan mehnat va kapital xarajatlari nisbati 1-tovarga sarflangan xuddi shu xarajatlar nisbatidan ko'proq bo'lsa, ya'ni:

$$(K/L)_2 > (K/L)_1 \quad (4.1.1)$$

③ *Omilar serobligi (factor abundance)* — mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilovchi ko'rsatkich.

Jahinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

4.1-jadval. Tayyor bo'lgan mahsulotning narxi va miqdori o'rtasidagi farq

	Mutlaq ustunlik nazariyasi	Nisbiy ustunlik nazariyasi	Ishlab chiqarish omillar nisbat nazariyasi
Ishlab chiqarish omillariga nisbatan gipotezalar			
Yagona ishlab chiqarish omili (mehnat)	X	X	
Ikkita ishlab chiqarish omili (mehnat va kapital)			X
Ishlab chiqarish omili(lari)dan to'liq foydalanigan	X	X	X
Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligidagi farq			X
Har ikki mamlakatda ishlab chiqarish omillari hajmining cheklanganligi	X	X	X
Mamlakat ichkarisida ishlab chiqarish omillarining to'liq harakatchanligi	X	X	X
Mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish omillarining to'liq harakatchan emasligi	X	X	X
Bozor tabiatiga nisbatan gipotezalar			
Ikki mamlakat	X	X	X
Ikki tovar	X	X	X
Erkin raqobat	X	X	X
Erkin savdo	X	X	X
Savdo muvozanatlashgan	X	X	X
Transport xarajatlari mavjud emas	X	X	X
Ishlab chiqarish tabiatiga nisbatan gipotezalar			
Mamlakatlarning bir tovarga to'liq ixtisoslashuvi	X	X	
Har ikki mamlakatda texnologiyalarning bir xilligi			X
Tovarlarning tabiatiga nisbatan gipotezalar			
Bir tovar mehnat sig'imli, ikkinchisi kapital sig'imli			X
Mehnatning qiymat nazariyasi	X	X	
Talabning narx bo'yicha to'liq egiluvchanligi	X	X	X
Boshqa savdo nazariyalariga nisbatan gipotezalar			
Iste'molchilarning did va xohishlari bir xil	X	X	X
Keng ko'lamiilik samarasi mavjud emas	X	X	X

Omillar serobligi ikki usul bilan aniqlanishi mumkin: har bir ishlab chiqarish omilining nisbiy narxlari orqali va ishlab chiqarish omillarining mutlaq miqdori orqali. *II mamlakat kapital bilan yaxshiroq ta'minlangan sanaladi, agar bu mamlakatda kapital va mehnat narxlari nisbati birinchi mamlakatdagi xuddi shu nisbatdan kichikroq bo'lsa, ya'ni kapital II mamlakatda I mamlakatga nisbatan arzonroq bo'lsa:*

$$(P_K/P_L) < (P_K/P_L) \quad (4.1.2)$$

Odatda kapital bahosi deganda foiz stavkasi, mehnat bahosi deganda esa ish haqi tushuniladi. Bu yerda ham gap omillari intensivligi holatidagi kabi nisbiy ko'rsatkichlar haqida ketyapti.

Agar omillar serobligini ishlab chiqarish omillarining mutlaq miqdori bilan aniqlaydigan bo'lsak, u holda II mamlakatda mavjud kapital umumiy hajmining ishchi kuchi umumiy hajmiga nisbati I mamlakatdagi xuddi shu nisbatdan yuqoriroq bo'lsa, II mamlakat I mamlakatga nisbatan kapitalga boy sanaladi:

$$(T_2/T_1) > (K_2/K_1) \quad (4.1.3)$$


Omillar serobligining birinchi ta'rifini bozor muvozanatining har ikki tomoni – talab va taklifni hisobga oladi, chunki ta'rif omillar narxi orqali berilyapti, narx esa talab va taklifning muvozanati natijasidir. Ishlab chiqarish omillari narxi u yoki bu mamlakatda ularga ega bo'lish imkoniyati darajasini hamda uning texnologik rivoji saviyasini aks ettiradi. Ikkinchi ta'rif esa talabni inkor etgan holda faqatgina taklifni inobatga oladi. Taklif ham ushbu holatda juda muhim, chunki u yaratilishida ishlab chiqarish omillari foydalaniladigan pirovard tovarlarga bo'lgan talabdan kelib chiqiyvchi hosilaviy talab hisoblanadi.

Turli ta'riflardan foydalanish ham bir xil, ham turli natijalarga olib kelishi mumkin. Agar birinchi va ikkinchi tovarlarga har ikki mamlakatda talab bir xil bo'lsa, har bir ta'rifdan foydalanish natijasi bir xil bo'ladi: Yaponiyada kapitalning umumiy miqdorining mehnatning umumiy miqdoriga nisbati O'zbekistondagiga nisbatan kamroq bo'lgani bois Yaponiya har ikki ta'rif bo'yicha kapital serob mamlakat hisoblanishi mumkin. Agar O'zbekistonga nisbatan Yaponiyada kapitalga talab ortib bordi deb faraz qilsak, bu mamlakatda kapital taklifi

nisbatan ko'p bo'lishidan qat'iy nazar, Yaponiyada kapitalning nisbiy narxi O'zbekistonga nisbatan yuqori bo'ladi. Bu vaziyatda Yaponiya ikkinchi ta'rifga ko'ra, mutlaq miqdor bo'yicha kapital serob, ammo nisbiy narxlarga asoslangan birinchi ta'rifga ko'ra esa mehnat serob mamlakat hisoblanadi, chunki bu mamlakatda mehnat narxi nisbatan arzon bo'ladi. Shunga o'xshash ziddiyatlarga duch kelmaslik uchun u yoki bu mamlakatda omillar serobligini aniqlashda birinchi ta'rifdan foydalangan ma'qulriq.

Shunday qilib, bayon qilingan yondashuvga muvofiq, Yaponiya kapital serob mamlakat, 2-tovar esa kapital sig'imli tovar bo'lgani sababli bu mamlakat 2-tovarni O'zbekistonga nisbatan ko'proq ishlab chiqarishi mumkin. Boshqa tarafdin, O'zbekiston mehnat serob mamlakat, 1-tovar esa mehnat sig'imli tovar bo'lgani bois, bu mamlakat 1-tovarni Yaponiyaga nisbatan ko'proq ishlab chiqara oladi. Shuning uchun 1-va 2-tovarlar bo'yicha ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigi chegaralari har ikki mamlakat uchun 4.1-rasmdagidek bo'ladi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston mehnat serob mamlakat, 1-tovar esa mehnat sig'imli tovar bo'lgani uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigi 1-tovar ifodalangan gorizontal o'qqa yaqinroq joylashadi. Bu holat Yaponiya va 2-tovar uchun ham bajariladi: ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigi 2-tovar ifodalangan vertikal o'qqa yaqinroq joylashadi.

Ushbu grafik 1997-yildagi savdo muvozanatini ko'rsatadi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi savdo muvozanatini ko'rsatadi. O'zbekistonning 1-tovarni ishlab chiqarishda nisbatan kamchil omillar bilan ta'minlanganligi ko'rsatilgan. Yaponiya esa 1-tovarni ishlab chiqarishda nisbatan katta hajmga ega bo'lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi.



Ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganlik

Ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganligi nazariyasi xalqaro savdo uchun asos sifatida bir-biri bilan o'zaro bog'liq ikki teorema ko'rinishida ifodalanishi mumkin: Xeksher-Olin teoremasi va ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi.

① Xeksher-Olin teoremasi (Heckscher—Ohlin Theorem) — har bir mamlakat o'z ishlab

chiqarishlarida nisbatan katta hajmga ega bo'lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, binobarin, bu mamlakatlar milliy xo'jalik nuqtai nazaridan nisbatan kamchil omillar bilan ta'minlangan tovarlarni import qiladilar.

Yuqorida keltirilgan nisbatlarga asoslangan holda, O'zbekiston mehnat serob mamlakat, 1-tovar esa mehnat sig'imli tovar bo'lgani bois, bu mamlakat 1-tovarni ishlab


chiqaradi va eksport qiladi. Yaponiya kapital serob mamlakat, 2-tovar esa kapital sig'imli tovar bo'lgani sababli bu mamlakat 2-tovarni ishlab chiqaradi va eksport qiladi. Nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari savdodan yutadi, nisbatan kamchil ishlab chiqarish omillari egalari esa savdodan yutqazadi.

Shunday qilib, Xeksher-Olin teoremasi klassik nisbiy ustunlik nazariyasiga nisbatan bir qadam olg'a qadam tashladi: bu teorema nafaqat savdo nisbiy ustunlikka asoslanishini tan oladi, balki nisbiy ustunlikning sababi –

mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligida ekanligini ko'rsatib berdi (factor endowment). Turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o'z navbarida ular o'rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan tushuntiriladi.

Teoremani isbotlash va tushuntirish uchun grafiklarga murojaat qilamiz (4.2-a, b rasmlar). O'zbekiston mehnat serob mamlakat, 1-tovar mehnat sig'imli tovar, Yaponiya kapital serob mamlakat, 2-tovar esa kapital sig'imli tovar ekanligini eslatib o'tamiz (4.1-rasm).

4.2-a rasm. Xeksher-Olin teoremasi



Qabul qilingan shartlatga muvofiq ravishda teorema har ikki mamlakatdagi iste'molchilar juda o'xshash yoki deyarli bir didga ega ekanligini nazarda tutadi. Nazariy jihatdan har bir mamlakatdagi iste'molchilarning did va


istaklari shunchalik farq qilishi mumkinki, befarqlik egri chizig'i umuman mos kelmasligi va hattoki umuman kesishmasligi mumkin. Bu holatda Xeksher-Olin teoremasi bajarilmaydi. Bu teorema iste'molchilar xohish va istaklari

har ikki mamlakatda batamom bir xil va yagona befarqlik egri chizig'iga qo'shilib ketishini talab etmaydi, balki bu xohish istaklar mamlakatlarni avtarkiya sharoitida qoldiradigan va ularni o'zaro savdo qilishdan voz kechishga olib keladigan darajada farq qilmaydi deb taxmin qiladi. Shunday bo'lsa-da, har bir mamlakatdagi iste'molchilarning did va istaklari shunchalik o'xshashki, befarqlik egri chizig'i har ikki mamlakat uchun bir xil bo'lsin deb faraz qilamiz. (4.2-a rasm). Yagona befarqlik egri chizig'i O'zbekistonning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i bilan A nuqtada o'zaro yagona nuqtaga ega. Yaponiyada esa bu A^* nuqtada joylashgan. Shunday qilib, I befarqlik egri chizig'i va A

hamda A^* nuqtalar o'zaro savdo bo'lmagan sharoitda har ikki mamlakatdagi mumkin bo'lgan maksimal ishlab chiqarish va iste'mol hajmini ifoda etadi, urinma chiziqlar esa, 1- va 2-tovarning O'zbekiston va Yaponiyadagi nisbiy narxlarini (P va P^*) ko'rsatadi. Grafikdan $P < P^*$ ekanligi ko'rinib turibdi, binobarin O'zbekiston 1-tovarni, Yaponiya 2-tovarni ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega.

Savdoni rivojlantirgan holda mehnat serob sanalgan O'zbekiston mehnat sig'imli 1-tovarni, kapital serob bo'lgan Yaponiya esa kapital sig'imli 2-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshlaydi (4.2-b rasm).

4.2-b rasm. Xalqaro savdo sharoitida



Bunda ishlab chiqarish va iste'mol hajmini ko'rsatuvchi nuqtalar O'zbekistonda A dan B

ga, Yaponiyada A^* dan B^* ga ko'chadi. Ixtisoslashuv mamlakatlarni umumiy ekvivalent

nisbiy jahon narxi - P_w darajasiga chiqquncha davom etadi. Bu narx esa, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, har ikki mamlakatdagi savdo boshlanmasdan oldingi ichki narxlar o'rtasida joylashdi, ya'ni $P < P_w < P^*$. Chizmada P_w har ikki mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i va yangi // befarqlik egri chizig'iga o'tkazilgan urinmani aks ettiradi. Yangi befarqlik egri chizig'i oldingisiga nisbatan yuqoriroqda joylashgan, bu esa iste'molning umumiy hajmi ortganligidan dalolat beradi. O'zbekiston o'zi ishlab chiqargan 1-tovarning BC qismini eksport, Yaponiyada ishlab chiqarilgan 2-tovarning CE qismini import qilgan holda talab va taklifning muvozanatiga E nuqtada erishadi. Yaponiya esa o'zi ishlab chiqargan 2-tovarning B^*C^* qismini eksport, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan 1-tovarning C^*E^* qismini import qilgan holda bu muvozanatga E^* nuqtada erishadi va u E bilan ustma-ust tushadi. Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning 1-tovar eksporti Yaponiyaning importiga teng - $BC=C^*E^*$, Yaponiyaning 2-tovar eksporti esa O'zbekistonning importiga teng - $B^*C^*=CE$.

E nuqta A nuqta bilan solishtirganda O'zbekistonda "o'z" tovari "begona" tovardan kam iste'mol qilinganligini nazarda tutsa-da, O'zbekiston o'zaro savdodan yutadi, chunki uning yangi befarqlik egri chizig'i yuqoriroqda joylashgan va iste'molning ortganligini ko'rsatib turibdi. Xuddi shunday holat Yaponiyada ham kuzatiladi: E^* nuqta A^* nuqta bilan solishtirganda Yaponiyada "o'z" tovari "begona" tovardan kam iste'mol qilinganligini nazarda tutsa-da, Yaponiya ham o'zaro savdodan yutadi, chunki uning yangi befarqlik egri chizig'i ilgarigisidan yuqoriroqda

joylashgan va iste'molning ortganligini ko'rsatib turibdi. Demak, har ikki mamlakat o'zaro savdo natijasida yutuqqa erishdi, zero ularning befarqlik egri chiziq-lari grafikda yuqoriga ko'tarildi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish omillari nisbiy qiymatining har xilligi savdo bo'lmagan sharoitda nisbiy narxlarning turlicha bo'lishi-ning sababi hisoblanadi, bu esa o'zaro savdo uchun muhim shart bo'ladi. Savdo boshlan-gandan so'ng har bir mamlakat o'z ishlab chiqarishlarida nisbatan katta hajmga ega bo'lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, binobarin, bu mamlakatlar nisbatan kamchil omillar bilan ta'minlangan tovarlarni import qiladilar. Natijada har ikki mamlakat o'zaro savdo natijasida yutuqqa erishdi. Ushbu vaziyatda savdodan keladigan yutuqqa har ikki mamlakatdagi nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari erishadi, nisbatan kamchil ishlab chiqarish omillari egalari esa savdodan yutqazadi.

Ishlab chiqarish omillari nisbatini muvozanatlashtirish

Savdo natijasida ayirboshlanayotgan tovarlarning nisbiy narxlari bir-biriga yaqinlashish tamoyiliga ega. Agar tovarlarning nisbiy narxi mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligi darajasi hamda bu omillarning nisbiy narxlariga bog'liq deb faraz qilinsa, tabiiy savol tug'iladi: tovarlar narxining muvozanatlashishi ishlab chiqarish omillari narxiga qanday aks ta'sir ko'rsatadi? Boshqacha qilib aytganda, agar mehnat

sig'imli tovarning nisbiy narxi o'zgarsa, bu tovarni ishlab chiqaruvchi mehnat serob bo'lgan mamlakatda mehnatning nisbiy bahosi o'zgaradimi? Kapital sig'imli tovar nisbiy narxining o'zgarishi natijasida bu tovarni ishlab chiqaruvchi kapital serob bo'lgan mamlakatda kapitalning nisbiy bahosi o'zgaradimi?

Amerikalik iqtisodchi Pol Samuelson bu savolga javob bera oldi. Samuelson tomonidan isbotlangan Xeksher-Olin teoremasi to'g'riligi shartidan kelib chiquvchi bu teorema ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi yoki Xeksher-Olin-Samuelson teoremasi nomini oldi.

@ *Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi* (factor price equalization theorem) (Xeksher-Olin-Samuelson teoremasi) — xalqaro savdo savdo olib boruvchi mamlakatlarda gomogen ishlab chiqarish omillari mutlaq va nisbiy narxlarining muvozanatlashuviga olib keladi.


Soddaroq qilib aytganda, savdo natijasida tovarlar nisbiy narxining muvozanatlashuvi bu tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan ishlab chiqarish omillari nisbiy narxining tenglashishiga olib keladi. Kapital gomogenligi bir xil samarali va bir xil tavakkalli kapitalni anglatrsa, mehnatning gomogenligi esa bir xil tayyorgarlikka ega, bilim va unumdorlik darajasi bir xil mehnatni ifoda etadi. Bu teoremaning to'g'riligi Xeksher-Olin teoremasi uchun qabul qilingan shartlarga qat'iy rioya qilishni talab etadi.

Teoremaning mantiqiy isboti qiyinchilik tug'dirmaydi. Dastlabki shartlarga asosan, savdo bo'lmagan sharoitda O'zbekistonda mehnatning nisbiy narxi, binobarin ish haqi darajasi pastroq bo'lgani bois 1-tovarning

nisbiy narxi O'zbekistonda Yaponiyadan pastroq bo'ladi. Buning natijasida O'zbekiston eng mehnat sig'imli tovar sifatida 1-tovarga ixtisoslasha boshlaydi va 2-tovar kapital sig'imli bo'lganligi sababli bu tovarni ishlab chiqarishni qisqartiradi. Natijada mehnatga nisbiy talab ortadi, bu ish haqining ko'tarilishiga olib keladi, o'z navbatida kapitalga nisbiy talab kamayadi va kapitalning nisbiy narxi — foiz stavkasi pasayadi. Yaponiyada esa buning aksi kuzatiladi. Bu mamlakat kapital sig'imli tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi sababli kapitalga nisbiy talab ortadi, bu kapitalning foiz stavkasi orqali ifodalangan narxining ortishiga olib keladi, mehnatga talab qisqaradi hamda ish haqi kamayadi. Shunday qilib, ish haqi me'yori nisbatan past bo'lgan O'zbekistonda ish haqi ko'tariladi, Yaponiyada esa ish haqi me'yori kamayadi. Xuddi shunday, Yaponiyada foiz stavkasi pasayadi, O'zbekistonda esa ko'tariladi. Darhaqiqat ikki mamlakatdagi ishlab chiqarish omillari narxlaridagi farq qisqarib boradi. Xalqaro tovarlar savdosi go'yoki ishlab chiqarish omillari qiymatiga o'zining aks ta'siri bilan ishlab chiqarish omillarining xalqaro ko'chishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan narxlarning tenglashishini o'rnini bosadi. Qabul qilingan shartlarga ko'ra ishlab chiqarish omillri mamlakatlararo harakat qilmaydi deb faraz qilingan. Nazariy jihatdan ishlab chiqarish omillari nisbiy narxida qandaydir farq bor ekan, xalqaro savdo rivojlanib borishi mumkin. Agar mamlakatlar o'rtasida nisbiy narxlar muvozanatlashgan bo'lsa, bu ushbu mamlakatlardagi ishlab chiqarish omillari narxi ham muvozanatlashganidan darak beradi.

Nisbiy narxlarning muvozanatlashuvi teoremasining grafik talqini 4.3-rasmda ifodalangan. Kapital narxi (r) orqali ifodalangan mehnat narxi (w), ya'ni mehnatning ishlab chiqarish omili sifatidagi nisbiy narxi (w/r) gorizontal. 1-tovarning 2-tovar narxi orqali ifodalangan nisbiy narxi (P_1/P_2) esa vertikal o'qqa joylashtirilgan.

4.3-rasmda 1-tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2) orqali ifodalangan mehnatning ishlab chiqarish omili (w/r)ning muvozanatlashuvi.



Mehnatning ishlab chiqarish omili sifatidagi nisbiy narxi O'zbekistonda OG, Yaponiyada esa OI ni, mos ravishda 1-tovarning nisbiy narxi O'zbekistonda OF, Yaponiyada esa OD ni tashkil etadi. Mamlakatlar o'rtasida savdo boshlanmasdan oldin O'zbekistonda A, Yaponiyada B nuqtada bozor muvozanatiga erishilgan. O'zaro savdodan avval (w/r) nisbat O'zbekistonda Yaponiyaga nisbatan kichik bo'lgani uchun u mehnat sig'imli 1-tovarni, Yaponiya esa kapital sig'imli 2-tovarni ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega.

Savdo boshlanganidan keyin O'zbekiston mehnat sig'imli 1-tovarga ixtisoslashgani bois bu mamlakatda mehnatga nisbiy talab oshib boradi, bu mehnatning nisbiy narxi (w/r)ning ortib borishiga, ushbu holat o'z navbatida 1-tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2)ning ko'tarilishiga olib keladi. Yaponiya kapital sig'imli 2-tovarga ixtisoslashgani bois bu mamlakatda kapitalga nisbiy talab oshib borishi kapital nisbiy narxi (r/w)ning ortib borishiga, yoki mehnat nisbiy narxi (w/r)ning pasayishiga, bu esa o'z navbatida 2-tovarning nisbiy narxi (P_2/P_1)ni ko'tarilishiga, 1-tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2)ning kamayishiga olib keladi. Binobarin A va B nuqtalar C nuqtada ustma-ust tushmaguncha bir-biriga yaqinlashib keladi va 1-tovarning har ikki mamlakatdagi nisbiy narxi E nuqtada muvozanatlashadi. Bu esa 1-tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnatning nisbiy narxini O'zbekiston va Yaponiyada H nuqtada tenglashishiga olib keladi. Shunday qilib, xalqaro savdo natijasida tovarlar nisbiy narxining muvozanatga kelishi, ushbu tovarlarni yaratishda foydalanilgan ishlab chiqarish omillari nisbiy narxining tenglashishiga olib keladi.

Bu teoremaning isbotini ishlab chiqarish omillarining mutlaq narxlariga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi, ya'ni xalqaro savdo bu savdoda ishtirok etayotgan mamlakatlarda bir xil ko'rinishdagi mehnat uchun to'lanadigan ish haqi va bir xil tipdagi kapitalga to'lanadigan foiz stavkalarining mutlaq me'yorini barobarlashtiradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha shartlarni inobatga olgan holda ishlab chiqarish omillarining mutlaq narxlariga nisbatan teorema isboti bevosita uning nisbiy narxlarga nisbatan isbotidan kelib chiqadi,

biroq bu isbot matematika nuqtai nazardan murakkabroq va u ushbu darslik doirasidan chetga chiqib ketadi.

Haqiqiy olamda ishlab chiqarish omillari narxi umuman muvozanatlashmagan. Misol uchun turli mamlakatlarda mehnatga to'lanadigan ish haqi ular o'rtasida faol savdo aloqalari olib borilishiga qaramay sezilarli farq qilib kelmoqda. Buning bosh sababi yuqorida oldindan qabul qilingan shartlardir:

- *Har ikki tovar har ikki mamlakatda ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan. Bu esa hamisha fakt sanalmaydi. Agar AQSh samolyotlar ishlab chiqarib uni eksport qilsa, Xitoy o'yinchoqlar ishlab chiqaradi va uni eksport qiladi. Samolyot va o'yinchoqlarni ishlab chiqarishga zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillaridagi farq shunchalik sezilarliki, ularning nisbiy narxi har doim ham tenglashvermaydi.*
- *Savdo olib boruvchi mamlakatlarda texnologiya bir xil deb faraz qilingan. Nisbatan rivojlangan texnologiyaga ega mamlakatda texnologiyasi qoloqroq mamlakatga nisbatan mehnat va kapital narxi yuqoriroq bo'lishi mumkin.*
- *Ishlab chiqarish omillari va tovarlar mamlakat ichida to'liq harakatchan deb faraz qilingan, masalan ishchi kuchi kam ish haqi to'lanadigan tarmoqdan ish haqi yuqoriroq tarmoqqa ko'chib o'tishi mumkin, savdo esa ularning turli mamlakatlardagi nisbiy narxidagi farq bilan belgilanadi. Amalda esa tabiiy (transport xarajatlari) va sun'iy (ro'yxatdan o'tish) to'siqlarga ko'ra buning buning ilojisi yo'q.*

- *Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati mavjud emas deb faraz qilingan. Teorema mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanishidagi doimiy o'zgarishlarni – zamonaviy xalqaro iqtisodiyotning o'ziga xos muhim jihatlari bo'lgan ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro kapital harakati, texnologiyalar savdosi kabilarni e'tiborga olmaydi.*

Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi barcha cheklanishlari va kamchiliklariga qaramasdan, xalqaro iqtisodiyot tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Xeksher-Olin va Xeksher-Olin-Samuelson teoremlari iqtisodiy rivojlanish bo'ysunishi kerak bo'lgan umumiy muvozanat tamoyillarini ko'rsatib hamda isbotlab berdi.

Shunday qilib, omillar sig'imligi ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omillar serobligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilab beradi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o'z navbarida ular o'rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan tushuntiriladi.

4.1.2. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi

Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi o'zining barcha kamchiliklari va mavhum tabiatiga qaramay hozirgi kungacha xalqaro savdoning rivojlanishini tushuntiruvchi eng mashhur nazariyalarning biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham bu nazariyaning turli

mamlakatlar, tovarlar va ichlab chiqarish omillariga nisbatan ulkan statistik massivlar yordamida empirik yo'llar bilan tekshirilishiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Ba'zi empirik testlar nazariyani tasdiqlar, boshqalari rad etar edi. Xeksher-Olin-Samuelson xulosalarini rad etgan tadqiqotlarning eng mashhuri 1953 yilda kelib chiqishi Rossiyadan bo'lgan amerikalik olim Vaslii Leontev tomonidan amalga oshirilgan.

Leontev bir necha empirik testlar yordamida Xeksher-Olin nazariyasi shartlari amalda bajarilmasligini ko'rsatib berdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh eng boy va kapital serob bo'lgan mamlakatlarning biri bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda mehnatga haq to'lash me'yori ham yuqori bo'lganligi bois ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga muvofiq ravishda kapital sig'imli tovarlarni eksport qilishi kerak edi. Leontev bu gipotezani tekshirish uchun 1 million dollar qiymatiga ega bo'lgan eksportga mo'ljallangan tovarlar va shuncha qiymatli import bilan bevosita raqobat qiluvchi tovarlarni ishlab chiqarish uchun qancha kapital va ishchi kuchi zarurligini hisoblab chiqdi. U har bir sanoat tarmog'i kapital va ishchi kuchi sarfini hisobladi, bunda faqatgina tayyor mahsulotlar (masalan, avtomobillar) bilan cheklanmadi, balki oraliq mahsulotlar (po'lat, oyna, rezina) uchun ham kerakli hisob-kitoblarni amalga oshirdi. Shundan so'ng AQShning 1947 yildagi eksport tarkibidan foydalangan holda 1 million dollar summadagi eksport tovarlarga sarflangan kapital va mehnat xarajatlarining nisbatini hisoblab chiqdi. Leontev AQShning shu yildagi import tarkibi bo'yicha (import tovarlari ro'yxatiga AQShda ishlab

chiqarilmaydigan tovarlar kiritilmadi) import o'rnini bosuvchi AQSh tovarlarini ishlab chiqarishga sarflangan kapital va mehnat xarajatlari nisbatini aniqladi.

Amalda bir birlik AQSh importini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kapital va mehnat nisbati - $(K/L)_m$ ni bir birlik AQSh eksportini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kapital va mehnat nisbati - $(K/L)_x$ bilan solishtirildi. "Leontev statistikasi" (Leontief statistic) nomini olgan ushbu nisbatga muvofiq 4.4.1 tengsizlik bajarilsa har qanday mamlakat kapital serob, 4.4.2 tengsizlik bajarilganda esa mehnat serob mamlakat sanalishi mumkin.

$$(K/L)_m / (K/L)_x < 1 \quad (4.4.1)$$

$$(K/L)_m / (K/L)_x > 1 \quad (4.4.2)$$

Leonyev, Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq, eksport tovarlar import o'rnini bosuvchi tovarlarga (deyarli AQSh importi) nisbatan har bir ishchi kuchi hisobiga ko'proq kapital talab qilishini kutgan edi. Natija buning qarama-qarshisi bo'lib chiqdi: AQSh importining kapital sig'imilligi uning eksporti kapital sig'imilligidan 30 foizga ko'p chiqdi, bu esa AQSh kapital serob bo'lgan mamlakat emas, balki mehnat serob mamlakat ekanligidan dalolat berardi, ushbu holat mavjud tasavvurlarga umuman mos kelmas edi.

Ikkinchi jahon urushi natijasida statistik ma'lumotlarda noaniqliklar bo'lishi mumkin deb hisoblab, Leontev hisob-kitoblarni 1951 yil uchun takrorlab ko'rdi. Natija esa avvalgidek, import eksportga nisbatan kapital sig'imliroq, bu safar faqat 6 foizga. Leontev izdoshlari hisob-kitoblarni 1962 yil uchun takrorlab ko'rdi. Natija yanada hayron qolarli daragada - AQSh

importining kapital sig'imi uning eksporti kapital sig'imligidan 27 foizga ko'p chiqdi. Hisob-kitoblar boshqa mamlakatlar uchun ham amalga oshirildi. 50-yillarda mehnat serob hisoblangan Yaponiya kapital sig'imli tovarlarni eksport qilgan. Hindiston o'zining ulkan mehnat resurslari bilan mehnat sig'imli tovarlarni eksport qilgan bo'lsa-da, uning AQShga eksporti kapital sig'imli tovarlardan iborat bo'lgan. Natijalar shunchalik kutilmagan ediki, u iqtisodiy bilimlar tarixiga "Leontev paradoksi" nomi bilan kirdi.

@ *Leontev paradoksi (Leontief paradox)* — bu Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining amalda bajarilmasligi — mehnat serob mamlakatlarning kapital sig'imli, kapital serob mamlakatlarning mehnat sig'imli tovarlarni eksport qilishi.

Xeksher-Olin nazariyasi iqtisodchilar tomonidan zamonaviy hisoblash mashinalari yordamida yana bir necha bor ko'p sondagi mamlakatlar va tovarlar uchun tekshirib ko'rildi. Eng e'tiborga loyiq test 1987 yilda amerikalik olimlar G. Bouen, E. Limer va L. Sveykauskas tomonidan o'tkazildi. Ular 27 ta malakat uchun 12 ta ishlab chiqarish omili bo'yicha hisob-kitob o'tkazishdi. Natijalar yanada kutilmagan bo'ldi: ishlab chiqarish omillarining uchdan ikki qismi uchun 70 foizdan kamroq holatda xalqaro savdo Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq rivojlangan. Boshqa holatlarda Xeksher-Olin nazariyasi amalda bajarilmagan.

O'sha paytda yetakchi bo'lgan yondashuvning inkor etilishi uning tushuntirilishini talab qilardi. Munozaralar Xeksher-Olin nazariyasi to'g'ri, Leontev tomonidan olingan natijalar noto'g'ri ekanligini isbotlashga hara-

katlar doirasida bo'ldi. Leontev paradoksiga qarshi keltirilgan ba'zi dalillar quyidagilar:

- *Ishchi kuchini malakali va malakasiz ishchi kuchi guruhlariga ajratish kerak hamda eksport tovarlarga sarflangan xarajatlarni har ikki guruh uchun alohida hisoblash kerak. Amerikalik olim Donald Kising (Donald Keesing) o'zining 1966 yida chop etilgan tadqiqotlarida malakasi darajasiga muvofiq ishchilarni "olim va injenerlar"dan tortib "malakasiz ishchilar" gacha bo'lgan 8 ta kategoriyaga bo'ldi va AQSh malakali ishchi kuchi serob, malakasiz ishchi kuchi yetishmasligini isbotlab berdi. Binobarin, AQSh malakali mehnat sarflangan mahsulotlarni eksport qiladi, bu malakali ishchilarni tayyorlash, o'qitish uchun sarflangan xarajatlarni e'tiborga olinsa, uni kapital deb hisoblash mumkin.*
- *AQSh qazib olinishida katta miqdorda kapital xarajatlarini talab qiluvchi xomashyoni katta hajmda import qiladi. Shuning uchun AQShning eksport tovarlari katta hajmdagi kapital sig'imli xomashyoni talab qiladi, bu esa eksportni kapital sig'imliga aylantiradi. Djeym Xartigen va boshqa bir necha olimlar Leontev hisob-kitoblarini o'sha yillar uchun takrorlashdi, faqatgina kapital sig'imli xomashyo bilan kuchli bog'langan tarmoqlar chiqarib tashlandi, natijada paradoks yo'qoldi, Xeksher-Olin nazariyasi o'z isbotini topdi.*
- *Leontev testi AQShda mavjud bo'lgan import tariflarini inobatga olmagan, bu tariflar AQSh sanoatining mehnat sig'imli tarmoqlarini xorijiy raqobatdan himoyalash uchun joriy qilingan, natijada mehnat sig'imli tovarlar importiga to'siq qo'yilgan.*

1971 yilda amerikalik iqtisodchi Robert Beldvin tomonidan bajarilgan qayta hisob-kitoblar tariflar omilining olib tashlanishi Leontev paradoksi ta'sirini 5 foizga qisqartirishini, lekin batamom yo'q qilmasligini ko'rsatdi.

- Amerikaliklarning did va xohishlari an'anaviy ravishda kapital sig'imli texnologik mahsulotlarga qaratilgan bo'lib, AQSh kapital bilan yaxshi ta'minlangan bo'lishiga qaramasdan bu tovarlarni ular xorijdan sotib olishadi. Bu esa amalda Xeksher-Olin teoremasining dastlabki shartlarining birini inkor etadi va xalqaro savdoni ishlab chiqarish omillari nisbati bilan emas, balki boshqa sabablar bilan tushuntirishga xarakatni anglatadi.
- Ishlab chiqarish omillari reversi: bir tovar mehnat serob mamlakatda mehnat sig'imli, kapital serob mamlakatda kapital sig'imli bo'lishi mumkin. Masalan, kapital serob sanalgan AQShda yetishtirilgan gurunch yuqori texnologiya vositasida ishlab

chiqarilgani bois kapital sig'imli hisoblansa, Vetnamda yetishtirilgan gurunch mehnat sig'implidir, chunki u asosan qo'l mehnati yordamida tayyorlanadi.

Har bir dalil u qanday bo'lishidan qat'iy nazar xalqaro savdoning rivojlanishiga ma'lum hissa qo'shgan. Ba'zi tadqiqotchilar Rikardoning klassik modellga qaytishni taklif qilgan, ular xalqaro savdoning rivojlanishini mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi uchun emas, balki har bir mamlakatda mavjud texnologiyalarning har xilligi bilan tushuntirishga harakat qilishgan. Haqiqatdan ham AQSh samolyot va kompyuterlarni eksport qilishi avtomobil va po'lat ishlab chiqarishga nisbatan bu sohada resurslar bilan yaxshi ta'minlanganligidan emas, balki ilg'or texnologiyaga ega ekanligidandir. Albatta, bu yondashuv mamlakatlarning texnologiyalar bilan ta'minlanishidagi farq masalasini ochiq qoldiradi.

I. II. XALQARO SAVDODA UMUMIY MUVOZANAT

V bob. Xalqaro savdoning standart modeli

ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning manfaatlari

Tarixan xalqaro savdo nazariyalarini ishlab chiqishda iqtisodiy ta'limot tovarlar va ishlab chiqarish omillari taklifini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratgan, talabga esa etarli darajada e'tibor berilmagan. Biroq barchaga ma'lumki, jahon bozorida tovarlar taklifi talabga bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham zamonaviy xalqaro savdo nazariyasi tovarlar talab va taklifiga birdek e'tibor beradi. U oldingi mavzularda ro'rib chiqilgan klassik va neoklassik modellarni rad etmaydi, zero qanday muammo hal etilishi kerakligi va qaysi ishlab chiqarish omiliga ko'proq e'tibor qaratilishi lozimligiga bog'liq ravishda bu modellardan hozirgi paytda ham analitik maqsadlarda faol foydalanib kelinmoqda. Shuning uchun yuqorida keltirilgan modellar ma'lum ma'noda jahon iqtisodiy ta'limoti tomonidan tan olingan va zamonaviy bosqichda xalqaro savdoni nazariy tahlil dastagi sifatida xizmat qiluvchi, xalqaro savdoning standart modeli nomini olgan modelning xususiy holi deb hisoblanishi mumkin.

Talab va taklif muvozanatining neoklassik postulatlariga asoslangan xalqaro savdoning standart modeli juda ko'plab iqtisodchilar-neoklassiklar harakatlarining qo'shilishi samarasidir, bu iqtisodchilar jamiyat miqyosidagi jami talabga alohida e'tibor qaratishgan.

Standart modelda foydalaniladigan asosiy tushunchalar turli yillarda irland iqtisodchisi Frensis Edjuort va kelib chiqishi Avstriyadan bo'lgan amerikalik iqtisodchi Gotfrid Xeberler tomonidan kiritilgan.

Klassik modellar talab va taklifdan chegaralangan doiradagi ma'lum bir tovarlar uchun foydalanilgan. Standart model esa bu doirani jami talab va taklifgacha kengaytirdi. Soddalik uchun, avvalgidek, ikki mamlakat (O'zbekiston va Yaponiya) va ikki tovar (1- va 2-tovar) mavjud deb faraz qilamiz. Nisbiy ustunlik nazariyasida o'rnini qoplash xarajatlari doimiy bo'lishi sharti qo'yilgan holatni ko'rib chiqilgan, bunda ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i to'g'ri chiziqdan iborat bo'lib, bu har bir qo'shimcha 2-tovarni ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 1-tovarning miqdori doimiy bo'lishini anglatardi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatlarning o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarga to'liq ixtisoslashishi va nisbiy ustunlik boshqa mamlakatlarda bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni to'xtatishini bildirar edi. Bu standart modelning xususiy holi bo'lgan ekstremal vaziyat xolos. Standart model bizga umumiy iqtisodiy nazariyasidan ma'lum bo'lgan hamda haqiqiy iqtisodiy vaziyatlarga ko'proq mos keluvchi o'rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi to'g'risidagi qonuniyatiga tegishli daslabki shartlardan kelib chiqadi.


ⓐ *Ortib boruvchi o'rnini qoplash xarajatlari* (increasing opportunity costs) har bir qo'shimcha 2-tovarni ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 1-tovarning miqdori doimiy emas, balki ortib boruvchi bo'lishligini nazarda tutadi.

Mamlakatlar bir-biri bilan savdo munosabatlariga kirishguncha bo'lgan muvozanat transformatsiyaning chegaraviy me'yori (taklif) va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori (talab) o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali o'rnatiladi. O'zbekistonning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i (I) bilan A nuqtada tutashgan, ushbu nuqtada mamlakat ehtiyojlarini qondirish maksimal darajaga etadi — O'zbekiston o'zi ishlab chiqaradigan 1- va 2-tovarlarni maksimal miqdorda iste'mol qiladi. Yaponiyaning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i (I') bilan A' nuqtada tutashgan, ya'ni ushbu A' nuqtada mamlakat ehtiyojlarini qondirish maksimal darajaga etadi — Yaponiya o'zi ishlab chiqaradigan 1- va 2-tovarlarni maksimal miqdorda iste'mol qiladi. 1-tovarning nisbiy muvozanat narxi O'zbekistonda A nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan ifodalan va u 2-tovarning $\frac{1}{4}$ birligiga teng, Yaponiyada esa ushbu narx A' nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan ifodalangan bo'lib, bu nisbiy narx 2-tovarning 4 birligini tashkil etadi. $P_2/A < P_2/A'$ bo'lgani bols O'zbekiston 1-tovar, Yaponiya esa 2-tovar bo'yicha nisbiy ustunlikka ega. Ishlab chiqarishning maksimal hajmi (V)ga har ikki mamlakatda A va A' nuqtalarda erishiladi, Q_1 va Q_2 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqarish miqdorini ifoda etadi. Q_1 va Q_2 O'zbekistonda

mos ravishda 60 va 40, Yaponiyada 40 va 80 ga teng.

5.1-a rasmdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan 1-tovarning har bir qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar soni borgan sari ortib bormoqda.

5.1-a rasmda. Savdo bo'yicha muvozanat (O'zbekistonda)



5.1-b rasmdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i esa Yaponiya o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan 2-tovarning har bir qo'shimcha birligini ishlab chiqarishni ta'minlash uchun borgan sari ortib boruvchi 1-tovar birligidan voz kechishga majbur bo'lishini ko'rsatmoqda.


ⓐ *Transformatsiyaning chegaraviy me'yori* (marginal rate of transformation) — 1-tovarning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar soni.

Chizmada bu mohiyatiga ko'ra, bir tovarni boshqasi bilan almashtirganda o'rnini qoplash xarajatlarining ortib borishini iroda etuvchi

Jahinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

ishlab chiqarish imkoniyatlari egri cizig'ining xuddi o'zini aks ettiradi: mamlakat 1-tovarning har bir qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar soni borgan sari ortib boradi. Shuning uchun ham grafik nisbiy ustunlik nazariyasidagi kabi to'g'ri chiziq emas, balki egri chiziqni ifoda etadi va tovarlarning ichki taklifi hajmini ko'rsatadi.

3.1-o rasmi. Savdo bo'lmagan chegaraning muvozanat nuqtasi



ⓐ O'rnini qoplashning chegaraviy me'yori (marginal rate of substitution) — mavjud iste'mol darajasining saqlanib qolishi ta'minlangan holda 1-tovarning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar miqdori.

Bu grafik jihatidan mamlakat miqyosigacha kengaytirilgan individual befarqlik egri chiziqclariga o'xshab ketadi. Bu egri chiziq har ikki tovarning shunday barcha kombinatsiyalariki, bu kombinatsiyalarning har birida itovarlar iste'moli iste'molchi uchun bir xil farovonlik darajasini ta'minlaydi. U iste'mol-

chining farovonlik darajasi pasaymasligi va avvalgi vaziyatda qolishi uchun undan tortib olinayotgan tovar qancha miqdordagi boshqa tovar bilan almashtirilishi kerakligini ko'satadi. Boshqacha qilib aytganda, bu almashtirish iste'molchiga yana o'sha befarqlik egri chizig'ida qolish imkoniyatini berishi kerak. O'rnini qoplashning chegaraviy me'yori bozordagi talabni ifoda etadi.

Xalqaro savdo quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

- *Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i har bir mamlakatda turlicha, bu ularda o'zaro savdoga kirishishga ishtiyok tug'diradi;*
- *Agar ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i mos kelsa, ya'ni ishlab chiqariladigan tovarlar nisbati har ikki mamlakatda bir xil bo'lsa, o'zaro savdo iste'moichilarning didi va istaklaridagi farqqa asoslanadi, bu esa juda yaqin mamlakatlarda ham hech qachon to'liq mos kelmaydi;*
- *Taklif transformatsiyaning chegaraviy me'yori, talab esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori bilan aniqlanadi;*
- *Xalqaro savdo amalga oshadigan muvozanat narxi tovarga bo'lgan jahon nisbiy talabi va jahon nisbiy taklifi bilan aniqlanadi.*

Savdo bo'lmagan savdo muvozanati

Mamlakatlar bir-biri bilan savdo munosabatlariga kirishguncha bo'lgan muvozanat transformatsiyaning chegaraviy me'yori (taklif) va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori (talab) o'rtasidagi o'zaro

ta'sir orqali o'rnatiladi (5.1-a va 5.1-b chizmalar). Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekistonning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i (f) bilan A nuqtada tutashgan, ushbu nuqtada mamlakat ehtiyojlarini qondirish maksimal darajaga etadi – O'zbekiston o'zi ishlab chiqaradigan 1- va 2-tovarlarni maksimal miqdorda iste'mol qiladi. Yaponiyaning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i (f') bilan A' nuqtada tutashgan, ya'ni ushbu A' nuqtada mamlakat ehtiyojlarini qondirish maksimal darajaga etadi – Yaponiya o'zi ishlab chiqaradigan 1- va 2-tovarlarni maksimal miqdorda iste'mol qiladi. Shuni ham qayd etib o'tish kerakki, befarqlik egri chizig'lar o'zaro kesishmasligi, mamlakat resurslar cheklanganligi sharoitida befarqlik egri chizig'ining yanada yuqoriroq darajasiga chiqa olmasligi sababli har bir mamlakat uchun iste'molni maksimal darajada qondirishning bittadan nuqtasi mavjud bo'ladi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'lar va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'larining shaklining har xilligi tufayli 1- va 2-tovarlarning O'zbekistonda va Yaponiyada (A va A') turlicha bo'ladi. 1-tovarning nisbiy muvozanat narxi O'zbekistonda A nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan ifodalan va u 2-tovarning $\frac{1}{4}$ birligiga teng, ya'ni

$$P_A = P_1/P_2 = 1/4 \quad (5.1)$$

Yaponiyada esa ushbu narx A' nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan ifodalangan bo'lib, bu nisbiy narx 2-tovarning 4 birligini tashkil etadi:

$$P_{A'} = P_1/P_2 = 4 \quad (5.2)$$

Shu narsa aniq ravshanki, $P_A/A < P_{A'}/A'$ bo'lgani bois O'zbekiston 1-tovar, Yaponiya esa 2-tovar bo'yicha nisbiy ustunlikka ega. Ishlab chiqarishning maksimal hajmi (V) ga har ikki mamlakatda A va A' nuqtalarda erishiladi, Q_1 va Q_2 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqarish miqdorini ifoda etadi:

$$P_1 \times Q_1 + P_2 \times Q_2 = V \quad (5.3)$$


Savdo sharoitidagi muvozanat

Savdo boshlangandan so'ng 1-tovar bo'yicha nisbiy ustunlikka ega bo'lgan, shuning uchun ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvchi O'zbekiston 2-tovar ishlab chiqarishini qisqartirgan holda 1-tovar ishlab chiqarishini kengaytiradi, binobarin ishlab chiqarish nuqtasi A ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i bo'ylab pastga qarab ko'chadi. Yaponiya esa 2-tovar bo'yicha nisbiy ustunlikka ega, shuning uchun u ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi hamda 1-tovar ishlab chiqarishini qisqartirgan holda 2-tovar ishlab chiqarishini kengaytiradi, o'z navbatida ishlab chiqarish nuqtasi A' ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i bo'ylab yuqoriga qarab ko'chadi (5.2-a va 5.2-b rasmlar).


Bu jarayon har ikki mamlakatdagi nisbiy narxlar tenglashguncha davom etadi. Yangi nisbiy narx $P_A = 1/4$ va $P_{A'} = 4$ orasida joylashadi.

Bizning vaziyatda bu narxni ifoda etuvchi chiziq O'zbekistonda B , Yaponiyada B' nuqtalar orqali o'tadi va $P_B = P_{B'} = 1$ ga teng bo'ladi.

Standart model o'zaro savdo natijasida nisbiy ustunlik nazariyasi o'z nihoyasiga etadi



Standart model o'zaro savdo natijasida nisbiy ustunlik nazariyasi o'z nihoyasiga etadi



Mana shu holatda nisbiy ustunlik nazariyasi o'z nihoyasiga etadi. Standart model ortib boruvchi o'rnini qoplash xarajatlari hisobga olgan holda bu nazariyani boshqacharoq talqin etadi.

Shundan keyin talab tahlil qilinadi. Ma'lumki, muvozanatlashgan iqtisodiyotda tovarlar iste'moli ishlab chiqarish hajmiga mos kelishi kerak, ya'ni ular grafik orqali ifodalanganda o'zaro kesishishi kerak. Agar D_1 va D_2 1- va 2-tovarlar iste'moli bo'lsa, quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$P_1 \times D_1 + P_2 \times D_2 = P_1 \times Q_1 + P_2 \times Q_2 = V \quad (5.1)$$

O'zbekiston 1-tovarni ko'proq ishlab chiqaradi va uning 60 tasini Yaponiyaga eksport qiladi (BC vektor) hamda dan 60 ta 2-tovarni sotib oladi (CE vektor). Yaponiya esa 2-tovarni ko'proq ishlab chiqaradi va uning 60 tasini O'zbekistonga eksport qiladi (B^*C^* vektor) hamda O'zbekistondan 60 ta 1-tovarni sotib oladi (C^*E^* vektor). Natijada talabni ifoda etuvchi o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i O'zbekistonda (II) darajaga ko'chadi va nisbiy muvozanat narxini ifodalovchi tog'ri chiziqqa E nuqtada urinib o'tadi, bu nuqtada mamlakat har ikki tovardan avvaligiga nisbatan 20 tadan ko'proq iste'mol qila oladi. II egri chizig'i I egri chiziqqa nisbatan yuqoriroqda joylashgani bois O'zbekistonda har ikki tovar iste'moli ko'paydi. Xuddi shunga o'zshash, o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i Yaponiyada (II^*) darajaga ko'chadi va nisbiy muvozanat narxini ifodalovchi tog'ri chiziqqa E^* nuqtada urinib o'tadi, bu nuqtada mamlakatda har ikki tovar iste'moli avvaligiga nisbatan 20 taga ko'payadi. (II^*) egri chizig'i (I^*) egri chiziqqa nisbatan yuqoriroqda joylashgani bois bu mamlakatda ham har ikki tovar iste'moli ortdi.

O'zaro savdo natijasida, nisbiy ustunlik modelidan farqli ravishda O'zbekiston va Yaponiya mos ravishda 1- va 2-tovarlarni

ishlab chiqarishga to'liq ixtisoslashmaydi. Bu o'rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi natijasidir. O'zbekiston qandaydir miqdorda 2-tovarni, Yaponiya esa qandaydir miqdorda 1-tovarni ishlab chiqarishni davom ettiradi, chunki o'zaro ayirboshlash narxiga mamlakatlarga to'liq ixtisoslashgunga qadar erishiladi.

O'zaro savdoda muvozanat narxiga erishilgandan so'ng ixtisoslashni davom ettirish o'zining iqtisodiy mohiyatini yo'qotadi, chunki o'rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi tufayli bundan keyingi ixtisoslashuv orqali ishlab chiqarilgan tovarlar ularni xorijdan sotib olishga nisbatan qimmatroqqa tushadi. 5.2-a va 5.2-b rasmlardan ko'rinib turibdiki, muvozanat narxga $P_B = P_B^* = 1$ nuqtada erishilgan, ya'ni ishlab chiqarish nuqtasi to'liq ixtisoslashuv tomon harakatlangan bo'lsa-da har ikki mamlakat uchun mos ravishda gorizontaal va vertikal o'qlarga etib bormagan.

Savdodan keladigan yutuq

O'zbekiston va Yaponiyaning 1- va 2-tovarlarga bilab o'zaro savdosida muvozanat narxi sinovlar va xatolar usuli bilan aniqlandi. Agar O'zbekistonda Yaponiya tomonidan eksport qilinadigan 2-tovarga talab qanchalik ko'p va Yaponiyada O'zbekiston eksport qiladigan 1-tovarga talab qanchalik kam bo'lsa, savdo amalga oshadigan muvozanat narxi O'zbekistondagi nisbiy narxga shunchalik yaqin bo'ladi. Ayirboshlash narxi savdodan avvalgi narxga qanchalik yaqin bo'lsa, ushbu mamlakatning savdodan oladigan foydasi shunchalik kam bo'ladi. Biz ko'rib o'tgan modelda O'zbekiston va Yaponiyaning savdodan keladigan yutug'i bir xil bo'ldi. Biroq

tovarlarga talab har ikki mamlakatda har xil bo'lishi mumkinligini e'tiborga olsak, ushbu yutuq ham bir xil taqsimlanmasligining guvohi bo'lamiz. Agar nisbiy narxlar savdodan oldin har ikki mamlakatda bir xil bo'lgan bo'lsa, hech qanday savdo ham, o'z navbatida savdodan keladigan yutuq ham bo'lmaydi. Mamlakatlarga o'zaro savdo natijasida biror nafga ega bo'lsalargina bu savdo ma'noga ega bo'ladi. O'z tarkibiga ko'ra, bu naf yoki yutuq ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin: ayirboshlashdan keladigan yutuq hamda ixtisoslashuvdan keladigan yutuq.


@ *Ayirboshlashdan keladigan yutuq* (gains from exchange) — mamlakatning boshqa mamlakatlarga bilan savdo aloqalariga kirishishi tufayli ega bo'ladigan ustunligi.

Oldingi misolni qarab chiqishni davom ettirgan holda, faraz qilaylik, O'zbekiston savdo boshlandan keyin ham 1-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishni xohlamadi yoki qandaydir sabablarga ko'ra ixtisoslasha olmayapti va savdo boshlanmasdan oldin qancha bo'lsa, shuncha miqdorda ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida bu A nuqtada joylashgan (5.3-rasm).

Biroq jahon nisbiy narxi O'zbekistondagidek $\frac{1}{4}$ ga emas, balki 1 ga teng, binobarin O'zbekiston uchun ixtisoslashmagan taqdirda ham narxlardagi farq tufayli savdo qilish imkoniyati mavjud. Shuning uchun u 1-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashmay turib ham jahon narxida 20 ta 1-tovarni sotib 20 ta 2-tovarga ega bo'lishi mumkin. Natijada iste'mol ortadi, chunki iste'molning yangi T nuqtasi A nuqtadan yuqoriroqqa ko'chgani kabi o'rnini qoplashning

chegaraviy me'yori egri chizig'i ham yuqoriroqqa ko'tariladi. Hech qanday ixtisoslashuv bo'lmagani bois, iste'molning A nuqtasining T nuqtaga ko'chishi O'zbekistonning Yaponiya bilan savdoga kirishishi natijasida, ya'ni ayirboshlash orqaligina yutuqqa ega bo'lganini ko'rsatadi.

5.11-rasm. Savdodan va ixtisoslashuvdan keladigan yutuq



⊕ *Ixtisoslashuvdan keladigan yutuq* (gains from specialization) — mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan o'zaro savdosi sharoitida o'zining barcha sa'y-harakatlarini o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga qaratishi orqali ega bo'ladigan ustunligi.

Faraz qilishda davov etamiz, O'zbekiston yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, 1-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashdi. Binobarin ishlab chiqarishni ifoda etuvchi A nuqta ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i bo'ylab B nuqtaga ko'chdi. Bu nuqtada ilgari ko'rib

o'tganimizdek, O'zbekiston 60 ta 1-tovarni 60 ta 2-tovarga ayirboshlashi mumkin. Buning natijasida iste'mol o'rnini qoplashning chegaraviy me'yorini ifoda etuvchi yangi egri chiziqda (III) joylashgan E nuqtaga ko'chadi. B nuqtadan E nuqta tomon harakat mamlakatning ixtisoslashishdan oladigan yutug'ini ifoda etadi.

Kichik va katta mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo

Xalqaro savdoning standart modeli ko'p sondagi xususiy holatlarda ham kuzatilishi mumkin. Shunday xususiy holatlarning biri oldingi mavzularda ko'rib chiqilgan o'rnini qoplash xarajatlari doimiy bo'lishi sharti qo'yilgan nisbiy ustunlik nazariyasidir. Bu standart modeldan kelib chiquvchi o'rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi holatining xususiy holidir. Standart modelda savdo olib boruvchi har ikki mamlakatdagi ichki nisbiy narx xalqaro muvozanat narxining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazishini nazarda tutadi. Biroq xususiy holatda bir mamlakat ikkinchisidan etarli darajada kichik bo'lganda kichik mamlakatdagi nisbiy ichki narxni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Agar savdo kichik va katta mamlakat o'rtasida rivojlanayotgan bo'lsa, nisbiy ustunlik nazariyasiga muvofiq ravishda o'rnini qoplash xarajatlari doimiy bo'lgan holatda faqatgina kichik mamlakat o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarga to'liq ixtisoslashadi. Biroq to'liq ixtisoslashgan taqdirda ham kichik mamlakat katta mamlakatning ushbu tovarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun katta mamlakat o'zi nisbiy

ustunlikka ega bo'lgan tovar bilan birgalikda kichik mamlakat nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ham qandaydir miqdorda ishlab chiqarishni davom ettiradi.

O'rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi holatida kichik mamlakatda ham to'liq ixtisoslashuv yuz bermaydi. Buni 6.2-a rasm yordamida tushuntirishimiz mumkin. Faraz qilaylik, O'zbekiston kichik, Yaponiya esa katta mamlakat. Bu eng avvalo, O'zbekistondagi ichki narx Yaponiyadagi ichki narxga ta'sir o'tkaza olmasligini bildiradi. O'zbekistonning ta'sirisiz o'rnatilgan jahon nisbiy narxi, avvalgidek, $P_w=1$ ga teng bo'lsin. O'zbekiston 1-tovarga ixtisoslasha boshlaydi, bu mamlakatdagi ichki narx jahon narxidan kichik va $P=1/4$ ga teng. Ishlab chiqarish A nuqtadan B nuqtaga ko'chadi va hali to'liq ixtisoslashuv bo'lib ulgurmasdanoq, ichki nisbiy narx jahon narxi bilan tenglashadi. Yaponiyaga 60 ta 1-tovarni eksport hamda u yerdan 60 ta 2-tovarni import qilgan holda O'zbekiston yanada yuqoriroqda joylashgan o'rnini qoplashning chegaraviy egri chizig'iga o'tadi va E nuqtada har ikki tovarni avvalgiga nisbatan ko'proq iste'mol qila boshlaydi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston kichik mamlakat deb hisoblanmagan standart modeldagi bilan bir xil holat yuzaga kelyapti. Asosiy farq shundaki, kichik mamlakatning ichki nisbiy narxi jahon nisbiy narxiga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, bu narx katta mamlakatdagi talab va taklif ta'siri ostida shakllanadi. Ushbu vaziyatda kichik mamlakat o'zaro savdodan keladigan yutuqni savdo hamkori bilan bo'lmagan holda bu yutuqning barchasiga ega bo'ladi.

Bir tovarni ikki xil yo'ldan ustun
chiqarish asoslanishi


Savdo qilayotgan mamlakatlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari to'liq mos keladigan holat standart modelning xususiy holi bo'lib, bu vaziyatda bu mamlakatlar o'rtasidagi savdo faqatgina iste'molchilarning xohish-istaklari natijasida rivojlanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan modelda har ikki mamlakatning u yoki bu tovarni ishlab chiqarishdagi nisbiy ustunligini ifodalovchi asosiy dastlabki shart sifatida ishlab chiqarish imkoniyatlaridagi va iste'mol darajasidagi farq olingan edi. Biroq shunday holatga duch kelishimiz mumkinki, bu holatda ikki mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari aynan bir xil bo'ladi va grafikda bitta chiziq bilan ifodalanadi. Bu har ikki mamlakatda qo'shimcha bitta 1-tovarni ishlab chiqarish uchun bir xil miqdorda 2-tovardan voz kechish kerak ekanligini anglatadi, binobarin hech qaysi mamlakat har ikki tovar bo'yicha ham nisbiy ustunlikka ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatda ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo amalga oshadimi?

Bu savolga beriladigan javob to'liq talab tahliliga asoslanadi. Tovarlar taklifi har ikki mamlakatda bir xil bo'lgan taqdirda ham, buning bo'lishi juda kam ehtimolli, albatta, did va istaklar orqali ifodalangan talab farq qiladi. Grafikda bu holat quyidagicha ifodalanadi (5.4-rasm). Har ikki mamlakatda ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i ustma-ust tushadi, iste'molchilarning xohishlari har xil bo'lgani bois o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i esa har xil bo'ladi (I va I^*). O'zbekistonda ehtiyojni maksimal qondirish

nuqtasi A Yaponiyadagi A^* nuqtadan yuqori joylashgani bois O'zbekiston birinchi, Yaponiya esa ikkinchi tovarni ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega.

1. Savdo sharoitidagi muvozanat nuqtasini aniqlash



Bazaviy modeldagi kabi savdo boshlangandan keyin, O'zbekistonda A nuqta B nuqta tomon yuqoridan pastga qarab, Yaponiyada esa B^* nuqta tomon A^* nuqta pastdan yuqoriga strelka bo'ylab harakat qiladi. Ular ustma-ust tushganda ($B = B^* = 1$) nisbiy muvozanat narxiga ega bo'lamiz. Bu narxda O'zbekiston Yaponiyaga 60 ta birinchi tovarni 60 ta ikkinchi tovar evaziga sotadi (BC va CE vektorlar). Yaponiya esa O'zbekistonga 60 ta ikkinchi tovarni eksport qilib, O'zbekistondan 60 ta birinchi tovarni import qiladi (B^*C^* va C^*E^* vektorlar). Buning natijasida O'zbekistonda iste'mol darajasi E yangi o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i II ga, Yaponiyadagi iste'mol

darajasi E^* esa yangi II^* egri chizig'iga ko'chadi. Natijada O'zbekiston ham, Yaponiya ham 1 va 2 tovarlar iste'molini 20 birlikka oshiradi.

Shunday qilib, xalqaro savdoning zamonaviy nazariyasi tovarlar taklifi va tovarlarga talabga bir xil e'tibor qaratadi. Taklif transformatsiyaning chegaraviy me'yori bilan, talab esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori tavsiflanadi. Mamlakatlar savdoga kirishmasdan oldingi muvozanat har ikki mamlakatning ichki bozorida transformatsiyaning chegaraviy me'yori va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yoringa o'zaro ta'siri orqali o'rnatiladi. Savdo sharoitidagi muvozanat esa tovarning ichki va tashqi bozordagi narxini solishtirishga va uni muvozanat narxi tomon harakatlanishiga asoslangan. Har bir mamlakat o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishni kengaytiradi va boshqa mamlakat nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarga ayirboshlaydi. Real hayotda o'rnini qoplash xarajatlari doimiy emasligi bois, savdo natijasida har ikki mamlakatning o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarga to'liq ixtisoslashuvi yuz bermaydi. Savdo natijasida har bir mamlakat boshqa mamlakat bilan savdoga kirishishi tufayil yutuqqa (ayirboshlashdan keladigan yutuq) va savdo sharoitida barcha e'tiborni o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga qaratganidan keladigan yutuqqa (ixtisoslashuvdan keladigan yutuqqa) ega bo'ladi. Kichik va katta mamlakat o'rtasidagi savdo vaziyatida farq shundan iboratki, kichik mamlakatdagi nisbiy narx nisbiy jahon narxiga ta'sir o'tkaza olmaydi, bu narx katta mamlakatdagi talab va taklif

Beshinchi bob. Xalqaro savdoning standart modeli

asosida o'rnatiladi, bunday vaziyatda kichik mamlakat savdodan keladigan barcha yutuqqa ega bo'ladi, binobarin bu yutuqni savdo hamkori bilan bo'lishmaydi. Hamkor mamlakatlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari

egri chizig'i bir xil bo'lgan xususiy holda esa savdo iste'molchilarning xohish-istaklaridagi farqqa asoslanadi va o'zaro savdodan har ikki mamlakat naf ko'radi.

VI bob. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari



6.1. O'zaro talab va taklifning o'zaro bog'liqligi

J. Mill tomonidan qisqacha to'xtab o'tib ketilgan umumiy muvozanat modeli ingliz iqtisodchisi neoklassik iqtisod maktabi vakili Alfred Marshall va marjinalistlar vakili Frensis Edjuort tomonidan XX asr bo'sag'sida o'zaro talab nazariyasi negizida yaratilgan. O'sha paytdan boshlab bu model xalqaro iqtisodiyot nazariyasiga qo'llangan holda rivojlanib bordi va hozirgi paytda xalqaro savdoni tushuntiruvchi asosiy nazariya hisoblanadi. Uning rivojiga capital harakati va jahon savdosi borasidagi tadqiqotlari uchun Bertil Olin bilan 1977 yilda Nobel mukofotini bo'lishib olgan Jeyms Mid eng katta hissa qo'shgan.

Ⓢ O'zaro talab (reciprocal demand) — talab va taklifni sintez qiluvchi hamda turli



miqdordagi tovarlarni eksport qilishga xohish uyg'onishi uchun mamlakat qancha miqdorda boshqa bir tovarlarni import qilishi kerakligini ifodalovchi ko'rsatkich.

O'zaro talab egri chizig'illari (offer curves) savdo natijasida vujudga keladigan eksport va import tovarlari juftliklari o'rtasidagi nisbatni, boshqacharoq aytganda mamlakatning turli nisbiy narxlarda qancha miqdorda tovarlar eksport yoki import qilishga xohishi borligini ko'rsatadi. O'zaro talab egri chizig'ini grafik ko'rinishda ifodalash uchun 6.1-rasmni ko'rib chiqamiz. Chap ustundagi grafiklar xalqaro savdoning standart modeli orqali bizga yaxshi tanish. O'ng tomondagi grafiklarda esa eksport va import ortasidagi o'zaro bog'liqlik o'z ifodasini topgan.



Oltinchi bob. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

1. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi



Xalqaro savdo hajmi yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ichki ishlab chiqarish va iste'mol orasidagi farqdan iborat. Agar ishlab chiqarish iste'moldan ko'proq bo'lsa, mamlakat tovar eksport qiladi, aksincha bo'lsa import qiladi. Binobarin, Q_1 va Q_2 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqarish (taklif), D_1 va D_2 — ushbu tovarlar iste'moli (talab) hajmi bo'lsa:

$(Q_1 - D_1)$ — 1-tovar eksporti, $(D_2 - Q_2)$ — 2-tovar importini bildiradi.

Xalqaro savdo nazariyasida nisbiy narx tushunchasidan foydalanilganligi bois, umumiy muvozanat sharoitida 2-tovar importi 1-tovar eksportining uning nisbiy narxiga ko'paytirilganiga teng, ya'ni:

$$(Q_1 - D_1) \cdot (P_1/P_2) = (D_2 - Q_2)$$

Standart modeldagi kabi O'zbekiston savdo bo'lmagan sharoitda A nuqta darajasida ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi, savdo boshlangandan so'ng esa uning iste'moli E

nuqtaga ko'chadi. Iste'mol darajasi E nuqtaga o'tishi uchun O'zbekiston 1-tovardan 60 birligini Yaponiyaga sotishi va o'z navbatidan Yaponiyadan 60 birlik 2-tovarni sotib olishi kerak, nisbiy narx $(P_1/P_2) = 1$ ga teng. Agar O'zbekistonning eksport va importi orasidagi bog'liqlikni alohida grafikka ko'chirsak, o'ng tomondagi grafikda E nuqtaga ega bo'lamiz. Bu nuqta mamlakat o'zi xohlagan 2-tovar impotining miqdorini (60 ta) ta'minlash uchun 1-tovardan qanchasini (60 ta) eksport qilishga tayyorligini ko'rsatadi. Ushbu E nuqta o'zaro talab nuqtasi bo'lib, (P_1/P_2) narxda O'zbekiston $(D_2 - Q_2)$ miqdordagi 2-tovar importi uchun $(Q_1 - D_1)$ ta 1-tovar eksportini taklif qilayotganini anglatadi.

Agar nisbiy narx boshqacharoq bo'lsa, eksport va import hajmi ham o'zgaradi. Ushbu holatda nisbiy narx $\frac{1}{2}$ gacha pasaysa, O'zbekiston 1-tovarning 40 tasini eksport qilgan holda faqatgina 20 ta 2-tovarni import

qilishi mumkin va isre'mol nuqtasi H nuqtada joylashadi. Nisbiy narx $\frac{1}{4}$ ga teng bo'lganda esa eksport ham import ham bo'lmaydi. Shu yo'l bilan turli nisbiy narxlar uchun bir necha o'zaro talab nuqtalarini topish orqali O'zbekiston uchun o'zaro talab egri chizig'ini chizish mumkin.

Xuddi shu usul bilan Yaponiya uchun ham o'zaro talab egri chizig'ini chizish mumkin. Farqi shundaki, Yaponiyaning 1-tovar importiga bo'lgan ehtiyojini ($D_1'-Q_1$) gorizontal oqqa, 2-tovarni eksport qilish istagini ($Q_2' - D_2$) esa vertikal oqqa joylashtiramiz. Avvalgidek, iste'mol darajasi E' nuqtaga o'tishi uchun Yaponiya 2-tovardan 60 birligini O'zbekiston ga sotishi va o'z navbatidan O'zbekistondan 60 birlik 1-tovarni sotib olishi kerak, nisbiy narx $P_2/P_1 = 1$ ga teng. Natijada o'ng tomondagi grafikda Yaponiya o'zi xohlagan 1-tovar impotining miqdorini (60 ta) ta'minlash uchun 2-tovardan qanchasini (60 ta) eksport qilishga tayyorligini ko'rsatuvchi E' ga ega bo'lamiz. Ushbu E' nuqta o'zaro talab nuqtasi bo'lib, (P_1/P_2) narxda Yaponiya ($D_1'-Q_1$) miqdordagi 1-tovar importi uchun O'zbekistonga ($Q_2'-D_2$) ta 2-tovar eksportini taklif qilayotganini anglatadi.

Nisbiy narx 2 gacha ortsa, O'zbekistondan 1-tovarning 20 tasini import qilish uchun 40 ta 2-tovarni eksport qilishi mumkin va isre'mol nuqtasi H' nuqtada joylashadi. Nisbiy narx 4 ga teng bo'lganda esa eksport ham import ham bo'lmaydi. Shu yo'l bilan turli nisbiy narxlar uchun bir necha o'zaro talab nuqtalarini topish orqali Yaponiya uchun o'zaro talab egri chizig'ini chizish mumkin.

O'zbekiston uchun o'zaro talab gorizontal oqqa nisbatan qavariq. Bu O'zbekiston 1-tovar

ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega ekanligini anglatadi. Yaponiya uchun o'zaro talab gorizontal oqqa nisbatan qavariq, bu esa o'z navbatida Yaponiyaning 2-tovarni ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega ekanligini bildiradi. O'zbekiston 1-tovarni ko'proq eksport qilishi uchun uning nisbiy narxi ortib borishi kerak. Yaponiya 2-tovarni ko'proq eksport qilishi uchun 2-tovarning nisbiy narxi ortib borishi kerak.

Xalqaro savdoning muvozanati

Umumiy muvozanat ta'minlanishi uchun O'zbekistonning 1-tovar eksporti Yaponiyaning ushbu tovar importiga va Yaponiyaning 2-tovar eksporti O'zbekistonning 2-tovar importiga teng bo'lishi zarur, ya'ni


$$D_1 - Q_1 = Q_2 - D_2 \quad (6.1)$$

$$D_2 - Q_2 = Q_1 - D_1 \quad (6.2)$$

Bir grafikda ifoda etilgan O'zbekiston va Yaponiyaning o'zaro talab egri chiziqdari xalqaro savdoning asosiy parametrlarini belgilaydi (6.1-c rasm). OE chiziqning egilish burchagi savdo amalga oshadigan nisbiy narxni ifodalaydi. OG oraliq O'zbekiston tomonidan eksport, Yaponiya tomonidan import qilingan 1-tovarning aniq miqdorini, OG' esa Yaponiya tomonidan eksport, O'zbekiston tomonidan import qilingan 2-tovarning aniq miqdorini bildiradi. $E=E'$ nuqta berilgan 1-tovar miqdori berilgan 2-tovar miqdoriga ayirboshlanadigan aniq nisbiy narxni ifodalaydi. Natijada xalqaro miqyosda muvozanat vujudga keladi.

Oltinchi bob. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

5.2-rasm. Umumiy/xalqaro muvozanat nazariyasi



⊗ *Umumiy/xalqaro muvozanat*

(general/international equilibrium) — ichki va xalqaro savdoda (ichki va xalqaro bozorda) tovarga talab va tovar taklifining bir paytda muvozanatga kelishi.

O'zbekiston va Yaponiya eksport yoki import qilmoqchi bo'lgan 1- va 2-tovarlar miqdori har qanday boshqa nisbiy narxda ($P=4$, $P=2$, $P=1/2$ yoki $P=1/4$) bir xil bo'lmaydi. Talab taklifdan oshib ketadi yoki aksincha taklif talabdan oshib ketadi. Bu esa mamlakatlarni o'zaro ehtiyojni inobatga olishga va muvozanat narxiga intilishga majbur etadi. Bizning misolimizda 1 ga teng bo'lgan nisbiy narxda O'zbekiston 60 birlik 1-tovarni eksport qilganda va Yaponiya shuncha miqdordagi tovarni import qilgandagina bozorda muvozanat o'rnatiladi. $1/2$ ga teng nisbiy narxda O'zbekiston 1-tovarni faqatgina 40 birlik miqdorda taklif qilishi mumkin, bu esa shu narxda Yaponiya sotib olishni xohlagan miqdordan anchsgina kamdir. Taklifning yetarli emasligi va talabning ortiqchaligi nisbiy

narxning 1 ga teng bo'lgan muvozanat nisbiy narxigacha ko'tarilishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, umumiy muvozanat modeli orqali topilgan savdo parametrlari yo'damida topilgan parametrlarga to'liq mos keladi (5.2-rasm).

Shunday qilib, xalqaro savdoning standart modeli xalqaro savdoda umumiy muvozanat modeli hisoblanadi va mamlakat ichida tovarga bo'lgan talab va tovar taklifini shu tovarga bo'lgan xorijiy talab va taklifni o'zaro bog'laydi. Bu model turli miqdordagi tovarlarni eksport qilishga xohish uyg'onishi uchun mamlakat qancha miqdorda boshqa bir tovarlarni import qilishi kerakligini ifodalovchi o'zaro talab tushunchasiga asoslangan. Ushbu model xalqaro savdoning barcha asosiy parametrlarini va u bilan bog'liq bo'lgan milliy iqtisodiyotning parametrlarini o'rganish imkonini beradi. U savdo bo'lmagan sharoitda ishlab chiqarish sharti (taklif) va chilarning ustun ehtiyojlari (talab), shuningdek, ishlab chiqarish va iste'mol hajmi, tovarlarning nisbiy narxlari hamda har bir mamlakatning nisbiy ustunligini ko'rsatadi. Savdo sharoitida ushbu model mamlakatning har bir tovar ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvi darajasi, savdo hajmi, savdo sharti, savdodan keladigan yutuq, va bu yutuqning mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishini ko'rsatadi. Umumiy/xalqaro muvozanatga ichki va xalqaro savdoda (ichki va xalqaro bozorda) tovarga talab va tovar taklifining bir paytda muvozanatga kelganda erishiladi

Qiymat orqali baholash tamoyillari

Umumiy muvozanatga asoslangan xalqaro savdning standart modeli xalqaro savdning barcha parametrlarini tushuntirib berar ekan, nazariyadan amaliyotga o'tish, zamonaviy xalqaro savdning hajmi, tarkibi va yo'nalishlarini ko'rib chiqish, ularni raqamlarda tahlil qilish vaqti keldi. Agar biz bu parametrlarni miqdoran belgilasak, hozircha moliyaviy bozorlarni qarab chiqmasak, xalqaro savdo hali ham xalqaro iqtisodiyotning yetakchi ko'rinishi bo'lib qolayotganligining guvohi bo'lamiz.

Jahon savdosi haqidagi eng to'liq statistik ma'lumotlarni quyidagi davriy nashrlardan topishimiz mumkin: VTO, International Trade, Trends and Statistics; UN, Monthly Bulletin of Statistics; UN, International Trade Statistics Yearbook; IMF, Direction of Trade Statistics Yearbook; IMF, International Financial Statistics; World Bank, World Tables; OECD, Main Economic Indicators.

Xalqaro savdning nominal qiymat hajmi odatda joriy baholarda AQSH dollarida ifodalanadi, shuning uchun dollarning boshqa valyutalarga nisbatan ayirboshlash kursi dinamikasiga keskin bog'liq bo'ladi. Xalqaro savdning nominal hajmi tanlangan deflyator yordamida doimiy baholarga o'tkazilsa, u xalqaro savdning real hajmini bildiradi. Umuman olganda xalqaro savdning nominal qiymat hajmi umumiy o'sish tendensiyasiga ega.

Eksport va import har bir mamlakat tomonidan natural va qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichlari odatda milliy valyutada hisoblanadi va xalqaro

miqyosda solishtirish uchun AQSH dollariga o'tkaziladi. Ba'zi bir mamlakatlar, ayniqsa inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar eksport va importni to'g'ridan to'g'ri AQSH dollarida hisoblashadi.

Xalqaro miqyosda solishtirish maqsadida eksport tovar chegarani kesib o'tayotgan paytdagi jahon bahosida FOB – borda erkin (FOB — free on board) bazasida, import esa SIF – qiymat, sug'urta, fraxt (CIF — cost, insurance, freight) bazasida hisoblanadi. Xalqaro savdoda tovarlar asosan dengiz transportida tashilgani bois, eksport va import narxini hisoblashda dengiz transportida tashish asos sifatida olinadi. FOB va SIF o'rtasidagi farq «Incoterms»da keltirilgan umum qabul qilgan xalqaro tijoriy atamalarni talqin qilish qoidalariga asosan 6.2-jadvalda keltirilgan.

6.2-jadval. Eksport va importning qiymat bazasi.

	Baza	Tovar narxiga qo'shilgan xarajatlar
Eksport	FOB	<ul style="list-style-type: none"> • portga yetkazib berish • kemaga yuklash
import	SIF	<ul style="list-style-type: none"> • portga yetkazib berish • kemaga yuklash • sug'urtani xarid qilish • fraxtni to'lash va boshqa yig'irlar

Hisoblash bazasidagi farqlar tufayli jami jahon eksportining qiymati jahon importi qiymatidan hamisha kam bo'ladi. Bu farq tashqi savdoda ishtirok etuvchi tovar uchun to'lanadigan sug'urta to'lovi, bu tovarni tashish

Oltinchi bob. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari

uchun kemani fraxt qilish va boshqa port yig'implari summasiga tengdir.

Yanada keng ma'noda eksport va importga nafaqat tovarlarning xalqaro miqyosda ko'chishi, balki xalqaro miqyosda harakatchan bo'lgan ishlab chiqarish omillari (kapital, ishchi kuchi) ham kiradi. Masalan, O'zbekistondagi korxonalar uchun Buyuk Britaniyaga tegishli firmadan asbob-uskunalarni keltirish ham tovarlar importi, ham kapital importi sanalishi mumkin. O'zbek mutaxassislarining Qirg'izistondagi metallurgiya kombinati ekspluatatsiyasida ishtiroki tovar eksporti (texnik xizmat ko'rsatish) yoki

mehnat eksporti (ishchi kuchi) hisoblanishi mumkin.

Rivojlanishning asosiy tendensiyalari

Ko'plab yillar davomida xalqaro savdo makroiqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan sektori bo'lib qolmoqda. Quyidagi jadvalda jahon yalpi ichki mahsuloti va jahon eksportining o'sish sur'ati haqida ma'lumotlar berilgan (6.3-jadval). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, jahon eksporti hajmining o'sish sur'ati jahon ishlab chiqarishining o'sish sur'atidan yuqori bo'lib kelmoqda.

6.3-jadval. Jahon ishlab chiqarishi va jahon eksportining o'sish sur'atlari (% da).

	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Jahon YalM	-	-3.0	4.1	2.8	2.3	2.3	2.5	2.4
Jahon eksporti	2.0	-9.5	12.0	16.4	3	3.2	3.6	2.7

Manba: www.wto.org

6.4-jadval. Alohida mamlakatlar guruhi tashqi savdosining o'sish sur'atlari (% da).

	1990	1995	2000	2005	2010	2015
Jahon eksporti - 100						
Rivojlangan mamlakatlar	72	70	66	60	54	51
Rivojlanayotgan mamlakatlar	24	28	32	36	43	45.4
O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari	3	2	2	4	3	3.6

Manba: UNCTAD, *Handbook of Statistics*. — 2016

Turli mamlakatlarda tashqi savdoning o'sish sur'ati bir xil emas, albatta. XX asrning 90-yillarida rivojlanayotgan mamlakatlarda

tashqi savdoning o'sish sur'ati rivojlangan mamlakatlar savdosi o'sish sur'atidan asosan yuqori bo'lib kelmoqda, binobarin jahon

eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi yildan yilga ortib bormoqda (6.4-jadval).

Xalqaro savdoning rivojlanish sur'atlari jahon miqyosida mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining chuqurlashuvini ifoda etadi.

Shunday qilib, xalqaro savdoning standart modelidan kelib chiqqan holda, xalqaro savdoning asosiy parametrlarini miqdor jihatdan aniqlash mumkin. Xalqaro savdo uning nominal qiymatiga qarab baholaydigan bo'lsak, hali ham xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi ko'rinishi bo'lib qolayotganligining guvohi bo'lamiz. Xalqaro savdoning o'sish sur'atlari jahon sanoat ishlab chiqarishi o'sish sur'atidan doimiy ravishda oldinda bormoqda, rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro savdosining o'rtacha o'sish sur'ati rivojlangan mamlakatlarnikidan yuqori bo'lib

kelmoqda. Xalqaro savdoning nominal qiymat hajmi odatda joriy baholarda AQSH dollarida ifodalanadi. Eksport va import har bir mamlakat tomonidan natural va qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichlari odatda milliy valyutada hisoblanadi va xalqaro miqyosda solishtirish uchun AQSH dollariga o'tkaziladi. Xalqaro savdo tarkibi odatda jug'rofiy taqsimlanishi (jug'rofiy tarkibi) va tovar bilan to'ldirilishi (tovar tarkibi) nuqtai nazaridan qarab chiqiladi. Xalqaro savdoning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'tgan asrning oxirgi o'n yilligi va XXI asrning boshlariga kelib rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar hisobiga ularning ulushi birmuncha qisqarib bormoqda.

VII bob. Xalqaro savdoni tahlil qilish vositalari


Savdo shartlari

Nisbiy narxlarning o'zgarishiga asoslangan o'zaro bog'liqlik savdo shartlari tushunchasi orqali ifodalanadi.

Savdo shartlari (terms of trade) — ma'lum bir tovarning eksport va import narxlarining, mamlakat bo'yicha yoki mamlakatlar guruhi bo'yicha eksport va import narxlarini indekslarining nisbatidir.

Agar bizni ma'lum bir tovar qiziqтира, narxlar nisbati faqat shu tovarning eksport va import narxlarini nisbati orqali ifodalanishi mumkin, barcha tovarlar bo'yicha tashqi savdo o'rganilayotgan bo'lsa, u holda narxlar nisbati barcha tovarlar bo'yicha ifodalanadi.

7.1-rasm. Savdo sharti.



Agar P_x — eksport narxlarini indeksi, P_m — import narxlarini indeksi, Q_x — eksportning miqdoriy hajmi, Q_m — importning miqdoriy hajmi, RS — eksport qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi va RD — import qilinayotgan

tovarlarga nisbiy talab bo'lsa, savdo shartlari grafikda quyidagicha aks ettiriladi. (7.1-rasm).

Eksport qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig'ining joylashuvi eksport tovarlari jami nisbiy narxi oshganda eksportning nisbiy miqdoriy hajmi importning nisbiy miqdoriy hajmiga nisbatan ortib ketishidan dalolat beradi. Import qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig'ining joylashuvi esa teskari bog'liqlikni ko'rsatadi: importning nisbiy narxi ko'tarilganda, import qilinayotgan tovarlarga nisbiy talab kamayadi. Import qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig'i va eksport qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig'ining kesishishi natijasida A nuqtada vujudga keluvchi nisbiy narx (P_x/P_m) bu tovarlarning Q_x/Q_m nisbiy miqdorida savdo shartlarini ifodalaydi.

Savdo shartlari har bir mamlakatning eksporti va importi o'zaro taklifi va o'zaro talabi nisbatini ifodalaydi. Ular har bir mamlakatning eksport va import narxlarini indeksi nisbati bazasida hisoblanadi va mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati, jumladan tashqi savdo siyosati uchun muhim yo'naltiruvchi hisoblanadi. $ToT=100$ eksport va import narxlarining tengligini bildiradi. Savdo shartlari indeksining o'sib borishi ($ToT>100$) mamlakat eksporti jami narxi import jami narxiga nisbatan ortganda har bir eksport qilingan tovar uchun yanada ko'proq import tovarlar sotib olish mumkin bo'lishini ko'rsatadi. Avvalgi dek eksport miqdori hisobiga ko'proq import hajmiga ega bo'lish imkoniyati mamlakat farovonligini oshiradi. Savdo shartlari indeksining kamayib borishi

Jahqinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

($ToT < 100$) mamlakat importi jami narxi eksport jami narxiga nisbatan ortganda har bir eksport qilingan tovar uchun yanada kamroq import tovarlar sotib olish mumkin bo'lishini ko'rsatadi. Avvalgidek export miqdori hisobiga kamroq import hajmiga ega bo'lish oqibatida mamlakat farovonligi pasayadi.

Nisbiy talab va taklifning bu nisbati har qanday alohida olingan tovar uchun ham, butun mamlakat bo'yicha ham to'g'ri bo'ladi. Nisbiy talab va nisbiy taklif egri chizig'idagi har qanday siljishlar yoki iqtisodiy o'sish, yoki mamlakatlar o'rtasida daromadning qayta taqsimlanishi parametrlarining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun savdo shartlarini iqtisodiy ko'rsatkich sifatida quyidagi asosiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- *Tovar yoki sof barter savdo shartlari* (commodity, net barter terms of trade) — ma'lum bir tovarning eksport va import narxlarining yoki barcha tovarlar bo'yicha eksport va import narxlari indekslarining nisbatidir.

$$ToT = P_x / P_{im} \quad (7.1.1)$$

- *Daromadni ifodalovchi savdo shartlari* (income terms of trade) — mamlakatning jami eksportdan kelgan tushum hisobiga qancha tovar import qila olish salohiyatini ko'rsatuvchi indeks. Bu indeks tovar savdo shartlarini eksportning miqdor indeksi (Q_x)ga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Bu indeksning o'sishi eksportdan tushumni ortishi hisobiga import qilish salohiyati ortishini ko'rsatadi.

$$ToT = (P_x / P_{im}) \times Q_x \quad (7.1.2)$$

- *Omillar bilan bog'liq savdo shartlari* (factor terms of trade) — import narxlarini bir

yoki bir necha ishlab chiqarish omillarining samaradorligi bilan bog'lovchi, eksport tarmoqlarida samaradorlikni bir birlikka oshishi hisobiga qancha miqdorda qo'shimcha import qilish mumkinligini ko'rsatuvchi indeks. Bu ko'rsatkich tovar savdo shartlarini eksport tarmoqlaridagi samaradorlik indeksiga (Q_x) yoki ushbu mamlakatda eksport tarmoqlaridagi samaradorlik indeksini import qilinayotgan mamlakat eksport tarmoqlaridagi samaradorlik indeksiga nisbatiga (Q_x / Q_{im}) ko'paytirish orqali hisoblanadi.

$$ToT = (P_x / P_{im}) \times (Q_x / Q_{im}) \quad (7.1.3)$$

Savdo shartlarining turli indekslarining rivojlanish tamoyili mos kelmasligi mumkin. Masalan, agar eksport narxlarining o'sishi qandaydir sabablarga ko'ra eksport jismoniy hajminig keskin qisqarishi hisobiga yuz bergan bo'lsa, tovar savdo shartlari indeksi o'sib boradi, daromadni ifodalovchi savdo shartlari indeksi esa kamayadi.

Eksport va import egiluvchanligi

Standart modeldan kelib chiquvchi savdo sharti tushunchasi xalqaro savdoni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Importga nisbiy talab va eksport nisbiy taklifi egri chiziqlari ham alohida, ham butun iqtisodiyotdagi vaziyat nuqtai nazaridan tahlil qilinishi kerak. Importga nisbiy talab egiluvchanlik tushunchasi bilan xarakterlanadi.

@ *Import egiluvchanligi* (import elasticity) — savdo sartining o'zgarishidan kelib chiquvchi importga talabning o'zgarishi.

$$E_{im} = \Delta IM (\%) / \Delta P (\%) \quad (7.2.1)$$

Odatda import egiluvchanligi (E_{im}) import hajmini foizlarda o'zgarishining uning narxini foizlarda o'zgarishiga nisbati ko'rinishida o'lchanadi: import qilinadigan tovarlar narxi pasayganda import hajmi ortadi, narxlar ortganda esa import hajmi qisqaradi. Egiluvchanlik koeffitsenti hamisha noldan katta bo'ladi. Import tovarlar narxining 1 foizga kamayishi import tovarlarga talabni 1 folzdan ko'proqqa oshishiga olib kelsa import egiluvchanligi 1 dan katta bo'ladi - $E_{im} > 1$. Shuning uchun bu vaziyatda importga talab egiluvchan bo'ladi. Import tovarlar narxining 1 foizga kamayishi import tovarlarga talabni 1 folzdan kamroqqa oshishiga olib kelsa import egiluvchanligi 1 dan kichik bo'ladi - $E_{im} < 1$. Bu vaziyatda esa importga talab noegiluvchan bo'ladi. Biroq shuni ta'kidlab o'tish joizki, import narxining kamayishi savdo shartining yaxshilanganidan dalolat beradi. Bundan shu holat kelib chiqadiki, savdo shartining yaxshilanishi importga talab egiluvchan bo'lganda (import tovarlarga talab oshishi uning narxining kamayishiga nisbatan kop'roq darajada bo'lganligi bois) mamlakatni import xarajatlarni oshirishga, agar importga talab noegiluvchan bo'lsa import xarajatlarni kamaytirishga moyil qiladi. Biroq import imkoniyatlari mamlakatning eksport imkoniyatlari bilan cheklanadi - eksport orqali import tovarlarini xarid qilish uchun pul topiladi. Binobarin, import egiluvchan bo'lganda va uning narxi pasayganda eksport hajmi ortib borishi kerak.

@ *Eksport egiluvchanligi* (export elasticity) — savdo sartining o'zgarishidan kelib chiquvchi eksport taklifining o'zgarishi.

$$E_x = \Delta X (\%) / \Delta P (\%) \quad (7.2.2)$$

Odatda eksport egiluvchanligi (E_x) eksport hajmini foizlarda o'zgarishining uning narxini foizlarda o'zgarishiga nisbati ko'rinishida o'lchanadi: import qilinadigan tovarlar narxi pasayganda eksport hajmi ortadi, narxlar ortganda esa eksport hajmi qisqaradi. Import tovarlar narxi 1 foizga kamaysa (savdo sharti 1 foizga yaxshilanadi), bu holda import egiluvchanligi E_{im} foizga, eksport egiluvchaligi esa E_x foizga ortadi. 1 ga teng egiluvchanlik (import tovarlar narxining 1 foizga kamayishi import tovarlarga talabni 1 foizga oshishiga olib kelishi) eksport tovarlar taklifini ham 1 foizga oshishiga asos bo'ladi.

Bundan esa,

$$E_{im} - 1 = E_x \quad (7.2.3)$$

kelib chiqadi.

Ko'rinib turibdiki, import tovarlarga talab egiluvchanligi va eksportga tovar taklifi egiluvchanligi bir medalning ikki tomoni bo'lib, bir biri bilan chambarchas bog'langan. Yuqori egiluvchanlikning mavjudligi u yoki bu tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilarga narxlar o'zgarishiga tez moslashish imkonini beruvchi rivojlangan bozor mexanizmining mavjudligidan darak beradi. Quyi egiluvchanlik jiddiy iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin.


Daromad va o'rnini goplash samarasi

Savdo shartining har qanday o'zgarishi eksport va import narxlarining qandaydir harakatini bildiradi. Savdo sharti yaxshilansa, savdo olib boruvchi mamlakatning daromadi ortadi va aksincha, savdo sharti yomonlash-

ganda uning daromadi kamayadi. Daromad me'yorining o'zgarishi o'z navbatida talab darajasiga, shu jumladan import tovarlarga talab darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Faraz qilaylik, mamlakatda 1- va 2-tovarlar ishlab chiqarishi E nuqtada joylashgan, mamlakat 2-tovarni I chiziq bilan ko'rsatilgan nisbiy narxda import qiladi. (7.2-rasm). Iste'mol Y_1 befarqlik egri chizig'idagi A nuqtada joylashgan.

7. 2-rasm. O'rnini qoplash va daromad samarasi.



Import qilinayotgan 2-tovarning narxi pasayganda savdo sharti yaxshilanadi, (*III* va *II* chiziq) bu tovarga talab ortadi, ishlab chiqarish oldingidek qoladi, iste'mol esa yanada yuqoriroq Y_2 befarqlik egri chizig'idagi B nuqtaga ko'chadi. A nuqtadan B ga harakatni ikki bo'lakka ajratish mumkin:

AC — *o'rnini qoplash samarasi* (substitution effect), iste'molchilarning mahalliy

tovarlar o'rniga, va aksincha mahalliy tovarlarni import tovarlar o'rniga iste'mol qilishga tayyorligini bildiruvchi holat bo'lib, bunda talab avvalgi befarqlik egri chizig'i bo'ylab yuqoriga harakat qiladi;

CB — *daromad samarasi* (income effect), talab boshqa befarqlik egri chizig'iga o'tadigan holat bo'lib, u real daromadlarning o'sishi har ikki tovarga talabning ko'payishiga qay darajada ta'sir etganligini ko'rsatadi.

Daromad samarasi ham savdo hajmining, ham ushbu savdo amalga oshadigan narxning kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Agar ishlab chiqarish E nuqtada emas, balki G nuqtada joylashib, import tovar miqdori avvalgiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'lsa, u holda 2-tovar narxi pasayganda, savdo sharti chizig'i (*IV*) yanada yuqoriroqdan o'tadi va yangi befarqlik egri chizig'i yanada yuqorida bo'ladi, bu esa daromadning yanada ko'proq ortishini bildiradi.

Agar import narxlari ko'tarilishining importga bo'lgan talabga ta'sirini ko'rib chiqadigan bo'lsak (aynan shu holat XX asrning 70-yillarida rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'proq tashvishga solgan), bu ta'sir uch yo'nalishda bo'lishi mumkin: iste'molda o'rnini qoplash samarasi — narx oshib ketganda iste'molchilar mahalliy tovarlarni ustun ko'rgan holda import tovarlarni kamroq sotib olishadi; daromad samarasi — import narxining oshib ketishi iste'molchilarning real daromadlarini, o'z navbatida import tovarlarga talabini qisqartiradi; ishlab chiqarish samarasi — narx oshishi natijasida import qilish imkoniyatlarining qisqarishi mamlakatda import o'rnini qoplovchi ishlab chiqarishga ishlab chiqarish vositalarini ko'chib o'tishiga olib keladi.

Agar importga talab egiluvchan bo'lsa, import narxlarining, masalan, 10 foizga ko'tarilishi, importga talabni ko'poq foizga, masalan, 15 foizga kamayishiga olib kelishi kerak. Import birligi qiymati yuqoriroq bo'ldi, biroq jami importning qiymati (import birligi narxi bilan uning miqdorini ko'paytmasi) kampoq bo'ldi, chunki import miqdori narx o'sishiga nisbatan ko'proqqa qisqardi. Import eksportdan kelgan tushum hisobiga qoplanganligi bois, importga talab egiluvchan bo'lganda eksport qisqaradi. Agar importga talab egiluvchan bo'lmasa, u holda import narxlarining, masalan, 10 foizga oshishi importga talabning kampoq foizga, masalan 5 foizga kamayishiga olib kelishi kerak. Import birligi qiymati ham, jami import qiymati ham, umuman olganda, sezilarli darajada ko'proq bo'ladi. Buning natijasida import tovarlar xaridini moliyalashtirish uchun mamlakat ko'proq miqdorda tovarlar eksport qilishga majbur bo'ladi.

Shunday qilib, savdoda ishtirok etuvchi har qanday mamlakat uchun eksport va import narxlarining har qanday o'zgarishi real daromadning o'zgarishini anglatadi. Tovar narxi oshganda, bu tovar eksport qilinayotgan bo'lsa, mamlakatning real daromadi oshadi, agar bu tovar import qilinayotgan bo'lsa, aksincha, real daromad kamayadi. Xalqaro savdoning daromadga ta'siri tovar narxi va savdo ko'lamiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi: narxlardagi sakrashlar qanchalik ko'p bo'lsa va savdo hajmi qanchalik katta bo'lsa, uning daromadga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish turlari

Xalqaro savdo va iqtisodiy o'sish orasidagi bog'liqlik hamisha jiddiy munozaralar uchun mavzu bo'lib kelgan: bir tomondan ishlab chiqarishni kuchaytirish eksportga yanada arzonroq tovarlar taklifini kengaytirishga va yangi bozorlarni egallashga olib kelishi mumkin, ammo boshqa tomondan esa, buning natijasida iqtisodiy o'sishning tezlashuvi tufayli mamlakatda yuzaga kelgan ustunliklar yanada arzon eksport narxlar orqali xorijga o'tib ketadi. O'sish, uning xalqaro savdoga ta'siri nuqtai nazaridan neytral, eksportni kengaytirishga qaratilgan va import o'rnini qoplashga qaratilgan bo'lishi mumkin. O'sishning xalqaro savdoga ta'siri qanday ishlab chiqarish omillari - eksportni kengaytirishga qaratilgan omillar yoki import o'rnini qoplashga qaratilgan omillarning o'sishi bilan aniqlanadi.


Faraz qilaylik, O'zbekiston va Yaponiya, avvalgidek, faqat 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqaradi. (7.3-rasm).

Gorizontal o'qqa 1-tovarning nisbiy miqdorini uning o'sishini inobatga olgan holda $(Q_1+Q_1')/(Q_2+Q_2')$, vertikal o'qqa esa nisbiy narx (P_1/P_2) ni joylashtiramiz. Birinchi mamlakatda eksport qilinadigan 1-tovar ishlab chiqarishi keskin ko'payib ketsin, bu holda uning taklifi ortadi va 2-tovarning nisbiy ishlab chiqarishi kamayadi. Nisbiy taklif egri chizig'i RS nuqtadan RS' ga ko'chadi. 1-tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2) dan $(P_1/P_2)'$ gacha tushadi (7.3-a rasm).

Eksport narxlar tushadi, import narxlar esa ortadi. Bu O'zbekiston uchun savdo sharti yomonlashgani, Yaponiya uchun esa savdo sharti yaxshilanganidan dalolat beradi. Qaysi

mamlakatda o'sish boshlangani emas, balki qaysi tovar ishlab chiqarishi ko'payganligi muhim hisoblanadi. 1-tovar ishlab chiqarishi Yaponiyada o'sganda ham bu holatning nisbiy taklif egri chizig'iga ta'siri xuddi yuqorigidek bo'lar edi.

7.3-a rasm. Eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish




@ **Eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish** (export-biased growth) — mamlakat eksport qiladigan tovar ishlab chiqarishini kengayishi bo'lib, bu savdo shartini savdo hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish har bir mamlakatda eksport tovarini – bizning misolimizda O'zbekistonda 1-tovar, Yaponiyada 2-tovar ishlab chiqarishini ko'payishi bilan aniqlanadi. Jahon bozoriga bu tovarlar taklifining ortishi nisbiy narxlarning pasayishiga olib keladi. Chunki har bir mamlakat nisbiy narxi ortib borayotgan import tovarlarini ilgari miqdorda sotib olish uchun nisbiy

narxlari tushub borayotgan o'zlarining eksport tovarlarini yanada ko'proq miqdorda sotishga majbur bo'lishadi. Buning natijasida eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish mamlakat savdo shartini savdo hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

7.3-b rasm. Import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish.



Boshqa tomondan esa, agar O'zbekiston va Yaponiyada mos ravishda import qilinadigan 2-tovar yoki 1-tovar ishlab chiqarishi ko'payadigan bo'lsa, nisbiy taklif egri chizig'i RS nuqtadan RS' nuqtaga ko'chadi. Natijada 1-tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2) dan $(P_1/P_2)'$ gacha ko'tariladi (7.3-b rasm), bu O'zbekiston uchun savdo sharti yaxshilanib, Yaponiya uchun yomonlashishini anglatadi.

@ **Import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish** (import-biased growth) — mamlakat import qiladigan tovar ishlab chiqarishining kengayishi bo'lib, bu savdo shartini savdo hamkorlar uchun yomonlashib, mamlakat foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish har bir mamlakatda import bilan raqobat

qiluvchi tovar – bizning misolimizda, O'zbekistonda 2-tovar, Yaponiyada esa 1-tovar ishlab chiqarishining o'sishi bilan belgilanadi. Bu tovarlar ichki ishlab chiqarishining o'sishi eksport nisbiy narxlarining ortishiga, import nisbiy narxlarining pasayishiga olib keladi, chunki har bir mamlakat mustaqil ravishda ishlab

chiqarayotgani bois an'anaviy import tovarlarini kamroq xarid qila boshlaydi. Importga talabning qisqarishi natijasida import tovarlar nisbiy narxi tushadi, binobarin savdo sharti savdo hamkorlari uchun yomonlashib, mamlakat foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

7.1-jadval. Iqtisodiy o'sishning alohida olingan mamlakat savdo shartiga ta'siri.

	Mamlakatda	Boshqa mamlakatlarda
Eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish	Mamlakat uchun savdo sharti yomonlashadi	Boshqa mamlakatlar uchun savdo sharti yaxshilanadi
Import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish	Mamlakat uchun savdo sharti yaxshilanadi	Boshqa mamlakatlar uchun savdo sharti yomonlashadi

Alohida olingan mamlakat uchun hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish qanchalik foydali ekanligiga javob prinsiplal jihatdan o'sish tipining qandayligiga, u import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish yoki eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish ekanligiga bog'liq. O'zaro bog'liqlikni quyidagicha aks ettirish mumkin (7.1-jadval).

Ko'rinib turibdiki, alohida olingan mamlakat uchun ichki ishlab chiqarishda import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish va boshqa mamlakatlarda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish foydali, zero bu holat ushbu mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo shartini yaxshilaydi. Va aksincha, ichki ishlab chiqarishda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish va boshqa mamlakatlarda import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish tufayli savdo sharti ushbu mamlakat uchun yomonlashadi.

Taklif o'sishining savdo shartiga ta'siri o'sish mamlakatlar o'rtasida muvofiqlashmagan vaziyatda, ya'ni bir mamlakatda qaysidir ishlab chiqarish omillari tezroq, boshqa mamlakatlarda esa nisbatan sekinroq o'sganda vujudga keladi. Yuz berish ehtimoli juda kam bo'lgan vaziyatni ko'z oldimizga keltiraylik, ya'ni barcha mamlakatlarda barcha ishlab chiqarish omillarining o'sish sur'ati bir xil bo'lsin, bu vaziyatda neytral o'sish holati vujudga keladi.

@ *Savdoning neytral o'sishi* (neutral trade growth) — bu mamlakatlar o'rtasida savdo shartining o'zgarmagan holatida xalqaro savdo jismoniy hajmining ortishidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqarishda va ishlab chiqarish omillarining o'sishini qo'llab-quvvatlashda hukumat eksportni kengaytirishga qaratilgan va import o'rnini qoplashga qaratilgan siyosatdan birini tanlashi

mumkin. Bu tanlov faqatgina mamlakat etarli darajada katta bo'lganda, ya'ni bu mamlakatdagi ichki nisbiy narx xalqaro savdodagi narxga ta'sir o'tkaza oladigan vaziyatda ma'noga ega bo'ladi. Import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sishga (import bilan to'g'ridan to'g'ri raqobar qiluvchi milliy tovarlarni ishlab chiqarishga) investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir, chunki bu holatda mamlakat import qiladigan tovarlar narxi pasayadi va savdo sharti yaxshilanadi. Eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sishga (eksportga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarishga) investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish eksportning nisbiy narxini pasaytiradi va mamlakat uchun savdo sharti yomonlashadi. Shunday qilib mamlakat etarli darajada katta bo'lganda va u jahon narxlariga ta'sir ko'rsata olganda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish emas, balki import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish maqsadga muvofiq sanaladi.


Daromadning qayta taqsimlanish samarasi

Xalqaro talab ko'lamining o'zgarishi, eng avvalo, mamlakatlar o'rtasida daromadning qayta taqsimlanishi natijasida yuz beradi. Daromadning bunday qayta taqsimlanishi urushda mag'lubiyatga uchragan mamlakat tomonidan g'olib mamlakatga badal to'lovlarini to'langanda, rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga beg'araz yordam berilganda yuz berishi mumkin. Ma'lum bir cheklanishlar bilan davlatlararo qarzlilar ham daromadning qayta taqsimlanishi hisoblanishi mumkin. Qarzni qaytarish vaqti

kelgunga qadar bir mamlakat tomonidan ikkinchi mamlakatga qarz sifatida berilgan mablag'lar ham daromadning qayta taqsimlanishi alomatlarini o'zida mujassam qilishi mumkin.

Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga daromadning qayta taqsimlanishi natijasida birinchi mamlakatning daromadi qisqaradi va u o'z xarajatlarini qisqartirishga majbur bo'ladi. Ikkinchi mamlakatning daromadi esa ortadi va ushbu mamlakat xarajatlarini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, daromadning qayta taqsimlanishi faqatgina talab tomonga ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatda jahon nisbiy talabi grafikda siljishi ham mumkin, o'z joyida qolishi ham mumkin. Agar ikkinchi mamlakat birinchi mamlakatdan olgan qo'shimcha mablag'larini birinchi mamlakat 1- va 2-tovarlarga nisbatan tejagan miqdorda ushbu tovarlarga sarflasa, jahon nisbiy xarajatlari o'zgarmas bo'lib qoladi va nisbiy talab egri chizig'i o'zining avvalgi joyida qoladi. Daromadning bunday qayta taqsimlanishi savdo shartlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

7.4-rasm. Daromadning qayta taqsimlanishini savdo shartlariga ta'siri.



Faqatgina birinchi mamlakat tomonidan ikkinchi mamlakatga berilgan daromad nomutanosib taqsimlangandagina u savdo shartlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Faraz qilaylik, O'zbekiston Yaponiyaga nisbatan 1-tovar uchun ko'proq xarajat qilishga moyilroqdir (7.4-rasm). O'zbekistondan Yaponiyaga daromadning qayta taqsimlanishi natijasida nisbiy talab egri chizig'i RD dan RD' ga siljiydi. Buning natijasida 1-tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2) dan (P_1'/P_2) 'ga pasayadi va O'zbekiston 1-tovarni eksport qilayotgani bois, uning uchun savdo sharti yomonlashadi, Yaponiya uchun esa savdo sharti yaxshilanadi.

@ Daromadning qayta taqsimlanishini savdo shartlariga ta'siri: agar donor-mamlakat oluvchi mamlakatga nisbatan o'zining eksport tovari uchun yuqoriroq chegaraviy moyillikka ega bo'lsa, daromadni ikkinchi mamlakatga o'tishi donor-mamlakat uchun savdo shartini yomonlashtiradi, agar donor-mamlakat oluvchi mamlakatga nisbatan o'zining eksport tovari uchun quyiyoq chegaraviy moyillikka ega bo'lsa, daromadni ikkinchi mamlakatga o'tishi natijasida savdo sharti donor-mamlakat uchun yaxshilanadi.

Bu qoida mutlaq to'g'ri emas, albatta. Teskari holat ham bo'lishi mumkin. Agar, yuqoridagi misolimizda, O'zbekiston o'zining eksport tovariga (1-tovarga) nisbatan kamroq xarajat qilishga moyil bo'lsa, daromadning bir qismi Yaponiyaga o'tganda nisbiy talab egri chizig'i o'ngga siljiydi va O'zbekiston uchun savdo sharti yaxshilanadi. O'zbekistondan daromadning bir qismi Yaponiyaga o'tishi tufayli O'zbekiston uchun vujudga keladigan salbiy ta'sir ham, aynan shu jarayon tufayli Yaponiya uchun vujudga keladigan ijobiy ta'sir

ham O'zbekistonning Yaponiya bilan savdo sharti yaxshilanishi hisobiga kompensatsiyalanadi. Eksport va import nafaqat narx mutanosibligiga, balki iste'molchilar moyilligiga, texnologiyalar va boshqa ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlikdagi farqlarga ham asoslanadi.

Daromadning qayta taqsimlanishini nafaqat savdo shartlariga, balki xalqaro savdoda tovarlarga talab tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi. Umumiy iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, daromad ortib borganda turli xil tovarlarga talab bir xil o'sib bormaydi. Oila byudjeti darajasida bu qonuniyatni XIX asrda nemis iqtisodchisi Ernst Engel (Ernst Engel) ochgan. Agar narxlar va demografik o'zgaruvchilar (eng avvalo, oila tarkibi) o'zgarishsiz qolsa, daromad ko'payganda iste'molda ba'zi tovarlarning ulushi qisqaradi, boshqa tovarlarning ulushi esa ortadi. Bu ulushlar quyidagicha o'lchanadi:

$$\eta = \Delta D_i / \Delta I_i \quad (7.5.1)$$

bu yerda η (grek harfi «eta») — daromad bo'yicha talab egiluvchanligi (income elasticity of demand), D_i — i tovarga talabning ortishi (% da), I_i — i tovarga talabning o'sishiga olib kelgan daromadning o'sishi (% da).

Agar $\eta_i < 1$ bo'lsa, daromadning o'sishi bilan talab hajmida i tovarning ulushi qisqaradi, $\eta_i > 1$ bo'lganda esa i tovar ulushi ortadi.

@ Engel samarasi (Engel effects) — jami talabda alohida olingan tovarlar ulushining mutloq o'zgarishi - $(\eta - 1)$.

Agar $\eta_i > 1$ bo'lsa, tovarlar shartli ravishda zeb-zhiyat predmetlariga (luxuries) kiritiladi. Bular asosan uzoq myddat foydalaniladigan tovarlardir. Agar $\eta_i < 1$ bo'lsa, u holda tovarlar

birinchi zaruriyatli predmetlar qatoriga kiritiladi. Bular asosan oziq-ovqat tovarlari (staples) hisoblanadi.

@ *Engel qonuni* (Engel rule) — narxlar va demografik o'zgaruvchilar (oilajajmi va tarkibi) o'zgarimas bo'lganda daromadning ortishi iste'mol xarajatlarida birinchi zaruriyatli predmetlar ulushining pasayishiga va uzoq myddat foydalaniladigan tovarlar ulushining ortishiga olib keladi.

Xalqaro iqtisodiyotda Engel qonunining oqibati shundaki, mamlakat daromadining ortishi va uning qayta taqsimlanishi natijasida uzoq myddat foydalaniladigan tovarlar va zeb-ziynat predmetlariga talab ortadi, buning oqibatida esa bu tovarlarning narxi ham ortadi. Bu holat ana shunday tovarlarni ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar uchun savdo shartini yaxshilaydi. Ayni vaqtda oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar uchun savdo sharti yomonlashadi, chunki oziq-ovqat tovarlariga talab kamayib ketadi va ularning narxi tushadi.

Daromad darajasidagi siljishlar natijasida talabda yuzaga keladigan o'zgarishlar borasidagi yana bir qonuniyatni shved iqtisodchisi Staffan Linder (Staffan Linder) o'rnatgan, u sababiy bog'liqliklarni daromad – afzal ko'rish – texnologiya – tashqi savdo zanjiri orqali ko'rib chiqqan. Bu qonuniyat hali aniq o'z isbotini topmagan va gipoteza ko'rinishiga ega.

@ *Linderning ortiqcha talab gipotezasi* (Linder's representative demand) — bu mamlakat o'z iste'molida solishtirma og'irligi katta bo'lgan tovarlarni eksport qilishidir.

Daromadning bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tishi nuqtai nazaridan, oluvchi mamlakatda daromadning o'sishi zeb-ziynat predmetlariga talabning oshishiga olib keladi va bu tovarlarni ishlab chiqarishda texnologiyalarni takomillashtirishga undaydi. Texnologiyalarni takomillashtirish bunga asos bo'lgan talabni ortda qoldiradi, bu esa narxlarning pasayishiga va ushbu zeb-ziynat predmetlari eksportini qisqarishiga olib keladi.

Shunday qilib, ma'lum bir tovarning eksport va import narxlarining nisbati yoki eksport va import narxlari indeksleri nisbati orqali aniqlanuvchi mamlakat eksport va import narxlarining nisbati savdo sharti deb ataladi. Uning o'sishi natijasida mamlakat farovonligi ortadi, pasayishi natijasida esa farovonlik tushadi. Taklifning ortishi (iqtisodiy o'sish) va talabning ortishi (daromadning qayta taqsimlanishi) savdo shartiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'sish, uning xalqaro savdoga ta'siri nuqtai nazaridan eksportni kengaytirishga qaratilgan va import o'rnini qoplashga qaratilgan bo'lishi mumkin. Alohida olingan mamlakat uchun ichki ishlab chiqarishda import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish va boshqa mamlakatlarda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish foydali, zero bu holat ushbu mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo shartini yaxshilaydi. Va aksincha, ichki ishlab chiqarishda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish va boshqa mamlakatlarda import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish tufayli savdo sharti ushbu mamlakat uchun yomonlashadi. Daromadning qayta taqsimlanishini savdo shartlariga ta'siri quyidagicha: agar donor-mamlakat oluvchi mamlakatga nisbatan o'zining eksport tovari

uchun yuqoriroq chegaraviy moyillikka ega bo'lsa, daromadni ikkinchi mamlakatga o'tishi donor-mamlakat uchun savdo shartini yomonlashtiradi, agar donor-mamlakat oluvchi mamlakatga nisbatan o'zining eksport tovari

uchun quyiroq chegaraviy moyillikka ega bo'lsa, daromadni ikkinchi mamlakatga o'tishi natijasida savdo sharti donor-mamlakat uchun yaxshilanadi.

VIII bob. Xalqaro savdoda sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli

Taklifning shakllanishi

Faraz qilaylik, O'zbekiston ikki xil tovar – sotiladigan (T) va sotilmaydigan (N) tovarlar ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi. Bu tovarlarni ishlab chiqarishga faqat bitta ishlab chiqarish omili – mehnat (L) sarflanadi. Chegaraviy mehnat unumdorligi (A) – qo'shimcha bir birlik mehnatdan foydalanish ishlab chiqarishni A birlikka oshirishga olib kelishini bildiradi. Agar

Q_t — sotiladigan tovarlar ishlab chiqarish hajmi,

Q_n — sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarish hajmi,

L_t — sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishiga sarflangan mehnat miqdori,

L_n — sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishiga sarflangan mehnat miqdori,

A_t — sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishida chegaraviy mehnat unumdorligi,

A_n — sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishida chegaraviy mehnat unumdorligi bo'lsa, sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarish hajmi quyidacha bo'ladi:

$Q_t = A \times L_t$ *sotiladigan tovarlar uchun,*

$Q_n = A_n \times L_n$ *sotilmaydigan tovarlar uchun* (8.1.1)

Faraz qilishda davom etamiz, sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishida foydalanish mumkin bo'lgan mehnat miqdori chegaralangan va undan to'liq foydalanilmoqda (to'liq bandlik mavjud), ya'ni

$$L = L_t + L_n \quad (8.1.2)$$

8.1.1 tenglamadan $L_t = Q/A_t$ va $L_n = Q/A_n$, kelib chiqadi, bularni 8.1.2 tenglamaga qo'ysak, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:


$$L = (Q/A_t) + (Q/A_n) \quad (8.1.3)$$

Sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishini sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishi orqali ifodalab, ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi formulasiga ega bo'lamiz. Bu formula ma'lum miqdorda sotiladigan tovarlar ishlab chiqargan holda sotilmaydigan tovarlardan maksimal qancha ishlab chiqarish mumkinligini ifodalaydi:

$$Q_n = (A_n L - (A_n/A_t) Q_t) \quad (8.1.4)$$

Agar barcha mehnat resurslari sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishiga sarflansa, $Q_t = A_t \times L$, va $Q_n = 0$ ga teng bo'ladi, u holda ishlab chiqarish X nuqtada bo'ladi (8.1 rasm).

8.1 rasm. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli taklifning shakllanishi.



Aksincha, barcha mehnat resurslari sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishiga sarflansa $Q_n = A_n \times L$, va $Q_t = 0$ bo'lib, ishlab chiqarish Y nuqtada bo'ladi. XY to'g'ri chizig'i sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining barcha mavjud bo'lgan kombinatsiyalarini ifodalaydi va ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining xususiy holi hisoblanadi.

XY to'g'ri chizig'ining abstsissa o'qi bilan tashkil qilgan burchagi (e) sotiladigan tovarlarning sotilmaydigan tovarlar narxi bilan ifodalangan nisbiy narxiga teng bo'lib, u sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modelida haqiqiy ayirboshlash kursi deb ataladi.

@ *Haqiqiy ayirboshlash kursi* (real exchange rate) — sotiladigan tovarlarning sotilmaydigan tovarlar narxi bilan ifodalangan nisbiy narxi (keyinchalik, joriy ayirboshlash kursining inflyatsiya sur'atiga nisbati ham haqiqiy ayirboshlash kursi deb atalishining guvohi bo'lamiz. Bu esa xalqaro iqtisodiyotning turli tushunchalari bitta atama bilan ifodalanishini bildiradi).

Agar W — ish haqi me'yori, e — haqiqiy ayirboshlash kursi bo'lsa, u holda sotiladigan va sotilmaydigan tovarlarning bir birligini ishlab chiqarishga zarur bo'lgan mehnat qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$P_t = W/A_t, P_n = W/A_n \quad (8.1.5)$$

(8.1.5) formulaning birinchi qismini ikkinchisiga bo'lib, sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli uchun haqiqiy ayirboshlash kursi formulasi kelib chiqadi:


$$E = (P_t/P_n) = (A_n/A_t) \quad (8.1.6)$$

Talabning shakllanishi

Endi ushbu modelni talab tomondan ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, investitsiyalar mavjud emas, talab faqatgina iste'molda namoyon bo'ladi:

C_t — sotiladigan tovarlar iste'moli, C_n — sotilmaydigan tovarlar iste'moli, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, xarajatlar darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar bir xil nisbatda iste'mol qilinadi, ya'ni C_t/C_n nisbat doimiydir. Bu farazlardan kelib chiqqan holda, mumkin bo'lgan muqobil xarajatlar grafigi 8. 2-rasmdagi OC to'g'ri chizig'i kabi bo'ladi. Talab darajasi past bo'lganda har ikki tovar iste'moli unchalik ko'p emas (A nuqta), talab oshib borganda har ikki tovar iste'moli ham ortadi (D nuqta).

8.2 rasm. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli taklifning shakllanishi.



Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar muvozanat modelini qurish uchun sotilmaydigan tovarlar ta'rif bo'yicha qilinmasligini e'tiborga olish kerak. Binobarin sotilmaydigan tovarlarning ichki iste'moli bu tovarlarning ichki ishlab chiqarishiga teng bo'ladi.

Jahonchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

Bu tovarlardan farqli ravishda sotiladigan tovarlar eksport yoki import qilinishi mumkin, shuning uchun sotiladigan tovarlar iste'moli miqdori bu tovarlarning ichki ishlab chiqarishi miqdoridan farq qilishi mumkin. U holda quyidagilar o'rinli bo'ladi:

$$Q_n = C_n,$$

$$CAB = X_t - IM_t = Q_t - C_t \quad (8.2.1)$$

Bu yerda CAB — savdo balansi (joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi), X_t — sotiladigan tovarlar eksporti, IM_t — sotiladigan tovarlar importi.

Ko'rinib turibdiki, eksport va import ayirmasi sifatida aniqlanuvchi savdo balansi sotiladigan tovarlar bilan bog'liq holatda bu tovarlarning ishlab chiqarish bilan ularning iste'moli farqiga teng bo'ladi.


Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar muvozanati

Agar ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigi (8.1-rasm) bilan muqobil xarajatlar grafigi (8.2-rasm)ni birlashtirsak, sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar muvozanat modeli hosil bo'ladi (8.3-rasm).

Iste'mol (talab) A nuqtada joylashgan bo'lsin, bu nuqtada sotilmaydigan tovarlar iste'moli C_A bu tovarlar ishlab chiqarishi - Q_B ga teng bo'lishi kerak, sotiladigan tovarlar iste'moli C_A ni tashkil etgan holda bu tovarlar ishlab chiqarishi Q_B (gorizontal o'q bo'yicha) B nuqtada joylashadi. Bu degani sotilmaydigan tovarlar to'liq iste'mol qilinadi, sotiladigan tovarlar bo'yicha esa ishlab chiqarilgan tovarlar iste'molga nisbatan ortib qoladi, bu esa ijobiy

savdo balansi (AB)ga olib keladi. Agar daromadning o'sib borishi natijasida iste'mol D nuqta darajasigacha ortsa, u holda ishlab chiqarish F nuqtada bo'lishi kerak. Bu ham sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishi va iste'moli teng bo'lishini nazarda tutadi ($Q_F = C_D$ vertikal o'q bo'yicha), biroq bu vaziyatda sotiladigan tovarlar etishmay qoladi.

8.3-rasm. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modelida talab va taklif muvozanati.



ishlab chiqarish imkoniyatlari to'g'ri chizig'i (taklif) va iste'mol to'g'ri chizig'i (talab) kesishuvida joylashgan E nuqta grafikda sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli to'liq muvozanatda bo'ladigan joyini ko'rsatadi. Bu holda to'liq muvozanat sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishi va iste'moli ham, sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishi va iste'moli ham bir vaqtda teng bo'lishini nazarda tutadi (sotiladigan tovarlar gorizontal o'q bo'yicha $Q_E = C_E$, sotilmaydigan tovarlar esa vertikal o'q bo'yicha $Q_E = C_E$). Bunday to'liq muvozanat ichki muvozanat (sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishi va iste'moli o'rtasida muvozanat, bu aksioma sifatida qabul qilingan) va tashqi

muvozanat (sotiladigan tovarlar eksporti va importi tengligi, yoki boshqacha qilib aytganda, savdo balansining 0 ga tengligi $CAB = 0$) bir vaqtda bo'lishini nazarda tutadi.

Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modelidan kelib chiqadigan asosiy xulosa talab o'sishining sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar taklifiga ta'siridagi farqdan kelib chiqadi. Agar iste'mol D nuqtagacha ko'tarilsa, u holda sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishi F nuqtada joylashadi. 8.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, sotilmaydigan tovarlarga talabning oshishi ushbu tovarlar ishlab chiqarish hajmini vertical o'q bo'yicha Q_B dan Q_F gacha oshirish orqali qondiriladi. Mamlakat sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishini ko'paytirish uchun sotiladigan tovarlar ichki ishlab chiqarishini gorizonttal o'q bo'yicha Q_D dan Q_F gacha kamaytirishga majbur bo'ladi.

D nuqtadagi yuqori iste'molni tovarlar bilan ta'minlash uchun mamlakat sotiladigan tovarlar ishlab chiqarish hajmi qanchaga qisqargan bo'lsa, ushbu tovarlarni shuncha miqdorda ($Q_F - Q_D$) import qilishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining o'sishiga ishlab chiqarish omillarini sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishidan jalb qilish orqali erishiladi. Umumiyroq ko'rinishda esa bu sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishi nisbati qoidasi orqali ifodalanadi.

@ *Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar qoidasi* (tradables/non-tradables rule) — jami talabning oshishi sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishini osishiga, sotiladigan tovarlar

ishlab chiqarishini qisqarishiga va importning ortishiga olib keladi. Jami talabning qisqarishi esa sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishini qisqarishiga, sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishini osishiga va eksportning ortishiga olib keladi.

Bu qoidaning mohiyati amaliyotda osongina o'z tasdig'ini topadi: agar sotilmaydigan tovarlarga nisbatan o'sgan talabni faqatgina ichki ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali qondirish mumkin bo'lsa, sotiladigan tovarlarga o'sib borayotgan talabni import hisobiga ham qondirish mumkin.

Shunday qilib, sotiladigan/sotilmaydigan tovarlar modeli bir tomondan jami talabning, jumladan jahon bozoridagi talabning oshishi sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining ortishiga, sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining kamayishiga olib keladi. Chunki sotilmaydigan tovarlarga talabning ko'payishini import hisobiga qondirib bo'lmaydi, binobarin, sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishidagi resurslarni jalb qilish hisobiga sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishini kengaytirish mumkin. Bu sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishini, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, jami talabning qisqarishi (masalan, tashqi qarzlarni to'lash tufayli) sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishini va eksportning ortishiga, importning qisqarishiga olib keladi. Bu sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining qisqarishiga sabab bo'ladi va jiddiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

I. III. XALQARO SAVDONING MUQOBIL NAZARIYALARI

IX bob. Xalqaro savdo klassik nazariyalarining rivojlantirilishi

Klassik nazariyalarga muqobil nazariyalarni keltira oigan donishmandlar faqatgina XX asrning o'rtaligiga kelib paydo bo'ldi. Oldingi boblarda xalqaro savdo asosan taklif tomondan tahlil qilingan klassik va neoklassik nazariyalari hamda xalqaro savdoni ustun ravishda talab tomondan qarab chiqqan umumiy muvozanatning standart modeli nazariyasi ko'rib chiqildi. U yoki bu yondashuvlardan amaliy masalalarni hal etishda faol foydalaniladi.

Klassik nazariyalarning cheklanganligi

Yuqoridagi nazariyalarning umumiy kuchsiz jihati shundaki, ular amaliyotda bajarilishi uchun ko'p sonli cheklovlar va taxminlarga amal qilish zarur. Xalqaro savdo nazariyasi asoslangan ko'p sonli taxminlarni qanoatlantirish uchun statistic ma'lumotlarni ko'p sonli qatlamlardan tozalashga to'g'ri keladi. Ko'p sonli va yetarlicha murakkab hisob-kitoblardan so'ng kerakli statistikaga ega bo'lsak-da, nazariyalarni empirik tekshirish hamisha ham ularning to'g'riligini tasdiqlayvermaydi, masalan, Leontev paradoksidagi kabi.

Shuning uchun XX asrning ikkinchi yarmida ekonomistlar xalqaro savdoning turli jihatlarni tushuntiruvchi yangi nazariyalarni faol qidirishda davom etishdi. Klassik

nazariyalarga asoslangan holda yangi nazariyalar quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirildi:

- *Yana ham ko'proq tovarlar, mamlakatlar, ishlab chiqarish omillariga tadbir qilgan holda klassik nazariyalar tamoyillari rivojlantiriladi, o'zgaruvchilar soni ortishiga qaramay, nazariyalarning asosiy postulatlarining to'g'riligicha qolishi ko'rsatib beriladi (maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi);*
- *Klassik nazariyalarning to'g'riligi umumiy holda shubha ostiga olinmasdan, xalqaro savdoning mualliflar tomonidan atayib qilingan taxminlari va mavhum mulohazalari yoki nazariyaning o'zidagi kamchiliklari tufayli ochiq qolgan ayrim jihatlari o'rganiladi. Zamonaviy iqtisodchilar klassik nazariyalar tomonidan ochiq qoldirilgan ko'plab savollarga javob beruvchi bir qator modellarni ishlab chiqishdi va bir qator teoremlarni isbotlashdi (xalqaro savdodan daromadlarni taqsimlash nazariyasi, kesishuvchi talab nazariyasi);*

Va nihoyat, ba'zi yangi nazariyalar klassik nazariyalar zamonaviy xalqaro savdoni tushuntirib bera olmaydi va ular yangi nazariyalar bilan almashtirishi zarurligini tasdiqlaydi (keng ko'lamilik samarasi nazariyasi, tarmoq ichidagi xalqaro savdo modeli, xalqaro savdoning dinamik modellari).

Noan'anaviy yondashuvlar

Agar mutlaq ustunlik nazariyasini – MU, nisbiy ustunlik nazariyasini – NU, ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasini – ION deb belgilasak, klassik nazariyalarni zamonaviy iqtisodchilar tomonidan rivojlantirishi sxemasi 9.1-jadvaldagi ko'rinishini oladi. Zamonaviy xalqaro savdoni tushuntirish uchun aksariyat hollarda klassik nazariyalarni salgina rivojlantirish kifoya qiladi, ba'zi hollarda esa umuman yangi nazariyalar talab qilinadi.

Yangi yondashuvlar ko'p hollarda xalqaro savdo nazariyalarini taklif tomondan rivojlan-

trishdi, ular asosan klassik nazariyalardan Smit-Rikardoning mutlaq-nisbiy ustunlik va Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyalari mavzularining turli variatsiyalari hisoblanadi. Klassik nazariyalar odatda ishlab chiqarish omillari, tovarlar va savdo qiladigan mamlakatlar soni ikkitadan oshganda ham, savdoda transport xarajatlari, tariflarning va savdo yo'lida boshqa to'siqlar mavjudligi hisobga olinganda ham va nihoyat, turli mamlakatlardagi iste'molchilar xohish-istaklarida farq bo'lganda ham bajariladi.

9.1-jadval. Xalqaro savdo nazariyalarining rivojlantirilishi

Klassik nazariyalardagi farazlar	Agar ... bo'lsa, nima bo'ladi	Qaysi nazariya bilan tushuntiriladi	Nazariya mualliflari	
Faqat bitta ishlab chiqarish omili – mehnat mavjud	MU, NU	Ishlab chiqarish omili bittadan ortiq	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi	Xeksher — Olin
Ikki mamlakat, ikkita tovar va ikki xil ishlab chiqarish omili mavjud	MU, NU	Mamlakat va tovarlar ikkitadan ortiq	Ko'proq miqdordagi mamlakatlar va tovarlar uchun qo'llanilgan nisbiy ustunlik nazariyasi	Rikardo — Samuelson
	ION	Omillar ikkitadan ortiq	Ko'proq miqdordagi ishlab chiqarish omillari uchun qo'llanilgan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi	Xeksher — Olin
Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanishida farq mavjud emas	MU, NU, ION	Mamlakatlar ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmagan	Ko'proq miqdordagi ishlab chiqarish omillari uchun qo'llanilgan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi	Xeksher — Olin
Turli mamlakatlarda texnologiya bir xil	ION	Mamlakatlar turli texnologiyalardan foydalanishadi	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi, agar texnologiyaga ishlab chiqarish omili sifatida qaralsa	Xeksher — Olin
		Texnologiya vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi	Texnologik uzulish nazariyasi Tovarning hayotiy bosqichi nazariyasi	Pozner (1961 y.) Vernon (1966 y.)
Har ikki mamlakatda 1-tovar mehnat sig'imli, 2-tovar esa kapital sig'imli	ION	Bir tovar mehnat serob bo'lgan mamlakatda mehnat sig'imli, xuddi shu tovar kapital serob bo'lgan mamlakatda esa kapital sig'imli	Ishlab chiqarish omillari reverse nazariyasi	Minxas (1962 y.), Boil (1966 y.)
Keng ko'lamda ishlab chiqarish samarasi mavjud emas – har ikki mamlakatda	MU, NU, ION	Keng ko'lamda ishlab chiqarish samarasi mavjud bo'lib, uning natijasida ishlab	Xalqaro savdoga qo'llanilgan keng ko'lamda ishlab chiqarish samarasi modeli	Kemp (1964 y.), Krugman

Jakkinci qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

					(1979 y.)
ishlab chiqarish omillar sarfini ma'lum birlikka oshirilishi tovarlar ishlab chiqarishni ham shuncha birlikka oshishiga olib keladi		chiqarish omillar sarfini ma'lum birlikka oshirilishi tovarlar ishlab chiqarishni ko'proq birlikka oshishiga olib keladi			
Mamlakattaming har birida ma'lum tovarni ishlab chiqarishga to'liq ixtisoslashuv mavjud emas	ION	Har bir mamlakat ishlab chiqarishda o'zi nisbiy ustunlik ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga to'liq ixtisoslashadi	Nisbiy ustunlik nazariyasi	Smit, Rikardo	Edjuort
Turli mamlakatlardagi iste'molchilar xohish-istaklarida farq mavjud emas	ION	Turli mamlakatlardagi iste'molchilar xohish-istaklarida farq mavjud, biroq bu farq o'zaro savdoga bo'lgan qiziqishni so'ndira oladigan darajada emas	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi	Xeksher — Olin	
Har ikki tovar bozorida va har ikki ishlab chiqarish omillari bozorida erkin raqobar mavjud, ya'ni ishlab chiqarish omillaridan optimal foydalaniladi	ION	Erkin raqobat mavjud emas, monopoliyalar mavjud	Tarmoq ichidagi savdo nazariyasi	Balassa	
Ishlab chiqarish omillari mutlaq bir xil ichki harakatchanlikka ega, ya'ni ular turli tarmoqlar o'rtasida hech qanday cheklashsiz harakatlanadi, mamlakatlarda esa harakatlanmaydi	MU, NU, ION	Omillardan biri alohida olingan tarmoq uchun maxsus omil sanalib, tarmoqlararo harakatlana olmaydi	Maxsus ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi	Samuelson — Djons	
Transport xarajatlari, tariflar, kvotalar va jahon savdosi yo'lida boshqa to'loqlar mavjud emas	MU, NU, ION	Ishlab chiqarish omillari mamlakatlarda harakat qila oladi	Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi nazariyasi	Xeksher — Olin — Samuelson	
Transport xarajatlari, tariflar, kvotalar va jahon savdosi yo'lida boshqa to'loqlar mavjud emas	MU, NU, ION	Transport xarajatlari, tariflar va kvotalar mavjud	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi, transport xarajatlari va boshqa tashkil etuvchilar e'tiborga olingan	Xeksher — Olin	
Har ikki mamlakatda barcha ishlab chiqarish omillaridan to'liq foydalaniladi, mamlakatlarning omillar bilan qandaydir kombinatsiyada ta'minlanganligiga hamisha oldindan berilgan deb qaraladi	MU, NU, ION	Resurslar, ayniqsa, mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmaydi, ishsizlik mavjud	Rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi, iqtisodiy pasayishlar holatidan tashqari vaziyatlarda	Xeksher — Olin	
Ikki mamlakat o'rtasida xalqaro savdo muvozanatlashgan	MU, NU, ION	Savdo muvozanatlashmagan, mamlakat o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarning bir qismini xorijdan import qilishga majbur	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi, chunki savdodagi nomuvozanat yalpi milliy mahsulotning sezilarli qismini tashkil qilmaydi	Xeksher — Olin	
Ishlab chiqarish xarajatlari doimiy, bu xarajatlarning kamayishi tovarga bo'lgan talabni oshiradi	MU, NU	Ishlab chiqarish xarajatlari ortib boradi	Xalqaro savdoning standart modeli	Edjort, Xeberler	
Bir tovarning narxi ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori bilan ifodalangan	MU, NU	Narx tovarga bo'lgan jami talabga bog'liq	O'zaro talab nazariyasi	Mill, Marshall	

Tashqi savdo mamlakat ichkarisida daromadning qayta taqsimlanishiga ta'sir ko'satmaydi, narx va ish haqining tebranishi mavjud emas	MU, NU-	Tashqi savdo mamlakat ichkarisida daromadning qayta taqsimlanishiga ta'sir ko'satadi	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi Maxsus ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi Ishlab chiqarish omillari narxining o'sishi teoremasi Ishlab chiqarish omillari o'sishining tarmoqlardagi ishlab chiqarishga ta'siri teoremasi	Xeksher — Olin Samuelson — Djons Stolper — Samuelson Ribchinskiy
---	---------	--	--	---

Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi, Stolper-Samuelson teoremasi va Ribchinskiy teoremasi, o'zaro talab nazariyasi, ishlab chiqarish omillari reverse nazariyasi, ishlab chiqarish omillari narxi muvozanatlashuvining katakli diagrammasi va boshqa nazariyalar klassik nazariyalarni rad etmagan holda ularning ayrim yo'nalishlarini rivojlantiradi. Yangi nazariyalarning bu guruhi klassik nazariyalardagi farazlar va cheklanishlar bajarilgandagina o'z isbotini topadi. Zero bu nazariyalar klassik nazariyalardan kelib chiqadi.

Va nihoyat, keng ko'lamda ishlab chiqarish samarasi nazariyasi, tarmoq ichidagi xalqaro savdo modeli, xalqaro savdoda tovarning hayotiy bosqichi va texnologik taraqqiyot, nosog'lom raqobat bilan bog'liq nazariyalar kabilar xalqaro savdoni tushuntirishda klassik nazariyalardan farqli ravishda prinsipial jihatdan umuman yangi yondashuvlarni talqin qilishadi. Bu nazariyalarda klassik nazariyalarni amalda rad etiladi, ya'ni klassik nazariyalar yaratilgan paytdagina to'g'ri bo'lishi mumkin, hozirgi kunda xalqaro savdoning

murakkab tarkibini tushuntira olmaydi deb ta'kidlanadi. Klassik nazariyalarni rivojlantiruvchi yoki ushbu nazariyalardan kelib chiquvchi yangi nazariyalarda xalqaro savdoni ustun ravishda taklif tomondan ko'rib chiqilsa, klassik nazariyalarni rad etuvchi yangi nazariyalarda xalqaro savdoda tovarga talab va tovar taklifiga bir xil e'tibor qaratiladi.

Shunday qilib, xalqaro savdoning yangi nazariyalarida klassik nazariyalar tamoyillari ko'proq miqdordagi tovarlar, mamlakatlar va ishlab chiqarish omillariga qo'llanilgan holda rivojlantiriladi yoki xalqaro savdoning qandaydir sabablarga ko'ra klassik nazariyalar orqali tushutirib berilmagan ayrim tomonlari o'rganiladi. Bu ikki guruh nazariyalar xalqaro savdoni ustun ravishda taklif tomondan ko'rib chiqadi. Uchunchi guruh nazariyalar esa klassik nazariyalarni rad etadi, bu nazariyalarni eskirib qolgan deb hisoblaydi va xalqaro savdoni tushuntirishda o'z yondashuvlarini taklif qiladi. Bu guruh nazariyalar odatda xalqaro savdoda tovarga talab va tovar taklifi tahliliga bir xil e'tibor qaratadi.

X bob. Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi

Maxsus va harakatchan omillar

Xalqaro savdo uchun maxsus ishlab chiqarish omillari asosidagi nazariy asos solinganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q.

Nisbiy ustunlik nazariyasi kabi ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi ham mamlakat tarmoqlararo harakat qila oladigan, mamlakatlara esa harakat qila olmaydigan ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlangan degan farazga asoslangan. Nisbiy ustunlik nazariyasida ana shunday ishlab chiqarish omillari mehnat bo'lib, u ko'proq haq to'lanadigan tarmoqlarga xohlagancha ko'chib o'tishi mumkin. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasida esa bunday omil qandaydir ikki ishlab chiqarish omili (mehnat va kapital) bo'lishi mumkin, bu omillar ham tarmoqlararo bemaol harakat qila oladi. Biroq amaliyotda omillarning to'liq harakatchanligi, hech bo'lmaganda qisqa muddatli davrda ko'zga tashlanavermaydi, masalan, mashinasozlikda foydalaniladigan tabiiy resurslardan qishloq xo'jaligida osonlik bilan foydalanib bo'lmaydi yoki po'lat quyishda foydalaniladigan asbob-uskunalarda namoyon bo'lgan kapitaldan shu zahotiy oq paxta etishtirish uchun foydalana olmaymiz. Haqqoniy savol tug'uladi: agar ishlab chiqarish omillarining bir qismi harakatchan bo'lmasa va tarmoqlararo ko'chib o'ta olmasa, ya'ni bu omil alohida tarmoq uchun maxsus omil bo'lsa xalqaro savdo qanday rivojlanadi?

Bu savolga javobni amerikalik iqtisodchilar Paul Samuelson va Ronald Jones o'zlarining 1971 yilda chop etilgan ishlarida berishdi.

Faraz qilaylik, mamlakat odatdagidek, ikki tovar – 1-tovar va 2-tovarni ishlab chiqaradi. Lekin bunda nisbiy ustunlik modelidagi kabi bitta ishlab chiqarish omili yoki ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasidagi kabi ikkita ishlab chiqarish omili emas, balki uchta ishlab chiqarish omili – mehnat, kapital va yerdan foydalaniladi. Mehnat mamlakat ichida harakatchan omil hisoblanadi, tarmoqlararo erkin harakat qila oladi va undan har ikki tovarni ishlab chiqarishda foydalaniladi. Kapital va yer esa maxsus omillar bo'lib, kapitaldan faqatgina 1-tovarni, yerdan faqatgina 2-tovarni ishlab chiqarishda foydalaniladi.

@ *maxsus omil* (specific factor) — faqatgina bir tarmoqqa xos ishlab chiqarish omili bo'lib, u tarmoqlararo erkin harakat qila olmaydi.

@ *harakatchan omil* (mobile factor) — tarmoqlararo erkin harakat qila oladigan ishlab chiqarish omili.

Ishlab chiqarish omillaridan quyidagicha foydalaniladi (10.1-jadval):

10.1-jadval. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish

ishlab chiqarish omillari	1-tovar	2-tovar
Mehnat (harakatchan omil)	L ₁	L ₂
Kapital (1-tovar uchun maxsus omil)	K	
Yer (1-tovar uchun maxsus omil)		T

Shartli belgilar:

- L₁ — 1-tovarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan mehnat;

- L_2 — 2-tovarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan mehnat;
- K — 1-tovarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan kapital;
- T — 2-tovarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan yer.

Agar avvalgidek, Q_1 — 1-tovarni ishlab chiqarish hajmi va Q_2 — 2-tovarni ishlab chiqarish hajmi, L — iqtisodiyotdagi umumiy ishchi kuchi hajmi bo'lsa, 1- va 2-tovarni ishlab chiqarish hajmining sarflangan mehnatga bog'liqligi funksiyasi — mehnatning to'liq mahsuli quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$Q_1=Q_1(K, L_1) \quad Q_2=Q_2(T, L_2), \quad L_1+L_2=L \quad (10.1)$$


@ maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi (specific factors theory) — xalqaro savdo negizida tovarlar nisbiy narxidagi farq yotadi, bu farq mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi tufayli yuzaga chiqadi, eksport tarmog'i uchun maxsus bo'lgan omillar rivojlanib boradi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlar uchun maxsus bo'lgan omillar esa qisqarib boradi.

Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi umumiy iqtisodiy nazariya kursidan ma'lum bo'lgan qaytimning kamayishi qonuniga asoslanadi. Bu qonunga ko'ra, ishlab chiqarishga mehnat sarfining har bir keyingi qo'shimcha birligi hisobiga ishlab chiqarish hajmining o'sishi kamayib boradi.

@ qaytimning kamayishi qonuni (law of diminishing returns) — bu qonunga ko'ra boshqa ishlab chiqarish omillarining miqdori o'zgarmagan holda ishlab chiqarish hajmi qandaydir miqdorga yetganidan so'ng


mehnatning chegaraviy mahsuli kamayib boradi.

10.1-a-rasm. Mehnatning kamayib boruvchi qaytimi. (Mehnatning to'liq mahsuli)



Bu tamoyilni grafikda ikki usulda ko'rsatish mumkin. 10.1-a-rasmda mehnatning to'liq mahsuli egri chizig'i ishlab chiqarish hajmining mehnat sarfiga bog'liqligini ko'rsatadi. Mehnat sarfining OL birlik miqdorga ortishi mahsulot ishlab chiqarishni OQ ga o'sishiga olib keldi. Mehnat sarfini xuddi shunday LL_1 birlikka keyingi ortishi esa ishlab chiqarish hajmini avvalgidan kamroq miqdorga — bor-yog'u QQ_1 ga o'sishga olib keladi. 10.1-b-rasmda esa xuddi shunday ma'lumot mehnat sarfining uning chegaraviy unumdorligi orasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi mehnatning chegaraviy mahsuli egri chizig'i orqali ifodalangan.

10. 1-b-rasm. Mehnatning kamayib boruvchi qaytimi. (Mehnatning chegaraviy mahsuli)



Mehnatning chegaraviy unumdorligi kamayib boradi: mehnat sarfi qancha ortib borsa, uning chegaraviy unumdorligi shuncha kamayib boradi.

@ *Mehnatning chegaraviy unumdorligi* (marginal productivity of labor — *MPL*) — bu qo'shimcha bir birlik mehnatdan foydalanish natijasidagi jami daromadning o'sishi kattaligidir.

Tovarning bozor narxi P ga teng bo'lganda ish hagi w ni tashkil qilsa, firma L ishchi kuchini yollasa foydali bo'ladi. Grafikdagi bo'yalgan qism boshqa ishlab chiqarish omillari (kapital va yer)dan bo'ladigan qaytimni ifodalaydi. Maxsus omillar modeli maqsadlari uchun mehnat sarfi bir birlikka ortganda ishlab chiqarish hajmi ham bir birlikka ortadigan doimiy qaytim va mehnat sarfi bir birlikka ortganda ishlab chiqarish hajmi bir birlikdan kamroqqa ortadigan kamayib boruvchi qaytim o'rtasidagi farq muhim hisoblanadi.


Ichki muvozanat

1-tovar va 2-tovar ishlab chiqarish hajmining ularni yaratishga sarflangan mehnat sarfiga bog'liqligini ifodalovchi mehnatning to'liq mahsuli grafiklarini bitta grafikka birlashtirish mumkin (10.2-rasm).

Grafik to'rtta — I, II, III va IV kvadrantlarga bo'lingan. II va IV kvadrantlar mos ravishda 2-tovar va 1-tovar uchun mehnatning to'liq mahsuli egri chiziqlarini ifoda qiladi. Bu amalda har bir 1- va 2-tovar uchun 10.1-a-rasmdagi grafikning o'zi, faqat bu grafik 0 nuqta atrofida aylantirilgan, xolos. Mehnat harakatchan omil bo'lganligi bols, III kvadrantda ordinata va absissa o'qlariga nisbatan 45 gradus burchak ostidagi AB to'g'ri chiziqda mehnat sarfi ifodalangan hamda 1- va 2-tovarlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat sarflarining mumkin bo'lgan barcha muqobillari keltirilgan. Bu yerda to'liq bandlik mavjud deb faraz qilingan, ya'ni mavjud bo'lgan barcha mehnat resurslari 1-tovarni yoki 2-tovarni ishlab chiqarishga, yoki bu tovarlarni qandaydir kombinatsiyasini ishlab chiqarishga ishlatilmoqda.

Bu ma'lumotlarga asoslangan holda faqatgina ikki xil tovar ishlab chiqaruvchi mamlakat uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini aniqlash mumkin. Bu egri chiziq mehnat sarfining turli nisbatlarida 1- va 2-tovarlarni qanday nisbatda ishlab chiqarishi mumkinligini ifodalaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, boshqa ishlab chiqarish omillari (kapital va yer) sarfi doimiy, ya'ni o'zgarmas deb faraz qilingan. I kvadrantdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i quyidagi usulda chizilgan.

10.2-rasm. Maxsus ishlab chiqarish omili mavjud bo'lgan sharoitda mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari.



Agar mamlakatdagi barcha ishchi kuchi (OB) 1-tovarni ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, ishlab chiqarilgan 1-tovar hajmi BE birlikni tashkil etadi va ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigining eng chekka nuqtasi F ni ko'rsatadi. Xuddi shu kabi, agar mamlakatdagi barcha ishchi kuchi (OA) 2-tovarni ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, ishlab chiqarilgan 2-tovar hajmi AC birlikni tashkil etadi va ishlab chiqarish imkoniyatlari grafigining ikkinchi eng chekka nuqtasi D ni ko'rsatadi. Jami ishchi kuchini har ikki tovarni ishlab chiqarish uchun har qanday nisbatda

taqsimlanishi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idagi oraliq nuqtalarni ifodalaydi.

Masalan, G nuqtani olaylik, bu nuqta O/ miqdordagi ishchi kuchi 1-tovarni, OH miqdordagi ishchi kuchi esa 2-tovarni ishlab chiqarishga jalb qilinganligini hamda 1-tovar ishlab chiqarishi IK, 2-tovar ishlab chiqarishi esa HJ ni tashkil etishini bildiradi va ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idagi N nuqtani aniqlab beradi. Mehnatning qayta taqsimlanishi (G nuqtadan G' nuqtaga) ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasini N' ga ko'chishiga olib keladi.

Ana shundan o'zaro bog'liq nuqtalar to'plami mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari FD egri chizig'ini tashkil etadi. Uning iqtisodiyotdagi mehnat resurslari taqsimoti AB to'g'ri chizig'i bo'g'lig'idan ko'rinib turibdi-ki, 1-tovar ishlab chiqarishga qancha ko'p mehnat sarflansa, 1-tovar ishlab chiqarishdagi mehnatning chegaraviy unumdorligi shuncha past bo'ladi va 2-tovar ishlab chiqarishda shuncha yuqori bo'ladi. 2-tovar ishlab chiqarishga qancha ko'p mehnat sarflansa, uning 2-tovar ishlab chiqarishdagi chegaraviy unumdorligi shuncha past bo'ladi va 1-tovar ishlab chiqarishda shuncha yuqori bo'ladi. Binobarin, maxsus omillar (1-tovar uchun kapital, 2-tovar uchun yer) tarmog'ining har birining o'zgarmas ko'lamida va harakatchan omil (mehnat)ning tarmoqlar o'rtasida o'zgarib turishi sharoitida mamlakatning FD ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini ifodalaydi.

10.2-rasmdagi I kvadrantda befarqlik (talab) egri chizig'i ishlab chiqarish imkoniyatlari (taklif) chizig'iga uringan N nuqtada savdo bo'lmagan sharoitdagi muvozanat ko'rsatilgan. Bu sharoitda tarmoqlar o'rtasida mehnat resurslarining taqsimlanishi III kvadrantdagi G nuqta orqali ifodalangan. Agar MPL — mehnatning chegaraviy unumdorligi, w — ish haqi, P tovar narxi bo'lsa, mehnatning chegaraviy unumdorligi va tovar narxining ko'paytmasi ish haqiga teng bo'lgunga qadar qo'shimcha ishchilarni ishga yollash tadbirkorlarga foydali bo'ladi, ya'ni


$$MPL_1 \times P_1 = w, \quad MPL_2 \times P_2 = w \quad (10.2)$$

Binobarin, 10.2 formulalarni 1- va 2-tovarlar uchun mehnatga talab funksiyalari deb qarash mumkin. Agar ish haqi pastlasa, tadbirkorga ko'proq ishchini yollash foydali bo'ladi. Maxsus omillar modelida mehnat harakatchan omil bo'lganligi sababli uning bahosi (ish haqi) turli tarmoqlarda bir xil bo'ladi. Agar bir xil bo'lmasa, harakatchaligi sabab mehnat resurslari ish haqi yuqoriroq tarmoqqa ko'chib o'tgan va tarmoqlardagi ish haqi yana tenglashgan bo'lardi. Bundan tashqari, yuqorida 10.1-tenglamada faraz qilganimizdek, mamlakatdagi jami mehnat miqdori cheklangan va ularning barchasidan foydalanilmoqda.

Ana shu ma'lumotlar asosida 1- va 2-tovarlar ishlab chiqarishi o'rtasida ishchi kuchininig taqsimlanishi grafigini chizish mumkin (10.3-rasm).

Горизонтал o'q iqtisodiyotdagi jami mehnat resurslari miqdorini anglatadi, o'ng tomondan boshlab 1-tovar uchun, chap tomondan boshlab 2-tovar uchun mehnat xarajatlari joylashtirilgan, G nuqta 10.2-rasmdan ko'chirib o'tkazilgan. Bu nuqta mehnat resurslariga mavjud talab darajasida ularning 1- va 2-tovar ishlab chiqarishida taqsimlanishini ifodalaydi. Ish haqining chap shkalasidan boshlab 1-tovar ishlab chiqarishi uchun mehnatga talab egri chizig'ini olish mumkin ($P_1 \times MPL_1$), bu chiziq amalda 1-tovar narxiga ko'paytirilgan 5.1-a-rasmdagi mehnatning chegaraviy mahsuli egri chizig'ini ifodalaydi.

10.3-rasm. Harakatchan omilning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi.




Egri chiziq ish haqi oshishi bilan mehnatga talab kamayishini aks ettirib turibdi. Xuddi shuningdek, ish haqlning o'ng shkalasidan boshlab 2-tovar ishlab chiqarishi uchun mehnatga talab egri chizig'ini olish mumkin ($P_2 \times MPL_2$), bu chiziq ham 2-tovar narxiga ko'paytirilgan mehnatning chegaraviy mahsull egri chizig'ini ifodalaydi. Egri chiziqning kesishish nuqtasi A 1- va 2-tovar ishlab chiqarishi uchun zarur ishchilar soni mamlakatdagi jami ishchilar soniga teng bo'lgandagi w ish haqi darajasini ko'rsatadi, ulaning tarmoqlar orasida taqsimlanishi chegarasi G nuqtada joylashgan.

Xalqaro balans

Nisbiy ustunliklar modelidan bizga ma'lumki, 1- va 2-tovarlarning narxining bir vaqtdagi bir xil o'zgarishi ularning nisbiy

narxining o'zgarishiga olib kelmaydi. Ammo ularning faqat birining narxi o'zgarsa yoki har ikki tovarning narxlari nomutanosib o'zgarsa, nisbiy narxda o'zgarish kuzatiladi. Bir mamlakatdagi tovarning nisbiy narxining boshqa mamlakatdagi shu tovarning nisbiy narxiga nisbatan har qanday o'zgarishi ikki mamlakat o'rtasida savdoning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Nisbiy narxlardagi farq – savdoning asosi hisoblanadi. Nisbiy narxlar har ikki mamlakatda tovarga nisbiy talab yoki nisbiy taklifdagi farq tufayli farqlanishi mumkin. Xeksher-Olin nazariyasidan kelib chiqqan holda maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi birinchi va ikkinchi mamlakatda tovarlarga talab bir xil, ammo ularning taklifi har xilligidan kelib chiqadi. Taklifdagi farq mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligidan kelib chiqadi.

10.4-rasm. Maxsus ishlab chiqarish omillari ta'sirida taklifning o'zgarishi.



Bunda ma'lum tovarni ishlab chiqarish uchun maxsus sanalgan omil ham rol o'ynaydi. Ko'rib chiqayotgan modelimizda ishlab chiqarish omillari uchta: kapital va yer (mos rovidda 1- va 2-tovar ishlab chiqarishida maxsus omil) va mehnat (harakatchan omil), mamlakatlar ikkita. Uch xil variant bo'lishi mumkin (10.4-rasm):

- Birinchi mamlakatda ikkinchi mamlakatga nisbatan kapital (maxsus omil) ko'proq, yer kamroq. Boshqa omillar miqdori oz'garmagan holda agar kapital taklifi ortsa, 1-tovar ishlab chiqarishida chegaraviy mehnat unumdorligi ortadi, chunki kapital bu tovar ishlab chiqarishida maxsus omil sanaladi. Shuning uchun 1-tovar ishlab chiqarishida foydalaniladigan talab

egri chizig'i o'ngga $(P_1 \times MPL_1)$ dan $(P_1 \times MPL_1)^*$ ga suriladi. Natijada 1-tovar ishlab chiqariladigan tarmoqda ish haqi w dan w_1 ga ortadi va muvozanat nuqtasi A dan B ga ko'chadi, buning oqibatida GG_1 miqdordagi ishchi kuchi 2-tovar ichlab chiqaruvchi tarmoqdan 1-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqqa ko'chib o'tadi.

- Ikkinchi mamlakatda birinchi mamlakatga nisbatan yer (maxsus omil) ko'proq, kapital kamroq. Boshqa omillar miqdori oz'garmagan holda agar yer taklifi ortsa, 2-tovar ishlab chiqarishida chegaraviy mehnat unumdorligi ortadi, chunki yer bu tovar ishlab chiqarishida maxsus omil sanaladi. Shuning uchun 2-tovar ishlab chiqarishda foydalaniladigan talab egri chizig'i o'ngga

$(P_2 \times MPL_2)$ dan $(P_2 \times MPL_2)$ 'ga suriladi. Natijada 2-tovar ishlab chiqariladigan tarmoqda ish haqi w dan w_2 ga ortadi va muvozanat nuqtasi A dan C ga ko'chadi, buning oqibatida GG_2 miqdordagi ishchi kuchi 1-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqdan 2-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqqa ko'chib o'tadi.

- Birinchi va ikkinchi mamlakat kapital va yer bilan taxminan bir xil ta'minlangan, lekin bir mamlakatda ikkinchi mamlakatga nisbatan ishchi kuchi (harakatchan omil) ko'proq. Ishchi kuchi bilan har xil darajada ta'minlanganlik 1- va 2-tovar taklifiga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi. Buning sababi shundaki, ishchi kuchi taklifining ortishi uchun ishchi kuchi bahosi (ish haqi)ni oshirish zarur, bu esa 1- va 2-tovarlar narxining mutanosib ravishda oshiradi. Natijada 1-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqda ham, 2-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqda ham mehnatga talab egri chizig'i yuqoriga suriladi va muvozanat nuqtasi D nuqtaga ko'chadi, ammo tarmoqlar o'rtasida mehnat resurslari taqsimoti G nuqtada qolgan holda o'zgarmaydi.

Maxsus ishlab chiqarish omillari ta'sirida taklif egri chizig'dagi siljishlar ikki mamlakat o'rtasida savdo bo'lishiga turtki bo'ladi. Ma'lumki, 2-tovar narxi orqali ifodalangan 1-tovarning nisbiy narxi jahon nisbiy taklifi egri chizig'i va jahon nisbiy talabi egri chizig'ining kesishish nuqtasida o'rnatiladi. (10.5-rasm). Agar harakatchan omil (ishchi kuchi) har ikki mamlakatda miqdor jihatidan bir xil bo'lsa, talab o'zgarmas hisoblanadi. Gorizontaal o'qda 1-tovarning nisbiy miqdori, vertikal o'qda uning nisbiy narxi ko'rsatilgan. Miqdor ham, narx ham

mos ravishda 2-tovar miqdori va narxi orqali ifodalangan.


1-mamlakatda 1-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqda ishchilar ko'p bo'ladi va ularning ixtiyorida kapital ko'p bo'ladi. Demak, 1-tovar ishlab chiqarishi ko'payadi va bu tovarning nisbiy narxi (P_1/P_2) past bo'lganligi sababli nisbiy taklif (RS_1) egri chizig'ini o'ngga surgan holda jahon bozorida taklifi ortadi. Ayni paytda 2-mamlakatning 1-tovar ishlab chiqaruvchi tarmog'ida bandlik darajasi pasayadi, chunki ishchi kuchining bir qismi 2-tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqqa o'tadi. Natijada 1-tovar ishlab chiqarishi, o'z navbatida uning jahon bozoriga taklifi ham qisqaradi. Shuning uchun 2-mamlakatning 1-tovar nisbiy taklifi (RS_2) egri chizig'i 1-mamlakatnikiga nisbatan o'ngroqda, nisbiy narx esa yuqoriroqda joylashadi $(P_1/P_2)_{II}$.

Mamlakat ichkarisida nisbiy narxlar har xil bo'lganligi sababli 1-mamlakat 1-tovarni sotishni, 2-mamlakat esa sotib olishni xohlab qoladi. Savdo amalga oshadigan nisbiy narx $(P_1/P_2)_w$ har ikki mamlakatdagi savdo boshlanmasdan oldingi ichki narxlarning o'rtarog'ida belgilanadi, natijada 1- va 2-mamlakatlarning birgalikdagi 1-tovar taklifi RS_w ni tashkil qiladi. Binobarin, 1-tovarning 1-mamlakatdagi nisbiy narxi ko'tariladi, 2-mamlakatdagi nisbiy narxi esa pasayadi. Birinchi mamlakatda maxsus omil (kapital) egalarining mavqei yaxshilanadi, mehnat resurslarining bir qismi 1-tovar ishlab chiqarishiga ko'qilib o'tadi, ammo bu mamlakatda maxsus omil sanalmagan yer egalari mavqei yomonlashdi. Ikkinchi mamlakatda maxsus omil (yer) egalari mavqei yaxshilanadi, mehnat resurslarining bir

Uchinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

qismi 2-tovar ishlab chiqarishiga ko'chib o'tadi, sanalmagan kapital egalari mavqei ammo bu mamlakatda maxsus omil yomonlashdi.

10.5-rasm. Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasida xalqaro savdo.



Maxsus ishlab chiqarish omillari modelida eksport va import nisbati oldingi boblarda ko'rib chiqqanimizdek, ishlab chiqarish va iste'mol nisbati bilan belgilanadi. Agar

- D_1 — 1-tovarga talab,
- D_2 — 2-tovarga talab,
- Q_1 — 1-tovar ishlab chiqarishi,
- Q_2 — 2-tovar ishlab chiqarishi,
- P_1 — 1-tovar narxi,
- P_2 — 2-tovar narxi bo'lsa,

$$P_1 \times D_1 + P_2 \times D_2 = P_1 \times Q_1 + P_2 \times Q_2 \quad (10.3)$$

Bu tenglamani shaklini almashtirib quyidagi tenglamaga kelamiz:

$$D_2 - Q_2 = (P_1 / P_2) \times (Q_1 - D_1) \quad (10.4)$$

Ammo, bizga ma'lumki, talab va ishlab chiqarish farqi ($D_2 - Q_2$) mamlakatning 2-tovar importi, ishlab chiqarish va talab farqi ($Q_1 - D_1$) esa uning 1-tovar eksporti formulasini aks ettiradi. P_1 / P_2 nisbat 1-tovarning 2-tovar orqali ifodalangan nisbiy narxidir. Shunday qilib, mamlakatning nisbiy narxlar koeffitsienti bilan tuzatish kiritilgan 1-tovar eksportiga bog'liq 2-tovar importi

funksiyasini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, 2-tovar importi qiymati 1-tovar eksporti qiymatining nisbiy narxga ko'paymasiga teng. Binobarin, import hajmi mamlakat eksporti bilan chegaralangan.

@ *Бюджет cheklashlari* (budget constraints) xalqaro capital harakati mavjud bo'lmagan sharoitda mamlakat importi hajmining joriy nisbiy narxlarda eksportdan keladigan daromad bilan cheklanishini anglatadi.

Shunday qilib, maxsus ishlab chiqarish omillari modeli barcha omillarni ikkiga ajratadi: tarmoqlararo erkin ko'chib yuruvchi harakatchan omillar va faqat ma'lum bir tarmoqqa xos bo'lgan maxsus omillar. Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan

turlicha ta'minlanganligi tovarlar nisbiy taklifida va ularning nisbiy narxida farq bo'lishiga olib keladi, bu esa mamlakatlarni o'zaro savdo qilishga undaydi. Xalqaro savdo natijasida eksport tarmog'i uchun maxsus ishlab chiqarish omillari rivojlanib boradi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarish omillari esa qisqaradi. Eksport tarmog'i uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlari ortib boradi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlari esa kamayib ketadi. Harakatchan omillar bu tarmoqlar o'rtasida erkin harakatlanib rivojlanishi ham mumkin, qisqarishi ham mumkin.

XI bob. Xalqaro savdoning daromadga ta'siri

Savdodan keladigan daromadning taqsimlanishi

Xalqaro savdoning deyarli barcha nazariyalarida jahon taklifi va jahon talabi asosida muvozanat narxining shakllanishi qonuniyatlariga asosiy e'tibor qaratiladi. Chunki ko'pchilik holatlarda bu narx savdo qiluvchi mamlakatlardagi ichki narxdan farq qilganligi sababli mamlakatlar o'rtasida ham, mamlakatning o'zida ham xalqaro savdodan olinadigan daromadning taqsimlanishida muammolar vujudga keladi. Mamlakat ichkarisida ishlab chiqarish omillari egalari pirovard tovarlar narxining o'zgarishi natijasida va bu tovarlar ishlab chiqarishida foydalanilgan omillar narxining o'zgarishi natijasida foyda yoki zarar ko'radi. Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarida xalqaro savdo mamlakat ichkarisida daromadga ta'sir ko'rsatmaydi, deb faraz qilingan. Boshqa barcha nazariyalar uchun savdo natijasidagi daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash masalasi eng muhim masalalardan biri sanaladi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari savdodan yutishi, nisbatan yetishmaydigan ishlab chiqarish omillari egalari yutqazishini ko'rsatdi. Binobarin, serob ishlab chiqarish omillari egalari erkin savdo tarafdori, yetishmaydigan ishlab chiqarish omillari egalari esa unga qarshi bo'ladi, deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Ammo Xeksher-Olin-Samuelsonning ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi nazariyasiga

ko'ra, xalqaro savdo natijasida tovarlar nisbiy narxining muvozanatlashuvi ishlab chiqarish omillari nisbiy narxining, bu orqali ana shu tovarlar ishlab chiqarilishida foydalanilgan ishlab chiqarish omillari egalari daromadlarining muvozanatlashuviga olib keladi.

Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining xususiy holi deb qarash mumkin bo'lgan maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi o'zining dastlabki ko'rinishida xalqaro savdodan keladigan daromadning taqsimlanishiga bevosita taalluqli bo'lgan ikki savolga javob bermasdi. Ishlab chiqarish omillari narxi qanday bo'ladi, binobarin Tovar ishlab chiqarishda nisbatan intensiv ishlatiladigan ishlab chiqarish omillari egalari daromadlari bu tovarlar narxi oshganda yoki pasayganda qanday o'zga-radi? Bir ishlab chiqarish omili taklifining o'zgarishi ishlab chiqarish, eksport miqdoriga va buning natijasida bu omil intensivroq ishlatiladigan tarmoq daromadiga hamda bu omil nointensivroq ishlatiladigan boshqa tarmoqlar daromadiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Bu savollarga javobni xalqaro savdoning yangi nazariyalari qatoriga kiradigan ikki nazariya: Stolper-Samuelsonning tovarlar narxi o'zgarishining ishlab chiqarish omillari narxiga ta'siri nazariyasi va Ribchinskiyning omillar taklifi o'zgarishining ishlab chiqarishga ta'siri nazariyasidan topishimiz mumkin. Nazariyalarning mantiqiy nisbati 11.1-jadvolda keltirilgan.

Nisbatan serob omillar tovarlar ishlab chiqarilishida nisbatan ko'proq intensiv va

nisbatan kamroq intensiv ishlatilishi mumkin. Binobarin, nisbatan taqchil omillar ham tovarlar ishlab chiqarilishida nisbatan ko'proq intensiv va nisbatan kamroq intensiv ishlatilishi mumkin. Masalan, kapital ushbu mamlakatda nisbatan serob ishlab chiqarish omili bo'lsa, demak undan kapital sig'imli tovarning ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladi. Agar u mehnat sig'imli tovar ishlab chiqarishda ishlatilsa, demak undan nisbatan kamroq intensiv foydalaniladi.

Maxsus ishlab chiqarish omillari modelida daromadning taqsimlanishi

Samuelson-Jonsning maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasini rivojlantirgan holda serob ishlab chiqarish omillari egalarining barchasining emas, balki mamlakatning

eksport tarmoqlari uchun maxsus bo'lgan omil egalarining daromadlari ortishini, nisbatan taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillari egalarining barchasining emas, balki faqat import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlar uchun maxsus bo'lgan omil egalarining daromadlari kamayishini ko'rsatdi. Xulosa amalda ochiq-oydin ko'rinib turibdi: nisbatan serob ishlab chiqarish egalarining hammasi ham erkin savdo tarafdori bo'lavermaydi, faqatgina eksport tarmog'i uchun maxsus bo'lgan omil egalarigina erkin savdoni qo'llab-quvvatlaydi. Xuddi shu kabi nisbatan taqchil ishlab chiqarish egalarining hammasi ham erkin savdoga qarshi chiqavermaydi, faqatgina import bilan raqobat qiluvchi tarmog uchun maxsus bo'lgan omil egalarigina erkin savdoni qo'llab-quvvatlamaydi. Bunda xalqaro savdo ortib boradigan yoki kamayib boradigan harakatchan omil egalarining daromadiga ham birday ta'sir ko'rsatmaydi.

11.1-jadval. Savdo natijasida keladigan daromadning taqsimlanishini tushuntiruvchi nazariyalar

Xalqaro savdo tushuntirilishi	Daromad taqsimlanishini tushuntirilishi
Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari	Daromad taqsimlanishi masalasi ko'rib chiqilmagan
Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi	Xeksher-Olin: nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari yutadi, nisbatan taqchil ishlab chiqarish omillari egalari yutqazadi
	Xeksher-Olin-Samuelson: tovarlar nisbiy narxining muvozanatlashuvi bu tovarlar ishlab chiqarilishida foydalanilgan omillar nisbiy narxining (ishlab chiqarish omillari egalari daromadining) muvozanatlashuviga olib keladi
Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi	Samuelson-Jons: eksport tarmog'i uchun maxsus bo'lgan omil egalari daromadi ortadi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoq uchun maxsus bo'lgan omil egalari daromadi kamayadi
	Stolper-Samuelson: xalqaro savdo narxi ortayotgan tovar ishlab chiqarishida intensiv foydalaniladigan omil egalari daromadining ortishiga, narxi pasayayotgan tovar ishlab chiqarishida intensiv foydalaniladigan omil egalari daromadining kamayishiga olib keladi
	Ribchinskiy: omillardan birining taklifining ortishi bu omil intensivroq ishlatiladigan tarmoqda ishlab chiqarishning nisbatan ko'proq ortishiga va daromadning ko'payishiga, boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi

@ Samuelson-Jons teoremasi (Samuelson—Jones Theorem) – savdo natijasida eksport tarmog'i uchun maxsus bo'lgan omil egalari daromadi ortadi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoq uchun maxsus bo'lgan omil egalari daromadi kamayadi.

Bu tamoyilni xalqaro savdoning mamlakat ichkarisida daromadning taqsimlanishiga ta'siri orqali tushuntirish mumkin (10.4-rasm). Faraz qilaylik, savdo natijasida 1-tovar narxi 20 foizga ortdi. 1-tovar ishlab chiqarishi uchun zarur mehnatga talab egri chizig'i ham 20 foizga o'ngga suriladi. Agar 2-tovar narxi ham 20 foizga oshmasa va mos ravishda 2-tovar ishlab chiqarishi uchun zarur mehnatga talab egri chizig'ini 20 foizga chapga surmasa, nisbiy narx o'zgaradi va ish haqi 20 foizdan kamroqqa oshadi. Kapital maxsus omil bo'lgan 1-tovarning ko'tarilgan narxi va yer maxsus omil bo'lgan 2-tovarning o'zgarmagan narxi daromadning taqsimlanishiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

- *Mehnatning qiymati (ish haqi) ko'tariladi, lekin 1-tovar narxining oshgani darajasida emas, binobarin 1-tovar narxi orqali ifodalangan nisbiy ish haqi pasayadi, 2-tovar orqali ifodalangan nisbiy ish haqi tushadi. Buning natijasida 1-tovar narxining o'zgarishi mehnatning bahosiga qanday – ijobiy yoki salbiy qilishini aniqlab bo'lmaydi. Hammasi narxlarning yangi nisbatida ishchilar qaysi tovarni ko'proq sotib olishiga bog'liq. Agar bu tovar 1-tovar bo'lsa, ularning holati yomonlashadi, agar 2-tovar bo'lsa, aksincha, ularning holati yaxshilanadi.*

- *Kapital egalari shak-shubhasiz yutdi, chunki 1-tovar narxi orqali ifodalangan nisbiy ish haqi tushib ketdi, binobarin bu tovarni ishlab chiqarishdan keladigan, o'z navbatida kapital egalari qo'lida qoladigan foyda ko'paydi. Kapital egalari daromadi endi ko'paygan foydaning ishchilarga ish haqi ko'rinishda berish shart bo'lmagan qismi va ular ishlab chiqargan 1-tovarning narxining ortishidan kelgan foydadan tashkil topadi. 2-tovar narxining oshmaganligini hisobga olsak, kapital egalarning xarid qobiliyati keskin ortadi.*

- *Yer egalari shak-shubhasiz yutqazdi, chunki 2-tovar orqali ifodalangan nisbiy ish haqi ko'tarildi va bu ularning daromadini kamaytirdi, sababi endi ular ishchilarga ko'proq ish haqi to'lashlari zarur. Darhaqiqat foydaning bir qismi ishchilarga ish haqi ko'rinishida sarflanadi. Bundan tashqari, ular ishlab chiqarayotgan 2-tovar narxining o'zgarmagani holda 1-tovar narxining oshishi yer egalari qolida qolgan daromadning xarid qobiliyatini pasaytirdi.*

Ishlab chiqarish omilining rivojlanishi bu omil yordamida ishlab chiqarilgan tovar nisbiy narxining oshishi, bu tarmoqda bandlik darajasining ortishi va ish haqlarining oshishini oqibati hisoblanadi. Omil bahosi, masalan, kapital foiz stavkasi ko'tariladi.

Aksincha, ishlab chiqarish omilining qisqarishi bu omil yordamida ishlab chiqarilgan tovar nisbiy narxining tushishi, bu tarmoqda bandlik darajasining kamayishi va ish haqlarining pasayishi sabali yuz beradi. Omil bahosi, masalan, yer rentasi tushib ketadi.

Mehnat omilining harakatchanligi ko'pincha u yoki bu mamlakatning ayrim guruh fuqarolari nima uchun siyosiy jihatdan faol emasligini, masalan, saylovlarda ishtirok etmasligini tushuntiruvchi siyosatshunoslik nazariyalarining negiziga aylanadi. Mehnat resurslari o'zining harakatchanligi bois, qisqarayotgan tarmoqdan rivojlanayotgan tarmoqqa ko'chib o'tadi va eng yomon holatda hech nima yo'qotmaydi yoki o'zining iqtisodiy holatini yaxshilab oladi, shuning uchun asosiy mavzusi u yoki bu tarmoqqa yordam berish bo'lgan siyosiy kurashlarga katta qiziqish bildirmaydi.

Tovar narxlari o'zgarishining ishlab chiqarish omillaridan keladigan daromadga ta'siri

1941 yilda Pol Samuelson amerikalik iqtisodchi Volfang F. Stolper bilan birgalikda tovarlar narxining oshishi yoki tushishi bu tovarlar ishlab chiqarishida ishlatiladigan ishlab chiqarish omillari narxiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasiga javob berdi. Mualliflar o'z modelni quyidagi farazlar asosida qurishdi, bu farazlarning bir qismi ishlab chiqarish omillari modelidan olingan bo'lsa, qolganlari yangi sanaladi: mamlakat ikki ishlab chiqarish omilli yordamida ikki xil tovar ishlab chiqaradi; har ikki tovar va har ikki ishlab chiqarish omilli bozorida erkin raqobat mavjud; ishlab chiqarish omillari taklifi doimiy; 1-tovar nisbatan mehnat sig'imli bo'lsa, 2-tovar ishlab chiqarishida yer omilidan ko'proq foydalaniladi; ishlab chiqarish omillari mamlakat ichida mutlaq harakatchan, mamlakatlararo harakatchan emas; tovarlar narxi ularni ishlab

chiqarish narxiga teng; savoning rivojlanishi 1-tovar nisbiy narxining oshishiga olib keladi.

@ *Stolper-Samuelson teoremasi* (Stolper-Samuelson Theorem) – xalqaro savdo narxi ko'tarilgan tovar ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan omil narxining ortishiga, narxi pasaygan tovar ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan omil narxining tushishiga olib keladi.

Bunda omillar narxi ular yordamida ishlab chiqarilgan tovarlar narxiga nisbatan ko'proq oshadi yoki ko'proq kamayadi.

Faraz qilaylik, mamlakat ikki ishlab chiqarish omilli – mehnat (L) va yer (t) yordamida 1- va 2-tovarni ishlab chiqaradi, P_1 – 1-tovar narxi, P_2 – 2-tovar narxi, w – bir birlik mehnat uchun ish haqi stavkasi (ish haqi), r – bir birlik yerdan foydalanganlik uchun renta stavkasi (yer haqi), AT_1 – 1-tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yer miqdori, AL_1 – 1-tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat miqdori, AT_2 – 2-tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yer miqdori, AL_2 – 2-tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat miqdori (11.1-rasm).


Bu vaziyatda har bir tovarning narxi formulasi ularni ishlab chiqarishda foydalanilgan mehnat va yer narxlarining yig'indisidan iborat bo'ladi, ya'ni

$$P_1 = AL_1 \times w + AT_1 \times r \text{ va } P_2 = AL_2 \times w + AT_2 \times r \quad (11.1)$$

1-tovar ishlab chiqarishi 2-tovar ishlab chiqarishiga nisbatan ko'proq nisbiy mehnat sarfini talab qiladi, bundan quyidagi shart kelib chiqadi:

$$(AL_1) / (AT_1) > (AL_2) / (AT_2) \quad (11.2)$$

11.1-rasm. Ishlab chiqarish omili narxining tovar narxiga bog'liqligi.



11.1-formula har ikki tovarni ishlab chiqarish xarajatlari ularning bozor narxiga tengligini ko'rsatib turibdi. Agar gorizonta o'qqa ish haqini, vertikal o'qqa yer rentasini joylashtirsak, ishlab chiqarish omillari narxining 1- va 2-tovarlar qiymatiga bog'liqligi grafisini chizish mumkin (11.1-rasm). 1-tovar uchun pirovard nuqtalar (P_1/AL_1) va (P_1/AT_1) mos ravishda uning narxini bu tovarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan mehnat va yer miqdoriga nisbatini ifodalaydi. 2-tovar uchun pirovard nuqtalar (P_2/AL_2) va (P_2/AT_2) esa mos ravishda 2-tovar narxining bu tovarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan mehnat va yer miqdoriga nisbatidir.

1-tovar 2-tovarga qaraganda nisbatan ko'proq mehnat sarfi talab qiladi, bu esa

grafikda nisbatan tikroq to'g'ri chiziq bilan ifodalanadi. Muvozanatga A nuqtada erishiladi, muvozanat nuqtasi 1- va 2-tovarlarning mavjud narxida ishlab chiqarish omillari (mehnat va yer) narxini belgilaydi. Bu nuqtada har ikki tovar ishlab chiqarishida sarflangan mehnat narxi w ni, renta esa r ni tashkil etadi.

Faraz qilaylik, qandaydir sabab tufayli, 1-tovar narxi P_1 dan P_1^* gacha ko'tarildi, sabab sifatida, masalan, bu tovarni eksport qilish boshlanganligi yoki uning importiga bojxona boji o'rnatilganligini ko'rsatishimiz mumkin. Natijada (P_1/AL_1) va (P_1/AT_1) kasrlarning surati ortadi, maxraji o'zgarmaydi, ishlab chiqarish omillari narxining tovarlar narxiga bog'liqligini ifodalovchi to'g'ri chiziq chapga suriladi. Bunda 1-tovarning ko'tarilgan narxiga to'g'ri keluvchi

ishlab chiqarish omillari narxini endi B nuqta belgilaydi. Mehnatning yangi narxi w' ni, yerning yangi narxi r' ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, mehnat narxi w dan w' gacha oshdi, yer narxi esa r dan r' gacha kamaydi. Savdo natijasida narxi oshgan 1-tovar ishlab chiqarishida ko'proq intensiv foydalaniladigan omil – mehnat narxi ww' ga ko'tarildi. 1-tovar ishlab chiqarishida kamroq intensiv foydalaniladigan omil – yer narxi rr' kesma uzunligiga teng miqdorga pasaydi, xuddi shu kabi 2-tovar narxining oshishi rentaning ortishiga va ish haqining kamayishiga olib kelishini ko'rsatish mumkin.

Omillar taklifining ishlab chiqarishdan keladigan daromadga ta'siri

Kelib chiqishi polyak bo'lgan ingliz iqtisodchisi T.M.Ribchinskiy (ingliz kompaniyasi "Lasard Bros. "ning bosh iqtisodchisi) 1955 yilda, talabalik paytidayoq bir tarmoqning tezkor sur'atlarda rivojlanishi ko'pincha boshqa tarmoqlarga "jabr-zulm" ko'rsatishiga e'tibor qaratdi va omillar taklifining o'sishi va ishlab chiqarishning ortishi nisbati teoremasini isbot qildi.

Ribchinskiy amalda Stolper-Samuelsson teoremasidagi dastlabki sart-sharoitlardan tashqari narx doimiylik sharti o'rniga uning o'zgaruvchanligi shartini kiritib, bir tarmoqda omillar taklifining ortishi va boshqa tarmoqlardagi ishlab chiqarishda turg'unlik va hattoki, ishlab chiqarishning kamayib ketishi o'rtasida bevosita bog'liqlik borligini ko'rsatdi.

@ *Ribchinskiy teoremasi* (Rybczynski Theorem) — bir omil taklifining ortishi bu omil

nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan tarmoqda ishlab chiqarishni nomutanossib ravishda ko'proq foizga ortishiga, bu omil nisbatan kamroq intensiv foydalaniladigan tarmoqda esa ishlab chiqarishni kamayishiga olib keladi.

Faraz qilaylik, ikki ishlab chiqarish omili – mehnat va kapital yordamida ishlab chiqariladigan ikki tovar mavjud. 1-tovar nisbatan mehnat sig'imli, 2-tovar nisbatan kapital sig'imli. 11.2-rasmdagi O1 vektor 1-tovar ishlab chiqarishdagi eng samarali texnologiya (birlik kapitalga to'g'ri keladigan mehnat miqdori) bo'lsin, bu tovar mehnat sig'imli bo'lganligi bois, vektor gorizontal o'qqa yaqinroq joylashadi, O2 vektor esa 2-tovar ishlab chiqarishdagi eng samarali texnologiyani ifoda etib, bu tovar kapital sig'imli bo'lganligi bois, vektor vertikal o'qqa yaqinroq joylashadi. Mamlakatning mehnat va kapital bilan ta'minlanganligi G nuqta orqali ko'rsatilgan, bu nuqta mamlakatda OJ miqdorda mehnat va JG miqdorda kapital mavjudligini bildiradi. Omillarning bu miqdorida 1-tovar F hajmda, 2-tovar esa E hajmda ishlab chiqariladi.


Faraz qilaylik, kapital miqdori GG' ga ko'paydi, ikkinchi ishlab chiqarish omili (mehnat) miqdori va 1-, 2-tovarlarning narxi o'zgarmasdan qoldi.

Kapital bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatuvchi G' nuqta orqali yangi parallelogramni chizsak, ko'rinib turibdiki, kapital bilan ta'minlanganlik o'sganidan so'ng mehnat sig'imli 1-tovar ishlab chiqarishi F' nuqtaga, kapital sig'imli 2-tovar ishlab chiqarishi esa E' nuqtaga ko'chadi. Binobarin, kapital miqdorining ortishi natijasida kapital

sig'imli 2-tovar ishlab chiqarishi EE' miqdorga oshdi, mehnat sig'imli 1-tovar ishlab chiqarishi esa FF' miqdorga kamaydi. Bu holat bir omil bilan ta'minlanganlik darajasining ortishi bu omil nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan tovar ishlab chiqarish hajmining ortishiga, bu omil nisbatan kamroq intensiv foydalaniladigan

tovar ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keldi. $EE'/OE > GG'/JG$ ekanligi ko'rinib turibdi. Bu kapital miqdorining ortishi kapital sig'imli tovar ishlab chiqarishni mutanossib ravishda ko'proq ortishiga olib kelganini ko'rsatadi.

11.2-rasm. Ishlab chiqarish omili miqdorining ortishining ishlab chiqarishga bog'liqligi.



Ribchinskiy teoremasining xalqaro savdo uchun oqibatlari quyidagicha bo'ladi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, mamlakat o'zi nisbatan yaxshi ta'minlangan omil yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarni eksport qiladi. Ribchinskiy teoremasiga muvofiq, nisbatan serob ishlab chiqarish omili yordamida eksport uchun ishlab chiqarishni kengaytirish bu omil nisbatan serob bo'lmagan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi.

Bu tarmoqlarda import tovarlarga ehtiyoj ortadi. Aksincha, nisbatan taqchil ishlab chiqarish omili yordamida ishlab chiqarishni kengaytirish import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining ortishiga va importga ehtiyojni qisqarishiga olib keladi. Demak, Ribchinskiy teoremasi "gollandcha kasallik"ning umumiyroq holati sanaladi, ya'ni bir tarmoqda ishlab chiqarishni va eksportni faol ravishda kengaytirilishi boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarishning

kamayishiga va importga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga olib keladi. Ba'zi holatlarda bunday pasayish xonavayron qiladigan darajada bo'lishi mumkin, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportning o'sishidan keladigan ijobiy yutuq deindustrializatsiyaga ham olib kelishi mumkin.

Kuchaytirish samarasi

Stolper-Samuelson teoremasiga ko'ra, xalqaro savdo narxi ko'tarilgan tovar ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan omil narxining ortishiga, narxi pasaygan tovar ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan omil narxining tushishiga olib keladi. Biroq savol tug'iladi, ishlab chiqarish omili narxining oshishi va kamayishi uning yordamida ishlab chiqarilgan tovar narxining ko'tarilishi va pastlashiga mutanosibmi?

@ *Jonsning kuchaytirish samarasi* (Jones magnification effect) — ekzogen (tashqi ta'sir sababli vujudga keladigan) iqtisodiy o'zgaruvchilar ta'sirida endogen (ichki ta'sir sababli vujudga keladigan) iqtisodiy o'zgaruvchilarning nomutasib o'zgarishi.

Stolper-Samuelson teoremasida bu tovar nisbiy narxining ortishi bu tovar ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq intensiv foydalaniladigan omil egalariga nomutasib ravishda katta foyda keltirishini anglatadi, boshqa omil egalarini tamomila kamsitadi. Sonli misolni ko'rib chiqaylik, dastlabki holatda 1-tovar ishlab chiqarish uchun 5 dollarlik mehnat va 5 dollarlik yer sarflaning tovar narxi $5+5=10$ dollarga teng bo'lsin. Xalqaro savdo natijasida uning narxi 11 dollarga (10 foizga)

ko'tarildi. Teoremaga muvofiq ravishda mehnat sig'imli tovarning narxi oshganda mehnat narxi ham ko'tarilishi kerak, chunki u nisbatan ko'proq intensiv ishlatiladi, yer narxi esa tushishi kerak. Aytaylik, yer narxi 4,5 dollargacha tushdi, bu holatda mehnat narxi $11-4,5=6,5$ dollarga ortadi, ya'ni 10 foizga emas, balki 30 ($6,5/5 \times 100$) foizga ko'tariladi. Jonsning kuchaytirish samarasi ana shunday namoyon bo'ladi.

Ribchinskiy teoremasi bilan bog'liq holatda bu ishlab chiqarish omili hajmining ortishi ishlab chiqarishida bu omil nisbatan ko'proq intensiv ishlatiladigan tovar ishlab chiqarish hajmini nomutasib ravishda ko'proq o'sishiga olib keladi. Yana sonli misolga murojaat qilaylik: dastlabki holatda kapital sig'imli 2-tovarni ishlab chiqarishga 5 dollarlik mehnat va 5 dollarlik kapital omillari sarflangan bo'lsin. Keyin qo'shimcha investitsiyalar natijasida kapital hajmi 6 dollar miqdorgacha (20 foizga) ko'tarildi, natijada tovar narxi 11 dollargacha ko'tarildi. Teoremaga muvofiq ravishda, kapital miqdori oshganda kapital sig'imli tovar ishlab chiqarish hajmi ortishi kerak. Mehnat miqdori 4,5 dollargacha kamaygan bo'lsin, bu holda kapital sig'imli tovar ishlab chiqarish hajmi $11-4,5=6,5$ dollarga oshishi kerak, binobarin, ishlab chiqarish hajmi kapital miqdori kabi 20 foizga emas, balki 30 ($6,5/5 \times 100$) foizga ortadi. Bu ishlab chiqarish omili bilan ta'minlanganlik darajasining ortishiga nisbatan ishlab chiqarish hajmining ortishi ko'proq nisbatda bo'lishini ko'rsatadi, ya'ni bu holatda ham kuchaytirish samarasi mavjud.

Ribchinskiy teoremasi bilan bog'liq holatda omillar hajmining o'sish sur'atidagi ekzogen

o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmida nomutanosib katta o'zgarishlarga olib keladi. Stolper-Samuelson teoremasi bilan bog'liq holatda ishlab chiqarilayotgan tovarlar narxining o'sish sur'atidagi ekzogen o'zgarishlar ishlab chiqarish omillari narxida nomutanosib katta o'zgarishlarga olib keladi. Kuchaytirish samarasini amaliy maqsadlarda bilish juda muhim. Masalan, tadbirkor mehnat sig'limi tovar uchun eksport narxini ko'tarsa, u bu tovarni ishlab chiqarayotgan ishchilarning ish haqi yanada ko'proq darajada oshishiga, bu orqali eksportdan keladigan ijobiy samarani kamaytirishi yoki butunlay qoplab ketishiga tayyor turishi kerak.

Demak, xalqaro savdoning mutlaq va nisbiy ishlab chiqarish xarajatlari nazariyalardan boshqa barcha nazariyalari uchun savdo natijasida daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalasi eng asosiy masalalardan biri sanaladi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi xalqaro savdodan nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari yutishi, nisbatan taqchil ishlab chiqarish omillari egalari yutqazishini ko'rsatdi. Xeksher-Olin-Samuelsonning ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi xalqaro savdo natijasida tovarlar nisbiy narxining muvozanat-

lashuvi bu tovarlar ishlab chiqarishida foydalanilgan ishlab chiqarish omillari nisbiy narxining muvozanatlashuviga, o'z navbatida, ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlarini tenglashishiga olib kelishini ifoda etadi. Agar savdo maxsus ishlab chiqarish omillariga asoslanadigan bo'lsa, Samuelson-Jons teoremasiga muvofiq eksport tarmoqlari uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi ortadi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoq uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlari esa qisqaradi. Stolper-Samuelson teoremasiga ko'ra, tovar narxining oshishi bu tovar ishlab chiqarishida intensiv foydalaniladigan omil narxining oshishiga olib keladi. Va nihoyat, Ribchinskiy teoremasiga ko'ra, ishlab chiqarish omillari hajmining oshishi ishlab chiqarilishida shu omillar intensivroq foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi. Oxirgi ikki holatda Jonsning kuchaytirish samarasi o'rinli bo'ladi — tovar narxining ortishi bu tovarni ishlab chiqarishda intensiv ishlatiladigan omildan keladigan daromadni yanada ko'proq nisbatda ortishga olib keladi va ishlab chiqarish omillari hajmini ortishi ishlab chiqarilishida bu omil intensiv foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqarishini yanada ko'proq ortishiga sabab bo'ladi.

XII bob. Keng ko'lamlilik samarasi, nosoq'lom raqobat

Keng ko'lamlilik samarasi asosidagi savdo

XX asrning boshlarida rivojlanib borayotgan burjuaziyaning nuqtai nazariga ko'ra, monopoliya foydali sanaladi, chunki u narxlarni belgilashi va ulani o'z amriga bo'ysundirishi mumkin. Monopoliya sharoitidagi xalqaro savdo klassik nazariyalar qonunlariga bo'ysunmaydi, chunki ular jahon tovar bozorida va bu tovarlar ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan jahon ishlab chiqarish omillari bozorida erkin raqobat hukmron deb faraz qilingan.


Ammo real hayotda bunday vaziyat deyarli mavjud bo'lmaydi. Klassik nazariyalar zamonaviy xalqaro savdoni tushuntirishga qodir emas, chunki savdo qiluvchi mamlakatlar ishlab chiqarish omillari bilan deyarli bir xil nisbatda ta'minlangan yoki savdo bir xil tarmoqlarda o'rtasida yuz beradi, degan fikr tarafdori bo'lgan iqtisodchilar safi brogan sari ortib bormoqda. Shu sababli xalqaro savdo modellarining yangi guruhi paydo bo'ldi. Bu yangi nazariyalarning nisbiy ustunlik yoki ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyalari bilan bog'liqligi yo'q. Bu nazariyalar bozorlarni monopollashtirishning turli darajasi mavjudligini va ishlab chiqarish omillaridan optimal foydalanilmayotganligini tan oladi.

Umumiy iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, ishlab chiqarish ko'lamlining kengayib borishi natijasida tovar birligining tannarxi kamayib boradi. Bunga bir nechta sababni ko'rsatish mumkin:

- *Ixtisoslashuvning rivojlanishi — har bir ishchi faqat bitta ishlab chiqarish funksiyasiga e'tibor qaratgan holda bu funksiyani bajarishni yanada takomillashgan mashina va asob-uskunalardan foydalangan holda mukammal darajaga yetkazishi mumkin;*
- *Ishlab chiqarishni ajratib bo'linmasligi — ishlab chiqarish ko'lami kengayganda ishlab chiqarishga bevosita jalb qilinmagan xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar (boshqaruv apparati, buxgalteriya va hokazolar) ishlab chiqarish ko'lamiga nisbatan sekinroq kengayadi;*
- *Texnologik iqtisod — tovarning yangi sifatini yaratish xarajatlari uning qiymatini takomillashtirish xarajatlaridan kamroq bo'ladi. Masalan, yanada quvvatliroq mashinani yaratish xarajatlari mavjud mashinaning quvvatini bir birlikka oshitish xarajatlarining 2/3 qismini tashkil qiladi.*

@ *Keng ko'lamlilik iqtisod* (economies of scale) — ishlab chiqarishning rivojlanishi, bunda omillar xarajatlarini bir birlikka o'sishi ishlab chiqarishni bir birlikdan ko'proqqa ortishiga olib keladi.

12.1-rasm. Keng ko'lamlilik samarasi modelida xalqaro savdo.



Ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi bir xil yoki deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo keng ko'lamlilik samarasi bilan tushuntiriladi. Omillar bilan ta'minlanganlikdagi farq shu darajadagi, o'zaro savdoni tushuntirishda bu farqni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Keng ko'lamli iqtisod modeli texnologik jihatdan o'zaro yaqin yoki bir xil tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatlar o'rtasidagi savdoni ham tushuntiradi.

Faraz qilaylik, ikki mamlakat o'xshash, shuning uchun ularning 1- va 2-tovar taklifi ustma-ust tushadigan ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i, bu tovarlarga talab esa ustma-ust tushadigan befarqlik egri chizig'i bilan ifodalangani (12.1-rasm). Mamlakat iqtisodiyoti keng ko'lamlilik samarasi bilan tavsiflangani uchun ishlab chiqarish

imkoniyatlari egri chizig'i koordinata boshi yo'nalishida botiq. Savdo boshlanmasdan avval har ikki mamlakat 40 birlikdan 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi. Bu A nuqtada aks etgan. Nisbiy narx — $P_1/P_2 = P_A$, talabni belgilovchi befarqlik egri chizig'i I bilan ifodalangani. A nuqtadagi muvozanat turg'un emasligiga e'tibor qarataylik. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining bukikligi xususiyatidan kelib chiqib, keng ko'lamlilik samarasi natijasida tovar nisbiy narxining o'ng tomonga har qanday minimal siljishi 1-tovar narxini 1-mamlakat ishlab chiqarishni faqat 1-tovarga qaratgunga qadar pasayib borishiga olib keladi. Xuddi shu kabi tovar nisbiy narxining chap tomonga har qanday minimal siljishi 2-tovar narxini 2-mamlakat faqat 2-tovarga

ixtisoslashgunga qadar pasayib borishiga olib keladi.

Savdo boshlanishi bilan 1-mamlakat faqat 1-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshlaydi va ishlab chiqarish nuqtasi A nuqtadan B nuqta yo'nalishida surilib boradi. B nuqtada 1-mamlakat 1-tovar ishlab chiqarishiga to'liq ixtisoslashadi. 2-mamlakat esa faqat 2-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshlaydi va ishlab chiqarish nuqtasi A nuqtadan B' nuqta yo'nalishida surilib borib bu nuqtada 2-mamlakat 2-tovar ishlab chiqarishiga to'liq ixtisoslashadi. Toliq ixtisoslasuvda so'ng har 1-mamlakat 60 ta 1-tovarni, 2-mamlakat esa 60 ta 2-tovarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada bu mamlakatlarda iste'mol nuqtasi E nuqtaga ko'chadi. 1-mamlakatda ham, 2-mamlakatda ham har ikki tovar iste'moli 20 birlikka ko'payadi. Yangi befarqlik chizig'i (II) yuqoriroqqa joylashadi, bu mamlakatlarning har birida iste'mol darajasi ortganini bildiradi. Iste'molning bu vaziyatdagi ortishi keng ko'lamlilik samarasi tufayli yuz berdi, chunki mamlakatlar ma'lum bir tovarga ixtisoslashishni boshlab savdo boshlanmasdan oldingi vaziyatga nisbatan birgalikda har ikki tovardan ko'proq miqdorda ishlab chiqara olishdi.

Keng ko'lamli iqtisodning ta'rifiga ko'ra, omillar xarajatlarini bir birlikka o'sishi ishlab chiqarishni bir birlikdan ko'proqqa ortishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning o'shishi qanday tuzilmaviy siljishlar hisobiga yuz berishini aniqlab olish zarur. Bu siljishlar alohida firma- ishlab chiqaruvchiga nisbatan tashqi va ichki bo'lishi mumkin.

@ *Tashqi keng ko'lamlilik samarasi* (external economies of scale) — butun

tarmoqda ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi natijasida firma doirasida bi birlik tovar uchun xarajatlarning kamayishi.

@ *Ichki keng ko'lamlilik samarasi* (internal economies of scale) — firma ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi natijasida firma doirasida bi birlik tovar uchun xarajatlarning kamayishi.

Tashqi keng ko'lamlilik samarasi aynan bir turdagi tovarni ishlab chiqaruvchi firmalar sonining ko'payishi, bunda har bir firmaning ko'lami o'zgarmaydi. Bu holatda bozorda yetarli darajada raqobat hukmron bo'ladi. Ushbu model asosidagi savdo qonuniyatlarini erkin raqobat bo'lishini nazarda tutuvchi xalqaro savdoning klassik nazariyalariga yaqinlashtiradi. Bu eksportyotlar joriy narxda istalgan miqdorda tovar sota olishini anglatadi, zero ular narxga ta'sir ko'rsata olmaydi.

Ichki keng ko'lamlilik samarasi tovar ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda bu tovarni ishlab chiqaruvchi firmalar soni kamayganini nazarda tutadi. Bu ko'pchilik holatlarda nosog'lom raqobatning vujudga kelishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqaruvchilar tovar narxiga ta'sir ko'rsata oladi va tovar narxini pasaytirish orqali sotish hajmini oshirishlari mumkin. Ichki keng ko'lamlilik samarasining ekstremal holati sof monopoliya hisoblanadi — bu bozordagi shunday vaziyatki, firma tovarlariga raqobat mavjud emas.

Yakka hokimlik raqobati sharoitida savdo

Tarmoqda faqat bitta monopol ishlab chiqaruvchi mavjud bo'lgan holat shu tarmoqda bir xil tovar ishlab chiqaradigan va

har biri bu tovar narxiga ta'sir ko'rsata oladigan bir necha firma faoliyat olib boradigan oligopoliya holatiga nisbatan juda kamdan-kam uchraydi. Bunda tovarlar mutlaq bir xil sanalmaydi, ba'zi tavsiflari bilan farq qiladi. Oligopoliyaga misol sifatida 8-10 ta yirik ishlab chiqaruvchi faoliyat olib boradigan AQSh yoki G'arbiy Yevropa avtomobil bozorini keltirish mumkin. Har bir firmaning har bir avtomobili nimasi bilandir farq qiladi. Har bir firmaning monopolist hisoblanishini nazarda tutuvchi bunday bozorda oligopoliya sharoitidagi monopolistik raqobat rivojlanadi (masalan, BMV-007 ni faqat "BMV" kompaniyasi ishlab chiqaradi). Ammo firma tovarining narxi boshqa firmalar – shunga o'xshash avtomobil ishlab chiqaruvchilar ("Volvo", "Saab", "Mercedes) narxiga bog'liq bo'ladi.

Monopolistik raqobat asosidagi savdo nazariyasining rivojlanishiga AQShlik iqtisodchi Pol Krugman katta hissa qo'shdi.

Agar X – firmaning sotuv hajmi, S – tarmoq bo'yicha sotuv hajmi, n – tarmoqdagi firmalar soni, b – firmaning bozordagi ulushini uning tovarini narxiga bog'liqligini ifodalovchi talab o'zgaruvchisi, P – bu firma tovarining narxi, P^* – raqobat qiluvchi o'xshash tovarlarning o'rtacha narxi bo'lsa, quyidagi formula o'rinni bo'ladi:

$$X = S[(1/n) - bx(P - P^*)]. \quad (12.1)$$

Agar firma o'z tovarlarini o'rtacha bozor narxidan ($P > P^*$) yuqori narxda sotsa, uning bozordagi ulushi kam bo'ladi ($X < (S/n)$). Va aksincha, firma o'z tovarlarini o'rtacha bozor narxidan ($P < P^*$) past narxda sotsa, uning bozordagi ulushi ko'p bo'lishi kerak ($X > (S/n)$).

Monopolistik raqobatning xalqaro savdoga ta'sirini tushuntirish uchun, avvalo, firmalar soni bilan ularning tovarlari narxi o'rtasidagi uchta o'zaro bog'liqlikni aniqlab olish zarur:

- *Firmalar soni bilan tipik firmaning o'rtacha xarajatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik – firmalar soni qancha ko'p bo'lsa, har bir firmaning ishlab chiqarish hajmi shuncha kam, bir birlik tovar uchun o'rtacha xarajatlar shuncha yuqori;*
- *Firmalar soni bilan ularning tovarlari narxi orasidagi o'zaro bog'liqlik – firmalar soni qancha ko'p bo'lsa, raqobat shuncha yuqori va narxlar shuncha past;*
- *Firmalar sotayotgan tovarlar narxлари bilan bozordagi firmalar soni o'rtasida o'zaro bog'liqlik – agar narx o'rtacha bozor narxidan yuqori bo'lsa, bozorda qo'shimcha firmalar paydo bo'ladi, agar narx o'rtacha bozor narxidan past bo'lsa, firmalar soni kamayadi.*

Monopolistik raqobat modeli doirasida dastlabki ikki o'zaro bog'liqlik ko'proq muhim sanaladi. Xalqaro savdo bozor ko'lamini kengaytiradi. Firmalar soni bilan bir firmaning o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi chiziqli tenglama bilan ifodalanadi:

$$C^* = (F/X) + c = n(F/S) + c, \quad (12.2)$$

Bu yerda, C^* — o'rtacha xarajatlar, F — firmaning ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan doimiy xarajatlar, c — firmaning chegaraviy xarajatlari.

Bu oligopolik bozorda taklifning o'ziga xos tenglamasi. Ushbu tenglama firmaning ishlab chiqarish hajmi ortib borishi bilan uning o'rtacha xarajatlari kamayib borishini

ko'rsatadi, chunki jalb qilingan (qayd etilgan) xarajatlar yanada ko'p miqdorda ishlab chiqarilgan tovarlar soniga bo'linadi. Bozor muvozanati sharoitida barcha firmalar o'z mahsuloti uchun bir narxga ega bo'ladi, ya'ni $P = P^*$. Bu holatda 12.1 bozor muvozanati tenglamasi sodda ko'rinishni oladi: $X = S/n$. 12.2 tenglamaning chap tarafida X ning o'rniga S/n ni qo'ysak, tarmoqda firmalar soni qancha ko'p bo'lsa, ularning har birining o'rtacha xarajatlari shuncha yuqori bo'lishini anglatuvchi o'ng tomonni olamiz. Savdoning rivojlanishi tufayli bozorning kengayishi natijasida bir firma hisobiga S sotuv hajmini ortishi, bu bozorda ishtirok etuvchi firmalar soni o'zgarmas bo'lgan holatda har bir firmada C^* o'rtacha xarajatlarni qisqarishiga olib keladi.

Bozordagi firmalar soni va narx o'rtasidagi munosabat bozor muvozanatining asosiy tenglamasi (12.1)dan kelib chiqadi. To'rtburchak qavs ichidagi ifodani S ga ko'paytirsak, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$X = (S/n) - Sbp + Sbp^* = ((S/n) + Sbp^*) - Sbp \quad (12.3)$$

Makroekonomikadan ma'lumki, sotuvning narxga nisbatan teskari o'zaro bog'liqligi oddiy chiziqli tenglama bilan ifodalanadi:

$$X = A - BP \quad (12.4)$$

Bu yerda A – konstanta, B – to'g'ri chiziqning gorizontal o'q bilan tashkil etgan burchagini ko'rsatuvchi koeffitsient. 12.3-tenglama shakli 12.4-tenglamaga o'xshashli-

gini ko'rish qiyin emas, qavs ichidagi ifoda A konstantani, (Sxb) esa B koeffitsientni ifodalaydi.

Umumiy iqtisodiy nazariyadan bizga ma'lum bo'lgan firmaning chegaraviy daromadi (MR) formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$MR = P - (X/B) = P - (X/Sb) = c \quad (12.5)$$

12.5 formulada B koeffitsient (Sxb) bilan almashtirilgan, firma o'z foydasini maksimal-lashtirishi uchun o'zining chegaraviy daromadini o'zining chegaraviy xarajatlari (c)ga teng qilib belgilaydi. Bu tenglamaning shaklini almashtirib firmaning o'z tovarlarini sotayotgan narxiga ega bo'lamiz:

$$P = c + X/Sb. \quad (12.6)$$


Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, $X = S/n$. Shuning uchun firmalar soni va narx o'rtasidagi biz qidirayotgan munosabat quyidagicha bo'ladi:

$$P = c + 1/bn \quad (12.7)$$

Bu oligopolik bozordagi talabning o'ziga xos tenglamasidir. Tenglamadan ko'rinib turibdiki, firmalar soni (n) qancha ko'p bo'lsa, raqobat darajasi shuncha yuqori va narx (P) shuncha past bo'ladi. 12.7-tenglamada savdo parametri (S) qatnashayotgani yo'q, bu bozor ko'lami firmalar soni va ularning tovarlari narxiga ta'sir ko'rsatmasligini anglatadi.

Bozor ko'laminin kengayishi bilan xalqaro savdo orasidagi o'zaro bog'liqlikni grafik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin (12.2-rasm).

12.2-rasm. Monopolistik raqobat sharoitida xalqaro savdo



C_1 egri chiziq 12.2-tenglamaning grafik ravishda ifodalaydi, tarmoqda firmalar qancha ko'p bo'lsa, ularning har biridagi o'rtacha xarajatlar shuncha yuqori bo'ladi, ammo savdo hajmining ortishi o'rtacha xarajatlarni qisqartiradi. P egri chiziq 12.7-tenglamaning grafik ko'rinishi – bozorda firmalar qancha ko'p bo'lsa, ular tovarni shuncha past narxda sotadi. Savdodan oldin bozor A nuqtada muvozanatda bo'ladi, ya'ni n_A sondagi firmalar o'z tovarlarini P_A narxda sotadi. Mamlakat xalqaro savdoga kirishgandan so'ng uning S sotuv hajmi bilan o'chanuvchi bozor ko'lami kattalashadi. Bu o'rtacha xarajatlarni qisqartiradi va C_1 egri chiziqni pastga suradi, va C_2 egri chiziqqa aylanadi. Ammo P narxning firmalar soniga bog'liqligini ifodalovchi egri chiziq bozor ko'lamiga bog'liq emas, shuning uchun u o'z joyida qoladi. Yangi bozor muvozanatiga B nuqtada erishiladi. Bunda avvalgiga nisbatan

ko'proq sondagi firmalar (n_B) o'z tovarlarini pastroq P_B narxda sota boshlaydi. Binobarin, iste'molchilar nuqtai nazarida, hatto monopolistik raqobat sharoitida ham xalqaro savdoni rivojlantirish foydali bo'ladi: firmalar soni, binobarin, ular ishlab chiqaradigan tovarlarning xilma-xilligi ortadi va narxlar pasayadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish omillari bilan bir xil yoki bir-biriga juda yaqin ta'minlangan mamlakatlar o'rtasidagi savdo mamlakatlarning ma'lum bir tovarlarga nisbiy ustunlikka ega bo'lgani uchun emas, balki omillar xarajatlarini bir birlikka o'sishi ishlab chiqarishni bir birlikdan ko'proqqa ortishga olib kelishini ifodalovchi keng ko'lamilik samarasi bilan tushuntiriladi. Tashqi keng ko'lamilik samarasi aynan bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi firmalar sonining ortishi, ammo ishlab chiqarish hajmining o'zgarmay qolishi va

oqibatda erkin raqobat vujudga kelishini nazarda tutadi. Ichki keng qo'lamlilik samarasi tovar ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda bu tovarni ishlab chiqaruvchi firmalar soni qisqarishini, natijada nosog'lom raqobat (ekstremal holatlarda monopolistik raqobat) yuzaga kelishini ko'zda tutadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlari narxiga ta'sir ko'rsata oladi va uni pasaytirib sotuv hajmini

oshirishlari mumkin. Monopolistik raqobat doirasidagi savdo modeli xalqaro savdo bozor ko'lamini kengayishiga olib kelishidan kelib chiqadi. Ikki mamlakat o'zaro savdo olib borganda birgalikdagi bozor ikki mamlakat alohida bozorlari yig'indisidan katta bo'ladi, firmalar soni, binobarin, tovarlar xilma-xilligi ortadi, tovar birligi narxi pasayadi.

XIII bob. Tarmoq doirasidagi xalqaro savdo nazariyasi va xalqaro savdoda talab va revers nazariyalari

Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo savdoning farqi

XX asming 60-yillariga kelib rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, integratsion birlashmalar tashkil topgan Farbiy Yevropa mamlakatlari bir tarmoqning differensatsiyalashgan tovarlari bilan o'zaro savdo qila boshlashdi. Nemislar o'z avtomobillarini chetga sotilib, o'rniga yapon avtomobillarini sotib ola boshladi, ingliz parmalash uskunalari eksport qilinib, o'niga Norvegiyadan shunday uskunalar import qilindi, Italiyada ishlab chiqarilgan kir yuvish mashinalari Fransiya sotilib, o'rniga fransuzlarniki sotib olindi va hokazolar. Bunday savdoni yuqorida ko'rib chiqqan nazariyalarning hech biri yetarlicha tushuntirib bera olmaydi. Bu an'ana ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lsa-da, unga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan

va unga mos modelni ishlab chiqqan iqtisodchi kelib chiqishi Vengriyadan bo'lgan Bella Balassa bo'ldi.

Tovarlar nomenklaturasining differensatsiyalashuvi darajasi nuqtai nazaridan xalqaro savdo ikkita oqimdan tashkil topgan – tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdo. Tarmoq ichidagi savdoga misol – Fransiya tomonidan “Sitroyen” firmasi avtomobillari eksporti va Italiyaning “Fiat” firmasi avtomobillari importi. Tarmoqlararo savdoga misol – Rossiya tomonidan neft eksporti va bug'doy importi.

@ *Tarmoq ichidagi savdo* (intra-industry trade) — mamlakatlar o'rtasida bir tarmoqning differensatsiyalashgan tovarlar savdosi.

@ *Tarmoqlararo savdo* (interindustry trade) — mamlakatlar o'rtasida turli tarmoqlarning gomogen tovarlari savdosi.

13.1-jadval. Tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqi

	Tarmoqlararo savdo	Tarmoq ichidagi savdo
Savdoning rivojlanish shart-sharoiti	Mamlakatlar ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmagan	Mamlakatlar ishlab chiqarish omillari bilan bir xil yoki deyarli bir xil ta'minlangan
Savdo aks ettiradi	Mamlakatning tovar ishlab chiqarishda nisbiy ustunligini	Tovarlar differensatsiyasini
Savdo tushuntiriladi	Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi bilan	Keng ko'lami iqtisod nazariyasi bilan
Savdo natijasida	Serob ishlab chiqarish omillari egalari daromadi oshadi va taqchil omil egalari daromadi qisqaradi	Barcha ishlab chiqarish omillari egalari daromadi oshadi

O' n uchinchi bo' b. Tarmoq doirasidagi xalqaro savdo nazariyasi va xalqaro savdoda talab va reverse nazariyalari

O'zaro savdo qiladi	Asosan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, katta va kichik mamlakatlar	Asosan rivojlangan mamlakatlar, bir xil razmerli mamlakatlar
Mamlakatlar sotadi	Asosan tayyor mahsulotlar, gomogen tovarlarni	Asosan ehtiyot qismlar va komponentlarni, differensatsiyalashgan tovarlarni
Savdo rivojlanadi	Ustun ravishda yirik tarmoqlar o'rtasida, masalan, sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasida	Ustun ravishda sanoat tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar doirasida
Savdo sababchi bo'ladi	Sezilarli ijtimoiy oqibatlarga	Minimal ijtimoiy oqibatlarga


Nazariyaga ko'ra, tarmoq ichidagi xalqaro savdo tarmoqlararo savdodan sezilarli ravishda farq qiladi (13.1-jadval).

13.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tarmoq ichidagi savdo ustun ravishda differensatsiyalashgan (geterogen) tovarlar bilan olib boriladi, ayrim holatlarda gomogen tovarlar bilan ham tarmoq ichidagi savdo bo'lishi mumkin. Buning sababi transport xarajatlarning qisqarishi yoki mavsumiy farqlar bo'lishi mumkin.

I va II mamlakatda aynan bir tovarning ishlab chiqaruvchilari (S, S') va iste'molchilari (D, D') mavjud va ular jug'rofiy jihatdan 13.1-rasmdagidek joylashgan. SD' masofa $D'S$ masofaga nisbatan ancha yaqin bo'lganligi sabab ikkinchi mamlakat uchun o'z ishlab chiqaruvchisidan tovar olgandan ko'ra birinchi mamlakatdan tovar olib kelish arzonga tushadi. Masalan, Andijonda joylashgan tikuv fabrikasiga materialni Buxorodan olib kelishga nisbatan chegara orqali O'shdan keltirish arzonga tushadi. Shimoliy va Janubiy yarim sharlarda yil fasllari umuman teskari bo'lgani bois, Braziliya o'zining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hosilni yig'ishtirgan paytda AQShga eksport qiladi, aynan shu

mahsulotlarni AQShdan import qiladi, ular AQShda yetilgan paytda.

13.1-rasm. Gomogen tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdo



Differensatsiyalashgan tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdo quyidagi sabablar bilan tushuntiriladi:

- **Iste'molchilarning did-xohishlaridagi farq, ular bir tovar guruhiga kiruvchi tovarlar bo'yicha katta tanlash imkoniyati bo'lishini istashadi.** Masalan, O'zbekistonliklar asosan o'z avtomobillarimizni ustun ko'rishadi, ammo o'zbeklarning ayrim qismi Yaponiyada ishlab chiqarilgan avtomobillarni haydashni xohlaydi. O'zbekistonlik ayrim ayollar fransuz duxilarini, ayrimlari italyan duxilarini yoqtirishadi.
- **Keshishuvchi talab.** Yuqorida qayd etib o'tilgan shved iqtisodchisi S. Linderning nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar sig'imli ichki bozorga ega bo'lgan tovarlarni eksport qiladi. Daromad darajasi deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlardagi iste'molchilar taxminan bir xil did-xohishga ega bo'lgani bois, har bir mamlakat uchun ishlab chiqarishida va ichki bozorda sotish borasida katta tajriba to'plangan tovarlarni eksport qilish oson bo'ladi.
- **Keng ko'lamlilik samarasi.** Tarmoq ichidagi savdo mamlakatlarga ixtisoslashish imkonini beradi, masalan, bir mamlakat yarim uzatmali jip avtomobillarini, boshqa mamlakat to'la uzatmali jiplarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Chunki har ikki tovarlarga talab mavjud bo'ladi, har bir mamlakat har ikki tipdagi mashinani ko'proq ishlab chiqara oladi va bir-biriga ko'proq miqdorda sotadi.

Tarmoq ichidagi savdo ijtimoiy nuqtai nazardan nisbatan "beozor" hisoblanadi. U bandlarning katta guruhini eksport hajmi kamayayotgan sektorlardan eksport hajmi ortib borayotgan sektorlarga ko'chib o'tishiga olib kelmaydi. Eng yomon holatda ishchilar bir avtomobil markasi ishlab chiqarishidan boshqa


avtomobil markasi ishlab chiqarishiga o'tadi. Bundan tashqari boshqa mamlakatlarning yirik bozorlarining eshiklari ochilayotga kichik mamlakatlar uchun mahsulot birligi uchun xarajatlarni kamaytirish, bandlikni kengaytirish va hatto ma'lum bir mahsulot bo'yicha yirik mamlakatni raqobatda ortda qoldirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarmoq ichidagi savdo sababli barcha ishlab chiqarish omillari egalari, bu omil serob yoki taqchil bo'lishidan qat'iy nazar, keng ko'lamlilik samarasi tufayli daromad ko'radi. Ikkinchi tomondan, tarmoqlararo savdo butan bir ishlab chiqarish tarmoqlarini vayron bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular arzon xorij torarlari bilan raqobatlasha olmay, xonavayron bo'lishi ham mumkin. Agar ishchi kuchi tor sohada malakaga ega bo'lsa, tanklar ishlab chiqarishidan televizorlar ishlab chiqarishiga tezda o'tib keta olmasa yoki jug'rofiy jihatdan harakatchan bo'lmasa va eksport sektorida ish joyi mavjud bo'lgan mamlakatning boshqa hududlariga doimiy yashash uchun tezda ko'chib o'tolmasa, jiddiy ijtimoiy muammolar kelib chiqishi mumkin. O'zbekiston tashqi savdosining katta qismi yaqqol tarmoqlararo sanaladi, ya'ni bir tarmoqning tayyor mahsulotlari boshqa tarmoqning tayyor mahsulotlariga ayirboshlanadi. Bu kuchsiz tarmoqlarni vayron etuvchi xorijiy raqobatdan import tariflari yordamida himoya qilinishi zarurligini qisman tushuntiradi. Bundan tashqari O'zbekiston hali uzoq vaqt davomida ustun ravishda tarmoqlararo savdoni rivojlantirishga majbur, chunki u ishlab chiqarish omillari bo'yicha ham, mamlakat ko'larni bo'yicha ham savdo hamkorlaridan katta farq qiladi.

Tarmoq ichidagi savdo modeli

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar tarmoq ichidagi savdoning rasmiy modelini

grafik ko'inishda ifodalash imkonini beradi (13.2-rasm) u amalda monopolistik raqobat modelining rivojlanirilgan ko'inishidir.

13.2-rasm. Differensatsiyalashgan tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdo



Faraz qilaylik, D — firma tomonidan monopolistik raqobat sharoitida sotiladigan differensatsiyalashgan tovarlarga talab egri chizig'i bo'lsin, bu bozorda aynan bir xil bo'lmagan, lekin o'xshash tovarlar sotuvchi bir necha firma mavjud.

Monopolistik raqobat modelidan ma'lumki, sotuv hajmini oshirish uchun firma o'z tovari narxini pasaytirishi zarur. Shuning firmaning chegaraviy daromadlar egri chizig'i MR talab egri chizig'idan pastda joylashadi, ya'ni $MR < P$. Talab egri chizig'i firma 2 birlik tovarning har birini 4,5 dollardan sotib jami 9 dollar daromad ko'rishni (B nuqta) yoki 3 birlik tovarning har birini 4 dollardan sotib jami 12 dollar daromad

ko'rishni (A nuqta) mumkinligini ko'rsatib turibdi. Shunday qilib, chegaraviy daromadning o'zgarishi ($12 - 9 = 3$) sotilgan uchinchi birlik tovar narxi (4 dollar)dan kam.

Ammo firma keng ko'lamlilik samarasini boshdan kechirmoqda, chunki ichki va tashqi bozor uchun tor nomenklaturadagi tovarlarga ixtisoslashmoqda va o'rtacha xarajatlar egri chizig'i (AC) ishlab chiqarish hajmining ortishi hisobiga xarajatlar kamayib borishini ko'rsatmoqda. Buning natijasida firmaning chegaraviy xarajatlari egri chizig'i o'rtacha xarajatlar egri chizig'i (AC)dan pastroqda joylashadi va faqat MC darajasigacha qisqarishi mumkin. Firma ishlab chiqarishining

Jakkinci qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

eng maqbul hajmi 3 birlikka teng va u MR va MC chiziqlarning (E) kesishish nuqtasida joylashgan. Agar 3 birlikdan ko'proq tovar ishlab chiqarilsa, $MR < MC$ bo'ladi, ya'ni firmaning daromadiga nisbatan xarajati ko'p bo'ladi, bu esa ishlab chiqarishni qisqartirishga undaydi. Agar 3 birlikdan kamroq tovar ishlab chiqarilsa, $MR > MC$ bo'ladi, ya'ni firmaning daromadi xarajatidan ko'p bo'ladi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishga undaydi. Eng maqbul 3 birlik ishlab chiqarish hajmida firma har bir tovarini 4 dollardan sotadi, bu D talab egri chizig'ida A nuqta orqali ifodalangan. Ammo daromadli tarmoq boshqa firmalarni

ham o'ziga jalb qilganligi sababli AC o'rtacha xarajatlar egri chizig'i ham A nuqtadan o'tadi, bu esa ko'rib chiqilayotgan firma o'z investitsiyalari hisobiga faqat o'rtacha daromad oloyotganini bildiradi. Firmaning tarmoq ichidagi savdodan oladigan daromadi EA ni tashkil qiladi.

Faraz qilishda davom etaylik, odatdagidek ikki mamlakat va ikki tovar mavjud: birinchisi mehnat serob mamlakat, ikkinchisi kapital serob mamlakat, 1-tovar mehnat sig'imli tovar, 2-tovar kapital sig'imli tovar bo'lsin. Ular o'rtasidagi savdo quyidagicha kichadi (13.2-jadval).

13.2-jadval. Tarmoqlararo va tarmoq ichidagi savdoning o'zaro bog'ligligi.

Mamlakatlar	Tovarlar	Tarmoqlararo savdo (gomogen tovarlar bilan)	Tarmoq ichidagi savdo (differensatsiyalashgan tovarlar bilan)
I mamlakat — mehnat serob	1-tovar — mehnat sig'imli	Eksport	Eksport va import
	2-tovar	Import	Import va eksport
II mamlakat — kapital serob	1-tovar	Import	Import va eksport
	2-tovar — kapital sig'imli	Eksport	Eksport va import

Ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganlik nazariyasiga muvofiq, agar 1- va 2-tovarlar gomogen bo'lsa, I mamlakat 1-tovarni eksport qiladi, II mamlakatdan 2-tovarni sotib oladi va aksincha, II mamlakat 2-tovarni eksport, 1-tovarni import qiladi. Agar tovarlarning bir qismi gomogen emas, balki differensatsiyalashgan bo'lsa, tarmoq ichidagi savdo modeli kuchga kiradi. Birinchi mamlakat ishlab chiqarishida ikkinchi mamlakatga

nisbatan nisbiy ustunlikka ega bo'lgan 1-tovarni eksport qilishda davom etadi. Ammo I mamlakat 1-tovar ikki mamlakat o'rtasida differensatsiyalashgani sababli bu tovarni import qilishni boshlaydi. Xuddi shu kabi ikkinchi mamlakat ishlab chiqarishida birinchi mamlakatga nisbatan nisbiy ustunlikka ega bo'lgan 2-tovarni eksport qiladi va 2-tovar ikki mamlakat o'rtasida differensatsiyalashgani sababli bu tovarni import qilishni boshlaydi.

Shunday qilib, tarmoq ichidagi savdo tarmoqlararo savdoni rad qilmaydi va bir xil tovarlar bilan xalqaro savdoni tushuntiradi.

Tarmoq ichidagi savdoni o'lchash

Tarmoq ichidagi savdo miqdori indeks yordamida o'lanadi. Agar X mamlakatning jami eksporti yoki bir tovar guruhidagi eksporti, IM mamlakatning jami importi yoki bir tovar guruhidagi importi, vertikal chiziqlar kattalikning absolyut qiymatini bildirsa, tarmoq ichidagi xalqaro savdo indeksi T quyidagicha bo'ladi:

$$T = 1 - \frac{|X-IM|}{(X+IM)} \quad (13.1)$$

T indeks hamisha 0 va 1 oralig'ida bo'ladi. Agar $T=0$ bo'lsa, tarmoq ichidagi savdo bo'lmaydi. 13.1 tenglamadan ko'rinib turibdiki, bunday bo'lishi uchun eksport yoki import 0 ga teng bo'lishi kerak. Agar $T = 1$ bo'lsa, tarmoq ichidagi savdo maksimal darajada bo'ladi, bu hol eksport importga teng bo'lganda yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, koeffitsient T 1 ga qancha yaqin bo'lsa, tarmoq ichidagi savdo shuncha ko'p bo'ladi. T indeksni qo'llashni chegaralanganligi shundaki, uning qiymati tarmoq yoki tovar guruhi qanday ta'riflanganligiga o'ta bog'liq bo'ladi. Ta'rif qanchalik keng bo'lsa, indeks qiymatining yuqori bo'lish ehtimoli shuncha katta, va aksincha, ta'rif qanchalik tor bo'lsa, indeks qiymati shuncha kichik bo'ladi.

Shunday qilib, tovarlar nomenklaturasining differensatsiyalashuvi darajasi nuqtai nazaridan xalqaro savdo ikkita oqimdan tashkil topgan – tarmoq ichidagi savdo - mamlakatlar

o'rtasida bir tarmoqning differensatsiyalashgan tovarlar savdosi va tarmoqlararo savdo – mamlakatlar o'rtasida turli tarmoqlarning gomogen tovarlari savdosi. Tarmoq ichidagi savdo o'xshash tovarlarning differensatsiyalashuvini aks ettiradi va bir-biriga yaqin tarmoqlar doirasida deyarli bir xil rivojlangan mamlakatlar o'rtasida rivojlanadi. Tarmoq ichidagi savdo modeli doirasida mamlakat bir turdagi yoki tor nomenklaturadagi tovarlarni ishlab chiqaradi va keng ko'lamlilik samarasi ustunligidan foydalanadi. Tarmoq ichidagi savdo nazariyasi bir turdagi tovarlar bilan xalqaro savdoni tushuntiradi va turli tovarlar bilan tarmoqlararo savdoni tushuntiruvchi nisbiy ustunlik nazariyasini rad etmaydi. Tarmoq ichidagi savdo indeks orqali o'lanadi, bu indeks rivojlangan mamlakatlar savdosida tarmoq ichidagi savdo doimo ortib borayotganini ko'rsatib turibdi.

Kesishuvchi talab

Yuqorida ko'rib chiqilgan xalqaro savdoning barcha yangi nazariyalari uni ustun ravishda ishlab chiqarish va taklif tomondan tushuntiradi, ya'ni mamlakatlarning nisbiy ustunligini aniqlashda ishlab chiqarish va taklifga e'tiborga qaratadi. Kesishuvchi talab nazariyasi xalqaro savdoni ustun ravishda talab tomonidan tushuntiruvchi kamdan-kam yangi nazariyalarning biri sanaladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, tarmoq ichidagi xalqaro savdoning dastlabki shart-sharoitlaridan biri shved iqtisodchisi Staffan Linder tomonidan ochilgan kesishuvchi talab fenomeni hisoblanadi. Unga muvofiq,

Jahinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

mamlakatning eksport tarkibi ma'lum darajada importyor-mamlakatdagi talabga bog'liq.


Kamdan-kam tovarlar faqat eksport uchun ishlab chiqariladi, tovarlarning ko'pchilik qismi mamlakat ichida ham sotiladi. Tovarni eksport qilish uchun mamlakat avval mahalliy xaridorlar talabini ko'zda tutib ichki bozorni qoniqtirishi kerak. Tovar mamlakat ichidagi xaridorlar ehtiyojlarini to'liq qoniqtirgandan keyingina uni jahon bozoriga muvaffaqiyatli eksport qilishga umid qilish mumkin. Ammo bu tovar talab tarkibi eksportyor-mamlakatdagi ichki talab tarkibi bilan bir xil yoki hech bo'lmaganda solishtirish mumkin bo'lgan mamlakatlardagina muvaffaqiyatli sotilishi mumkin. Linder fikricha, talab daromad darajasi nisbatan yuqori bo'lgandagina real talabga aylanadi. Daromad darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molchiga shunchalik

sifatliroq tovar zarur bo'ladi. Shuning uchun eksportyor va importyor mamlakatlardagi yuqori daromad bilan mustahkamlangan talab tarkibi kesishadi va ular o'rtasida savdo darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligi nazariyasiga xilof ravishda nafaqat farq, balki o'xshashlik ham savdo bo'lishining sharti bo'lishi mumkin.

@ *Kesishuvchi talab nazariyasi* (overlapping demand theory) — turli mamlakatlardagi deyarli bir xil daromadli iste'molchilar deyarli o'xshash did-istakka ega bo'lganligi bois, har bir mamlakat uchun ishlab chiqarishi va savdosida ichki bozorda katta tajriba to'plangan tovarlarni eksport qilish osonroq hisoblanadi.

Nazariyaning grafik ifodasi quyidagicha bo'ladi(13.3-rasm).

13.3-rasm. Kesishuvchi talab xalqaro savdoning asosi sifatida.



Daromad darajasi va iste'mol qilinadigan tovarlar sifati orasidagi bog'lanish X to'g'ri chizig'i bilan ifodalanadi, bu to'g'ri chiziqning

gorizontal o'q bilan tashkil qilgan burchagi daromad qancha yuqori bo'lsa, xaridorlar shuncha sifatli tovar sotib olishini bildiradi.

Faraz qilaylik, ikki mamlakat – I mamlakat va II mamlakat mavjud. Birinchi mamlakat aholisining daromadi A (minimal daromad) va C (maksimal daromad) orasida joylashgan. Bunday damomadda xaridorlar sifati A' (minimal sifat) dan C' (maksimal sifat) gacha oraliqdagi tovarlarni sotib olishadi. II mamlakat aholisi daromadi I mamlakat aholisi daromadidan bir muncha yuqori va B (minimal daromad) va D (maksimal daromad) orasida joylashgan. Bunday damomadda xaridorlar sifati B' (minimal sifat) dan D' (maksimal sifat) gacha oraliqdagi tovarlarni sotib olishadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo sifati B' dan C' gacha bo'lgan tovarlar bilan yuz beradi. Bu oraliqda birinchi va ikkinchi mamlakat iste'molchilarining tovar sifati talabi kesishadi. Demak, ikki mamlakatda qancha ko'p odamlarning daromadi bir xil bo'lsa, savdo darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Kesishuvchi talab nazariyasining empirik tasdig'i har bir mamlakatda daromadning taqsimlanishi bilan chambarchas bog'liq – daromad qanchalik bir tekis taqsimlansa, nazariya shuncha yaxshi ishlaydi. Ammo juda ko'p mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham aholining turli qatamlarining daromadi darajasidagi farq ancha sezilarli, shuning uchun xalqaro savdoni tushuntirishda kesishuvchi talab nazariyasining qo'llanilishi yetarilcha chegaralangan. Haqiqatdan ham, ekstremal vaziyatni faraz qilaylik, I mamlakatda 1 kishi maksimal C daromadga ega, qolgan barcha aholi A daromadga ega, II mamlakatda esa 1 kishi minimal B daromadga ega, qolgan barcha aholining daromadi maksimal (D) darajada bo'lsin. Bu vaziyatda har ikki mamlakat aholisini qiziqtiradigan

sifatdagi tovarlar kesishuvi har qancha katta bo'lsa-da, daromadga ko'ra faqat 2 kishi o'zaro savdo qilishi mumkin. Shuning uchun bu nazariyani amalda qo'llash dastlab mamlakatlar o'rtasida daromadning darajasi va taqsimlanishini o'rganishni talab qiladi. Bu nazariyadan daromad darajasi va tarkibi deyarli bir xil mamlakatlar o'rtasidagi savdoni tadqiq qilishda samarali foydalanilishi mumkin.

Ishlab chiqarish omillari reversi

Leontev paradoksi Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nazariyasi amalda bajarilmasligini ko'rsatdi: mehnat serob mamlakatlar kapital sig'imli tovarlarni, kapital serob mamlakatlar esa mehnat sig'imli tovarlarni eksport qiladi. Paradoksni tushuntirish imkoniyatlaridan biri negizida ishlab chiqarish omillari reversi yotadi: ma'lum bir tovar mehnat serob mamlakatda mehnat sig'imli, kapital serob mamlakatda kapital sig'imli bo'lishi mumkin, bu holat bir ishlab chiqarish omilini boshqasi bilan o'zaro almashtirishning yuqori elastikligi sharoitida yuz berishi mumkin. Masalan, kapital serob bo'lgan AQShda ishlab chiqarilgan gurunch kapital sig'imli sanaladi, chunki lig'or texnologiya yo'rdamida ishlab chiqariladi. Xuddi shu gurunch mehnat serob bo'lgan Vetnamda mehnat sig'imli tovar hisoblanadi, zero u deyarli qo'l mehnati yordamida yetishtiriladi.


Agar 1-tovar mehnat serob hisoblangan I mamlakatda mehnat sig'imli, aynan shu tovar kapital serob bo'lgan II mamlakatda kapital sig'imli bo'lsa, ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, har ikki mamlakat bu

tovarni eksport qilishi kerak. Dastlabki shartlarga ko'ra, jahonda faqat ikkita mamlakat mavjud, ularning har ikkisi bu tovarni eksport qilishni xohlamoqda, bu holat savdo amalga oshmaydi degan, xulosaga olib keladi, chunki ushbu 1-tovarni import qiladigan mamlakatning o'zi yo'q. binobarin, Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati teoremasi va Xeksher-Olin-Samuelsonning ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi noto'g'ri bo'lib qolyapti.

Ishlab chiqarish omillari reversi hodisasini birinchi bo'lib amerikalik iqtisodchi B.Minxas XX asrning 60-yillarida tushuntirib berdi.

@ *Ishlab chiqarish omillari reversi* (factor-intensity reversal) — aynan bir tovar mehnat serob mamlakatda mehnat sig'imli, kapital serob mamlakatda kapital sig'imli bo'ladigan holat.

13.4-rasm. Ishlab chiqarish omillari reversi fenomeni.



Faraz qilaylik, I va II mamlakat 1- va 2-tovarni ishlab chiqaradi (13.4-rasm). Mehnatning nisbiy narxi ($w/r=1/2$) bo'lsa, mehnat xarajatlari ($L=18$) birlik va kapital xarajatlari ($K=6$) birlik bo'lganda 1-tovar ishlab chiqarishi A ni tashkil etadi, bunda

sarflanayotgan kapitalning sarflanayotgan mehnatga nisbati ($K/L=6/18=1/3$)ga teng bo'ladi. Mehnatning nisbiy narxi ($w/r=1/2$) bo'lsa, mehnat xarajatlari ($L=12$) birlik va kapital xarajatlari ($K=9$) birlik bo'lganda 2-tovar ishlab chiqarishi B ni tashkil etadi, bunda

sarflanayotgan kapitalning sarflanayotgan mehnatga nisbati ($K/L=9/12=3/4$)ga teng bo'ladi. ($1/3 < 3/4$) bo'lgani uchun 1-tovar nisbatan mehnat sig'imli hisoblanadi.

Faraz qilishda davom etamiz, agar II mamlakatda mehnatning nisbiy narxi ($w/r=2$) bo'lsa, mehnat xarajatlari ($L=6$) birlik va kapital xarajatlari ($K=18$) birlik bo'lganda 1-tovar ishlab chiqarishi D ni tashkil etadi, bunda sarflanayotgan kapitalning sarflanayotgan mehnatga nisbati ($K/L=18/6=3$)ga teng bo'ladi. Mehnatning nisbiy narxi aynan shunday ($w/r=2$) bo'lsa, mehnat xarajatlari ($L=9$) birlik va kapital xarajatlari ($K=12$) birlik bo'lganda 2-tovar ishlab chiqarishi C ni tashkil etadi, bunda sarflanayotgan kapitalning sarflanayotgan mehnatga nisbati ($K/L=12/9=4/3$)ga teng bo'ladi. ($3/4 < 3$) bo'lgani uchun 1-tovar nisbatan kapital sig'imli hisoblanadi. Mehnatning nisbiy narxi I mamlakatda ($w/r=1/2$) bo'lganda 1-tovar 2-tovarga nisbatan mehnat sig'imli, II mamlakatda mehnatning nisbiy narxi ($w/r=2$) bo'lganda 1-tovar 2-tovarga nisbatan kapital sig'imli bo'lmoqda.

Shunday qilib, ishlab chiqarish omillarining nisbiy narxi har xil bo'lganda, aynan bir tovar bir mamlakatda mehnat sig'imli, boshqa mamlakatda esa kapital sig'imli bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarish omillari reversi hodisasi yuz beradi. Bu bilan ishlab chiqarish omillari bilan har xil ta'minlangan mamlakatlarning bir xil tovar bilan savdo qilishi holatini tushuntirish mumkin. Masalan, mehnat serob sanalgan Hindiston va kapital serob bo'lgan AQSh po'lat eksport qiladi, Hindistonda po'lat mehnat sig'imli, AQShda esa kapital sig'imli tovar hisoblanadi. Buning grafik tasdiqi 1- va 2-tovarlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari

chegarasining turli darajadagi egriligi sanaladi. Shu sabab ular ikki marta kesishadi. Egrilik darajasi 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqarishda bir ishlab chiqarish omillini boshqasiga almashtirish qay darajada murakkabligini anglatadi. Egrilik qanchalik kam bo'lsa, ya'ni u to'g'ri chiziqqa yaqin bo'lsa, ishlab chiqarish omillarini o'zaro almashtirish shunchalik oson bo'ladi, egrilik qanchalik ko'proq, ya'ni yarim aylanaga yaqin bo'lsa, aynan bir tovarni ishlab chiqarishda bir omilni boshqasi bilan almashtirish shunchalik qiyinroq bo'ladi. Egrilik darajasi o'rnini qoplash elastikligi bilan o'lchanadi.

@ *O'rnini qoplash elastikligi* (elasticity of substitution) — ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishda bir ishlab chiqarish omilini boshqasi bilan qay darajada qiyinligini ifodalovchi koeffitsient.

O'rnini qoplash elastikligi koeffitsienti kapital va mehnat xarajatlari nisbatining foiz hisobida o'zgarishining ishlab chiqarish omillari nisbiy narxining foiz hisobida o'zgarishiga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$e = (\Delta (K/L) / (K/L)) / (\Delta S/S) \quad (13.2)$$

bu yerda K — tovar ishlab chiqarishga sarflangan kapital miqdori, L — tovar ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori, S — ishlab chiqarish omillarining nisbiy narxi.

Ishlab chiqarish omillari reversi teoremasining empirik tadqiqotlari bunday fenomen albatta mavjudligini, ammo kamdan-kam uchrashini ko'rsatdi. Revers yaqqol ko'zga tashlangan vaziyatlarda ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyalariga asoslangan savdo tahlili dastaklarini qo'llab bo'lmaydi va bu revers Leontev paradoksini tushuntiruvchi

holatlardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish omillari reversi odatda tovarlar ishlab chiqarishida foydalaniladigan omillar keskin farq qiladigan o'rnini qoplash elastikligiga ega bo'lganda yuz beradi.

Ishlab chiqarish omillari reversi nazariyasi savdoni taklif tomonidan tushuntiradi. Leontev paradoksini tushutiruvchi boshqa bir revers nazariyasi talab reversi nazariyasi sanaladi. Klassik nazariyalar savdo olib boruvchi mamlakatlarda iste'molchilar xohis-istaklari-ning bir xilligi shartiga asoslangan. Ular har xil bo'lsa-chi? Faraz qilaylik, mamlakatlarda o'zlarida eng ko'p bo'lgan ishlab chiqarish omillari yordamida ishlab chiqariladigan tovarlar iste'moliga xohish o'ta kuchli bo'lsin. shida

@ Talab reversi (demand reversal) — o'z savdo hamkorlariga nisbatan ishlab chiqarishi va eksporti uchun yaxshiroq ishlab chiqarish omillariga ega tovarlarni mamlakatdagi kuchli ichki talab tufayli import qiladigan holat

Bu holatda Xeksher-Olin teoremasiga amal qilinmaydi, chunki unga ko'ra, nisbatan ortiqcha ishlab chiqarish omillari yordamida ishlab chiqargan tovarlarni import emas, balki eksport qilishi kerak. Empirik tadqiqotlar talab reversi juda kamdan-kam holatlarda uchrashini ko'rsatadi.

Shunday qilib, kesishuvchi talab va talab reversi nazariyalari xalqaro savdoni tovarlar

taklifi tomonidan emas, balki tovarlarga talab tomonidan tushuntiradi. Turli mamlakatlardagi deyarli bir xil daromadli iste'molchilar deyarli o'xshash did-istakka ega bo'lganligi bois, har bir mamlakat uchun ishlab chiqarishi va savdosida ichki bozorda katta tajriba to'plangan tovarlarni eksport qilish osonroq hisoblanadi. Tovar eksportyor-mamlakatdagi ichki talab tarkibi bilan bir xil yoki o'xshash bo'lgan mamlakatlarga muvaffaqiyatli eksport qilinadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo sifati deyarli bir xil tovarlar bilan amalga oshadi. Ikki mamlakatda qancha ko'p aholining daromadlari bir xil bo'lsa, savdo darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari reversi nazariyasiga ko'ra, aynan bir tovar mehnat serob mamlakatda mehnat sig'imli, kapital serob mamlakatda kapital sig'imli bo'lishi mumkin, bu ishlab chiqarish omillarini o'zaro almashtirish elastikligi yuqori bo'ladigan holatda yuz berishi mumkin. Talab reversi nazariyasiga ko'ra, mamlakat o'z savdo hamkorlariga nisbatan ishlab chiqarishi va eksporti uchun yaxshiroq ishlab chiqarish omillariga ega tovarlarni mamlakatdagi kuchli ichki talab tufayli import qilishi mumkin empirik tadqiqotlar bunday hodisalarning yuz berishi mumkinligini tasdiqlaydi, ammo ularning xalqaro savdodagi roli unchalik katta emas.

Bo'lim bo'yicha rezyume

Merkantilistlar birinchi bo'lib xalqaro savdoning o'ziga xos modelini taklif etdilar. Ular mamlakatning boyligi mamlakatda mavjud bo'lgan oltin va kumush miqdori bilan bog'liq deb hisobladilar. Merkantilistlar tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga ko'poq olib chiqish, eksportni ko'paytirish va importni qisqartirish uchun tashqi savdoni tartibga solish, chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash yoki ta'qiqlash, xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan har qanday savdosini ta'qiqlash kerak deb ta'kidlaydilar.

Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan mutlaq ustunlik nazariyasiga muvofiq, agar ikki mamlakatning har biri hamkor-mamlakatga nisbatan eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan tovarlar bilan savdoga kirishsagina xalqaro savdo foydali bo'ladi. Mamlakatlar o'zlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni eksport qiladi va boshqa mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqariladigan ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni import qiladi.

Klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri D. Rikardo tovar oqimlari harakatiga dalil sifatida nisbiy ustunlikning miqdoriy nazariyasini taklif etdi. Albatta, nisbiy ustunlik nazariyasi mavhum va juda soddalashtirilgan tabiatga ega va xalqaro savdoga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator hodisalarni e'tiborga olmaydi. Nazariyaning cheklanganligi uni yaratilishida qilingan farazlar bilan bog'liq.

Muqobil narx – bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtining boshqa bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti bilan ifodalanishidir. Nisbiy ustunlik nazariyasiga muvofiq, agar bir mamlakat boshqa mamlakat bilan solishtirganda nisbatan kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara oladigan, ya'ni muqobil narxi pastroq bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutlaq samaraliroq bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun foydali bo'ladi. Mamlakatlar o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda savdoda ishtirok etuvchi har ikki mamlakat bu savdodan oladigan iqtisodiy naf savdodan keladigan yutuq deyiladi. Nisbiy ustunlik nazariyasi istalgan miqdordagi tovarlar va istalgan miqdordagi mamlakatlar uchun o'rinni bo'ladi. Bu nazariyani bir mamlakat hududidagi alohida rayonlar, viloyatlar o'rtasidagi savdoni tahlil qilishda ham foydalanish mumkin.

Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, omillar sig'imi miqdori bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omillar serobliligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o'z navbarida ular o'rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan tushuntiriladi.

Leontev paradoksi mohiyati shundaki, ko'pincha Xeksher-Olinning ishlab chiqarish

omillari nisbati nazariyasining amalda bajarilmaydi – mehnat serob mamlakatlar kapital sig'imli, kapital serob mamlakatlar mehnat sig'imli tovarlarni eksport qiladi.

Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari tovarlar taklifi va tovarlarga talabga bir xil e'tibor qaratadi. Taklif transformatsiyaning chegaraviy me'yori bilan, talab esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori tavsiflanadi. Mamlakatlar savdoga kirishmasdan oldingi muvozanat har ikki mamlakatning ichki bozorida transformatsiyaning chegaraviy me'yori va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yorining o'zaro ta'siri orqali o'rnatiladi. Savdo sharoitidagi muvozanat esa tovarning ichki va tashqi bozordagi narxini solishtirishga va uni muvozanat narxi tomon harakatlantirishiga asoslangan. Har bir mamlakat o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishni kengaytiradi va boshqa mamlakat nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarga ayirboshlaydi. Real hayotda o'rnini qoplash xarajatlari doimiy emasligi bois, savdo natijasida har ikki mamlakatning o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarga to'liq ixtisoslashuvi yuz bermaydi. Savdo natijasida har bir mamlakat boshqa mamlakat bilan savdoga kirishishi tufayil yutuqqa (ayirboshlashdan keladigan yutuq) va savdo sharoitida barcha e'tiborni o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga qaratganidan keladigan yutuqqa (ixtisoslashuvdan keladigan yutuqqa) ega bo'ladi. Kichik va katta mamlakat o'rtasidagi savdo vaziyatida farq shundan iboratki, kichik mamlakatdagi nisbiy narx nisbiy jahon narxiga ta'sir o'tkaza olmaydi, bu narx katta mamlakatdagi talab va taklif asosida o'rnatiladi, bunday vaziyatda kichik

mamlakat savdodan keladigan barcha yutuqqa ega bo'ladi, binobarin bu yutuqni savdo hamkori bilan bo'lishmaydi. Hamkor mamlakatlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i bir xil bo'lgan xususiy holda esa savdo iste'molchilarning xohish-istaklaridagi farqqa asoslanadi va o'zaro savdodan har ikki mamlakat naf ko'radi.

Xalqaro savdoning standart modeli xalqaro savdoda umumiy muvozanat modeli hisoblanadi va mamlakat ichida tovarga bo'lgan talab va tovar taklifini shu tovarga bo'lgan xorijiy talab va taklifni o'zaro bog'laydi. Bu model turli miqdordagi tovarlarni eksport qilishga xohish uyg'onishi uchun mamlakat qancha miqdorda boshqa bir tovarlarni import qilishi kerakligini ifodalovchi o'zaro talab tushunchasiga asoslangan. Ushbu model xalqaro savdoning barcha asosiy parametrlarini va u bilan bog'liq bo'lgan milliy iqtisodiyotning parametrlarini o'rganish imkonini beradi. U savdo bo'lmagan sharoitda ishlab chiqarish sharti (taklif) va chilarning ustun ehtiyojlari (talab), shuningdek, ishlab chiqarish va iste'mol hajmi, tovarlarning nisbiy narxlari hamda har bir mamlakatning nisbiy ustunligini ko'rsatadi. Savdo sharoitida ushbu model mamlakatning har bir tovar ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvi darajasi, savdo hajmi, savdo sharti, savdodan keladigan yutuq, va bu yutuqning mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishini ko'satadi. Umumiy/xalqaro muvozanatga ichki va xalqaro savdoda (ichki va xalqaro bozorda) tovarga talab va tovar taklifining bir paytda muvozanatga kelganda erishiladi.

Xalqaro savdoning standart modelidan kelib chiqqan holda, xalqaro savdoning asosiy parametrlarini miqdor jihatdan aniqlash

mumkin. Xalqaro savdo uning nominal qiymatiga qarab baholaydigan bo'lsak, hali ham xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi ko'rinishi bo'lib qolayotganligining guvohi bo'lamiz. Xalqaro savdoning o'sish sur'atlari jahon sanoat ishlab chiqarishi o'sish sur'atidan doimiy ravishda oldinda bormoqda, rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro savdosining o'rtacha o'sish sur'ati rivojlangan mamlakatlarnikidan yuqori bo'lib kelmoqda. Xalqaro savdoning nominal qiymat hajmi odatda joriy baholarda AQSH dollarida ifodalanadi. Eksport va import har bir mamlakat tomonidan natural va qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichlari odatda milliy valyutada hisoblanadi va xalqaro miqyosda solishtirish uchun AQSH dollariga o'tkaziladi. Xalqaro savdo tarkibi odatda jug'rofiy taqsimlanishi (jug'rofiy tarkibi) va tovar bilan to'ldirilishi (tovar tarkibi) nuqtai nazaridan qarab chiqiladi. Xalqaro savdoning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'tgan asrning oxirgi o'n yilligi va XXI asrning boshlariga kelib rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar hisobiga ularning ulushi birmuncha qisqarib bormoqda.

Savdoda ishtirok etuvchi har qanday mamlakat uchun eksport va import narxlarining har qanday o'zgarishi real daromadning o'zgarishini anglatadi. Tovar narxi oshganda, bu tovar eksport qilinayotgan bo'lsa, mamlakatning real daromadi oshadi, agar bu tovar import qilinayotgan bo'lsa, aksincha, real daromad kamayadi. Xalqaro savdoning daromadga ta'siri tovar narxi va savdo ko'lamiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi:

narxlardagi sakrashlar qanchalik ko'p bo'lsa va savdo hajmi qanchalik katta bo'lsa, uning daromadga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lum bir tovarning eksport va import narxlarining nisbati yoki eksport va import narxlari indeksleri nisbati orqali aniqlanuvchi mamlakat eksport va import narxlarining nisbatli savdo sharti deb ataladi. Uning o'sishi natijasida mamlakat farovonligi ortadi, pasayishi natijasida esa farovonlik tushadi. Tarkibning ortishi (iqtisodiy o'sish) va talabning ortishi (daromadning qayta taqsimlanishi) savdo shartiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'sish, uning xalqaro savdoga ta'siri nuqtai nazaridan eksportni kengaytirishga qaratilgan va import o'rnini qoplashga qaratilgan bo'lishi mumkin. Alohida olingan mamlakat uchun ichki ishlab chiqarishda import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish va boshqa mamlakatlarda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish foydali, zero bu holat ushbu mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo shartini yaxshilaydi. Va aksincha, ichki ishlab chiqarishda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish va boshqa mamlakatlarda import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish tufayli savdo sharti ushbu mamlakat uchun yomonlashadi. Daromadning qayta taqsimlanishini savdo shartlariga ta'siri quyidagicha: agar donor-mamlakat oluvchi mamlakatga nisbatan o'zining eksport tovari uchun yuqoriroq chegaraviy moyillikka ega bo'lsa, daromadni ikkinchi mamlakatga o'tishi donor-mamlakat uchun savdo shartini yomonlashtiradi, agar donor-mamlakat oluvchi mamlakatga nisbatan o'zining eksport tovari uchun quyilroq chegaraviy moyillikka ega bo'lsa, daromadni ikkinchi mamlakatga o'tishi

natijasida savdo sharti donor-mamlakat uchun yaxshilanadi.

Sotiladigan/sotilmaydigan tovarlar modeli bir tomondan jami talabning, jumladan jahon bozorida talabning oshishi sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining ortishiga, sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining kamayishiga olib keladi. Chunki sotilmaydigan tovarlarga talabning ko'payishini import hisobiga qondirib bo'lmaydi, binobarin, sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishidagi resurslarni jalb qilish hisobiga sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishini kengaytirish mumkin. Bu sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishini, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, jami talabning qisqarishi (masalan, tashqi qarzlarni to'lash tufayli) sotiladigan tovarlar ishlab chiqarishini va eksportning ortishiga, importning qisqarishiga olib keladi. Bu sotilmaydigan tovarlar ishlab chiqarishining qisqarishiga sabab bo'ladi va jiddiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xalqaro savdoning yangi nazariyalarida klassik nazariyalar tamoyillari ko'proq miqdordagi tovarlar, mamlakatlar va ishlab chiqarish omillariga qo'llanilgan holda rivojlantiriladi yoki xalqaro savdoning qandaydir sabablarga ko'ra klassik nazariyalar orqali tushutirib berilmagan ayrim tomonlari o'rganiladi. Bu ikki guruh nazariyalar xalqaro savdoni ustun ravishda taklif tomondan ko'rib chiqadi. Uchunchi guruh nazariyalar esa klassik nazariyalarni rad etadi, bu nazariyalarni eskirib qolgan deb hisoblaydi va xalqaro savdoni tushuntirishda o'z yondashuvlarini taklif qiladi. Bu guruh nazariyalar odatda

xalqaro savdoda tovarga talab va tovar taklifi tahliliga bir xil e'tibor qaratadi.

Maxsus ishlab chiqarish omillari modeli barcha omillarni ikkiga ajratadi: tarmoqlararo erkin ko'chib yuruvchi harakatchan omillar va faqat ma'lum bir tarmoqqa xos bo'lgan maxsus omillar. Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganligi tovarlar nisbiy taklifida va ularning nisbiy narxida farq bo'lishiga olib keladi, bu esa mamlakatlarni o'zaro savdo qilishga undaydi. Xalqaro savdo natijasida eksport tarmog'i uchun maxsus ishlab chiqarish omillari rivojlanib boradi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarish omillari esa qisqaradi. Eksport tarmog'i uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlari ortib boradi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlari esa kamayib ketadi. Harakatchan omillar bu tarmoqlar o'rtasida erkin harakatlanib rivojlanishi ham mumkin, qisqarishi ham mumkin.

Xalqaro savdoning mutlaq va nisbiy ishlab chiqarish xarajatlari nazariyalaridan boshqa barcha nazariyalari uchun savdo natijasida daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi masalasi eng asosiy masalalardan biri sanaladi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi xalqaro savdodan nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari yutishi, nisbatan taqchil ishlab chiqarish omillari egalari yutqazishini ko'rsatdi. Xeksher-Olin-Samuelsonning ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi xalqaro savdo natijasida tovarlar nisbiy narxining muvozanatlashuvi bu tovarlar ishlab chiqarishida foydalanilgan ishlab chiqarish

omillari nisbiy narxining muvozanatlashuviga, o'z navbatida, ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlarini tenglashishiga olib kelishini ifoda etadi. Agar savdo maxsus ishlab chiqarish omillariga asoslanadigan bo'lsa, Samuelson-Jons teoremasiga muvofiq eksport tarmoqlari uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi ortadi, import bilan raqobat qiluvchi tarmoq uchun maxsus ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlari esa qisqaradi. Stolper-Samuelson teoremasiga ko'ra, tovar narxining oshishi bu tovar ishlab chiqarishida intensiv foydalaniladigan omil narxining oshishiga olib keladi. Va nihoyat, Ribchinskiy teoremasiga ko'ra, ishlab chiqarish omillari hajmining oshishi ishlab chiqarilishida shu omillar intensivroq foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi. Oxirgi ikki holatda Jonsning kuchaytirish samarasi o'rinli bo'ladi — tovar narxining ortishi bu tovarni ishlab chiqarishda intensiv ishlatiladigan omildan keladigan daromadni yanada ko'proq nisbatda ortishga olib keladi va ishlab chiqarish omillari hajmini ortishi ishlab chiqarilishida bu omil intensiv foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqarishini yanada ko'proq ortishiga sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish omillari bilan bir xil yoki bir-biriga juda yaqin ta'minlangan mamlakatlar o'rtasidagi savdo mamlakatlarning ma'lum bir tovarlarga nisbiy ustunlikka ega bo'lgani uchun emas, balki omillar xarajatlarini bir birlikka o'sishi ishlab chiqarishni bir birlikdan ko'proqqa ortishiga olib kelishini ifodalovchi keng ko'lamlilik samarasi bilan tushuntiriladi. Tashqi keng ko'lamlilik samarasi aynan bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi firmalar sonining ortishi,

ammo ishlab chiqarish hajmining o'zgarmay qolishi va oqibatda erkin raqobat vujudga kelishini nazarda tutadi. Ichki keng ko'lamlilik samarasi tovar ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda bu tovarni ishlab chiqaruvchi firmalar soni qisqarishini, natijada nosog'lom raqobat (ekstremal holatlarda monopolistik raqobat) yuzaga kelishini ko'zda tutadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlari narxiga ta'sir ko'rsata oladi va uni pasaytirib sotuv hajmini oshirishlari mumkin. Monopolistik raqobat doirasidagi savdo modeli xalqaro savdo bozor ko'laminani kengayishiga olib kelishidan kelib chiqadi. Ikki mamlakat o'zaro savdo olib borganda birgalikdagi bozor ikki mamlakat alohida bozorlari yig'indisidan katta bo'ladi, firmalar soni, binobarin, tovarlar xilma-xilligi ortadi, tovar birligi narxi pasayadi.

Tovarlar nomenklaturasining differentsiyalashuvi darajasi nuqtai nazaridan xalqaro savdo ikkita oqimdan tashkil topgan — tarmoq ichidagi savdo - mamlakatlar o'rtasida bir tarmoqning differentsiyalashgan tovarlar savdosi va tarmoqlararo savdo — mamlakatlar o'rtasida turli tarmoqlarning gomogen tovarlari savdosi. Tarmoq ichidagi savdo o'xshash tovarlarning differentsiyalashuvini aks ettiradi va bir-biriga yaqin tarmoqlar doirasida deyarli bir xil rivojlangan mamlakatlar o'rtasida rivojlanadi. Tarmoq ichidagi savdo modeli doirasida mamlakat bir turdagi yoki tor nomenklaturadagi tovarlarni ishlab chiqaradi va keng ko'lamlilik samarasi ustunligidan foydalanadi. Tarmoq ichidagi savdo nazariyasi bir turdagi tovarlar bilan xalqaro savdoni tushuntiradi va turli tovarlar bilan tarmoqlararo savdoni tushuntiruvchi nisbiy ustunlik nazariyasini rad etmaydi. Tarmoq ichidagi

savdo indeks orqali o'lanadi, bu indeks rivojlangan mamlakatlar savdosida tarmoq ichidagi savdo doimo ortib borayotganini ko'rsatib turibdi.

Kesishuvchi talab va talab reversi nazariyalari xalqaro savdoni tovarlar taklifi tomonidan emas, balki tovarlarga talab tomonidan tushuntiradi. Turil mamlakatlardagi deyarli bir xil daromadli iste'molchilar deyarli o'xshash did-istakka ega bo'lganligi bois, har bir mamlakat uchun ishlab chiqarishi va savdosida ichki bozorda katta tajriba to'plangan tovarlarni eksport qilish osonroq hisoblanadi. Tovar eksportyor-mamlakatdagi ichki talab tarkibi bilan bir xil yoki o'xshash bo'lgan mamlakatlarga muvaffaqiyatli eksport qillnadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo sifati deyarli bir xil tovarlar bilan amalga oshadi. Ikki

mamlakatda qancha ko'p aholining daromadlari bir xil bo'lsa, savdo darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari reversi nazariyasiga ko'ra, aynan bir tovar mehnat serob mamlakatda mehnat sig'imli, kapital serob mamlakatda kapital sig'imli bo'lishi mumkin, bu ishlab chiqarish omillarini o'zaro almashtirish elastikligi yuqori bo'ladigan holatda yuz berishi mumkin. Talab reversi nazariyasiga ko'ra, mamlakat o'z savdo hamkorlariga nisbatan ishlab chiqarishi va eksporti uchun yaxshiroq ishlab chiqarish omillariga ega tovarlarni mamlakatdagi kuchli ichki talab tufayli import qilishi mumkin empirik tadqiqotlar bunday hodisalarning yuz berishi mumkinligini tasdiqlaydi, ammo ularning xalqaro savdodagi roli unchalik katta emas.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- Xalqaro savdoning merkantillistik nazariyasining mohiyati nimada?
- Xalqaro savdoning merkantillistik nazariyasining cheklanganligini tushuntirib bering.
- Mutlaq ustunlik qonuniga ta'rif bering.
- Mutlaq ustunlik qonuni qanday shart-sharoitlarda bajariladi?
- Muqobil ishlab chiqarish xarajatlari nima va u mutloq ustunlik nazariyasi bilan qanday bog'langan?
- Nisbiy ustunlik nazariyasiga ta'rif bering.
- Nisbiy ustunlik nazariyasiga asosan o'zaro savdoda narxlar nisbati qanday aniqlanadi?
- Nisbiy narxlar nisbatining qanday variantlari mavjud?
- Savdodan keladigan yutuq nima?
- Savdodan keladigan yutuq mehnat xarajatlari va iste'molning ortishi jihatidan qanday aniqlanadi?
- Nisbiy ustunlik qonunini bir necha mamlakatlar o'rtasida bir necha tovarlar bilan savdoga qo'llash mumkinmi?
- Nisbiy ustunlik qonuniga muvofiq ravishda nisbiy ish haqi me'yori qanday aniqlanadi?
- Nisbiy ustunlik qonunini bilmaslik yoki tushunmaslik natijasida qanday o'ziga xos tushunmovchiliklar kelib chiqadi?

O'rin ikkinchi boʻb. Tarmoq doirasidagi xalqaro savdo nazariyasi va xalqaro savdoda talab va reverse nazariyalari

- Nisbiy ustunlik qonunining cheklanganligi nimada?
- Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi negizida qanday shartlar yotadi?
- Omillar sig'imliliigi va omillar serobligi tushunchalariga ta'rif bering.
- Ishlab chiqarish omillari nisbatiga asoslangan Xeksher-Olin nazariyasini izohlang.
- Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasini grafik yordamida isbotlang.
- Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasini izohlang.
- Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasini grafik orqali isbotlang.
- Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining kuchli va kuchsiz jihatlari nimada?
- Leontev paradoksining mohiyatini tushuntiring.
- Xalqaro savdoning standart modelida Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning xulq-atvorlari deganda nimani tushunasiz?
- Xalqaro savdoning standart modelida savdo bo'lmagandagi muvozanat qanday yuzaga keladi?
- Xalqaro savdoning standart modelida savdo sharoitidagi muvozanat qanday yuzaga keladi?
- Xalqaro savdoning standart modelida savdodan keladigan foyda qanday aniqlanadi?
- Kichik va katta mamlakatlar o'rtasidagi savdoning mohiyati nimada?
- Bir tovarni ikkinchi tovardan ustun ko'rish asosidagi savdoni tushuntiring.
- O'zaro talabning xususiyatlari qanday?
- Xalqaro savdoning umumiy muvozanat nazariyasida xalqaro muvozanat deganda nimani tushunasiz?
- Qiymat orqali baholash tamoyillarini ayting.
- Rivojlanishning asosiy tendensiyalarini tushuntiring.
- Xalqaro savdo tarkibi qanday?
- Savdo sharti nima?
- Eksport va import egiluvchanligining mohiyati nimada?
- Foyda va o'rnini qoplash effektini tushuntiring.
- Iqtisodiy o'sish turlarini sanab bering.
- Foydaning qayta taqsimlanish effektini tushuntiring.
- Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modelida taklifning shakllanishi qanday yuz beradi?
- Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modelida talabning shakllanishi qanday yuz beradi?
- Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar muvozanatiga qanday erishiladi?
- Xalqaro savdoning klassik nazariyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
- Maxsus omillar modelida maxsus va harakatchan ishlab chiqarish omillarining farqi nimada?
- Maxsus omillar modelida xalqaro savdo daromadning taqsimlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- Xalqaro savdoda byudjet cheklashlari nimani anglatadi?
- Stolper-Samuelson teoremasini tushuntiring.

Jahinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

- *Ribchinskiy teoremasini tushuntiring.*
- *Jonsning kuchaytirish samarasining mohiyati nimada?*
- *Nima uchun keng ko'lamlilik samarasi natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi?*
- *Ichki va tashqi keng ko'lamlilik samarasining farqi nimada?*
- *Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo xalqaro savdoga ta'rif bering va ularning farqini tushuntiring.*
- *Tarmoq ichidagi savdo qanday o'lchanadi?*
- *Linderning kesishuvchi talab nazariyasining mohiyatini tushuntiring.*
- *Ishlab chiqarish omillari reversi va talab reversi nimanl anglatadi?*

Bo'lim bo'vicha muhokama uchun muammolar

Agar mamlakat ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega bo'lsa, ushbu mamlakat ana shu tovarni ishlab chiqarishda mutloq ustunlikka ham ega ekanligini bildiradimi? Agar mamlakat ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishda mutloq ustunlikka ega bo'lsa, ushbu mamlakat ana shu tovarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ham ega ekanligini bildiradimi?

O'zbekistonda texnologiyalarning eskirib qolganligi bols, to'qimachilik tovarlarini ishlab chiqarishda G'arb mamlakatlariга nisbatan ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat xarajatlari yuqori. Biroq o'zbek ishchisining ish haqi garblik ishchining ish haqiga nisbatan sezilari darajada pastroq. Nisbiy ustunlik nazariyasiga tayangan holda to'qimachilik sanoatini xorijiy raqobatdan himoya qilish zarur degan fikrni muhokama qiling.

O'zbekistonlik avtomobilsozlar ish haqini oshirishni talab qilishmoqda, lekin bitta avtomobil ishlab chiqarish uchun mehnat xarajatlari avvalgidek qolmoqda. Nisbiy ustunlik nazariyasiga ko'ra, ish haqining oshirilishi O'zbekistonni avtomobillar bilan tashqi savdosiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

O'zbekistonda qanday omillar serob hisoblanadi: kapital, yer, mehnat? Fikringizni asoslab bering.

O'zbekiston asosan xomashyo (jumladan, paxta) eksport qiladi va sanoat mahsulotlarini (jumladan, avtomobillar) import qiladi. Quyidagi hodisalar O'zbekistonning savdo shartiga qanday ta'sir ko'rsatadi:

- *O'zbekiston paxta eksport qiladigan mamlakatlarga Xitoy paxtasi eksporti miqdorining ortishi;*
- *O'zbekistonda hosilning kamayib ketishi;*
- *Neft narxining oshishi;*
- *AQShda energiya olishning yangi usulining topilishi?*

Savdo shartining o'zgarishi xalqaro savdoda talab va taklifga qanday ta'sir ko'rsatadi? Nima uchun?

Agar O'zbekiston uchun savdo sarti yaxshilansa, bu real daromadlarga qanday ta'sir qiladi?

Quyidagi tovarlardan qaysilari sotiladigan va qaysilari sotilmaydigan tovarlar hisoblanadi, qanday saroidda? a) neft, b) qum, c) stanoklar, d) sut, e) vino, i) shaxsiy mulkni sug'urtalash.

IKKINCHI BO'LIM. ERKIN SAVDO VA PROTEKSIONIZM

XIV bob. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish

Tashqi savdo siyosatining mohiyati

Har qanday davlatning tashqi savdo siyosati hukumatning umumiy iqtisodiy yo'nalishining muhim tarkibiy qismi sanaladi, yanada torroq ma'noda esa eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va jug'rofiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir.

Tashqi savdo siyosati xo'jalik rivojlanishining ichki jihatlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun uning bosh vazifasi mamlakat ichkarisida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va milliy boylikni ko'paytirish uchun zarur bo'lgan qulay tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish hisoblanadi.

XX asr mobaynida tashqi savdo siyosatini amalga oshirish tamoyillari va unga yondashuvlar, o'z navbatida, xo'jalik faoliyatining bu sohasini tartibga solish amaliyoti ham o'zgarib bordi. Birinchi jahon urushigacha (1914-1918 yy.) bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi deyarli rad etildi. Iqtisodchilar va siyosatchilar orasida A. Smitning bozordagi «ko'rinmas qo'l»ning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi formulasiga asoslanuvchi neoklassik maktab tarafdorlarining qarashlari hukmron bo'ldi. Keyinchalik, 30-40-yillarda ishlab chiqarish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni ilgari surgan Dj.M. Keynes

nazariyasi tarafdorlarining nuqtai nazarlari ustuvorlik qildi. 70-80-yillarga kelib M.Fridmen boshchiligidagi Chikago maktabining monetaristik tamoyillarini yoqlovchilarning mavqelari ko'tarildi. M.Fridmen davlat tomonidan iqtisodiyotga har tomonlama, tashqi savdo siyosatiga esa muomala sohasi orqali ta'sir qilish mexanizmlaridan foydalanishni ustuvor deb hisoblaydi.

Bugungi kunda davlatlar o'rtasida tovar ayirboshlash amaliyotida yuqorida sanab o'tilgan nazariy fikrlarning barcha yo'nalishlari sintezidan foydalanilayotganligi haqida gapirish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat tashqi savdosi holatiga ta'sir ko'rsatish vositalari qatoriga u yoki bu hukumat ega bo'lgan turli-tuman makroiqtisodiy dastaklar kiradi.

Zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosatda ikki asosiy tamoyil: bir tomondan davlatlarning ochiq tipdagi iqtisodiyotga, ya'ni tashqi savdoni erkinlashtirishga o'tish, ikkinchi tomondan jahon bozorida ajralganlik unsurlarini saqlab qolish, ya'ni proteksionistik chora-tadbirlarni amalga oshirish tamoyili mavjudligini qayd etib o'tish kerak.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, alohida olingan bir mamlakatda tashqi savdoni tartibga solishning u yoki bu vositalarini tanlash mamlakatning ichki iqtisodiy vaziyati va jahon

bozorida mavqeiga, alohida vaziyatlarda esa butun bir omillar kompleksiga bog'liq, masalan:

- *Raqobat kurashining keskinlashishi.*
- *Valyuta kurslarining nostabilashuvi.*
- *To'lov balanslarining kamomadlari.*

O'tish iqtisodiyotli va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari kabilar.

Tashqi savdoni tartibga solish vositalarining turlari dolmiy ravishda kengayib bormoqda, bu xo'jalik hayotining baynalmillashuvi va XIMning yangi sohalari, ya'ni axborot ayirboshlash yoki servis xizmatlar iqtisodiyoti kabilarining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Tashqi savdoni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun asosiy shartlar sifatida xalqaro-huquqiy aktlar kompleksi huquqiy maydonini shakllantirish, tashqi iqtisodiy axborotlar tizimini yaratish (bu ayniqsa, xorijiy hamkorlar qidirish imkoniyati chegaralangan uncha katta bo'lmagan kompaniyalar uchun kerak), shuningdek, XIMning ana shu sohasida samarali ishlashga qodir kadrlarni o'qitish va tayyorlash usullarini takomillashtirish kabilarini ko'rsatish mumkin.

Erkin savdo va proteksionizmning o'ziga xos jihatlari

Erkin savdo siyosati (yoki fritredlik — inglizcha *free trade*) iqtisodiy hayotning bir hodisasi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Uning nazariy jihatdan asoslanishida A.Smitning mashhur asari - «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari» hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mashhur ingliz iqtisodchisi o'zining kitobida insonlar jamiyatiga yagona ayirboshlash

ittifoqi sifatida qaraydi, ya'ni bu ittifoqning a'zolariga — insonlarga tabiatdan savdoga intilish xosdir. Shuning uchun ham mehnat taqsimoti asosida mamlakatlar o'rtasida tovar ayirboshlash iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu vaziyatda davlat birinchi navbatda xo'jalik jarayonlariga o'zining aralashmasligi orqali talab va taklifning erkin raqobat qilishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratib berish orqali tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning yollanma agenti rolini bajaradi.

Fritredlik nazariyasi boshqa bir ingliz iqtisodchisi D.Rikardo asarlarida rivojlantirildi va deyarli nihoyasiga yetkazildi. D.Rikardo Adam Smitning raqobat sharoitida erkin tadbirkorlik ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotini «ko'rinmas qo'l» hukmronligiga, ya'ni bozorning o'z-o'zini boshqarish qonunlari ixtiyoriga topshiruvchi jamiyatning «tungi qorovuli» sifatidagi davlat roli haqidagi g'oyalarini rivojlantirdi.

Erkin savdo siyosatining klassik namunalari XIX asrning ikkinchi yarmidagi ingliz-sakson mamlakatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya va uning dominionlari (1947 yilgacha Britaniya tarkibiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlatlar) iqtisodiyotida kuzatish mumkin. hozirgi paytga kelib fritredlik tizimining klassik ko'rinishi davlat ixtiyorida bo'lgan biror-bir mamlakat qolmadi. Davlatning nufuzli tashkilotlarini tartibga solish borasida rolini sezilarli oshganligini hisobga olsak, bu o'z-o'zidan tushunarli, albatta. Biroq erkin savdo siyosatining unsurlari ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy kursida hozir ham sezilarli, ayniqsa,

rivojlangan va hududi hamda resurslari jihatidan kichik bo'lgan mamlakatlarda, masalan, Singapurda.

Bundan tashqari erkin savdo siyosatining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari keyingi vaqtda erkin iqtisodiy hududlarning bir ko'rinishi sifatida keng tarqalgan ofshor hududlarni yaratilish jarayoni va ularning faoliyatida kuzatiladi. Ayni paytda bir qator obro'li xalqaro tashkilotlar, masalan, Umumjahon savdo tashkiloti yoki Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD) kabilar, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, TIF sohasida, asosan tashqi savdoda cheklashlar va to'siqlarni olib tashlashni faol qo'llab-quvvatlamodalar.

Tashqi savdoni global erkinlashtirish jarayoni dunyoning barcha qit'alarida keng ko'lamdagi hududiy «erkin savdo» zonalarini vujudga kelishida o'z aksini topdi. Shu bilan birgalikda ko'plab mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy siyosatlarida faqat fritredgina iqtisodiy resurslarni samarali joylashtirish va foydalanishga imkon yaratadi, degan fikrdalar. Albatta, shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, erkin savdoni zamonaviy talqini davlatning iqtisodiyotga aralashuvini butunlay yo'q qilish emas, balki bu aralashuvning barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ziyon yetkazmaydigan eng optimal ko'rinishini qidirishdan iborat.

Iqtisodiy nazariyada odatda erkin savdo proteksionizm siyosatiga (ingl. protection — himoya, homiylik), ya'ni milliy iqtisodiyotni ichki va tashqi bozor tamoyillarining salbiy ta'sirlaridan himoyalash maqsadida davlat tomonidan joriy etiladigan iqtisodiy va

ma'muriy chora-tadbirlar tizimi qarama-qarshi qo'yiladi.

Proteksionizm o'z mohiyatiga ko'ra, ilk davlatlar shakllangan paytdan buyon mavjud. Bu siyosatning printsiplari nazariy jihatdan amerikalik davlat arbobi A.Gamilton (XVIII asrning oxiri) va taniqli nemis iqtisodchisi F.List (XIX asming o'rtalari) asarlarida ishlab chiqilgan. Biroq proteksionizm amaliy chora-tadbirlar seriyasi sifatida sayyoramizda so'l (SSSR) va o'ng («Uchinchi reyx» - fashistlar Germaniyasi) siyosiy oqimlarning totalitar rejimi davrida o'z kulminatsiyasiga yetgan. Bu malakatlarda savdo sohasiga davlat monopoliyasi xos edi.

Yuqorida qayd etib o'tilgandek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida yanada ko'p sonli mamlakatlarni aholi turmush farovonligini oshishini ta'minlovchi erkin savdo siyosatiga o'tishi tan olinib kelinayotgan bo'lsa-da, proteksionizmning «tanlangan» restavratsiyasi deb atalgan jarayon ham kuzatilmoqda.

Bojxona ittifoqlarini tashkil etish ham bu ittifoqqa a'zo mamlakatlardan uchinchi mamlakatlar tomon tovar oqimlari yo'lida bojxona «devor»larini paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'pincha milliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan fiskal va homiylik maqsadlarni ko'zlab tashqi savdo sohasida tariflar va kvotalarni joriy etish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni boshqa mexanizmlarini qidirish va sinovdan o'tkazishga nisbatan qulayroq va foydaliroq bo'ladi. Va nihoyat, kolonial tizimning barbod bo'lishi va o'zlarining hali yosh iqtisodiyotlarini yirik g'arb kompaniyalari hukmronligidan himoya qilishga intilayotgan katta guruhdagi rivojlanayotgan mamlakatlarning vujudga

kelishi proteksionizm g'oyalari yana mashhur qilib yubordi.

Proteksionizmning ijobiy va salbiy tomonlari

Hukumatning TIFni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga majbur etuvchi omillar (ijobiy omillar) ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Iqtisodiyotning yangidan shakllanayotgan sohalari qudratli xorijiy kompaniyalar raqobatidan himoyalash.

Davlat ko'magisiz tuzilmasini qayta qurishning iloji bo'lmagan jahon bozorida raqobatbardosh bo'lmagan «eski» sohalarni qo'llab-quvvatlash.

Diskriminatsion savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar yoki kompaniyalarga javob tariqasida demping va xorijiy raqobatning boshqa nohalol usullari bilan kurashish.

Jahon bozor kon'yunkturasidagi tebranishlarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish. Bu omil xom ashyo va tabiiy resurslar eksport qiluvchi mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Byudjetning daromad qismini ko'paytirish - o'tish davri iqtisodiyotii va rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti ko'pincha proteksionistik siyosatning tarkibiy unsurlari bo'lgan bojxona bojlari va boshqa egri solliqlar hisobiga amalga oshiriladi.

Proteksionizmning salbiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *Aholi turmush darajasida sof yo'qotishlarning ortib ketishi. Import bojlari*

kiritilganidan keyin xaridorlar olib kiritilgan tovarlar uchun yanada yuqoriroq haq to'lashga majbur bo'lishadi. Bu investitsiyalarga aylanishi mumkin bo'lgan iste'moldan ortadigan jamg'armalarni kamayishiga olib keladi.

- *Yanada ko'proq mamlakatlar tomonidan tarif cheklashlarini joriy etilishining zanjir reaksiyasi bilan bog'liq xalqaro ko'paytiruvchi samaraning paydo bo'lishi.*
- *Milliy iqtisodiyotda nosamaraviy sohalar va korxonalarining saqlanib qolishi. Milliy korxonalariga imtiyozlar berilishi sharoitida ishlab chiqaruvchilarda xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga rag'bat bo'lmaydi.*
- *Iqtisodiy sohada korruptsiya va o'z amaldan foydalanishning boshqa ko'rinishlari keng tarqaladi. Milliy iqtisodiyotning «yopiqligi» odatda TIFning kriminallashuvi uchun ozuqa muhitini yaratadi.*

Shunday qilib, proteksionizm tashqi savdo operatsiyalariga turli-tuman cheklashlarni joriy etuvchi davlatga vaqtinchalik, taktik yutuq keltirsa-da, strategik, uzoq muddatli rejada istiqbolsiz siyosat hisoblanadi. Bu siyosat XX asr tajribasidan ma'lumki, hayot darajasining va aholi turmush farovonligining pasayishiga olib keladi. Shunday bo'lsa-da, iqtisodiy erkinlashtirish kursini saqlagan holda proteksionizmning ayrim unsurlaridan oqilona foydalanish ma'lum vaqt oralig'ida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy usullari

Yuqorida qayd etib o'tilgandek, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ularni tovar oqimlariga ta'siri tabiatiga ko'ra bir-biridan jiddiy farq qiluvchi ikkita asosiy tipga ajratish mumkin: iqtisodiy va ma'muriy.

Iqtisodiy (tarifli deb ham ataladigan) usullardan foydalanganda ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar, eng avvalo, narx mutanosibligi, tovar va resurslar eksporti va importi sifati hamda shartlariga amal qilishadi. Tashqi savdoni tartibga solishning ma'muriy (mos ravishda notarif) usullaridan foydalanilganda bozor mexanizmiga davlat organlari tomonidan ta'sir o'tkaziladi, ularning qarorlari va harakatlari ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning xohishlarini belgilab beradi.

Tarifli usullar tovar narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu usullar davlatlar tashqi savdo amaliyotida eng keng tarqalgan, chunki ular birdaniga uchta vazifani yechishga imkon beradi:

- *fiskal — byudjet uchun qo'shimcha mablag'larni olish;*
- *rag'batlantiruvchi — xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish;*
- *proteksionistik — milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.*

Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari qatoriga bojxona bojlari, bojlar, yig'imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar, mas. aksizlar kiradi.

Notarif usullar – tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib

chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Ular ko'proq rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Notarif ta'sir qilish vositalariga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartei bitimlar va mamlakatlar o'rtasida tovar oqimlari yo'lida texnik to'siqlarni yaratish kabilar kiritiladi.

Jahondagi mamlakatlar va hududlar bo'yicha statistik axborotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish tarifli va notarif usullarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Tarifli usullarning mavqei keyingi paytda pasayib bormoqda, bu esa Umumjahon savdo tashkilot tomonidan a'zo-mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa, ya'ni ular orasidagi o'zaro tovar ayirboshlashda tarifli cheklashlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq. Notarif cheklashlarning ahamiyati «tanlovli» proteksionistik savdo siyosatining kengayib borishi tufayli ortib bormoqda.

Tashqi savdoni tartibga solishning tarifli usullari tavsifi

Oldingi paragrafda aytib o'tildiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko'rinishlarga ega bo'lgan tarifli va notarif usullarini birgalikda olib borilishi orqali amalga oshiriladi. Tarifli usullar ichida eng keng tarqalgani tariflar hisoblanadi, ammo quyida tarif ko'rinishidagi boshqa cheklashlar -

bilvosita (egri) soliqlar va yig'imler haqida gap boradi.

Egri soliqlar va yig'imga birinchi navbatda eksport-import operatsiyalariga soliqlar kiritiladi, bunda mamlakatga olib kiritiladigan tovarlar ham, milliy ishlab chiqaruvchilarning olib chiqadigan mahsulotlari ham sotishda va milliy bojxona hududi chegarasida foydalanilganda soliqqa tortiladi. Bu holatda aksizlar qo'llaniladi va ularning miqdori quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$A = T_{st} * A_k$$

Bu yerda A — aksiz miqdori, T_{st} — tovarning import qilinayotgan mamlakatdagi qiymatiga mos keluvchi bojxona qiymati, A_k — belgilangan aksiz koeffitsiyenti (stavkasi).

Bundan tashqari 60-yillarning boshlarida ko'pgina mamlakatlarda (ilk marta Fransiyada) qo'shilgan qiymatdan soliq (QQS) olish amaliyotga joriy etilgan. Bu import tovarlarni bojxona qiymatiga bojxona boji va aksizini qo'shgan holda (agar aksiz belgilangan bo'lsa) 10 - 20 foizli soliqqa tortishni nazarda tutadi.

Odatda aksiz belgilanuvchi buyumlar ro'yxatiga ommaviy talabga ega ayrim tovarlar (alkogol, tamaki mahsulotlari), zeb-zinbat buyumlari (mo'yna, zargarlik buyumlari) va maxsus sifatga ega mahsulotlar (masalan, osetr va losos balig'i ikresi) kabilar kiritiladi. QQSga kelsak, u diplomatik missiya, gumanitar yordamga mo'ljallangan tovarlar, nogironlar va bolalarga atalgan ba'zi buyum turlariga, shuningdek, ko'rgazma ekspozitsiyalari va ro'yxatli dolmiy ravishda aniqlanib boruvchi boshqa ayrim mahsulotlar uchun to'lanmaydi.

Qayd etib o'tish kerakki, aksizlar va QQS tovarlar tranziti, reeksportida va erkin iqtisodiy

hududlarga olib kiritilganda olinmaydi. Ko'pchilik hollarda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda import tovarlaridan turli maxsus yig'imler: davlat yig'imi, munitsipal va boshqa yig'imler undiriladi. Mamlakatda ulkan va chalkash soliq va yig'imler tizimini mavjudligi xorijiy eksportyor-kompaniyalarni yo'ldan qaytaradi, bunday mamlakat bilan aloqalarni kengaytirishga ularda qiziqish paydo bo'lishiga yordam bermaydi. Buning ustiga davlatning tashqi savdo sohasiga haddan tashqari ko'p aralashuvi korruptsiya va amaldor shaxslarning o'zboshimchiligining kuchayishini rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Tashqi savdoni notarif cheklashning asosiy turlari

Boshqa mamlakatlar bilan savdoni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullarining 50 dan ortiq turi mavjud. Ularning ichida eng keng tarqalgani kvotalardir. Agar tarifli usullar aniq bir tovar guruhi bo'yicha eksport yoki import hajmi masalasini ochiq qoldirsa, kvotalar olib kiritiladigan yoki olib chiqiladigan mahsulotning qiymat yoki miqdoriy hajmini to'g'ridan to'g'ri cheklash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Import kvotalarini joriy qilishda davlat milliy ishlab chiqaruvchilarga xorijiy raqobat ta'sirini bartaraf qilishga intiladi. Bunday kvotalarning harakat mexanizmi import tariflaridan foydalangandagi holatni eslatadi, ya'ni import tovarlar taklifi cheklanganda ichki baholar jahon narxiga nisbatan o'sib boradi. Biroq tarifdan farqli ravishda, import kvotalari xorijiy raqobatning ichki narxlarga ta'sir qilishiga yo'l

qo'ymaydi, bu orqali importdan keladigan foydani ko'paytiradi va mamlakat to'lov balansini muvozanatga keltirish jarayonini osonlashtiradi. Xalqaro bitimlar orqali qat'iy belgilanuvchi tarif stavkalari o'rnatilgan vaziyatda mamlakat yuqoridagi masalani hal eta olmaydi, UST eksport-import operatsiyalarga miqdoriy cheklashlar joriy qilishga ruxsat beradi.

O'z navbatida, eksport kvotalari milliy ishlab chiqaruvchilarni yetarli tabiiy resurslar bilan ta'minlash, jahon bozoridagi eksport baholarini ko'tarish va harbiy-strategik maqsadlarga erishish kabilarga qaratilgan.

Import kvotalari kabi eksport kvotalari ham mamlakat hukumati tomonidan bir tomonlama tartibda yoki manfaatdor hamkor bilan xalqaro kelishuv xulosasi orqali joriy etilishi mumkin. Ular global yoki ma'lum davrda amal qiluvchi mavsumiy bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar fikricha, eksport kvotalarining muhim turlaridan biri ko'ngilli eksport cheklashlari (KECh) hisoblanadi. KECh holatida eksportyor-davlat «ko'ngilli» ravishda boshqa mamlakatga olib chiqadigan mahsuloti hajmini chegaralaydi va hamkor tazyiqi ostida minimal import narxlarini o'rnatadi. Bunday amaliyot AQSh va Yevropa Ittifoqida Yaponiya tovarlari (avtomobillar, elektronika, po'lat)ga nisbatan keng qo'llaniladi. Hozirgi paytda jahonda bunday turdagi 100 dan ortiq bitimlar imzolangan, biroq UST a'zo-mamlakatlar oldiga ular o'rtasidagi savdoda XXI asr boshlariga kelib KEChni umumiy bekor qilish vazifasini qo'ymoqda.

Maxsus, mantiqiy nihoyasiga yetkazilgan kvotalash usuli iqtisodiy sanksiya ko'rinishidagi embargo hisoblanadi. Bu usul bir

mamlakat yoki mamlakatlar guruhi bilan savdo operatsiyalarini butunlay ta'qiqlashni bildiradi. Odatda siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda embargoni joriy qilish butun nomenklaturadagi yoki alohida guruhdagi tovarlar eksporti yoki importini cheklashni nazarda tutadi. XX asrda savdoni tartibga solishni bunday usuliga yetarli darajada misollar keltirish mumkin. BMT qaroriga ko'ra embargo siyosati Iroqqa, qisman Yugoslaviya, Livan, Eron va ba'zi boshqa mamlakatlarga nisbatan amalga oshirilgan.

Kvotalash jarayoni (boshqacha qilib aytganda, kontingentlash), odatda, litsenziyalash, ya'ni maxsus ro'yxatga kiritilgan resurslar va mahsulotlar bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishga vakolatga ega bo'lgan davlat tashkilotlari (vazirliklar va mahkamalar) tomonidan ruxsat berish bilan birgalikda kuzatiladi.

Ko'pchilik davlatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalashni joriy qilish xalqaro huquqiy aktlarga asoslanadi, ularning ichida eng asosiysi 1947 yilda imzolangan Savdo va tariflar bo'yicha Bosh bitim (GATT) hisoblanadi. Keyinchalik GATT doirasida ba'zi bir boshqa shartnomalar imzolangan.

Tashqi savdoni litsenziyalash turli ko'rinishlarni olishi mumkin: bosh litsenziya, bir martalik litsenziya va avtomatik litsenziya. Bosh litsenziyalar uning egasining ma'lum tovar guruhi bilan ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yildan uch yilgacha) eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish huquqini bildiradi. Bir martalik litsenziya kompaniyalarga xorijiy hamkor bilan aniq bir bitimni amalga oshirish uchun beriladi. Avtomatik litsenziya davlat tomonidan xaridni, ya'ni xarid hajmini ham, tovar oqimlarining jug'rofiy

yo'nalishini ham doimiy ravishda nazorat qilishni nazarda tutadi.

Litsenziyalarni joylashtirishning asosiy usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *Ochiq konkurs — bunda maksimal narx taklif qilgan firma litsenziyaga ega bo'ladi;*
- *yaqqol afzallik tizimi - bunda davlat ana shu sohadagi eng obro'li kompaniyalarga litsenziya beradi;*
- *harajatlar usullari - bu raqobatchilariga nisbatan kattaroq ishlab chiqarish quvvatlariga va boshqa resurslarga ega korxonalarga litsenziya berishni anglatadi.*

O'z-o'zidan tushunarlik, keltirilgan usullar ichida eng afzali korruptsiya va oshnagog'aynigarchilikdan xoli bo'lgan ochiq konkurs usulidir.

Yevropa Ittifoqiga a'zo-mamlakatlar orasida eksport-import operatsiyalarini litsenziyalash tovar aylanmasi umumiy hajmining 5-6 foizi darajasiga yetadi (kvotalash va litsenziyalash bo'yicha o'ziga xos «lida» Fransiya hisoblanadi).

Litsenziyalashni talab etadigan tovarlar ro'yxatiga birinchi navbatda eksportga mo'ljallangan kvotalanadigan mahsulotlar, shuningdek, ba'zi bir maxsus guruhdagi tovarlar: strategik ahamiyatga ega tovar va resurslar, dori-darmonlar, bolalar assortimenti va boshqalar kiradi.

Litsenziyalashga qo'shimcha ravishda, davlat milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni bevosita va bilvosita subsidiyalar tizimi, ya'ni mamlakat byudjetidan ayrim korxonalarga va mahalliy hokimiyat organlariga dotatsiyalar berish orqali rag'batlantirishi mumkin. Bundan maqsad arzon import tovarlari raqobatidan himoya qilish, eng asosiysi - milliy sanoat va

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijga eksport qilishni rag'batlantirishdan iborat. Bu vaziyatda bevosita subsidiyalar pul ko'rinishidagi mablag'ni, bilvosita subsidiyalar esa imtiyozii shartlarda kreditlash, soliqqa tortish, xavxatarni sug'urtalash bo'yicha davlat tomonidan kafolatlash, davlat xazinasini hisobidan eksport qilinadigan tovarlarni tashqi bozorlarda reklama qilish kabilarni nazarda tutadi.

GATT (UST) qoidalariga muvofiq, a'zo-mamlakatlar o'rtasidagi savdoda bevosita eksport subsidiyalaridan foydalanish ta'qiqlangan. Yevropa Ittifoqi doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga bevosita eksport subsidiyalari berish bundan mustasno. Yuqorida ko'rsatilgan qoidalarning buzilishi import qilayotgan mamlakatga kompensatsiyalovchi import bojlari olish orqali javob choralar ko'rishga asos bo'ladi. Bu bojlar UST arbitrajida bahs hal etilgunga qadar saqlanadi.

Eksport subsidiyalari miqdori rivojlangan mamlakatlarning qayta ishlash sanoati eksporti qiymatining 1 foizidan oshmaydi, biroq ayrim tovar guruhlari uchun, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarda bu me'yor juda katta miqdorga yetishi mumkin.

Tashqi savdoni notarif usullar bilan tartibga solish amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, eksport subsidiyalari ko'pincha dempingga - xorijiy bozorlarda eksportyor mamlakat ichki bozorida o'rtacha narxga nisbatan past baholarda sotishga moddiy asos bo'ladi.

Mutaxassislar dempingning quyidagi variantlarini ajratib ko'rsatishadi:

- *Tasodifiy — eksportyorda tasodifiy ortiqcha tovarlarni paydo bo'lishi bilan bog'liq;*

- **Vaqtinchalik** — eksportyor tomonidan boshqa mamlakat bozoriga tezlik bilan kirib borish uchun qo'llaniladi;
- **Doimiy** — monopolist kompaniya tomonidan, uning tashqi iqtisodiy faoliyati davlatning doimiy qo'llab-quvvatlashi sharoitida, tashqi bozorlarda foydani maksimallashtirish uchun qo'llaniladi, bunda ichki bozorda nisbatan yuqori narx saqlab tutiladi.

Dempingdan, eng avvalo, davriy pasayishlar va ichki talab kamayganda, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish davrida foydalaniladi. Masalan, 30-yillarda shunga o'xshash hodisa Sharqiy Yevropa mamlakatlari import qilinuvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida kuzatildi, 70-yillarda AQSh va Yevropa Ittifoqi tomonidan Yaponiyaga nisbatan dempingdan foydalanish ayblov ilgari surildi.

Vaqtinchalik va ayniqsa, doimiy dempingga qarshi importyor-mamlakatlar GATT moddalariga asoslangan holda importga qarshi import bojlarini joriy etish huquqiga ega bo'lganligi sababli keyingi paytda yashirin demping keng tarqalmoqda. Bu eksportyor va importyorlar o'rtasida importyorlar tomonidan o'z milliy bozorida tovarlarni eksportyor yetkazib bergan narxdan past baholarda sotish haqida oshkor bo'lmagan kelishuvni nazarda tutadi. Yashirin demping yirik TMKlar tomonidan firma ichida qo'llaniladigan

butlovchi qismlarni transferti amaliyotida keng tarqalgan (mas. yapon TMKlari ichida).

Tashqi savdo siyosatini amalga oshirishning yana bir o'ziga xos usuli import depoziti - importyor ma'lum muddatga bankka qo'yadigan garov puli hisoblanadi. Bu foizsiz mablag' olib kirladigan tovarning butun yoki ayrim qismi qiymatiga teng summani bildiradi. Import depozitlari import qiluvchi kompaniya tomonidan eksportyor firmaga nisbatan o'ziga xos sug'urta kafolati sifatida foydalaniladi. Va nihoyat, tovarning iste'mol xususiyatlari, ularni ishlab chiqarish va sotish shart-sharoitlari, shuningdek, tovar oqimlarining chegaradan o'tish jarayoniga taalluqli ma'muriy xarakterdagi notarif usullar guruhiga to'xtalaylik. Bular qatoriga turli tuman texnik standartlar va sifat sertifikatlari, sanitariya va ekologik xavfsizlik sertifikatlari, qadoqlash va markirovkalashga qo'yiladigan talablar, tovar va boshqalarni bojxona tozalovidan o'tkazish bo'yicha harakatlar kompleksi kabilar kiradi.

Xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalariga davlat tomonidan ta'sir qilishning notarif usullarini keng ko'lamdagi guruhi sharhiga yakun yasagan holda shuni qayd etish mumkinki, bu sohada keyingi paytlarda xalqaro tovar oqimlarini tartibga solishning kvotalash, litsenziyalash va ular bilan bog'liq bo'lgan boshqa usullari ko'rinishidagi cheklashlarni olib tashlash jarayonining faol rivojlanib borishi kuzatilmoqda.

XV bob. Boixona bojlari va boixona tariflari

Boixona bojlarining mohiyati va turlari

TIF amaliyotida tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning eng keng tarqalgan usullaridan biri boixona bojlari hisoblanadi. Boixona boji iqtisodiy mohiyati jihatidan tovar davlat chegarasidan o'tayotganda olinadigan maxsus pul yig'imi, soliqli bildiradi.

Boixona bojlari ko'rinishlarining turli tumanligi ularning tovar oqimlarini tartibga solish jarayonida bajaradigan funksiyalarining nihoyatda keng ko'lamliligi bilan tushuntiriladi. Eslatib o'tamiz, boixona bojlarini joriy etishdan asosiy maqsad: byudjet daromad qismini ko'paytirish va «nohalol» raqobat bilan kurashish. Shuning uchun ham savdoga ta'sir o'tkazishning bu usulidan hozirgi kunda jahonning yuzdan ortiq mamlakatida foydalaniladi.

Tovar oqimlarining yo'nalishiga bog'liq ravishda import, eksport va tranzit bojlari mavjud.

XIM amaliyotida ba'zi rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar byudjetlari uchun yetarli darajada daromad manbai bo'lgan import bojlari nisbatan ko'p uchraydi. Import bojlarining harakat mexanizmi import tovarning milliy bozordagi narxini o'rtacha jahon bahosidan ko'tarishdan iborat.

Ichki narx = Jahon narxi + (Jahon narxi X Tarif stavkasi)

Import bojlarini joriy qilish milliy kompaniyalar (rezidentlar)ga ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatini beradi, chunki ular jahon bozoridagi o'rtacha darajaga nisbatan yuqoriroq xarajatlar bilan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo bunda iste'molchilarning yo'qotishlari import tariflari darajasiga proporsional ravishda o'sadi, bu esa, hisob-kitoblarni ko'rsatishicha, davlatning daromadlari bilan ham, milliy tadbirkorlarning foydalari bilan ham qoplanmaydi. Bundan xulosa shuki, import bojlari hamisha qisqa muddatli iqtisodiy samara bergan holda millat farovonligini pasaytiradi.

Hozirgi paytda eksport bojlari ancha kam qo'llaniladi. Ulardan deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar voz kechishgan, chunki ularni joriy qilish jahon bozoridagi keskin raqobat sharoitda eksportni qimmatlashishiga olib keladi (bu AQShda qonun bilan ta'qiqlangan). Odatda, eksport bojlaridan foydalanish monopolist kompaniyalar tomonidan ishlab chiqariladigan ayrim tovarlar (masalan, xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari) narxini ana shu tovarlar bozorida davlat daromadlarini oshirish va aniq bir mahsulotni olib chiqilishini cheklash uchun ma'muriy nazorat qilishda maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tranzit bojlar mamlakat hududini kesib o'tuvchi tovarlardan olinadi va tranzit yig'imlar ko'rinishiga ega. Bunga yaqqol misol qilib Rossiya kompaniyalari tomonidan milliy tovarlarni Litva orqali Kaliningrad oblastiga va qarama-qarshi yo'nalishda olib o'tishda

to'lanadigan bojlarni to'lash amaliyotini keltirish mumkin. Bojxona bojiga tortishning ikkita asosiy usuli mavjud:

Maxsus, bunda boj miqdori tovarning og'irligi, hajmi miqdori birligidan belgilangan summa sifatida o'rnatiladi (masalan, avtomobil dvigatellining 1 sm³ dan.).

$$MBB = TBQ + MTS$$

Bu yerda, MBB - maxsus bojxona boji, TBQ - tovarning bojxona qiymati,

MTS - maxsus tarif stavkasi.

Advalor (lot. — ad valorem — qiymatdan), bunda bojxona boji sotuvchi tomonidan qayd etilgan tovar qiymatidan foiz ko'rinishida aniqlanadi.

$$ABB = TBQ \times (1 + ATS)$$

Bu yerda, ABB - Advalor bojxona boji, TBQ - tovarning bojxona qiymati, ATS - advalor tarif stavkasi.

Bundan tashqari tashqi savdo amaliyotida bojlarni hisoblashning oraliq usuli mavjud. Uning mohiyati shundan iboratki, ma'lum bir bojxona tashkiloti vaziyatdan kelib chiqqan holda maxsus va advalor orasidagi usulni mustaqil ravishda tanlash huquqiga ega bo'ladi. Bunday boj muqobil boj nomini olgan.

Bojxona boji o'rnatishning u yoki bu usulini tanlash tovar guruhi tabiatiga bog'liq. Xom ashyo tovarlariga odatda birinchi usul qo'llaniladi, eksport bojlariga kelsak, ular ham odatda maxsus usul foydalangan holda o'rnatiladi. Advalor usuldan foydalanish bo'lsa, mashinasozlik mahsulotlari va butlovchi qismlar, ya'ni yuqori darajada differentsiyaga ega buyumlar importida qulay

hisoblanadi. Hozirgi paytda bu usul hissasiga barcha bojxona yig'irlarining 80 foizidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Savdo aloqalaridagi mamlakatlar bir-biri bilan turli shartnoma munosabatlarida bo'lganligi uchun import bojlari: preferentsial (maxsus imtiyozli) boj, shartnomaviy (minimal) boj va asosiy (jahon bozori uchun maksimal darajada mumkin bo'lgan) bojar bo'lishi mumkin.

Milliy bojxona bojarlarining tartiblashtirilgan reestri (ro'yxati) tarif deb ataladi. Jahon savdosi nomenklaturasining kengayib borishi bilan bog'liq ravishda bojxona bojlari tuzilmasining murakkablashib borishi kuzatilmog'da. Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlar differentsiyalashgan tariflarga ega.

Bojxona tariflarini shakllanishini asosiy printsiplari - tovarni qayta ishlash darajasini oshib borishi bilan tarif stavkasini ortishidir. Masalan, shakar xom ashyosiga 5 foizgacha stavka belgilansa, rafinadlangan shakarga 15 foizgacha belgilanishi mumkin. Shunday qilib, bojxona bojining haqiqiy stavkasi xom ashyo va tayyor mahsulot orasidan farq qancha ko'p bo'lsa, shuncha katta bo'ladi.

Bojxona siyosatining shakllanishi jarayonida import taklifi elastikligi darajasi miqdoriga teskari bo'lgan optimal tarif stavkasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, deyarli bir xil miqdordagi import miqdorini saqlab turuvchi xorijiy tovar yetkazib beruvchilar qanchalik kam moslashuvchan bo'lsa, optimal import stavkasi shunchalik yuqori, davlatning sof daromadi miqdori esa katta bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar bojxona siyosatining bosh tamoyili XX asrning o'rtalaridan boshlab hozirgi kungacha tarif miqdorini 60 foizdan 4-5 foizgacha asta-sekin kamaytirilib borilishi bo'ldi.

Tarif siyosatining asosiy shakllari

Milliy xo'jaligining holatiga bog'liq ravishda bojxona siyosati olib borishning ikki variantini ajratib ko'rsatish mumkin - iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi bojxona siyosatlari.

Rivojlangan mamlakatlar uchun ko'p ustunli tariflar xos bo'lib, u turli import boji stavkalarini: barcha davlatlar uchun taalluqli bo'lgan miqdori baland umumiy stavkalar, eng qulay sharoit yaratish rejimi stavkasi (ikki mamlakat o'rtasida kelishilgan holda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi), kambag'al, past darajada rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlardan qilinadigan importlar uchun belgilangan preferentsial koeffitsentli stavkalarni nazarda tutadi.

Rivojlangan mamlakatlar bojxona tariflarining boshqa bir xususiyati, bu tariflarning 1988 yilda joriy etilgan «Xalqaro tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi» (UT) bilan korrelyatsiyasi (o'zaro bog'liqligi) hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bojxona siyosatining o'ziga xos xususiyati eksport bojaridan keng ko'lamda foydalanish va nisbatan yuqori import tarifi stavkalarini


ushlab turish (bu stavkalar rivojlangan mamlakatlar uchun misli ko'rilmagan darajaga yetadi - 50-100 foizgacha, Misr, Ekvador, Pokistonda hatto bundan ham yuqori) xosdir.

Bundan tashqari ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, AQSh, Yaponiya va Yevropa derjavalariidan farqli ravishda, eski Bryussel tovar nomenklaturasidan yangi Uyg'unlashtirilgan tizimga endigina o'tishmoqda. Shuning uchun ularning ba'zilar ko'p kolonkali tariflarni qo'llaydi (Senegalda — 9 ta, Malida — 17 ta). Milliy tariflar bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotida bir necha mamlakatlarni bojxona ittifoqlariga birlashishi keng tarqalib bormoqda. Bojxona ittifoqlari tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishni turli ko'rinishlaridan amaliy foydalanishmoqda, bunda ular turli hududiy va global xalqaro tashkilotlar ko'magiga suyanmoqda.

Proteksionistik chora-tadbirlar joriy qilishdan ishlab chiqaruvchilar ko'radiqan foydalar

Nazariyalarning guvohlik berishicha va statistika ma'lumotlarining tasdiqlashicha, iqtisodiyotda davlat tomonidan tashlangan proteksionistik qadamlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga hamda qisqa va uzoq muddatli istiqbolda davlatning o'ziga ham har xil ta'sir ko'rsatadi. Bunday siyosatning ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi milliy kompaniyalarga ta'sirini ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

15.1-rasm. Import bojining milliy iqtisodiyotga ta'siri.



15.1-rasm yordamida import bojining milliy iqtisodiyotga ta'sirini baholashimiz mumkin. Savdo boshlanmasdan oldin, mamlakatda 100 ta tovar ishlab chiqarilaypti va iste'mol qilinyapti, muvozanat narxi 8 dollarga teng (talab va taklif chiziq-lari E nuqtada keshishgan). Agar tovarning jahon narxi ichki narxdan past bo'lsa, mamlakatga jahon narxida (5 dollar) 120 ta tovar kirib keladi, ichki nax jahon narxi darajasigacha tushib ketadi. Buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar faqatgina 40 ta tovar taklif qiladi, iste'mol esa 160 taga yetadi. Milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida hukumat 2 dollar miqdorida bojxona boji joriy qilsa, eksportyorlar o'z tovarini 7 dollardan sotishga majbur bo'ladi va ichki bozordagi narx ko'tariladi. Buning

natijasida ichki ishlab chiqarish 80 ta tovarni tashkil qiladi, import esa 40 tagacha qisqaradi. Iste'molchlar jami 120 ta tovar sotib oladi. Bojxona boji o'rnatilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar a trapetsiyaning yuziga teng bo'lgan qo'shimcha foyda ko'radi. C to'g'ri to'rtburchakning yuziga teng bo'lgan summa bojxona boji sifatida davlat byudjetiga tushadi. Boshqacha qilib aytganda, milliy kompaniyalarning ichki bozor uchun ishlab chiqargan mahsulotlari bojxona solig'idan ozod bo'lganligi sababli uning narxi import qilinayotgan ana shunday tovardan sezilarli darajada past bo'lishi mumkin, bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yangi texnologiyalar, xom ashyo va materiallarni tejash hisobiga xarajatlarini kamaytirish zaruriyatiga ehtiyoj

sezishmaydi. Amalda import o'rnini qoplashga yo'naltirilgan sohalardagi milliy firmalar o'z tovarlarini import tarifiga yaqin narxlarda sotadi, natijada qo'shimcha foyda ko'radi. Milliy kompaniyalarning daromadlarini o'sishi va milliy ishlab yaiqarishning kengayishini sabablaridan biri ana shunda.

Tavsiflangan holatga iqtisodiyotdagi ushbu vaziyat, ya'ni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullari - eksport va importni kvotalash qo'llaniladigan vaziyat o'xshab ketadi. Hukumatning tabiiy monopoliyalarni quvvatlashga intilishi ichki raqobat muhitining bir butunligini buzadi, korruptsiyani yuzaga kelishiga, yirik miqdordagi o'g'irliklarni bo'lishiga, iqtisodiyotga kriminal unsurni kirib kelishiga ko'mak beradi.

Ikkinchi tomondan esa jahon amaliyotidan ma'lumki, proteksionizm siyosati o'rta va kichik tadbirkorlikni rivojlanishi uchun, demak oxir-oqibat mo'tadil bozor makonini taraqqiy ettirish uchun qulay shart-sharoitlar yarata olmaydi. Davlatning yirik korxonalariga - maxsus eksportyorlarga asosiy e'tiborni qaratishi, g'ayri-tabiiy ko'rinishiga qaramasdan, soliq bazasini torayishiga, byudjet tushumlarini kamayishiga va bandlikni qisqarishiga olib keladi.

Davlat uchun proteksionizmning yaqin va uzoq istiqboldagi oqibatlari

TIF sohasidan cheklashlar siyosatini keng ko'lamda va faol amalga oshirish davlatga qisqa muddatda muvaffaqiyat olib kelishi mumkin. Bu yutuqlarni quyidagi jihatlar bilan bog'lash mumkin: milliy korxonalarda ishlab chiqarish hajmining ortishi, boj, soliq, yig'implar hisobiga byudjet daromadining ko'payishi,

iqtisodiy xavfsizlik va mudofaa qobiliyatining ta'minlanishi.

Biroq haqiqatda esa, bu taktik ustunliklar strategik, uzoq muddatli istiqboldan kelib chiqsak, qarama-qarshi tomonga o'zgaradi. Davlatning tarif miqdoriga ko'paytirilgan import miqdoriga teng iqtisodiy yutug'i (15.1 rasmdagi c yuza) iste'molchilar tomonidan davlat foydasiga transfert to'lov hisoblanadi. Albatta, mablag'larning bir qismi ijtimoiy ehtiyojlar (oyliklarni oshirish, nafaqalar to'lash)ga sarflanishi mumkin, biroq ularning katta qismi byurokratik o'zboshimchalik va mablag'larni davlat tashkilotlari orqali o'tishi bilan bog'liq xarajatlar tufayli qaytarib berilmaydi.

Bundan tashqari, boshqa mamlakatlarning proteksionistik javob tadbirlarini ham unutmash lozim. Bu tadbirlar tufayli tovar aylanmasi kamayib ketadi, ish joylari qisqaradi, oxir-oqibat bir qator kompaniyalarning mahsulotlari milliy bozordan arzonroq va sifatsizroq tovar ishlab chiqaruvchi boshqa foydasiga surib chiqariladi.

Proteksionizm sharoitida iste'molchilar turmush farovonligini pasayishi

Iste'molchilar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, ularning asosiy qismi «belbog'larini mahkam boylab olishlari» kerak bo'ladi, chunki oddiy odamlarning daromadlari ishlab chiqaruvchilar foydasiga qayta taqsimlanadi, zero bojxona tarifi joriy etilishidan oldingi va keyingi ichki narxlardagi farq mehnatkashlar (iste'molchilar) yelkasiga tushadi (15.1 rasmdagi a, b, c va d yuzalarning yig'indisi). Faqatgina importni o'rnini qoplash sohasidagi

kompaniyalarning aksiyalariga ega bo'lgan uncha katta bo'lmagan ayrim guruhlariga kiruvchi iste'molilar olib kirish bojlaridan daromad ko'rishi mumkin. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida proteksionistik siyosatni amalga oshirish narx yuqiriligi sababli ichki iste'molni kamayishiga, soliq bazasini qisqarishiga va jamiyat uchun umuman olganda sof yo'qotishlarga olib keladi.

Bosqichma-bosqich proteksionistik siyosat totalitar rejimlar tomonidan ma'muriy-buyruq-

bozlik tizimida cheklangan makon va zamonda olib borilgan.

Hozirgi kunda kuzatilayotgan davlatlararo miqyosda kelishilgan bojxona ittifoqlari ko'rinishidagi proteksionizmning «tanlangan» restavratsiyasi xalqaro tashkilotlari tomonidan kelajakdagi global erkin savdo tizimini yaratish yo'lida faollik bilan ishlab chiqilayotgan qonun-qoidalar bilan uyg'unlashib bormoqda.

XVI bob. Xalqaro savdoni tartibga solish

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning mohiyati va shakllari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishgina emas, balki keyingi o'n yilliklarda bu sohada turli tuman davlatlararo o'zaro aloqa ko'rinishlarini vujudga kelishi bilan birgalikda kuzatilmoqda. Bu tamoyil bir necha sabablarga asoslangan:

- *Xo'jalik hayotining baynalmilallashuvining chuqurlashuvi;*
- *Tovarlarni, xizmatlarni va ishlab chiqarish omillari jahon bozorining kengayishi;*
- *Transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi;*
- *Ko'plab xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi.*

Buning natijasida bir mamlakatning tartibga solish tadbirlari boshqa davlatlarning iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ular ham o'zlarining iste'molchilari va ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish maqsadida javob tadbirlarini ko'radi, bu holat tartibga solish jarayonini davlatlararo miqyosda moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Moslashtirish jarayoni: A) ikki tomonlama shartnomalar; B) hududiy xarakterdagi ko'p tomonlama bitimlar; C) global xarakterdagi ko'ptomonlama konvensiyalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solish tashkilotlariga a'zo mamlakatlarning maqsadlariga bog'liq ravishda TIFni tartibga solish usullarini muvofiqlashtirishni ikki ko'rinishga

ajratish mumkin. Ularning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- *Tovarlarni va ishlab chiqarish omillari yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish;*
- *Millatlararo institutlar bilan yaxlit iqtisodiy tizimni shakllanishi yo'nalishida harakat.*

Ommabop adabiyotda TIFni muvofiqlashtirishning ko'rsatib o'tilgan har ikki ko'rinishini ko'pincha iqtisodiy integratsiya tushunchasi bilan birlashtirilsa-da, iqtisodiy integratsiya tom ma'noda faqat davlatlarning xo'jalik siyosatini moslashtirishning ikkinchi variantiga mos keladi.

Keyingi paragrafda tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning birinchi ko'rinishini bojxona ittifoqlarining shakllanishi misolida ko'rib chiqamiz. hozirgi paytda dunyoda ularning soni yigirmadan ortiq.

KOKOM faoliyati

Bizni qiziqtirayotgan sohani davlatlararo tartibga solishga boshqa bir misol sifatida G'arb mamlakatlari va sotsialistik lager o'rtasida tovar oqimlarini cheklash uchun, albatta siyosiy omillarni hisobga olgan holda AQSh tashabbusi bilan 1949 yilda tashkil qilingan Eksport nazorati bo'yicha muvofiqlashtiruvchi komitet (KOKOM)ning faoliyatini keltirish mumkin. Komitet faoliyatini asosi sifatida G'arb davlatlariga dushman sanalgan mamlakatlarga eksport qilish ta'qiqlangan strategik jihatdan muhim hisoblangan tovarlarning muvofiqlashtirilgan ro'yxatidan

foydalaniladi. KOKOMning qarorlari rasman tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, AQSh va uning ittifoqdoshlari odatda uning samarali bajarilishiga milliy qonunlar qabul qilish orqali erishishgan.

Sotsialistik legerda yuz bergan demokratik o'zgarishlar KOKOMni o'z faoliyatining asosiy yo'nalishini o'zgartirishga majbur etdi va KOKOM safiga bir qator sobiq sotsialistik davlatlar qo'shib olindi. Masalan, Rossiya KOKOMning jahonning «qaynoq nuqtalariga» yoki tajavvuzkorligi kutilayotgan mamlakatlarga mahsulot eksportini cheklash va litsenziyalash qoidasiga rozi bo'ldi.

1993 yilning oxiriga kelib, KOKOM yangi siyosiy va iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib qaytadan tashkil etilishini e'lon qildi. 1994 yil 31 martda KOKOM o'z faoliyatini to'xtatdi, uning o'rniga 1996 yida Vassenaar kelishuvi tuzildi.

GATTning imzolanishi sabablari

Ikkinchi jahon urushi arafasida, ayniqsa, urush yillarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish amaliyotini tarqalishi jahon savdosida bojxona to'siqlari va boshqa turli cheklashlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu nomenklaturani kengayishi va o'zaro tovar yetkazib berish hajmini sezilarli darajada to'xtatib qo'ydi, buning natijasida yuzaga kelgan muammoni faqatgina ikki tomonlama bitimlar bilan hal etishni iloji bo'lmay qoldi. Xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama shartnomalarga o'tishni amalga oshirish zaruriyatli tug'ildi. Bunday tashkilotlar yaratish g'oyasini Dj.M.Keyns kabi 30-yillarning mashhur iqtisodchilari ilgari surishdi.

Shuning uchun urushdan keyin tez orada Gavanada bo'lib o'tgan davlatlararo savdoni tartibga solishga bag'ishlangan anjumaning chaqirilishini XIMning rivojlanishida tabiiy hodisa deb hisoblash mumkin. Biroq forumning yevropalik ishtirokchilari protsedura masalalari bo'yicha AQSh qat'iy talablariga duch kelishdi, bu talablarning biri loyihalashtirilayotgan tashkilotning a'zolariga beriladigan ovozlar kvotasini belgilash bo'yicha edi. Gap shundaki, amerikaliklar delegatsiyasi yevropaliklarning «bir mamlakat - bir ovoz» printsipli bo'yicha ovoz berish to'g'risidagi taklifidan farqli o'laroq, ovozlar soni mamlakatning jahon savdosidagi ulushiga mutanosib bo'lishini yoqlab chiqishdi.

Ammo Gavana Anjumanining amaldag barbod bo'lishi parallel ravishda Jeneva shahrida muzokaralar olib borishga halaqit bermadi. Bu muzokaralarning natijasi 1947 yil 30 oktyabrda savdo va tariflar bo'yicha vaqtinchalik xalqaro akti qabul qilinishi bo'ldi. Uning dastlabki matni - GATT (General Agreement on Trade and Tariffs - GATT).

1948 yil 1 sentyabrda 23 davlat tomonidan GATT imzolanganidan keyin bitim kuchga kirdi. Hozirgi paytda unga xalqaro huquq sub'ektlari bo'lgan 128 mamlakat qo'shilishgan.

GATTning tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi

Dastlab Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv uch qismdan iborat edi. Birinchi qism o'zaro eng qulay rejim va bojxona preferentsiyalari ro'yxati haqida ikkita moddani o'z ichiga olgan edi.

Ikkinchisi 21 moddadan iborat bo'lib savdo siyosatining asosiy tamoyillaridan tashkil topgan edi. 13 moddadan iborat bo'lgan uchinchi qism protsedura masalalariga bag'ishlangan edi.

1964—1968 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar tazyiqi ostida GATTning to'rtinchi, yakunlovchi qismi ishlab chiqildi. U yosh, ya'ni kolonial mutelikdan ozod bo'lgan mamlakatlarning tezkor ravishda iqtisodiy rivojlanishiga ko'mak berish muammosini ochib berardi.

GATT moddalari murakkabligi va ziddiyatligi bilan ajralib tursa-da, bir qator mustahkam postulatlar (isbatsiz qabul qilinaveradigan qoidalar) ular uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular quyidagilar:

- *O'zida eng qulay sharoit yaratib berish rejimini aks ettiruvchi savdoda o'zaro yon berish tamoyili;*
- *Barcha ishtirokchi-davlatlar bilan bir xil munosabatda bo'lish tamoyili, bu kambag'al, iqtisodiy kuchsiz yoki hududi va aholisi jihatidan kichik mamlakatlarni kamsitmaslikni nazarda tutadi;*
- *Savdoda bojxona tariflari va notarif cheklash usullarini asta-sekin kamaytirib borish tamoyili, bu tashqi savdoni erkinlashtirishni nazarda tutadi;*
- *Bir tomonlama harakatlar olib borishning nomaqbulligi tamoyili, bu TIF sohasida qarorlar qabul qilishdan oldin ko'p tomonlama maslahatlar o'tkazishni talab qiladi;*
- *Xususiy-huquqiy asosda savdo munosabatlari olib borish tamoyili, bu tamoyil tufayli davlat monopoliyasi*

siyosatini amalga oshirishga va GATT tarkibiga SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlarning kirishiga yo'l qo'yilmagan.

Ko'p tomonlama kelishuv vazifalari haqida gapirganda, quyidagilarni o'tish mumkin:

- *jahon savdosi monitoringi;*
- *savdo sohasidagi konkret kelishmovchiliklar bo'yicha xalqaro arbitraj;*
- *savdo masalalari bo'yicha hujjatlar tayyorlashda BMTga yordam berish;*
- *bojxona to'siqlari va notarif cheklashlarni asta-sekin bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish.*

GATTning pirovard maqsadi - xalqaro erkin savdo.

GATTning vazifalari kelishuv ishtirokchi-davlatlari amaliy faoliyati tuzilmasi va ko'rinishlari aniqlab berdi. Kelishuv imzolangan paytdan boshlab barcha joriy ishlarni bajarish sekretariatga yuklandi. Sekretariat Jenevada joylashgan bo'lib yilda bir marta anjumanlar - sessiyalar o'tkazar edi. Bulardan tashqari GATT tarixida «raund»lar nomini olgan ko'p tomonlama maslahatlar o'tkazildi. Bu raundlarni o'tkazish yillari: 1947, 1949, 1951, 1956, 1960—1961, 1964—1967, 1973—1979, 1986—1993).

Oxirgi raund, ya'ni Urugvay raundi nomi bilan tarixga kirgan raundda 125 mamlakat qatnashdi va o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etdi. Unda eng ko'p vakillar ishtirok etdi, muzokaralar vaqti eng uzoq davom etdi (97 oy). Raundning konkret natijalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- *Umumjahon savdo tashkilotini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi;*

- GATTni Savdo va xizmatlar bo'yicha Bosh kelishuv bilan to'ldirish (GATS);
- UST uchun juda muhim bo'lgan uchinchi hujjat - intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha Bosh kelishuv (TRIPS)ni ishlab chiqish bo'yicha konsensusga erishish;
- Rivojlangan mamlakatlar tomonidan ko'pchilik raqobatbardosh tovarlarga bojxona bojlarini to'liq bartaraf etish yoki radikal qisqartirish (5 foizgacha);
- Ko'pchilik bojxona bojlarini soddalashtirish (masalan, bojxona bojini hisoblash uchun asos sifatida tovar fakturasida qayd etilgan narxdan foydalanishga qaror qilindi);
- Eksportga subsidiyalar berishni ta'qiqlash (qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga to'lovlardan tashqari).

Barcha bu masalalar Urugvay raundining - Montevideo Anjumanining yakuniy hujjatida o'z aksini topdi. Bu Anjuman yangi asr bo'sag'asida jahon savdosini isloh qilish yo'llarini belgilab berdi.

1995 yilda o'z o'rnini USTga bo'shatib bergan GATT faoliyatiga yakun yasar ekanmiz, u TIFni erkinlashtirish jarayonida, tovar oqimlari nomenklaturasini kengayishi va hajmining oshishida muhim ahamiyat kasb etdi hamda tashqi savdo sohasidagi eng obro'li tashkilotga aylandi.

Umumjahon savdo tashkiloti (UST)ning tashkil etilishi va uning GATTdan farqi

Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning «merosxo'ri va davomchisi bo'lgan» Umumjahon savdo tashkiloti (World Trade Organization)ni tashkil etish haqida

kelishuv 1994 yilda Urugvay raundi yakunlangandan so'ng Marrakeshda (Marokko) imzolandi. GATT tarixidagi ko'p tomonlama maslahatlar oxirgi raundining barcha ishtirokchilarini qaroriga ko'ra UST umumjahon savdosining yagona huquqiy va institutsional asosi deb tan olinadi.

Bu ikki tashkilotning merosiyliigi va bir-biriga o'xshashligiga qaramasdan ular orasida sezilarli farqlar ham mavjud:

1. GATT BMTning «maxsuslashtirilgan tashkilot» maxsus statusiga ega emas edi, UST bu statusni oldi.

2. GATT vaqtinchalik qoidalar majmuasi ko'rinishidagi davlatlararo kelishuvni aks ettirar edi, UST esa to'laqonli va doimiy majburiyatlarga ega hamisha harakatda bo'lgan tashkilot hisoblanadi.

3. GATT qoidalari faqat tovarlar savdosiga taalluqli edi, UST esa xizmatlar, intellektual mulk, sifat va ekologiya standartlari hamda tashkilot a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar bilan ham shug'ullanadi.

Bularning barchasi yangi tuzilma faoliyatining sifat jihatdan yanada yuqoriroq darajasidan dalolat beradi. USTni tashkil qilish A.Smitdan tortib Dj.M.Keynsgacha bo'lgan o'tmishning buyuk iqtisodchilari g'oyalari hayotga tadbiiq etilishini aks ettirar edi.

Umumjahon savdo tashkilotining tamoyillari, maqsad va vazifalari

USTning asosiy tamoyillari quyidagilar sanaladi:

- Diskriminatsiyalarsiz savdo (kelishishgan tomonlar bojxona bojleri va yig'limlaridan

- foydalanishda boshqa har qanday mamlakatga qanday qulay shart-sharoitlar yaratib bersa, bir-biriga ham xuddi qulayliklar yaratish majburiyatini oladi);
- Savdoda notarif cheklashlarni asta-sekin bartaraf etib borish;
 - Bozorga kirish yo'llarini uzluksiz kengaytirib borish;
 - Adolati, sof raqobatga ko'maklashish;
 - Rivojlanish va iqtisodiy islohatlarni rag'batlantirish.

USTning eng muhim maqsadlari sifatida jahon iqtisodiyotini mustahkamlash, xalqaro savdoni kengaytirish, investitsiyalarni rag'batlantirish, bandlik darajasini oshirish, sayyoramizda barcha mamlakatlar aholisi turmush farovonligini kuchaytirish kabilarni aytish mumkin.

Bu tashkilotning vazifalari haqida gapirganda, ularning GATT vazifalariga nisbatan sezilarli darajada murakkablashganini ta'kidlab o'tish kerak. Xususan, UST quyidagilarni amalga oshiradi:

- Tovar va xizmatlar global va hududiy bozorlari monitoringi;
- Tashqi savdo sohasida masalalar bo'yicha huquqiy shaxslar tomonidan maslahatlar berish;
- Strategik va joriy muammolar hamda savdo yuz beradigan bahslar yuzasidan ko'p tomonlama uchrashuvlar va muzokaralar o'tkazish;
- O'z vakolati doirasida boshqa xalqaro tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk masalalari bo'yicha huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- Ekologik va boshqa standartlar global tizimini tayyorlash.

Umumjahon savdo tashkiloti tuzilmasi va faoliyati

Hozirgi paytda Umumjahon savdo tashkiloti barcha qit'alardan 165 davlatni birlashtirib turibdi. Bundan tashqari beshta mamlakat USTning barcha shartlarini bajargan, biroq hali u bilan bitim imzolagani yo'q, boshqa 26 davlat esa, O'zbekiston va MDHning boshqa a'zolarini ham qo'shganda, bu tashkilot bilan o'z munosabatlarining turli bosqichlarida turishibdi.

GATTdan meros qilib olingan USTning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan. USTning oliy organi a'zo mamlakatlar vakillaridan tashkil topgan Vazirlar Anjumani hisoblanadi. U ikki yilda kamida bir marta chaqiriladi. Birinchi va hozircha oxirgi shunday uchrashuv 1996 yil dekabrda Singapurda bo'lib o'tgan. Anjumanning barcha qarorlari konsensus bilan, iloji bo'lmagan taqdirda bir mamlakat - bir ovoz prinsipi bo'yicha qabul qilinadi.

Bahslarni hal etish bo'yicha komissiya va Savdo siyosatini nazorat qilish bo'yicha komissiyalarni o'z takibiga oluvchi Umumiy Kengash USTning joriy ishlarining bajarilishiga mas'uldir. Kengash ishida USTga a'zo-mamlakatlarning elchilari ishtirok etadi.

Umumiy kengash o'zining vazifalarini uchta asosiy yordamchi organlarga yuklaydi. Bu organlarga, ya'ni Tovar savdosi bo'yicha kengash, Xizmatlar savdosi bo'yicha kengash va Intellektual mulk huquqi aspektlari bo'yicha

savdo kengashiga bir necha maxsus komitetlar bo'ysunadi.

UST tuzilmasining oxirgi unsuri — *Sekretariat* — *Bosh direktor* (hozirgi paytda bu mansabni italiyalik R. Rudjero egallab turibdi) va uning to'rtta o'rinbosari tomonidan boshqariladi. Ular tashkilot a'zolari o'rtasida va USTga a'zo bo'lmagan mamlakatlar bilan muzokaralarni tayyorlash va maslahatlarni amalga oshirishga javob beradi.

Umumjahon savdo tashkilotining amaliy faoliyati uning a'zolarini takliflari, ishbilarmon doiralar va jamoatchi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar) fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda tashkillashtiriladi. UST rivojlana-yotgan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsa-tadi, ushbu guruhga kiruvchi davlatlar, shuningdek, sobiq sotsialistik lager vakillari uchun kadrlar tayyorlaydi. Tashkilot uch tilda

"WTO Focus" byulletenini yiliga o'nta son davriylik bilan nashrdan chiqaradi.

1968 yildan beri GATT, keyinchalik USTning «birgalikdagi farzandi» bo'lgan Xalqaro savdo markazi - Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD) faoliyat olib bormoqda.

UST faoliyatini moliyalashtirish manbalari qantashchilarning jahon savdosidagi ulushidan kelib chiqqan holda belgilangan badallari hisoblanadi.

Umumjahon savdo tashkiloti faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari sifatida axborot texnologiyalari bozorini erkinlashtirish, xalqaro mehnat standartlarini ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha konventsiyani tayyorlash, atrof-muhitni himoyalash bo'yicha qoidalar majmuini qabul qilish kabilarni ko'rsatish mumkin.

16.1-jadval. USTga a'zo mamlakatlar. (As of 1 August 2017)

Afghanistan — 29 July 2016	Albania — 8 September 2000
Angola — 23 November 1996	Antigua and Barbuda — 1 January 1995
Argentina — 1 January 1995	Armenia — 5 February 2003
Australia — 1 January 1995	Austria — 1 January 1995
Bahrain, Kingdom of — 1 January 1995	Bangladesh — 1 January 1995
Barbados — 1 January 1995	Belgium — 1 January 1995
Belize — 1 January 1995	Benin — 22 February 1996
Bolivia, Plurinational State of — 12 September 1995	Botswana — 31 May 1995

Jaqinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

Brazil — 1 January 1995	Brunei Darussalam — 1 January 1995
Bulgaria — 1 December 1995	Burkina Faso — 3 June 1995
Burundi — 23 July 1995	Cabo Verde — 23 July 2008
Cambodia — 13 October 2004	Cameroon — 13 December 1995
Canada — 1 January 1995	Central African Republic — 31 May 1995
Chad — 19 October 1995	Chile — 1 January 1995
China — 11 December 2001	Colombia — 30 April 1995
Congo — 27 March 1997	Costa Rica — 1 January 1995
Côte d'Ivoire — 1 January 1995	Croatia — 30 November 2000
Cuba — 20 April 1995	Cyprus — 30 July 1995
Czech Republic — 1 January 1995	Democratic Republic of the Congo — 1 January 1997
Denmark — 1 January 1995	Djibouti — 31 May 1995
Dominica — 1 January 1995	Dominican Republic — 9 March 1995
Ecuador — 21 January 1995	Egypt — 30 June 1995
El Salvador — 7 May 1995	Estonia — 13 November 1999
European Union (formerly EC) — 1 January 1995	Fiji — 14 January 1995
Finland — 1 January 1995	France — 1 January 1995
Gabon — 1 January 1995	Gambia — 23 October 1995
Georgia — 14 June 2000	Germany — 1 January 1995
Ghana — 1 January 1995	Greece — 1 January 1995
Grenada — 22 February 1995	Guatemala — 21 July 1995

Guinea — 25 October 1995	Guinea-Bissau — 31 May 1995
Guyana — 1 January 1995	Haiti — 30 January 1996
Honduras — 1 January 1995	Hong Kong, China — 1 January 1995
Hungary — 1 January 1995	Iceland — 1 January 1995
India — 1 January 1995	Indonesia — 1 January 1995
Ireland — 1 January 1995	Israel — 21 April 1995
Italy — 1 January 1995	Jamaica — 9 March 1995
Japan — 1 January 1995	Jordan — 11 April 2000
Kazakhstan — 30 November 2015	Kenya — 1 January 1995
Korea, Republic of — 1 January 1995	Kuwait, the State of — 1 January 1995
Kyrgyz Republic — 20 December 1998	Lao People's Democratic Republic — 2 February 2013
Latvia — 10 February 1999	Lesotho — 31 May 1995
Liberia — 14 July 2016	Liechtenstein — 1 September 1995
Lithuania — 31 May 2001	Luxembourg — 1 January 1995
Macao, China — 1 January 1995	Madagascar — 17 November 1995
Malawi — 31 May 1995	Malaysia — 1 January 1995
Maldives — 31 May 1995	Mali — 31 May 1995
Malta — 1 January 1995	Mauritania — 31 May 1995
Mauritius — 1 January 1995	Mexico — 1 January 1995
Moldova, Republic of — 26 July 2001	Mongolia — 29 January 1997
Montenegro — 29 April 2012	Morocco — 1 January 1995

Jaqinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

Mozambique — 26 August 1995	Myanmar — 1 January 1995
Namibia — 1 January 1995	Nepal — 23 April 2004
Netherlands — 1 January 1995	New Zealand — 1 January 1995
Nicaragua — 3 September 1995	Niger — 13 December 1996
Nigeria — 1 January 1995	Norway — 1 January 1995
Oman — 9 November 2000	Pakistan — 1 January 1995
Panama — 5 September 1997	Papua New Guinea — 9 June 1996
Paraguay — 1 January 1995	Peru — 1 January 1995
Philippines — 1 January 1995	Poland — 1 July 1995
Portugal — 1 January 1995	Qatar — 13 January 1996
Romania — 1 January 1995	Russian Federation — 22 August 2012
Rwanda — 22 May 1996	Saint Kitts and Nevis — 21 February 1996
Saint Lucia — 1 January 1995	Saint Vincent and the Grenadines — 1 January 1995
Samoa — 10 May 2012	Saudi Arabia, Kingdom of — 11 December 2005
Senegal — 1 January 1995	Seychelles — 26 April 2015
Sierra Leone — 23 July 1996	Singapore — 1 January 1995
Slovak Republic — 1 January 1995	Slovenia — 30 July 1995
Solomon Islands — 26 July 1996	South Africa — 1 January 1995
Spain — 1 January 1995	Sri Lanka — 1 January 1995
Suriname — 1 January 1995	Swaziland — 1 January 1995
Sweden — 1 January 1995	Switzerland — 1 July 1995
Chinese Taipei — 1 January 2002	Tajikistan — 2 March 2013

Tanzania — 1 January 1995	Thailand — 1 January 1995
The former Yugoslav Republic of Macedonia — 4 April 2003	Togo — 31 May 1995
Tonga — 27 July 2007	Trinidad and Tobago — 1 March 1995
Tunisia — 29 March 1995	Turkey — 26 March 1995
Uganda — 1 January 1995	Ukraine — 16 May 2008
United Arab Emirates — 10 April 1996	United Kingdom — 1 January 1995
United States — 1 January 1995	Uruguay — 1 January 1995
Vanuatu — 24 August 2012	Venezuela, Bolivarian Republic of — 1 January 1995
Viet Nam — 11 January 2007	Yemen — 26 June 2014
Zambia — 1 January 1995	Zimbabwe — 5 March 1995

- www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/ora6_e.htm

16.2-jadval. USTga a'zo bo'lishga harakat qilayotgan mamlakatlar.

Algeria	Andorra
Azerbaijan	Bahamas
Belarus	Bhutan
Bosnia and Herzegovina	Comoros
Equatorial Guinea	Ethiopia
Holy See	Iran
Iraq	Lebanese Republic
Libya	Sao Tomé and Príncipe

J&Jincii qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

Serbia	Somalia
Sudan	Syrian Arab Republic
Timor-Leste	Uzbekistan

www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm

XVII bob. Xalqaro tovarlar nomenklaturasi va xalqaro savdodagi o'zgarishlar

Xalqaro tovarlar nomenklaturasining xususiyatlari

Xalqaro savdo, vujudga kelishi vaqti nuqtai nazaridan, XIMning dastlabki sohasidir. Arxeologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, uzoq o'tmishdanoq sayyoramizning O'rta yer dengizidan to Tinch okeanigacha bo'lgan subtropik mintaqasida paydo bo'lgan ilk davlatlar ham bir-birlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishgan va olib borishgan.

Savdo aloqalari dastlab tartibsiz, ahyon-ahyonda bo'ladigan xarakterga ega bo'lgan. Keyinchalik aloqa yo'llarining rivojlanishi bilan savdo bitimlari ma'lum bir doimiylikni kasb etgan, biroq uning asosida uzoq vaqt davomida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini hunarmandchilik buyumlariga hamda ba'zi bir boshqa resurslarga (mineral, biologik va boshqalarga) natural ayirboshlash yotgan.

Jahon bozorining vujudga kelishi sivilizatsiyaning industrial ko'rinishiga xos zamona-viy tovar nomenklaturasining shakllanishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilligida mamlakatlar, hududlar va integratsion guruhlar o'rtasidagi tovarlar, xizmatlar, axborot va texnologiyalar ayirboshlashda global o'zgarishlar yuz berdi.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning tashqi savdo aylanmasi ma'lum bir klassifikatsion belgilar, ya'ni eksport va import moddalari bo'yicha tovar guruhlarining mezonlari bilan

tavsiflanadi. Ular ichida hozirgi paytda eng keng tarqalganlari quyidagi tovar guruhlaridir:

- *ishlab chiqarish sohalari bo'yicha;*
- *mahsulotlarni qayta ishlash darajasi bo'yicha;*
- *vazifasi bo'yicha;*
- *tayyorlangan materiali bo'yicha.*

O'z-o'zidan ma'lumki, qaysi belgining tanlanishi klassifikatsiya sxemasiga ta'sir etadi, barcha tovarlar ma'lum shifrga ega bo'lgan bo'limlar, guruhlar va kichik guruhlariga bo'linadi. Shunday qilib, tovar nomlarining mos klassifikatsion tizimdagi ro'yxati *tovarlar nomenklaturasi* deb ataladi.

Xalqaro tovarlar nomenklaturasining ahamiyati shundaki, u tashqi savdo aloqalari, axborotlarni samarali saqlash usullari haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish va bizni qiziq-tirgan tovar vaziyatini qidirish jarayonini tezlashtirish imkoniyatini beradi.

Mamlakatlar o'rtasida tovar oqimlarining universal klassifikatorini yaratish muammosi birinchi marta Bryusselda o'tgan *statistika kongressida* (1853 yil) o'rtaga tashlangan. O'tgan o'n yil davomida xalqaro tovar nomenklaturasining eng qulay variantini qidirish jarayoni to'xtamadi.

Zamonaviy tovar nomenklaturasining asosi BMT ekspertlari tomonidan 1948 yilda ishlab chiqilgan *ijtimoiy faoliyatning barcha turlarining xalqaro tarmoqlararo standart klassifikatsiyasi* (ISIC) sanaladi. Hozirgi paytda uning 1989 yilda o'zgartirishlar kiritilgan uchinchi tahriri amalda qo'llanilmoqda.

Jaqinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

1950 yil 12 iyulda Statistika komissiya-sining beshinchi sessiyasi taklifiga binoan *BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi* (EKOSOS) Xalqaro standart savdo klassifikatsiyasi (XSSK—SITC)ni tasdiqladi. O'sha paytdan beri XSSKga 1975 va 1985 yillarda ikki marta o'zgartirishlar kiritildi. Bu klassifikatsiya asosida tovarlarni qayta ishlash darajasi yotadi.

XSSK 10 ta bo'lim, 67 ta guruh, 26:1 ta kichik guruh, 1033 ta asosiy tovar pozitsiyasi va 3118 ta subpozitsiyadan iborat. Subpozitsiyalar milliy nomenklaturada yana qismlarga ajratilishi mumkin. Mos shifrlar

shunday tuzilganki, birinchi belgi – bo'limni, ikkinchisi – guruhni, uchinchi – kichik guruhni, to'rtinchi – pozitsiyani, beshinchi – subpozitsiyani aniqlaydi, oltinchi va boshqa shifrlarni tovar tabiatiga qarab aniqlashtiriladi.

XSSK negizida *Keng ko'lamdagi Iqtisodiy kategoriyalar bo'yicha tovarlar klassifikatsiyasi* tayyorlangan. Undan BMTning Jahon savdosi bo'yicha umumlashtiruvchi statistik yilnomalarni tuzishda foydalaniladi. Bu klassifikatsiyada tovarlar vazifasiga qarab yetti guruhga, guruhlar o'z ichida qayta ishlash darajasiga qarab yana guruhlanadi.

17.1-jadval. Xalqaro standart savdo klassifikatsiyasi

Kodlar	Bo'lim va guruhlar nomi	Miqdori		
		36	132	344
0	Oziq-ovqatlar, tirik hayvonlar	36	132	344
00	Tirik hayvonlar (03 guruhdagidan tashqari)	1	6	11
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	4	17	38
02	Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	4	12	22
03	Baliqlar, dengiz hayvonlari, qisqichbaqasimonlar, molluskalar va suvda yashovchi umurtqasiz hayvonlar	4	14	47
04	Don va dondan qayta ishlangan mahsulotlar	8	21	34
05	Sabzavotlar va mevalar	5	27	96
06	Shakar, shakar mahsulotlari va asal	2	7	17
07	Kofe, choy, kakao, dorivorlar va dorivor mahsulotlar	5	16	35
08	Hayvonlar uchun ozuqa (dondan tashqari)	1	6	26
09	Turli oziq-ovqat mahsulotlari	2	6	18
1	Ichimliklar va tamaki	4	11	22
11	Ichimliklar	2	5	14
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	2	6	8
2	Noozliq-ovqat mahsulotlari (yonliq'ldan tashqari)	36	123	167
21	Teri va mo'yna xom ashyo mahsulotlari	2	9	18
22	Zaytun urug'i va mevasi	2	13	15
23	Xom kauchuk, sintetik va qayta ishlangani (regeneratsiya qilingani) bilan birgalikda	2	5	16
24	Yog'och po'etlog'i va o'rmon mahsulotlari	5	12	18
25	Tolali yarim fabrikatlar va makulatura	1	7	14
26	To'qimachilik tolalari va chiqindilari	8	26	57

O'n yettinchi bob. Xalqaro tovarlar nomenklaturasi va xalqaro savdodagi o'zgarishlar

27	O'g'it ishlab chiqarish uchun xom ashyo va ruda bo'lmagan qazilmalar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	5	18	48
28	Metall rudalari va temir-tersaklar	9	24	44
29	Boshqa joyda qayd etilmagan hayvon va o'simlikdan olingan xom ashyolar	2	9	37
3	Mineral yonilg'i; yog'lovchi va shunga o'xshash materiallar	11	25	37
32	Toshko'mir, koks va briketlar	3	6	7
33	Neft, neft mahsulotlari va qo'shimcha mahsulotlar	3	10	21
34	Tabiiy va sanoat gazi	4	8	8
35	Elektroenergiya	1	1	1
4	Hayvonlar va o'simlikdan olingan moy, saryog' va mumlar	4	21	44
41	Hayvonlar va o'simlikdan olingan moy va saryog'	1	3	10
42	Tozalanmagan, tozalangan yoki fraktsiyalangan o'simlik yog'lari	2	14	27
43	Hayvon va o'simlikdan olinadigan moy va yog'lar, qayta ishlangan hayvon va o'simlik mumi; ulardan olingan texnik aralashmalar	1	4	7
5	Kimyo mahsulotlari	33	126	474
51	Organik kimyo mahsulotlari	6	24	125
52	Noorganik kimyo mahsulotlari	4	18	84
53	Bo'yoq moddalar, teri oshlash, lok va bo'yoq mahsulotlari	3	8	33
54	Efir moyi va xushbo'y moddalar; sayqallash va yuvish vositalari	3	10	28
56	O'g'itlar (o'g'it ishlab chiqarishga kerakli xom ashyolardan tashqari)	1	4	21
57	Dastlabki ko'rinishdagi plastmassalar	6	20	54
58	Plastina, list, plyonka kabilar ko'rinishidagi plastmassalar	3	13	23
6	Qayta ishlangan buyumlar (materialiga ko'ra)	52	233	829
61	Teri, teri mahsulotlari, oshlangan mo'yna	3	13	22
62	Boshqa joyda qayd etilmagan kauchuk buyumlari	3	13	31
63	Yog'och po'stlog'i va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3	13	31
64	Qog'oz, karton va tolali yarimfabrikat buyumlari	2	13	72
65	To'qimachilik iplari, matolar, boshqa joyda qayd etilmagan tayyor buyumlar	9	59	222
66	Boshqa joyda qayd etilmagan ruda bo'lmagan qazilmalar	7	29	95
67	Qora metallar	9	36	166
68	Rangli metallar	8	21	71
69	Boshqa joyda qayd etilmagan metalli buyumlar	8	36	119
7	Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari	50	214	653
71	Kuchli energetik asbob-uskunalar	6	22	44
72	Sanoatning ayrim tarmoqlari uchun mashina va asbob-uskunalar	8	32	116
73	Metallni qayta ishlovchi qurilmalar	4	15	70
74	Boshqa joyda qayd etilmagan umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashinalar va uning qismlari	9	56	151

75	Elektron hisoblash mashinalari va orgtexnika	3	12	30
76	Distantsion aloqalar uchun asbob-uskunalar va qurilmalar; tovush apparaturalari	4	12	36
77	Boshqa joyda qayd etilmagan elektrotexnika	4	30	126
78	Yo'l transporti vositalari	6	16	41
79	Boshqa transport vositalari	3	19	39
8	Turli tayyor buyumlar	31	144	442
81	Boshqa joyda qayd etilmagan standart uyilar va bu uyilar uchun qurilmalar	3	7	17
82	Mebel va uning qismlari; turarjoy buyumlari	1	6	23
83	Yo'l buyumlari, sumka va shunga o'xshash buyumlar	1	4	9
84	Kiyimlar	7	37	96
85	Poyabzallar	1	7	19
87	Maxsus, ilmiy va nazorat instrumentlari va apparatlari (boshqa joyda qayd etilmagan)	4	18	66
88	Fotoapparatlar va foto asboblari; boshqa joyda qayd etilmagan optik tovarlar; soatlar	5	19	60
89	Boshqa joyda qayd etilmagan turli tayyor buyumlar	9	45	152
9	Boshqa bo'limlarga kiritilmagan tovarlar va bitimlar	4	4	6
91	Pochta jo'natmalari	1	1	1
93	Tipiga ko'ra klassifikatsiyalanmagan maxsus bitimlar va tovarlar	1	1	1
96	Tangalar (to'lov vositasi bo'lmagan oltindan tashqari)	1	1	1
97	Tanga bo'lmagan oltin (oltin rudalari va konsentratlaridan tashqari)	1	1	3
Jami:		261	1033	3118

Bundan tashqari, 1951 yilda Bojxona hamkorligi bo'yicha Kengash *bojxona tariflari uchun xalqaro nomenklaturani* ishlab chiqdi. Asos sifatida Bryussel bojxona klassifikatsiyasi olindi. Tovarlarni guruhlash tovar tayyoriangan material tabiatiga qarab amalga oshirildi. Keyinchalik bu sxemaga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi hamda *Bojxona hamkorligi bo'yicha Kengash nomenklaturasini* (BHKN) deb nomlandi. BHKN asosida materiallarning qayta ishlanish darajasi va tovarlarning kelib chiqishi yotadi.

Bojxona hamkorligi bo'yicha Kengash nomenklaturasini jahondagi ko'p mamlakatlarning bojxona organlari tomonidan keng foydalaniladi. BHKN 21 bo'lim, 99 guruh, va 1011 kichik tovar guruhlarini o'z ichiga oladi.

Bu nomenklaturaga asosan barcha buyumlar to'rt raqamli belgiga ega, guruhlar va kichik guruhlar esa 01 dan 99 gacha raqamlanadi.

BHKN 1988 yil 1 yanvardan Yevropa ittifoqi a'zolarining statistik amaliyotiga joriy etilgan olti raqamli tovar kodiga ega bo'lgan Kombinatlangan nomenklatura uchun asos bo'ldi.

Xalqaro standart savdo klassifikatsiyasi va Bojxona hamkorligi bo'yicha Kengash nomenklaturasini birlashtirish statistlar va bojxona xodimlarining manfaatlariga javob beruvchi, shuningdek, jahon tovar ishlab chiqarishining kengayishi va murakkablashuvini aks ettiruvchi *Tovarlarni tavsiflash va kodlash tizimiga uya'unleshtirilgan tizimini* (UT) (1998 y.) yaratishga qaratilgan.

O' n yettinchi bob. Xalqaro tovarlar nomenklaturasi va xalqaro savdodagi o'zgarishlar

Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi o'zidan oldingi barcha xalqaro tovar nomenklaturalarining birlashtirilgan ko'rinishi bo'ldi. U 21 ta bo'lim, 99 ta guruhdan iborat. Har bir tovar olti raqamli shifrga ega bo'lishiga qaramasdan, har bir mamlakat milliy ehtiyojlariga mos holda yanada aniq qismlarga ajratish uchun yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi razryadlarni qo'shishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlarning tovar nomenklaturalari, jumladan O'zbekiston Respublikasi tovar nomenklaturasi ham uyg'unlashtirilgan tizimga asoslangan holda qurilmoqda. Shuning uchun bu klassifikatsiyani to'liq keltirish maqsadga muvofiq.

UT haqida konventsiyani imzolagan davlatlar (100 dan ortiq) statistik va bojxona hisobini soddalashtirishga intiladilar.

Tashqi savdoning holati, o'zgarishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari to'g'risida batafsil axborotlarni e'lon qiluvchi Yevropa mamlakatlariga misol sifatida Germaniyani keltirish mumkin. Germaniyada Federal statistik boshqarma «Tashqi savdo» rukni ostida o'n yettita byulleten chiqaradi. Ular kompyuter versiyasiga ham ega. Bizni, eng avvalo 8-son, «BMTning Xalqaro savdo standart klassifikatsiyasiga muvofiq tashqi savdo» qiziqtiradi.

17.2-jadval. Tovarlarini tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi (1998 y.)

Shifr	Bo'lim nomlari	Guruhlar soni va ularning shifrlari
I	Tirik hayvonlar va ulardan olinadigan mahsulotlar	5(1—5)
II	O'simlikdan olinadigan mahsulotlar	9 (6—14)
III	Hayvonlar va o'simliklardan olinadigan moy, yog' va mumlar	1(15)
IV	Oziq-ovqat sanoati mahsulotlari	9 (16—24)
V	Mineral mahsulotlar	3 (25—27)
VI	Kimyo sanoati va uning tarmoqlari bilan bog'liq mahsulotlar	11 (28—38)
VII	Plastmassa va plastmassa mahsulotlari, kauchuk va rezina buyumlari	2 (39—40)
VIII	Teri xom ashyosi, teri, mo'yna, mo'yna xom ashyosi va undan tayyorlangan buyumlar	3 (41—43)
IX	Yog'och va yog'och buyumlar	3 (44—46)
X	Qog'oz va qog'oz buyumlar	3 (47—49)
XI	Gazlama va to'qimachilik buyumlari	14 (50—63)
XII	Poyabzal, bosh kiyimlar, soyabonlar, hassa, qayta ishlangan patlar, sun'iy gullar, soch buyumlar	4 (64—67)
XIII	Tosh, sopol, shisha buyumlar	3 (68—70)

XIV	Marvarid, qimmatbaho toshlar va metallar, ulardan yasalgan buyumlar, jun taqinchoqlar, tangalar	1 (71)
XV	Qora va rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	12 (72—83)
XVI	Mashina va asbob-uskunalar	2 (84—85)
XVII	Transport vositalari	4(86—89)
XVIII	Priborlar va apparatlar, musiqa anjomlari	3 (90—92)
XIX	Qurollar va o'q-dori	1 (93)
XX	Turli sanoat tovarlari	3(94—96)
XXI	San'at asarlari, antikvar kolleksiya materiallari	3 (97—99)

Germaniyada, boshqa G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bir qatorda, jahon amaliyotida barchaga ma'qul bo'lgan tashqi savdo statistikasining metodologik printsiplaridan foydalaniladi. Bu printsiplar quyidagilar:

- *Tovar tarqatuvchilarning bo'xona deklaratsiyalari asosida eksport-importni baholash.*
- *Barcha eksport tovarlarini FOB narx bazisi asosida, import tovarlarni esa CIF asosida qayta hisoblash.*
- *Kontragent-mamlakatlarni ikki pozitsiya: «ishlab chiqarish-istemo» va «eksport-import» pozitsiyasi bo'yicha hisobga olish.*

Bir qator savdo indeksi ko'rsatkichlarini to'raligicha, alohida tovarlar va mamlakatlar bo'yicha (hududlar yoki iqtisodiy-siyosiy variantlarda) chop etish.

AQShda milliy nomenklatura va tashqi savdo statistikasini tashkil etishni ishlab chiqish Savdo vazirligining ro'yxatga olish byurosi tasarrufidadir. Shu narsa diqqatga sazovorki, tovarlar harakatini statistik hisobga olishning amerikacha modelida faqatgina savdo bitimlari emas, balki notijoriy operatsiyalar ham hisobga olinadi.

AQSh tashqi savdo nomenklaturasining ba'zi xususiyatlari: harbiy-strategik yo'nalishdagi tovarlar «tovar yetkazib berishning maxsus kategoriyasi»da hisobga olinadi, bu tovarlar qiymati tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmiga nomi, fizik hajmi va hamkor mamlakat nomi ko'rsatilmadan kiritiladi, eksport baholanganda FAS bahosi, importda esa SIF bahosi va «bo'xona qiymati» (ya'ni, bo'xona ma'lumotlari) qo'llaniladi.

Yaponiyada tovar nomenklaturasini ishlab chiqish va statistik shahrlarni tayyorlashni 1971 yildan buyon Moliya vazirligi nazorat qiladi. Bu sohada yapon tajribasi xalqaro amaliyotni quyidagi o'ziga xos xususiyat bilan boyitadi, ya'ni tashqi savdo hajmiga 200 ming yevradan kam qiymatli tovar partiyalari, qaytariladigan konteynerlar va mamlakat hududida joylashtirilgan amerika qo'shinlarining mulki kiritilmaydi.

Xalqaro savdodagi o'zgarishlar

Xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosi milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlarini ayiriboshlashning o'ziga xos formasi sifatida

namoyon bo'ladi. Bunda davlat va xususiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, ayrim hollarda jismoniy shaxslar ham jahon bozorida asosiy sub'ektlar (agentlar) sifatida qatnashadi.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning tashqi savdosini miqdoriy (jismoniy va qiymat hajmi, eksport-import o'sish sur'ati) va sifatli (tovar tuzilmasi va jug'rofiy yo'nalishi) xarakterdagi ko'rsatkichlar belgilaydi.

Xalqaro savdoning asosiy tarkibiy qismi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, biroq tovar oqimlarining ma'lum mamlakat hududi orqali o'tib ketuvchi ko'rinishi - tranzitni ham esda tutish kerak, chunki uni amalga oshirish uchun ma'lum haq to'lanadi, bunga kompaniyalarning transport xarajatlari kiradi.

Sanab o'tilgan tovar harakatlari, kelib chiqishi va belgilangan maqsadiga ko'ra, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *hamkor mamlakatlarda amalga oshirilgan, o'zaro iste'molga mo'ljallangan oddiy tovar olib kirish va olib chiqish;*
- *uchinchi mamlakatlarga tovarlar reeksport/importi;*
- *ko'rgazma, yarmarka, salon kabilarida namoyish qilish uchun tovarlarni vaqtincha olib kirish va olib chiqish;*
- *xom ashyo va yarim fabrikalarni reeksport-reimport qilish maqsadida uchinchi mamlakatga olib chiqish va qayta ishlash yoki olib chiqilgan mamlakatga qaytadan olib kirish;*
- *firma ichida tovar va xizmatlarni TMKlarining doirasida ko'chirilishi (transfer).*

Jahon savdosining o'zgarishi haqida gap ketganda, oxirgi variantdagi tovar oqimlariga

qudratli milliy va xalqaro moliyaviy-sanoat guruhlari (MSG) nazorati ostiga olingan filiallar, sho'ba korxonalar va assotsiatsiya-lashgan kompaniyalar o'rtasidagi to'g'ri kooperatsion aloqalar rivojlanishining zamo-naviy davriga ko'proq xos bo'lgan tovar oqimi sifatida qarash kerak. Tashqi savdo operatsiyalarining o'zgarishi, yo'nalishi va tuzilmasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *fan-texnika inqilobi bilan bog'liq ravishda tovar aylanmasining umumiy hajmi mashina va asbob-uskunalar ulushining oshishi, xom ashyo va yarim fabrikalarning solishtirma og'irligining kamayishi;*
- *jadal rivojlanib borayotgan xizmatlar va axborot-texnologiyalar ayirboshlashining paydo bo'lishi;*
- *ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining ochiq iqtisodiyotga o'tishi jarayonida tashqi savdoning erkinlashtirilishi;*
- *dunyoning turli hududlarida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;*
- *transmilliy korporatsiyalar faoliyatining faollashuvi.*

Keyingi 50 yil davomida jahon savdo aylanmasi 14 martadan ko'proq o'sdi. 1951-1970 yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7 foizga, 1971-1990 yillarda - 5 foiz va 1991-2016 yillarda - 5,5 foizga teng bo'ldi. UST ekspertlarining fikricha, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi inqiroz, Yaponiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar iqtisodiyotidagi turg'unliklar tufayli jahon ishlab chiqarishida kamayish bo'lishiga qaramasdan, XX va XXI asr bo'sag'asida jahon savdo aylanmasining 6-7 foizga teng miqdorda o'sishi kuzatildi.

Agar 70—80 yillarda Yaponiya va Yevropa Ittifoqining tashqi savdosi eng tez sur'atlarda o'sgan bo'lsa, 90-yillarda Xitoy hamda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlarning savdo aylanmasida shiddatli o'sish kuzatildi.

Jahon savdosining umumiy qiymati 1997 yilning oxirida 6,6 trln. dollarga, uning 5,3 trln. dollari (80,3 %) tovarlar, 1,3 trln. dollari (19,7 %) xizmatlarga to'g'ri keldi, 2001 yilda mos ravishda 7,5 trln. , 6,0 trln, 1,5 trln dollarga, 2016 yilga kelib 16,7 trln dollarga teng bo'ldi.

2003 yilda jahon savdosining o'sish sur'ati 5 foizga, 2004 yilda 9 foizga va nihoyat 2016 yilda 1,3 foizga teng bo'ldi.

Tovarlar oqimining asosiy yo'nalishlari

Jahon savdo hajmining kengayishi tovar oqimlarining dispersiyasi (tarqalish) hodisasini keltirib chiqaradi. Shunga qaramasdan, 2014 yilda tovar aylanmasining asosiy qismi uchta yirik eksportyor: Xitoy (tovar va xizmatlar eksporti 2342,8 mlrd. doll.), AQSh (1622,7 mlrd. doll.) va Germaniya (1508,3 mlrd. doll.) to'g'ri keladi. Yaponiya bu ko'rsatkich bo'yicha to'rtinchi o'rinda bo'lsa (683,8 mld. doll), Niderlandiya kuchli beshlikni yakunlab berdi (672,4 mlrd. doll.).

2014 yilda mamlakatlararo tovar oqimlarining eng yiriklari sifatida AQSh - Kanada, AQSh – Yevropa Ittifoqi, AQSH-Xitoy, Xitoy – Yevropa Ittifoqi, AQSh – Yaponiya va Rossiya – Yevropa Ittifoqi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Agar avval AQSh - G'arbiy Yevropa - Yaponiya «Uchburchagi» tovar ayirboshlashning magistral yo'li sifatida e'tifof

etilgan bo'lsa, endi u Xitoy hisobiga "to'rtburchakka" aylanib o'z ahamiyatini hali ham yo'qotmaganligidan dalolat beradi. Bunda AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Frantsiya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yuqori darajada raqobatbardoshligi omili muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birgalikda, jahon bozorlarida yangi industrial mamlakatlarning «ovozi» keyingi paytda baralla yangramoqda. YalM qatoriga keyingi yillarda Braziliya, Hindiston va Xitoy kabi iqtisodiy jihatdan gigant mamlakatlar qo'shilishdi. 90-yillarning oxiriga kelib bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar raqobatbardoshligining keskin oshishi (bu ayniqsa, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Malayziya, Xitoy va Turkiya tovarlariga xos) tufayli ularning jahon eksportidagi ulushi sezilarli darajada oshdi. UST va IHTTning obro'li mutaxassislarining fikricha, bu tamoyil XXI asr boshida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining ulushi keskin ko'tarilishiga, ya'ni jahon tovar aylanmasining 40 foizdan 50 foizgachasi aynan shu mintaqaga to'g'ri kelishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, xalqaro savdoning tovar tarkibidagi o'zgarishlar xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining qisqarishi, mashinasozlik uchun butlovchi qismlarni ayirboshlashning ko'payishi va tovar nomenklaturasining tez yangilanib borishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xizmatlar, axborot va texnologiyalar ayirboshlash hajmi ortib bormoqda va savdoning an'anaviy bo'lib qolgan ko'rinishlarini surib chiqarmoqda.

Oxirgi yillardagi ko'rsatkichlar qayta ishlash sanoati mahsulotlari miqdorining keskin o'sib ketishi (80 foizgacha) va oziq-ovqat, xom ashyo, yonilg'i solishtirma og'irligining kamayib ketishi bilan bog'liq ravishda (20 foizgacha) jahon savdosi tarkibi sezilarli o'zgariganligini ko'rsatib turibdi.

Bu holat mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar bilan xom ashyo va yarimfabrikatlar savdosi monopollashgan, mineral resurslarning tijoriy zahiralarga ega bo'lgan kichik guruhdagi davlatlar o'rtasida raqobat kurashining keskinlashuviga olib keladi.

XVIII bob. Xalqaro savdoda narx belgilash

Narx va narx belgilash nazariyasi

Narx iqtisodiy nazariyalarning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. U tovarlar qiymatining ijtimoiy foydaliligi ifodasi sifatida namoyon bo'lib ayirboshlash jarayonida pul belgilarining ma'lum miqdori ko'rinishini qabul qiladi.

Mamlakatlar ishlab chiqarishida iqtisodiy sharoitlarning sezilarli farq qilishi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning tarmoqlar bo'yicha o'rtacha narxiga bog'liq ravishda milliy narxlar darajasining tabaqalanishini belgilab beradi. Bunda iqtisodiyot tipi katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotni boshqarish-ning rejali-buyruqbozlik modelida narxlar yuqoridan belgilanadi va odatda, haqiqiy qiymat mutanosibligini ifodalamaydi. Bozor iqtisodiyotida narxlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy tabiatdagi ko'plab omillarning ta'siriga duch kelgan holda o'z-o'zini boshqarish tizimining hal qiluvchi unsuri sifatida harakat qiladi.

Narx belgilash nazariyasi narxlarni shakllanish shart-sharoitlari, ko'rinishi, tuzilishi va o'zgarish harakatini ko'rib chiqadi. Klassik siyosiy iqtisodda narx belgilash nazariyasining asoschilari U.Petti va A.Smit hisoblanadi. Ular tovar narxi to'g'risidagi ikkita konsepsiyaga asos solishgan: birinchisi — mehnatni qiymat nazariyasi asosida (K.Marks), ikkinchisi — cheklangan foydalilik modelidan foydalanish asosida (K.Menger va F.Vizer) belgilash.

Birinchi konsepsiyaga asosan, narx ma'lum mamlakat uchun ishbilarmonlik va

jadallik hamda jamiyat tomonidan tan olingan foydalilikning o'rtacha shartlari bo'yicha tovarda gavalangan mehnat xarajatlarining pulda ifodalanishidir.

Ikkinchi konsepsiyaga ko'ra, narx iste'molchi bahosida, tovar foydaliligi, ya'ni uning iste'mol qiymatini hisobga olgan holda ishlab chiqaruvchi pul xarajatlarining yig'indisidir.

Bu ikki xil yondashuvni, taklif (qiymat) va talab (foydalilik) nuqtai nazaridan, nazariy jihatdan birlashtirishga ingliz iqtisodchisi A.Marshall harakat qildi, u fanga «taklif bahosi» va «talab bahosi» tushunchalarini olib kirdi. Agar ishlab chiqaruvchi uchun baho xarajatlar (K.Marks aytganidek, haqiqiy xarajatlar emas, balki ishchining mehnat jarayonida, tadbirkorning kapitalni besamara sarflanishidan saqlanish natijasidagi azob-uqubatlari yig'indisi) bilan belgilansa, iste'molchi uchun narx ma'lum vaqt oralig'idagi foydalilik chegarasiga mos keladi, ya'ni maksimal darajada samarali foydalanishga bo'lgan hohishning puldagi ifodasidir, deb hisoblaydi A.Marshall.

Taraqqiy etgan tovar ishlab chiqarishda jahon narxlari milliy narx ko'rsatkichlarini, eng avvalo, ma'lum tovarni ishlab chiqaruvchi (yoki yetkazib beruvchi) va mos holda iste'molchisi bo'lgan yetakchi mamlakatlardagi talab va taklifni hisobga olgan holda solishtirish asosida hosil bo'ladi.

Narx belgilashning asosiy mexanizmlari

Biror-bir tovarga narx belgilash mexanizmiga bozorda ana shu tovar uchun raqobat muhitining bor-yo'qligi eng ko'p ta'sir ko'rsatadi. Mana shu ko'rsatkichga asosan quyidagi xalqaro bozor raqobatlarini farqlay bilish kerak:

Mukammal (sof) raqobat — bozor sub'ektlari (xaridorlar va sotuvchilar) cheklanmagan miqdorda ko'p, talab va taklif qonuni «sof» holda amal qiladigan bozor.

To'lliq monopoliya — maksimal foyda olish maqsadida narx hukmronligini o'tkazuvchi yagona tovar yetkazib beruvchi bozor.

Monopolistik raqobat — bir necha monopolistlar va katta miqdordagi o'rta kompaniyalar bozori, o'rta kompaniyalar raqobat vositasida gigantlar tomonidan narxlarni cheksiz ko'tarish tamoyilini chegaralashga qodirlar, gigantlar esa o'z navbatida vaqtinchalik kelishuvlar - kartellar orqali narx siyosatini o'zaro muvofiqlashtirishga intiladilar.

Xalqaro iqtisodiy tahlilda, odatda, jahon bahosining ikki ko'rinishi qo'llaniladi: qayta ishlash sanoati mahsuloti bahosi va xom ashyo bahosi, bular yirik kompaniyalar - ushbu nomenklaturadagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilarning eksport baholari hisoblanadi. Bu baholar uchun asos sifatida milliy bozor narxi olinadi.

Jahon narxlarini hisoblashning eng keng tarqalgan usullari bu to'lliq xarajatlar usuli va to'g'ri xarajatlar usuli sanaladi. Narx belgilashning har ikki usulni aniq misollarda ko'rib chiqamiz (misollar S.M.Nikitin,

Ye.S.Glazova va M.P.Stepanovanning "Мировые цены: особенности формирования" asaridan olingan. //Мировая экономика и международные отношения. 1997, №3.)

Faraz qilaylik, bir oy davomida 1000 birlik tovar tayyorlanadi. Shartli hisoblab chiqilgan kutilayotgan daromad miqdorining mahsulot birligi miqdoriga bo'lamiz va tovarning fabrika bahosiga ega bo'lamiz, bizning misolda 16,5 doll. (18.1-jadvalga qaralsin).

18.1-jadval. Narxni to'lliq xarajatlar usuli bilan aniqlash. (oylik xarajatlar, doll.)

Materiallar	9000
Ishchi kuchi	1000
Bilvosita sarflar	3800
Jami xarajat:	13800
Kutilayotgan foyda	2700
Sotishdan kutilayotgan daromad	16500

Amalda bu usulni qo'llashda ishlab chiqarish quvvatlarini ish bilan ta'minlanganlik darajasi me'yori 75-85 foizga teng qilib olinadi. Fabrika bahosiga haqiqiy foydaning investitsiyalangan kapitalga nisbati sifatida aniqlanuvchi *maqsadli foyda me'yorida*n kelib chiquvchi qo'shimcha (ayirma) qo'shiladi. Bu qo'shimcha tovar turi va kompaniyaning (davlatning) narx siyosati tabiatiga bog'liq. Bu qo'shimchaga misol sifatida aksizni, ayirmaga esa ulgurji xaridorga beriladigan tashlamani ko'rsatish mumkin.

Narxni to'g'ri xarajatlar usuli yordamida aniqlash jarayoni barcha xarajatlarni doimiy (qoplanadigan) va o'zgaruvchan (to'g'ri) xarajatlarga ajratishni nazarda tutadi. Bunda narx o'zgaruvchan xarajatlarga ma'lum qo'shimchani qo'shish orqali hosil bo'ladi. (18.2-jadval).

18.2-jadval. Narxni to'g'ri xarajatlar usuli bilan aniqlash (oylik xarajatlar, doll.)

Kutilayotgan savdo hajmi	400	800	900
Bir birlik mahsulotga kutilayotgan narx	18,0	15,0	14,0
Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan to'g'ri xarajatlar yig'indisi	8,58	8,40	8,34
Bir birlik mahsulot uchun marjinal foyda	9,42	6,60	5,66
Marjinal foyda yig'indisi	3768	5280	5094
Ishlab chiqarish quvvatlaridan 100 foizga foydalanilgandagi doimiy xarajatiar	3000	3000	3000
Olingan foyda	768	2280	2094

Bu holatda firma dastlab kutilayotgan narxlarda istiqboldagi savdo hajmini baholaydi (misoldagi birinchi va ikkinchi qatorlar). Keyin o'zgaruvchan (to'g'ri) xarajatiar yig'indisi hisoblanadi va birlik mahsulotga, shundan keyin kutilayotgan narxda bashorat qilingan butun savdo hajmiga to'g'ri keladigan marjinal (qo'shilgan) foyda aniqlanadi. Olingan marjinal foyda yig'indisidan doimiy xarajatlarni ayirib sotishdan keladigan daromad miqdorini belgilaymiz.

O'tish iqtisodiyoti va bozorda jiddiy narx tebranishlari sharoitida yuqoridagi birinchi usul nisbatan afzalroq hisoblanadi.

Qayta ishlash sanoati mahsulotlari jahon narxlarining shakllanishi mahsulotning hayotiy tsikli, asbob-uskunalarning universal-ligi, investitsion faollik va boshqa bir qator omillar (masalan, tovar oqimlari - transmilliy korporatsiyalar ichidagi transfertlar tabiati) bilan bog'liq. Ikkinchi asosiy guruh - xom ashyo narxlariga kelsak, ular mavsumiy tebranishlarga, shuningdek, bashoratlar va siyosiy voqealar ta'siriga ko'proq darajada bog'liq. Xom ashyo mahsulotlari jahon narxining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Ularning shakllanishida asosiy rolni ichki milliy xarajatlar emas, balki jahon bozoridagi talab va taklif nisbati o'ynaydi.

Ular asosiy ishlab chiqaruvchilar (eksportyorlar) taklif qilgan narx va birjadagi kotirovkalar asosida yuzaga chiqadi;

Asosiy ishlab chiqaruvchilar (eksportyorlar)ning turli-tuman narxlari mavjud bo'lib, ular hududiy bozorlar xususiyati, hisob-kitoblarda valyutadan foydalanishdagi farqlar, tashlamlar va imtiyozlar tizimining mavjudligi kabilar bilan belgilanadi. Masalan, doimiy mijozlarga uzoq muddatli bevosita tovar yetkazib berish.

Yetakchi eksportyor (importyor) bo'lgan davlatlar kartellar - ma'lum bir tovarni ishlab chiqarish va sotishni nazorat qiluvchi tashqi savdo assotsiatsiyalarini tashkil etishlari mumkin (masalan, Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti - OPEK).

Milliy va jahon narxlarining o'zaro bog'liqligi masalasiga kelsak, ulaming bir-biriga mos kelishi kamdan-kam hollarda yuz beradi. Odatda, ichki narxlar jahon narxlaridan

yuqori bo'ladi, bu eksport baholariga nisbatan ko'proq import baholariga xosdir, zero ayrim xom ashyo tovarlari (neft) bo'yicha ichki narxlar jahon narxlariga nisbatan past darajada bo'lishi kuzatilsa ham. Oxirgi holatni mamlakatlar orasidagi bojxona to'siqlarining mavjudligi, jahon bozorida eng raqobatbardosh kompaniyalarning faoliyat olib borishi, shuningdek, xalqaro savdoda narxlarning barcha eksportyor va importyorlar narxlarining o'rtacha arifmetik qiymatidan emas, balki bozordagi liderlarning bu mahsulotga qo'yg'an bahosiga bog'liqligi bilan tushuntirish mumkin.

Jahon narxlari tizimi va uning vazifalari

Jahon narxlari turi o'zaro bog'liq vazifalarni bajaradi, ular murakkab kompleksni tashkil etadi. Jahon narxlarining eng muhim vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Indikativ vazifa — ma'lum vaqt orallig'ida iqtisodiy holatni (bozor kon'yunkturasini) baholash imkonini beradi.

Kommunikativ vazifa — bozor sub'ektlari: ishlab chiqaruv-chi-eksportyorlar, vositachilar, iste'molchi-importyorlar o'rtasida aloqalarni amalga oshiradi.

Distribvutiv vazifa — bozor sub'ektlari daromadlarini taqsimlash imkonini beradi.

Raq'batlantirish vazifasi — davlat yoki kompaniyalarning eksport-import siyosatini o'zgartirishiga yordam beradi.

Sog'lomlashtirish vazifasi — mahsulotlari ehtiyojlarni qondira olmayotgan kompaniyalarning bozordan kettishiga, bozor

kon'yunkturasiga moslasha olgan firmalarning gullab-yashnashiga olib keladi.

Jahon narxlari tizimi ma'lum darajada murakkab. Jahon narxlarining asosiy mezonlari quyidagilar: bitimning qiymat hajmi, erkin konvertirlangan valyutalarning (AQSh dollari, yevro, ingliz funti va boshqalar) ishlatilishi, oldi-soldi operatsiyalarining xalqaro savdo markazlarining birida rasmiy qayd etilishi (masalan: Antverpenda — olmoslar, Singapurda — kauchuk, Londonda — oltin bo'yicha va boshqalar). Bu shartlar mavjud bo'lganda bitimlardagi jahon narxlari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

- *Taklif narxi (eksport, reeksport narxi) va talab narxi (import narxi).*
- *Monopol va erkin narxlar.*
- *Etkazib berish shartlari ko'rsatilgan narxlar, spot, forvard, fyuchers.*
- *Maxsua narxlar (barter, kliring, yordam dasturi, transfert).*
- *Shartnoma narxlari (amalga oshirilgan bitimlar uchun) va chop etiluvchi narxlar (ma'lumotnoma, statistika, birja narxlari).*

Bundan tashqari, jahon narxlari darajasiga davlatning tartibga solish faoliyati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlatning tartibga solish faoliyati milliy iqtisodiyot ko'rinishiga bog'liq ravishda davlat nazorati darajasiga qarab, to'liq monopoliyadan (proteksionizm) davlat tashkilotlarining juda kam aralashuvi va bozordagi xususiy agentlarning to'liq erkinligigacha bo'lgan oraliqda o'zgarib turishi mumkin.

XIX bob. Tashqi savdo balansi

Tashqi savdo balansining umumiy tavsifi

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari harakati, yuqorida qayd etib o'tilgandek, ko'p tomonlama tabiatga ega. Har bir alohida olingan mamlakatda ikkita asosiy tovar oqimining o'zaro ta'siri kuzatiladi: eksport (olib chiqish) va import (olib kirish). Ularning o'zgarishidan davlatning ichki iqtisodiy holati va XIMdagi vaziyatini baholash uchun muhim indikator sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun tovar oqimlarining miqdoriy va sifatiiy tarkibi milliy to'lov balansining moddolari bo'yicha statistik tahlilning predmeti hisoblanadi.

To'lov balansi ma'lum mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma'lum vaqt oralig'idagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarining sistemalashtirilgan holda qayd etilishidir. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi milliy xo'jalikning chetga to'lovlari va chetdan keladigan to'lovlar holatini qayd etadi.

Bu holatda rezident deganda, fuqaroligi va pasport statusidan qat'iy nazar davlat hududida bir yildan oshiq yashagan jismoniy va huquqiy shaxs tushuniladi (bu mamlakatda shtab-kvartiraga ega bo'lgan diplomatik missiya ishchilari, harbiy personal va xalqaro tashkilotlar xodimlaridan tashqari).

Bu ta'rif boshqa davlatda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarga ham tadbiiq etilmaydi.

Bitim atamasi bu yerda tovar, xizmat yoki aktivlarga mulkchilik huquqi bir mamlakat

rezidentidan boshqa mamlakat rezidentiga o'tadigan barcha ayirboshlashlarni bildiradi.

To'lov balansini asosi - bu barcha ko'rinishdagi bitimlarni guruhlashdir, ya'ni mahsulotlarning oqib ketishi va mamlakatga valyuta kirib kelishi kreditni, mahsulotlarni mamlakatga kirib kelishi va valyutaning oqib ketishi debitni belgilaydi. Shunday qilib, amaldagi tajribalarga ko'ra, to'lov balansi ikki tomonlama hisob asosida tuziladi, ya'ni har bir bitim bir paytda ikkita hisobda: kredit va debitda aks ettiriladi.

Xalqaro valyuta fondi klassifikatsiyasiga muvofiq, har qanday davlatning to'lov balansi quyidagi bo'limlardan iborat: joriy operatsiyalar hisobi, kapital va moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalar hisobi, rasmiy zahiralalar hisobi.

O'z navbatida, joriy operatsiyalar hisobi quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi: tovarlar, xizmatlar eksporti va importi, investitsiyalardan sof daromadlar, chet elga sof pul o'tkazishlar (transfertlar).

Joriy operatsiyalar hisobining bu moddolari ichida mamlakat iqtisodiy holatini baholashda eksport va import nisbati muhim o'rinni egallaydi (XIM jami hajmining 80 foizi) va tashqi savdo balansi (qoldig'i) deb yuritiladi.

Har bir mamlakatda tashqi savdo balansi milliy bojxona tashkilotlari statistik ma'lumotlari asosida chiqariladi. Bundan tashqari davlatlar o'rtasida tovar oqimlarini kuzatish (monitoring) BMT tizimidagi ba'zi xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT Savdo va taraqqiyot bo'yicha anjumani - YUNKTAD,

Umumjahon savdo tashkiloti - UST), shuningdek, mustaqil tuzilmalar (iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti - IHTT) tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi savdo balansini chiqarishda ma'lum murakkabliklarga duch kelinishi shu bilan bog'liqki, jahon statistikasida eksport FOB narxlarida (transport vositalari fraxtsiz va tavakkalni sug'urtalmasdan), import esa SIF indekslarida (tovar yetkazib berish umumiy qiymatining o'rtacha 10 foiziga teng bo'lgan miqdorda transport vositalarini fraxtlash va tavakkalni sug'urtalash bilan) baholanadi.

Tashqi savdo balansini ko'p jihatdan jami to'lov balansini natijasini belgilab beradi. Jahon amaliyotidan shu narsa ma'lumki, mamlakatning iqtisodiy gullab-yashnashi eksport va importning ijobiy nisbatiga, ya'ni mamlakatdan olib chiqilgan tovarlar qiymati mamlakatga olib kirilayotgan tovarlar qiymatidan ortiq (aktiv balans) bo'lishiga bog'liq. Biroq tarixdan bunga teskari tabiatdagi holat ham mavjud. Bu holatda tashqi savdo balansidagi kamomad boshqa manbalardan keladigan kirimlar hisobiga qoplanadi (masalan, 70-80 yillarda AQShda xizmatlar eksporti va xorijiy investitsiyalar hisobiga).

Tashqi savdo balansiga ta'sir etuvchi omillar

Tashqi savdo balansini ko'rinishi — aktiv (ijobiy) yoki passiv (salbiy) balans bir tomondan tuzilmaviy xarakterdagi uzoq muddatli tamoyillar guruhi, ikkinchi tomondan joriy davrdagi kon'yunkturaviy sabablar bilan aniqlanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki, har bir mamlakat birinchi kategoriyadagi omillar bo'yicha strategik qarorlar topishga intilishi hamda ikkinchi kategoriya bo'yicha taktik harakatlar variantlarini qidirishi zarur. Bunda yuqorida qayd etib o'tilgandek, ma'lum bir davlatning tovarlar nomenklaturasi va tovar oqimlarining jug'rofiy yo'nalishini shakllantiruvchi milliy iqtisodiy xususiyat muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa ko'p jihatdan tashqi savdo balansining umumiy ko'rinishini belgilab beradi.

19. 1-jadval. Tashqi savdo balansiga ta'sir qiluvchi omillar.

Uzoq muddatli omillar	Kon'yunkturaviy omillar
1. Xom ashyo tovarlari narxini passivlashi (mas. yoqilg'i)	1. Jahon bozorining joriy kon'yunkturasini (talab va taklif nisbati)
2. Ilmiy-texnika revolyutsiyasining ta'siri (iqtisodiyotni global axborotlashtirish)	2. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish rejimi
3. Jahon iqtisodiyotida TMKlarning rolini ortishi	3. Xalqaro moliya-valyuta tizimidagi holat va milliy valyuta kursining o'zgarishi
4. Xalqaro savdo bloklarini shakllanishi	4. Siyosiy omillar (mas. urushlar, revolyutsiya, hukumat tarkibi va siyosati yo'nalishini o'zgarishi)

Bu holatni inobatga olgan holda jahon iqtisodiyotida mavjud bo'lgan va tashqi savdo balansiga ta'sir qiluvchi asosiy uzoq muddatli tamoyillar va kon'yunkturaviy sabablarni umumlashtirishga harakat qilamiz.

Jahondagi davlatlar tashqi savdo balansiga yuqorida keltirilgan omillarning ta'siri tabiatini tahlili quyidagicha xulosaga olib keladi: qisqa muddatli, kon'yunkturaviy tamoyillarning rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga ta'siri bozorga o'tayotgan xo'jalik tizimli davlatlarga ta'siriga nisbatan ancha-muncha kamroq seziladi. Masalan, yangi industrial mamlakatlar, O'zbekiston va MDHga a'zo boshqa davlatlar.

Shu bilan bir vaqtda iqtisodiy strategiya nuqtai nazaridan tashqi savdo balansining shakllanishini uzoq muddatli istiqbollarini bashoratlash yuqorida qayd etilgan har ikki guruhga kiruvchi, bir-biri bilan doimiy tovar ayirboshlash jarayonida bo'lgan davlatlar uchun bir xil darajada ahamiyat kasb etadi.

Bo'lim bo'yicha rezyume

Tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish hukumat iqtisodiy siyosatining muhim bir sohasi sifatida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni qulay shart-sharoitlar bilan ta'minlash va xalq farovonligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar kompleksini aks ettiradi. Tashqi savdoni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar erkin savdo yoki proteksionizm rejimi doirasida amalga oshiriladi va bozor mexanizmiga ta'sir etishning tarifli hamda notarif dastaklarini o'z ichiga oladi.

Proteksionizm tashqi savdo operatsiyalariga turli-tuman cheklashlarni joriy etuvchi davlatga vaqtinchalik, taktik yutuq keltirsa-da, strategik, uzoq muddatli rejada istiqbolsiz siyosat hisoblanadi. Bu siyosat XX asr tajribasidan ma'lumki, hayot darajasining va aholi turmush farovonligining pasayishiga olib keladi. Shunday bo'lsa-da, iqtisodiy erkinlashtirish kursini saqlagan holda proteksionizmining ayrim unsurlaridan oqilona foydalanish ma'lum vaqt oralig'ida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlatning iqtisodiy siyosati mehnat taqsimoti va mamlakatning jahon bozoridagi nisbiy ustunligidan samarali foydalanish maqsadida tashqi savdoni tarifli va notarif chora-tadbirlar kompleksini nazarda tutadi. Davlat tomonidan tartibga solishning tarifli usullari (bojlar, yig'img'lar, soliqlar) keng tarqalgan va ular amalda kvotalash, eksport-import operatsiyalarini litsenziyalash, ochiq, ko'pincha yashirish ravishda ishlab chiqaruvchi-eksportyorlarga subsidiyalari berish, demping import depozitlari va nihoyat, tovar oqimlari yo'liga ma'muriy-texnik va protsedura to'siqlari ko'rinishidagi notarif usullar bilan uyg'unlashadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tashqi savdoni ham o'z ichiga olgan holda davlat tashqi iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Tovar tarkibi va tovar oqimlarining jug'rofiy yo'nalishi, shuningdek, milliy xo'jalikning holatiga bog'liq ravishda turli soliq turlari va mamlakat chegarasidan xorijiy tovarlar bilan o'tishda ularni turlicha hisoblash uslubiyatidan foydalaniladi.

XIM tarixidan ma'lumki, tashqi iqtisodiy siyosatning ikki qarama-qarshi ko'rinishi: erkin savdo va proteksionizm mavjud. XX asr davomida davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatning u yoki bu ko'rinishini ma'qul ko'rishida tebranishlar bo'lib turdi: asr boshi, 20-yillar va 50-yillar erkin savdo ustunlik qilgani bilan xarakterlansa, 30-yillar va 70-yillar proteksionizmga ko'proq qiziqish kuchayganligi bilan ajralib turdi. Iqtisodiy siyosatning har ikki ko'rinishi ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Binobarin, bu hozirgi paytda erkin savdo va proteksionizmni maqsadga muvofiq sintezidan foydalanish imkoniyatini beradi. Proteksionistik chora-tadbirlarni vaqtincha joriy etish aholining aksariyat qismining turmush darajasi pasayishi hisobiga ishlab chiqaruvchilar va davlatning daromadlarini oshirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu uzoq muddat davom etsa, milliy boylik kamayadi va mamlakatning XIMdagi mavqei kuchsizlanadi.

Xalqaro tovar nomenklaturalarini ishlab chiqishga Tovarlarini tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq ravishda sifat jihatdan bir xil tovarlarni guruhlash printsipli asos bo'ldi; dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida milliy tovar nomenklaturalarini ishlab chiqishda Tovarlarini tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimidan foydalaniladi, biroq milliy tovar nomenklaturalari milliy an'analar, xo'jaliklarining xususiyatlari va boshqa sabablarga ko'ra farq qiladi; O'zbekistonda ham hozirgi paytda tovar oqimlarini hisobga olishi tizimi o'zgartirilmoqda, albatta, bunda xalqaro tashkilotlar talabi inobatga olinmoqda; respublikamiz tashqi savdo aylanmasi tuzilmasining xususiyati eksportda xom-ashyo mahsulotlarining ko'pligi, importda esa mashina va asbob-uskunalar ulushining kattaligi bilan chambarchas bog'liq.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- *Davlat tashqi savdo siyosatining mohiyati nimada?*
- *Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy ko'rinishlari va vazifalarini ayting.*
- *Tashqi savdoni tartibga solishning tarifi usullarini tavsiflang.*
- *Savdodagi notarif cheklashlarning qanday turlarini bilasiz?*
- *Notarif cheklashlarning xususiyatlari nimada?*
- *Bojxona bojini ta'riflang.*
- *Bojxona bojining qanday ko'rinishlari va ularni hisoblashning qanday usullarini bilasiz?*
- *Fritred va proteksionizmning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?*
- *Tashqi savdo siyosatining ikki ko'rinishining kuchli va kuchsiz jihatlari nimada?*
- *Hozirgi sharoitlarda qanday iqtisodiy kurs ma'qulroq hisoblanadi?*
- *Tashqi savdoda proteksionistik chora-tadbirlarni qo'llash tufayli ishlab*

- chiqaruvchilarning daromadlarini oshishini qanday tushuntirish mumkin?*
- *Proteksionizm siyosatidan davlatning taktik yutug'i va strategik yo'qotishi nimalardan iborat?*
 - *Erkin raqobat bo'lmagan sharoitda iste'molchilarning mutlaq zarar ko'rishni sabablarini ayting.*
 - *Davlat tashqi savdo siyosatining mohiyati nimada?*
 - *Tashqi savdo siyosatida tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish qanday o'rinni egallaydi?*
 - *Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy ko'rinishlari va vazifalarini ayting.*
 - *Tashqi savdoni tartibga solishning tarifi usullarini tavsiflang.*
 - *Savdodagi notarif cheklashlarning qanday turlarini bilasiz?*
 - *Notarif cheklashlarning xususiyatlari nimada?*
 - *Bojxona bojini ta'riflang.*
 - *Bojxona bojining qanday ko'rinishlari va ularni hisoblashning qanday usullarini bilasiz?*
 - *Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bojxona siyosatining xususiyatlari qanaqa?*
 - *Fritred va proteksionizmning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?*
 - *Tashqi savdo siyosatining ikki ko'rinishining kuchli va kuchsiz jihatlari nimada?*
 - *Hozirgi sharoitlarda qanday iqtisodiy kurs ma'qulroq hisoblanadi?*
 - *Tashqi savdoda proteksionistik chora-tadbirlarni qo'llash tufayli ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshishini qanday tushuntirish mumkin?*
 - *Proteksionizm siyosatidan davlatning taktik yutug'i va strategik yo'qotishi nimalardan iborat?*
 - *Erkin raqobat bo'lmagan sharoitda iste'molchilarning mutlaq zarar ko'rishni sabablarini ayting.*
 - *Davlatlararo tashqi savdoni tartibga solishning asosi va ko'rinishlarini tushuntirib bering.*
 - *Bojxona ittifoqi nima?*
 - *Bojxona ittifoqi tashqi tarifning darajasi ishtirokchi-mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
 - *GATTning imzolanishi sabablarini ayting.*
 - *GATT doirasida davlatlararo muvofiqlashtirishning tamoyillari va ko'rinishlari qanday?*
 - *GATT va USTning farqlari nimada?*
 - *USTning tamoyillari, maqsad va vazifalari qaysilar?*
 - *UST tuzilmasi va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.*
 - *60-yillardan boshlab xalqaro tashkilotlar ishlab chiqilgan asosiy tovar kelishuvlarini ayting.*
 - *Ayrim xom ashyo tovarlari xalqaro savdosi qanday tartibga solinadi?*
 - *Xalqaro savdo sohasida MDH mamlakatlari iqtisodiy hamkorligining xususiyatlarini tushuntirib bering.*
 - *Qaysi xalqaro tovar nomenklaturalarini bilasiz?*

- *Jahondagi rivojlangan mamlakatlar milliy tovar nomenklaturalarining o'ziga xos xususiyatlarini sharhlang.*
- *Jahon savdosidagi o'zgarishlarning asosiy omillari qaysilar?*
- *Xalqaro tovarlar oqimidagi asosiy yo'nalishlari haqida so'zlang.*
- *Narx belgilash nazariyasining asosiy xususiyatlarini tushuntirib bering.*
- *Narx aniqlashning usullari qaysilar?*
- *Jahon narxlariga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?*
- *Jahon narxlari tuzilishi va vazifalariga tavsif bering.*
- *Tashqi savdo balans mohiyati va tarkibiga tavsif bering.*
- *Tashqi savdo balansiga qaysi omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi?*
- *Informatsiya va texnologiyalar jahon bozorining mohiyati namada?*
- *Innovatsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?*
- *Xalqaro axborot-texnologik ayirboshlashning qanday kanallari va ko'rinishlarini bilasiz?*
- *O'zbekistonning Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori doirasidagi mavqei qanday?*

Bo'lim bo'vicha muhokama uchun muammolar

Siz hukumat maslahatchisiz. Mamlakatingizda (kichik mamlakat) kapital sig'imli ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda sanoat tovarlari va mehnat sig'imli omillardan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sezilarli qismi eksport qilinadi.

- *Hukumat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini rag'batlantirmoqchi va bu mahsulotlar importiga tarif joriy qilmoqchi. Sizning fikringiz qanday?*
- *Hukumat tarif joriy qilishga qaror qildi. Mamlakatda ish haqi me'yor o'zgaradimi?*
- *Tarif joriy qilinishi savdo hajmiga va mamlakatning umumiy iqtisodiy farovonligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
- *Tarif joriy qilinishi natijasida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'lami qanday o'zgaradi?*

O'zbekistonlik oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchilar bu tovarlarni keng ko'lamda import qilinishi natijasida muammoga duch kelishadi – zarar ko'rishadi. Importni qisqartirish uchun qanday savdo siyosatini qo'llash kerak va nima uchun:

- *Import ta'rifi joriy qilish kerak;*
- *Importga kvota o'rnatish zarur;*
- *O'zbekistonlik fermerlarga byudjet subsidiyasini berish kerak?*

Strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar eksportni nazorat qilib turish uchun kiritilgan quyidagi takliflarning ijobiy va salbiy jihatlarini tavsiflang.

- *Eksport kvotalarini joriy qilish kerak va bu kvotani ishlab chiqaruvchilarga taqsimlashni iqtisodiyot vazirligiga yuklash kerak;*
- *Eksport kvotalarini joriy qilish kerak va bu kvota doirasida eksport qilish huquqini*

744inchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

beradigan litsenziyalar savdosini konkurs asosida o'tkazishni Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga yuklash kerak;

- **Eksport tarifini joriy qilish kerak;**
- **Barcha paxtani bitta transport koridori orqali bitta portga jo'natish kerak?**

UCHINCHI BO'LIM. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

XX bob. Kapital olib chiqishning mohiyati va shakllari

Jahon kapital bozorining mohiyati va rivojlanish bosqichlari

Jahon kapitallar bozori (JKB) jahon iqtisodiyotining ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lgan moliyaviy resurslar harakatini ta'minlovchi asosiy unsurlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy JKBning shakllanishi XIX—XX asrlar bo'sag'asida yuz berdi. Bu paytda bir qator yetakchi mamlakatlarda (Buyukbritaniya, Frantsiya, Germaniya, AQSh va qisman Rossiya hamda Yaponiyada) milliy hudud chegarasidan olib chiqilib, boshqa mamlakat xo'jaligida foydalanishi mumkin bo'lgan nisbatan ortiqsa kapital jamg'armalari paydo bo'ldi.

Moliyaviy resurslarning bunday migratsiyasidan asosiy maqsad baza mamlakat ichki muomalasidan olingan pul mablag'larini qabul qilib oluvchi mamlakatga yuqori daromad olish maqsadida samarali joylashtirish hisoblanadi.

Kapital migratsiyasining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: ma'lum davlat hududidan moliyaviy resurslarni olib chiquvchi shaxsning (investor) bu resurslardan boshqa mamlakat iqtisodiyotida foydalanishi orqali qo'shimcha foyda olish imkoniyatini borligi; investorlarning o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar hajmi va nomenklaturasini kengaytirishga intilishi; ishlab chiqarishning boshqa omillari: ishchi

kuchi, tovarlar, xizmatlar, axborotlarni ayirboshlashga rag'batlantirish.

Rivojlangan infratuzilma va xalqaro huquqiy maydonning mavjudligi hududiy va global miqyosda kapital harakatini sezilarli ravishda osonlashtiradi. Ushbu jarayonda davlat tuzilmalari, xususi kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va jismoniy shaxslar faol ishtirok etishadi.

Ekspertlarning baholashicha, kapital eksportini o'sish sur'ati savdo va ishlab chiqarishga nisbatan oldinda bormoqda. Xususan, oxirgi o'ttiz yil davomida xorijiy investitsiyalar hajmi 16 martadan ko'proqqa o'sdi.

Hozirgi kunda xalqaro kapital bozori quyidagi qator xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- *Kapital eksporti jug'rofiy tuzilmasidagi o'ziga xos o'zgarishlar.*
- *Moliyaviy resurslar migratsiyasida davlat rolining ortishi (ayniqsa, XVF kanallari bo'yicha va «rivojlanishga rasmiy yordam» bo'yicha).*
- *Transmilliy korporatsiyalar faoliyati doirasida to'g'ri investitsiyalar ahamiyatini ortib borishi.*
- *AQSh - G'arbiy Yevropa - Yaponiya uchburchagida kapital oqimi hajmining eng*

katta miqdorda saqlanib qolishi va unga Xitoyning qo'shilishi.

- **Kapital harakati bilan bog'liq moliyaviy va axborot-texnologiya tarmoqlarini tez rivojlanib borishi (masalan, offshor hududlarni tashkil etish orqali).**

So'nggi o'n yilliklarda muhim xalqaro muammo dunyodagi ko'plab rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarning tashqi qarzlarning katta miqdordaligi bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, 90-yillarning o'rtalariga kelib JKB oldiniga Lotin Amerikasi mamlakatlari (Meksika, Braziliya, Argentina)da tarqalgan, Janubiy-Sharqiy Osiyo (Tailand, Indoneziya, Malayziya), Tayvan, Janubiy Koreya va hatto Yaponiyani egallab olgan, keyinchalik 2008 yilda boshlangan global miqyosdagi moliyaviy inqirozlarga yuz tutdi.

Kapital olib chiqish shakllari

Kapital olib chiqishning ko'rinishlarini bu murakkab, ko'p omilli jarayonning u yoki bu qirrasini aks ettiruvchi kriteriyalarga bog'liq ravishda sinflarga ajratish mumkin. **Kapital harakati manbalari** nuqtai nazaridan, hukumatlararo kelishuvlarga mos ravishda e'tiborli davlat organlari qaroriga binoan davlat byudjetidan rasmiy moliyaviy resurslarni olish (bu tipga xalqaro tashkilotlar mablag'lari ham kiradi) jarayoni yoki xususiy, huquqiy va jismoniy shaxslarning tuzilgan shartnomalarga muvofiq investitsion faoliyati natijasida kapital eksportiga ega bo'lamiz.

Iqtisodiy mazmuniga bog'liq ravishda bo'sh turgan mablag'lar **tadbirkorlik kapitali** (ma'lum miqdordagi foydani dividend ko'rinishida olish huquqiga ega bo'lish

maqsadida ishlab chiqarishga mablag' qo'yishga asoslangan) va **ssuda kapitali** (foiz olish maqsadida qarz oluvchiga pul mablag'i berishni ifoda etadi) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Muddatidan kelib chiqadigan bo'lsak, **qisqa** (bir sutkadan bir yilgacha), **o'rt**a (bir yildan besh yilgacha) va **uzoq** (besh yildan ortiq) muddatli kapital qo'yilmalari bo'lishi mumkin. Aniq bir muddatni tanlash tuzilayotgan shartnoma shartlari bilan aniqlanadi.

Va nihoyat, **foydalanish maqsadiga** ko'ra, kapital qo'yilmalari **to'g'ri** va **portfel** investitsiyalarga bo'linadi. To'g'ri investitsiyalar kapital qo'yilgan ob'ektni boshqarish (nazorat qilish)ni nazarda tutadi, portfel investitsiyalar esa kapital qo'yilayotgan ob'ekt qimmatli qog'ozlari (aktsiyalar, sertifikatlar, polislar kabilar)ni sotib olish va emissiya qilishda o'z aksini topadi hamda faqatgina foyda olish huquqini kafolatlaydi.

Jahon xizmatlar bozorining rivojlanishi bilan ko'rsatib o'tilgan sinflashda keltirilgan kapital olib chiqishning turli xil ko'rinishlari orasidagi chegaralarni «yo'qotib bormoqda». Xalqaro hamkorlikning yangi ko'rinishlari: konsalting, lizing, forfeiting va boshqalar XIMning savdo, valyuta, kredit, axborot sohalari chegarasida keng tarqala boshladi.

Kapital eksporti nazariyasi

Iqtisodiy nazariyada moliya resurslarining xalqaro miqyosda oqib o'tishi mohiyatini tushuntirishga bir-biridan farq qiluvchi ikki yondashuv ma'lum.

Bozor iqtisodiyotiga xos nazariyaga ko'ra, kapital eksporti yoki kapital importi - bu ishlab chiqarish tsikli muhim omillarining vaqt va makonda ko'chib o'tishidir, u bo'sh turgan pul summalaridan yanada samarali foydalanish uchun shart-sharoit yaratib beruvchi xaiqaro mehnat taqsimotiga asoslangan. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lmagan nazariyaga muvofiq esa, serob moliya resurslarining chet elga yo'naltirilishi faqatgina boshqa mamlakatlarning mehnatkashlari va tabiiy boyliklarini ortiqcha eksplutatsiya qilish hisobiga qo'yilgan kapitaldan yuqori foyda olishga intilish bilan tushuntiriladi.

Hozirgi kunda bu ikki yondashuvni sintez qilishga harakatlar kuzatilmoqda, bunga TMKlar faoliyati turtki bo'lmoqda. Chunki TMKlar faoliyati firma ichida bashoratlash va tuzilmasiga kiruvchi firmalar o'rtasida kapital oqimlarini boshqarishni qo'shib oborishni talab qiladi.

Bu tamoyil ilk bor shved iqtisodchisi G.Kassel tomonidan 1918 yilda asoslab berilgan, biroq uning tamal toshini ingliz klassik iqtisodi maktabi vakillari (xususan, D.Rikardo) asarlaridan qidirish kerak. Rikardoning fikricha, valyuta kursi qiymat asosga ega emas, balki muomalada bo'lgan pul miqdorini reglamentlovchi davlat siyosati natijasida, demak narx orqali ham o'rnatiladi. Xarid qobiliyati pariteti nazariyasiga muvofiq, valyuta kursi muomala-dagi pul miqdoriga bog'liq bo'lgan ikki mamlakat pul miqdorining nisbiy qiymati bilan aniqlanadi. Bundan kapital harakati xarid qobiliyati bo'yicha milliy valyuta kurslarini tenglashishi kelib chiqadi, bu esa o'z navbatida o'rtacha milliy daromad me'yorlari orasidagi differentsatsiyani kamayishiga olib keladi.

Qator qoidalarining bahsliligiga qaramasdan, xarid qobiliyati pariteti nazariyasi tarafdorlari ichida P.Samuelson va M.Fridmen kabi zamonaviy klassik iqtisodchilar ham bor.

Buyuk ingliz iqtisodchisi Dj.M.Keyns o'zining fundamental asari «Bandlik, foiz va pul umumiy nazariyasi»da samarali talabni yaratish uchun investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, investitsiyalarni pul-kredit yoki byudjet chora-tadbirlari orqali ko'paytirish mumkin. Iqtisodchining tamoyiliga ko'ra, davlat tomonidan foiz stavkasini manipulyatsiya qilish mamlakatga xorijdan investitsiya oqimlarini quyidagicha o'zgartiradi: foiz stavkasi kamaytirilsa, tashqi qarzlarning hajmi ortadi, foiz stavkasi oshirilsa, aksincha, kamayadi. Keyns tamoyilining o'ziga xos xususiyati - tovar ekspantsiyani oshirish maqsadida narxlarga ta'sir qilish va mamlakat to'lov balansini tenglashtirish orqali milliy valyuta kursini pasaytirish haqidagi qoida hisoblanadi. Ingliz iqtisodchisi milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish yo'li bilan e'tiborli tashkilotlari tomonidan davlat qarzi nazorat qilinishi kerakligi nazarda tutadi.

Keyns nazariyasi juda ko'p zamonaviy tamoyillarning yaratilishida tamal toshi bo'ldi. Bu tamoyillar qatoriga, masalan, kapital harakatining portfel investitsiyalari ko'rinishida xususiyatlarini e'tiborga oluvchi *portfel balans tamoyilini* keltirish mumkin.

Chikago monetaristlar maktabining yo'l-boshchisi amerikalik iqtisodchi M.Fridmen o'z izdoshlari bilan birgalikda suzib yuruvchi valyuta kurslari nazariyasini ishlab chiqdi. Suzib yuruvchi valyuta kurslari to'lov balansini avtomatik ravishda barobarlashtirish, iqtisodiy jarayonlarga davlatning haddan tashqari ko'p

aralashuvini mustasno qilish, valyuta chayqovchiligini oldini olish va kapital va boshqi ishlab chiqarish omillarining milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishini rag'batlantirish imkoniyatini beradi.

Monetaristlar nazariyasiga ko'ra, davlat tomonidan pul massasi o'sish sur'atlarini barqaror ushlab turish (yiliga 3-5 foiz) va davlat harajatlarini qisqartirish xususi kapital uchun bir iqtisodiyotdan boshqasiga erkin oqib o'tish kanallarini ochadi, bu yangi ish joylarini yaratish va aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy resurslarning mamlakatlarga ko'chishi inflyatsiyadan qutulish va kapital eksportini, eng avvalo, to'g'ri investitsiyalar umumjahon miqyosida rag'batlantirish masalasi bilan chambarchas bog'liq.

Monetarizm g'oyasining bir qismini amalga oshirishning iloji bo'lmagan bo'lsa-da, bu tamoyilni hayotga tadbiiq etgan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar)ning jahon kapital bozorida yetakchi o'rinlarni saqlab qolishgani uning asoslanganligini isbotlaydi.

Umumjahon banki quruhining faoliyati

Yuqorida qayd etib o'tilgandek, kapital bozorida global va hududiy darajadagi xalqaro

tashkilotlar sezilarli o'ringa egadirlar. Yirik kapital qo'yimlari loyihalarini amalga oshiruvchi, rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli davlatlarga berilayotgan iqtisodiy yordamni muvofiqlashtiruvchi, boshqa xalqaro tashkilotlarga o'z ta'sirini o'tkaza oluvchi Umumjahon banki eng e'tiborli investitsion institutlarning biri hisoblandi. Hozirgi paytda Umumjahon banki guruhi va besh ta o'zaro bir-biri bilan bog'liq tuzilmadan tarkib topgan ko'p tomonlama kredit tashkiloti hisoblanadi. Bu besh institut quyidagilar sanaladi:

1. *Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)*. Bretton-Vudsdagi iqtisodiy Anjuman qaroriga binoan 1945 yilda, Xalqaro valyuta fondi bilan bir paytda tashkil etilgan. 189 ta davlatni birlashtirgan. XTTBni Oliy organi Boshqaruvchilar Kengashi hisoblanadi. Tarkibida 25 kishini birlashtirgan Ijrochi direktorlar kengashi XTTB prezidenti rahbarligida doimiy faoliyat olib boradi. Bank tomonidan Vashington, Parij, London va Tokioda ochilgan axborot markazlari ayrim mamlakatlar va hududlarning iqtisodiy rivojlanishi sharhlarini bilan tanishish imkonini beradi.

20.1-jadval. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankiga a'zo mamlakatlar.

Mamlakat/a'zo bo'lgan yili	Mamlakat/a'zo bo'lgan yili
Afghanistan, Jul 14, 1995	Libya, Sep 17, 1958
Albania, Oct 15, 1991	Lithuania, Jul 6, 1992
Algeria, Sep 26, 1963	Luxembourg, Dec 27, 1945
Angola, Sep 19, 1989	Macedonia, FYR of, Feb 25, 1993
Antigua and Barbuda, Sep 22, 1983	Madagascar, Sep 25, 1963

Argentina, Sep 20, 1956	Malawi, Jul 19, 1965
Armenia, Sep 16, 1992	Malaysia, Mar 7, 1958
Australia, Aug 5, 1947	Maldives, Jan 13, 1978
Austria, Aug 27, 1948	Mali, Sep 27, 1963
Azerbaijan, Sep 18, 1992	Malta, Sep 26, 1983
Bahamas, The Aug 21, 1973	Marshall Islands, May 21, 1992
Bahrain, Sep 15, 1972	Mauritania, Sep 10, 1963
Bangladesh, Aug 17, 1972	Mauritius, Sep 23, 1968
Barbados, Sep 12, 1974	Mexico, Dec 31, 1945
Belarus, Jul 10, 1992	Micronesia, Federated States of, Jun 24, 1993
Belgium, Dec 27, 1945	Moldova, Aug 12, 1992
Belize, Mar 19, 1982	Mongolia, Feb 14, 1991
Benin, Jul 10, 1963	Montenegro, Jan 18, 2007
Bhutan, Sep 28, 1981	Morocco, Apr 25, 1958
Bolivia, Dec 27, 1945	Mozambique, Sep 24, 1984
Bosnia and Herzegovina, Feb 25, 1993	Myanmar, Jan 3, 1952
Botswana, Jul 24, 1968	Namibia, Sep 25, 1990
Brazil, Jan 14, 1946	Nauru, Apr 12, 2016
Brunei Darussalam, Oct 10, 1995	Nepal, Sep 6, 1961
Bulgaria, Sep 25, 1990	Netherlands, Dec 27, 1945
Burkina Faso, May 2, 1963	New Zealand, Aug 31, 1961
Burundi, Sep 28, 1963	Nicaragua, Mar 14, 1946
Cabo Verde, Nov 20, 1978	Niger, Apr 24, 1963
Cambodia, Jul 22, 1970	Nigeria, Mar 30, 1961
Cameroon, Jul 10, 1963	Norway, Dec 27, 1945
Canada, Dec 27, 1945	Oman, Dec 23, 1971
Central African Republic, Jul 10, 1963	Pakistan, Jul 11, 1950
Chad, Jul 10, 1963	Palau, Dec 16, 1997
Chile, Dec 31, 1945	Panama, Mar 14, 1946
China, Dec 27, 1945	Papua New Guinea, Oct 9, 1975
Colombia, Dec 24, 1946	Paraguay, Dec 28, 1945
Comoros, Oct 28, 1976	Peru, Dec 31, 1945
Congo, Democratic Republic of, Sep 28, 1963	Philippines, Dec 27, 1945
Congo, Republic of, Jul 10, 1963	Poland, Jun 27, 1986
Costa Rica, Jan 8, 1946	Portugal, Mar 29, 1961
Cote d'Ivoire, Mar 11, 1963	Qatar, Sep 25, 1972
Croatia, Feb 25, 1993	Romania, Dec 15, 1972
Cyprus, Dec 21, 1961	Russian Federation, Jun 16, 1992
Czech Republic, Jan 1, 1993	Rwanda, Sep 30, 1963
Denmark, Mar 30, 1946	Samoa, Jun 28, 1974
Djibouti, Oct 1, 1980	San Marino, Sep 21, 2000
Dominica, Sep 29, 1980	Sao Tome and Principe, Sep 30, 1977
Dominican Republic, Sep 18, 1961	Saudi Arabia, Aug 26, 1957
Ecuador, Dec 28, 1945	Senegal, Aug 31, 1962
Egypt, Arab Republic of, Dec 27, 1945	Serbia, Feb 25, 1993
El Salvador, Mar 14, 1946	Seychelles, Sep 29, 1980
Equatorial Guinea, Jul 1, 1970	Sierra Leone, Sep 10, 1962
Eritrea, Jul 6, 1994	Singapore, Aug 3, 1966
Estonia, Jun 23, 1992	Slovak Republic, Jan 1, 1993
Ethiopia, Dec 27, 1945	Slovenia, Feb 25, 1993
Fiji, May 28, 1971	Solomon Islands, Sep 22, 1978
Finland, Jan 14, 1948	Somalia, Aug 31, 1962
France, Dec 27, 1945	South Africa, Dec 27, 1945
Gabon, Sep 10, 1963	South Sudan, Apr 18, 2012
Gambia, The, Oct 18, 1967	Spain, Sep 15, 1958
Georgia, Aug 7, 1992	Sri Lanka, Aug 29, 1950
Germany, Aug 14, 1952	St. Kitts and Nevis, Aug 15, 1984
Ghana, Sep 20, 1957	St. Lucia, Jun 27, 1980
Greece, Dec 27, 1945	St. Vincent and the Grenadines, Aug 31, 1982

Grenada, Aug 27, 1975	Sudan, Sep 5, 1957
Guatemala, Dec 28, 1945	Suriname, Jun 27, 1978
Guinea, Sep 28, 1963	Swaziland, Sep 22, 1969
Guinea-Bissau, Mar 24, 1977	Sweden, Aug 31, 1951
Guyana, Sep 26, 1966	Switzerland, May 29, 1992
Haiti, Sep 8, 1953	Syrian Arab Republic, Apr 10, 1947
Honduras, Dec 27, 1945	Tajikistan, Jun 4, 1993
Hungary, Jul 7, 1982	Tanzania, Sep 10, 1962
Iceland, Dec 27, 1945	Thailand, May 3, 1949
India, Dec 27, 1945	Timor-Leste, Jul 23, 2002
Indonesia, Apr 13, 1967	Togo, Aug 1, 1962
Iran, Islamic Republic of, Dec 29, 1945	Tonga, Sep 13, 1985
Iraq, Dec 27, 1945	Trinidad and Tobago, Sep 18, 1963
Ireland, Aug 8, 1957	Tunisia, Apr 14, 1958
Israel, Jul 12, 1954	Turkey, Mar 11, 1947
Italy, Mar 27, 1947	Turkmenistan, Sep 22, 1992
Jamaica, Feb 21, 1963	Tuvalu, Jun 24, 2010
Japan, Aug 13, 1952	Uganda, Sep 27, 1963
Jordan, Aug 29, 1952	Ukraine, Sep 3, 1992
Kazakhstan, Jul 23, 1992	United Arab Emirates, Sep 22, 1972
Kenya, Feb 3, 1964	United Kingdom, Dec 27, 1945
Kiribati, Sep 29, 1986	United States, Dec 27, 1945
Korea, Republic of, Aug 26, 1955	Uruguay, Mar 11, 1946
Kosovo, Jun 29, 2009	Uzbekistan, Sep 21, 1992
Kuwait, Sep 13, 1962	Vanuatu, Sep 28, 1981
Kyrgyz Republic, Sep 18, 1992	Venezuela, Republica Bolivariana de, Dec 30, 1946
Lao People's D-c Republic, Jul 5, 1961	Vietnam, Sep 21, 1956
Latvia, Aug 11, 1992	Yemen, Republic of, Oct 3, 1969
Lebanon, Apr 14, 1947	Zambia, Sep 23, 1965
Lesotho, Jul 25, 1968	Zimbabwe, Sep 29, 1980
Liberia, Mar 28, 1962	

2. Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK).
XTTBning maxsus shaxobchasi sifatida 1956 yilda tashkil etilgan. 184 mamlakat a'zo. XMKning asosiy maqsadi - rivojlanayotgan

mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga xususiy sektor bilan hamkorlikda ko'maklashish.

20.2-jadval. Xalqaro moliyaviy korporatsiyaga a'zo mamlakatlar.

Mamlakat/a'zo bo'lgan yili	Mamlakat/a'zo bo'lgan yili
Afghanistan, Sep 23, 1957	Lesotho, Sep 29, 1972
Albania, Oct 15, 1991	Liberia, Mar 28, 1962
Algeria, Sep 23, 1990	Libya, Sep 18, 1958
Angola, Sep 19, 1989	Lithuania, Jan 15, 1993
Antigua and Barbuda, Apr 15, 1987	Luxembourg, Oct 4, 1956
Argentina, Oct 13, 1959	Macedonia, FYR of, Feb 25, 1993
Armenia, Apr 18, 1995	Madagascar, Sep 27, 1963
Australia, Jul 20, 1956	Malawi, Jul 19, 1965
Austria, Sep 28, 1956	Malaysia, Mar 20, 1958
Azerbaijan, Oct 11, 1995	Maldives, Feb 2, 1983
Bahamas, The, Dec 8, 1986	Mali, May 9, 1978

Bahrain, Sep 22, 1995	Malta, Jun 1, 2005
Bangladesh, Jun 18, 1976	Marshall Islands, Sep 23, 1992
Barbados, Jun 25, 1980	Mauritania, Dec 29, 1967
Belarus, Nov 2, 1992	Mauritius, Sep 23, 1968
Belgium, Dec 27, 1956	Mexico, Jul 20, 1956
Belize, Mar 19, 1982	Micronesia, Federated States of, Jun 24, 1993
Benin, Feb 5, 1987	Moldova, Mar 10, 1995
Bhutan, Dec 1, 2003	Mongolia, Feb 14, 1991
Bolivia, Jul 20, 1956	Montenegro, Jan 18, 2007
Bosnia and Herzegovina, Feb 25, 1993	Morocco, Aug 30, 1962
Botswana, Mar 23, 1979	Mozambique, Sep 24, 1984
Brazil, Dec 31, 1956	Myanmar, Dec 3, 1956
Bulgaria, Jul 22, 1991	Namibia, Sep 25, 1990
Burkina Faso, Aug 20, 1975	Nepal, Jan 7, 1966
Burundi, Nov 28, 1979	Netherlands, Dec 28, 1956
Cabo Verde, May 2, 1990	New Zealand, Aug 31, 1961
Cambodia, Mar 26, 1997	Nicaragua, Jul 20, 1956
Cameroon, Oct 1, 1974	Niger, Jan 7, 1980
Canada, Jul 20, 1956	Nigeria, Mar 30, 1961
Central African Republic, Apr 1, 1991	Norway, Jul 20, 1956
Chad, Apr 2, 1998	Oman, Feb 20, 1973
Chile, Apr 15, 1957	Pakistan, Jul 20, 1956
China, Jan 15, 1969	Palau, Dec 16, 1997
Colombia, Jul 20, 1956	Panama, Jul 20, 1956
Comoros, Jul 13, 1992	Papua New Guinea, Oct 9, 1975
Congo, Democratic Republic of, Apr 15, 1970	Paraguay, Jul 27, 1956
Congo, Republic of, Oct 1, 1980	Peru, Jul 20, 1956
Costa Rica, Jul 20, 1956	Philippines, Aug 12, 1957
Cote d'Ivoire, Mar 11, 1963	Poland, Dec 29, 1987
Croatia, Feb 25, 1993	Portugal, Jul 8, 1966
Cyprus, Mar 2, 1962	Qatar, Oct 11, 2008
Czech Republic, Jan 1, 1993	Romania, Sep 23, 1990
Denmark, Jul 20, 1956	Russian Federation, Apr 12, 1993
Djibouti, Oct 1, 1980	Rwanda, Nov 6, 1975
Dominica, Sep 29, 1980	Samoa, Jun 28, 1974
Dominican Republic, Oct 31, 1961	Sao Tome and Principe, Oct 11, 2008
Ecuador, Jul 20, 1956	Saudi Arabia, Sep 18, 1962
Egypt, Arab Republic of, Jul 20, 1956	Senegal, Aug 31, 1962
El Salvador, Jul 20, 1956	Serbia, Feb 25, 1993
Equatorial Guinea, Jan 10, 1992	Seychelles, Jun 11, 1981
Eritrea, Oct 11, 1995	Sierra Leone, Sep 10, 1962
Estonia, Aug 9, 1993	Singapore, Sep 4, 1968
Ethiopia, Jul 20, 1956	Slovak Republic, Jan 1, 1993
Fiji, Jul 12, 1979	Slovenia, Feb 25, 1993
Finland, Jul 20, 1956	Solomon Islands, Jul 21, 1980
France, Jul 20, 1956	Somalia, Aug 31, 1962
Gabon, Oct 20, 1970	South Africa, Apr 3, 1957
Gambia, The, Sep 19, 1983	South Sudan, Apr 18, 2012
Georgia, Jun 29, 1995	Spain, Mar 24, 1960
Germany, Jul 20, 1956	Sri Lanka, Jul 20, 1956
Ghana, Apr 3, 1958	St. Kitts and Nevis, Mar 7, 1996
Greece, Sep 26, 1957	St. Lucia, Apr 28, 1982
Grenada, Aug 28, 1975	Sudan, Oct 21, 1960
Guatemala, Jul 20, 1956	Suriname, Sep 1, 2011
Guinea, Oct 22, 1982	Swaziland, Sep 22, 1969
Guinea-Bissau, Mar 25, 1977	Sweden, Jul 20, 1956
Guyana, Jan 4, 1967	Switzerland, May 29, 1992
Haiti, Jul 20, 1956	Syrian Arab Republic, Jun 28, 1962
Honduras, Jul 20, 1956	Tajikistan, Dec 2, 1994

Jaqinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

Hungary, Apr 29, 1985	Tanzania, Sep 10, 1982
Iceland, Jul 20, 1956	Thailand, Dec 3, 1956
India, Jul 20, 1956	Timor-Leste, Oct 2, 2004
Indonesia, Apr 23, 1968	Togo, Sep 4, 1962
Iran, Islamic Republic of, Dec 28, 1956	Tonga, Oct 23, 1985
Iraq, Dec 27, 1956	Trinidad and Tobago, Jun 10, 1971
Ireland, Sep 11, 1958	Tunisia, Jul 25, 1962
Israel, Sep 28, 1956	Turkey, Dec 19, 1956
Italy, Dec 27, 1956	Turkmenistan, May 29, 1997
Jamaica, Mar 31, 1964	Uganda, Sep 27, 1963
Japan, Jul 20, 1956	Ukraine, Oct 18, 1993
Jordan, Jul 20, 1956	United Arab Emirates, Sep 30, 1977
Kazakhstan, Sep 30, 1993	United Kingdom, Jul 20, 1956
Kenya, Feb 3, 1964	United States, Jul 20, 1956
Kiribati, Oct 2, 1986	Uruguay, Aug 22, 1988
Korea, Republic of, Mar 16, 1964	Uzbekistan, Sep 30, 1993
Kosovo, Jun 29, 2009	Vanuatu, Sep 28, 1981
Kuwait, Sep 13, 1962	Venezuela, Republica Bolivariana de, Dec 28, 1956
Kyrgyz Republic, Feb 11, 1993	Vietnam, Aug 4, 1967
Lao People's Democratic Republic, Jan 29, 1992	Yemen, Republic of, May 22, 1970
Latvia, Sep 29, 1993	Zambia, Sep 23, 1965
Lebanon, Dec 28, 1956	Zimbabwe, Sep 29, 1980

3. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) 173 mamlakat a'zo bo'lgan bu tashkilot 1960 yildan boshlab o'z faoliyatini boshlagan. Kam rivojlangan mamlakatlarga foizsiz kreditlar berish bilan shug'ullanadi. XTTB

banki o'z moliyaviy resurslarining asosiy qismini obligatsiya zayomlarini jahon bozoriga joylashtirish orqali olsa, XTU mablag'larining manbai donor mamlakatlarning a'zolik badallari hisoblanadi.

20.3-jadval. Xalqaro taraqqiyot uyushmasiga a'zo mamlakatlar.

Mamlakat/a'zo bo'lgan yili	Mamlakat/a'zo bo'lgan yili
Afghanistan, Feb 2, 1981	Lebanon, Apr 10, 1962
Albania, Oct 15, 1991	Lesotho, Sep 19, 1968
Algeria, Sep 26, 1963	Liberia, Mar 28, 1962
Angola, Sep 19, 1989	Libya, Aug 1, 1961
Argentina, Aug 3, 1962	Lithuania, Sept 23, 2011
Armenia, Aug 25, 1993	Luxembourg, Jun 4, 1964
Australia, Sep 24, 1960	Macedonia, FYR of, Feb 25, 1993
Austria, Jun 28, 1961	Madagascar, Sep 25, 1963
Azerbaijan, Mar 31, 1995	Malawi, Jul 19, 1965
Bahamas, The, Jun 23, 2008	Malaysia, Sep 24, 1960
Bangladesh, Aug 17, 1972	Maldives, Jan 13, 1978
Barbados, Sep 29, 1999	Mali, Sep 27, 1963
Belgium, Jul 2, 1964	Marshall Islands, Jan 19, 1993
Belize, Mar 19, 1982	Mauritania, Sep 10, 1963
Benin, Sep 16, 1963	Mauritius, Sep 23, 1968
Bhutan, Sep 28, 1981	Mexico, Apr 24, 1981
Bolivia, Jun 21, 1961	Micronesia, Federated States of, Jun 24, 1993
Bosnia and Herzegovina, Feb 25, 1993	Moldova, Jun 14, 1994

Botswana, Jul 24, 1968	Mongolia, Feb 14, 1991
Brazil, Mar 15, 1963	Montenegro, Jan 18, 2007
Burkina Faso, May 13, 1963	Morocco, Dec 29, 1960
Burundi, Sep 28, 1963	Mozambique, Sep 24, 1984
Cabo Verde, Nov 20, 1978	Myanmar, Nov 5, 1962
Cambodia, Jul 22, 1970	Nepal, Mar 6, 1963
Cameroon, Apr 10, 1964	Netherlands, Jun 30, 1961
Canada, Sep 24, 1960	New Zealand, Oct 1, 1974
Central African Republic, Aug 27, 1963	Nicaragua, Dec 30, 1960
Chad, Nov 7, 1963	Niger, Apr 24, 1963
Chile, Dec 30, 1960	Nigeria, Nov 14, 1961
China, Sep 24, 1960	Norway, Sep 24, 1960
Colombia, Jun 16, 1961	Oman, Feb 20, 1973
Comoros, Dec 9, 1977	Pakistan, Sep 24, 1960
Congo, Democratic Republic of, Sep 28, 1963	Palau, Dec 16, 1997
Congo, Republic of, Nov 8, 1963	Panama, Sep 1, 1961
Costa Rica, Jun 30, 1961	Papua New Guinea, Oct 9, 1975
Cote d'Ivoire, Mar 11, 1963	Paraguay, Feb 10, 1961
Croatia, Feb 25, 1993	Peru, Aug 30, 1961
Cyprus, Mar 2, 1962	Philippines, Oct 28, 1960
Czech Republic, Jan 1, 1993	Poland, Oct 28, 1960
Denmark, Nov 30, 1960	Portugal, Dec 29, 1992
Djibouti, Oct 1, 1980	Romania, Apr 12, 2014
Dominica, Sep 29, 1980	Russian Federation, Jun 16, 1992
Dominican Republic, Nov 16, 1962	Rwanda, Sep 30, 1963
Ecuador, Nov 7, 1961	Samoa, Jun 28, 1974
Egypt, Arab Republic of, Oct 26, 1960	Sao Tome and Principe, Sep 30, 1977
El Salvador, Apr 23, 1962	Saudi Arabia, Dec 30, 1960
Equatorial Guinea, Apr 5, 1972	Senegal, Aug 31, 1962
Eritrea, Jul 6, 1994	Serbia, Feb 25, 1993
Estonia, Oct 11, 2008	Sierra Leone, Nov 13, 1962
Ethiopia, Apr 11, 1961	Singapore, Sep 27, 2002
Fiji, Sep 29, 1972	Slovak Republic, Jan 1, 1993
Finland, Dec 29, 1960	Slovenia, Feb 25, 1993
France, Dec 30, 1960	Solomon Islands, Jul 21, 1980
Gabon, Nov 4, 1963	Somalia, Aug 31, 1962
Gambia, The, Oct 18, 1967	South Africa, Oct 12, 1960
Georgia, Aug 31, 1993	South Sudan, Apr 18, 2012
Germany, Sep 24, 1960	Spain, Oct 18, 1960
Ghana, Dec 29, 1960	Sri Lanka, Jun 27, 1961
Greece, Jan 9, 1962	St. Kitts and Nevis, Oct 23, 1987
Grenada, Aug 28, 1975	St. Lucia, Apr 28, 1982
Guatemala, Apr 27, 1961	St. Vincent and the Grenadines, Aug 31, 1982
Guinea, Sep 26, 1969	Sudan, Sep 24, 1960
Guinea-Bissau, Mar 25, 1977	Swaziland, Sep 22, 1969
Guyana, Jan 4, 1967	Sweden, Sep 24, 1960
Haiti, Jun 13, 1961	Switzerland, May 29, 1992
Honduras, Dec 23, 1960	Syrian Arab Republic, Jun 28, 1962
Hungary, Apr 29, 1985	Tajikistan, Jun 4, 1993
Iceland, May 19, 1961	Tanzania, Nov 6, 1962
India, Sep 24, 1960	Thailand, Sep 24, 1960
Indonesia, Aug 20, 1968	Timor-Leste, Jul 23, 2002
Iran, Islamic Republic of, Oct 10, 1960	Togo, Aug 21, 1962
Iraq, Dec 29, 1960	Tonga, Oct 23, 1985
Ireland, Dec 22, 1960	Trinidad and Tobago, Oct 30, 1972
Israel, Dec 22, 1960	Tunisia, Dec 30, 1960
Italy, Sep 24, 1960	Turkey, Dec 22, 1960
Japan, Dec 27, 1960	Tuvalu, Jun 24, 2010
Jordan, Oct 4, 1960	Uganda, Sep 27, 1963

Kazakhstan, Jul 23, 1992	Ukraine, May 27, 2004
Kenya, Feb 3, 1984	United Arab Emirates, Dec 23, 1981
Kiribati, Oct 2, 1986	United Kingdom, Sep 24, 1980
Korea, Republic of, May 18, 1981	United States, Sep 24, 1980
Kosovo, Jun 29, 2009	Uzbekistan, Sep 24, 1992
Kuwait, Sep 13, 1962	Vanuatu, Sep 28, 1981
Kyrgyz Republic, Sep 24, 1992	Vietnam, Sep 24, 1980
Lao People's Democratic Republic, Oct 28, 1983	Yemen, Republic of, May 22, 1970
Latvia, Aug 11, 1992	Zambia, Sep 23, 1985
	Zimbabwe, Sep 28, 1980

4. *Investitsion majarolarni tartibga solish*
Xalqaro markazi (IMTSXM) 1966 yilda tashkil
topdi. 153 mamlakat a'zo bo'lgan bu tashkilot

hukumatlar va xorijiy investorlar o'rtasidagi
bahslarni tartibga solish va o'zaro murosaga
kelishtirish bilan shug'ullanadi.

20.4-jadval. Investitsion majarolarni tartibga solish xalqaro markaziga a'zo mamlakatlar.

<u>Mamlakat/a'zo bo'lgan vili</u>	<u>Mamlakat/a'zo bo'lgan vili</u>
Afghanistan, Jul 25, 1988	Lithuania, Aug 5, 1992
Albania, Nov 14, 1991	Luxembourg, Aug 29, 1970
Algeria, Mar 22, 1986	Macedonia, FYR of, Nov 26, 1998
Argentina, Nov 18, 1994	Madagascar, Oct 14, 1966
Armenia, Oct 16, 1992	Malawi, Oct 14, 1988
Australia, Jun 1, 1991	Malaysia, Oct 14, 1986
Austria, Jun 24, 1971	Mali, Feb 2, 1978
Azerbaijan, Oct 18, 1992	Malta, Dec 3, 2003
Bahamas, The, Nov 18, 1995	Mauritania, Oct 14, 1986
Bahrain, Mar 15, 1996	Mauritius, Jul 2, 1989
Bangladesh, Apr 26, 1980	Micronesia, Federated States of, Jul 24, 1993
Barbados, Dec 1, 1983	Moldova, June 4, 2011
Belarus, Aug 9, 1992	Mongolia, Jul 14, 1991
Belgium, Sep 26, 1970	Montenegro, May 10, 2013
Benin, Oct 14, 1986	Morocco, Jun 10, 1987
Bosnia and Herzegovina, Jun 13, 1997	Mozambique, Jul 7, 1995
Botswana, Feb 14, 1970	Nauru, May 14, 2016
Brunei Darussalam, Oct 16, 2002	Nepal, Feb 6, 1989
Bulgaria, May 13, 2001	Netherlands, Oct 14, 1986
Burkina Faso, Oct 14, 1986	New Zealand, May 2, 1980
Burundi, Dec 5, 1989	Nicaragua, Apr 19, 1995
Cabo Verde, Jan 26, 2011	Niger, Dec 14, 1986
Cambodia, Jan 19, 2005	Nigeria, Oct 14, 1986
Cameroon, Feb 2, 1987	Norway, Sep 15, 1987
Canada, Dec 1, 2013	Oman, Aug 23, 1995
Central African Republic, Oct 14, 1986	Pakistan, Oct 15, 1986
Chad, Oct 14, 1986	Panama, May 8, 1996
Chile, Oct 24, 1991	Papua New Guinea, Nov 19, 1978
China, Feb 6, 1993	Paraguay, Feb 6, 1983
Colombia, Aug 14, 1997	Peru, Sep 8, 1993
Comoros, Dec 7, 1978	Philippines, Dec 17, 1978
Congo, Democratic Republic of, May 29, 1970	Portugal, Aug 1, 1984
Congo, Republic of, Oct 14, 1986	Qatar, Jan 20, 2011
Costa Rica, May 27, 1993	Romania, Oct 12, 1975
Cote d'Ivoire, Oct 14, 1986	Rwanda, Nov 14, 1979

Croatia, Oct 22, 1998	Samoa, May 25, 1978
Cyprus, Dec 25, 1986	San Marino, May 18, 2015
Czech Republic, Apr 22, 1993	Sao Tome and Principe, Jun 19, 2013
Denmark, May 24, 1988	Saudi Arabia, Jun 7, 1980
Egypt, Arab Republic of, Jun 2, 1972	Senegal, May 21, 1967
El Salvador, Apr 5, 1984	Serbia, Jun 8, 2007
Estonia, Jul 23, 1992	Seychelles, Apr 19, 1978
Fiji, Sep 10, 1977	Sierra Leone, Oct 14, 1986
Finland, Feb 8, 1989	Singapore, Nov 13, 1968
France, Sep 20, 1967	Slovak Republic, Jun 28, 1994
Gabon, Oct 14, 1966	Slovenia, Apr 6, 1994
Gambia, The, Jan 28, 1975	Solomon Islands, Oct 8, 1981
Georgia, Sep 6, 1992	Somalia, Mar 30, 1988
Germany, May 18, 1989	South Sudan, May 18, 2012
Ghana, Oct 14, 1986	Spain, Sep 17, 1994
Greece, May 21, 1989	Sri Lanka, Nov 11, 1967
Grenada, Jun 23, 1991	St. Kitts and Nevis, Sep 3, 1985
Guatemala, Feb 20, 2003	St. Lucia, Jul 4, 1984
Guinea, Dec 4, 1988	St. Vincent and the Grenadines, Jan 15, 2003
Guyana, Aug 10, 1989	Sudan, May 9, 1973
Haiti, Nov 28, 2009	Swaziland, Jul 14, 1971
Honduras, Mar 16, 1989	Sweden, Jan 28, 1967
Hungary, Mar 6, 1987	Switzerland, Jun 14, 1988
Iceland, Oct 14, 1986	Syrian Arab Republic, Feb. 24, 2008
Indonesia, Oct 28, 1988	Tanzania, Jun 17, 1992
Iraq, Dec 17, 2015	Timor-Leste, Aug 22, 2002
Ireland, May 7, 1981	Togo, Sep 10, 1967
Israel, Jul 22, 1983	Tonga, Apr 20, 1990
Italy, Apr 28, 1971	Trinidad and Tobago, Feb 2, 1967
Jamaica, Oct 14, 1986	Tunisia, Oct 14, 1986
Japan, Sep 16, 1987	Turkey, Apr 2, 1989
Jordan, Nov 29, 1972	Turkmenistan, Oct 26, 1992
Kazakhstan, Oct 21, 2000	Uganda, Oct 14, 1988
Kenya, Feb 2, 1987	Ukraine, Jul 7, 2000
Korea, Republic of, Mar 23, 1967	United Arab Emirates, Jan 22, 1982
Kosovo, Jul 29, 2009	United Kingdom, Jan 18, 1967
Kuwait, Mar 4, 1979	United States, Oct 14, 1966
Latvia, Sep 7, 1997	Uruguay, Sep 8, 2000
Lebanon, Apr 25, 2003	Uzbekistan, Aug 25, 1995
Lesotho, Aug 7, 1989	Yemen, Republic of, Nov 20, 2004
Liberia, Jul 16, 1970	Zambia, Jul 17, 1970
	Zimbabwe, Jun 19, 1994

5. *Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentlik (IKXA)* o'z faoliyatini 1988 yildan boshlagan. 181 mamlakat a'zo bo'lgan

bu tashkilot xorijiy investorlarni rivojlanayotgan mamlakatlarda tijoriy xavf-xatardan sug'urtalashni amalga oshiradi.

20.5-jadval. Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentlikga a'zo mamlakatlar.

Mamlakat/a'zo bo'lgan yili	Mamlakat/a'zo bo'lgan yili
Country / Date of Membership	Country / Date of Membership
Afghanistan, Jun 16, 2003	Lesotho, Apr 12, 1988
Albania, Oct 15, 1991	Liberia, Apr 12, 2007

Jahonlari qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

Algeria, Jun 4, 1996	Libya, Apr 5, 1993
Angola, Sep 19, 1989	Lithuania, Jun 8, 1993
Antigua and Barbuda, Sep 26, 2005	Luxembourg, Aug 29, 1991
Argentina, Feb 11, 1992	Macedonia, FYR of, Mar 19, 1993
Armenia, Dec 5, 1995	Madagascar, Jun 8, 1988
Australia, Feb 10, 1999	Malawi, Apr 12, 1988
Austria, Dec 16, 1997	Malaysia, Dec 6, 1991
Azerbaijan, Sep 23, 1992	Maldives, May 19, 2005
Bahamas, The Oct 4, 1994	Mali, Oct 22, 1992
Bahrain, Apr 12, 1988	Malta, Sep 12, 1990
Bangladesh, Apr 12, 1988	Mauritania, Sep 8, 1992
Barbados, Apr 12, 1988	Mauritius, Dec 28, 1990
Belarus, Dec 3, 1992	Mexico, Jul 1, 2009
Belgium, Sep 18, 1992	Micronesia, Federated States of, Aug 11, 1993
Belize, Jun 29, 1992	Moldova, Jun 9, 1993
Benin, Sep 26, 1994	Mongolia, Jan 21, 1999
Bhutan, Oct 21, 2014	Montenegro, Jan 18, 2007
Bolivia, Oct 3, 1991	Morocco, Sep 17, 1992
Bosnia and Herzegovina, Mar 19, 1993	Mozambique, Nov 23, 1994
Botswana, May 15, 1990	Myanmar, Dec 16, 2013
Brazil, Jan 7, 1993	Namibia, Sep 25, 1990
Bulgaria, Sep 23, 1992	Nepal, Feb 9, 1994
Burkina Faso, Nov 2, 1988	Netherlands, Apr 12, 1988
Burundi, Mar 10, 1998	New Zealand, Apr 22, 2008
Cabo Verde, May 10, 1993	Nicaragua, Jun 12, 1992
Cambodia, Dec 1, 1999	Niger, May 10, 2012
Cameroon, Oct 7, 1988	Nigeria, Apr 12, 1988
Canada, Apr 12, 1988	Norway, Aug 9, 1989
Central African Republic, Sep 8, 2000	Oman, Jan 24, 1989
Chad, Jun 11, 2002	Pakistan, Apr 12, 1988
Chile, Apr 12, 1988	Palau, Dec 16, 1997
China, Apr 30, 1988	Panama, Feb 21, 1997
Colombia, Nov 30, 1995	Papua New Guinea, Oct 21, 1991
Comoros, Feb 25, 2013	Paraguay, Jun 30, 1992
Congo, Democratic Republic of, Feb 7, 1989	Peru, Dec 2, 1991
Congo, Republic of, Oct 16, 1991	Philippines, Feb 8, 1994
Costa Rica, Feb 8, 1994	Poland, Jun 29, 1990
Cote d'Ivoire, Jun 7, 1988	Portugal, Jun 6, 1988
Croatia, Mar 19, 1993	Qatar, Oct 22, 1996
Cyprus, Apr 12, 1988	Romania, Sep 10, 1992
Czech Republic, Jan 1, 1993	Russian Federation, Dec 29, 1992
Denmark, Apr 12, 1988	Rwanda, Sep 27, 2002
Djibouti, Jan 12, 2007	Samoa, Sep 27, 2002
Dominica, Oct 7, 1991	Sao Tome and Principe, Dec 20, 2012
Dominican Republic, Mar 7, 1997	Saudi Arabia, Apr 12, 1988
Ecuador, Apr 12, 1988	Senegal, Apr 12, 1988
Egypt, Arab Republic of, Apr 12, 1988	Serbia, Mar 19, 1993
El Salvador, Dec 20, 1991	Seychelles, Sep 15, 1992
Equatorial Guinea, Oct 27, 1994	Sierra Leone, Jun 20, 1996
Eritrea, Sep 10, 1996	Singapore, Feb 24, 1998
Estonia, Sep 24, 1992	Slovak Republic, Jan 1, 1993
Ethiopia, Aug 13, 1991	Slovenia, Mar 19, 1993
Fiji, Sep 24, 1990	Solomon Islands, Oct 27, 2005
Finland, Dec 28, 1988	South Africa, Mar 10, 1994
France, Dec 28, 1989	South Sudan, Apr 18, 2012
Gabon, Mar 26, 2003	Spain, Apr 29, 1988
Gambia, The, Sep 11, 1992	Sri Lanka, May 27, 1988
Georgia, Dec 29, 1992	St. Kitts and Nevis, Sep 21, 1999
Germany, Apr 12, 1988	St. Lucia, Jul 25, 1988

Ghana, Apr 29, 1988
Greece, Aug 30, 1993
Grenada, Apr 12, 1988
Guatemala, Jul 11, 1996
Guinea, Oct 5, 1995
Guinea-Bissau, Jul 12, 2006
Guyana, Jan 18, 1989
Haiti, Dec 11, 1996
Honduras, Jun 30, 1992
Hungary, Apr 21, 1988
Iceland, Sep 25, 1998
India, Jan 6, 1994
Indonesia, Apr 12, 1988
Iran, Islamic Republic of, Dec 15, 2003
Iraq, Oct 6, 2008
Ireland, Oct 27, 1989
Israel, May 21, 1992
Italy, Apr 29, 1988
Jamaica, Apr 12, 1988
Japan, Apr 12, 1988
Jordan, Apr 12, 1988
Kazakhstan, Aug 12, 1993
Kenya, Nov 28, 1988
Korea, Republic of, Apr 12, 1988
Kosovo, Jun 29, 2009
Kuwait, Apr 12, 1988
Kyrgyz Republic, Sep 21, 1993
Lao People's Democratic Republic, Apr 5, 2000
Latvia, Aug 21, 1998
Lebanon, Oct 19, 1994

St. Vincent and the Grenadines, Sep 10, 1990
Sudan, Nov 7, 1991
Suriname, Jul 2, 2003
Swaziland, Apr 18, 1990
Sweden, Apr 12, 1988
Switzerland, Apr 12, 1988
Syrian Arab Republic, May 14, 2002
Tajikistan, Dec 9, 2002
Tanzania, Jun 19, 1992
Thailand, Oct 20, 2000
Timor-Leste, Jul 23, 2002
Togo, Apr 15, 1988
Trinidad and Tobago, Jul 2, 1992
Tunisia, Jun 7, 1988
Turkey, Jun 3, 1988
Turkmenistan, Oct 1, 1993
Uganda, Jun 10, 1992
Ukraine, Jul 19, 1994
United Arab Emirates, Oct 20, 1993
United Kingdom, Apr 12, 1988
United States, Apr 12, 1988
Uruguay, Mar 1, 1993
Uzbekistan, Nov 4, 1993
Vanuatu, Jul 27, 1988
Venezuela, Republica Bolivariana de, May 9, 1994
Vietnam, Oct 5, 1994
Yemen, Republic of, Mar 12, 1996
Zambia, Jun 6, 1988
Zimbabwe, Apr 10, 1992

Umumjahon banki guruhi va Xalqaro valyuta fondi faoliyatlarida tashqi o'xshashlik bo'lsa-da, ular bir-birdan farq ham qiladi. Umumjahon bankiga faqatgina XVF tarkibiga kiruvchi davlatlar a'zo bo'lishi mumkin. XVF valyuta-moliya sohasida harakat qiladi, UB esa maqsadli investitsion loyihalar bilan shug'ullanadi. Va nihoyat XVF barcha xohlovchilarga qarz berishi mumkin, Umumjahon banki esa faqat rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli davlatlarga kredit beradi, bu kreditlarning ko'p qismi 15-20 yil muddatga hamda o'rtacha 7-8 foiz stavkaga mo'ljallangan.

Keyingi paytda mutaxassislar doirasida Bank faoliyati bir xilda baholanayotgani yo'q. Dunyoning turli hududlarida amalga oshirilgan

muvaffaqiyatli loyihalar bilan bir qatorda Bank dasturlarining 80 foizi yakunlanmay qoldi yoki amalga oshirish bosqichida bekor qilindi. Bundan tashqari, bu tashkilot adresiga ekologlar va Bank faoliyatidagi qog'ozbozlikdan qutulishdan manfaatdor bo'lgan yirik kompaniyalar vakillari tomonidan tanqidiy fikrlar aytildi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mohiyati va ahamiyati

To'g'ri kapital qo'yilmalarini amalga oshirish har qanday iqtisodiyotning yuragiga - ishlab chiqarish bosqichiga ta'sir qiladi. U investorga tadbirkorlik foydasini olish bilan

birga kapital qo'yilgan ob'ekt ustidan boshqaruv nazoratini ta'minlash imkoniyatini beradi. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik umumiy hajmi 2015 yilda 1.76 trln. doll. dan oshib ketdi (1995 yilda - 315 mlrd. doll.).

To'g'ri investitsiyalarning asosiy kanallari yirik korporatsiyalarning shaxobchalari va sho"ba korxonalari, shuningdek, 10 foizdan 50 foizgacha xorijiy kapital ulushiga ega bo'lgan aksionerlik kompaniyalari, boshqa qo'shma korxonalar (QK) nizom kapitaliga qo'yilgan mablag'lar hisoblanadi.

Hozirgi paytda investitsiyalashning o'ziga xos belgilari quyidagilar sanaladi:

- *Foydani qayta investitsiyalash rolining kuchayishi (ayniqsa, yirik korporatsiyalar ichida);*
- *Investitsiya oqimlarini davlat tomonidan tartibga solishni erkinlashtirishi.*

80-90 yillarda investitsion faollikning oshib borishining bosh sababi transmilliy korporatsiyalar (bosh firmalar soni 40 ming, shaxobchalar soni 270 mingtaga yetgan) faoliyatining keskin kengayib borishida bo'ldi. To'g'ri kapital qo'yilmalari TMKga qabul qiluvchi mamlakatda barqaror ichki bozorni va global va hududiy miqyosdagi davlatlararo munosabatlarda ularning manfaati hisobga olinishini ta'minlar edi.

Portfel investitsiyalarning xususiyatlari

Portfel investitsiyalar to'g'ri investitsiyalardan maqsadlariga ko'ra farq qiladi, ya'ni ular kapital qo'yilgan ob'ektni nazorat qilish huquqini bermaydi, faqatgina «portfel»dagi

sotib olingan ulushga mos ravishda doromad olish huquqini beradi, odatda, bu ulush xalqaro amaliyotda 10 foizdan oshmaydi.

Konkret kompaniyaning investitsiya «portfeli» an'anaviy aksiyalardan tashqari, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, garov guvohnomalari, sug'urta polisleri, vauchkr kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Portfel investitsiyalarning harakati ko'proq davlat yoki xususiy kompaniyalar tomonidan u yoki bu ko'rinishdagi qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalaridagi farq miqdoriga bog'liq.

Portfel investitsiyalarga jahon statistikasi yuqori darajada tavakkalchilik bilan bog'liq loyihalarga venchur kapital qo'yilmalari va jismoniy shaxslarning sug'urta va nafaqa fondlariga annuitet (shaxsiy jamg'arma) qo'yilmalarini ham kiritadi.

Odatda portfel investitsiyalarni yirik xususiy investitsion banklar vositachi sifatida amalga oshirishadi.

To'g'ri va portfel investitsiyalar solishtirilganda shu holga amin bo'lamizki, to'g'ri investitsiya kiritishda investorni kapital qo'yish ob'ekti ko'proq qiziqtiradi.

Investitsion muhit tushunchasi

Xorijdan investitsiya qabul qilayotgan har bir mamlakatda ularning o'zigagina xos bo'lgan investitsion muhit mavjud. Investitsion muhit — mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksidir.

Bu kompleks quyidagi asosiy shartlarni o'z ichiga oladi:

- *Milliy iqtisodiyot umumiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar (YalM hajmi, YalMning o'sish sur'atlari, inflyatsiya va ishsizlik darajasi, ishchi kuchi qiymati va hokozolar);*
- *Investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha davlat siyosati (ayniqsa, xo'jalik amaliyotiga davlat aralashuvining tabiati va ko'rinishlari);*
- *Mavjud xo'jalik faoliyati qonunchiligi, eng avvalo, investitsiya oqimlarini tartibga solish sohasida;*
- *Mamlakatning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki.*

Ko'rsatib o'tilgan omillardan kelib chiqsak, eng qulay investitsiya muhiti bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mavjud, zero bu davlatlarda «Xalqaro investitsiyalar uchun tamoyillar» (1972 yilda Xalqaro savdo palatasi tasdiqlagan), va «Kapital harakatini erkinlashtirish kodeksi» (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 1961 yilda

qabul qilingan) kabi asosiy me'yoriy hujjatlarga amal qilinadi.

Ayni paytda ko'pgina rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarda milliy ishlab chiqaruvchilarni ichki bozorda himoyalash maqsadida xorijiy kapital qo'yilmalari yo'lga to'siqlar qo'yilgan va cheklashlar saqlanib qolgan. Masalan, mahalliy korxonalarda xorijiy mulkka limit o'rnatiladi, foydani olib chiqib ketish qattiq nazorat ostiga olinadi, valyuta operatsiyalari tartibga solinadi. Bundan tashqari, rivojlanmagan iqtisodiy muhitga chet eldan moliya resurslarini kirib kelishiga yuqori darajadagi siyosiy xavf-xatar va xo'jalik hayotining kriminallasuvi ham jiddiy to'siq bo'ladi.

Bunday sharoitlarda xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan va xalqaro kafolatlash muhim rol o'ynaydi. Bunday kafolatlarni Umumjahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlaridan biri - Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentlik taqdim etadi.

XXI bob. Xalqaro kapitalning milliy iqtisodiyotlarqa ta'siri yo'nalishlari

Investitsiya oqimlari yo'nalishining o'zgarishidagi asosiy tendensiyalar

Jahon investitsiya oqimlari miqyosi va jug'rofiyasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalar bozorida yetakchi o'rinlarni iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar egallab kelishmoqda. AQSh - G'arbiy Yevropa - Yaponiya uchburchagini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Bu sohada AQSh shak-shubhasiz birinchi o'rinda bormoqda, u eng yaqin raqobat-chilarini ikki martadan ko'proq orqada qoldirib ketmoqda. Amerika kapitali eksportining jami yillik hajmi faqatgina to'g'ri investitsiyalar orqali 317 mlrd. doll. dan oshmoqda.

Bu reytingda keyingi ikki o'rinni Yaponiya va Xitoy egallab kelyapti (har biri deyarli 130 mlrd. dollar). Keyingi o'rinlarda Niderlandiya, Irlandiya, Germaniya, Shveysariya, Kanada borishmoqda.

Keyingi yigirma yil ichida kapital, asosan tadbirkorlik ko'rinishida iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi, ya'ni yangi industrial mamlakatlar tomonidan faol olib chiqildi. Ular qatorida Tayvan, Janubiy Koreya, Fors ko'rpazining neft qazib oluvchi monarxiyalari (Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA), Janubiy Afrika Respublikasi, Braziliya, Meksika va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Biroq bu jarayonning ko'lami hali unchalik katta emas. Bundan tashqari XX asr so'nggidagi va XXI asr boshidagi ikki moliyaviy krizis YaIM iqtisodiyotida bo'sh turgan

kapitallar zahirasini sezilarli kamaytirib yubordi.

90-yillarda jahon bozorida yangi tamoyil sifatida sobiq sotsialistik mamlakatlardan kapital olib chiqish tan olindi. Bu yerda Xitoy va Rossiya yetakchilik qilishmoqda. Rossiyaning kapital qo'yilmalarini yo'nalishi ustun ravishda MDH mamlakatlari bilan bog'liq.

XXI asr bo'sag'asida investitsiya oqimlari jug'rofiyasidagi asosiy o'zgarishlar haqida gapirganda quyidagilarni ta'kidlab o'tish joiz:

- *Kapital eksporti (asosan to'g'ri investitsiyalar) hajmida AQSh va boshqa rivojlangan iqtisodiyotlar (eng avvalo, Yel) o'rtasidagi farqning qisqarishi.*
- *Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy bozorlarining beqarorligi sharoitida AQSh, Yel va Yaponiyaning kapital importori sifatida rolining oshib borishi.*

TMK investitsiya oqimlari yo'nalishida an'anaviy ustuvorliklarning saqlanib qolishi. Masalan, amerika korporatsiyalari asosiy e'tiborni G'arbiy Yevropa va Lotin Amerikasiga qaratishadi, yevropaliklar esa Afrikadagi yetakchi o'rnini saqlagan holda AQSh bozorini egallashga intilishadi. Yaponiya korporatsiyalari asosan Osiyo mamlakatlarini mo'ljalga olishadi.

Umumjahon banki, Yevropa tiklash va taraqqiyot banki, hamda hududiy moliya-kredit muassasalari va fondlari kabi xalqaro tashkilotlar rolini kuchayishi.

Xalqaro kapital harakatining zamonaviy iuq'rofiy tuzilmasi

Yuqorida bayon qilingan tamoyillar harakatiga mos ravishda xorijiy investitsiyalarning milliy bozorlarga taqsimlanishi quyidagicha tavsiflanadi: rivojlangan mamlakatlar guruhiga 65 foiz, rivojlanayotgan mamlakatlarga va o'tish iqtisodiyotli davlatlarga 35 foiz.

Ilg'or iqtisodiy derjavalari xo'jaligida investitsiyalarning sezilarli ravishda o'sishi

axborotlashtirish va integratsiyani shiddatli rivojlanishi natijasida bu davlatlar iqtisodiyotida yuz bergan qayta qurishlar, shuningdek, TMKlar qo'shilishidagi kon'yunkturaviy jarayonlarga asoslangan. Eng faol-investor korporatsiyalar reytingini xalqaro tadbirkorlikning «kitlari» - "Royal-Dutch Shell" va "Ekson" "Petro China" neft kontsernlari, "Djeneral elektrik" va " Berkshire Hathaway" ko'p tarmoqli xoldinglar va banklar boshqarib borishmoqda

21.1-jadval. Dunyoning 2017 yildagi eng yirik 10 ta kompaniyasi.

№	Kompaniya	Mamlakat	(\$ млрд.) sotuv	(\$млрд.) daromad	(\$млрд.) aktiv	(\$млрд.) bozor qiymati
1	ICBC	Xitoy	134,8	37,8	2 800	237,3
2	Xitoy qurilish banki	Xitoy	113,1	30,6	2 241	202
3	JPMorgan Chase	AQSh	108,2	21,3	2 359,1	191,4
4	General Electric	AQSh	147,4	13,6	685,3	243,7
5	Exxon Mobil	AQSh	420,7	44,9	333,8	400,4
6	HSBC Holdings	Buyukbritaniya	104,9	14,3	2 684,1	201,3
7	Royal Dutch Shell	Niderlandiya	467,2	26,6	360,3	213,1
8	Xitoy qishloq xo'jaligi banki	Xitoy	103	23	2 142,2	150,8
9	Berkshire Hathaway	AQSh	162,5	14,8	427,5	252,8
10	PetroChina	Xitoy	308,9	18,3	347,8	261,2

Xorijiy investitsiyalarning qit'alar bo'yicha taqsimlanishi ko'rib chiqadigan bo'lsak, vaziyat quyidagicha: Osiyoga 65 foiz, Lotin

Amerikasiga 27 foiz, Afrikaga faqat 8 foiz to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiyalarning eksport qiluvchi mamlakatlar uchun ahamiyati

Bu savolni ko'rib chiqishdan oldin shuni ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy jahon iqtisodiyotidan XKB sohasidan ayri holda deyarli biron-bir mamlakat qolmadi. Har bir davlat, kamdan-kam istisno hollarda, odatda ham kapital olib chiqadi va ham olib kiradi. Biroq eksport-importning nisbati bu mamlakatning netto (sof)-eksportyor yoki netto-importyor ekanligini ko'rsatadi.

Investitsiya oqimlarining iqtisodiyotga ta'siri har ikki holatda ham rang-barang, biroq turlichadir. Ichki investitsiyalar imkoniyatlari chegaralangan holatlarda bo'sh turgan moliyaviy resurslarning nisbatan seroblighi kuzatilganda kapitalni chetga olib chiqish talab va taklif qonuni harakati natijasida mamlakatdagi o'rtacha foyda me'yorini pasayishining oldini oladi, demak, ana shu milliy xo'jalik doirasida tadbirkorlarning investitsion faolligini ushlab turishga va mamlakatdagi ish joylarini saqlab qolishga yordam beradi. Bundan tashqari boshqa mamlakat hududida olingan yuqori daromad hisobiga milliy iqtisodiyotni qayta investitsiyalash mamlakat oldida xo'jalik taraqqiyoti sur'atini oshirish istiqbollarini ochadi.

Kapital olib chiqishdagi kutilishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar eksportyorning qabul qilib oluvchi mamlakat bozorlarida hukmron mavqega ega bo'lishi orqali ega bo'ladigan bilvosita ta'sir bilan kompensatsiyalanadi. Investitsiya import qiluvchilar o'z investorlari va kreditorlariga iqtisodiy tobe bo'lib qolishadi.

Xorijiy kapital qo'yilmalarning import qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotida tutqan o'rni

Mamlakatda kapital qo'yish usun istiqbolli sohalar mavjud bo'lsa-yu, ichki moliyaviy resurslar yetishmasa, xorijiy investitsiyalami jalb qilish milliy foyda me'yorini jahondagi o'rtacha miqdordan yuqori bo'lishiga imkoniyat beradi.

Qo'shimcha kapital qo'yilmalari natijasida importyor mamlakat yalpi ishlab chiqarish hajmi kengayadi, bu esa yangi ish joylarining ochilishi, xom ashyoga talabni oshishi va xorijdan investitsiya olgan ishlab chiqaruvchilar tovar eksportining kengayishiga olib keladi.

Chet el kapitalini jalb qilishning salbiy jihatlariga, eng avvalo, bu kapitallarning investorlar uchun eng foydali sohalarga jamlanishini ko'rsatib o'tish mumkin, bu xo'jalik tuzilmasidagi nomutanosiblikni kuchaytirish mumkin. daromadni importyor-mamlakat iqtisodiy makonidan chiqib ketishini ham nazardan qochirmaslik zarur.

Baynalmilal iqtisodiy tashkilotlarning davlatlararo yordam dasturlari va moliyaviy ko'maklashish loyihalari bilan bir qatorda importyor-mamlakatlar milliy xo'jalik komplekslarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi TXIarning asosiy manbai bo'lgan yirik transmilliy korporatsiyalarning o'sib borayotgan faolligiga duch kelishmoqda. shuning uchun ham TMK faoliyatini o'rganish jahonning turli mamlakatlari iqtisodiyotida investitsiyalami roli va ahamiyatini ifoda etuvchi illyustratsiya sifatida katta qiziqish uyg'otadi.

«Erkin iqtisodiy hududlar» xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida

20-asrning ikkinchi yarmida jahon iqtisodiyotidagi muhim hodisalardan biri erkin iqtisodiy hududlar faoliyati hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy hududlar ko'pgina mamlakatlarda keng tarqaldi. 1998 yilga kelib jahonda 4000 dan ortiq turli xildagi EIH faoliyat olib borardi. Xalqaro korporatsiyalar o'z faoliyati uchun imtiyozli shart-sharoit qidirar ekan, EIHlarni yuqori daromad olish uchun qulay joy deb hisoblashadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar EIHda o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etishni ekspansiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri deb hisoblashadi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, EIH orqali XXI asr boshida jahon savdo aylanmasining 30 foizga yaqini o'tadi.

Erkin iqtisodiy hududlar – bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan foydalaniladi. Odatda, YEIH - u yoki bu darajada moslashtirilgan jug'rofiy territoriyadir.

Ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida turli xildagi hududlarni tavsiflash uchun «erkin iqtisodiy hududlar» atamasi ishlatiladi. Biroq bu atama hodisaning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Chunonchi, bu hududlarning ko'pchiligida qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, dastaklar, maxsus ma'muriy qonunlar ma'lum huquqiy va xo'jalik rejimidan ozod qilmaydi, balki uni yengillashtiradi, xolos, tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi imtiyozlar

beradi. Bu bilan amalda davlat o'zining iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kamaytiradi.

Yaponiyaning Kioto shahrida 1973 yil 18 mayda qabul qilingan «Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha Xalqaro konventsiya» ga muvofiq *erkin hudud deganda mamlakatning shunday hududi tushuniladiki, bu yerga olib kirligan tovarlar milliy bojxona yurisdiktelyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortilishdan ozod etiladi.*

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun erkin hududlar amalda hududdagi ishchilarning turmush tarzi, ishlab chiqarish salohiyatining kontsentratsiyalashuvi kabilariga ko'ra eksterritoriallik jihatdan maxsus hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday hududlarga «maxsus iqtisodiy hududlar» atamasi mos keladi.

Erkin iqtisodiy hududlarni yaratilishi ularning tashkilotchilari tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi. Ularning faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyatni liberalashtirish va tezlashtirish bilan bog'lanadi. Erkin iqtisodiy hududlar iqtisodiyoti tashqi olamga yuqori darajada ochiqlikka, bojxona, soliq va investitsiya rejimlari ichki va tashqi investitsiyalar uchun qulaylikka ega. Bir tomondan erkin iqtisodiy hududlar jahon miqyosida harakatlanuvchi kapitallar uchun o'ziga xos «qopqon» hisoblanadi.

Mamlakat ichidagi iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirishga qaratilgan xorijiy kapitalni jalb qilishdan tashqari erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish quyidagi uch asosiy vazifa bilan bog'lanadi:

- *Sanoat eksportini rag'batlantirish hamda mana shu asosda valyuta mablag'lariga ega bo'lish;*
- *Bandlik darajasini o'stirish;*
- *hududni xo'jalik yuritishning yangi usullarini sinash maydonchasiga aylantirish.*

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning yana bir muhim tomoni shundaki, ko'pincha mamlakat o'z iqtisodiyotini xorijiy kapital oqib kelishiga to'liq ochishni xohlamaydi, shuning uchun maxsus hududlar tarzida qisman, lokal ochiqlikdan foydalanadi.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va uning faoliyatini jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rag'batlantiruvchi jahon bozoriga chuqur integratsiyalashuv uchun yaratilgan hududlar (erkin savdo, eksport sanoati, bojxona hududlari va boshqalar) bilan bir qatorda ma'lum ishlab chiqarish tarmog'i va faoliyat turini rag'batlantiruvchi maxsus rejimli hududlar ham mavjud. Masalan, qoloq rayonlarni rivojlantirish, sanoatlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi hududlar. Shuning uchun erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning sabab va maqsadlari har bir konkret holda bir-biridan yetarlicha ajralib turishi mumkin. Darhaqiqat, AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar depressiv rayonlarda kichik va o'rta biznesni jonlantirishga yo'naltirilgan hududiy siyosatni amalga oshirish uchun tashkil etilgan. Mana shu maqsadlarda tadbirkorlarga (kichik va o'rta tadbirkorlarga) mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan katta faoliyat erkinligi va moliyaviy imtiyozlar taklif etiladi. Bu dasturlar xorijiy kapitallarni jalb etish uchun maxsus yo'naltirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham erkin iqtisodiy hududlar xuddi shunga o'xshash maqsadlarda tashkil etilgan bo'lib, bu qoloq hududlarni rivojlanuvchi hududlarga aylantirishni ta'minlagan. Ammo sanoati rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda bu mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni yaratishda asosiy e'tibor xorijiy kapitallarni jalb qilishga qaratilgan.

Erkin iqtisodiy hududlarning tashkiliy-funksional tuzilmasi yetarli darajada turli-tumandir. Ba'zan u yoki bu erkin iqtisodiy hududlarni bir so'z bilan guruhlariga ajratib bo'lmaydi, chunki ular ko'plab hududlarning xususiyatlarini o'zida jamlashi mumkin. Erkin iqtisodiy hududlar mutaxassislar tomonidan hududda xo'jalik yurituvchi ko'plab firmalarning faoliyat sohasiga – xo'jalik yuritishning ixtisoslashuviga ko'ra taxminiy guruhlashtirilgan.

Guruhlashda asosiy o'rin sanoatni qayta ishlash hududlariga ajratilgan.

Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishda ikkita konseptual yondoshish mavjud: hududiy va nuqtaviy. Birinchi holatda erkin iqtisodiy hududga barcha rezident-korxonalar xo'jalik faoliyatining imtiyozli rejimidan foydalanadigan maxsus territoriya sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa, erkin iqtisodiy hudud - bu firmalar mamlakatning qaysi qismida joylashishidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turiga qo'llaniladigan imtiyozli rejimdir.

Birinchi yondashuvni amalga oshirishga Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus» hududi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'plab eksport sanoati hududlari misol bo'la oladi. Ayrim korxonalar (offshor firmalar, «dyuti fri»

magazinlari) tomonidan taklif etilgan «nuqtaviy» hududlar ikkinchi yondashuvning natijasidir.

Erkin iqtisodiy hududlarning eng sodda ko'rinishlaridan biri erkin (bojsiz) bojxona hududlaridir (EBH). Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan beri mavjud. Bunday hududlar eksportga mo'ljallangan tovarlarni

saqlash, qadoqlash va kichik hajmda qayta ishlash uchun xizmat qiladigan tranzit yoki konsignatsion omborlardan iboratdir. Bu hududlarni ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona territoriyalari ham deb atashadi. Erkin bojxona hududlarida tovarlarni olib kirish va chiqish bojxona bojlaridan ozod qilinadi. Ular juda ko'p mamlakatlarda mavjud.

21.2-jadval. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari

1. Savdo hududlari	2. Sanoat-ishlab chiqarish hududlari	3. Texnikaviy ilmiy ishlab chiqarish hududlari	4. Servis xizmat ko'rsatish hududlari
Erkin bojxona hududlari Bond omborlari Erkin portlar Erkin savdo hududlari	Importning o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish hududlari Eksport sanoati hududlari Sanoat parklari Ilmiy-sanoat parklari Makiladoras (Meksika)	Texnopolislar Texnoparklar Yangi va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish hududlari	Offshor hududlar Moliya markazlari Bank xizmati hududlari Turizm xizmati hududlari Ekoparklar
5. Kompleks hududlar		6. Xalqaro hududlar	

Erkin savdo hududlari (ESH) ham jahonda keng tarqalgan. Erkin savdo hududlari AQShda eng ko'p rivojlandi. Savdoni qo'llab-quvvatlash, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo harajatlarini kamaytirish maqsadida 1934 yilda AQShda erkin savdo hududlarini tashkil etish to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan.

Bunday hududlar AQSh territoriyasining ma'lum bir chegaralangan qismi bo'lib, ular chegarasida boshqa hududlarga nisbatan imtiyozli xo'jalik rejimi o'rnatilgan. Qonunda har bir rasmiy portda hech bo'lmasa bitta erkin tashqi savdo hududi tashkil etilishi mumkin deb

ko'rsatilgan. AQSh qonunchiligiga ko'ra mamlakat hududida faoliyat olib boruvchi erkin savdo hududlari umumiy va maxsuslashtirilgan hududlarga (subhududlar) ajratiladi. Umumiy hududlar uncha katta bo'lmagan maydonni (bir necha kv. km) egallaydi va milliy bojxona hududidan tashqarida joylashgan bo'ladi. U yerda keltirilgan tovarlarni omborlarda saqlash va qayta ishlash (qadoqlash, navlarga ajratish, markirovka kabilar) operatsiyalari amalga oshiriladi.

Subhududlar faoliyati umumiy hududlar doirasidan tashqariga chiquvchi ayrim yirik kompaniyalar uchun yaratiladi. Bu hududlarda

eksportga mo'ljallangan va importni o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Subhududlar erkin savdo hududlari va importni o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish hududlari rejimi kombinatsiyasidan iborat.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlarda joylashgan «dyuti fri» maxsus magazinlarini qo'shish mumkin. Amaldagi rejim nuqtai nazaridan bu hududlar davlat chegarasidan tashqarida hisoblanadi. Erkin savdo hududlariga, shuningdek, imtiyozli savdo rejimli erkin gavanlar (portlar) ham kiradi.

Sanoat-ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlariga kiradi. Ular savdo hududlarining rivojlanib borishi natijasida paydo bo'ldi, ya'ni bu hududlarga tovar bilan bir qatorda kapital ham olib kirilib, faqatgina savdo faoliyati bilan emas, balki ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanish yo'lga qo'yildi.

Sanoat-ishlab chiqarish hududlari eksportga mo'ljallangan yoki import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqariladigan maxsus bojxona rejimli hududlarda tashkil etiladi. Bu hududlarda sezilarli soliq va moliyaviy imtiyozlardan foydalaniladi. Eksport sanoati hududlari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, keng tarqaldi. Bunday hududlarning zamonaviy modeli 1959 yilda Irlandiyadagi Shennon aeroportida yaratilgan hududiy tuzilmadan boshlanadi. Bu hududlardan yangi industrial mamlakatlarda ko'proq samaraga erishildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida 60-yillarning o'rtalarida vujudga kelgan vaziyat, ya'ni eksport sanoatini va bandlikni xorijiy kapitallar olib kelish hisobiga rag'batlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni eksport

sanoati hududlarining yaratilishiga asosiy sabab sifatida keltirishimiz mumkin.

Ilmiy-texnikaviy qo'llab-quvvatlash hududlari uchinchi avlod hududlariga kiradi (70-80 yillar). Bu hududlar favqulodda yoki davlat ko'magida yirik ilmiy markazlar doirasida maxsus tashkil etiladi. Ularda milliy va xorijiy tadqiqotlar olib borish, loyihalash, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi va yagona soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimidan foydalanadi. Ilmiy-texnikaviy qo'llab-quvvatlash hududlari AQSh, Yaponiya, Xitoy mamlakatlarida keng tarqalgan. Ular AQShda - texnopark, Yaponiyada - texnopolis, Xitoyda - yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari deb ataladi. Jahonda eng mashhur va AQShdagi eng yirik bo'lgan texnopark «Silikon Velli» hisoblash texnikasi va kompyuter uskunalari ishlab chiqarishning 20 foiziga ega. Unda 20000 atrofida ishchilar ish bilan ta'minlangan. AQShda 80dan ortiq bunday mavjud.

Yaponiyada maxsus hukumat dasturlari doirasida yigirmadan ortiq texnopolislar yetakchi ilmiy tashkilotlar bazasida yaratilgan. Xitoyda ham bunday hududlar fan va texnikani rivojlantirish bo'yicha davlat rejalarini amalga oshirish mobaynida yaratilgan. 90-yillarning o'rtalariga kelib Xitoyda 50 dan ziyod yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari faoliyat olib borardi. Osiyo «yangi industrial mamlakatlari»da ilmiy texnikani qo'llab quvvatlash hududlari mavjud eksport sanoati hududlarida innovatsiya markazlari sifatida shakllangan, zero ular bu eksport sanoati hududlarini ilmiy-texnika ulushi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishga moslashtirishga xizmat qilgan.

Servis xizmati ko'rsatish hududlari - bu turli moliyaviy, sug'urta va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi firmalar tadbirkorlik faoliyat olib borishi uchun imtiyozli rejimli territoriyadir.

Servis xizmati ko'rsatish hududlariga offshor hududlar va soliq gavanlari kiradi. Offshor hududlar va soliq gavanlari tadbirkorlarni bu hududlardagi qulay valyuta-moliyaviy, fiskal rejim, yuqori darajadagi bank va tijorat siri saqlanishi hamda davlat tomonidan boshqaruvning sustligi bilan o'ziga tortadi.

Offshor hududda ro'yxatdan o'tgan va soliq va boshqa imtiyozlarga ega bo'lmoqchi bo'lgan kompaniyalarga qo'yiladigan asosiy talab ular offshor hudud joylashgan mamlakatning rezidenti bo'lmasligi hamda bu hududdan daromad olishga harakat qilmasligi kerak. Soliq gavanlari offshor hududlardan shu bilan farq qiladiki, u yerda barcha (ham mahalliy, ham xorijiy) firmalar har qanday yoki ayrim faoliyat turlari uchun soliq imtiyozlariga ega bo'ladi. hozirgi paytda jahonda 300 dan ortiq offshor markazlar mavjud va ularning ichida 70 ta atrofida soliq gavanlari bor.

Anchadan beri offshor hududlar faoliyat olib borayotgan mamlakatlarga Lixtenshteyn, Panama, Normand orollari, Britaniyadagi Men oroli, Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveytsariya kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Keyingi o'n yillikda offshor hududlar Malta, Mavrikiya, G'arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa mamlakatlarda vujudga keldi.

Sanoat, savdo, bank, sug'urta va boshqa kompaniyalar offshor hududlarda yoki umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki uncha katta bo'lmagan paushal

soliqqa tortiladi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar). Masalan, Shveytsariyada nisbatan past soliq olinadi, hatto ma'lum sharoitlarda umuman olinmasligi mumkin. Offshor hududlardagi imtiyozlar yana bu yerda valyuta cheklashlarining yo'qligi, foydani erkin olib chiqib ketish, ustav kapitalining past darajasi, bojxona bojlari va xorijiy investorlar uchun yig'implarning mavjud emasligi, eksterritoriallik kabilar bilan belgilanadi. Offshor hududlarni tashkil etuvchi mamlakatlar qo'shimcha xorijiy kapital mablag'larini jalb qilish, ro'yxatdan o'tgan kompaniyani hududda faoliyat olib borishi, mahalliy kadrlar uchun ish joylarini yaratilishi orqali oxir-oqibat milliy iqtisodiyotning rivojlanishidan manfaatdor bo'ladi.

Offshor biznes odatda bank, sug'urta ishida, dengiz kemasozligi, ko'chmas mulk bo'yicha operatsiyalar, trast faoliyati, barcha turdagi eksport-import operatsiyalari va konsalting faoliyati doirasida jamlanadi. Ba'zi baholashlarga qaraganda, offshor biznes sohasida to'plangan kapital mablag'lari miqdori 500 mlrd. dollarga yetadi. Bu biznesda 2 mln. ga yaqin omonatchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) ishtirok etmoqda, shuningdek, har yili bir necha ming yangi kompaniyalar ro'yxatdan o'tishib offshor faoliyat hajmini oshirishmoqda. Offshor hududlar faoliyati haqida mutaxassislar fikri bir xil emas. Ularning bir qismi bu hududlarni turli bank tovlamachiligi va nopok pullarni «tozalash» joyi deb hisoblashadi.

Kompleks hududlar ayrim ma'muriy barpo etilgan hududda umumiy xo'jalik rejimiga nisbatan maxsus imtiyozlar berish orqali tashkil topadi. Kompleks hududlarga Xitoydagi beshta maxsus hududni, KXRdagi «ochiq

rayonlar»ni, shuningdek, Braziliyadagi «Manaus» hududi, Argentinadagi «Olovli yer» territoriyasi, sanoati rivojlangan mamlakatlarning qoloq rayonlarda yaratgan erkin tadbirkorlik hududlarini kiritish mumkin.

90-yillarda xalqaro erkin iqtisodiy hududlarni shakllantirish rivojlandi. Bundan hududlar ikki yoki undan ortiq mamlakat chegarasida tashkil etiladi.

Ishbilarmonlik shartnomalarini mamlakatlara emas, balki hududiy darajada o'rganish o'zaro tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etish formasi sifatida yevrohududlar yuzaga keldi. Yevrohudud - bu turli mamlakatlar chegara hududlarining ko'ngillli birlashmasi bo'lib, u birinchi navbatda xo'jalik sohasida, o'zaro aloqalarni jadallashtirish maqsadida tuziladi. Yevrohudud doirasida faoliyat olib boruvchi har bir mamlakatning hukumat oliy organi bu hududlarga chegarada xo'jalik va boshqa aloqalarni jadallashtirishni qo'llab-quvvatlovchi vakolat beradi. Yevrohududlarni tashkil etilishida Polsha, Slovakiya, Chexiya, Vengriya, shuningdek, Ukraina, Belorusiya aktiv ishtirok etishmoqda.

Turli xildagi erkin iqtisodiy hududlarga xos umumiy xususiyat o'z ichiga bo'xona, moliyaviy, soliq imtiyozlarini oluvchi qulay investitsiya muhiti hamda u yoki bu mamlakatdagi tadbirkorlar uchun mavjud xo'jalik rejimiga nisbatan ustunliklardir.

Imtiyozlarni to'rtta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- *Tashqi savdo imtiyozlari. Ular maxsus bo'xona-tarif rejimi (eksport-import soliqlarini kamaytirish yoki olib tashlash)ni kiritishni va tashqi savdo operatsiyalarini*

amalga oshirish tartibini soddalashtirishni nazarda tutadi.

- *Soliq imtiyozlari. Tadbirkorlarning aniq bir faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan me'yorlarni o'z ichiga oladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk bahosi kabilar)ni, uning ayrim tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, maoshga harajatlar, ITTKI, transport harajatlari)ni, soliq stavkalarini darajasi, soliqqa tortishdan vaqtincha yoki batamom ozod qilish masalalariga tegishli bo'lishi mumkin.*
- *Moliyaviy imtiyozlar. Moliyaviy imtiyozlar turli ko'rinishdagi subsidiyalarni o'z ichiga oladi. Ular nisbatan past bahodagi kommunal xizmatlar, yer uchastkalarini va ishlab chiqarish inshootlariga ijara to'lovini kamaytirish, imtiyozli kreditlar ko'rinishda beriladi.*
- *Ma'muriy imtiyozlar. Ular hudud ma'muriyati tomonidan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy fuqarolarni kelib-ketish tartibi jarayonlarini osonlashtirish maqsadida va turli xizmatlar ko'rsatish orqali taklif etiladi.*

Sanab o'tilgan imtiyozlar turli kombinatsiyalarda qo'llanilishi mumkin. Erkin iqtisodiy hududlarda beriladigan imtiyozlar har doim ham xorijiy kapital jalb qilishga rag'bat bo'lavermaydi. Bu jihatdan qaraganda, siyosiy barqarorlik, investitsiya kafolatlari, infratuzilma sifati, ishchi kuchining malakasi, ma'muriy protseduraning osonlashtirilganligi va boshqa omillar ko'proq ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, barcha sharoitlar bir xil bo'lganda hududda taklif etiladigan imtiyozlar birinchi o'ringa chiqadi.

XXII bob. Xalqaro kredit

Xalqaro kredit shakllari

Ma'lumki, mutaxassislar kapital harakati-ning ikki ko'rinishini ajratib ko'rsatishadi: xo'jalik birliklarining nizom fondiga investitsiya kiritish bilan bog'liq tadbirkorlik kapitali va valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinchlik va to'lovlik shartlarida berish deb tavsiflasak bo'ladigan ssuda kapitali. Ssuda kapitali bozori sub'ektlari sifatida tadbirkorlik kapitalida bo'lganidek, davlat muassasalari, xususiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va jismoniy shaxslar chiqishi mumkin. O'rta asrlardayoq Shimoliy Italiyaning ba'zi davlatlari hududida (mas. Genua va Venetsiya respublikalari) paydo bo'lgan ssuda kapitali XX asrda, ayniqsa, so'nggi yigirma-o'ttiz yil ichida keng miqyosda rivojlandi.

Xalqaro kredit ko'rinishlarining xilma-xilligi iqtisodchilarni bir necha kriteriyalardan foydalanishga majbur etadi, ularning ichida eng ahamiyatli quyidagilar:

- *manbasiga ko'ra* – davlat tashkilotlari kreditlari (xalqaro tashkilotlar ham shunga kiradi) va xususiy tashkilotlar krediti;
- *maqsadiga ko'ra* – tijoriy (savdo), moliyaviy (to'g'ri va portfel investitsiyalar, qarzlarga xizmat ko'rsatish, valyutani tartibga solish) va aralash (kompleks xizmatlar, jumladan injiniring);
- *ko'rinishi bo'yicha* – tovar (eksportyorlar – xaridorlarga) va valyutaviy (banklar – mijozlarga);

- *valyutani milliy talluqliliga ko'ra* – kreditor, qarz oluvchi, uchinchi davlat, xalqaro birliklar (SDR, yevro);
- *muddatiga ko'ra* – juda qisqa muddatli (bir sutkadan uch oygacha), qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan – besh-etti yilgacha) va uzoq muddatli (besh-etti yildan ko'p);
- *ta'minlanishiga ko'ra* – ta'minlangan kreditlar (tovar tassaruf qilinadigan va tijoriy hujjatlarini, qimmatli qog'ozlarni, moddiy boyliklarni, ko'chmas mulkni va boshqalarni garovga qo'yish) va blank kreditlar (qarzdor majburiyati ostida kreditni belgilangan muddatda veksel, kontokorrent va overdraft ko'rinishida yopish);
- *qarz berish texnikasi ko'ra* – firma krediti (tijoriy): moliyaviy, veksel (solo-veksel ko'rinishida); ochiq hisob orqali avans kreditlari; bank kreditlari: aktsept kredit (o'tkazma veksel – trattani hisobga olish ko'rinishida), aktsept-ramburs kredit (veksel summasini importyor tomonidan aktseptant bankiga o'tkazish – ramburslash), broker krediti, xususan oldindan o'rnatilgan shartlar bilan veksellar va boshqa qarz majburiyatlari to'liq muddatga sotib olish bilan bog'liq kredit, ya'ni forfetirlash (huquqlarni naqd to'lovga ayirboshlash).

Xalqaro kredit bozorlari

Jahon kredit bozorlari o'z funksiyalariga ko'ra yetakchi valyuta-moliya operatsiyalari

markazlarida: London, Nyu-York, Tokio, Frankfurt-Mayna, Syurix, Lyuksamburg, Singapur kabilarda joylashgan xalqaro valyuta va fond bozorlari bilan chambarchas bog'langan.

Hududiy va milliy bozorlar bilan solishtirganda bu bozorlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- *moliya resurslarining ulkan aylanmasi (bir kunda milliard va o'nlab milliard dollar);*
- *qattiq strukturalash (bu bozorlardagi operatsiyalar bilan o'rtacha 500 tacha yirik bank shug'ullanadi);*
- *mayda va o'rta qarzdorlarning bu bozorga kira olmasligi;*
- *erkin konvertirlanadigan va xalqaro to'lov birliklari – SDR va yevrodan foydalanish;*
- *valyuta-kredit operatsiyalarining universal-lashuvi;*
- *eng yangi aloqa va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish.*

Global valyuta-kredit makonining muhim tarkibiy qismi depozit va ssuda operatsiyalari yevropa valyutalarida amalga oshiriladigan yevrobozor hisoblanadi. Yevrobozorda shartlarga bog'liq ravishda quyidagi kredit ko'rinishlari eng ko'p tarqalgan:

- *qattiq foiz stavkasi bilan beriladigan kredit (odatda ikki yil muddatli);*
- *ma'lum vaqt oralig'ida (uch, olti oy, bir yilda) suzuvchi stavkada beriladigan kredit (rollover kreditlar, bu kredit turi asosiy miqdor, qo'shimcha miqdor (marja) va komission to'lovlardan tarkib topgan foiz indeksini qayta ko'rib chiqishni bildiradi);*
- *stend-bay krediti (belgilangan muddatning xohlagan paytida mijozga kreditdan*

foydalanish imkoniyatini berish bilan bog'langan);

- *sindikatlashgan kreditlar (bank guruhlari - sindikatlar tomonidan beriladi, sindikat a'zolari – anderrayterlar zayomlarni muvofiqlashtirilgan kurs bo'yicha, odatda yevroobligatsiya, yevrovelsel yoki depozit sertifikatlari ko'rinishida joylashtirishni kafolatlaydi).*

Xalqaro kreditlash sohasida keyingi yillarda yuz bergan o'zgarishlar ssuda kapitali bozorini globalashuvi, kreditor va debitor mamlakatlar sonining o'sishiga, amalga oshirish mexanizmiga ko'ra kombinatsiyalashgan qator valyuta-kredit operatsiyalarining paydo bo'lishiga, ularni amalga oshirishda xavf-xatarlarning kuchayishiga olib keldi.

Tashqi qarzdorlik muammosining mohiyati

Tashqi qarzdorlik inqirozini boshlanishi alomati, bu mamlakat tomonidan davlat tegishli kanallar orqali yoki davlat kafolatli ostida olingan kreditlar va zayomlarni to'lash grafisini buzilishida namoyon bo'ladi. Mutaxassislar tashqi qarzdorlik inqirozining kon'yunkturaviy va tuzilmaviy sabablarini farqlashadi.

Kon'yunkturaviy sabablar vaqtinchalik va holatli xarakterda bo'ladi. Bu sabablar tabiiy ofat yoki qarzdor-mamlakatdagi qandaydir kutilmagan, biroq yetarli darajada jiddiy siyosiy vaziyat oqibatli bo'lishi mumkin, zero bu sabablar qarzdor-mamlakatning to'lov qobiliyatini pasaytirmaydi.

Tuzilmaviy sabablar qarzdor-mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotidagi chuqur tendensiyalar bilan bog'liq bo'ladi, masalan, yalpi milliy mahsulotning tushib ketishi, kapitalning «oqib ketishi» va boshqalar.

Aniq bir vaziyatni baholashda xalqaro moliya institutlari davlatning tashqi qarzi bilan uning YaMMni solishtirish mezonidan foydalanishadi. 1970-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning katta guruhini tashqi qarzi 10 foizdan (YaMMni 10 foizi) oshmagan, 1986-yilga kelib bu ko'rsatkich oxirgi o'n besh yil ichidagi eng katta miqdorga, ya'ni 38 foizga yetdi. Bunday holat hozirgi paytda yanada yuqori poizni tashkil etmoqda. 2017-yilda AQShning tashqi qarzi YIMga nisbatan 101 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Buyukbritaniyada 396, Germaniyada 159, Yaponiyada 46, Lyuksemburgda 3411 foizga yetgan.³³ Ushbu holat qarzdor-mamlakatlarning kreditorlarga yuqori darajada bog'lanib qolganidan dalolat beradi.

Tashqi qarzdorlikning kam ahamiyat kasb etmagan boshqa bir ko'rsatkichi mamlakat YaMMining qarzga xizmat ko'rsatish uchun sarflaydigan nisbiy ulushi hisoblanadi. Agar bu indeks 5 foizdan oshib ketsa, qarz yuki og'ir hisoblanadi. Qarzdorning qarzni yopish imkoniyatlari uning eksport imkoniyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun ekspertlar holatni tahlil qilishda qarzning eksportga nisbati va qarzlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar (bu qarzga xizmat ko'rsatish me'yori – QXM ham deb ataladi) kabi ko'rsatkichlardan ham foydalanishadi. QXM 20 foizdan yuqori

bo'lganda to'lov grafigini buzilishi va qarzdorlik muammosini paydo bo'lishi xavfi tug'iladi.

Tashqi qarzdorlik inqirozi boshlanganligini bildiruvchi mamlakat tomonidan o'zining to'lov qobiliyatini yo'qotganligi haqida bayonoti yoki hukumatning xalqaro tashkilotlarga o'z qarzlari ko'p tomonlama asosda tartibga solish maqsadida rasmiy murojaati bevosita signal bo'lishi mumkin. Bunday holatning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari nihoyatda noqulaydir: konvertirlangan valyuta tanqisligi, importning kamayishi, inflyatsiya, ishlab chiqarishning orqaga ketishi va oxir-oqibat aholi turmush tarzini pastlashi hamda siyosiy noturg'unlikni kuchayishiga olib keladi.

Tashqi qarzdan qutulish yo'llari

U yoki bu mamlakatning tashqi qarzdorlik vaziyatidan chiqib ketishida uning iqtisodiyotini yuqori sur'atda rivojlanishi strategik ahamiyat kasb etadi. Aynan iqtisodiy rivojlanish hukumat va markaziy bankka kreditorlar bilan muvofiqlashtirilgan tashqi qarzlarni to'lash rejimini tiklash uchun yetarli miqdorda valyuta-moliya resurslarini safarbar qilish imkoniyatini beradi. Bunda qarzdor tomonidan o'z iqtisodiy siyosatini XVF, Umumjahon banki, Parij klubi va bir qator e'tiborli xalqaro tashkilotlar bilan muvofiqlashtirish majburiyatini olishi katta ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni hal etishning aniq bir usullari nuqtai nazaridan quyidagilarni qayd etish mumkin:

- *Qarzni restrukturizatsiyalash — kreditni to'lash muddatlarini foizlarni to'lashni*

³³ <http://finbazis.ru>

Jahinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

- orqaga surish orqali cho'zish («qisqa» kreditlardan «uzoq» kreditlarga o'tish);
- Qarz konversiyasi — qarz majburiyatlarini ikkilamchi bozorda likvidli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga aylantirish;
- Qarzni diskontlash — kreditor va qarz beruvchi o'rtasida kredit summasini yoki uning bir qismini o'chirish;
- qarzlamchi ikkilamchi bozorda sotish — bu XIMda 80-yilning o'rtalaridan buyon mavjud.

O'z-o'zidan tushunarliki, hozirgi sharoitda qarzdor-mamlakatlar tashqi qarzlardan bir tomonlama voz kechishdan qochishga intiladilar, chunki bu xorijiy investorlar ishonchini yo'qolishi va qarzdor moliyaviy halokatga olib kelishi mumkin.

XXIII bob. Xalqaro Iqtisodiyotda transmilliy korporatsiyalarning tutgan

o'rn

Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko'rinishlari

O'z tarkibiga bosh boshqaruvchi markaz orqali rivojlanishning umumiy strategiyasini ishlab chiqaruvchi va amalga oshiruvchi, ikki yoki undan ortiq mamiakatda xo'jalik birliklariga ega bo'lgan hamda katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniya mutaxassislar tomonidan transmilliy korporatsiya (TMK) nomini olgan.

Jahon iqtisodiyotining o'ziga xos «umurtqa pog'onasi» bo'lgan zamonaviy TMKlarning karakterli belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- *Ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatining katta qismini bosh shtab-kvartira joylashgan mamlakat iqtisodiy makoni chegarasidan tashqariga olib chiqish;*
- *Turli davlatlarda shaxobchalar, sho'ba va assotsiasiyalangan kompaniyalarning katta tarmog'ini shakllantirish;*
- *Iqtisodiy faoliyatni samarali bashoratlash va rejalashtirish sharoitida tashqi va ichki investitsion oqimlarni boshqarish;*
- *Kapitallar, ishchi kuchi, axborot ko'chishi (transferti)ning firma ichkarisidagi kanallarining ko'pligi.*

Ishlab chiqarish quvvatlarini va servis markazlarini jahonning turli hududlariga bo'lib-bo'lib joylashtirish (diversifikatsiyalash) bunday korporatsiyalarga xalqaro mehnat taqsimoti shartlari va ichki milliy bozor xususiyatlaridan

kelib chiquvchi ustunliklardan foydalanish hisobiga katta daromad olish imkoniyatini beradi.

Milliy kompaniyani xalqaro kompaniyaga aylanishiga konkret misol sifatida «Elektrolyuks» guruhini keltirish mumkin. «Elektrolyuks» elektr uskunalari ishlab chiqish va ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi ikki shved firmasining qo'shilish yo'li bilan 1912-yilda tashkil etilgan. 50-yillarda bu kompaniya avval Shvetsiyada so'ngra boshqa Skandinaviya mamlakatlarida ham yetakchi mavqega ega bo'ldi. Tayyorlanayotgan mahsulotlar nomenklaturasini uzluksiz kengaytirib borgan holda kompaniya G'arbiy Yevropada savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarini tarmog'ini yaratishga kirishdi. 80-yillarda «Elektrolyuks» o'z tuzilmasiga AQSh («Uayt Konsolideytid» elektr uskunalari ishlab chiqirish bo'yicha mamlakatda 3-o'rinda turardi), Germaniya («AYeG» - 1-o'rin), Italiyaning («Zanussi» - 1-o'rin) bir necha yirik kompaniyalarini qo'shib oldi. Hozirgi paytda uni jahonning 75 mamlakatida bo'limlari mavjud, bu TMKning personali 110 ming kishidan ortiq, yillik aylanmasi 16 mlrd. doll. dan oshadi.

TMKning namunaviy tuzilmasini *bosh kompaniya* (ushbu mamlakatda ro'yxatdan o'tgan korporatsiyaning bosh shtab-kvartirasi) va boshqa davlatlarda joylashgan *shaxobchalar, sho'ba va assotsiasiyalashgan kompaniyalar* tizimi. Ko'pincha TMK tuzilmasiga *moliya-kredit muassasalari*

(banklar, investitsiya fondlari va sug'urta kompaniyalari) ham kiritilish mumkin. Bundan tashqari yirik xalqaro korporatsiyalar odatda o'zining muhofaza xizmati, kadrlar treningi, transport va boshqa xizmatlariga ega bo'lishadi.

Shaxobchalarning sho'ba korxonalaridan farqi shundaki, ular o'z balansi va iqtisodiy mustaqillikka ega emas. Assotsiasiyalashgan kompaniyalarga kelsak, ular bosh kompaniya tomonidan odatda shartnoma munosabatlari tizimi (pudrat, trast kabilar) orqali nazorat qilinadi.

TMK ko'rinishlari tanlangan mezonga bog'liq ravishda turlicha sinflanadi. Eng keng tarqalgan alomat xalqaro korporatsiyaning bosh tuzilmasi nizom fondidagi kapital ulushini belgilovchi milliy mansublik belgisi hisoblanadi. Bu holatda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- *monomilliy kompaniyalar (milliy kompaniya, masalan — Shveysariyadagi "Nestle" konsemi);*
- *multimilliy kompaniyalar (baynalmilal kompaniya, masalan — ingliz-golland "Royal Dutch Shell" korporatsiyasi);*
- *konsorsiumlar (uzoq muddatli kapital sig'imli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun bir necha korporatsiyalar aktivlarining bir qismini vaqtinchalik maqsadga yo'naltirilgan birlashtirish).*

Jahon iqtisodiyotida qayd etilgan guruhlarining solishtirma og'irligi doimo o'zgarib turadi. 70-yillarda monomilliy TMKlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, 80-yillarga kelib konsorsiumlar paydo bo'ldi. So'nggi o'n yil ichida raqobat kurashining kuchayishi va global bozorlardagi inqirozli vaziyatlar tufayli

milliy kompaniyalar bir-biri bilan qo'shilib multimilliy TMKlarga aylandi.

TMKning jahon iqtisodiyotida tutqan o'rni va ahamiyati

Transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. 1939-yilda mutaxassislar taxminan 300 ta ingliz, amerika, frantsuz, german va yapon TMKlari borligini hisoblashgan. 1985-yilda ularning soni 12 mingga yetgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib dunyoning 150 mamlakatida 270 ming shaxobcha va sho'ba kompaniyalariga ega 40 ming bosh kompaniya mavjud deb baholanmoqda.

TMKlar hissasiga to'g'ri investitsiyalarning 90 foizi, yangi texnikaga patent va litsenziyalarning 80 foizi, tashqi savdo aylanmasining 63 foizi va jahon sanoat ishlab chiqarishining taxminan 50 foizi to'g'ri keladi.

XIMning muhim sohalarini nazorat qiluvchi taxminan 500 ta TMK jahon iqtisodiyotining o'ziga xos o'zagi hisoblanadi. Aynan ana TMKlar xalqaro ishlab chiqarish omillarini ayirboshlashning samarali kanallarini yaratishadi, bunda axborotlar va yuqori texnologiya ayirboshlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik korporatsiyalar tuzilmalarida ilmiy-tadqiqot yo'nalishida unumli faoliyat olib bora oladigan eng kuchli mutaxassislar ishlashmoqda.

BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha komissiyasi (YUNKTAD) tomonidan har yili kompaniyalar aksiyalarining bozorda kapital-lashtirilishini baholash orqali o'tkaziladigan

reytingda quyidagi oʻnta kompaniya yetakchilik qilishmoqda (23.1-jadvalga qarang).

Morgan Chase, ExxonMobil, PetroChina va General Electric band etishgan.

23.1-jadval. Dunyoning yirik kompaniyalari

Reytingdagi mavqei 2002 y.	Kompaniya	Bosh ofis qayd qilingan mamlakat
1	Vodafone	Buyukbritaniya
2	General Electric	AQSh
3	Exon Mobil	AQSh
4	Vibendi	Fransiya
5	General Motors	AQSh
6	Royal Dutch/Shell Group	Niderlandiya, Buyukbritaniya
7	British Petroleum	Buyukbritaniya
8	Toyota Motor	Yaponiya
9	Telefonika	Ispaniya
10	Fiat	Italiya

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, yetakchi oʻrinlarni Amerika, Gʻarbiy Yevropa va Yaponiya TMKlari egallab turishibdi. "Faynenshnl Tayme" eng ishonchli va eʼtiborli yevropa TMKlari qatoriga «ABB» Shvetsiya-Shveytsariya mashinasozlik kontsernini, Buyukbritaniyaning «British Eyrueyz» kompaniyasini, Shveytsariyaning «Nestle» guruhini, «BMV» nemis avtomobil kontsernini va «Simens» elektrotexnika korporatsiyasini kiritadi.

2018 yil 25 mayda Forbes jahonning eng yirik 2000 ta kompaniyasi roʻyxatini eʼlon qildi. Xitoy banki ICBC.B toʻrt yildan beri kuchli uchlikdan joy olib kelmoqda. Ikkinchi va uchinchi oʻrinlarni Xitoyning yana ikki banki China Costruction Bank va Agricultural Bank of China egallashgan. Ulardan keying oʻrinlarni Bank of China, Berkshire Hathaway, JP

TMK faoliyatining yangi koʻrinishlari: lizing va faktoring

TMKlar iqtisodiy faoliyatining anʼanaviy koʻrinishlari bilan bir qatorda keyingi yillarda xoʻjalik yuritishning lizing va faktoring kabi yangi koʻrinishlari ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Moddiy boyliklar, eng avvalo, mashina, qurilmalar va texnologiyalarni ijaraga olishning jahon amaliyotida muddatiga bogʻliq ravishda toʻrt xil variantdagi operatsiyalar xosdir: reyting (bir necha kundan yarim yilgacha), charter (bir yilgacha), xayring (bir yildan uch yilgacha) va lizing (20 yilgacha). Lizingning mohiyati (ingl. to lease — ijaraga olmoq) mashina, qurilmalar, texnologiya va koʻchmas mulkni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun uzoq muddatga ijaraga berishdan iborat. Lizingni eslatuvchi bitimlar qadimdan maʼlum boʻlsa-da, birinchi lizing kompaniya 1952 yilda amerikalik G.Shonfeld tomonidan tashkil etilgan.

Yigirma yetti yildan soʻng, 1979 yilda hozirgi paytda 20 davlatning 1000 dan ortiq kompaniyalarini birlashtiruvchi Yevropa milliy lizing assotsiasiyalari federatsiyasi vujudga keldi. Lizing boʻyicha jahon aylanmasining 50 foizdan koʻprogʻi AQShga toʻgʻri keladi. Eng yirik lizing kompaniyalari AQShning "Djeneral Motors Akseptans" va "Djeneral Elektrik Kepital" kompaniyalari ekanligi bejiz emas. Yetakchi oʻnlikka AQShning beshta, Buyukbritaniyaning ikkita, Yaponiya, Fransiya va Germaniyadan bittadan vakil kirishgan.

Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, uzoq muddatli ijaraga olish operatsiyalari sanoat investitsiyalarining Avstraliyada 33 foizini, AQShda - 30, Buyukbritaniyada - 18, Shvetsiya va Fransiyada - 15, Germaniya va Ispaniyada - 14 foizini tashkil qiladi. Xorijiy lizing kompaniyalarning sohalar bo'yicha ixtisoslashuvini baholash orqali quyidagi manzaraga ega bo'lamiz: bu operatsiyalarning 33,3 foizi ofis qurilmalariga, 22,3 foizi yuk tashish va yengil avtomobillarga, 11,1 foizi stanok va mexanizmlarga to'g'ri keladi.

1988 yil may oyidan beri Ottava Anjumani qantashchilari (63 mamlakat) tomonidan imzolangan «Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risida konvensiya» jahon bozorida lizing operatsiyalarining huquqiy asosi bo'lib hisoblanadi. Ana shu anjumanda lizing tushunchasi ishlab chiqilgan. Lizing — bu shunday operatsiyaki, uning natijasida lizing beruvchi lizing oluvchi ixtiyoriga uning buyurtmasiga binoan o'zining oldindan sotib olingan moddiy mulkni amortizatsiyani hisobga olgan holda ma'lum bir belgilangan to'lov orqali ayirboshlaydi. Har qanday harakatdagi yoki ko'chmas mulk lizing ob'ekti bo'lishi mumkin (bozorda erkin muomalada bo'lishi mumkin bo'lmagan mulk, masalan harbiy texnika bundan istisno).

Mulkni tayyorlovchi (sotuvchi) va xaridor, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish orqali mulkni ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) va mulkdan foydalanuvchi (lizing oluvchi)lar lizing sub'ekti sifatida chiqishi mumkin. Lizing beruvchi sifatida moliya-kredit muassasasi, maxsus lizing kompaniyasi, ta'xis hujjatlarida faoliyatning ushbu turi ko'zda tutilgan har qanday firma faoliyat olib borishi mumkin.

Lizing to'lovlari — bu lizing operatsiyasi ob'ektidan foydalanilganlik uchun to'lov sifatida doimiy badallardir. Shartnomada ishtirokchilar tomonidan muvofiqlashtirilgan lizing transferti jarayoni mutanosib, o'sib boruvchi va kamayib boruvchi to'lovlarni nazarda tutishi mumkin.

Lizing operatsiyasining mohiyati quyidagidan iborat. Qurilmalar yoki texnologiyalarga ehtiyoj sezgan, biroq yirik aylanma mablag'larga ega bo'lmagan xo'jalik sub'ekti ishlab chiqaruvchi (etkazib beruvchi)dan zarur mulkni sotib olish uchun moliyaviy resurslarga ega bo'lgan lizing kompaniyaga murojaat qiladi. Lizing oluvchi va lizing kompaniya o'rtasidagi shartnoma natijasida, lizing kompaniya zarur qurilmani bozordan qidirib topadi, sotib oladi va lizing oluvchiga doimiy to'lovlarga ayirboshlash orqali ijaraga beradi. Shartnoma harakati muddati tugagandan so'ng mulk foydalanuvchi ixtiyorida qolishi yoki 100 foizli amortizatsiya tufayli hisobdan chiqarilishi mumkin.

Yirik loyihalarni amalga oshirishda lizing operatsiyalari ishtirokchilari banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsion fondlar va boshqalar ishtiroki hisobga ko'payadi.

Lizingning ustunliklariga quyidagilar kiradi:

- *qurilmalar yetkazib beruvchilar uchun - savdo bozorini kengayishi;*
- *lizing beruvchi uchun - kredit bilan solishtirgan qarz mablag'larining qaytib kelmaslik xatarini kamayishi, ssudani uzishning tez moslashuvchan sxemasi, soliq imtiyozlari, ijarachiga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish imkoniyati;*
- *lizing oluvchi uchun - aylanma mablag'lar muammosini hal etish, vaqtincha foydalanishga olingan mulkning ma'naviy va jismoniy eskirishi xatarini kamayishi,*

solliqqa tortiladigan foydaning kamayishi (lizing to'lovlari ishlab chiqarish harajatlarga kiradi), mijozlarga servis xizmati ko'rsatish sohasini kengayishi.

Shunday bo'lsa-da, lizingning ma'lum kamchiliklari ham bor: mulkning tez vaqt oraliqida ma'naviy eskirish xatari lizing beruvchi zimmasida bo'ladi, ijarachining lizing to'lovlari qiymati qurilmaning xarid bahosidan yuqori bo'ladi, lizing oluvchi lizing beruvchi (kreditor)ga tobe bo'lib qoladi. Biroq lizingning ijobiy jihatlari salbiy jihatlardan ko'proq, albatta.

Mutaxassislarning hisoblashlaricha, turli omillarning ta'siriga ko'ra lizingning 30 ga yaqin turi mavjud:

- *ob'ektiga ko'ra — harakatli va ko'chmas;*
- *lizing ob'ektini berish xarakteriga ko'ra - moliyaviy (shartnoma harakati muddatini buzish mumkin emas, bu muddat mulkning amortizatsiyasi muddatiga teng). Moliyaviy lizing ikki variantda uchraydi: standart lizing (klassik, uch tomonlama lizing), joriy lizing (lizing beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlarni nazarda tutuvchi shartnoma muddati mulk amortizatsiyasi davridan sezilarli darajada kam) va yetkazib beruvchiga lizing (sotuvchi va ijarachi roli qo'shilganda);*
- *lizing ob'ektini taqdim etish sohasida - ichki va tashqi lizing. Tashqi lizing eksport, import va sublizinglarga bo'linadi (Sublizingda ikki va undan ortiq lizing kompaniyalari ishtirok etadi);*
- *lizing beruvchi va lizing oluvchining o'zaro munosabatlarga ko'ra - sof lizing (faqat lizing ob'ektini ijaraga olish) va*

kengaytirilgan lizing (ijaraga olish qo'shimcha xizmatlar bilan birgalikda amalga oshiriladi).

- *foydalanish maqsadlariga ko'ra - shaxsiy (ob'ektni faqat lizing oluvchi kompaniya ixtiyoriga yetkazib berish) va lizing-blank (qurilmadan sho'ba korxonalar va assotsiasiyalashgan firmalar foydalanishi mumkin);*
- *lizing operatsiyasi ishtirokchilari soniga ko'ra - bevosita (ikkidan oshiq emas), uch tomonlama, klassik «alohida» lizing (uchtadan ko'p);*
- *ijaraga berilayotgan qurilmani bosqichma-bosqich almashtirish imkoniyatiga bog'liq ravishda - revolver va revolvermas lizing.*

Lizingning «liz-bek» (qaytuvchi) va «bay-bek» (kompensatsion) kabi maxsus ko'rinishlari ham ma'lum qiziqish uyg'otadi. «Liz-bek»da kompaniya o'z mulkini keyinchalik ijaraga olish maqsadida sotadi. «Bay-bek» esa ijaraga olingan qurilmada ishlab chiqarilgan mahsulotni yetkazib berish bilan majburiyatni to'lashni nazarda tutadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o'z o'rnini topayotgan operatsiyalarning yana bir ko'rinishi TMKga xos bo'lgan faktoring hisoblanadi. U firmalar tomonidan 60-yillardan beri qo'llaniladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, faktoring operatsiyalari ko'lami keyingi o'n - o'n besh yil ichda ko'p marotaba oshidi.

Faktoring — bu bank yoki faktor-kompaniyalarning mahsulot yetkazib beruvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblarda yetkazib beruvchining moliyaviy talabini qarzni keyinchalik xaridordan undirib olish yo'li bilan to'lash vositasidagi jami vositachilik

operatsiyalidir. Ishonchnoma orqali tijoriy faoliyat ham shunga kiradi.

Ilg'or g'arb mamlakatlari bozorlarida faktor-kompaniyalar mijozlarga to'lovlar, yetkazib berish va majburiyatlarni nazorat qilish bo'yicha keng ko'lamdagi faktoring xizmatlarini taklif qilishmoqda. Faktoring xizmatlarini ko'rsatish 1988 yil may oyida Ottava Anjumani qantashchilari tomonidan imzolangan «Xalqaro faktoring to'g'risida konvensiya» doirasida tartibga solinadi. Faktoring kompaniyalarining birtashish jarayoni shu bilan xarakterlanadiki, so'nggi yillarda ulaming umumiy sonining (40 ta) 95 foizi shtab-kvartirasi Amsterdamda joylashgan global assotsiasiyaga birlashishdi va o'z faoliyatlarida O'zaro faktoring qoidalari Nizomiga amal qilishadi. Faktoring operatsiyalaridan yirik eksportyor-firmalar eng ko'p foyda ko'rishadi, ular to'lamaslik xatarini kamaytirishadi, qo'shimcha xarajatlarni tejashadi va mijozlar talabini inkassatsiya qilish muddatini qisqartirashadi.

Bo'lim bo'yicha rezyume

Jahon kapital bozorining zamonaviy ko'rinishi XIX-XX asr bo'sag'asida shakllandi. Bu davrda kapitalarni ichki muomaladan olib maksimal darajada foyda olish maqsadida xorijga chiqarish uchun sharoitlar yetildi. Rivojlangan kapital bozorlari jahon iqtisodiyotida vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslar migratsiyasi ko'rinishlari va usullarni differentsiyalash bilan birgalikda kuzatiladi. Bunda beshta o'zaro bir-biri bilan bog'liq tuzilmadan iborat Umumjahon banki muhim ahamiyatga ega. To'g'ri va portfel

Faktoringning asosiy ko'rinishlari ichida quyidagilarni keltirish zarur:

- *Ichki va tashqi (xalqaro);*
- *Bevosita (bitta faktor-kompaniyaning mavjudligi) va bilvosita (ikki faktor-kompaniyaning faoliyat olib borishi: eksport va import bo'yicha);*

Oshkor (agar eksportyor olib chiqilgan tovar uchun to'lovni xaridordan talab qilish huquqidan voz kechsa) va *oshkormas* (agar faktoring haqida kelishuv haqida xorijiy xaridorga aytilmasa).

O'z navbatida oshkor faktoringning tipik ko'rinishlari: xaridor qarzlarni oldi-sotdisi operatsiyalari va eksportyorning kredit operatsiyalarini boshqarish, oshkormas faktoringga hisoblarni tashlamalar bilan sotib olish (hisoblarni diskotlash) va eksportyor tomonidan tovarlarni xorijiy xaridorga olib sotish.

Investitsiyalar jahon kapital bozorining asosini tashkil etadi. Zamonaviy shart-sharoitlardagi to'g'ri kapital qo'yilmalarining eng yetakchi tamoyili TMKning faoliyati ko'lamini kengayishi bilan bog'liq. Xorijdan moliyaviy resurslar jalb qilishda zaruriy iqtisodiy omillar asosida ta'minlanuvchi mamlakatdagi investitsiya muhiti katta rol o'ynaydi.

Investitsiyalar jug'rofiy tarkibidagi o'zgarishlar bir tomondan rivojlangan iqtisodiyotlarning rolini ortib borishiga, ikkinchi tomondan jahon bozoriga yangi industrial mamlakat-

larning katta guruhini va sobiq sotsialistik davlatlarning kirib kelishi bilan bogʻliqlik, bu xalqaro raqobatni kuchaytiradi hamda TMKlarga turli mamlakatlar iqtisodiyotlariga toʻgʻri kapital qoʻyilmalari koʻlamini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Investitsiya oqimlarining taʼsiri ham kapital olib chiquvchi, ham kapital olib kiruvchi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun yetarlicha darajada rang-barang va ziddiyatlidir. Bunday taʼsiring aniq natijasi ichki iqtisodiy vaziyat va jahon bozorida tashqi konʻyunkturaviy omillar bilan belgilanadi. Hozirgi paytga kelib, netto-eksportyor yoki netto-importyor boʻlmagan biror-bir iqtisodiyot qolmadi, biroq alohida olingan mamlakatni u yoki bu kategoriyaga kiritish maʼlum vaqt oraligʻida olib kirilgan, olib chiqilgan investitsiyalar balansiga bogʻliq.

Xalqaro kredit Xining muhim tarkibiy qismi boʻlib, ishlab chiqarish jarayoni va tovar muomalasi sohasini zarur moliyaviy resurslar bilan taʼminlash boʻyicha turli vazifalarni bajaradi. TIF amaliyotida kredit munosabatlarining asosiy tamoyillari tezkorlik, qaytarishlik va toʻlovlilikka amal qilishni nazarda tutadi, ayni vaqtda kredit operatsiyaarini taʼminlash va kafolatlash asosiy oʻrinda turadi. Xalqaro kredit koʻrinishlari nihoyatda xilma-xil va qarz berishning aniq maqsadlari va shartlari bilan belgilanadi. Jahon kredit markazlari ichida yevrobozor salmoqli oʻringa ega boʻlib, u yerda obligatsiya qarzlari koʻrinishidagi sindikatlashtirilgan rollover kreditlar katta oʻrinni egallaydi.

Tashqi qazdorlik inqirozi - koʻpchilik rivojlanayotgan, soʻnggi yillarda esa oʻtish davri iqtisodiyotli mamlakatlar tomonidan xorijdan olingan qarzlarga xizmat koʻrsatish va

ularni toʻlash muddatiga rioya qilmaslik sifatida XI muhitining 70-90 yillardagi oʻziga xos tomonini koʻrsatib beradi. Inqiroz asosida strategik va konʻyunkturaviy sabablar kompleks yotadi, uning mohiyati toʻlovlarni foizlari bilan oʻz vaqtida toʻlash uchun zarur boʻlgan likvidli resurslarni mavjud emasligidadir.

Jahon iqtisodiyotida kapital migratsiyasi jarayonini tushuntirishda zamonaviy slyosiy iqtisodiyotda ikkita asosiy yondashuv mavjud: bozor iqtisodiyoti va bozorga asoslanmagan iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondoshish. har ikki yondashuvning mohiyati XX asr davomida olimlar tomonidan yaratilgan kapital eksporti toʻgʻrisidagi koʻplab tamoyillar asosida yotadi. Jahon iqtisodiyotida kapital harakatining asosiy tamoyillariga ingliz iqtisodchisi Dj.M.Keyns va Chikago maktabining lideri M.Fridmenning boshqariladigan bozor iqtisodiyoti toʻgʻrisidagi qarashlari yigʻindisi boʻlgan xarid qilish qobiliyati parteti nazariyasini koʻrsatish mumkin.

TMK ulkan kapitalli xoʻjalik faoliyatini tashkil etishning yetakchi koʻrinishi sifatida Xida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy bosqichda TMK tuzilmasi bosh kompaniya va jahonning turli mamlakatlarida joylashgan assotsiatsiyalashgan firmalar shoʻba korxonalarining butun bir filiallar tarmogʻini oʻz ichiga oladi. TMKlar faoliyatining yangi koʻrinishlari keng koʻlamdagi tovar, xizmat va texnologiyalar nomenklaturasi boʻyicha xalqaro lizing va faktoring operatsiyalarini oʻz ichiga oladi.

Erkin savdo hududlari zamonaviy Xida koʻzga tashlangan yangi va juda muhim hodisa boʻlib, ochiq iqtisodiyotga oʻtishni, kapital kiritish kanallarini kengayishini va axborot-

Jahon qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

texnologiyalar ayirboshlashni rag'batlantiradi. EIHlarning 25 dan ortiq turi mavjud. Ishlab chiqarish ixtisoslashuvi nuqtai nazaridan eng

ahamiyatli EIHlar - savdo, sanoat, texnika-taraqqiyot va servis hududlaridir.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- *Jahon kapital bozorining vujudga kelish sabablari qaysilar?*
- *Zamonaviy JKBning qziga xos belgilarini ayting.*
- *Kapital olib chiqishning qanday asosiy ko'rinishlarini bilasiz?*
- *Umumjahon bankining tuzilmasi va vazifalari qanday?*
- *To'g'ri va portfel investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari qanday?*
- *«Investitsion muhit» atamasi nimani anglatadi?*
- *Hozirgi paytda jahon kapitallar bozorida qaysi tamoyillar ustun?*
- *Kapital eksporti va importining jug'rofiy tuzilmasi qanday?*
- *Investitsiya oqimlari tizimida O'zbekistonning roli va o'rnini qanday baholash mumkin?*
- *Kapital eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlarga kapital migratsiyasining ijobiy tomonlari qaysilar?*
- *Xalqaro investitsiyalashning salbiy jihatlari tushuntiring.*
- *Xalqaro korporatsiyalar faoliyati ko'lami qanday?*
- *TMK tuzilmasiga tavsif bering.*
- *TMKlarning qanday ko'rinishlarini bilasiz?*
- *Erkin iqtisodiy hududlarning zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati qanday?*
- *EIH ko'rinishlariga tavsif bering.*
- *Xalqaro kreditning mohiyati va paydo bo'lishining sabablarini tushuntiring?*
- *Ssuda kapitali bozorida kreditlashning tamoyil va shartlari qanday?*
- *Xalqaro kreditning asosiy ko'rinishlariga tavsif bering.*
- *Ssuda kapitali yevrobozorining ahamiyati nimalardan iborat?*
- *Tashqi qarzdorlik muammosining mohiyati nimada?*
- *Tashqi qarzdorlik muammosini hal etish yo'llari qanday?*
- *Kapital migratsiyasi jarayonini tushuntirishga ikki xil yondashuvning mohiyati nimada?*
- *Kapital eksportining asosiy nazariyalariga qisqacha tavsif bering.*

Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar

1. Mamlakatlar o'rtasida kapital erkin harakat qiladi. Qanday holatda tovarlar savdosi hajmi kamayib ketishi mumkin?

2. Xalqaro kapital harakati yo'lidagi to'siqlarning olib tashlanishi barcha ishtirokchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish

sur'atlarining ko'tarilishiga olib keladi. Bu tasdiq to'g'rimi? Nima uchun?

3. O'xshashlik va farqli jihatlarni tavsiflang:

a) Xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va portfel investitsiyalar o'rtasidagi;

b) Xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va xalqaro qarz berish o'rtasidagi;

c) Xorijiy portfel investitsiyalar va xalqaro qarz berish o'rtasidagi.

4. Xalqaro korporatsiyalar (transmilliy korporatsiyalar)ga taalluqli barcha asosiy ta'riflarni ayting.

TO'RTINCHI BO'LIM. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

XXIV bob. Xalqaro valyuta hisob-kitob munosabatlari

Xalqaro iqtisodiyot tizimida valyuta hisob-kitob munosabatlarining mohiyati

Xalqaro hisob-kitoblar — turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chiquvchi pul talablari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va tartibga solish jarayonini aks ettirgan holda tovar ishlab chiqarish va muomalasining globalashtirish yo'lida vujudga keladi. Ular ishlab chiqarish va iste'mol sohasidan deyarli alohida bo'lgan tovarlar, xizmatlar va kapitallar xalqaro aylanmasida qiymatlar harakatini aks ettiradi. Xalqaro-hisob-kitoblar asrlar davomida sinovdan o'tgan va ham huquqiy hujjatlar, ham oddiy qoida me'yorlari bilan mustahkamlangan to'lovlarni amalga oshirish shartlari va mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro hisob-kitoblar asosan naqdsiz to'lov vositasida banklar orqali xorijiy shaxobchalari va korrespondent, ya'ni ular o'rtasida shartnoma munosabatlari o'rnatish yordamida amalga oshiriladi. Korrespondent bitimlarida hisob-kitoblar tartibi, komission to'lovlar miqdori va zaruriyatga qarab hisoblarni to'ldirish usullari aniqlanadi.

Xalqaro hisob-kitoblar amaliyoti milliy valyutalar, xalqaro valyuta birliklari va oltindan foydalanishni nazarda tutadi. 1914-1918

yillardagi birinchi jahon urushidan oldin «oltin standarti» deb nomlangan tizim hukmronlik qilgan, ingliz funt sterlingi 80 foizga yaqin xalqaro hisob-kitoblarga xizmat qilgan, oltin esa to'lov balansining passiv qismini yopish vositasi sifatida xizmat qilgan. AQShning iqtisodiy qudratining ortishi bilan jahon bozorida 80- yillarda amerika dollarining ulushi 70-75 foizga yetdi. Biroq 90-yillarga kelib, bu ko'rsatkich 55-60 foizgacha kamaydi, chunki jahon bozoridagi hisob-kitoblarda boshqa mamlakatlar valyutalari: nemis markasi, yapon yenasi, Shveysariya franki keng miqyosda foydalanila boshlandi. Bundan tashqari 70-yillar xalqaro hisob valyuta birliklari: maxsus qarz olish huquqi (ingl. - Special Drawing Rights (SDR)) va yevropa valyuta birligi (ingl. — European Currency Unit (ECU)) kabilarning paydo bo'lishi bilan ajralib turdi.

1967-1969 yillarda tashkil etilgan maxsus qarz olish huquqi Xalqaro valyuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko'rinishidagi xalqaro aktivlar (ya'ni zahira va to'lov vositalar) bo'lib, ularning miqdori XVFga a'zo-mamlakatlarning kvotalariga mos keladi. Bu mamlakatlar ekvivalent bermasdan oltin yoki milliy valyutada ma'lum summadagi SDRga ega bo'lishadi. Xalqaro aktivlardan foydalanish muddati vaqt bo'yicha chegaralanmagan. SDR zahiralari XVF a'zolari bo'lgan mamlakatlar tomonidan o'zaro hisob-kitoblarda erkin

foydalanilishi mumkin. SDR asosan mamlakat to'lov balansi va valyuta kursini tartibga solishga mo'ljallangan. Dastlab SDR 0,888671 gramm oltinga tenglashtirilgan, bu AQSh dollarining o'sha davrdagi oltinda ifodalangan qiymatiga mos kelgan. 1974 yildan buyon SDR qiymati valyuta savati yordamida o'rnatiladi, u 1981 yilgacha har birining jahon savdo aylanmasida tashqi savdosi 1 foizdan kam bo'lmagan 16 ta davlat valyutasidan tashkil topgan. Keyinchalik hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun valyuta savatiga faqat beshta mamlakat valyutasi kirgan, AQSh dollari - 39 foizga, nemis markasi - 21, yapon yenasi - 18, ingliz funt sterlingi va fransuz franki 11 foizdan ulushga ega bo'lishgan.

O'tgan o'ttiz yil ichida SDR ikki marta: 1970-1972 yillarda 9,3 mlrd. doll. va 1979-1982 yillarda 21,4 mlrd. doll. miqdorda emissiya qilingan. Biroq 1981 yildan keyin XVF a'zolari 38 taga yetkach, XVF direktorlar kengashi qo'shimcha 28,9 mlrd. doll. miqdorda SDR chiqarishga qaror qildi. Bu 21,4 mlrd. SDRga mos kelar edi. Uzoq vaqt davomida SDRni taqsimlashning turli loyihalarni muvofiqlashtirish natijasida XVFnig barcha a'zolariga bir xil hajmda, ya'ni taxminan milliy kvotaning 30 foizi atrofida SDR berishga qaror qilindi.

SDRdan farqli ravishda, Yevropa valyuta birligi hududiy hisob-kitob birligi hisoblanadi, zero 1979 yilda joriy etilgach, uning ahamiyati va roli so'nggi o'n besh yil ichida sezilarli darajada ortib bordi va XIMga ta'siri ko'hna qit'a chegarasidan tashqariga yoyilib ketdi. EKYU valyuta hamkorligi va tijoriy banklar Yevropa fondining hisoblaridagi naqdsiz to'lov yozuvlari ko'rinishida Yevropa Ittifoqining asosiy valyutasi sifatida xizmat qiladi.

EKYU (evro)ning qo'llanilish sohasi nafaqat davlat tashkilotlari, balki xususiy moliya-kredit muassasalarini ham o'z ichiga oladi. Bu hisob-kitob birligining boshqa bir xususiyati shundaki, yilning har bir choragi boshida qilinadigan EKYU summasi Yelga a'zo-mamlakatlar oltin-valyuta zahiralarning o'zgarishiga muvofiqlashtiriladi, chunki EKYU (evro)ning 50 foizi oltin, qolgan 50 foizi Yevropa Ittifoqining milliy valyutalari bilan ta'minlanadi. Yevropa valyuta birligini baholash bitimning 15 ta ishtirokchi-davlatlari valyutasidan tarkib topgan savat asosida amalga oshiriladi. Yevro kursini aniqlashda mamlakatning ulushi uning iqtisodiy qudrati va tovar aylanmasidagi hajmi darajasiga qarab 30,4 foizdan (nemis markasi) 0,3 foizgacha (Lyuksemburg franki) tebranadi. Markaziy kurslarni qayta ko'rish besh yilda bir marta yoki Yel har bir a'zosining talabiga ko'ra o'tkaziladi.

1999 yilda EKYU yangi yagona Yevropa valyuta birligi yevroga a'loqashtirildi, yevro 2002 yildan so'ng nafaqat naqdsiz to'lovlar, balki naqd ko'rinishga ham ega bo'ladi.

Xalqaro hisob-kitoblarda oltinning tutgan o'rniga kelsak, u XX asr davomida to'lov vositasi sifatida faqat jahon urushlari va global iqtisodiy inqirozlar (mas. 1929-1933 yillardagi Buyuk tushkunlik) keltirib chiqargan favqulodda holatlarda foydalanildi. 70-yillarda yuz bergan oltin demonetizatsiyasi va SDR va ECU emissiya qilina boshlangandan so'ng mamlakatlar rasmiy oltin zahiralarning bir qismini jahon bozorlarida tashqi savdo bitimlari va kredit munosabatlari bo'yicha xalqaro majburiyatlari ifodalangan valyutalarga ayirboshlash uchun sota boshlashdi.

Hozirgi paytda eng ko'p oltin zahirasiga AQSh markaziy banki ega (8000 tonnadan ko'proq). Shuni yodda tutish kerakki, oltin zahiralari hajmi faqatgina mamlakatning iqtisodiy quvvatiga emas, balki milliy oltin qazib olish darajasiga ham bog'liqdir.

"Valyuta" tushunchasi mohiyati

XIMning muhim sohalaridan biri sanalgan mamlakatlarda valyuta munosabatlari pul birliklaridan to'lov-hisob-kitob vositasi sifatida foydalanishga asoslangan. Shu bilan bog'liq ravishda milliy va jahon valyutalari, shuningdek, universal hisob-kitob valyuta birliklarini ajratib ko'rsatish mumkin. «Valyuta» (ital. valuta — "baho, qiymat") tushunchasi ko'p ma'noga ega bo'lib, bir tomondan ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta) bo'lsa, ikkinchi tomondan bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari, va nihoyat keyingi o'ttiz yil ichida Xalqaro valyuta fondi va Yevropa valyuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklarini bildiradi.

Valyuta munosabatlari milliy va xalqaro miqyosda olib boriladi. Bunda valyuta kursi va pariteti bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Valyuta kursi — bu milliy valyutalar o'rtasidagi nisbat, boshqacha qilib aytganda, bir mamlakat valyutasi bahosini xorijiy pul birliklarida ifodalinishidir. Shunday qilib, nisbiy miqdor bo'lgan valyuta kursi o'z-o'zidan, abstrakt holda mavjud bo'lishi mumkin emas:

masalan, so'mning dollarga kursi, markaning frankka kursi va boshqalar.

Paritet — bu milliy valyutalar o'rtasidagi ularda rasmiy ravishda belgilangan oltin miqdori asosida olingan nisbat. 70-yillarda oltinning demonetarizatsiyalanishidan keyin faqatgina rasman hisoblansa-da, valyuta sohasida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Xalqaro valyuta-moliya tizimining zamonaviy xususiyatlari

Zamonaviy jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT) - xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish ko'rinishidir. Uning tarkibiga *xalqaro to'lov vositalari (valyutalar), valyutalarni ayirboshlash jarayoni, konvertirganlik shartlari, hisob-kitob ko'rinishlari, jahon valyuta va oltin bozorlari tartibi (rejimi), valyuta muomalasini tartibga solish masalalari bilan shug'ullanuvchi turli global, hududiy va milliy tashkilotlar, moliya-kredit institutlari tarmog'i (banklar)* kiradi. JVMT faoliyatining tanazzulii rivojlanishining ma'lum paytlari uchun *jismoniy shaxslar* rolining ortib borishi xosdir.

JVMTning rivojlanish tarixi ob'ektiv iqtisodiy qonunlar yetakchi davlatlar oldiga milliy valyuta tizimlari doirasidagi siyosatni muvofiqlashtirish zaruriyatini qo'ygan paytlardan boshlanadi. Bu 1867 yildan boshlangan, ya'ni Parij anjumani ishtirokchilari oltinni yagona jahon puli sifatida tan olishdi. Parij

valyuta tizimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar edi:

- *u oltin-pul standartiga asoslangan edi;*
- *har bir valyuta ma'lum miqdordagi oltin bilan ta'minlangan edi;*
- *talab va taklif asosida, ammo yo'l qo'yilgan tebranish (1%) chegarasida erkin suzuvchi valyuta kurslari shakllandi;*
- *barcha xalqaro tijoriy operatsiyalar oltin bilan 100 foizli qoplandi.*

Biroq XX asming boshlariga kelib, oltin-pul standartining umri asta-sekin yakuniga yeta boshladi, zero u xo'jalik aloqalari ko'lamiga va bozor iqtisodiyotini tartibga solish shartlariga javob bera olmay qoldi. Parlj valyuta tizimiga hal qiluvchi zarba birinchi jahon urushi va 1918-1922 yillardagi siyosiy inqiroz tomonidan berildi, ya'ni urush va inqiroz tufayli barcha yirik davlatlar valyuta cheklashlarini joriy qilishga, banknotlarni oltinga ayirboshlashni to'xtatishga va harbiy harajatlarni qoplash uchun emissiyani keskin oshirishga majbur bo'lishdi. Natijada avvalgi valyuta tizimi o'rniga 1922 yilda yangi Genuya valyuta tizimi keldi, u oltinga qo'shimcha ravishda devizlarni - 20-30 yillardagi yetakchi davlatlar (Fransiya, Buyukbritaniya va AQSh)ning valyutalaridan foydalanishni nazarda tutar edi. Devizlar xalqaro rezerv vosita sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lmasa-da, oltinga erkin konvertirlanar edi. Bu valyuta kurslarining erkin tebranishi tartibini qaytadan tikladi, bundan tashqari vujudga kelgan barcha muammolar doimiy ravishda o'tkaziluvchi anjumanlarda muhokama qilina boshlandi.

Genuya tizimi oltin standartiga asoslangan tizimga nisbatan mustahkam bo'la olmad.

Uning barbod bo'lishiga ikki siyosiy chayqalish: ikki urush orasidagi o'n yillik va Buyukbritaniya, AQSh va Fransiyaning iqtisodiy yakka hokimligi, ayniqsa, XIMda Amerika kapitalining gegemoniyasi uchun kurashni asosiy sabab deb hisoblash mumkin.

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy tanazzuli JVMTning barqarorligiga putur yetkazdi, u valyuta bloklari, ya'ni sterling (1931 yildan), dollar va oltin (1933 yildan) bloklariga bo'linib ketdi. Biroq Buyukbritaniya, AQSh va Fransiya boshchiligidagi bu guruhlarini tashkil etilishi yetakchi valyutalarni oltinga erkin ayirboshlash va ikkinchi jahon urushi arafasida ularni devalvatsiya qilishni ta'qiqlashni oldini ola olmadi.

Yangi valyuta tizimi huquqiy jihatdan 1944 yilda AQShning Bretton-Vuds shahrida o'tkazilgan xalqaro iqtisodiy Anjumanda kuchga kirdi. Bu anjumanda mamlakatlar o'rtasida savdoni tashkil etish, valyuta-moliya va kredit munosabatlari amalga oshirish qoidalari belgilandi. JVMTning uchinchi tarixiy ko'rinishi shu taxlit vujudga keldi. Uning valyuta sohasidagi asosiy xususiyatlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- *oltinga va ikki rezerv valyuta - AQSh dollari va Buyukbritaniya funtiga asoslangan oltin deviz standartini joriy qilish (amalda Vashington taz'iyqi ostida Britaniya imperiyasi bo'linib ketishi tufayli 40-yillarning oxiriga kelib dollar hech qanday cheklashsiz belgilangan bahoda (1934 yilda 1 troya unsiya, ya'ni 31,1 gramm oltin = 35 dollar) oltinga ayirboshlanadigan yagona valyutaga aylandi);*
- *valyutalarning oltin paritetini saqlab qolish va ayni paytda uni Xalqaro valyuta fondida*

belgilab qo'yish (ya'ni oltin xalqaro to'lov vositasi va rezerv vositasi rolini bajarishni davom ettirdi);

- *dollar ifodasidagi belgilangan valyuta kurslariga o'tish, valyuta kurslari 1 foiz (Yevropa mamlakatlari uchun 0,75 foiz) atrofida tebranishi mumkin bo'lib, markaziy banklar tomonidan valyuta intervensiyasi yordamida muvozanatlashtirib turilardi;*
- *ikkita yangi valyuta-kredit tashkiloti - Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki (XTTB)ni tashkil etish.*

Shunday qilib, Bretton-Vuds valyuta tizimi dollarni oltin bilan bevosita bog'liq ravishda jahon rezerv valyutasi sifatida yakka hukmronligini bildirar edi. Bu AQShning jahon iqtisodiyotidagi urushdan keyingi dastlabki o'n yillardagi hukmronlik roliga mos kelar edi. Biroq bu tizimning ijobiy tomonlarini rad etmaslik zarur. U xo'jalik aloqalarini tiklanishi, urush tufayli izdan chiqqan ishlab chiqarish va savdoni rivojlanishiga ko'mak berdi.

60-yillarning oxiri - 70-yillarning boshlarida yoqilg'i, xom ashyo va valyuta inqirozlarining qo'shilib ketishi Amerika monopoliyasiga asoslangan jahon xo'jalik tartibiga putur yetkazdi. Bretton-Vuds valyuta tizimining barbod bo'lishining tub sabablari yetakchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining notekisligi, kolonial imperiyaning bo'linib ketishi va o'nlab mustaqil yosh davlatlarning paydo bo'lishi, AQSh tovarlariga G'arbiy Yevropa (eng avvalo Germaniya) va Yaponiyada ishlab chiqarilgan raqobatbardosh tovarlarning ko'payishi kabilardan iborat edi. Jahonda uchta iqtisodiy ta'sir markazi -

AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya ta'siridagi markazlarni shakllanish jarayoni dollarni JMTdagi monopol mavqeiga putur yetkazdi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozi natijasida yetakchi davlatlar iqtisodiyoti valyuta va oltin «talvasa»sini boshidan kechira boshladi: fond birjalarida valyuta kurslarini o'zgarishini kutish natijasida qimmatbaho qog'ozlar kurslarini tushib ketishi keltirib chiqargan vahimalar yuz berdi. Davlatlar o'z valyutalarini devalvatsiya qilishga majbur bo'lishdi. Bu jarayonlarning eng yuqori nuqtasi 1971 yilning bahor-yozi va 1973 yilning bahorida asosiy rezerv valyuta, ya'ni AQSh dollarining mavqeini pasayib ketishi bo'ldi. Dollar ikki marta devalvatsiya qilinganidan so'ng, uni oltinga erkin almashtirish bekor qilindi va 1973 yilning martidan boshlab belgilangan valyuta kurslaridan suzuvchi valyuta kurslariga o'tildi.

XVF qoshida yigirmalar Qo'mitasi doirasida yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini topishga harakat qilindi. 1976 yildan 1978 yilgacha Yamaykaning Kingston shahrida bitim imzolaniishi va a'zo-mamlakatlar tomonidan XVF Nizomida o'zgarishlar ratifikatsiya qilinishidan so'ng navbatdagi yangi jahon valyuta tizimi rasmiylashtirildi.

Yamayka valyuta tizimi uning ijodkorlari tomonidan quyidagi tamoyillar asosida yaratildi:

- *oltin standartini maxsus qarz olish huquqi (SDR) bilan almashtirish;*
- *oltinni demonetarizatsiyalash, ya'ni oltin paritetlarini bekor qilish va oltinni dollarga almashtirishni to'xtatish;*
- *XVF a'zolariga milliy valyuta kurslari rejimini erkin tanlash huquqini berish;*

- *XVF va XTTBni jahon valyuta tizimining garanti sifatida saqlab qolish.*

Bretton-Vuds va Yamayka valyuta tizimi solishtirilganda vorislik kuzatiladi. Xususan, valyuta plyuralizmi tamoyiliga qaramasdan, dollar asosiy to'lov va rezerv vositasi mavqelni saqlab qolgan, chunki SDR standarti orqasida aynan Amerika dollari turadi.

Oltin hali ham favqulodda vaziyatlarda (urushlar, inqirozlar kabilar) valyuta tovari sifatida qaraladi. Va nihoyat, 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar - XVF va XTTB yo'q bo'lib ketmadi, balki o'z vazifalarini kengaytirdi.

Barcha qayd etilgan omillar G'arbiy Yevropa mamlakatlarini o'zlarining hududly valyuta tizimini shakllantirishga majbur etdi. 1979 yilda tashkil etilgan Yevropa valyuta tizimi o'tgan yigirma yildan ortiq vaqt davomida mustahkamlandi va hozirgi paytda o'z rivojlanishining yangi bosqichiga - Yevropa Ittifoqining a'zolari valyutalarini muomaladan chiqarib, YeVRO universal pul birligini joriy qilish bosqichiga o'tdi.

Yamayka valyuta tizimining zamonaviy bosqichi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

1976-1978 yillarda imzolangan bitimga 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida sobiq sotsialistik davlatlarning XVFga qo'shilishi natijasida a'zo-mamlakatlar soni kengaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotli davlatlardagi iqtisodiy qiyinchiliklar jahon valyuta bozorlarida beqarorlikni kuchaytirdi.

Amerika dollarining monopol mavqelga Yevropaning yangi kollektiv valyutasi tomonidan haqiqiy muqobil valyuta yuzaga keldi.

Moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiruvchi valyuta-hisob-kitob munosabatlarini axborot-lashtirish va komyuterlashtirish jarayonlari rivojlanmoqda.

Valyuta-moliya sohasini tartibga solishda xalqaro tashkilotlar va integratsion guruhlarining ahamiyati oshdi.

Bretton-Vuds Anjumani qaroriga muvofiq 1945 yilda tashkil etilgan Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund (IMF)) 1946 yildan boshlab operatsiyalarni amalga oshira boshladi. XVF hukumatlararo tashkilot bo'lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi. 180 dan ortiq a'zo-mamlakatlarning valyuta siyosatini kuzatish, baholash va oldindan ayub berish masalasi XVFning diqqat markazida turadi. Fondning shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan.

XVF zamonaviy xalqaro valyuta-moliya tizimining institutsional asosi hisoblanadi. Har bir davlat bu tashkilotga a'zo bo'lishda ma'lum miqdorda pul badali - a'zolik kvotasini amalga oshiradi, kvota miqdori har besh yilda qayta ko'rib chiqiladi. Kvota miqdori (SDR ifodalanadi) mamlakatning jahon YalMidagi ulushiga mos keladi va uning Fondagi ovoz sonini belgilab beradi. Ovozlarining taqsimlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, hozirgi kunda bir necha mamlakat ustunlikka ega: AQSh - 17,7, Germaniya, Yaponiya - 5,5, Buyukbritaniya, Fransiya - 4,9, Saudiya Arabistoni - 3,4, Italiya - 3,1, Rossiya - 2,9 foiz ovozga ega. XVF tuzilmasiga Boshqaruv Kengashi kiradi. Bu oliy organ tarkibiga fondga a'zo-mamlakatlar vakillari va ularning o'rinbosarlarini birlashtirgan. Ular o'z davlatlari

tomonidan besh yil muddatga saylanadi. Odatda bu lavozimga moliya vazirlari yoki markaziy bank boshliqlari o'tiradi. Kengashning ish formasi — har yili o'tkaziladigan sessiyalardir.

XVFning barcha joriy faoliyati Ijroiya kengashi zimmasiga yuklanadi. Boshqaruv kengashi ayrim eng muhim masalalar (masalan, yangi a'zolarini qabul qilish, kvota miqdorini qayta ko'rish kabilar)dan boshqa har qanday muammolarni hal qilishni ijroiya kengashiga topshirish huquqiga ega. Ijroiya kengashi yo'riqchi-direktor va 24 ta ijrochi-direktorlardan tarkib topgan. Bu kengash haftada uch martadan kam bo'lmagan majlislar o'tkazadi. Yuqoridagilardan tashqari fond tuzilmasida bir qator boshqa organlar mavjud: Vaqtinchalik qo'mita, Rivojlanish bo'yicha qo'mita To'lov balanslari statistikasi bo'yicha qo'mita. Bu organlar maxsus vazifalarni bajaradi.

XVFning moliyalash manbalari a'zolik badallaridan tashqari eng rivojlangan mamlakatlardan olinadin qarzlari hisoblanadi. Hozirgi paytda XVFning o'z mablag'i 290 mlrd. dollarga yetadi. Fondning eng muhim vazifasi a'zo-davlatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, ularga to'lov balansini tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun qarz berish hisoblanadi. Kreditlar fondning o'z mablag'laridan va jalb qilingan vositalardan transheya ko'rinishida beriladi. Komission yig'im kredit hajmining 0,5 foizi miqdorida belgilanadi. Foiz stavkasi esa yiliga 6-8 foiz atrofida o'rnatiladi, bu ko'pgina tijoriy banklarning foiz stavkasidan sezilarli darajada pastdir.

Taqdim etish shartlariga ko'ra XVF kreditlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- *Kvotaning 25 foizigacha miqdorda beriladigan kredit. Odatda bunday kredit 1 yilgacha beriladi, 4-5 yilgacha cho'zilishi mumkin;*
- *Kengaytirilgan variantda - milliy kvotaning 300 foizigacha miqdorda beriladigan kredit (odatda uch yil muddatga);*
- *maxsus fondlardan kompensatsion yoki shoshilinch to'lovlar ko'rinishidagi kredit;*
- *xom ashyo (bufer) zahiralari moliyalash ko'rinishidagi kredit;*
- *1987 yilda tashkil etilgan tuzilmaviy qayta qurish Fondi orqali aholi jon boshiga daromad past darajada bo'lgan davlatlar uchun kredit.*

XVFGa a'zo-mamlakatning fond resurslaridan foydalanishi iqtisodiyotni makroiqtisodiy boshqarish sohasida jiddiy majburiyatlarni bajarishga majbur etadi, eng avvalo valyuta-moliya siyosati bu tashkilot bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi kerak. Kreditlashning standart mexanizmi muhtoj mamlakat tomonidan XVFdan ma'lum summadagi xorijiy valyutani yoki SDRni ekvivalent miqdordagi milliy valyuta badaliga qarz olish (sotib olish)ni nazarda tutadi. Bu milliy valyuta kredit olgan davlatning markaziy bankida XVF hisobiga o'tkaziladi. Konvertirlanmagan valyutali mamlakat qarzni qaytarishda erkin konvertirlanuvchi valyuta hisobida qayta sotib oladi. XVF o'z a'zolariga texnik yordam ko'rsatadi va Vashingtondagi Instituti orqali moliyaviy tahlil, statistika va buxgalteriya hisobi ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Fondning sharhlari, mavzulari

va davriy nashrlari iqtisodchilar uchun katta qiziqish uyg'otishi mumkin.

Xalqaro hisob-kitob ko'rinishlari

Hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro bitimlar quyidagi asosiy unsurlar: baholash valyutasi, to'lov shartlari va vositalari valyutasi, hisob-kitoblar banki va ko'rinishlarini nazarda tutgan holda to'lovlarni xorijiy valyutada amalga oshirishning umumiy qoidalarini konkretlashtiradi.

Baholash valyutasi — bu valyuta tovarning shartnoma narxini aniqlab beradi (u ba'zan bir necha valyutalarda yoki xalqaro hisob-kitob birliklari - SDR va yevroda belgilanadi). **To'lov valyutasi** importyor majburiyatini to'lash uchun foydalaniladigan valyutani ifodalaydi. Valyuta kurslari barqaror bo'lmaganda narxlar boshqa barqaror valyutada, to'lov esa odatda importyor-mamlakat valyutasida belgilanadi. Baholash valyutasi va to'lov valyutasi mos kelmaganda shartnomada XVF pariteti yoki bozor kursi bo'yicha baholash valyutasini to'lov valyutasida hisoblash shartnomada qayd etiladi. Valyuta kursini pasayish xatari eksportyor (kreditor), ko'tarilishi esa importyor (qarzdor) zimmasiga tushadi.

To'lov vositasi naqd to'lash, kreditga to'lash, shuningdek, naqd to'lovni tanlash huquqi bilan kreditga to'lash (optsi)ni nazarda tutadi. Naqd to'lash eksport qilingan tovarlarni tovar jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisob-faktura, tovar-transport hujjati, sug'urta polisi kabilar) taqdim etilgan zahoti to'lovni amalga oshirish bilan bog'liq. Kredit orqali to'lash asosan tijoriy kredit ko'rinishida

yuzaga chiqadi, bu kredit tovar sotuvchi tomonidan xaridorga bir necha oydan 5-8 yil va undan ortiq muddatga beriladi. Naqd to'lovni nazarda tutuvchi opsi)ni kredit berishga muvofiq, importyor to'lovni orqaga surish huquqidan, ya'ni kreditdan foydalansa, naqd to'lovda beriladigan narx tashlamalardan mahrum bo'ladi. Shartnoma xususiyati, milliy valyutaning jahon bozorlaridagi mavqei va iqtisodiy kon'yunkturaga bog'liq ravishda quyidagi hisob-kitob ko'rinishlaridan foydalaniladi: akkreditiv, inkasso, bank o'tkazmalari, ochiq hisob, avans.

Sanab o'tilgan har bir hisob-kitob ko'rinishining xususiyatlarini ochib berishdan oldin XIM amaliyotida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish sxemasini belgilovchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligini qayd etib o'tamiz. Mas. Xalqaro savdo palatasi tomonidan 1933 yilda qabul qilingan hujjatli akkreditivlar uchun unifikatsiyalangan qoidalar va taomillar (1993 yildagi tahriri) o'z rolini saqlab qolgan, xuddi shu tashkilot tomonidan 1936 yilda shakllantirilgan Inkasso bo'yicha unifikatsiyalangan qoidalarining 1995 yildagi tahriri ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Endi to'lovlarning birinchi ko'rinishi akkreditivga o'tar ekanmiz, shuni qayd etishimiz mumkin, **akkreditiv** — mijozning iltimosiga ko'ra bank tomonidan qujjatda ko'rsatilgan shartlarda uchinchi shaxs (benfisiar)ga to'lovni amalga oshirish yoki benfisiar tomonidan qo'yilgan o'tkazma vekselni (tratta) to'lashni amalga oshirish (aktsept) bo'yicha bank majburiyati bo'yicha bitim hisoblanadi.

Akkreditiv hisob-kitoblari sxemasi quyidagi harakatlarni nazarda tutadi:

- *importyor eksportyor tomonidan tovar jo'natilishga tayyorligi haqida xabardor qilingach, importyor o'z bankiga shartnomada belgilangan muddatda akkreditiv ochishga buyruq beradi;*
- *importyor banki eksportyor bankidan eksportyor (benefisiar) foydasiga akkreditiv ochishni so'raydi;*
- *o'z bankidan akkreditiv ochilganligi haqida xabar olgach, eksportyor akkreditiv shartlarini tekshirib ko'radi, importyorga tovarni jo'natadi va hujjatlarni rasmiylashtiradi, bu hujjatlarga muvofiq akkreditivdan to'lovni amalga oshirish mumkin;*
- *shundan so'ng eksportyor hujjatlarni o'z bankiga topshiradi, u o'z navbatida hujjatlarni benefisiar hisobiga to'lov summasini o'tkazishni amalga oshiruvchi importyor bankiga yuboradi;*
- *va nihoyat, importyor banki eksportyor bankidan olgan hujjatlarni o'z mijoziga topshiradi, shunday qilib importyor yetib kelgan tovarlarga ega bo'ladi.*

Akkreditiv ko'rinishida hisob-kitoblarni amalga oshirish banklar o'rtasida korrespondent munosabatlar orqali osonlashadi (aks holda hisob-kitoblarda uchinchi – *ramburslovchi* bank ishtirok etadi), biroq boshqa hisob-kitob ko'rinishlariga nisbatan yuqoriroq komission to'lovlar tufayli qiyinlashadi. Akkreditivning asosiy turlari bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- *akkreditiv shartlarini o'zgartirish (bekor qilish) imkoniyatiga bog'liq ravishda - chaqiriluvchi va chaqirilmovchi akkreditiv;*

- *akkreditiv bo'yicha bankning qo'shimcha majburiyatlari nuqtai nazaridan – tasdiqlangan va tasdiqlanmagan akkreditiv;*
- *qaytadan tashkil etish shartlariga muvofiq - qaytadan tashkil etiluvchi (revolver, rollover) va qaytadan tashkil etilmaydigan akkreditivlar;*
- *ikkinchi benefisiar tomonidan foydalanish ehtimoliga bog'liq ravishda - o'tkazma (transferabel) va o'tkazma bo'lmagan akkreditiv;*
- *valyutaviy qoplanganligi mavjudligi bo'yicha - qoplangan va qoplanmagan akkreditiv.*

Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv ko'rinishlarini ko'rib chiqishning yakunida eng keng tarqalgan hujjatli akkreditivdan tashqari eksportyor banki tomonidan o'tkazma veksellarni to'lashni nazarda tutuvchi *aksept akkreditivlar, bo'lib-bo'lib to'lash mumkin bo'lgan akkreditivlar* va *hujjatlarni sotib olish* bilan bog'liq akkreditivlardan ham foydalaniladi. Va nihoyat, vositachilik operatsiyalari amaliyoti *kompensatsion* va *"bek-tu-bek"* akkreditivlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, bular yuqorida ko'rib o'tilgan sxemalarga nisbatan murakkabroq sanaladi. Quyidagi hisob-kitob ko'rinishini ko'rib chiqamiz.

Inkasso mijoz (eksportyor) buyrug'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun importyordan to'lovni qabul qilish va bu mablag'larni eksportyor hisobiga o'tkazish operatsiyasini nazarda tutadi. Oddiy va hujjatli inkassolar mavjud. Oddiy inkasso moliyaviy majburiyatlar, hujjatli inkassolar - moliyaviy va tijoriy hujjatlar yoki faqat tijoriy hujjatlar

bo'yicha to'lov undirishni bildiradi. Eng keng tarqalgan hujjatli inkasso bo'yicha to'lovni amalga oshirish sxemasini quyidagicha aks ettirish mumkin:

- *bitim tuzilganidan so'ng eksportyor tovarni importyor manziliga jo'natadi;*
- *keyin eksportyor barcha hujjatlarni o'z bankiga topshiradi va unga inkassatsiyalash operatsiyasini buyuradi;*
- *eksportyor banki o'z navbatida hujjatlarni importyor mamlakatidagi korrespondent-bankka yuboradi;*
- *hujjatlar olinganligi haqida importyorni xabardor qilib, bu hujjatlarni naqd yoki tratta aksepti ko'rinishidagi to'lov badaliga importyorga topshirgan holda importyor banki eksportyor bankiga importyordan olingan to'lov summasi uning korrespondent hisobiga o'tkazilganligi haqida xabar beradi;*
- *natijada eksportyor banki o'z mijoziga unga tegishli eksport tushumini to'laydi.*

Xorijiy valyutadan foydalaniladigan tijoriy operatsiyalar amaliyoti inkasso ko'rinishida hisob-kitob qilish eksportyorga nisbatan importyor uchun foydaliroqligidan guvohlik beradi, chunki akkreditivdan farqli ravishda inkasso yuqoriroq xatarga ega. Bu xatar bozor kon'yunkturasini o'zgarishi yoki importyor (to'lovchi) moliyaviy holati yomonlashishi tufayli importyorning to'lashdan bosh tortishi bilan bog'liq. Biroq inkasso operatsiyalarini amalga oshirishdagi komission yig'imlar miqdori akkreditivdagiga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Bank o'tkazmalari - o'tkazuvchi (to'lovchi) talabiga muvofiq, uning hisobidan oluvchi

(benefisiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka to'lov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob ko'rinishidir. Bunda tovar hujjatlari eksportyor tomonidan importyorga banklarni chetlab o'tgan holda yuboriladi. Bank o'tkazmalari pochta yoki telegraf orqali, 1973 yildan beri SVIFT (Society for Worldwide International Financial Telecommunications) tizimi orqali amalga oshiriladi. SWIFTga jahonning 60 mamlakattan bir ming olti yuzdan ortiq moliya-kredit muassasalari ishtirok etadi (1988 yildan buyon zamonaviylashtirilgan SVIFT-2 amalda edi, 2000 yilga kelib SVIFT-3 loyihasi joriy etildi).

O'z-o'zidan tushunarliki, avanslash yetkazib beriladigan tovarlar uchun importyor tomonidan oldindan haq to'lashdan iborat bo'lib, eksportyor uchun foydali o'zaro hisob-kitob ko'rinishi hisoblanadi. hisob-kitobning bu ko'rinishi qimmat qurilmalar va shaxsiy buyurtma bo'yicha tayyorlangan tayyor buyumlarni yetkazib berishda ayniqsa, keng tarqalgan. Xalqaro amaliyotga muvofiq, avans to'lovlari bitim summasining 10 foizdan 33 foizgachasini tashkil etadi. Avanslash jarayoni, odatda, eksportyor buyrug'iga muvofiq, uning banki shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda olingan avans qaytarib berilishi to'g'risida kafolat beradi.

Avansdan farqli ravishda, ochiq hisob bo'yicha hisob-kitob tovar importyor tomonidan olingandan so'ng amalga oshiriladi. Eksportyor importyorga hisob-fakturani hujjatlar bilan birgalikda pochta orqali banklar ishtirokisiz yuboradi. Importyor hujjatiarni olganidan va shartnoma moddalariga mos kelishini tekshirib ko'rganidan so'ng, o'z bankiga eksportyor bankiga valyuta o'tkazish

haqida buyruq beradi. Bunda joriy qarzdorlik summasi hamkorlarning hisob-kitob kitoblari-da hisobga olinadi, qarzni to'lash tartibi odatda belgilangan muddatlarda importyorning eksportyorga davriy to'lovlari bilan bog'liq. Hisob-kitoblarning bu ko'rinishi tomonlarning bir-biriga yuqori darajada ishonchi bilan xarakterlanadi va yirik TMKlar doirasidagi munosabatlarga xosdir.

Sanab o'tilganlardan tashqari xalqaro hisob-kitoblar vekselar va cheklardan foydalanishni ham nazarda tutadi. Veksel — belgilangan ko'rinishda tuzilgan yozma qarzdorlik majburiyati, veksel egasi unda ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng belgilangan pul summasini qarzdordan talab qilishga haqli. Xalqaro amaliyotda o'tkazma vekselardan foydalaniladi. O'tkazma veksel kreditor (trassant)ning qarzdor (trassat)ga ma'lum bir summadagi pulni belgilangan muddatda uchinchi shaxs (remittent)ga to'lash to'g'risida qat'iy buyrug'idir. O'tkazma veksellardan foydalaniladigan hisob-kitoblarda eksportyor tratta va tovar hujjatlarini o'z banki inkassosiga topshiradi va bank importyordan valyuta oladi. Veksel munosabatlari 1930 yili Jenevada imzolangan vekselar to'g'risidagi konvensiya tomonidan tartibga solinadi.

Chek — chek imzolaganning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish haqida bankka bergan yozma farmoyishidir. Xalqaro hisob-kitoblarda bu to'lov vositasi XVI asrdan (veksel - XII-XIII asrlardan) buyon ma'lum bo'lib, u quyidagi sxemani nazarda tutadi, ya'ni bu sxemaga muvofiq chek beruvchining mablag'larini saqlab turuvchi bank to'lovni

amalga oshiruvchi hisoblanadi. Eksportyor importyordan chekni olgandan so'ng shartnoma bo'yicha o'ziga tegishli summani o'z bankidan olishi kerak. Chekdagi mablag'ni o'tkazish to'g'risidagi yozuv (indossament) xarakteriga ko'ra orderli chek, oluvchining nomiga yozilgan chek va ko'rsatuvchiga beriladigan cheklar bo'lishi mumkin. Hozirgi paytgacha Jeneva cheklar to'g'risidagi konvensiyasi qoidalari o'z kuchida qolgan.

Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy ko'rinishlari sharhining so'nggida Xalqaro savdo palatasi tomonidan ishlab chiqilgan To'lov va shartnoma kafolatlarini berish to'g'risida soddalashtirilgan qoidalarga (1978 yilda tahrir qilingan) muvofiq, to'lov va shartnoma kafolatlarining zarurligini eslatib o'tamiz.

Valyuta kliringi

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish xalqaro hisob-kitoblarda valyuta kliringi - ikki va undan ortiq hukumatlar o'rtasida moliyaviy talablar va majburiyatlarni o'zaro hisobga olish haqida kelishuvdan foydalanishni shart qilib qo'ydi. Bunday kliringlarning o'ziga xos xususiyati boshqa mamlakatlar bilan valyuta aylanmasini kliring banklari tomonidan milliy valyutadagi hisob-kitoblar bilan almashtirish hisoblanadi. Bu banklar barcha talablar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Ikki tomonlama kliring eng ko'p tarqaldi. Ko'p tomonlama kliringga misol sifatida Yevropa to'lov ittifoqi (1950—1958) va uning o'rniga kelgan hamda 1958 yildan 1972

yilgacha harakatda bo'lgan Yevropa valyuta bitimi, 1973 yildan boshlab kuchga kirgan Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining valyuta bo'yicha konvensiyasini keltirish mumkin. SVIFT tizimini vujudga kelishi va EKYUda olib boriladigan operatsiyalarning kengayishi bilan Yevropa kliringining asosiy agenti sifatida Bazelda (Shveytsariya) joylashgan Xalqaro hisob-kitoblar banki chiqmoqda. U 33 davlatning o'zaro hisob-kitoblarini amalga oshiradi. hozirgi paytda xalqaro kliringning Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikaning rivojlanayotgan mamlakatlarida ham rivojlanishi kuzatilmoqda, bu mamlakatlarda 90-yillarning o'rtalariga kelib 150 ta ikki tomonlama va to'rtta ko'p tomonlama kliring bitimlari amalga edi.

Valyuta cheklashlarning mohiyati

XIMning moddiy asosi jahon bozori bo'lishiga qaramasdan (jahon bozorining ob'ektiv qonunlari valyuta kursi va pariteti nisbati orqali milliy valyutalarning ekvivalent almashinishi ta'minlaydi), davlatlar oldingi mavzularda ko'rsatib o'tilgandek, TIF sohasiga, jumladan, valyuta-moliya sektoriga ham bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi. Shunday qilib, bozor va davlat tomonidan boshqaruv bir-birini to'ldirib turadi. Raqobatga asoslangan bozor mexanizmi keltirib chiqargan salbiy oqibatlar hukumat tomonidan amalga oshirilgan maxsus iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi yordamida tuzatiladi. Bu jarayon inqirozlar va iqtisodiy chayqalishlar davrida ayniqsa, zarur hisoblanadi.

Milliy pul birligi kursini mustahkamlash, byudjet majburiyatlarini bajarilishida to'lov

balansini ta'minlashga yo'naltirilgan valyuta siyosatining muhim tarkibiy qismi valyuta cheklashlari hisoblanadi. Valyuta cheklashlari xorij valyutasi va boshqa qimmatli narsalar (oltin) bo'yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo'naltirilgan ma'muriy va qonuniy tartibda belgilangan me'yoriy qoidalar tizimini aks ettiradi. Odatda valyuta cheklashlari nufuzli davlat tashkilotlarining monitoring, valyuta operatsiyalarini qayd etish va hisobga olish bo'yicha tadbirlari bilan birgalikda olib boriladi.

Cheklashlar joriy etishdan asosiy maqsad - bu moliyaviy siyosatning joriy va istiqboldagi masalalarini hal etish uchun valyutaga talab va taklifning bozor mexanizmiga ta'sir ko'rsatishdir. Valyuta cheklashlarining tabiati nisbatan yumshoq, bilvosita (xalqaro to'lovlarni tartibga solish orqali) qattiq, bevosita (masalan, valyuta blokadasi) bo'lishi mumkin.

Mohiyati va yo'nalishiga bog'liq ravishda valyuta cheklashlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- *markaziy va vakolatli-deviz banklarda valyuta va boshqa qimmatli narsalar bilan operatsiyalarni markazlashtirish;*
- *valyuta operatsiyalarini litsenziyalash;*
- *valyuta hisoblarini to'sib qo'yish;*
- *valyutaning konvertirlanishini cheklash.*

Valyuta cheklashlari ikki asosiy sohada harakat qiladi: to'lov balansining joriy operatsiyalari (savdo va xizmatlar) va kapital harakati moddalari (kreditlar) bo'yicha. Birinchisi xorijiy eksportyorlar daromadlarini blokirovka qilish, xorijiy valyutani importyorlarga sotishni chegaralash, eksport/import bo'yicha to'lovlar muddatini tartibga solish, operatsiyalarning turli ko'rinishlari, tovar

guruhlari yoki hududlar kabilar bo'yicha turli valyuta kurslarini joriy qilishlardan iborat. Ikkinchisi esa investitsiyalarni va rezident bo'lmaganlar tomonidan milliy qimmatli qog'ozlarni sotib olishni ta'qiqlab qo'yish, markaziy banklarda xorijiy valyutadagi qarzlarni majburiy konversiya qilishni amalga oshirish, rezident bo'lmaganlarning omonatlari bo'yicha foizlar to'lovini to'xtatib qo'yish, foiz stavkasini o'zgartirish, mamlakatga xorijiy valyuta olib kirishni chegaralab qo'yish va boshqalarni nazarda tutadi.

Valyuta cheklashlari yetakchi mamlakatlar tomonidan urush yillarida, iqtisodiy tanazzullar va siyosiy vaziyatlar murakkablashgan paytlarda joriy qilingan. Shunday qilib, ma'lum davlat milliy valyutasining konvertirganlik muammosi valyuta cheklashlari kompleksini joriy etish bilan bog'liq holda hukumat valyuta siyosatining umumiy yo'nalishini aniqlash bilan birgalikda hal etiladi.

Valyuta konvertirlanishining tavsifi va shartlari

Konvertiranganlik tushunchasi davlat tomonidan milliy valyutani xorijiy valyutalarga rezidentlar uchun ham, rezident bo'lmaganlar uchun ham to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha erkin almashtirish tartibini ushlab turishga asoslangan. Mutaxassislar ichki (rezidentlar uchun) va tashqi (rezident bo'lmaganlar uchun) konvertirganlikni farqlashadi. Ichki konvertiranganlikda mazkur mamlakatning huquqiy va jismoniy shaxslari xorijga to'lovlarni amalga oshirish va chet el pul belgilarini chegaralanmagan miqdorda sotib olish huquqini

beradi. Tashqi konvertiranganlik esa xorijiy shaxslarga mablag'larni majkur mamlakat valyutasida erkin o'tkazish va konvertirlash imkoniyatini beradi.

Konversiyalanish tartibiga ko'ra barcha valyutalar konvertirlanmaydigan, qisman konvertirlanadigan va erkin konvertirlanadigan valyutalarga ajratiladi. Rezidentlar uchun ham, rezident bo'lmaganlar uchun ham valyuta operatsiyalari bo'yicha cheklash amalda bo'lsa, mamlakat valyutasi konvertirlanmaydigan valyuta sanaladi. Faqat ba'zi bir xorijiy valyutalarga, shunda ham to'lov oborotining ayrim turlari bo'yicha ayirboshlanadigan valyutalar qisman konvertirlanuvchi valyuta deyiladi. Amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtiriladigan valyutalar erkin konvertirlanuvchi valyuta (EKV) hisoblanadi. Bunda mamlakatda ochiq turdagi iqtisodiyot bilan bir qatorda jahon bozori sharoitlariga mos keluvchi vaziyatni joriy etish talab etiladi va EKVni har qanday operatsiyalar bo'yicha cheklanmagan miqdorda chetga olib chiqishi mumkin. Hozirgi paytda EKV tartibini faqatgina o'ttizga yaqin bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga ushlab turishi mumkin. JvMTda eng mustahkam o'rinlarni AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyukbritaniya, Fransiya, Shveytsariya va Kanada davlatlarining valyutalari egallab kelishmoqda. Bular qatoriga XVFnig standart birligi SDRni, shuningdek, G'arbiy Yevropa to'lov-hisob-kitob birligi ECU (1999 yildan boshlab - YeVRO)ni qo'shish joiz.

Jahonning ko'pchilik mamlakatlari valyuta siyosatini tahlil qilganda shunga guvoh bo'lamizki, XVFGa a'zo davlatlarning taxminan saksontasi qisman konvertirlanuvchi valyuta-

ga ega. Konvertirlanmaydigan valyutalar qatoriga Kuba va Shimoliy Koreyaning valyutalarini kiritish mumkin. Erkin konvertirlangan valyutaga o'tish bo'yicha turli davlatlarning tajribalari bu jarayonning asosiy shartlari quyidagilar ekanligini ko'rsatmoqda:

- *hukumatning puxta tayyorgarlik ishlari;*
- *konvertirlashni amalga oshirishni vaqti va taktikasini to'g'ri tanlash;*
- *xalqaro tashkilotlarning yordami.*

Bu omillarning hisobga olgan holda, agar ob'ektiv iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoit: umumiy iqtisodiy o'sish, barqaror byudjet, ulkan oltin-valyuta zahiralari, taraqqiy etgan qonunchilik va siyosiy barqarorlik bo'lmasa, so'mning EKVga aylantirish masalasini hal qilish mumkin emasligini qayd etish zarur. Faqatgina ana asosda va hukumatning yaxshi o'ylangan strategiyasi mavjud bo'lsagina, bizning milliy pul birligimiz boshqa e'tiborli valyutalar qatoridan o'ziga mos o'rinni egallashi mumkin.

Valyuta kursning asosiy tamoyillari

Valyuta kursi — bu milliy va jahon pul tizimlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib, turli mamlakatlar to'lov birliklarining nisbatini ifoda etadi. U eksport qilinadigan mahsulotga jahon bahosini belgilash, bozor kon'yunkturasiga adekvat kredit siyosatini ishlab chiqish, xizmatlar sohasi va axborot-texnologiyalar ayirboshlashni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun zarur. Valyuta kursini qiymat asosi tovarlar, xizmatlar va kapitallar o'rtacha milliy bahosi darajasini ifodalovchi xarid qobiliyati hisoblanadi. Shunday qilib, valyuta kursi orqali ishlab chiqaruvchilar va

iste'molchilar ichki narxlar va jahon narxlari mutanosibligini solishtiradilar. Natijada ma'lum bir tovarni ishlab chiqarish va eksport-import qilishdagi foyda olish me'yori, shuningdek, investitsion oqimlar samaradorligi baholanadi.

Valyuta kursining asosiy xususiyatlari, eng avvalo, uning *real* va *nominal* miqdori hisoblanadi. Nominal valyuta kursi milliy valyutaning har kuni e'lon qilinadigan o'rtacha «bahosi» bo'lib, u banklararo valyuta birjasida (konvertasiyaning turli ko'lamida) shakllanadi yoki markaziy bank tomonidan belgilanadi (konvertirlanmaydigan valyuta bo'lsa). Real valyuta kursi nominal valyuta kursini ikki mamlakatdagi narxlar nisbatiga yoki savdo hamkorlari bo'lgan davlatlardagi narxlarni solishtirish orqali olingan o'rtacha qiymatga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Valyuta proporsiyalarining sonli yozuvi (kotirovka) turli ko'rinishga ega. To'g'ri kotirovkada xorijiy valyuta milliy valyutaga tenglashtiriladi (odatda verguldan keyingi to'rtta songacha aniqlikda). Masalan: 1 AQSh doll. - 8075,54 o'zbek so'mi. Teskari kotirovka juda kamdan-kam hollarda ishlatiladi, bunda milliy pul birligi xorijiy valyutaga tenglashtiriladi, masalan, 1 f. st. - 1,6503 AQSh doll. Bunday kotirovka Buyukbritaniya va uning bir qator sobiq dominionlariga, shuningdek, AQShning ichki oborotiga xosdir. Va nihoyat, bank amaliyotida ikki xorijiy valyutaning kross-kurslari mavjud bo'lib, bunda har ikki valyuta ham kursni belgilovchi shartnoma qatnashchisining milliy valyuta emas. Masalan, O'zbekistonda so'mning kursi asosiga dollar - so'm nisbati olinadi, boshqa kurslar «dollar - valyuta» kross-kotirovkasi usuli bo'yicha aniqlanadi. Valyuta kursining boshqa bir

xususiyati sifatida uning ikki yoqlama mohiyati xizmat qiladi va u xaridor va sotuvchi kursi sifatida bitim paytida yuzaga keladi. Masalan, O'zbekistonda 8075,50 - 8075,88 so'm / 1 AQSh dollari kotirovkasi banklar dollari mijozlardan 8075,50 so'm kursi bo'yicha sotib olishi va 8075,88 so'm kursi bo'yicha sotishini bildiradi. Bu ikki kurs o'rtasida farq moliya-kredit muassasasining foydasi, ya'ni marja sanaladi. Marja nominal valyuta kursi o'zgargandagi yo'qotishlarni sug'urtalashda muhim vosita hisoblandi. Shuning uchun marja miqdorini o'sib borishi valyuta bozoridagi inqirozdan darak beradi. Sotish va olish kursining o'rtacha arifmetik qiymati milliy valyutaning o'rtacha kursi bo'lib, bu ko'rsatkichdan uzoq istiqbol uchun iqtisodiy solishtirishlarda foydalaniladi. Moliya-valyuta munosabatlarini amaliyotida fiksingdan foydalaniladi. Fiksing - bu har bir valyutaga talab va taklif hajmini navbatma-navbat solishtirish orqali valyutalarning banklararo kursini aniqlash va qayd etish jarayonidir. Bu taxlitda aniqlangan valyuta kurslari rasmiy nashrlarda e'lon qilinadi.

Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar

Xo'jalik makrotizimining boshqa har qanday unsuri kabi valyuta kursi ham milliy, hududiy va global miqyosda yuz beruvchi iqtisodiy jarayonlardan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra narxlar mutanosibligi ifoda etuvchi valyuta kursi ob'ektiv ravishda o'zining qiymat asosi bo'lgan xard qobiliyati atrofida tebranish imkoniyatiga mahkum etilgan. Valyuta kursiga juda ko'p

omillar ta'sir qiladi. Ularning ichida eng asosiylari quyidagilar:

- *inflyatsiya darajasi (inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa milliy valyuta kursi shunchalik past bo'ladi);*
- *milliy foiz stavkalaridagi farqlar (foiz stavkasini oshirish xorijiy valyutalarni jalb qiladi, bu esa valyuta kursini mustahkamlaydi);*
- *bozordagi chayqovchilik operatsiyalari (bu jarayonning hajmini ko'payishi mamlakat iqtisodiyotidagi nobarqarorlikdan dalolat beradi va valyuta kursini tushib ketishiga yordam beradi);*
- *valyutaga ishonch darajasi va undan xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish ko'lamini (bu qanchalik keng miqyosda bo'lsa valyuta kursi shunchalik yuqori bo'ladi);*
- *to'lovlarning tezlashtirish yoki sekinlashtirish amaliyotini qo'llanilishi (tezlashtirishdan kursning tushib ketishini, sekinlashtirishdan kursning o'sib ketishini oldini olish maqsadida foydalaniladi);*
- *Hukumatning valyuta siyosati;*
- *byudjetning, ayniqsa, mamlakat to'lov balansining holati (aktiv balans valyuta kursini oshiradi).*

Oxirgi omilning mohiyatini ochib berish zarur, chunki valyuta siyosati yetarlicha turlituman ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ularga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- *diskontlash - markaziy bank hisob stavkasini o'zgartirish;*
- *deviz siyosati - milliy bozorda hukumat tashkilotlari tomonidan xorijiy valyutani sotish va sotib olish, ya'ni valyuta intervensiyasini amalga oshirish;*

- *valyuta zahiralari*ni diversifikatsiyalash - zahira tarkibiga turli mamlakatlar valyutalarini kiritish;
- *valyuta cheklashlarini* qo'llash;
- *valyuta kurslari* belgilashning turli tartiblaridan foydalanish;
- *devalvatsiya va revalvatsiya* - milliy valta kursini xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirish va ko'tarishdan iborat yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy usullar.

Iqtisodiy omillardan tashqari valyuta kursini shakllanishida siyosiy omillar (inqirozlar, to'qnashuvlar), shuningdek, insonlar ruhiyatidagi ommaviy o'zgarishlar (ma'lum bir kayfiyat, qiziqish va didlarni paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi) ham muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi tomondan shuni ham qayd etib o'tish joizki, milliy valyuta kursini keskin o'zgarib ketishi XIMning rivojlanishiga ham ta'sir o'tkazadi. JVMT sohasidagi o'ta chalkashliklar davlatlararo iqtisodiy aloqalarni buzilib ketishi, har qanday hamkorlik ko'rinishlarini yo'qolishiga olib kelishini jahon urushlari tajribasi ham ko'rsatib turibdi. Valyuta kursi tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda oriyentir bo'lishi mumkin, u milliy eksportyorlarning jahon bozorlaridagi mavqeini mustahkamlashi yoki aksincha, unga putur yetkazishi mumkin. Nihoyat kurslarni solishtirish mexanizmi orqali sayyoramizning YaIM mamlakatlar o'rtasida taqsimlanadi.

XXV bob. Valyutaga talab va taklif

Valyuta rejimi turlari

Ichki bozorlarda xorijiy va jahon bozorlarida milliy valyutaga talab va taklif hajmi mazkur mamlakat hukumati tanlagan valyuta siyosatini o'tkazish va joriy kon'yunktura bilan aniqlanadi. Bunda valyutaning ayirboshlash kursini aniqlash asosida yotuvchi mexanizm sifatida tushuniluvchi *valyuta rejimi* muhim rol o'ynaydi.

Valyuta rejimining ikki qarama-qarshi varianti egiluvchan (suzuvchi) va qattiq (qayd etilgan) tizim hisoblanadi. Suzuvchi valyuta kursiga valyutaning muvozanat bahosini bozordagi talab va taklifni erkin tebranishi natijasida aniqlash xos bo'lsa, qayd etilgan valyuta kursi variantida davlat organlari (odatda markaziy bank) milliy va xorijiy valyutalar o'rtasidagi nisbatni rasmiy ravishda o'rnatadi.

Egiluvchan valyuta kursining asosiy ustunlik tomoni sifatida iqtisodiy sohaga davlat aralashuvini minimallashtirish imkoniyati borligidir. Ayni paytda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun mavhumlik darajasi ortadi. Qayd etilgan valyuta kursida iqtisodiy sohaning barqarorligiga davlat tomonidan tartibga solish orqali erishiladi. Biroq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ba'zi sub'ektiv omillarga bog'lanib qolish darajasi kuchayadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu ikki variantning ijobiy va salbiy tomonlari u yoki bu mamlakatdagi konkret vaziyatga mos turli aralash variantlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jahonda o'ndan ortiq shunga o'xshash oraliq formalar

mavjud bo'lib, ular ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish joiz:

- *tuzatib boriluvchi qayd etilgan kurs* - ma'lum muddatga valyuta kursini belgilab qo'yishni va unga davriy ravishda tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi;
- *boshqariluvchi suzuvchi valyuta kursi* - ochiq bozorda tebranishlarga yo'l qo'yiladi, biroq markaziy bank tebranishlar amplitudasi yuqori bo'lmagligi uchun davriy ravishda valyuta intervensiyalarini amalga oshirib turadi;
- *qo'shma suzuvchi valyuta kursi* - bu axemada bir valyutaning ikkinchi valyutaga nisbatan kursi belgilab qo'yiladi va uchinchi valyutaga nisbatan ularning birgalikda erkin tebranishiga yo'l qo'yiladi;
- *valyuta koridori (ifloni)* - milliy valyuta kursi tebranishining yuqori va quyi chegaralarini belgilab qo'yish bilan bog'liq bo'ladi.

XVF ma'lumotlariga ko'ra, 1997 yilda qayd etilgan valyuta kurslari 66 mamlakatda amalga oshirilgan, bu mamlakatlarning 21 tasi o'z pul birliklarini AQSh dollariga, 14 tasi fransuz frankiga, 2 tasi nemis markasiga, 7 tasi boshqa valyutalarga, 22 tasi valyuta savatlariga (eng yirik savdo hamkorlari valyutalari to'plamiga) nisbatan qayd etgan. Egiluvchan qayd etilgan valyuta kurslari 14 mamlakatga xos bo'lgan. Erkin suzuvchi valyuta kurslari eng «mustahkam» valyutaga ega bo'lgan 49 mamlakatda amalda bo'lgan. «fflos» valyuta kurslari qolgan 62 davlatda kuzatilgan.

Xalqaro valyuta amaliyotida qayd etish (iqtisodiyotning tijoriy sohasi uchun) va suzuvchi (moliyaviy kurs uchun) valyuta rejimlaridan bir paytda foydalanish holatlari ma'lum, alohida olingan mamlakatni iqtisodiy rivojlanishining ma'lum bir davrlariga xosdir. Bundan maqsad likvid mablag'larni tejash bo'lib, bunday variant 70-yillarda Belgiya, Italiya va Fransiyada qo'llanilgan.

Valyuta tavakkalchiligi va uni sug'urtalash usullari

Raqobatli bozor muhitida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bitim imzolanishi va to'lovlarni o'tkazish/qabul qilish sanasi o'rtasida vaqt oralig'iga asoslangan turli xavf-xatarlarni vujudga kelishi bilan bog'liq.

Makroiqtisodiy darajada valyuta xatarini vujudga kelishining bevosita sabablari iqtisodiy inqiroz, inflyatsiyani kuchayishi, to'lov balansini yomonlashuvi, davlat qarzini ko'payishi, siyosiy hodisalar hisoblanadi.

Mikroiqtisodiy darajada esa bu sabablar qatoriga hamkorlarning xo'jalik-moliyaviy holatida yuz bergan salbiy o'zgarishlarni kiritish mumkin. Masalan, zaruriy aylanma mablag'larni yo'qligi, bankrot bo'lish xavfi va boshqalar.

Valyuta xatarining xususiyati ko'rsatilgan davrda pul majburiyatlarining haqiqiy qiymatini o'zgarishi bilan aniqlanadi. Bunda eksportyor narx valyutasi kursi to'lov valyutasi kursiga nisbatan tushib ketganda zarar ko'radi, chunki shartnomadagiga nisbatan kam real qiymatga ega bo'ladi. Importyor esa aksincha vaziyatga valyuta xatariga duch keladi. Biroq har ikki holatda ham qarzdorning milliy valyutasidagi

summa shartnomada belgilangan summadan kam bo'ladi.

Shuni qayd etib o'tish joizki, xalqaro moliya-kredit operatsiyalari ishtirokchilari faqat valyuta xatariga emas, balki *kredit bilan bog'liq* (qarzdorning qarzni va kredit bo'yicha foizlarni to'lamasligi), *foiz bilan bog'liq* (foiz stavkasini shartnomada qayd etilganga nisbatan o'zgarishi bilan yo'qotishlar ehtimoli) va *transfert bilan bog'liq* (valyuta cheklashlari tufayli to'lov vositalarini bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish imkoniyati yo'qligi bilan bog'liq) xatarlarga ham duch kelishi mumkin.

Valyuta va boshqa xavf-xatarlardan TIF amaliyotida hamkorlar o'rtasida o'zaro muvofiqlashtirilgan tadbirlar qabul qilinishi natijasidagi bir tomonlama harakatlar kombinatsiyalarini amalga oshirish yo'li bilan, hukumat va bank kafolatlari ostida sug'urta kompaniya yordamida qutulish mumkin. Bu ma'noda eng ko'p tarqalgan usul ishtirokchilar tomonidan bitimning ayrim qismlarini ijro etilishi jarayonida qayta ko'rish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha shartlarni bitimga kiritish hisoblanadi. (Masalan, valyuta kursi o'zgarishiga mos ravishda to'lov summasini o'zgartirish to'g'risida izoh kiritilishi mumkin).

Bundan tashqari davlat va xususiy kompaniyalarning xalqaro shartnomalari sug'urta kafolatlarni hisobga olgan holda imzolanadi, buning mohiyati shundan iboratki, sug'urtalovchi kompaniya ma'lum bonus (odatda yiliga sug'urta summasining 0,25 foizidan 25 foizigacha miqdorda to'lov) evaziga eksportyor (kreditor) zararini qoplash haqida majburiyatidan iborat. Oxirgi yigirma yilda xalqaro tashkilotlar valyuta-kredit operatsiyalarining garanti sifatida chiqishmoqda.

70-yillardan beri valyuta xatarini sug'urtalashni boshqa usullari: opsiolar, forvard va fyuchers ko'rinishidagi tezkor operatsiyalar, svoplardan foydalanish keng tarqaldi. Bularning barchasi valyuta oldi-sotdisini turli shartlari kombinatsiyasiga asoslangan va maxsus adabiyotda panjaralash (xodjrovaniye) atamasi bilan yuritiladi (Ingl. hedge — panjara, to'siq).

Valyuta bozori turlari

Valyuta bozorlarining mavjud bo'lishining ob'ektiv asosi ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va iste'molchilar o'rtasida to'lov-hisob-kitob vositalarini aylanishi hisoblanadi. Hozirgi paytda moliyaviy oqimlarning ulkan ko'lami to'g'risida quyidagi fakt dalolat berib turibdi, ya'ni faqatgina yetakchi yetti mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Buyukbritaniya, Italiya va Kanada) o'rtasidagi moliyaviy vositalar hajmi kuniga 500 mlrd. dollarni tashkil etadi.

Valyuta bozorlari — milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta'sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy valyutalarini oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar hisoblanadi.

Qadimdagi va o'rta asrlardagi valyuta ayirboshlash do'konini valyuta bozorining tarixiy prototipi deb atash mumkin. Biroq hozirgi zamonaviy valyuta bozorlari faqatgina XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida jahon valyuta-moliya tizimining dastlabki ko'rinishi - oltin standarti doirasida shakllandi. Valyuta bozorlari tuzilmasi banklar (jumladan, markaziy banklar ham), brokerlik (vositachilik) firmalari, turli ko'rinishdagi xalqaro korporatsiyalar (ayniqsa, TMKlar), shuningdek jismoniy

shaxslarni o'z ichiga oladi. Valyuta bozorining eng rivojlangan tarmog'i banklararo bozor (bitimlar umumiy hajmining 90 foizi to'g'ri keladi) hisoblanib, u bevosita va broker bozorlariga (valyuta operatsiyalarining 30 foizigacha) bo'linadi. Valyuta bozorining boshqa segmentlari birja bozori va mijoz bozori hisoblanadi.

Valyuta operatsiyalarining hajmi va tabiatiga bog'liq ravishda valyuta bozorlarining quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlari. Milliy va hududiy valyuta bozorlarida ma'lum to'plamdagi erkin konvertirlanuvchi valyutalarda va ba'zi bir mahalliy to'lov vositalarida cheklangan miqdorda bitimlar amalga oshiriladi, jahon valyuta bozorlarida esa faqatgina EKVda katta miqdorda soddalashtirilgan operatsiyalar o'tkaziladi, ularning umumiy summasi kuniga 1,2-1,3 trillion AQSh dollariga yetishi mumkin. Jahon valyuta bozorlarining eng yiriklari - London, Nyu-York va Tokio valyuta bozorlari bitimlari ko'lami jihatidan boshqalariga nisbatan ancha ustun sanaladi. Bu uch yirik bozorning har birida sutkasiga bir necha milliard dollarlik operatsiyalar amalga oshadi. Frankfurt-na-Mayna, Parij, Syurix, Gonkong, Singapur va boshqa bir qator valyuta bozorlari ham katta bozorlar hisoblandi. Bunday yirik bozorlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi paytdagi valyuta bozorlari bitimni amalga oshirish texnologiyalarining soddalashtirilganligi, uzulksizligi, yer yuzining barcha nuqtalarida amalga oshirilishi, chayqovchilik va sug'urta maqsadli operatsiyalar ko'laminin kattaligi, ko'pchilik yetakchi valyutalar (dollar, yena,

marka) kursining barqaror emasligi bilan xarakterlanadi.

Valyuta operatsiyalari asosiy tiplarining tavsifi

Valyuta bozorlarida sotiladigan pul aktivlarining asosiy katta qismi yirik banklardagi talab qilib olinadigan depozitlar ko'rishini olgan. Valyuta operatsiyalarining mohiyati xorijiy valyutani milliy valyutaga, boshqa xorijiy valyutaga yoki SDR va ECUga ayirboshlash jarayonini amalga oshirishdan iborat. Shuni qayd etish muhimki, ya'ni valyuta bitimlarini amalga oshirishda bankning xorijiy valyutada talablari va majburiyatlari hisobga olinadi, bu valyuta pozitsiyasi deb ataladi. Agar talab va majburiyat bir-biriga mos kelmasa valyuta pozitsiyasi ochiq, aksincha bo'lgan holat yopiq bo'ladi. O'z navbatida ochiq pozitsiya: sotilgan valyuta bo'yicha passivlar aktivlardan ko'p bo'lsa *qisqa*, agar sotib olingan aktivlar passivlardan ko'p bo'lsa *uzun* pozitsiya deb ataladi.

Ochiq bozorda joriy operatsiyalarni amalga oshirilishi jarayonida aniq bir xorijiy pul birliklari bo'yicha valyuta pozitsiyalari vujudga keladi (ochiladi) va yo'qolib ketadi (berkiladi). Shuning uchun banklar va valyuta savdosining boshqa ishtirokchilari valyuta pozitsiyalarini monitoringini amalga oshiradi, bundan asosiy maqsad valyuta xatarini baholash, bitimlar natijalarini bashorat qilishdan iborat.

Qoplash tabiati va muddatiga bog'liq ravishda valyuta operatsiyalarining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- **Spot** — bitimni imzolash paytida kontragentlar qayd etgan kurs bo'yicha valyutani darhol yetkazib berish bilan bog'liq kassa operatsiyalari.
- ikki bank kunidan ortiq (1 haftadan 5 yilgacha) vaqt oralig'ida shoshilinch tarzda valyuta yetkazib berish operatsiyalari, bunda bitim imzolangan paytdagi valyuta kursi kelishilgan muddat davomida kuchda bo'ladi va valyuta kursi «spot» kursdan ma'lum miqdorga farq qiladi. Bu farq shoshilinch bitim kursi past bo'lganda - diskont, baland bo'lganda - report deb ataladi. Shoshilinch valyuta operatsiyalaridan asosiy maqsad valyuta konversiyasi va kurslardagi farqlar hisobiga foyda ko'rishdan tashqari investitsiyalarni turli xavf-xatarlardan sug'urtalashdan iborat.
- **Svop** — forvard bitimi va spot sharti bo'yicha bitim asosida amalga oshadigan turli xildagi valyuta operatsiyalari bo'lib, bu tomonlardan birortasi biror-bir valyuta bozorida nisbiy ustunlikka ega bo'lsa, valyuta majburiyatlari bilan o'zaro ayirboshlash haqidagi kelishuvni nazarda tutadi. Svoplardan maqsad banklararo qarama-qarshi kreditlash, hisoblarni ta'minlash, valyuta avuarlarini diversifikatsiyalash va xatarlarni kamaytirishdan iborat. Bunday bitimlarni turli variantlari ssuda kapitali bozorlaridagi operatsiyalar bilan birgalikda valyuta arbitrajini tashkil etadi. Valyuta arbitraji milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlarida qisqa muddatli kapital harakati va foiz stavkalarini o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni o'rnatadi.

Valyuta operatsiyalari ko'rinishlari sharhini yakunida fyuchers va forvard bitimlari xususiyatlarini solishtirib ko'raylik.

Valyuta fyucherslaridan ilgari xom ashyo va qishloq xo'jaligi tovarlari savdosida tovar fyuchers bitimlaridan foydalanilgan.

25.1-jadval

Belgilari	Fyuchers bitimlari	Forvard bitimlari
1. Qatnashchilar tarkibi	Chegaralanmagan	Unchalik katta bo'lmagan kompaniyalar va individual investorlar uchun chegaralangan
2. Vositachilar	Odatda brokerlar orqali	To'g'ridan to'g'ri
3. Bozor xarakteri	Birja valyuta operatsiyalari zalida	Banklararo kommunikatsiya vositalari orqali
4. Bitimni amalga oshirish mexanizmi	Kafolat depozitlari taqdim etish bilan kliring palatasi orqali	To'g'ridan to'g'ri
5. Bitim summasi va valyutani yetkazib berish xarakteri	Valyuta yetkazib berishni nazarda tutmaydigan standart summadagi shartnomalar	To'lov vositalari albatta yetkazib beriladigan har qanday talab qilingan hajmdagi bitimlar

Valyuta fyucherslari esa ikkinchi jahon urushidan keyin, ayniqsa, 70-yillardan boshlab, Bretton-Vuds valyuta tizimiga xos bo'lgan valyuta kursini qattiq tartibga solish usullaridan voz kechilgandan so'ng keng tarqaldi. Fyuchers bitimi bo'yicha savdo qilishning yirik maydonlari hozirgi paytda Chikago, Nyu-York, London, Singapur va boshqa bir qator birjalar sanaladi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda (Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya, sobiq Yugoslaviya va SSSR tarkibiga kliruvchi respublikalar, Osiyodan Vetnam, Xitoy va Mongoliya) rejali iqtisodiyotni mavjudligi xorijiy to'lov vositalari bo'yicha barcha oldi-sotdi operatsiyalarida davlat monopoliyasini anglatardi. Boshqacha qilib aytganda, valyuta bozori amalda mavjud bo'lmagan. Bu davlatlar tomonidan 80-yillarning oxiri 90-yillarning

boshlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlar davomida tashqi iqtisodiy faoliyat markazdan boshqarishdan holi qilindi. Eng avvalo, rezident va rezident bo'lmaganlar uchun milliy valyutani ichki konvertatsiyasidagi cheklashlar olib tashlandi. Barcha korxonalar va tashkilotlarga davlat va yangidan tashkil etilgan tijorat banklarda valyuta hisobini ochish huquqi berildi. Kompaniyalar bu hisoblarga tashqi savdo bitimlaridan tushgan daromadlarni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ayni paytda valyuta birjalari va milliy pul birligining bozor kursi asosida xorijiy valyuta oldi-sotdisi bo'yicha har kuni o'tkaziladigan savdolarni tashkil etish boshlandi. TIF sohasi va uning valyuta tarmog'ini tartibga solishni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjatlar bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy valyuta bozorlarini tashkil etish jarayonida, ayniqsa, moliya-kredit

muassasalari infratuzilmasini shakllantirishda, shuningdek, raqobat muhiti sharoitida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlashda yetakchi mamlakatlarning texnik va konsultatsion ko'magi ham o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi.

Bundan tashqari sobiq sotsialistik mamlakatlarni global (XVF, XTTB) va hududiy (ETTB) darajadagi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi yoki a'zoligini tiklanishi bozorga xos valyuta munosabatlarga o'tishni tezlashtirishga

rag'batlantirdi. Va nihoyat, bu mamlakatlarni Yevropa, Yevroosiyo va Osiyo miqyosida yangi asosdagi integratsion guruhlarini rivojlantirishga intilishi yangidan yangi milliy va hududiy valyuta bozorlarini shakllanishiga ta'sir etdi. Biroq sobiq sotsialistik mamlakatlarning hech birini valyutasi EKVga aylana olmadi va nufuzli valyuta markazlarida kotirovka qilinmaydi.

XXVI bob. To'lov va hisob-kitob balans

To'lov balansining mohiyati va tuzilmasi

To'lov balansini tuzish amaliyoti tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Uning ibtidosi Buyukbritaniya, Fransiya, Ispaniya qirolliklari, keyinchalik Rossiya imperiyasi va AQShda g'aznaga bojxona va soliq tushumlari reestri (ro'yxati)ni tayyorlashdan boshlangan.

Mamlakat xalqaro hisob-kitoblarining aksi sifatida to'lov balansining tuzilishi o'zaro yaqindan aloqada bo'lgan ham hisob yuritish, ham tahliliy vazifalarni bajarishga qaratilgan. Tashqi iqtisodiy operatsiyalar ishtirokchilarining davrasi turli-tumandir: alohida mamlakatlar va ularning guruhlar, milliy, xorijiy va transmilliy korporatsiyalar, kompaniyalar va banklar, turli milliy va xalqaro tashkilotlar va muassasalar, xususiy shaxslar, davlat valyuta organlari va boshqa shu kabilar. Bu o'z navbatida nafaqat milliy, balki xorijiy manbalardan kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni hisobini yuritish, qayta ishlash zaruratiga olib keladi. Bundan, o'xshash turkumdagi ko'rsatkichlarning hisob-kitob uslublari va mazmunining yaxlitligi asosiy talab bo'lib qoladi. Qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarga universal xarakterni va ularni o'zaro solishtirish imkonini beruvchi yaxlitlikka erishishga Xalqaro Valyuta Fondining (XVF) to'lov balansini tuzish bo'yicha qo'llanmasidagi ko'rsatmalar qaratilgan.

Hozirgi kunda ushbu ko'rsatmalar XVFGa a'zo mamlakatlar to'lov balanslarini tuzish asosiga solingandir. Shu bilan birgalikda,

ayrim mamlakatlar to'lov balanslarini tuzish qoidalariga, o'z iqtisodi va jahondagi tashqi iqtisodiy o'rni hamda milliy hisob yuritishining qabul qilingan xususiyatlari bilan asoslangan o'z elementlarini kiritmoqdalar. Shu sababli, alohida mamlakatlar to'lov balanslari ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish jarayoni, qutulib bo'lmaydigan, ma'lum bir darajadagi shartlilik va noto'g'riliklarga asoslangandir. Bunday sababga ko'ra, ushbu taqqoslashlardan kelib chiqadigan xulosalar, birinchi navbatda tahlil etilayotgan hodisalarning ko'lami kattaligiga, bo'lib o'tayotgan jarayonlarning asosiy yo'nalishlari va oqibatlariga ishora etadi, ammo berilayotgan baholarning mutlaq to'la va to'g'riligiga da'vogar bo'la olmaydi.

To'lov balansiga turli ta'riflar. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlardagi to'lov balans ta'rifiga murojaat etaylik. Turli ilmiy ishlarda keltirilgan ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu ta'riflarning barchasi to'lov balansini mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar taqdim etilishining shakli sifatidagi pragmatik izohlashga aylangan.

Amerikalik iqtisodchilar Vasserman va Ueyrlarning to'lov balans muammolari bo'yicha fundamental ishida quyidagi atama beriladi: "To'lov balansini, muayyan bir davlat rezidentlari va dunyoning boshqa vakillari (boshqa mamlakat, bir guruh mamlakat yoki xalqaro tashkilotlar) orasida ushbu davrda mavjud bo'lgan iqtisodiy operatsiyalarning statistik ko'rinishi sifatida ko'z oldiga keltirish mumkin". XVFnning uslubiy qo'llanmalarida shunday deyilgan: "To'lov balans, quyida-

gilarni ko'rsatuvchi ma'lum bir davr statistik ko'rsatkichlar jadvalidan iborat: a) muayyan bir davlat va dunyoning boshqa mamlakatlari orasidagi tovarlar, xizmatlar va daromadlar bilan operatsiyalarini; b) mulk shaklining o'zgarishi va ushbu mamlakatga tegishli bo'lgan monetar oltin va qarz olishning maxsus huquqlaridagi (SDR) hamda dunyoning boshqa mamlakatlari nisbatan moliyaviy talab va majburiyatlardagi boshqa o'zgarishlarni; c) o'zaro yopilmaydigan operatsiya va o'zgarishlarni buxgalteriya nuqtal nazaridan balanslashtirishda zarur bo'lgan bir tomonlama o'tkazmalar va qoplovchi yozuvlar". Bunday ko'rsatmalarga muvofiq to'lov balansiga nafaqat amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar, balki ushbu operatsiyalarni balanslashtirish maqsadida tuzilgan sun'iy ko'rsatkichlar ham kiradi.

Fransuz rasmiy matbuot nashrlarida quyidagi atama berilgan: mamlakatning to'lov balansi muntazam ravishda uzaro taqqoslanadigan statistik qaydnomadan iborat bo'lib, uning mazmuni ma'lum bir davr mobaynida rezident va nerezident shaxslar orasida real va moliyaviy oqimlar yig'indisi harakatining hisoblangan ko'rsatkichlari ko'rinishida aks etgan.

Germaniya to'lov balansi tahlillaridan birida, uning atamasi quyidagicha berilgan: odatda to'lov balansi deganda mahalliy va xorijiy sub'ektlar orasida ma'lum bir davr mobaynida amalga oshgan barcha iqtisodiy kelishuvlarning tizimlashtirilgan, statistik ko'rinishining alohida ruknlariga bo'lingan balans shakli tushuniladi.

Rezident tushunchasi. Mamlakatning tashqi iqtisodiy operatsiyalarini ichki xo'jalik operatsiyalaridan farqlash zarurligi sababli,

to'lov balansi tuzilayotgan paytda rezident va shartnoma, hisobga olinishi zarur bo'lgan transaksiyalar tushunchalari muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Tashqi iqtisodiy operatsiyalar, xalqaro to'lov munosabatlari nuqtal nazaridan ushbu mamlakatning rezidenti yoki nerezidenti sifatida maydonga chiquvchi, aniq bir tashkilot, firma yoki xususiy shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Zamonaviy, kapitallar va ishchi kuchi migratsiyasi, iqtisod jarayonidagi globalashuv va transmilliy korporatsiyalarning kuchayishi sharoitida ushbu oddiydek tuyulgan masala, murakkablashib boradi. XVFnning rahbariyati rezident atamasiga quyidagi ta'rifni beradi: "Mamlakat iqtisodi, ushbu hudud bilan yaqinroq bog'langan, xo'jalik birliklarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Ushbu mamlakatning to'lov balansi, agarda bu xo'jalik birliklari ushbu mamlakatning rezidentlari sifatida ko'rilsa, dunyoning boshqa sub'ektlari bilan mazkur xo'jalik birliklarining operatsiyalarini aks ettiradi. Agarda mazkur xo'jalik sub'ektlari ushbu mamlakatga nisbatan nerezident shaxslar deb qaralsa, ushbu xo'jalik birliklarining mazkur davlat bilan operatsiyalari sifatida ko'riladi." Ikki tarafdin yozuv tizimidan foydalangan holda, XVFnning qo'llanmasida aytilganidek, xatolikka yo'l quyilgan paytda balans buzilmaydi, ammo amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha noto'g'ri tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Bunday holatga uchramaslik uchun rezident atamasiga, uning barcha joylarda to'g'ri ishlatilishi uchun, universal tushuncha ishlab chiqish lozim.

AQSHda rezidentlar bu mamlakatda munatazam ravishda mavjud bo'lgan barcha hukumat tashkilotlari, milliy kompaniyalar yoki muqim yashovchi fuqarolar hisoblanadi.

Xorijda yashovchi AQSH fuqarolarining (davlat xizmatchilaridan tashqari) rezident shaxsga mansubligi esa, ularning xorijda yashash muddatlari va boshqa omillarga bog'liq. AQSH korporatsiyalarining xorijiy filiallari va sho"ba korxonalari AQSH uchun xorijiy firmalar bo'lib hisoblanadi. Xuddi shunday amaliyot boshqa rivojlangan davlatlar uchun ham xosdir.

Germaniyada, to'lov balansi nuqtai nazaridan, rezident bo'lib, "sub'ektlarning milliy taalluqligidan qat'iy nazar, xo'jalik manfaatlarining markazi ushbu davlat bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslar, korxonalar va shu kabilar hisoblanadi". Shu sababli, Germaniyada rezidentlarga nafaqat kelib chiqishi germaniyalik bo'lgan shaxslar, balki ushbu mamlakatda o'tirib qolgan xorijlik tadbirkorlar ham kiradi.

Fransiyada qabul qilingan uslubiyotga asosan "rezident" atamasi, Fransiyada yashovchi yoki xorijda 2 yildan kam vaqt davomida yashagan fransuz millatiga mansub shaxslarni, hamda Fransiyada 2 yildan ortiq vaqt davomida yashagan xorijliklarni (xorijlik xizmatchilar bundan istisno) bildiradi. Bundan tashqari, Fransiyada joylashgan yuridik shaxslar ham rezident hisoblanadi (Fransiyada ishlayotgan diplomatik va konsullik vakolatxonalaridan tashqari).

O'zbekiston Respublikasida 1993 yilning 7 mayidan amalda bo'lgan va 2004 yilda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan "Vaiyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunga muvofiq rezidentlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) *O'zbekiston Respublikasida muqim yashovchi fuqarolar, shu jumladan vaqtincha xorijda bo'lgan fuqarolar,*

- b) *O'zbekiston Respublikasida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar;*
- c) *O'zbekiston Respublikasida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, yuridik shaxs bo'lmagan korxonalar va tashkilotlar;*
- d) *O'zbekiston Respublikasining xorijda joylashgan diplomatik va boshqa vakolatxonalar;*
- e) *yuqoridagi kichik "b)" va "c)" bandlarda zikr etilgan rezidentlarning O'zbekiston Respublikasi hududining tashqarisida joylashgan filiallari va vakolatxonalar.*

Shartnoma (bitim) ta'rif. Bu yerda tasnifning murakkab tomonlari mavjud. Xalqaro shartnomalar (bitimlar), odatda, almashuvni ko'zda tutadi, deb hisoblanadi. Shakllangan an'ana doirasida 4 ko'rinishdagi shartnomalar (yoki operatsiyalar) farqlanadi: moliyaviy aktivlarga qarata tovarlar, xizmatlar sotib olish va sotish (almashish); barter, ya'ni ushbu mamlakat tovar va xizmatlarini boshqa mamlakatlar tovar va xizmatlariga bevosita almashtirish; moliyaviy aktivlarni boshqa moliyaviy aktivlarga almashtirish, ya'ni qimmatli qog'ozlarni pulga sotish, tijorat qarzlarni to'lash va shu kabilar; bir tomonlama o'tkazmalar, ya'ni bir tomonlama asosda, qoplanishsiz tovar va xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni taqdim etish yoki sotib olish.

Bunday ta'rif, tashqi iqtisodiy operatsiyalarning ko'pchiligini qamrab olsa-da, bu borada ko'p masalalar ochiq qolmoqda. Milliy hisob-varaqlarni tuzish bo'yicha uslubiyotga asosan, tovarlar, xizmatlar va daromadlar

borasidagi shartnoma (bitim) deb, ishtirokchi bo'lmish bir sub'ektdan boshqa sub'ektga aniq (mavjud) ushbu resurslarni berish tushuniladi. Biroq, ichki va xalqaro almashuvda ishtirokchi bo'lmish ikkala taraf ham bir yuridik shaxs bo'lib chiqishi kabi gumonli holatlar vujudga keladi. Bunda moddiy qimmatliklarning bir qo'ldan boshqa qo'lga o'tishida yuridik mulkdorlik o'zgaribmaydi. Bunday tushdagi operatsiyalarni TMKlar, o'z xorijiy filiallari bilan yirik ko'lamlarda amalga oshiradilar. Shu bilan birgalikda, shunday holatlar ham mavjudki, shartnoma tusiga ega bo'lmagan operatsiyalar oqibatida qandaydir o'zgarishlar shartnomaga xos iqtisodiy samarani vujudga keltiradi. Masalan, valyuta kurslarining o'zgarishi munosabati bilan valyuta zahiralarning qayta baholanishi mamlakatning tashqi dunyoga bo'lgan talablarining qisqarishi yoki o'sishiga olib keladi.

XVF ekspertlari tomonidan, to'lov balansini tuzilishiga aloqador bo'lgan, shartnoma (bitim) yoki operatsiyaning ta'rifi tavsiya etiladi. Ushbu atamadan to'lov balansida aks etishi kerak bo'lgan har qanday operatsiyaga nisbatan foydalanish tavsiya etiladi.

Bir qator operatsiyalar ta'riflarining mukammal emasligi va olinayotgan ma'lumotlardagi xatoliklar sharoitida to'lov balansining kredit va debet taraflaridagi yakuniy ko'rsatkichlarida ma'lum bir nomutanosiblik kuzatiladi. Bunday holatga duchor bo'lmalik uchun, to'lov balansi jadvallarini tuzish negiziga ikki taraflama buxgalteriya yozuvi tamoyili qo'yilgan. Bu degani, to'lov balansida qayd etiladigan har qanday operatsiya bo'yicha, ushbu hujjatga 2 bir-biriga o'xshash ko'rsatkich kiritiladi: biri – kredit tarafida ijobiy

belgi bilan, ikkinchisi - debetli tarafida manfiy belgi bilan. Bulardan, birinchi ko'rsatkich sotib olingan yoki ushbu mamlakat rezidentlari tomonidan sotilgan tovarlar, xizmatlar va qimmatli qog'ozlar qiymatini ko'rsatadi, ikkinchisi esa ushbu operatsiyaning qanday qilib moliyalashtirilishi haqida ko'rsatadi: naqdli to'lovlar, moliyaviy aktivlar berilishi yoki (kam hollarda) barter asosida.

Tovarlar va xizmatlar eksporti xorijdan tushumlar sifatida qayd etiladi va kreditli operatsiyalar bo'limiga kiritiladi; tovarlar va xizmatlar importi esa – debetli operatsiyalar bo'limiga, to'lovlar sifatida, kiritiladi. Ushbu operatsiyalarning har biri uchun qilinayotgan ikkinchi yozuv, ushbu operatsiyani moliyalashtiruvchi naqd pullar yoki moliyaviy aktivlar harakat yo'nalishini ochib beradi. Masalan, tovarlar eksporti holatida birinchi ko'rsatkich tushumlar bo'limida uning qiymatini, ikkinchisi esa – to'lovlar bo'limida, xorijga nisbatan moliyaviy talablarning ortishini ko'rsatadi yoki ushbu mamlakat banklarida xorijliklarga tegishi avuarlarning taalluqli qisqarishini ko'rsatadi.

Tayyorlov hisob varaqlarining katta qismini qayta ishlanishi asosida, yig'ma to'lov balansiga, tushum va to'lovlar yoki mamlakatning tashqi dunyo bilan operatsiyalarining talab va majburiyatlaridagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi yakuniy ko'rsatkichlar kiritiladi. Shunday qilib, to'lov balansining tuzilish tamoyiliga asosan, uning ijobiy ko'rsatkichlari yakuniy summasi salbiy ko'rsatkichlarining yakuniy summasiga teng bo'lishi kerak. Ya'ni, bu uning rasmiy muvozanatini ta'minlashi lozim. Biroq, bunday holatda ham uslubiyot va hisob yurtish xarakteridagi noaniqliklar va

qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar saqlanib qoladi.

Baholarning hisobi. Katta bir muammo-ning asosini tashqi iqtisodiy xarakterdagi shartnomalar amalga oshadigan baholarning hisobi tashkil etadi. To'lov balanslarini tuzishga aloqador organlar hamma vaqt ham to'g'ri ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega emas. Aksincha, shartnoma ishtirokchilarining tijorat sirini saqlashdan manfaatdorligi tufayli, ko'p hollarda ushbu ma'lumotlarni olishning imkoniyati yo'q.

Har bir tovar uchun turli geografik bozorlarda, turli baholar mavjud: bojxona va boshqa soliq yig'imi olinadigan baholar; tovarning egasi o'z hisob yuritish hujjatlarida tovarning hisobini yuritadigan baholar; ichki firma yoki transfert baholar va boshqa shu kabilar. Ko'pchilik baholarning ichidan, to'lov balansiga shartnoma (bitim) haqida ma'lumot kiritish uchun, kreditli va debetli yozuvlar uchun yagona tamoyil asosida belgilanadigan baho ishlatilishi kerak, aksincha bo'lganda, operatsiyalarning balanslashganlik qoidasiga rioya qilinmaydi. Bahoning tanlanishi nafaqat, so'z yuritilayotgan mamlakatga, balki o'z operatsiyalarini birgalikda amalga oshirayotgan uning hamkorlariga aloqador ekanligi, bir xillik va statistik talablarni ta'minlash maqsadida savdo operatsiyalarini bozor bahosida yoki ularning ekvivalentida baholash tavsiya etiladi.

Shartnoma (bitim) paytini qayd etish. Ma'lumotlari to'lov balansiga kiritiladigan operatsiyani amalga oshirish paytini qayd etish ham muhim masala hisoblanadi. Operatsiyani amalga oshirilish sanasini aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida quyidagi sanalar bo'lishi mumkin: shartnomaning tuzilishi (imzolanishi)

yoki kelishuvga erishilishi, tovarning transportga ortib jo'natilishi, uning yetkazilishi, bojxonadan o'tish tartib-qoidalari, xizmatlarni bajarish, daromad yoki xarajatning hisoblanishi.

XVF tomonidan tavsiya etilgan to'lov balansi jadvalining batafsil tarkibiy tuzilishi, yuqorida qayd etilgan yirik moddalarga bo'lingan, 100 dan ortiq ko'rinishdagi operatsiyalarni o'z ichiga olgan. Ushbu tavsiyalar XVFGa a'zo mamlakatlar to'lov balanslarini tuzish va ularni o'zaro taqqoslashdagi bir xillikka erishishga qaratilgan. Biroq, amaliyotda bu masalaning ko'rinishi haqiqatdan ancha yiroqdir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga aloqador ma'lumotlarni yig'ishdagi murakkablik, ularning to'a emasligi, uslubiy farqlar va boshqa omillar davlat organlari uchun, tashqi iqtisodiy operatsiyalarning hajmi, tarkibiy tuzilishi, ijro etilish vaqti va boshqa xarakteristikalarini muqobil aks ettiradigan, to'lov balansi hujjatlarini tuzishni qiyinlashtirib yuboradi.

Turli xiidagi xato va noto'g'riliklar shunga olib keladiki, to'lov balansiga "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" yoki "statistik xatoliklar" moddasi kiritiladi. Biroq, to'lov balansi rasmiy nuqtai nazardan doim muvozanatda bo'lishini inobatga olgan holda, haqiqiy ma'lumotlar bo'yicha tafovutlar ushbu moddaga kiritiladi. Bir qator holatlarda, ushbu moddaga, qandaydir sababalarga ko'ra, to'lov balansi moddalarining mavjud tavsifiga to'g'ri kelmaydigan yoki yashirilishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar kiritiladi. Ushbu modda, nafaqat uslubiyot xatoliklarini, balki hisobga olinmagan, shu jumladan kontrabanda operatsiyalarni aks ettiradi. Shu sababli, ushbu modda bo'yicha

ko'rsatkichlarning hajmi odatda yetarli darajada barqarordir. Ammo, iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy va siyosiy nobarqarorlik davrida "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasining yalpi ko'rsatkichi ko'tariladi.

To'lov balansi negizida barcha bitim turlarini ularning xususiyatlariga bog'liq

ravishda buxgalteriyadagi standart kredit-debit yozuvidan foydalangan holda guruhlash prinsipi yotadi. To'lov balansining standart tuzilmasi uchta hisobni o'z ichiga oladi: joriy operatsiyalar, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar, rasmiy zahiralar.

26.1-jadval. To'lov balansi tuzilmasi.

<i>KREDIT</i>	<i>DEBET</i>
I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovarlar eksporti	2. Tovarlar importi
Tashqi savdo balansi qoldig'i (tashqi savdo balansi)	
3. Xizmatlar eksporti (fraxt, turizm va boshqalar, kredit xizmatlaridan tashqari)	4. Xizmatlar importi (tabiatiga ko'ra eksportdagi kabi)
5. Investitsiyadan daromadlar, dividendlar, foizlar, xorijdagi rezidentlarning maoshlari, ya'ni kredit xizmatlaridan daromadlar.	6. Mamlakatdagi investitsiyalar bo'yicha xarajatlilar, kapital qo'yilmalari bo'yicha dividendlar, foizlar uchun faktor xarajatlilar, mamlakatdagi rezident bo'lmaganlar uchun to'lovlar, ya'ni kredit xizmati bo'yicha xarajatlilar
7. Joriy ichki transfertlar (nafaqalar, sovg'alar, mamlakatga pul o'tkazmalari, mamlakatga xorijdan beg'araz yordamlilar).	8. Joriy tashqi transfertlar (nafaqalar, sovg'alar, chet elga pul o'tkazmalari, xorijiy mamlakatlarga beg'araz yordamlilar).
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
II. Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi	
9. Kapital kirib kelishi (mamlakatga kapital transfertlari — uzoq muddatli qarzlarni olish)	10. Kapital chiqib ketishi (mamlakatning kapital transfertlari — uzoq muddatli qarzlarni berish)
11. Qisqa muddatli kapital kirib kelishi	12. Qisqa muddatli kapital chiqib ketishi
Kapital operatsiyalari balansi qoldig'i	
13. Tushirib qoldirish va xatolar	14. Tushirib qoldirish va xatolar
Rasmiy hisoblar bo'yicha balans qoldig'i	
III. Rasmiy zahiralar hisobi	
15. Valyuta zahiralari kopyayishi. (oltin, EKV, XVFDagi zahira pozitsiya va xorijiy valyuta)	16. Valyuta zahiralari kamayishi. (oltin, EKV, XVFDagi zahira pozitsiya va xorijiy valyuta)
Yakuniy balans	

26.1-jadvaldagi to'lov balansining namunaviy tuzilmasiga e'tiborimizni qaratar ekanmiz, uning bir qator xususiyatlarini qayd etib o'tishimiz mumkin. Joriy operatsiyalar balansiga kelsak, mamlakat uchun shunday holat vujudga kelishi mumkinki, ya'ni uning aktiv yoki passivlari hajmi boyliklarni ayriboshlash amalga oshirilmasdan o'zgaradi. Bunga misol sifatida milliy korporatsiyalarning

daromadlarini xorijiy firmalarga qayta investitsiya qilinishi oqibatida o'z vataniga qaytmasligini ko'rsatish mumkin. Bu holatda xalqaro bitim amalga oshmagan hisoblanadi, bu daromadlar mamlakat to'lov balansi moddalaridan chiqarib tashlanadi.

Davlat import bo'yicha daromadlar eksport bo'yicha xarajatlardan yuqoriligini bildiruvchi joriy operatsiyalar kamomadiga duch kelganda

kamomadni moliyalashtirish xorijiy qarzlari yoki aktivlarning bir qismini rezident bo'lmaganlarga sotish orqali amalga oshiriladi (bu operatsiyalar kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida o'tkaziladi). Oxirgi hisobga kelsak, uning ijobiy qoldig'i mamlakatga chet elliklarga kredit berish va xorijiy aktivlarni to'plash imkoniyatini beradi.

Milliy statistika tizimini mukammal emasligi yoki operatsiyalarning yashirin tabiati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi «tushirib qoldirishlar va xatolar» moddasiga ham e'tibor berish kerak. Bu modda aktivlar va passivlar orasida farqni nulgätenglashtirish imkoniyatini beradi. Rasmiy hisob-kitoblar balansäkamomadga uchraganda qarzni yopish Markaziy bank tomonidan milliy valyuta zahiralari qisqartirish (bozorda sotish) hisobiga amalga oshiriladi. Zahiralari *oltin* (milliy oltin zahiralari, odatda quyma holda), *xorijiy valyutalar* (boshqa mamlakatlarning naqd pullari, depozitlari, qimmatbaho qog'ozlari), SDR, XVFDagi zahira pozitsiya (XVF a'zosiga tegishli kvotaning bir qismi).

Xalqaro hisob-kitoblar amaliyotida xorijiy qarzlarni qoplash salohiyatini baholash imkoniyatini beruvchi sof rasmiy valyuta zahiralari deb ataluvchi ko'rsatkich qo'llaniladi.

(Sof valyuta zahiralari : Umumiy import hajmi) X 12,

Formula yordamida importni to'lash uchun valyuta zahiralari yetarliligi darajasini hisoblash mumkin. Bu formula davlat mavjud valyuta zahiralari hisobiga importni to'lashga qodir bo'lgan davr davomiyligini aks ettiradi va uning xalqaro agentliklardagi kredit reytingiga

ta'sir qiladi. Agar bu ko'rsatkich bo'yicha importni qoplash davri uch oydan kam bo'lsa, vaziyat noqulay hisoblanadi va yangi kreditlar olish imkoniyati qisqaradi.

To'lov balansätahlilining nihoyasida asosiy va balanslovchi moddalar mavjudligini qayd etib o'tish joiz. Mohiyati jihatdan asosiy (avtonom) moddalarga tovarlar yoki kapitalning odatiy aylanmasini aks ettiruvchi moddalar kiradi. Balanslovchi (kompensatsiyalovchi) moddalar esa tovarlar va kapital harakatini ta'minlash maqsadidagi moliyaviy resurslar transfertini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy moddalar tovar va xizmatlar eksport-importi, ishlab chiqarish filiallarini tashkil etish uchun investitsiyalar, ya'ni joriy operatsiyalar va uzoq muddatli kapital harakatini o'z ichiga oladi. Balanslovchi moddalar valyuta zahiralari harakati, qisqa muddatli aktivlar hajmining o'zgarishi, davlat qarzlari va kreditlari, ikki tomonlama bitimlar hamda xalqaro tashkilotlar liniyasi bo'yicha moliyaviy yordamlardan tarkib topgan. Amaliyotda asosiy va balanslovchi moddalarga ajratish shartli sanaladi.

To'lov balansining xalqaro soddalashtirilgan sxemasi

To'lov balansäto'g'risida batafsilroq tasavvurga ega bo'lish uchun XVFDan ishlab chiqilgan va BMT tasdiqlagan soddalashtirilgan loyiha bilan tanishish foydadan holi bo'lmaydi (26.2-jadval).

Quyidagi sxemadan tashqari alohida ayrim mamlakatlarning iqtisodi faoliyatida xalqaro investitsion qarzlari balansidan foydalaniladi,

unda majburiyatlar va mablag'larning ko'payishi yoki kamayishi kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar bo'limida oldingi debet va kredit hisoblari summasi ko'rinishida

qayd etiladi. O'zbekistonning shunga o'xshash balansi uchta kichik bo'lim: *davlat boshqaruvi tarmog'i, banklar va boshqa tarmoqlar* bo'limlarini o'z ichiga oladi.

26.2-jadval. Xalqaro soddalashtirilgan to'lov balansi

Indeks	Asosiy moddalar
A	Joriy operatsiyalar, Tovarlar eksporti, Tovarlar importi, Savdo balansi, Xizmatlar (qoldiq), Investitsiyalardan daromadlar (qoldiq), Transfertlar (qoldiq)
V	Uzoq muddatli investitsiyalar, To'g'ri investitsiyalar, Portfel investitsiyalar, Boshqa uzoq muddatli kapital qo'yilmalari
(A + V)	Bazis balansi
S	Qisqa muddatli kapitalar (qoldiq)
O	Xatolar va tushirib qoldirishlar
(A + V + S + O)	Rasmiy hisob-kitoblar balansi
R	Xorijiy davlatlar oididagi majburiyatlar
D	Zahiralarning o'zgarishi. Oltin. SDR. XVFDagi rezerv pozitsiya. Xorijiy rezerv valyutalar.

To'lov balansini tartibga solish vositalari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasida alohida olingan mamlakat to'lov balansi kamomadi bu mamlakat milliy xo'jaligida ma'lum bir nomutanosibliklar vujudga kelishi oqibati sifatida qaraladi. Bu nomutanosibliklarni vujudga kelishi sabablariga bog'liq ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin: *tuzilmaviy, bahoga bog'liq, daromad darajasi bilan aniqlanuvchi, katta miqdordagi kapitalni avtonom ko'chishi bilan bog'liq* nomutanosibliklar.

Tuzilmaviy nomutanosibliklar ushbu davlatning ishlab chiqarish tuzilmasini jahon bozori

talablariga mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi. Baho bilan bog'liq nomutanosibliklar inflyatsiya xarajatlarini oshishi va ishlab chiqarish omillari qiymatini ko'tarilishi bilan aniqlanadi. Uchinchi guruh nomutanosibliklar davlat daromadlarining kamayishi va xarajatlarining oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Va nihoyat, oxirgi guruh nomutanosibliklar katta miqdordagi bir martalik to'lovlar (masalan, harbiy operatsiyalar o'tkazish yoki tabiiy ofatlar bilan kurashga sarflanadigan xarajalar) oqibatida kelib chiqadi. To'lov balansiga ta'sir etishning turli tuman usullari ichida asosiylarini keltirib o'tamiz:

- *milliy bank tomonidan rezerv valyuta zahiralari sotish;*

- kreditlar bo'yicha foiz stavkalari miqdorini o'zgartirish (markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qayta moliyalashtirish va lombard krediti stavkalari foizlarini o'zgartirish);
- pul emissiyasi hajmini nazorat qilish;
- samarali soliq siyosati;
- tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi;

- valyuta kursini o'zgartirish.

Aytib o'tilganlarga yakun yasaydigan bo'lsak, importni kamayishi, Markaziy bank kreditlariga foiz stavkalarini ko'tarilishi, bojxona bojlarini oshishi, pul massasini kamayishi, milliy valyutani devalvatsiya qilinishi kabilar ham to'lov balansini yaxshilash va ijobiy qoldiqqa erishishga yordam beradi.

Bo'lim bo'yicha rezyume:

Xalqaro valyuta-hisob-kitob munosabatlari valyutalarning to'lov vositasi sifatida ishlatilishi jarayonida yuzaga keladi va bu valyutalar qatoriga universal hisob birliklari - SDR va EKYU (1999 yildan yevro), shuningdek oltin ham kiradi. Oltin XX asrning boshlariga nisbatan o'zining hukmronlik rolini yo'qotdi. Xalqaro to'lovlarning asosiy ko'rinishlari akkreditiv, inkasso, bank o'tkazmalari, avans va ochiq hisoblar hisoblanadi. Veksellar, cheklar, keyingi yillarda esa elektron kredit kartalaridan keng foydalanilmoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyin davlatlararo munosabatlar amaliyotida bir tomonlama va ko'p tomonlama valyuta kliringlari tez rivojlanmoqda.

Milliy va xorijiy valyutalar tashqi iqtisodiy operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarda foydalaniladigan pul birliklari sifatida xalqaro valyuta fondi tizimining muhim unsurlari sanaladi. Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanish jarayonida bir qator bosqichlarni o'tdi va hozirgi paytda yangi global islohotlar bo'sag'asida turibdi. Davlatlararo miqyosda valyuta munosabatlarini tartibga solinishiga global va

hududiy valyuta-moliya tashkilotlari yordam beradi, ularning ichida eng nufuzlisi XVF hisoblanadi. Valyutaning konvertirlanganligi mamlakatning moliyaviy, binobarin umumiy iqtisodiy holatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Valyuta kursi foiz stavkasi bilan birgalikda aktivning o'ziga xos bahosidir. Valyuta kursi sotish va xaridning nominal va real kursi sifatida to'g'ri yoki teskari kotirovka orqali ko'p sonli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-ruhiy omillar ta'sirida valyuta siyosatida markaziy o'rinda turadi. O'z navbatida valyuta kursi zamonaviy XIMning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyutaga talab va taklif bozorida milliy valyutaning joriy vaqtda xorijiy valyutada ifodalangan o'rtacha chamalangan bahosini ifodalovchi muvozanat kursini shakllantiradi. Talab va taklif egri chiziqlariga alohida olingan mamlakatda diapazoni belgilangan kursdan erkin kursgacha o'zgaruvchi valyuta kursini tartibga solish rejimi, shuningdek, oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirishda favqulodda valyuta yo'qotish xavfi bilan bog'liq tijoriy tavakkalchilik miqdori va tabiati ham katta ta'sir

ko'rsatadi. Jahon amaliyotida valyuta tavakkalchiligidan himoyalashning bir nechta samarali usullari mavjud, ular qatoriga qo'shimcha shartlashish, kafolat va baho bo'yicha sug'rtalash kiradi.

Valyuta bozorlari XVF tizimining muhim unsuri sanaladi, ular to'lov vositalari xalqaro oborotini uzluksizligini ta'minlaydi. Operatsiyalar hajmi va tabiatiga bog'liq ravishda valyuta savdosi bo'yicha milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlari farqlanadi. Valyuta operatsiyalarining eng ko'p tarqalganlari sifatida «spot» ko'rinishidagi kassa bitimlari, «forvard», «f'yuchers» va opsiyon ko'rinishidagi tezkor bitimlarni keltirish mumkin. Keyingi yillarda kassa va shoshilinch bitimlarning ustunliklarini

umumlashtiruvchi valyuta svoplari keng tarqaldi.

Davlat to'lov balansining tipik tuzilmasi bir-biri bilan chambarchas aloqador bo'lgan uchta asosiy bo'limni o'z ichiga oladi: joriy operatsiyalar, kapital harakati va rasmiy zahiralari. XVF bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladigan soddalashtirilgan to'lov balansi sxemasini ishlab chiqqan. Davlat moliyaviy, soliq va ma'muriy tadbirlar kompleks yordamida to'lov balansidagi nomutanosiblikning asosiy sabablarini bartaraf etgan holda to'lov balansining ljoby qoldig'iga erishishga intiladi, bu esa milliy iqtisodiyotning ilgariylanma harakatidan dalolat beradi.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- *Xalqaro valyuta hisob-kitob munosabatlarining mohiyatini tushuntiring.*
- *Jahon valyuta tizimida qanday to'lov vositalaridan foydalaniladi?*
- *Xalqaro hisob-kitoblar ko'rinishlariga tavsif bering.*
- *Veksel va chek o'rtasida qanday umumiylik va farqlar mavjud?*
- *Valyuta kliringining XIMda tutgan o'rnini ochib bering.*
- *"Valyuta" tushunchasi mohiyatini ochib bering.*
- *JVMT mohiyati va asosiy unsurlari qaysilar?*
- *JVMT rivojlanish bosqichlari va zamonaviy holatiga tavsif bering.*
- *XVF nima va O'zbekistonning XVF faoliyatidagi ishtirokini tushuntirib bering.*
- *Valyuta cheklashlari nima?*
- *Amaliyotda valyuta cheklashlarining qaysi ko'rinishlari ko'proq qo'llaniladi?*
- *«Valyuta konvertirlanishi» tushunchasi mohiyatini ochib bering.*
- *Konvertirlanganlik xarakteriga ko'ra qanday valyuta turlarini bilasiz?*
- *Valyuta kursi mohiyati va xususiyatlarini tushuntiring.*
- *Valyuta kursining tebranishiga qanday omillar ta'sir qiladi?*
- *Valyuta siyosatining sosiy ko'rinishlariga tavsif bering.*
- *To'lov balansining namunaviy tuzilmasini tushuntirib bering.*

Jaqinchi qism. Xalqaro iqtisodiyot asoslari

- *Xalqaro soddalashtirilgan to'lov balansining xususiyatlari qanday?*
- *Xalqaro investitsion qarzlari balansini nima?*
- *To'lov balansini tartibga solish vositalari qaysilar?*

Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar

Oltin standarti davrida, ayniqsa 1914 yilgacha valyuta kurslari barqaror bo'lgan va deyarli o'zgarmagan. Ikki urush oralig'ida esa valyuta kurslarining keskin tebranishi odatiy holga aylangan. Sizning fikringizcha, mamlakatlarga o'z valyutalari qiymatini oltinda qayd etishga nima halaqit qilgan?

Bretton-Vuds valyuta tizimi doirasida mamlakatlar qisqa muddatli chayqovchilik kapitalini birdaniga kirib kelishi yoki chiqib ketishidan qanday saqlanishlari mumkin? Bu mexanizmlar zamonaviy valyuta tizimi doirasida yordam bera oladimi?

Yagona valyutaga o'tgunga qadar Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bir-biriga nisbatan qayd etilgan valyuta kursidan, a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan esa "suzib yuruvchi" valyuta kursidan foydalangan. Bu sxemaning ustunlik va kamchiliklari qanday:

- *O'zbekistonga nisbatan;*
- *Niderlandiyaga nisbatan;*
- *Germaniyaga nisbatan (Yevropa Ittifoqidagi katta mamlakat).*

X mamlakatda nominal stavka ko'tarilib, real stavka tushib bormoqda. Bu mamlakat valyutasi kursi qanday o'zgaradi? Nima uchun?

BESHINCHI BO'LIM. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI

XXVII bob. Jahon ishchi kuchi bozori

Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo'lish sabablari

Jahon aholisi yoshiga bog'liq ravishda ikki tipdagi odamlarni o'z ichiga oladi: mehnatga layoqatli - 15-60 yoshlilar, mehnatga layoqatsiz - bolalar va qariyalar. Aholi umumiy hajmining taxminan 70 foizi birinchi tipga tegishli, biroq bu ulush turli hududlarda o'zgarib turadi. Masalan, Osiyo va Afrikada voyaga yetmaganlar, Yevropa va Shimoliy Amerikada qariyalar ulushi yuqoriroq.

O'z navbatida mehnatga layoqatli aholi ham ikkiga ajratiladi: iqtisodiy faol va faol bo'lmaganlar. Uy bekalari, talabalar (ta'til paytida), davlat qaramog'idagi fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmaganlar iqtisodiy faol bo'lmaganlar qatoriga kiradi. Bizni iqtisodiy faol aholi, ya'ni mehnatga layoqatli va unga intiluvchi odamlar qiziqtiradi. Fuqarolarning aynan shu toifasi mamlakat ichkarisida va xorijdan ish qidirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyai uzoq tarixga ega bo'lsada, faqatgina XX asrga kelib ishlab chiqarish omillari harakatining yetakchi ko'rinishlaridan biriga, binobarin XIMning alohida sohasiga aylandi.

Buni quyidagi sabablar bilan bog'lash mumkin:

- *xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi;*

- *ijtimoiy-demografik o'zgarishlar;*
- *fan-texnika va axborot sohasidagi inqilob;*
- *integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;*
- *transmilliy korporatsiyalar faoliyati.*

Bu barcha omillar mehnatga layoqatli aholining harakatchanligini kuchayishiga sababchi bo'ldi, zero insonlar mamlakatlar va qit'alararo ko'chish uchun rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalani-shadi. Hozirgi kunga kelib jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) vujudga keldiki, bu bozor asosini milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi tashkil etadi. XX asrning oxiriga kelib mehnatkash-migrantlarning bir yildagi o'rtacha miqdori 35 mln. kishiga yetdi (1960-yilda 3,5 mln.). BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda migrantlar soni 258 mln.ga yetdi. JIKB faqatgina migrantlarni emas, balki turli darajadagi migratsiya xizmatlarini, shuningdek, xorijiy mehnatkashlar huquqiy statusi, ularning mehnatini himoyalash, ularga ijtimoiy kafolatlar berish va boshqa masalalar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur mavzuda aholining ko'chishi jarayonlari ichida ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar keltirib chiqargan mehnat migratsi-

yasi to'g'risida so'z boradi. Fuqarolarni o'z vatanidan tashqarida ish qidirishga majbur etuvchi omillar ichida eng asosiysi turmush darajasini yaxshilash va o'z qobiliyatlaridan unumli foydalanishga intilishlari hisoblanadi. Ayni paytda ishsizlik, qishloq xo'jaligida aholining ko'payib ketishi kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar ham yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o'zgartirishga sababchi bo'ladi.

Hozirgi paytda davlatlar mehnat migratsiyasini tartibga solish borasida o'z harakatlarini kuchaytirib borishmoqda. Migrantlarni jo'natuvchi (eksportyor-mamlakatlar) va qabul qiluvchi (importyor-mamlakatlar) tomonlarning o'zaro manfaatlarini huquqiy ifodasi odatda ikki va ko'p tomonlama kelishuvlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu sohada xalqaro konventsiyalarni tayyorlashda Aholi bo'yicha BMT Komissiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti,

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot kabi global tashkilotlar sezilarli ko'mak berib kelmoqda. Ishchi-migrantlar huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi hududiy tuzilmalarga misol sifatida G'arbiy Yevropadagi Migratsiya masalalari bo'yicha hukumatlararo qo'mitani keltirish mumkin. JIKB doirasidagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy xalqaro me'yoriy hujjatlari Xalqaro mehnat tashkilotning 1962, 1975, 1982 yillardagi Konventsiyalari hisoblanadi. Bu hujjatlarning moddalariga migrantlarni yollash, ularning huquqlarini kafolatlash, migratsiyaning yashirish kanallari bilan kurashish kabi masalalarni tartibga soladi.

Mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va markazlari

Mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahonning u yoki bu hududlarida sezilarli farq qiladi. Mehnatkash-migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksport/import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasida va tabiiy demografik o'sish sur'atida jiddiy farq bo'lganda kuzatiladi. Migratsiyaning asosiy to'rtta yo'nalishlari ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarini ko'chishi birinchi o'ringa turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko'rsatib o'tishadi: G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari o'rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotli davlatlar o'rtasida (mas. Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo'nalishi, ya'ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotli davlatlarga migratsiya uchrasida, bu yo'nalishni tanlovchi migrantlar soni unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi va ular TMKlarning shaxobchalari va sho'ba korxonalarida band bo'lgan kadrlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlari a'zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar hamda tavakkalchilardan iborat. Ishchi kuchini o'ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va uch yuz yildan beri mavjud bo'lgan markaz Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada)

hisoblanadi. Amerikalik statistlarning ma'lumotlariga ko'ra 90-yillar davomida AQShga belgilangan kvota 675 ming kishi bo'lishiga qaramay yiliga 1 mln. dan ortiq migrantlar kirib kelgan. Migrantlarni o'ziga tortuvchi boshqa bir «ohangrabo» Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Ularga xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining to'rtidan bir qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu hududda Fransiya (mamlakat aholisining 8 foizi xorijliklar), Germaniya (7,5 foiz) yetakchilik qilmoqda. Bulardan tashqari Buyukbritaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchi qabul qilib oldingi o'rinlarda turadi. Mehnat migratsiyasining uchinchi yirik markaz – Avstraliyadir. Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasi pastligi va uning tarkibida xitoy etnosining ulushi ko'payib borayotganidan xavotirda. Shuning uchun ham Kanberra tomonidan Avstraliya mamlakatiga - qit'aga oq irqga mansub aholini, asosan fertil (turmush qurish va farzand ko'rishga qodir) yoshdagi ayollarni ko'chib o'tishini rag'batlantirish borasida chora-tadbirlar majmuasini e'lon qilgan.

Muhim migratsiya markazlardan biri sifatida Isroilni esga olishimiz ham maqsadga muvofiq. Isroil barcha yahudiylarni o'zlarining tarixiy vatanlariga qaytarishga harakat qilmoqda. Yahudiylarning «Jannatmakon yer»ga migratsiyasi umuman olganda siyosiy sabablar tufayli bo'lsada, uning iqtisodiy jihatlari ham mavjud, turmush darajasi past bo'lgan mamlakatlardan Isroilga kelayotgan migrantlar oqimining jadalligi ham bundan dalolat berib turibdi.

Keyingi yigirma yil ichida migrantlarni o'ziga jalb etuvchi yangi markazlar vujudga

keldi. Ularning ichida Fors ko'rpazi mamlakatlari (Saudiya Arabistoni, Qatar, Quvayt, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirligi) va Lotin Amerikasi (Argentina, Braziliya, Meksika) hamda Osiyoning (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayvan) yangi industrial mamlakatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Afrika qit'asida esa bunday markaz JAR hisoblanadi.

MDH doirasida Rossiya yirik markaz bo'lsa-da, u ham eksportyor, ham importyor mamlakat sanaladi. Rossiyadan MDHdan tashqari ishchi kuchi eksport qilinsa (yiliga 10 ming kishi), MDH mamlakatlaridan - asosan Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Qozog'istondan (yiliga 300-500 ming kishi) import qilinadi.

Xalqaro mehnat migratsiyasi ko'rinishlari

Xalqaro migratsiya aylanmasi tarkibini tushunib yetish uchun mehnat migratsiyasining ko'rinishlarini belgilab chiqish zarur, ularni turli mezonlarga ko'ra sinflash mumkin. Migratsiyasining asosiy ko'rinishlari quyidagilar:

- *davomiyligiga ko'ra - vaqtinchalik, mavsumiy va doimiy;*
- *ijtimoiy tarkibiga ko'ra - malakasiz ishchilar, o'rta texnik va servis xodimlari, talabalar (ta'til paytida), mutaxassislar, fan, madaniyat va sport arboblari, tadbirkorlar;*
- *tabiatiga ko'ra - bevosita va bilvosita (TMK doirasida firma ichida);*
- *mehnat shartnomasi ko'rinishiga ko'ra - shaxsiy va jamoaviy;*

- **qabul qiluvchi mamlakatda huquqiy holatga ko'ra - assimilyatsion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va neassimilyatsion.**

Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning asosiy qismini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida band bo'lgan kam malakali ishchilar tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, mutaxassislarining, ya'ni TMKlar tuzilmasida e'tiborli va yuqori haq to'lanadigan mansablarni egallagan yuqori malakali ishchi kuchining migratsion oqimi o'sib bormoqda

(gap «aqlilarni ketib qolishi» to'g'risida bormoqda). Bundan tashqari yildan yilga Yevropa Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarda ayollar va yoshlarning safarbarligi kuchaymoqda.

XIMda migratsiya oqimlarini kuchayib borishi tufayli ularning qabul qilib oluvchi va jo'natuvchi davlatlar iqtisodiyotiga ta'siri yanada sezilarli bo'lib bormoqda. Shuning uchun jahon ishchi kuchi bozorini ana shu nuqtai nazardan ko'rib chiqish joiz.

XXVIII bob. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga


ta'siri

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy samaralari

Ishchi kuchi ko'chib yurishining iqtisodiy sababi mehnatga to'lanadigan haqning turli

davlatlarda turlichaligidir. Xalqaro ishchi kuchi harakatining asosiy bosh sababi, demak, turli davlatlarda o'rtacha real ish haqi darajasining har xilligida.

28.1-rasm. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligi.



Tasavvur qilamizki dunyoda "A" va "B" davlatlari mavjud. "A" davlat LA miqdorda mehnat resurslari bilan, "B" davlat esa AL* miqdorida resurslar bilan ta'minlangan. Ikkala davlatning umumiy mehnat resurslari LL* ga tengdir.

S1 va S2 to'g'ri chiziqlari bu ishchi kuchi evaziga yaratilgan mahsulot hajmi. Agarda,

xalqaro mehnat migratsiyasi namoyon bo'lmasa, "A" davlat ichki mehnat resurslari zahirasidan foydalanib ularga o'rtacha real ish haqi LC to'laydi. "B" davlat ham o'z mehnat resurslari zahirasidan foydalanib L*D miqdorida o'rtacha real ish haqi to'laydi. "A" davlat bor ichki mehnat resurslaridan foydalangan holda a+b+c+d+e miqdorda

mahsulot ishlab chiqaradi. "B" davlatning ishlab chiqaradigan mahsuloti hajmi $i+j+k$ ga teng bo'ladi. "B" davlat "A" davlatga qaraganda ishchi kuchiga bir muncha ko'p haq to'lamoqda. $LC < L^*D$, ya'ni "A" davlatdagi ish kuchi bahosi "B" davlatnikiga qaraganda past.

Davlatlarning real o'rtacha ish haqlari turlicha bo'lganligi munosabati bilan "A" davlatning bir qism AB ishchilari "B" davlatga o'tishadi. Natijada, ikkala davlatning ish haqi darajalari BR muvozanat holatga erishadi. "A" davlatda qolgan mehnat resurslari va "B" davlatga ishlash uchun ketgan ishchi kuchi evaziga yaratilgan yalpi mahsulot hajmi $a+b+c+d+e+h$ ga ko'paygan. Bu yerda $a+b+c+d$ "A" davlatdan ketmagan ishchi kuchiga tegishli yaratilgan mahsulot bo'lsa, $e+h$ "B" davlatga emigratsiya qilingan ishchi kuchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tashkil etadi. Rasimga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, "A" davlat, mehnat unumdorligini oshirgani holda va ko'chib o'tgan ishchilar tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot h segmentiga ortgan. Bu esa ishlovchilar daromadini oshishiga olib kelmoqda. "B" davlatdagi o'zgarishni qaraydigan bo'lsak, "A" davlatdan kelgan migrantlar hisobiga, "B" davlatning o'rtacha real ish haqi L^*D dan $L^*F=BR$ gacha pasayganligi ko'zatiladi. Ammo o'z navbatida "B" davlatda yaratilgan ichki mahsulot hajmi $i+j+h$ dan $i+j+h+g+e$ ga ko'paygan. Bunda $h+e$ segmentlar, xorijiy ishchi kuchidan yaratilgan mahsulot hajmiga to'g'ri keladi va bir qisml daromaddan ushlab qolnadigan soliqni ayirib tashlagan holda xorijiy ishchi kuchiga maosh tarzida to'lanadi. Sof ichki ishlab chiqarish hajmi esa g - segmentni tashkil etadi. Real o'rtacha ish haqi

darajasi pasayganligi munosabati bilan "B" davlatdagi ishlovchilar daromadlari $j+k$ dan k ga qisqaradi. Boshqa ishlab chiqarish omillari egalarning daromadi i -dan $i+g+j$ ga ko'tariladi. Bir davlatdan ikkinchi davlatga ishchilarni migratsiya qilish natijasida yaratilgan yalpi umumiy ishlab chiqarish hajmi $[a+b+c+d+e] + [k+j+l]$ dan $[a+b+c+d] + [e+g+h+i+j+k]$ ga ko'paygan. Bu yerda h , "A" davlatning bir qism mehnat resurslarining "B" davlatiga emigratsiya qilish tufayli va qolgan ishchi kuchidan samarali foydalangan holda oshirilgan ishlab chiqarish hajmini anglatadi. g - segment esa "B" davlatning, xorijiy ishchi kuchidan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. Shunday qilib, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi tufayli ikkala davlat ham o'zaro manfaatli natijalarga erishishga muvaffaq bo'lishdi.

O'zbekiston ham xalqaro savdo va moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ishchi kuchining xalqaro migratsiyasida o'zining ishtirokini kengaytirmog'i lozim.

Jahon ishchi bozoridagi asosiy eksportyor mamlakatlar

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ishsizlikni kamaytirish, emigrant-ishchilardan valyuta mablag'larini kiritib kelishi, qabul qiluvchi mamlakatda ularga yetarli darajadagi turmush sharoitini ta'minlashga ko'mak berish uchun emigratsion siyosat olib borilishi qayd etiladi. Migrantlarning asosiy qismini 30-40 yoshdagilar tashkil etadi, ularning xorijga chiqishi ichki mehnat bozoridagi raqobatni yumshatish imkoniyatini beradi. Binobarin,

milliy iqtisodiyotning beqarorligi sharoitida ijtimoiy keskinlik yumshatiladi.

Emigrantlarning o'tkazmalaridan kelib tushadigan valyuta mablag'lari jahondagi asosiy ishchi kuchi eksportyorlari (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari, shuningdek, ba'zi sobiq sotsialistik davlatlar) uchun milliardlab dollar bilan o'lchanadi. Bunday mamlakatlar o'nta atrofida. O'ttizdan ko'proq mamlakat yiliga 100 va undan ko'proq million dollar miqdorida emigrantlarning pul o'tkazmalarini oladi. Bunda kanal orqali valyuta daromadlari olishda ishlab chiqarish xarajatlari bilan kuzatilmaydi, zero bunday xarajatlar tovar savdosiga xosdir. Natijada ishchi kuchi eksportidan iqtisodiy samara tovarlar yoki xizmatlar savdosidagidan taxminan besh marta yuqori bo'ladi. Mutaxassislar migrantlarning chet elga chiqishidan keladigan valyuta daromadlarining beshta manbasini ko'rsatib o'tishadi: vositachifirmalar foydasidan soliqlar, migrantlarning o'z yurtiga pul o'tkazmalaridan soliqlar, migrantlarning shaxsiy investitsiyalashlari, ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlardan eksportyor mamlakatlarga davrlarlararo kanallar orqali kelib tushadigan kapitallar, xayriya fondlari va xalqaro tashkilotlarning subsidiyalari.

Bundan tashqari migrantlar chet elda ishlab qaytgandan so'ng, odatda ikki-etti yil davomida valyuta o'tkazmalariga ekvivalent miqdorda qimmatli buyumlar va jamg'armalar olib kelishadi. Ishchi kuchi eksportining o'ziga xos ijobiy tomonlariga uzoq vaqt davom etgan xorijiy faoliyatdan so'ng bu ishchilarning umumiy kasb mahorati darajasi ortadi va ular o'z vatanlarida iqtisodiy hayotning yangi

sohalarida ishlashga tayyor bo'lishini kiritish mumkin.

Ishchi kuchining chet elga yuborilishining salbiy jihatlari ichida eng asosiysi mehnatga layoqatli va yuqori malakali mutaxassislarning yo'qotilishi hisoblanadi.

Migratsiya jarayonlarining importyor mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar odatda, migrantlar soni va sifatiy tarkibini tartibga solib boruvchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardir. Tartibga solish dastaklari sifatida immigratsion kvotalar va turli cheklashlardan (migrantning yoshi, ma'lumotlilik saviyasi, kasb mahorati darajasi, sog'lig'i kabilar) foydalaniladi. Shuning uchun ham xorijdan ishchi kuchini jalb etishga tanlov tamoyilidan foydalanish to'g'risida gapirish mumkin.

Ichki mehnat bozorida qo'shimcha ishchi kuchini paydo bo'lishining shubhasiz ijobiy jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *immigrantlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning xarajatlarni kamayishi (xorijliklar importyor-mamlakat fuqarolariga nisbatan faolroq va kamroq ish haqiga ishlashga tayyor bo'lishadi) hisobiga raqobatbardoshligi oshadi;*
- *migrant-ishchilar tomonidan tovar va xizmatlarga ichki talabni rag'batlantirilishi;*
- *malakali mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy dasturlar, shuningdek, boshqa davlatlardan patentlar, litsenziyalar va nou-xaular sotib olishga zarur mablag'larni tejalishi;*

- **ishchi kuchi taklifi sohasida raqobatni kuchaytirish orqali ichki mehnat bozoriga qo'shimcha egiluvchanlikni berish.**

Biroq ishchi kuchini eksport qilishdagi singari uning importida ham salbiy jihatlar mavjud. Xususan, rezidentlar va migrantlar o'rtasidagi ish joyi uchun qo'shimcha raqobat ishsizlikni kuchayishiga olib keladi. Immigrantlar oqimini kengayishi bilan bog'liq ravishda mamlakatdan valyuta mablag'larini xorijga chiqib ketishi ortib boradi. Bundan tashqari xorijiy ishchi kuchi, ayniqsa, afrikalik va osiyoliklar G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada milliy, irqiy va diniy negizdagi to'qnashuvlarni keltirib chiqaradi, iqtisodiyot kriminalashadi.

Shunday qilib migratsiya jarayonlarining jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri yetarli darajada ziddiyatlidir, uning salbiy va ijobiy tomonlarini nisbiy baholash mazkur mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning XIM tizimidagi holatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

«Aql chiqib ketishi» muammosining mohiyati

Ishchi kuchi eksporti milliy iqtisodiyotda ijobiy oqibatlar bilan bir qatorda salbiy oqibatlar ham qoldiradi. Bu eng avvalo «aql chiqib ketishi» deb ataluvchi yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketib qolishi bilan bog'liqdir. Bu jarayonning mohiyati shundaki, mutaxassislar turmush darajasi past davlatlardan yuqori ish haqi, yaxshi mehnat sharoitlari, ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirishga yetarli shart-sharoit va nihoyat ijtimoiy kafolatlari

yaratib bera oladigan mamlakatlarga ketib qoladi.

Ishchi kuchini jo'natuvchi davlat uchun salbiy bo'lgan jihatlar qabul qilib oluvchi mamlakatlar uchun ijobiy hisoblanadi. Chunki kirib keluvchi ishchilarning aksariyat qismini yuqori darajada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faol bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bunga misol sifatida Polshadan 1983-1987 yillarda yosh kadrlarni chiqib ketishi bilan bog'liq vaziyatni keltirish mumkin: bu mamlakatni tark etganlarning 15 foizini (50 ming kishi atrofida) oliy ma'lumotlilar tashkil etgan, bu Polsha oliy o'quv yurtlarining bir yillik bitiruvchilariga mos keladi. "Intellectual migratsiya" jami ishchi kuchi migratsiyasi miqdorining 3—5 foiziga teng bo'lsa-da, hozirgi paytda bu ulushning yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda, bino-barin jo'natuvchi mamlakat uchun iqtisodiy zarar miqdori ham oshib boryapti. Bu zarar ba'zi bir mamlakatlarning milliy daromadining 10 foizigacha teng bo'lmoqda. Mutaxassislarni chetga chiqib ketishi jahon bozoridagi raqiblarning mavqeini kuchaytiradi, chunki bu mutaxassislarning ko'pchiligi yirik transmilliy korporatsiyalarga ishga joylashadi.

«Yuqori sifatli» ishchi kuchini o'ziga jalb qiluvchi asosiy markazlar eng boy mamlakatlar: AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya, Buyukbritaniya, Shvetsiya, kamroq darajada Yaponiya, Singapur, Tayvan sanaladi. Aqli kishilarni chiqib ketishining asosiy kanallari birinchidan, xorijiy talabalar va aspirantlarni chet eldagi universitetlari tomonidan jalb etilishi, ikkinchidan, tajribali mutaxassislarni xalqaro kompaniyalarda ishga taklif etilishi hisoblanadi.

Bo'lim bo'yicha rezyume

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) o'zining hozirgi ko'rinishiga so'nggi ellik yil davomida shakllandi. JIKB tarkibiga ham migrantlar - mehnat qobiliyatli yoshdagi iqtisodiy faol odamlar, ham xorijda ish qidirishga intilayotgan odamlarga ko'maklashuvchi migratsiya xizmatlari va xalqaro tashkilotlari kiradi. Mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishi ishchi kuchining rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga chiqishi sanaladi, xorijiy ishchilarni o'ziga tortuvchi asosiy xalqaro markazlar Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Avstraliya va Isroil hisoblanadi. Bular bilan mehnatkash-migrantlarni o'ziga tortuvchi yangi hududiy «qutblar»: ba'zi arab davlatlari raqobat qila boshladi.

Mehnat migratsiyasining milliy iqtisodiyotlarga ta'siri darajasi turlicha bo'lib, ko'p jihatdan hukumat tomonidan olib boriladigan siyosatga

bog'liq. Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar asosiy foydani xorijdan valyuta transferti oqimlarini kengayishidan oladi, ammo bunda ko'pchilik hollarda yuqori malakali kadrlarini yo'qotadi. Importyor mamlakatlar esa mehnat immigratsiyasining miqdoriy va sifat darajasini kvotalar va cheklashlar joriy qilish orqali tartibga solishga harakat qiladi, hozirgi paytda malakali kadrlarni va ilmiy-texnika sohasidagi ekspertlarning kirib kelishi maqsadga muvofiqdir.

Aqlli kishilarni ketib qolishi muammosi XIMda keyingi yigirma-o'ttiz yillar ichida eng dolzarb muammoga aylandi. Muammoning mohiyati shundaki, ishga joylashish maqsadida xorijga chiqib ketgan malakali kadrlarni yo'qotish eksport qiluvchi mamlakat uchun ma'lum miqdorda iqtisodiy zarar yetkazadi.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- *Jahon ishchi kuchi bozorining vujudga kelish sabablarini ayting.*
- *Mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va markazlarini ayting.*
- *Mehnat migratsiyasining qanday ko'rinishlarini bilasiz?*
- *O'zbekistonning xalqaro migratsiya aylanmasidagi holatini tushuntiring?*
- *Ishchi kuchi eksportining jo'natuvchi mamlakatlar ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirib bering.*
- *Ishchi kuchi importidan olinadigan iqtisodiy samara qanday?*
- *«Aqlli kishilarning ketib qolishi» muammosining mohiyati nimada?*

Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar

- I. Agar ishchi kuchini ishlab chiqarish omili emas, balki oddiy tovar, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini xalqaro savdo deb faraz qilsak, bu savdoning o'ziga xos xususiyatlari qanday? Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va xalqaro "ishchi kuchi" tovari savdosi o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni ayting.
- II. Quyidagi tasdiq to'g'rimi: ishchi kuchi qabul qilayotgan mamlakat uchun immigratsiyaning mamlakat fuqarolari farovonligiga ta'siri mamlakatning katta-kichikligiga bog'liq emas? Nima uchun?
- III. Germaniya hukumatining qaysi choratadbiri xalqaro migratsiyaning ko'proq ortishiga olib keladi, nima uchun:
- O'z mamlakati fuqarolarining xorijga chiqish qoidalarining liberallasuvi;
 - Mamlakatga xorij fuqarolarining kirish qoidalarining liberallasuvi;
 - Rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy yordam dasturlarining qabul qilinishi;
 - Immigratsiyaning jug'rofiy tarkibini diversifikatsiyalash dasturlarining qabul qilinishi.

OLTINCHI BO'LIM. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

XXIX bob. Jahon xo'jaligida integratsiya jarayonlari

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning dastlabki shart-sharoitlari va mohiyati

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishga bag'ishlangan mavzularning birida integratsiya jarayonlarining TIFni erkinlashtirishdagi muhim ahamiyati haqida to'xtalib o'tgan edik. Biroq integratsiya faqatgina savdo sohasi bilan cheklanmaydi, binobarin bu masalani kengroq va batafsilroq ko'rib o'tishimiz joiz.

Hozirgi paytda integratsiya jarayonlari to'g'risida mutaxassislar orasida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bir guruh iqtisodchilar integratsiyani mamlakatlar o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo'li deb talqin etishadi (bu orqali alohida olingan mamlakatda nisbatan serxarajat tovarlar ishlab chiqarishni yo'qotish, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, bu NIOKRga xarajatlarni kamaytiradi). Boshqa guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turtki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari suradi (masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash). Uchinchi guruh esa integratsiya guruhlarini tashkil etish ishlab chiqarishni barqaror o'sishi, ijtimoiy barqarorlik kabi maqsadlarga osonroq va tezroq erishish imkoniyatini beradi deb hisoblaydi. Bu va boshqa nazariy yonda-

shuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o'tishimiz mumkin, integratsiya - bu hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muh itni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayonidir.

Integratsion jarayonlar XIMda ikkita asosiy miqyosda o'tadi:

- *mikro — transmilliy korporatsiyalarni tashkil etilishi orqali;*
- *makro — iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish orqali.*

XIM rivojlanishining zamonaviy bosqichida turli tabiatdagi integratsiya jarayonlari sayyoramizning barcha qit'alarida mavjud. Kundan kunga xo'jalik hayotini integratsiyalashuvi jarayoni chuqurlashib bormoqda. Bu integratsiyalashuv XIMning savdodan tortib ilmiy-axborot ayirboshlashgacha bo'lgan turli ko'rinishlarini bir-biriga qo'shib borishini nazarda tutadi.

Integratsiya jarayonlari jahon markazlari

Hozirgi kunda jahonda 20 dan ortiq xalqaro iqtisodiy birlashmalar mavjud. Sayyoramiz YalMning 2/3 qismi, tovar aylanmasining va investitsiyalarning asosiy qismi ana shu birlashmalar hissasiga to'g'ri keladi. Biroq bu

markazlar ichida uchta asosiy integratsiya markazini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi. G'arbiy Yevropada ikkinchi jahon urushidan keyin ikkita yirik guruhning, ya'ni Yevropa iqtisodiy Hamjamiyati (EES) va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EFTA)ning vujudga kelishi natijasida integratsion jarayonlar shiddatli rivojlandi. 90-yillarning o'rtalariga kelib YeES (1995 yildan boshlab Yevropa ittifoqi) deyarli YeASTni yutib yubordi. YeAST o'z tarkibida faqatgina Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveysariya davlatlarini saqlab qoldi. Bu ikki birlashmani solishtiradigan bo'lsak, YeAST o'zining taraqqiyotida bo'xona ittifoqini yaratishdan u yog'iga o'tmadi, uning tuzilmasi millatlararo tashkilotlar bilan mustahkamlanmadi.

1990 yilda Yel va YeAST o'rtasida Yevropa iqtisodiy makonini yaratish to'g'risida kelishib olindi. Bu makon doirasida YeAST a'zolarining ishlab chiqaruvchilari Yel a'zolari kompaniyalari bilan bir qatorda preferensial bo'xona rejimidan foydalanishadi.

Sharqiy Yevropada esa sobiq sotsialistik davlatlardagi demokratik qayta qurilishlar 1949 yildan beri mavjud bo'lib kelgan O'zaro iqtisodiy Yordam Kengashini tarqalib ketishiga sababchi bo'ldi. Sharqiy Yevropa davlatlari o'zlarining iqtisodiy aloqalari yo'nalishlarini g'arbiy bozorlarga qaratishga va yangi birlashmalar tashkil etishga intilishmoqda. Masalan, 1992 yilda Erkin savdo to'g'risida Markaziy Yevropa kelishuvi imzolalanib, unga Vengriya, Polsha, Chexiya va Slovakiya a'zo bo'lgan.

Sobiq SSSR respublikalari 1991—1993 yillar mobaynida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) doirasida iqtisodiy ittifoqni shakllantirishga harakat qildilar.

Ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi xalqaro integratsiya markazi Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Bu yerda 1994 yil 1 yanvarda Shimoliy Amerika Erkin savdo Assotsiatsiyasi (NAFTA) kuchga kirgan. NAFTA AQSh, Kanada va Meksika davlatlarini o'z tarkibiga birlashtirgan. Hozircha uning faoliyatini samarasi haqida gapirishga erta bo'lsa-da, chunki haligacha tartibga solish organlari tashkil etilmagan, bu kelishuv tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirishni nazarda tutadi. NAFTAning Yeiga nisbatan o'ziga xos xususiyati integratsiya jarayonlarining simmetrik emasligidir: Kanada va Meksika ustun ravishda AQShga integratsiyalashishga intilishadi, o'zaro kuchsiz bog'lanishgan.

Uchinchi markaz boshqalariga nisbatan hududi, aholisi va resurslari miqdori bo'yicha ustunroqdir. Biroq integratsiyalashuv yo'lida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida juda ko'p to'siqlar mavjud. Masalan, bu mintaqadagi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik-madaniy farqlar, o'zaro siyosiy da'volar yuki, hududiy to'qnashuvlar shular jumlasiga kiradi. Hozirgi kunda Tinch okeani havzasida bir necha yirik subhududiy iqtisodiy guruhlar (Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN), Janubiy Xitoy Forumi, Avstraliya-Yangi Zelandiya erkin savdo hududi va boshqalar) mavjud bo'lib, ular

ham dunyoning eng yirik okeani sohillarida joylashgan davlatlarning umumiy tashkilotini shakllantirishga halaqit bermoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorligi deb nomlanuvchi tashkilot rasmiy ravishda 1989 yilda tashkil etilgan. 1998 yil 1 yanvardan beri bu tashkilot turli darajadagi iqtisodiy rivojlanishga va XIMda turli mavqelarga ega bo'lgan 21 davlatni o'z tarkibiga birlashtirgan. Haqiqatan ham, AQSh va Papua-Yangi Gvineya, Yaponiya va Brunej, Xitoy va Peru, Kanada va Vetnamning xo'jalik komplekslarini solishtirish mumkinmi. Bu tashkilotning 1995 yil Osaka shahrida ma'qullangan harakat dasturi 2010-2020 yillargacha savdo va investitsiyalashni UST standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo'naltirilgan. Hozirgi paytda bu integratsion guruh o'z yo'lining boshida turibdi, zero muvofiq-lashtirilgan hujjatlar deklarativ tabiatga ega, a'zo-mamlakatlar esa bojxona, tarif, transport va boshqa sohalardagi muammolarni hal etish uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishi kerak.

Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri

O'zbekistonning boshqa mamlakatlari bilan integratsion birlashmani, masalan, bojxona ittifoqini tashkil etishi natijasida respublikamiz iqtisodiyotida ikki ko'rinishdagi effekt yuzaga keladi:

Statistik effekt – bu bojxona ittifoqi tashkil etilishi hamon yuzaga chiqadigan iqtisodiy oqibatlar;

Dinamik effekt – bu bojxona ittifoqi faoliyatining keyingi bosqichlarida yuzaga chiqadigan iqtisodiy oqibatlar.


Statistik effektlar ichida savdoning yaratilishi va savdoning rad etilishi effektlari muhim o'rin tutadi.

Savdoning yaratilishi. Bojxona ittifoqi yaratilishi natijasida ichki bozorda sotib olinayotgan tovarlar xorijda ishlab chiqarilgan xuddi shunday tovarlardan qimmat bo'lishi holati vujudga kelishi mumkin. Agar bojxona ittifoqi tashkil etilmasdan oldin mahalliy ishlab chiqaruvchilar import bojlari himoyasida bo'lgan bo'lsa, ya'ni buning natijasida xorijda ishlab chiqarilgan tovarlarga ehtiyoj bo'lmagan bo'lsa (boj to'lovi tufayli bu tovarlar narxi mahalliy iste'molchilar uchun yuqori), import bojlari olib tashlangandan so'ng bu tovarlar mahalliy tovarlarga nisbatan arzonlashadi, buning natijasida iste'molchilar endi xorijdan keltirilgan tovarlarni afzal ko'radi. Binobarin, import tovar oqimi vujudga keladi va resurslar yanada samarali foydalana boshlanadi.

Savdoning yaratilishi – bu bojxona ittifoqi doirasida import bojlarining bekor qilinishi natijasida tovar etkazib berishning nisbatan samarasiz ichki manbasidan samaraliroq bo'lgan tashqi manbaga og'ib ketishi.

Bojxona ittifoqining asosiy belgisi a'zo-mamlakatlar o'rtasidagi savdoda bojxona bojlarini bekor qilinishidir. Buning o'zaro savdoga ta'sirini 29.1-rasm orqali tushuntirishimiz mumkin.

29.1-rasm. Integratsiya natijasida savdoni yaratish samarasi.



Bojxona ittifoqi tashkil etilmasdan oldin. Uchta mamlakat O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida savdo munosabatlari mavjud, masalan, televizor ayirboshlanadi. Faraz qilaylik, O'zbekistonda televizorning sotilish bahosi $P_1 = 2$ birlikka teng bo'lsin. Import tarifi o'rnatilgan Qozog'istonda esa uning narxi $P_{II} = P_{I+T} = 2 + 2 = 4$ teng bo'lsin. Qirg'izistonda esa televizor narxi $P_{III} = 5$ ga teng. Bojxona boji himoyasi ostida Qozog'iston E nuqtada televizor ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi. S_d chizig'i ichki taklifni, D_d chizig'i esa ichki talabni ifodalaydi. Mamlakatdagi import bahosi $P_{II} = P_{I+T}$ ga teng, ichki iste'mol Q_{d2} birlik, ichki ishlab chiqarish Q_{s2} va import miqdori $Q_{d2} - Q_{s2}$ birlikka teng. Qozog'iston Qirg'izistondan televizor sotib ola olmaydi, chunki Qirg'izistondagi televizor narxiga import boji qo'shilganda hosil bo'lgan narx Qozog'istondagi import narxidan oshib ketadi ($P_{III} > P_{I+T}$).

Tarifning mavjudligi Qozog'istonga daromad effektini beradi va rasmda c yuza bilan berilgan. Uning miqdori import hajmining import bojiga ko'paytirilganiga teng.

Faraz qilaylik, X tovarga talab va taklif funksiyalari quyidagicha bo'lsin:

$$S = 50 + 5P$$

$$D = 400 - 10P$$

X tovarning tashqi savdo bo'lmagan holdagi narxini topamiz, ya'ni talab va taklif funksiyalarini tenglashtirib P ni aniqlaymiz:

$$S = 50 + 5P = 400 - 10P = D$$

$$15P = 350$$

$$P = 23,3$$

Tovarning ichki muvozanat narxi jahon narxi (masalan, $P_w = 10$) dan yuqori, shuning uchun mamlakatga bu tovarni chetdan sotib olish foydaliroq. Erkin savdo vaziyatida ichki narx jahon narxiga teng bo'ladi va milliy ishlab chiqaruvchilar Q_{s1} miqdorida tovar taklif qiladi, iste'mol esa Q_{d1} ga ortadi, demak talab va taklif farqi $Q_{d1} - Q_{s1}$ import hisobiga qoplanadi.

$$Q_{s1} = S(P_w) = 50 + 5 \times 10 = 100;$$

$$Q_{d1} = D(P_w) = 400 - 10 \times 10 = 300;$$

$$IM_1 = Q_{d1} - Q_{s1} = 300 - 100 = 200.$$

Milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida hukumat har bir tovar uchun 5\$ miqdorida import boji joriy qiladi. Tovarning ichki bozordagi narxi t ga teng miqdorda ortadi, binobarin milliy ishlab chiqaruvchilar importning qisqarishi hisobiga tovar taklifini oshiradi,

narx ortganligi sababli ($P_d = P_w + t = 10 + 5 = 15$) iste'mol kamayadi.

$$Q_{s2} = S(P_d) = 50 + 5 \times 15 = 125;$$

$$Q_{d2} = D(P_d) = 400 - 10 \times 15 = 250;$$

$$IM_2 = Q_{d2} - Q_{s2} + 250 - 125 = 125.$$

Rasmdan ko'rinib turibdiki, *a* trapetsiya yuzi milliy ishlab chiqaruvchilarning daromadlari ko'payishini, *c* to'g'ri to'rtburchak yuzi davlat byudjeti daromad qismini, *b* va *d* to'g'ri burchakli uchburchaklar mamlakat farovonligining o'zgarishini va *a, b, c, d* figuralardan iborat trapetsiya iste'molchilar farovonligining o'zgarishini ifoda etadi.

Milliy ishlab chiqaruvchilar:

$$S_a = ((Q_{s1} + Q_{s2}) \times t) / 2 = ((125 + 100) \times 5) / 2 = 562,5\$ \text{ ga teng miqdorda qo'shimcha daromad ko'radi.}$$

$$S_c = (Q_{d2} - Q_{s2}) \times t = (250 - 125) \times 5 = 625\$ \text{ mablag' davlat byudjetiga tushadi.}$$

$$S_{a+b+c+d} = ((Q_{d1} + Q_{d2}) \times t) / 2 = ((300 + 250) \times 5) / 2 = 1375\$ \text{ miqdorida iste'molchilar zarar ko'radi.}$$

Mamlakat farovonligi

$$S_{b+d} = S_a + S_c - S_{a+b+c+d}$$

Bojxona ittifoqi tashkil etilgandan so'ng. Agar Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida bojxona ittifoqi tashkil etilse, Qozog'iston import bojini olib tashiydi. Buning natijasida ushbu mamlakatga O'zbekistondan kirib keladigan televizor narxi 5 \$ ga pasayadi.

Binobarin, import hajmi ortadi, ichki ishlab chiqarish hajmi kamayadi, iste'molchilar foydasi ko'payadi, davlat byudjetiga daromad tushmaydi, lekin mamlakat umumiy farovonligi ortadi, yuqordagi hisob-kitoblarning aksi bo'ladi.

Integratsion birlashmaga qo'shiluvchi davlat iqtisodiyoti o'zaro aloqalar olib boruvchi hamkorlarga xos umumiy jarayonlarni boshidan kechira boshlaydi. Bu jarayonlar ko'pchilik hollarda ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, ba'zi bir salbiy jihatlarga ham ega.

Milliy xo'jalik uchun integratsiyaning ustunlik tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *bozor miqyosini kengayishi, buning natijasida taklifni ko'payishi tufayli kapital aylanmasi tezligi ortadi, bu esa milliy bozori cheklangan kichik va o'rta mamlakatlar uchun ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi;*
- *ishtirokchi-mamlakatlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishi;*
- *integratsion blok a'zosining obro'-e'tiborini oshishi, bu unga turli savdo-iqtisodiy muzokaralarda yaxshi mavqega ega bo'lishini ta'minlaydi;*
- *axborot-texnologiyalar ayirboshlash sur'atlarini tezlashishi, bu eksport mahsulotining tannarxini kamaytirish, sifati va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi;*
- *ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tartibga solish imkonini beruvchi mamlakatlarning o'rtasidagi migratsiya aylanmasini oshishi.*

Integratsiyaning yaqqol ko'zga tashlanuvchi salbiy oqibatlarini ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- *kuchsizroq iqtisodiyotli mamlakatlardan resurslarni kuchli hamkorlar tomon oqib o'tishi;*
- *kompaniyalar o'rtasida oshkor bo'lmagan kartel bitimlar va o'zaro birlashishlar natijasida TMK va milliy monopoliyalar ahamiyatining kuchayishi, bu «sog'lom» bozor raqobatini cheklaydi;*
- *integratsion blokning byurokratik institutlarining faoliyati natijasida katta miqdordagi xarajatlarni vujudga kelishi.*

Milliy va xorijiy iqtisodchilarning asarlarida shu holat to'g'ri ko'rsatiladiki, ya'ni integratsion guruhda u yoki bu mamlakatning ishtirok etishining ijobiy yoki salbiy jihatlarni baholash juda murakkab va turlichadir. Biroq o'z-o'zidan tushunarlik, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga kambag'al, jahon YalMda kam ulushga ega bo'lgan davlatlar ko'proq iqtisodiy samara olishadi. Bunday natijaga turli integratsion tashkilotlar, xususan Yevropa Ittifoqining rivojlanish bosqichini tahlil qilish asosida kelish mumkin.

Integratsion guruhlar tipologiyasi

Integratsion guruhlar tipologiyasi asosini ishtirokchi-mamlakatlar milliy iqtisodiyotini makro va mikro darajada o'zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishining naqadar chuqurligini baholash tashkil etadi. Bu mezonga ko'ra integratsiyaning to'rt ko'rinishini ajratib ko'rsatish mumkin: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq. Erkin savdo hududiga mavzumizning

yettinchi savolida batafsil to'xtalib o'tamiz. Bu yerda esa, erkin savdo hududlarining o'ziga xos alomati uning ishtirokchilari o'rtasida bojxona tariflari va kvotalarni o'zaro bekor qilish to'g'risida kelishish, uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo siyosatini tanlashda erkinlikni saqlanib qolishi ekanligini qayd etib o'tamiz.

Davlatlararo tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish ko'rinishi sifatida bojxona ittifoqiga 6da so'z yuritganmiz. Hozir esa bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan asosiy farqlar ittifoq chegaralarida muvofiqlashtirilgan savdo-bojxona rejimini joriy etish ekanligini eslatib o'tamiz.

Integratsiya jarayonlarining keyingi rivojlaniishi integratsiyaning eng yetuk ko'rinishi umumiy bozor, so'ngra iqtisodiy ittifoqning shakllanishiga olib keladi. Juda ko'plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma'lumki, aynan umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko'p diqqatga sazovordir.

Erkin savdo hududlari (ESH)ning mohiyati

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, erkin savdo hududlari xalqaro iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferentsial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi. ESH amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o'zaro savdosida bojar, litsenziya va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to'g'risidagi bitimni imzolanishi natijasida shakllanadi. Bunda, Yel,

NAFTA va MERKOSUR tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish cheklangan tabiatga ega, dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi pozitsiyalarni qamrab oladi.

ESH ijobiy jihatlarga ishtirokchi-mamlakatlar savdo siyosatida barqarorlikni o'rnatilishini kiritish mumkin. Bu ESHga a'zo-mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Salbiy jihatlarga kelsak, ular ichki bozorda raqobatni kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari EShni yaratish millatlararo tartibga soluvchi organlarni tashkil etish bilan birga kuzatilmaydi, bu esa birgalikdagi qarorlar qabul qilishni sekinlashtiradi va bu qarorlarni bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Biroq integratsiyaning boshlang'ich bosqichidagi qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, erkin savdo hududlari jahon iqtisodiyotida keng tarqalgan.

Bojxona ittifoqlari

Huquqiy nuqtai nazardan bojxona ittifoqi (BI) ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatini o'tkazishni aks ettiradi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan esa bojxona ittifoqlarini tashkil etish bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va bu makon doirasida

har qanday bojxona chegaralarini bartaraf etishni anglatadi.

TIFni davlatlararo tartibga solishning bu ko'rinishi BI qatnashchilari o'rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarifni joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shunda.

Bojxona ittifoqlarini yaratish va ularning shakllanishini konkret natijalari unga a'zo mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlarda o'z aksini topadi: talab va taklif nisbiy ustunlik tabiatiga mos ravishda o'zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoni kengayishiga qarab turmush farovonligini oshiradi, biroq ayni paytda ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlardan qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishga moslashishi natijasida farovonlikni pasaytiradi.

Bundan tashqari, bojxona ittifoqining shakllanishi jarayonida ikkita yondashuv mavjudligini qayd etish kerak. Bu yondashuvlar tovarlarga belgilangan umumiy tashqi tarif miqdorini bu tashqi tarif o'rnatilmasdan oldin ittifoq a'zosi bo'lgan mamlakatda amalda bo'lgan o'rtacha o'lchangan tarif miqdoriga solishtirish orqali aniqlanadi. Agar yangi tarif undan oldingi milliy tarifdan yuqori bo'lsa, bojxona ittifoqi ishtirokchisi bo'lgan mamlakat nisbatan arzon tashqi ta'minlash manbalaridan ittifoq ichidagi resurslar foydasiga voz kechishlariga to'g'ri keladi. Tavsiflangan holatga o'xshash vaziyat bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlar tomonidan yangi yoqilg'i resurslari, materiallar va boshqalarni ishlab chiqishni

boshlanishi bilan bog'liq ravishda kuzatilishi mumkin.

Agar o'rnatilgan tarif undan oldingi o'rtacha o'lchangan tarifdan past bo'lsa, natijaviy baholarni hisobga olganda tashqi savdoni o'zgarish vektori uchinchi mamlakatlar tomon yo'naladi. Bunday harakatlar odatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va bojxona ittifoqi ishtirokchilarining tashqi iqtisodiy faoliyatini jadallashtirish uchun olib boriladi.

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishni eng keng tarqalgan ko'rinishi sifatida bojxona ittifoqi haqida gapirganda shuni esdan chiqarmaslik lozimki, uning faoliyati uzoq vaqt mobaynida alohida olingan mamlakatning jami tovarlar va xizmatlar nomenklaturasiga tarqalmasligi mumkin. Bojxona ittifoqlarining rivojlanish jarayoni birgalikda tartibga solish sohasini asta-sekin kengayib borishdan guvohlik beradi, ya'ni bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayon oxir-oqibat millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar va institutlarni tashkil etish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Erkin savdo hududidan bojxona ittifoqi va umumiy bozor orqali yagona valyutaga ega bo'lgan bir butun iqtisodiy uyushmagacha bo'lgan katta yo'lni bosib o'tgan Yevropa Ittifoqining tashkil topishi tarixi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xuddi shu yo'nalishda boshqa hududiy guruhlar (ASEAN va boshqalar) rivojlanib bormoqda.

Umumiy bozor

Janubiy Amerika, Afrika va Osiyodagi bir qator tashkilotlar tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining yagona bozori ko'rinishidagi

guruhlarini tashkil etilganligi to'g'risida shoshilib e'lon qilgan bo'lsalar-da, hozirgi paytgacha integratsiyaning bu ko'rinishi amalda faqat G'arbiy Yevropada amalga oshirilgan. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- **Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERCOSUR)** — Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvayni birlashtirgan;
- **Markaziy Amerika umumiy bozori - Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvadorni birlashtirgan;**
- **Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (KOMESA), tarkibiga Afrikaning 19 davlati kiradi;**
- **Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN)** — Tinch va Hind okeanlari o'rtasida joylashgan to'qqizta mamlakatni birlashtirgan.

Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqatgina savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi katta miqdordagi qonuniy me'yorlarni uyg'unlashtirish masalalarini hal etish bilan bog'liq. Shuning uchun ichki bojxona to'siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish, shuningdek, uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish bilan birga, umumiy bozor ishtirokchilari iqtisodiyotning alohida soha va tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali xizmatlar, kapital va ishchi kuchini hech qanday to'siqlar o'tishiga sharoit yaratiladi. Bundan tashqari umumiy bozorni shakllantirish davomida ijtimoiy va hududiy rivojlanish uchun kollektiv fondlarni

yaratishga zaruriyat tug'iladi, umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish jarayonida bu fondlarning ahamiyati juda katta bo'ladi. Bunda millatlararo muvofiqlashtiruvchi organlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan ma'lumki, bunday organlarni tashkil etmasdan milliy qonunchilik me'yorlarini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlari bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etishga erishish juda murakkab bo'ladi.

Iqtisodiy ittifoq

Umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish zamonaviy bosqichda Yevropa Ittifoqining asosiy muammosidir. Faqatgina shu tashkilot iqtisodiy integratsiyaning eng

yuqori cho'qqisiga intilishni yaqqol namoyish etmoqda.

Ma'lumki, Yevropa Ittifoqiga a'zo-mamlakatlarning davlat rahbarlari XXI asr boshida o'z oldilariga qo'ygan maqsadga erishishni rejalashtirishgan. Hozircha yakuniy natijalar to'g'risida gapirishga erta bo'lsa-da, iqtisodiy ittifoqqa xos alomatlar ko'zga tashlanib qoldi. Bu alomatlar quyidagilar hisoblanadi: umumiy qonunchilik me'yorlarini yaratish, soliq bazasini soddalashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarida yagona standartlarni joriy etish, muvofiqlashtirilgan pul siyosatini o'tkazish, yagona valyutaga o'tish.

Ko'rsatib o'tilgan integratsiya ko'rinishlarining umumlashtirilgan tavsiflari yuqoridagi 29.1-jadvalda keltirilgan.

29.1-jadval. Integratsion birlashmalar ko'rinishlari

Ko'rinish nomi	Ittifoq ichida erkin savdo	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo-bojxona siyosati	Ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi	Qonunchilik, ijtimoiy va valyuta sohalarida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish
Erkin savdo hududi	X			
Bojxona ittifoqi	X	X		
Umumiy bazar	X	X	X	
Iqtisodiy ittifoq	X	X	X	X

XXX bob. Yevropa Ittifoqi

Yevropa Ittifoqi evolyutsiyasi bosqichlari, maqsadlari, tamoyillari va faoliyati

Birdaniga bir necha tarixiy hodisalar G'arbiy Yevropa mamlakatlari integratsion guruhini vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ularning ichida G'arbiy Yevropa davlat rahbarlarining siyosiy xohish-istaklari, jumladan, 1950 yil 9 mayda Germaniya va Fransiya o'rtasida ko'mir va po'lat ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishni taklif etgan Fransiya tashqi ishlar vaziri R.Shumanning taklifini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Umumevropa hamkorligini uyushtirishda «Marshall rejasi» ham ma'lum ahamiyat kasb etdi. Bu reja doirasida G'arbiy Yevropa davlatlari o'z iqtisodiyotlarini tiklash va qayta qurish uchun AQShdan katta moddiy yordam oldilar. Bundan tashqari SSSR boshchiligida Sharqiy Yevropa davlatlarining 1949 yilda O'zaro iqtisodiy yordam kengashini tashkil etishi ham g'arbiy mamlakatlar milliy xo'jaliklarining bir-biriga yaqinlashishiga turtki bo'ldi. Va nihoyat kolonial imperiyalar (Britan, Fransuz, keyinchalik Ispan va Portugal imperiyalari)ning parchalanishi sobiq metropol davlatlarning qit'adagi qo'shnilari bilan aloqalarni rivojlantirishga e'tibor qaratishga majbur etdi. Shunday qilib 1951 yil aprelida Ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi (KPEB)ni ta'sis etish haqida Parij shartnomasi imzolandi. Unga olti davlat a'zo bo'ldi: Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg (BENILYUKS), GFR, Fransiya va Italiya.

1955 yil iyun oyida bo'lib o'tgan Messin Anjumani qarorlari integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga yangi turtki bo'ldi. Bu Anjumanda Yevropa integratsiyasining istiqbollari belgilandi, pirovard maqsad milliy iqtisodiyotlarning birlashishi va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirish orqali umumiy bozorni shakllantirish edi.

Yevropa ittifoqining navbatdagi yirik tarixiy bosqichi 1957 yil mart oyida bojxona ittifoqi va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosat olib borishga asoslangan *Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YelH)ni* tashkil etish to'g'risida Rim shartnomasini imzolanishi bo'ldi. Bundan tashqari shu yili Atom Energetikasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (Evroatom) tashkil etildi. Rim shartnomasining kuchga kirishi KPEB, YelH va Yevroatomni birlashtirdi, yuqorida zikr etilgan olti mamlakat unga a'zo bo'lib kirdi. Bu hujjat integratsiyani rivojlantirishga asosiy yondashuvlarni, jumladan «to'rtta erkinlik» makonini yaratishni, ya'ni tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi makoni yaratishni ifodalab berdi. 60-yillarda YelHning davlatlararo muvofiqlashtiruvchi organlarini shakllantirish jarayoni amalga oshirildi. Vazirlar Kengashi, Yevropa Komissiyasi va Yevropa Sudi tashkil etildi.

1969 yil Gaaga shahrida (Niderlandiya) bo'lib o'tgan majlis Yel tarixida birinchi bosqich tugaganligidan dalolat berdi. Bu davrni bojxona ittifoqi bosqicha deb atash mumkin. 1973 yili «oltilik»ka Buyukbritaniya, Daniya va Irlandiya, 1981 yilda — Gretsiya, 1986 yilda esa —

Ispaniya va Portugaliya qo'shildi. 1974 yilda Yevropa Kengashi tashkil etildi, 1979 yildan boshlab esa Yevropa Parlamenti saylana boshlandi. 1979 yilda Yevropa valyuta tizimi vujudga keldi.

1986 yilda imzolangan Yagona Yevropa Akti (YaEA) ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu akt umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish yo'nalishlarini belgilab berdi. Bular savdo yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash, ishtirokchi-mamlakatlar ichki chegaralarini ochish, ilmiy-texnologik ayirboshlashni jadal-lashtirish, yagona valyutani joriy etish va Yevropa Ittifoqining barcha fuqarolari huquqlari tengligi hamda ijtimoiy kafolatni ta'minlash kabilar edi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishining uchinchi, zamonaviy bosqichi G'arbiy Yevropada iqtisodiy ittifoq yaratishga qartilgan bo'lib u XX asrning oxirgi o'n yilliklariga to'g'ri keladi. 1990 yilda Hamjamiyatning o'n ikki a'zosi odamlar, tovarlar, kapital va axborotlarni erkin harakatlanishi uchun ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni 1993 yil 1 yanvardan

boshlab ochish to'g'risida Shengen bitimini imzoladilar. 1992 yilda Yevropa Ittifoqi to'g'risida Maastrixt shartnomasi imzolandi. Bu hujjatga ko'ra quyidagilar ta'sis etildi:

- yagona Yevropa fuqaroligi;
- siyosiy ittifoq;
- iqtisodiy va valyuta ittifoqi.

Maastrixt shartnomasida milliy valyuta-larni asta-sekin muomaladan chiqarish va yagona umumevropa pul birligi joriy etishdek murakkab jarayonga ilk qadam qo'yildi. Va nihoyat, 1995 yilda Hamjamiyatga yana uchta davlat; Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiyaning kirishi va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining Yevropa Ittifoqi deb nomlanishidan so'ng bu integratsion birlashma hozirgi zamonaviy ko'rinishiga ega bo'ldi.

2004 yil 1 mayda Yelga yana 10 ta davlat – Sloveniya, Slovakiya, Chexiya, Vengriya, Polsha, Latviya, Litva, Estoniya, Malta va Kipr, 2007 yilda Bolgariya va Ruminiya, 2013 yilda esa Xorvatiya ham a'zo bo'lishdi.

30.1-jadval. Yevropa Ittifoqi 2004 1 maydan oldin va keyin.

Yil	1. 05. 2004 yilgacha	1. 05. 2004 yildan keyin
A'zo-mamlakatlar soni va tarkibi	A'zo-mamlakatlar 15 ta: Avstriya, Belgiya, Buyukbritaniya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Finlyandiya, Fransiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Shvetsiya.	A'zo-mamlakatlar 28 ta. Bolgariya, Vengriya, Chexiya, Estoniya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya a'zo bo'ldi.
Aholi umumiy soni	380.8 mln. Kishi	512 mln. chel.
Umumiy maydon	3 154 120 km. kv.	4324782 km. kv.
Yelga a'zo-mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti	9 169 mlrd. dollar	21. 6 trln. dollar

* EuroStat News Releases . Eurostat Press Office . Luxembourg

Hozirgi kunda Ittifoq 512 mln. kishidan ortiq aholiga ega va umumiy YaIM 21,6 mlrd. dollarga teng bo'lgan 28 mamlakatni o'z tarkibiga birlashtirgan. 70-80 yillarda juda ko'p rivojlanayotgan, 90-yillarda YeAST a'zolari, AQSh va Yaponiya bilan tuzilgan bitimlar Yevropa Ittifoqini jahon iqtisodiyotining yirik markazlaridan biriga aylantirdi. Yel bilan Yevropa qit'asidan tashqaridagi barcha yetakchi mamlakatlar aloqalar olib borishadi.

Yevropa ittifoqi uchta asosga tayanadi:

- *iqtisodiy ittifoq;*
- *yustitsiya va ichki ishlar sohasida hamkorlik;*
- *xavfsizlik va tashqi siyosat sohasida kelishib ish ko'rish.*

Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadlari Yevropa xalqlarining uzviy aloqasini tashkil etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, ichki chegaralarsiz umumiy makonni yaratish, ijtimoiy sohada o'zaro aloqalarni kuchaytirish hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqining eng muhim tamoyillari sifatida a'zo-mamlakatlar milliy xususiyatlari va inson huquqlariga hurmat bilan qarashni keltirish mumkin. Yevropa Ittifoqining shtab-kvartirasi Bryusselda joylashgan, bu yerda Kengash majlislarini o'tkazadi va Yevropa Komissiyasi doimiy asnodda faoliyat olib boradi. O'z navbatida, Yevropa parlamenti va sudi Lyuksemburgda joylashgan.

Yevropa Ittifoqi tuzilmasi, zamonaviy bosqichdagi muammolari va istiqbollari

Yevropa Ittifoqini Yevropa Kengashi boshqaradi. Kengash a'zo-mamlakatlarning

davlat yoki hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, Yevropa Komissiyasi Raisi va uning bir a'zosidan tarkib topgan. Kengashning faoliyat ko'rinishi yarim yilda bir o'tkaziladigan sessiyalardir. Bu sessiyalarda eng muhim, eng avvalo siyosiy xarakterdagi qarorlar qabul qilinadi.

Yevropa Ittifoqining Oliy qonun chiqaruvchi organi *Yevroparlament* hisoblanadi. U 751 deputatdan tashkil topgan. Bu deputatlar umumiy saylovlarda 5 yil muddatga mamlakat aholisi soniga mutanosib ravishda saylanadi (eng ko'p deputat Germaniyadan saylanadi - 99 ta). Yevroparlament o'zining umumiy majlislarini oyda bir marta bir hafta davomida Fransiyaning Strasburg shahrida o'tkazadi. Parlamentning muhim huquqi - Yel byudjetini tasdiqlashdir.

Yevropa Ittifoqi Kengashi a'zo-davlatlar hukumat vazirlaridan iborat. Bu tashkilotning qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, bu esa mamlakatlarga ma'lum kvotalar berishni talab qiladi. Masalan, Germaniya, Italiya, Frantsiya va Buyukbritaniyaning har biri 10 tadan, Ispaniya — 8, Belgiya, Gretsiya, Niderlandiya va Portugaliya — 5 tadan, Avstriya va Shvetsiya — 4 tadan, Daniya, Irlandiya va Finlyandiya — 3 tadan, Lyuksemburg — 2 ta, qolganlar bittadan ovozga ega. Vazirlar tarkibi majlis mavzusiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Kengash o'z faoliyatida Doimiy vakillar Qo'mitasiga suyanadi. Bu qo'mita Yevropa Ittifoqida akkreditatsiyadan o'tgan 15 ta elchidan tashkil topgan.

Yevropa komissiyasi — oliy ijrochi organ bo'lib, doimiy asnodda faoliyat yuritadi. Yirik davlatlar Komissiyada ikkitadan, kichiklari

bittadan ovozga ega. Barcha qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Yevropa ittifoqi tuzilmasining ahamiyati jihatidan emas, balki tartib jihatidan oxirgi tashkiloti *Yevropa Sudi* sanaladi. Sud a'zo-davlatlarning umumiy roziligiga binoan olti yilga saylanuvchi 28 ta sudya va 8 ta bosh advokatdan tarkib topgan. Sud ittifoq a'zolari va Yelning alohida institutlari o'rtasidagi bahslarni hal etishda qatnashadi.

Integrasiyaning rivojlanishida so'nggi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy qo'mita o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Bu maslahat beruvchi organ bo'lib, u iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning turli sohalarining vakillari bo'lgan 222 ta a'zoni birlashtirgan. Qo'mita tarkibida uchta guruh tashkil etilgan: ish beruvchilar, ishchilar va boshqa ijtimoiy qatlamlar (fermerlar, iste'molchilar va boshqalar). Bu tuzilma mavqei jihatdan yuqorida sanab o'tilgan organlarga tenglasha olmasa-da, Yel Kengashi va Yevropa Komissiyasi iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi qarorlar chiqarishdan oldin Qo'mita bilan maslahatlashadi.

Yevropa Ittifoqining muammolariga kelsak, eng avvalo, bu tashkilotning bundan keyingi kengayishi masalasini qayd etish lozim. Yevroparlament vakolatlarini kengaytirish va Yel Kengashi nufuzini asta-sekin cheklash tendensiyasi kuzatilmoqda.

Iqtisodiyotga kelsak, Yevropa Ittifoqining yaqin yillardagi eng muhim vazifasi valyuta islohotlarini o'tkazish hisoblanadi. Bu milliy valyutalarni muomaladan chiqarish va yagona valyuta yevroni joriy etishdan iborat. Bu jarayon ibtidosi 1992 yildagi Maastrixt shartnomasidan boshlangan. Valyuta ittifoqi tomon harakat uch bosqichda amalga oshirildi. 1996 yil 1 yanvargacha tayyorgarlik, 1999 yil 1 yanvargacha tashkiliy va 2002 yilgacha yakuniy bosqichlardir. Yevro hududiga kirish uchun asosiy mezonlar quyidagilar:

- *byudjet kamomadi 2 foizdan yuqori bo'lmaligi;*
- *davlat qarzi Yelning 60 foizidan ko'p bo'lmaligi;*
- *yillik inflyatsiya 1,5 foizdan yuqori bo'lmaligi;*
- *uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha nominal foiz stavkasi yiliga 2 foizdan yuqori bo'lmaligi;*
- *valyuta kursining tebranishi 2,25 foizdan baland bo'lmaligi kerak.*

Hozirgi paytga kelib 19 ta davlat o'z milliy valyutalarini emissiya qilishni to'xtatishdi, muomalaga yevroning 5 ta tanga pul va 9 ta qog'oz pullari kiritildi. Mavjud milliy pul belgilari asta-sekin muomaladan chiqariladi, barcha hisob-kitob operatsiyalari xalqaro elektron tizim «Target» yordamida yevroga o'tkaziladi.

Bo'lim bo'vicha rezyume

Milliy iqtisodiyotlarning o'zaro yaqinlashish va bir-biriga kirib borishi ob'ektiv jarayoni sifatida XX asrning so'nggida XIMning o'ziga

xos belgilaridan biri bo'ldi. Integratsiya jarayonlarining yetakchi markazlari Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo-Tinch okeani

sanaladi, integratsiya jarayonlarining eng chuqurlashuvi G'arbiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keldi - ikkinchi jahon urushidan keyin ular qudratli iqtisodiy guruhni, ya'ni Yevropa Ittifoqini tuzdilar.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya to'rt asosiy modifikatsiyada rivojlanadi: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq. hozirgi paytga kelib jahonda faqat bitta guruh uchta bosqichni bosib o'tib

to'rtinchi bosqichga o'tgan, bu Yevropa Ittifoqidir.

Erkin savdo hududlari (ESh) xo'jalik integratsiyalashuvining boshlang'ich pog'onasi sanaladi. Bu hozirgi paytda mavjud iqtisodiy guruhlarini vujudga kelishi tarixidan ma'lum. EShni o'ziga xos xususiyati bunday hudud ishtirokchilari o'rtasidagi tovar oqimlarini birgalikda bojxona-tarifli tartibga solish rejimidir.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- *Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va sabablarini tushuntirg.*
- *Integratsion jarayonlarning qanday markazlarini bilasiz?*
- *Xalqaro integratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari qaysilar?*
- *Integratsion birlashmalar ko'rinishlari tipologiyasini keltiring.*
- *Umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqqa tavsif bering.*
- *Yevropa Ittifoqi rivojlanishining asosiy bosqichlarini ayting.*
- *Yevropa Ittifoqi faoliyatining maqsadlari va tamoyillari qaysilar?*
- *Bu tashkilot tuzilmasini tavsiflang.*
- *Hozirgi kunda Yel oldida qanday muammolar turibdi?*
- *Erkin savdo hududlarini tavsiflang.*
- *Qanday ESh sizga ma'lum?*

Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar

- I. Faqatgina sanoat tovarlarini ishlab chiqaradigan mamlakat faqatgina qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo tovatlarini ishlab chiqaradigan mamlakat bilan bojxona ittifoqi tuzmoqchi. Bu bojxona ittifoqi har bir mamlakatning iqtisodiy farovonligini oshishga olib keladimi? Nima uchun?
- II. Nima uchun Yevropa Ittifoqida agrar proteksionizm maqsadlarida bojxona

bojlaridan emas, balki kompensatsion yig'implardan foydalaniladi?

kuchga kirdi. Bu qanday oqibatlarga olib keladi:

- III. Qiyidagi tasdiq tog'rimi: kichik mamlakatning integratsiya tufayli ko'radigan foydasi katta mamlakatnikiga qaraganda ko'proq?
- IV. 1994 yilda AQSH va Kanada o'rtasida imzolangan erkin savdo haqidagi bitim

- AQSH uchun;
- Kanada uchun;
- Yevropa mamlakatlari uchun;
- O'zbekiston uchun?

YETTINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA

XXXI bob. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va milliy raqobatbardoshlikni oshirish

O'zbekiston Respublikasining mustaqil ravishda rivojlanishini ta'minlash maqsadida, respublika hukumati tomonidan hozirgi bosqichda bir vaqtning o'zida davlat nazorati tizimini tartibga solish bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni muntazam ravishda erkinlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu tadbirlarning zarurligini qayta-qayta ta'kidlagandi: "Men oddiy bir haqiqatni barcha tushunib olishini istayman: erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – bu bizning olg'a intilishimizning kafolati va asosi, u nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir".³⁴

Tashqi iqtisodiy siyosat respublikaning jahon bozoridagi mavqegini mustahkamlashga, uning to'lov balansini yanada yaxshilashga, qulay investitsiya muhitini yaratishga

yo'naltirilishi kerak. Buning uchun respublikamizda zarur shart-sharoitlar va negizlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati (TIS) jahondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar nisbatan tez o'zgarayotganligini hisobga olib harakatchan va moslashuvchan bo'lishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) erkinlashtirish deganda, eng avvalo, tashqi iqtisodiy aloqalar (TIA) qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi oshirilishi, tashqi savdoni tartibga solish ma'muriy uslublarining muayyan darajada qisqarishi, mavjud to'siq va g'ovlarning bartaraf etilishi tushuniladi. Bu muqarrar ravishda ichki iqtisodiy munosabatlar erkinlashuvining mantiqiy natijalaridir. Samarali bozor mexanizmi faqat jahon bozor munosabatiari bilan uzviy aloqada tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Shuningdek bunda eng muhimi - turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining muayyan darajada o'xshashligidir. TISni erkinlashtirish islohotlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'tish davri iqtisodiyoti masalalari echimini

³⁴O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish kengashining 2000 yil 1 fevrvlidagi yig'ilishida qilgan ma'ruzasi // "Xalq so'zi", 2000, 2 fevral.

tezlashtiradi. Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllari – xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalar (TIA)ning davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishiga (tashqi iqtisodiy operatsiyalar markazlashuviga) barham berish, import qilish jarayonidagi ortiqcha to'siqlarni olib tashlash, eksportning rivojlantirishini faollashtirish (bojlar, litsenziyalar, kvotalar va imtiyozlarni qisqartirish orqali), milliy valyutaning konvertatsiya qilinishini ta'minlashdir.³⁵

Bu shakllar, jahon tajribasi ko'rsatganidek, to'liq holda hatto rivojlangan bozor iqtisodiyotida qo'llanilmasa ham, amaldagi bozor mexanizmlarini kuchaytiradi. Milliy ishlab chiqarishni himoya qilgan holda davlat ma'lum cheklanishlarni o'rnatadi, bojxona tariflaridan keng foydalanadi, turli xil taqiqlarni joriy etadi va hokazo. Bozor mexanizmi endi shakllanayotgan, mavjud ishlab chiqarish bozor sharoitlariga hali to'liq moslashmagan o'tish davri iqtisodiyotida davlatning roli yanada muhimdir.

Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan erkinlashtirish natijasida O'zbekistonning tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me'yorlari va talablariga tobora yaqinlashmoqda: litsenziyalashtirilgan tovarlar ro'yxati qisqardi; miqdoriy cheklanishlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda; erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga o'zi ishlab chiqargan raqobatbardosh tayyor mahsulotni eksport qiluvchi korxonalar uchun, shuningdek xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish

sohasiga, ayniqsa, katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarga jalb qilishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzluksiz ravishda takomillashib bormoqda. Investitsiya qo'yilmalarini sug'urta qilish tizimi rivojlanmoqda, moliyalashtirishning eng murakkab sxemalarini qo'llash asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy infratuzilmalar shakllanmoqda.

TIF sohasida respublika duch kelayotgan asosiy qiyinchiliklar quyidagilardir:

- *TIANing o'zgaruvchan shart-sharoitlarni inobatga oluvchi, ularni davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy asoslangan konsepsiyasining mavjud emasligi;*
- *tashqi savdoning tashkiliy infratuzilmasi va eksportga real ko'maklashishning sust rivojlanishi;*
- *TIA qatnashchilarining aksariyat qismida tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bozor iqtisodiyoti, jahon bozoriga kirish shart-sharoitlari, huquqiy va texnik jihatlarini to'g'risidagi maxsus bilimlarning yetishmasligi;*
- *jahon bozorlari haqida kerakli tijorat ma'lumotlarining yetishmasligi yoki yo'qligi;*
- *tashqi savdoning funksional sohalarida texnik qo'llab-quvvatlash ko'pchilik turlarining mavjud emasligi; bojxona va eksport-import nazoratini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirishning talab darajasida emasligi.*

³⁵ Alimov A. , Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. : "O'AJBNT" markazi. 2004. , 37 b. (489 b.)

Shunday qilib, TIF sohasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ularni bartaraf etishda har tomonlama ilmiy asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat kontseptsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etish zaruriyati tug'iladi.

Milliy raqobatbardoshlikni oshirish muammosi nihoyatda kompleks va keng ko'lami xarakterga ega va ayniqsa u UST a'zo bo'lishga intilayotgan davrda O'zbekiston uchun uning ahamiyati juda katta. Ma'lumki, USTga qo'shilihdah raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar yutadi.

Davlatning xalqaro raqobatbardoshligi, eng avvalo, uning yetakchi firmalarining barcha raqobat ustunliklari majmui bilan belgilanadi. Ular esa, o'z navbatida, ichki bozor sig'imi va ehtiyojlari, mamlakatdagi zarur ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish va umumiy iqtisodiy infratuzilma darajasi va samaradorligi, raqobat muhitining rivojlanish darajasi kabi omillar asosida shakllanadi va ularning ta'siri ostida bo'ladi.

O'zbekistonning raqobatbardoshlik ustunliklari eksportga yo'naltirilgan muvaffaqiyatli rivojlanishning negizini tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston quyidagi nisbiy ustunliklarga ega:

- *tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lgan ayrim mineral xom ashyo turlari (oltin, uran, mis, kumush, tabiiy gaz va boshqalar)ning boy sanoat zahiralari;*
- *ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, shuningdek issiqlik va elektr energiyasini tejash imkoniyatini beruvchi qulay tabiiy - iqlim sharoitlari;*

- *400 dan ortiq tarixiy va me'morchilik obidalariga ega bo'lgan dunyoga mashhur boy madaniy-tarixiy meros. Bu turizm industriyasi va unga yo'ldosh biznes sohalarini rivojlantirish uchun ustunliklarni yaratadi.*

Ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarga qaraganda O'zbekistonning ustunliklari, shuningdek, quyidagilarga asoslanadi:

- *nisbatan yuqori malakali va intizomli kadrlar, arzon ishchi kuchi mavjudligi;*
- *yuqori ilmiy salohiyat va ilmiy izlanishlarning yuqori darajasi;*
- *rivojlangan infratuzilma (transport aloqalari, elektrlashtirish, bino va inshootlar, shaharlarda kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganlik, aloqa, 4,2 mln. gektardan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining mavjudligi).*

Bundan tashqari, O'rta Osiyo va boshqa yaqin joylashgan davlatlar ichida O'zbekiston ayrim turdagi mahsulotlarni, ayniqsa, texnik va ilm talab tovarlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi va birinchi o'zlashtiruvchisi hisoblanadi. Bu ushbu mintaqada nisbiy ustunliklarni yaratadi, negaki, yaqin joylashgan mamlakatlarning ishlab chiqarish ko'lamida yetarli iqtisod, tejarnkorlikka erishish imkoniyatlarini kamaytiradi va, demak, ushbu davlatlarda o'xshash ishlab chiqarishlarni vujudga keltirishni qiyinlashtiradi; yaqin joylashgan davlatlarga O'zbekistondan tovarlarni eksport qilishdagi transport xarajatlari ushbu tovarlarni industrial mamlakatlardan import qilishga nisbatan ancha kamdir. Shu sababli yaqin joylashgan mamlakatlar bozorida O'zbekiston tovarlari-ning, ayniqsa, keng

iste'mol tovarlari raqobat-bardoshligini oshirish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Bu tovarlar bo'yicha kam transport xarajatlari sharoitida ishlab chiqarish ko'lamida katta tejamlorlikka erishish mumkin.

Sanoat tarmoqlaridagi texnik taraqqiyotning rivojlanish darajasini mehnat unumdorligi va fond ko'rsatkichlaridan foydalangan holda yalpi baholash quyidagilarni ko'rsatdi: sanoatning boshqa tarmoq va sektorlarining rivojlanishini ta'minlash uchun xom ashyo sektori salohiyatini oshirish maqsadida investitsiya resurslarining katta qismini uni texnikaviy qurollantirishga yo'naltirilganligi tufayli yoqilg'i-energetika, qora va rangli metallurgiya tarmoqlarida, qayta ishlash sektorida, avtomobilsozlik va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda erishildi.

Yengil sanoatda texnika taraqqiyoti darajasi paxtani qayta ishlash va to'qimachilik tarmoqlarida yuqoridir. Bunday ko'rsatkichga erishish xorijiy firmalar bilan qo'shma korxonalarining imkoniyatlarini keng jalb etgan holda to'qimachilik sanoatini isloh qilish orqali erishildi. To'qimachilik sanoatiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi va texnik qurollanish darajasining o'sishi tarmoqning eksport quvvatini oshirishga imkon berdi.

Oziq-ovqat sanoatining yangi barpo etilgan – shakar, tamaki, unni qayta ishlash va qayta tashkil etilgan yog'-moy tarmoqlarida mehnat va kapitaldan foydalanish bo'yicha o'sish sanoatdagi o'rtacha o'sish sur'atlaridan yuqori bo'ldi.

Mehnat va kapitaldan foydalanishning samaradorligining past darajasi kimyo sanoatining barcha tarmoqlarida (lak-bo'yoq

sohasidan tashqari) va oziq-ovqat sanoatining ayrim tarmoqlarida kuzatilmoqda.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlarining raqobatbardoshligi darajasi, narxlar tafovuti, ishlab chiqarish rentabelligi va eksport ko'rsatkichlari hisob-kitobi, shuningdek tovarlarga ichki va tashqi talabni o'rganish asosida amalga oshirildi.

So'nggi yillarda sanoat tarmog'ining rivojlanishi natijalarining tahlili ko'pgina ishlab chiqarish korxonalari bozor sharoitiga moslashganligini va davlat yordamida yuqori samarali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, sanoatda kuzatilayotgan o'sish omillari va manbalarining nobarqaror xarakterini ko'rsatuvchi muammolar yuzaga keldi. Ular O'zbekiston tovarlarining jahon bozoriga chiqishiga to'sinlik qilmoqda va mamlakatning USTga a'zo bo'lishi jarayonida jiddiy muammolar tug'dirishi mumkin. Yuzaga kelgan muammolar sanoat ishlab chiqarishining sifat ko'rsatkichlarini oshirishni talab qiladi.

O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi, nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar kompleksini shakllantirishdan iborat. Strategik yo'nalish sanoatning eksportga yo'naltirilgan tarkibini vujudga keltirish va eksportda xom ashyoga nisbatan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hisoblandi.

Har qanday mamlakatda valyuta muomalasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz hamda preferentsiyalarning kamsamarali tizimini asossiz ravishda shakllantirishga yo'l ochadi. Biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlar vujudga kelishi esa raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirish, umuman, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylanadi.

Bunday holat respublikamiz uchun ham yot emas edi. Lekin hozirgi kunda valyuta siyosati hamda tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni alohida e'tirof etish joiz. Aytish kerakki, davlatimiz rahbarining joriy yil 2 sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bunda dasturilamal bo'lib xizmat qilayapti.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, qolaversa, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini yanada kuchaytirish zarurati mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, institutsional va tarkibiy yangilanishlarni davom ettirishni taqozo qilmoqda. Shu ma'noda, Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi bu borada muhim qadam bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Mamlakatning keyingi besh yillik istiqboli aks etgan mazkur strategiyada belgilangan vazifalar bugun amaliyotda o'z isbotini topmoqda. Ayniqsa, uning iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida

ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta hamda narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy qilish kabi ustuvor vazifalarga e'tibor qaratilgan.

Farmon aynan ushbu dolzarb vazifalarni hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Zotan, uning izchil ijrosi mamlakat eksport salohiyatini oshirishga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning tashqi hamda ichki bozorda raqobatdoshligini oshirishga, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga imkon beradi. Eng muhimi, valyuta bozorida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun teng raqobat sharoitlarini yaratadi.

O'zbekistonning tashqi savdosi dinamikasi tahlili

Milliy raqobatbardoshlikning oshirilishi respublikamiz tashqi savdosi dinamikasiga ham bevosita ta'sir qiladi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan bir qator chora-tadbirlar natijasida bugungi kunda respublikamiz tashqi savdosida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish jarayonlari o'z natijalarini bera boshladi. 2003 yilda tashqi savdo rivojlanishida kuzatilgan ijobiy tendentsiyalar 2004-2013 yillarda mustahkamlandi. Tahlil etilayotgan davrda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi o'sib borib, 2014-2016 yillarda kamayish kuzatildi. Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2016 yil yakuni bo'yicha 24309,4 mln. AQSh dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,5


foizni tashkil etdi. 2016 yilda tashqi savdo aylanmasi 2000 yilga nisbatan 3,9 martaga o'sdi.

Eksport hajmi 2000 yilda 3264,7 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 12178,7 mln. AQSh dollariga teng yetdi va o'sish sur'ati 3,7 barobarga o'sdi.

2000 yilda import hajmi 2947,4 mln. AQSh dollariga bo'lgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 12130,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va 4,1 barobarga o'sdi.

2014-2016 yillarda respublikamiz eksporti va importida o'sish sur'atlari pasayib, oldingi yilga nisbatan kamayish kuzatildi.

31.1-diagramma. Eksport va import dinamikasi (mln. doll.)



*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.


O'zbekiston Respublikasidan tovar eksporti sohasidagi hozirgi vaziyatni aniqlovchi asosiy tendensiyalardan biri – bu xom ashyo eksporti hajmining yanada kamaytirish va

yuqori darajada qayta ishlangan mahsulot eksportining oshishiga yo'naltirilgan yangicha shakllanayotgan nomenklaturadir.

O'tkazilgan tahlilning ko'rsatishicha, xom ashyo eksportidan butunlay voz kechish mumkin emas, chunki hozirgi vaqtda O'zbekiston uchun bir qator mamlakatlar bozorlari faqat xom ashyo resurslar eksporti jihatidan real ochiq bo'lib, uning tarkibi bir necha yillar davomida tayyor mahsulotlar

tomon asta-sekin o'zgarishi mumkin. Shuni ta'kidlash mumkinki, avtarkiyaga salbiy munosabatga qaramay, hech bir mamlakat tayyor mahsulot importidan manfaatdor emas, har qanday mamlakat o'z importini eng yuqori qisqartirishga va tashqi savdoda eng yuqori ijobiy saldogga erishishga intiladi.

31.2- diagramma. Eksport va import o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)



*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Jahon bozorining barcha tarmoqlaridagi zamonaviy vaziyat, eng avvalo, ortiqcha ishlab chiqarish tendensiyasi bilan xarakterlanadi, bu esa shundoq ham keskin raqobat muhitini kuchaytiradi.


O'zbekiston yirik eksport salohiyatiga ega. Mahalliy korxonalar mahsuloti tashqi bozorlarga yetkazib beriladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston paxta tolasi eksporti bo'yicha

dunyoda yetakchi mavqega ega, shuningdek uning asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar - kalava ip, gazlamalarni Yevropaga yetkazib beruvchi yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Rangli metallar, shu jumladan, mis, rux, volfram, molibden yevropalik savdo sheriklarimizga yaxshi ma'lum va bizning bozorimizda doimiy talabga ega. Ayni vaqtda Yevropadan zamonaviy asbob-uskunalar,

yangi texnologiyalar katta hajmda sotib olinmoqda, yetakchi firmalar va kompaniyalar ishtirokida mavjud korxonalarni qayta tiklash va yangi ishlab chiqarishlarni yaratish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Respublika eksportining tovar tarkibini paxta tolasi, oziq-ovqat, kimyo mahsulotlari va platmassalar, energiya manbalari, qora va rangli metallar, mashina va uskunalar, xizmatlar va boshqalar tashkil etadi (31.3-diagramma).

31.3-diagramma. Eksportning tovar tarkibi (%)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

So'nggi vaqtda importning tovar tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Import tarkibini maqbullashtirilishi, respublikada ishlab chiqarilmaydigan va korxonalarining takror ishlab chiqarish sikli uchun zarur bo'lgan mahsulotlar importi hajmining ko'payishi kuzatildi. Bu mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari, qora va rangli metallar

importining o'sishidir. Bunda oziq-ovqat tovarlari importi qisqardi. (31.4-diagramma)

Eksport va import jug'rofiyasi turlichadir, u nafaqat Yevropa mamlakatlarini, balki Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy shuningdek Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya mamlakatlarini o'z ichiga oladi, ya'ni dunyoning deyarli barcha qit'alariga mahsulot eksport qilinadi.

31.4-diagramma. Importning tovarlar tarkibi (%)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Osiyo taraqqiyot banki, Koreya, Yaponiya, Turkiya, Isroil banklari kreditlari bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar respublikada avtomobilsozlik, engil va ishlov beruvchi sanoat, qishloq xo'jaligi, kommunikatsiya, ijtimoiy sohani rivojlantirishga ko'maklashishga yo'naltirilgan. Ushbu hamkorlik negizida savdoni rivojlantirish uchun, turli tovarlar va xizmatlarni etkazib berish bo'yicha o'zaro manfaatli kontraktlarni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar shakllantiriladi.


Respublikaning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2016 yil yakuni

bo'yicha 8461,5 mln. AQSh dollarini (88,6 foiz), boshqa xorijiy mamlakatlar bo'yicha 15847,9 mln. AQSh dollarini (103,1 foiz) tashkil qildi. Eksport hajmi 12178,7 mln. AQSh dollarini, import esa 12130,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. 2016 yilda tashqi savdo aylanmasi 2000 yilga nisbatan 3,9 martaga o'sdi.

2016 yilda tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,8 foizni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi 65,2 foizni tashkil etdi.

2016 yilda eksport hajmida MDH davlatlarining ulushi 36,3 foizni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 63,7 foizni tashkil etdi.

31.5-diagramma. O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan tashqi savdosi dinamikasi (mln. AQSh. dollari)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

So'nggi yillarda MDH davlatlari bilan o'zaro savdoda eksport ustun bo'lsa, uzoq xorij mamlakatlari bilan aksincha vaziyatni kuzatamiz.

2000 yilda import hajmi 2947,4 mln. AQSh dollariga bo'lgan bo'lsa, 2016 yil yakuni

bo'yicha bu ko'rsatkich 12130,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va 4,1 barobarga o'sdi. Import hajmida MDH davlatlarining ulushi 33,4 foizni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi 66,6 foizni tashkil etdi.

31.6- diagramma. MDH davlatlari bilan tashqi savdoning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Eksport va import o'rtasidagi ijobiy saldo 2000 yilda 317,3 mln. AQSh dollari va 2016 yilda esa ushbu ko'rsatkich 48 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

Tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkorlar MDH davlatlar orasida Rossiya va Qozog'iston bo'lsa, boshqa mamlakatlar orasida Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron va Koreya Respublikasi hisoblanadi.

31.7-diagramma. O'zbekiston Respublikasining uzoq xorij davlatlari bilan tashqi savdosi dinamikasi (mln. AQSh. dollari)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hozirgi davrda deyarli 2000 turdagi tovar va xizmatlar dunyoning 175 dan ortiq mamlakatlariga (Evropa mamlakatlari, MDH, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika va Avstraliya davlatlarini qo'shgan holda) yetkazib berilmoqda. 2000 yilga nisbatan eksport bo'yicha hamkor davlatlar soni 31 taga ko'paygan. O'zbekiston Respublikasi 2016 yil mobaynida 86 ta mamlakat bilan ijobiy saldog'a erishgan.


Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ishblarmonlik muhkini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan kompleks tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida so'nggi yillarda turli sohalarda kichik - biznes sub'ektlari soni ko'paymoqda.

31.8- diagramma. Uzoq xorij davlatlari bilan tashqi savdoning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

31.9- diagramma. 2016-2017 yillarda O'zbekistonning asosiy hamkor davlatlarga eksportining o'sishi (%) (oldingi yilga nisbatan foizda)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Eksportga yo'naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ularni eksport hajmini o'sishiga qo'shgan hissasini oshishiga yordam berdi.

O'zbekistonda me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga, xorijiy investitsiya

ishtirokidagi korxonalar (XIIK) faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy kapitalni keng jalb qilish va yangi qo'shma ishlab chiqarishlarni yaratish uchun zarur makroiqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

31.10-rasm. Eksportda kichik biznesning ulushi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Korxonalarni xususiyashtirishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyuta konvertatsiyalanishining kiritilishi, alohida iste'mol tovarlari turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar (QQS dan tashqari) boshqa soliqlardan ozod qilish, shuningdek bojxona-tarifli tartibga solishni yanada takomillashtirish bo'yicha choralar XIIKlarning ishlab chiqarish va tashqi

savdo faoliyat ko'rsatkichlarining ijobiy o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi.

Statistik ko'rsatkichlarning dinamikasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli yildan yilga ortib bormoqda.

2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3223,2 million AQSh dollari miqdorida tovarlar (ishlar,

xizmatlar) eksport qilindi (umumiy eksport hajmining 26,5 foizi), bu 2010 yilga nisbatan 80,8 foizga ko'p va 2000 yilga qaraganda deyarli 10 baravar ko'p.

Korxonalarining aksariyat qismi xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganiga qaramasdan, eksport qilishda kichik biznes qariyb 45 foizni tashkil etsada, ularning faoliyati ko'plab ishlab chiqarish segmentlarini qamrab oladi.

Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlar sirasiga ho'l va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, shuningdek, tayyor to'qimacilik va charm mahsulotlari, zamonaviy qurilish va pardozlash buyumlari, mexanik asboblari, elektrotexnika va maishiy buyumlar kiradi.

2016 yilda 3000 ortiq kichik biznes subyektlari tomonidan 154 mamlakatga eksport amalga oshirildi. Toshkent shahri tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni jihatidan va eksport faoliyatidan olingan tushumlar bo'yicha peshqadam hisoblanadi. 2016 yilda 1150 dan ziyod tadbirkorlar eksportning 15 foizini ta'minladi, bu shaharning jami eksportining 18,3 foizini tashkil etadi.

Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Toshkent va Samarqand viloyatlari egallaydi. Tashqi bozorlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni bo'yicha ular tegishli taxminan 10 foiz va 9 foizdan sal ko'proqni tashkil etadi. Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarining ulushi bir oz kamroq. Shu bilan birga, hududining umumiy eksport hajmida Namangan viloyati kichik tadbirkorligining eksporti hajmi 87,4 foizni, Andijonda - 72,0 foizni tashkil etdi.

Eksportga bo'lgan talabning oshishi mamlakatni rivojlantirish uchun muhim

manbadir. Doimiy tashqi iqtisodiy faoliyat olib boradigan tadbirkorlik sub'ektlari mavjudligiga qaramasdan, korxonalarining eksport imkoniyati to'liq amalga oshirilmayapti. Buning sabablari haqida gapirganda, tashqi bozorlarning imkoniyatlari va talablari bo'yicha ma'lumotlarning yetarli emasligi, chet elda raqobatning yuqoriligi, shuningdek chet ellik sheriklar bilan muloqotni tashkil etishning murakkabligini aytib o'tish lozim.

Jahon kapital bozorida *O'zbekistonning o'rni*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda investitsiya muhiti sezilarli ravishda yaxshilandi. Hozirgi paytda xorijiy investitsiyalarga ega korxonalar ham qonuniy kafolatlar, ham fiskal imtiyozlarga ega.

Xorijiy kapitalning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. Bu To'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) miqdorining oshib borishi, ularning YaIM, tashqi savdo aylanmasi va aholi banligidagi ulushining ko'payishida o'z aksini topmoqda.

TXI faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy asos sifatida 1994 yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasining "Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlar faoliyatini kafolatlash to'g'risida qonuni qabul qilingan".

O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki AQSh, Yaponiya, Turkiya, Koreya eksport-import banklari, xalqaro moliya institutlari, eksportni sug'urtalash agentliklari, jahonning yirik banklari va boshqalar tomonidan ochilgan kredit liniyalariga xizmat ko'rsatadi. Bu liniyalar orqali respublika uchun muhim bo'lgan, milliy

iqtisodiyoti tuzilmasini qayta qurishni ta'minlovchi investitsion loyihalar kreditlanadi.


Institutsional qayta qurishlar sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratish uchun bir qator ishlar amalga oshirilgan. «O'zbekinvest» Milliy sug'urta kompaniyasi, TIF MB va «ALG, Inc» amerika moliya guruhi bilan birgalikda qo'shma kompaniyalar tashkil etilgan. Siyosiy xatardan

saqlash kompaniyasining shtab-kvartirasi Londonda, Tjoriy xatardan saqlash kompaniyasining shtab-kvartirasi Toshkentda joylashgan.

O'zbekiston hukumati tomonidan Kanada, Xitoy, Turkiya, Gollandiya, Shveysariya kabi davlatlarning bank va firmalari bilan hukumatlararo bitimlar imzolangan va ular hozirgi paytda harakatdadir.

31.11-diagramma. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar

(mln. AQSH dollari)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

«O'zbekiston» mehmonxona kompleksi bazasida O'zbekiston va Malayziyaning qo'shma orxonasi tashkil qilingan va bunga

35,1 mln. AQSh doll. ga teng mablag' jalb etilgan.

31.12-diagramma. 2016 yilda hududlarning Respublika bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi (foizda)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

31.13-diagramma. 2016 yil investorlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

31. 14-diagramma. Asosiy xorijiy investorlarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushining o'zgarish dinamikasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

31. 15-diagramma. Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Xususiylashtirish va investitsiyalar bo'yicha O'zbekiston Xalqaro Banki - O'zprivatbank ish boshladi. Uning ta'asis etuvchilari «Mis Pirson» banki (Gollandiya), «AYoK» (AQSh) xalqaro korporatsiyasi va O'zbekiston Respublika davlat mulk qo'mitasi hisoblanadi.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga Asaka avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Zaroafshon-Nyumond qo'shma korxonasi va boshqa muhim ahamiyat kasb etuvchi yirik ob'ektlar qurilishi amalga oshirildi.

2016 yilda 10611,4 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 3578,1 mln. AQSh dollari) yoki o'tgan yilga nisbatan 114,5 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi va uning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 21,3 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning YalMdagi ulushi 2016 yilda 5,3 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,5 foiz punktga ko'paydi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6587,5 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiyalarning 62,1 foizi o'zlashtirildi.

2016 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning YalMdagi ulushi 3,7 foizni tashkil etdi.

2012-2017-yillar davomida «O'zbek-energo» aksiyadorlik jamiyati tomonidan umumiy qiymati 3,3 milliard AQSh dollari bo'lgan 14 ta loyiha investitsiya dasturlariga kiritilgan. Keyinchalik ularning barchasi

maqsadga muvofiq emas deb topilgan va hukumat qarorlari bilan to'xtatilgan. Eng achinarlisi, mazkur loyihalar hujjatlarini tayyorlashga 185 million AQSh dollari sarflangan.


Qulay investitsiya muhitini shakllantirish va investitsiyalami keng jalb qilish maqsadida olib borilgan qator islohotlar natijasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2016 yilda 7353,7 mlrd. so'mni (dollar ekvivalentida 2479,6 mln. AQSh dollari) tashkil etib, 7,5 foizga ko'paydi va jami investitsiyalardagi ulushi 14,8 foizni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarining hajmi 2000 yilda 105,2 mln. AQSh dollarini yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmidagi ulushi 3,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 422,6 mln AQSh dollari yoki 14,9 foizni, 2010 yilda 2454,7 mln AQSh dollari yoki 25,3 foizni tashkil etdi.

2016 yilda O'zbekiston Respublikasida jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida, iqtisodiyotning nodavlat sektorining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlari ulushi 77,0 foizni tashkil etdi.

Buxoro viloyatida 29,2 foiz (jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi), Qashqadaryo viloyatida 18,9 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasida 15,9 foiz va Toshkent shaxrida 14,3 foiz ko'rsatkich bilan nisbatan katta bo'lgan hajmdagi iqtisodiyotning nodavlat sektori xorijiy investitsiya va kreditlaridan foydalanildi.

31. 16-diagramma. Alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2016 yilda nisbatan katta hajmdagi xorijiy investitsiya va kreditlar quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirildi: xom neft va tabiiy gaz qazib olish 31,0 foiz (jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 15,8 foiz, tashish va saqlash 13,1 foiz, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo 12,3 foiz, axborot va aloqa 7,2 foiz, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4,7 foiz, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash 3,0 foiz.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning takror ishlab chiqarish tarkibida yangi qurilish va kengaytirishga investitsiyalarning ulushi xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmida 80,5 foizni tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 9,6 foiz punktga oshdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning yangi qurilish va kengaytirishga yo'naltirilgan xajmlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (hududdagi jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining 96,6 foizi), Qashqadaryo viloyati (89,8 foiz), Namangan viloyati (87,8 foiz),

Toshkent viloyati (87,1 foiz), Buxoro viloyati (83,6 foiz) va Sirdaryo viloyatlarida (79,6 foiz) nisbatan katta bo'ldi.

Zamonaviy yuqori texnologik ishlab chiqarishni, transport va kommunikatsiya infratuzilmalarini o'z vaqtida tashkil etish orqali

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan faol investitsiya faoliyatini olib borish 2016 yilda kapital qo'yimlar hajmini 7,7 foizga, qurilish pudrat ishlarini 10,2 foizga o'sishini ta'minladi.

Bo'lim bo'yicha rezyume

Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan erkinlashtirish natijasida O'zbekistonning tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me'yorlari va talablariga tobora yaqinlashmoqda

Davlatning xalqaro raqobatbardoshligi, eng avvalo, uning etakchi firmalarining barcha raqobat ustunliklari majmui bilan belgilanadi. Ular esa, o'z navbatida, ichki bozor sig'imi va ehtiyojlari, mamlakatdagi zarur ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish va umumiy iqtisodiy infratuzilma darajasi va samaradorligi, raqobat muhitining rivojlanganlik darajasi kabi omillar asosida shakllanadi va ularning ta'siri ostida bo'ladi

Milliy raqobatbardoshlikning oshirilishi respublikamiz tashqi savdosi dinamikasiga ham bevosita ta'sir qiladi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan bir qator chora-tadbirlar natijasida bugungi kunda respublikamiz tashqi savdosida ijobiy natijalarga erishilmoqda

Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2016 yil yakuni bo'yicha 24309,4 mln. AQSh dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,5 foizni tashkil etdi. 2016 yilda tashqi savdo aylanmasi 2000 yilga nisbatan 3,9 martaga o'sdi. Eksport hajmi 2000 yilda

3264,7 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 12178,7 mln. AQSh dollariga teng yetdi va o'sish sur'ati 3,7 barobarga o'sdi.

2000 yilda import hajmi 2947,4 mln. AQSh dollariga bo'lgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 12130,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va 4,1 barobarga o'sdi.

2016 yilda 10611,4 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 3578,1 mln. AQSh dollari) yoki o'tgan yilga nisbatan 114,5 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi va uning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 21,3 foizni tashkil etdi.

2016 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning YalMdagi ulushi 3,7 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar (XIIK) faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy kapitalni keng jalb qilish va yangi qo'shma ishlab chiqarishlarni yaratish uchun zarur makroiqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bo'lim bo'yicha nazorat savollari

- O'zbekistonning tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me'yorlari va talablariga qay darajada mos keladi?
- Mamlakatimizning raqobarbardoshligi qanday omillarga bog'liq?
- Tashqi iqtisodiy aloqalarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish jarayonlariga baho bering.
- O'zbekistonda me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar haqida gapiring.

Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini qoplashga qaratilgan tashqi savdo siyosatining ijobiy va salbiy jihatlarni baholang.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda uzoq xorij mamlakatlari va MDHga a'zo mamlakatlar bilan munosabatlarni kengaytirish imkoniyatlarini tahlil qiling.

GLOSSARIY

Aal chiqib ketishi — mamlakatdan "intelektual elita" vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Demografik portlash — jahonning kam rivojlangan va kambag'al mamlakatlarida nazorat qilib bo'lmaydigan darajada aholi sonini o'sishi

«Lesse-fer» (fr. laissez-faire) — iqtisodiyot va erkin raqobatga davlatning aralashmaslik siyosati.

Akkreditiv — mijozning iltimosiga ko'ra bank tomonidan hujjatda ko'rsatilgan shartlarda uchinchi shaxs (benefitsiar)ga to'lovni amalga oshirish yoki benefitsiar tomonidan qo'yilgan o'tkazma vekselni (tratta) to'lashni amalga oshirish (aktsept) bo'yicha bank majuriyati bo'yicha bitim.

Aksiz — davlat organlari tomonidan belgilanadigan tovar bojxona qiymatiga narx qo'shimchasi.

Aksept — bitim amalga oshganligini anglatuvchi ofertani qabul qilinganligiga rozilik berish.

Anderravterlar — moliya bozorida muvofiqlashtirilgan kurs bo'yicha zayomni joylashtiruvchi garant kompaniyalar.

Avanslash — yetkazib beriladigan tovarlar uchun importyor tomonidan oldindan haq to'lashdan iborat. Eksportyor uchun foydali o'zaro hisob-kitob ko'rinishi hisoblanadi.

Ayirboshlashdan keladigan vutug (gains from exchange) — mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalariga kirishishi tufayli ega bo'ladigan ustunligi.

Bank o'tkazmalari — o'tkazuvchi (to'lovchi) talabiga muvofiq uning hisobidan oluvchi (benefitsiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka to'lov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob ko'rinishi.

Barter — tovarni tovarga to'g'ridan-to'g'ri ayirboshlanadigan savdo bitimi.

Bojxona boji — tovar davlat chegarasini kesib o'tganda solinadigan maxsus pul solig'i.

Bojxona ittifoqi — ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.

Bojxona tarifi — tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati.

Bufer zahiralari — salbiy iqtisodiy tamoyillarning milliy iqtisodiyotga ta'siri va favqulodda vaziyatlar uchun moddiy boyliklarning jami.

Chek — chek imzolaganning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish haqida bankka bergan yozma farmoyishi.

Devalvatsiya — milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon — revalvatsiya).

Eksport kvotasi — mamlakat eksporti qiymatining unig yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).

Embargo — alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash.

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya'ni - bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESH) — preferentsial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

Yevro — universal yevropa hisob-kitob-to'lov birligi bo'lib, Yelga a'zo mamlakatlar hududida EKYU o'rniga joriy etilgan.

Faktoring — bank yoki faktor-kompaniyalarning mahsulot yetkazib beruvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblarda yetkazib beruvchining moliyaviy talabini qarzni keyinchalik xaridordan undirib olish yo'li bilan to'lash vositasidagi jami vositachilik operatsiyalari.

Fiksing — bu har bir valyutaga talab va taklif hajmini navbatma-navbat solishtirish orqali valyutalarning banklararo kursini aniqlash va qayd etish jarayoni.

Forfetirlash — bir kompaniyaning tijoriy huquqlarini boshqa kompaniyaga naqd to'lov bilan ayirboshlash.

Forvard — bitim imzolanganidan keyin ikki kun davr uchun qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug'urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo'yicha banklararo valyuta-moliyaviy operatsiyalar.

Franchavzing — bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning

savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanishi

Fritred (erkin savdo) — xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlatning eng kam darajada aralashuvi sharoitida o'z faoliyatlarini erkin ravishda tanlashini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

Fyuchers — qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug'urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo'yicha fond birjasida bajariladigan tezkor muddatli valyuta-moliyaviy operatsiyalar.

GATT — Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv — tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt

Global muammolar — olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan va o'z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi tsivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari

Immigratsion kvota — xorijiy fuqarolarni kirib kelishi davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB) — intellektual faoliyat natijalari ayirboshlash xalqaro sohasi.

Injiniring — ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektini qurib, ishga tushirish bo'yicha xizmatlar

Inkasso — mijoz (eksportyor) buyrug'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun importyordan to'lovni qabul qilish va bu mablag'larni eksportyor hisobiga o'tkazish operatsiyasi.

Innovatsion faolivat — Nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayondir.

Investitsion muhit — mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksi.

Iqtisodiy integratsiya — hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq — iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, u umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) — BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi (factor price equalization theorem) (Xeksher-Olin-Samuelson teoremasi) — xalqaro savdo savdo olib boruvchi mamlakatlarda gomogen ishlab chiqarish omillari mutlaq va nisbiy narxlarining muvozanatlashuviga olib keladi.

Ixtisoslashuvdan keladigan yutuq (gains from specialization) — mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan o'zaro savdosi sharoitida o'zining barcha sa'y-harakatlarini o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga qaratishi orqali ega bo'ladigan ustunligi.

Jahon bahosi — talab va taklif egri chiziqdagi ta'sirini hisobga olgan holda milliy narx ko'rsatkichlari ta'sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo'ladi.

Jahon bozori — moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol bosqichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) — milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi

Jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT) — xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish ko'rinishidir.

Kartel — tashqi savdo assotsiatsiyasi (uning a'zolari alohida tovar guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).

Kliring — qarama-qarshi tovar oqimlarida valyutadan foydalanmasdan (naqdsiz) vositachi orqali o'zaro hisob-kitobni nazarda tutuvchi savdo operatsiyasi.

Ko'ngilli eksport cheklashlari (KECh) - bir tashqi savdo hamkori tomonidan ikkinchi bilan kelishilgan holda eksport operatsiyalari hajmini chegaralash.

Konsalting — konsalting firma tomonidan har qanday iste'molchiga keng ko'lamdagi maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Konversiya — Harbiy sanoat kompleksi korxonalarini fuqarolarga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

Kredit kartochkasi — elektron bank tizimlari orqali tovar va xizmatlarni naqdsiz to'lash instrumenti.

Kross-kurs — ikki xorijiy valyutani kesishuvchi kotirovkasi, bu valyutalarning hech biri kursni belgilovchi bitim imzolovchi ishtirokchining milliy valyutasi emas.

Kvotalash — davlat tomonidan eksport va importning qiymat va jismoniy hajmini to'g'ridan-to'g'ri cheklash amaliyoti.

Leontev paradoksi (Leontief paradox) — bu Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining amalda bajarilmasligi — mehnat serob mamlakatlarning kapital sig'imli, kapital serob mamlakatlarning mehnat sig'imli tovarlarni eksport qilishi.

Litsenziyalash — davlat tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslarga tashqi iqtisodiy operatsiyalar olib borishga ruxsat berish amaliyoti.

Lizing — mashina, qurilmalar, texnologiya va ko'chmas mulkni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun uzoq muddatga ijaraga berish.

Marja — valyuta xaridori va sotuvchisi kurslari o'rtasidagi farq.

Marginal (qo'shilgan) foyda — sotish narxi va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indilari orasidagi farq.

Maxsus qarz olish huquqi — Xalqaro valyuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko'rinishidagi xalqaro aktivlar (ya'ni zahira va to'lov vositalari) bo'lib, ularning miqdori XVFGa a'zo-mamlakatlarning kvotalariga mos keladi.

Monetarizm — bu nazariyaga ko'ra, davlat tomonidan pul massasi o'sish sur'atlarini barqaror ushlab turish (yiliga 3-5 foiz) va davlat harajatlariniqisqartirish xususiy kapital uchun bir iqtisodiyotdan boshqasiga erkin oqib o'tish kanallarini ochadi, bu yangi ish joylarini yaratish va aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatini beradi.

Monitoring (xo'jalik) — jami iqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish va statistik ishlov berish jarayoni.

Muaobil narx (opportunity cost) — bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtining boshqa bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti bilan ifodalanishidir.

Mutloq ustunlik nazariyasi (absolute advantage theory) — mamlakatlar o'zlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan (ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan) tovarlarni eksport qiladi va boshqa mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqariladigan (ishlab chiqarishda savdo hamkorlari mutlaq ustunlikka ega bo'lgan) tovarlarni import qiladi.

Narx — tovarning ijtimoiy foydaliligi qiymatining pul birligida ifodalanishi.

Nisbiy ustunlik nazariyasi (comparative advantage theory) — agar bir mamlakat boshqa mamlakat bilan solishtirganda nisbatan kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara oladigan tovarlarni ishlab chiqarishga

ixtisoslashsa ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutlaq samaraliroq bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun foydali bo'ladi.

Nou-xau — mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalangan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.

O'rini qoplashning chegaraviy me'vori (marginal rate of substitution) — mavjud iste'mol darajasining saqlanib qolishi ta'minlangan holda 1-tovarning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar miqdori.

O'zaro talab (reciprocal demand) — talab va taklifni sintez qiluvchi hamda turli miqdordagi tovarlarni eksport qilishga xohish uyg'onishi uchun mamlakat qancha miqdorda boshqa bir tovarlarni import qilishi kerakligini ifodalovchi ko'rsatkich.

O'zaro talab nazariyasi (reciprocal demand theory) — import qilingan tovar narxi shu tovar uchun to'lovni amalga oshirish uchun eksport qilinadigan tovar narxi bilan belgilanadi, shuning uchun narxlarning pirovard nisbati ana shu tovarlarga o'zaro savdo olib borayotgan mamlakatlardagi ichki talab bilan aniqlanadi.

Ochiq hisob — hisob-kitob tovar importyor tomonidan olingandan so'ng amalga oshiriladigan forma. Eksportyor importyorga hisob-fakturani hujjatlar bilan birgalikda pochta orqali banklar ishtirokisiz yuboradi.

Oferta — aniq shart-sharoitlar asosida bitim tuzish taklifi.

Offshor hududlar — milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, bu yerda xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy

operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirashadi.

Omillar intensivligi (factor intensity) — ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini belgilovchi ko'rsatkich.

Omillar serobligi (factor abundance) — mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilovchi ko'rsatkich.

Ortib boruvchi o'rini qoplash xarajatlari (increasing opportunity costs) har bir qo'shimcha 2-tovarni ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 1-tovarning miqdori doimiy emas, balki ortib boruvchi bo'lishligini nazarda tutadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi — milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.

Panjaralash (xedi-rovanive) — valyuta xatarlarini sug'urtalash usullari majmui.

Portfel investitsiyalar — xo'jalik ob'ektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital qo'yilmalari.

Protetsionizm — xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga davlatning bevosita va bilvosita usullar orqali faol aralashuvini nazarda tutuvchi iqtisodiy siyosat.

Qarz konversivasi — qarz majburiyatlarini ikkilamchi bozorda likvidli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga aylantirish.

Qarzga xizmat ko'rsatish me'vori — qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar va milliy eksport orasida nisbat

Qarzni diskontlash — kreditor va qarz beruvchi o'rtasida kredit summasini yoki uning bir qismini o'chirish.

Qarzni restrukturizatsiyalash — kreditni to'lash muddatlarini foizlarni to'lashni orqaga surish orqali cho'zish.

Rezident — fuqaroligi va pasport statusidan qat'iy nazar davlat hududida bir yildan oshiq yashagan jismoniy va huquqiy shaxs tushuniladi (bu mamlakatda shtabkvartiraga ega bo'lgan diplomatik missiya ishchilari, harbiy personal va xalqaro tashkilotlar xodimlaridan tashqari).

Rollover kreditlar — asosiy miqdor, qo'shimcha (marja) va komission to'lovlardan tarkib topgan foiz stavkasini qayta ko'rish mumkin bo'lgan holda ssuda berish.

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT Aniumani (YUNIDO) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdo va taraqqivot bo'yicha BMT Aniumani (YUNKTAD) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish reimi — mamlakatlar o'rtasida kelishilgan holda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Savdodan keladigan yutuq (gains from trade) — mamlakatlar o'zlari nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda savdoda ishtirok etuvchi har ikki mamlakat bu savdodan oladigan iqtisodiy naf.

Spot — bitimni imzolash paytida kontragentlar qayd etgan kurs bo'yicha valyutani darhol yetkazib berish bilan bog'liq kassa operatsiyalari.

Sug'urta kafolati — ma'lum bonus evaziga sug'urta kompaniyasining eksportyorlar (kreditorlar)ga zararni qoplash haqida majburiyati.

Svop — forvard bitiml va spot sharti bo'yicha bitim asosida amalga oshadiga turli xildagi valyuta operatsiyalari

Tashqi qarzdorlik inqirozi — davlat tomonidan tashqi qarzl va zayomlarni to'lash grafigini buzilishi

Tashqi savdo siyosati — eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va jug'rofiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir.

TIFni tartibga solishning notarif usullari — tashqi savdoga ta'sir o'tkazishning bevosita, ma'muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik standartlarni joriy qilish, sanitar me'yorlar va boshqalar).

TIFni tartibga solishning tarifli usullari — soliq cheklashlari (bojxona yig'implari, bojlar, aksizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta'sir o'tkazish vositalari yig'indisi.

To'g'ri investitsiyalar — foyda olish bilan birgalikda kapital qo'yilayotgan ob'ekt ustidan nazoratni ta'minlash huquqini beruvchi kapital qo'yilmalari.

To'lov balans — mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma'lum vaqt oralig'idagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarini sistemalashtirilgan holda qayd etilishidir.

To'lov balansining asosiy moddolari - tovar va xizmatlar eksport-importi, xorijiy investitsiya kapitali harakatini o'z ichiga oladi.

To'lov balansining balanslovchi moddolari — valyuta zahiralarning harakati, qisqa muddatli aktivlar hajmining o'zgarishi, davlat qarzlari va kreditlari, ikki tomonlama bitimlar hamda xalqaro tashkilotlar liniyasi bo'yicha moliyaviy yordamlarni aks ettiradi.

Transformatsiyaning chegaraviy me'vori (marginal rate of transformation) — 1-tovarning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar soni.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) - chet el aktivlariga ega bo'lgan yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirish ko'rinishi.

Umumiy bozor — ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.

Umumiy/xalqaro muvozanat (general/international equilibrium) — ichki va xalqaro savdoda (ichki va xalqaro bozorda) tovarga talab va tovar taklifining bir paytda muvozanatga kelishi.

Umumjahon banki — o'zaro bir-biri bilan bog'liq beshta institutdan tarkib topgan ko'p tomonlama kredit tashkiloti.

UST — Umumjahon savdo tashkiloti — xalqaro savdoni institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Valyuta — ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari, Xalqaro valyuta fondi va Yevropa valyuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklari.

Valyuta arbitraji — svoplar va ssuda kapital bozorida bitimlar birgalikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi banklararo operatsiyalar.

Valyuta bozorlari — milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta'sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy

valyutalarini oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

Valyuta cheklashlari — xorij valyutasi va boshqa qimmatli narsalar (oltin) bo'yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo'naltirilgan ma'muriy va qonuniy tartibda belgilangan me'yoriy qoidalar tizimi.

Valyuta intervensiyasi — davlat organlari tomonidan milliy bozorda xorijiy valyutani sotish va sotib olish.

Valyuta kliringi — ikki va undan ortiq hukumatlar o'rtasida moliyaviy talablar va majburiyatlarni o'zaro hisobga olish haqida kelishuv.

Valyuta kotirovkasi — bir valyuta bahosini boshqa valyutalarda ifodalanishining sonli yozuvi.

Valyuta kursi — milliy valyutalar o'rtasidagi nisbat, bir mamlakat valyutasining xorijiy pul birliklarida ifodalanishi.

Valyuta pozitsiyasi — bankning xorijiy valyuta talab va majburiyatlari nisbati.

Valyuta rejimi — valyuta ayirboshlash kursini aniqlash asosidagi mexanizm.

Valyuta rezervlari — xorijiy valyuta, oltin, SDR, XVFDagi rezerv pozitsiya ko'rinishidagi valyuta-likvid vositalarning jami.

Valyuta siyosati — mamlakatda xorijiy valyutalarning pul-kredit aylanmasini tartibga solishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi.

Valyuta xatari — valyuta kursi o'zgarishi oqibatida eksportyor, importyorning zarar ko'rish imkoniyati.

Valyutaning konvertirlanganligi — milliy valyutani xorijiy valyutalarga rezidentlar uchun ham, rezident bo'lmaganlar uchun ham to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha almashtirish imkoniyati.

Veksel — belgilangan ko'rinishda tuzilgan yozma qarzdorlik majburiyati, veksel egasi unda ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng belgilangan pul summasini qarzdordan talab qilishga haqli.

Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) — eng rivojlangan industrial mamlakatlar birlashmasi.

Xalqaro hisob-kitoblar — turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chiquvchi pul talablari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va tartibga solish jarayoni.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi — ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishi.

Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi — mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti ko'rinishi bo'lib, unda o'zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.

Xalqaro kredit — valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinchlik va to'lovlilik shartlarida berish.

Xalqaro savdo — milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o'ziga xos shakli.

Xalqaro tovar nomenklaturasi — mamlakatlar o'rtasida kelishilgan, tasniflangan tovar pozitsiyalari ro'yxati bo'lib, har bir tovar pozitsiyasi kodlashtirilgan raqamlarga ega.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) — yirik hukumatlararo valyuta-moliya tashkilot bo'lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi.

Xarid gobiliyati pariteti nazariyasi — valyuta kursi ikki mamlakat pul birliklarining nisbiy qiymati bilan aniqlanadi, u muomaladagi pul miqdoriga bog'liq. Jumladan, Dj. M. Keynsa tamoyiliga ko'ra, davlat tomonidan foiz stavkasini manipulyatsiya qilish mamlakatga xorijdan investitsiya oqimlarini quyidagicha o'zgartiradi: foiz stavkasi kamaytirilsa, tashqi qarzlarni hajmi ortadi, foiz stavkasi oshirilsa, aksincha, kamayadi.

Xeksher-Olin teoremasi (Heckscher—Ohlin Theorem) — har bir mamlakat o'z ishlab chiqarishlarida nisbatan katta hajmga ega bo'lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, binobarin, bu mamlakatlar milliy xo'jalik nuqtai nazaridan nisbatan kamchil omillar bilan ta'minlangan tovarlarni import qiladilar.

Xeksher—Olin—Samuelson tamovili — mamlakatning eksportga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyotdagi serob ishlab chiqarish omillarining mavjudligiga asoslangan.

Yalpi ichki mahsulot (YalM) — ma'lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

Yangi industrial mamlakatlar (YalM) — iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

Yevropa Ittifoqi (Yel) — G'arbiy Yevropaning 28 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Yevropa valyuta tizimi (EVT) — Yel a'zolarining hududiy valyuta guruhi.

TESTLAR

1. O'zbekiston bir birlik resursni ishlatgan holda 1 t. bug'doy yoki 4 t. ko'mir ishlab chiqarishi mumkin, Ukraina esa 2 t. bug'doy yoki 5 t. ko'mir ishlab chiqarishi mumkin.

Ochiq iqtisodiyot sharoitida,

A. *Uzbekiston bug'doyni eksport, ko'mirni import qiladi.*

B. *Ukraina bug'doyni eksport kilib, ko'mirni import qiladi.*

C. *O'zbekiston bug'doyni import ham, eksport ham qilmaydi.*

D. *O'zbekiston ko'mirni import ham, eksport ham qilmaydi.*

E. *Ukraina ham bug'doyni, ham ko'mirni eksport qiladi.*

2. Fransiya Angliyaga vino, Angliya esa Fransiya tekstil mahsulotlarini eksport qiladi, agar tekstil mahsulotlariga nisbatan vinoning narxi ko'tarilsa, unda . . .

A. *Fransiya uchun savdo sharoiti yaxshilanadi.*

B. *Fransiyaning savdo imkoniyatlarini ifodalovchi chiziq burchagi o'zgarmaydi.*

C. *Angliyaning savdo imkoniyatlarini ifodalovchi chiziq burchagi o'zgarmaydi.*

D. *Fransiya uchun savdo sharoiti yomonlashadi.*

E. *Fransiya uchun savdo sharoiti o'zgarmaydi.*

3. Import boji va kvota orasidagi farq shundan iboratki, faqatgina boj...

A. *Xalqaro savdoning qisqarishiga olib keladi.*

B. *Narxlar ko'tarilishiga olib keladi.*

C. *Byudjetga daromad keltiradi.*

D. *Mamlakatdagi turmush sharoitini pasaytiradi.*

E. *Mamlakatdagi turmush sharoitini oshiradi.*

4. Nisbiy ustunlik tamoyili kim tomonidan kiritilgan?

A. *Tomas Maltus;*

B. *Adam Smit;*

C. *Pol Samuelson;*

D. *David Rikardo;*

E. *Alfred Marshal.*

5. Proteksionizm tarafdorlari shuni ta'kidlashadiki, importga qarshi bojar, kvotalar va boshqa savdo to'siqlarini joriy qilish orqali.

A. *Yosh sohalarni chet el raqobatidan saqlash mumkin.*

B. *Iste'molchilar turmush farovonligini oshirish mumkin.*

C. *Byudjet daromadlarini ko'paytirish mumkin.*

D. *Kichik iqtisodiyotli mamlakatning umumiy farovonligini yaxshilash mumkin.*

E. *Katta iqtisodiyotli mamlakatning umumiy farovonligini yaxshilash mumkin.*

Testlar

6. A va B mamlakatlar X va U mahsulotlardan (birlik hisobida) quyidagi miqdorda ishlab chiqaradi:

	X tovar	U tovar
A mamlakat	12	16
B mamlakat	8	8

Agar har bir mamlakat nisbiy ustunlik tamoyili asosida ish tutsa, unda almashuv koeffitsiyenti (savdo shartlari) qanday bo'ladi?

- A. 1 birlik X uchun 1,33 birlik U.
- B. 1 birlik X uchun 2 birlik U
- C. 1 birlik X uchun 1 birlik U
- D. 1 birlik U uchun 1 dan 1,33 gacha birlik X.
- E. 1 birlik U uchun 0,5 dan 3/4 gacha birlik X.

7. Rezidentlar bu, uzoq vaqt davomida u yoki bu mamlakat hududida yashayotgan shaxs yoki shaxslar guruhi. Rezident sifatida ...lar qatnasha oladi.

- A. jismoniy shaxslar.
- B. yuridik shaxslar.
- C. jismoniy va yuridik uaxslar.
- D. davlat xizmatchilari.
- E. davlat xizmatchilari va yuridik shaxslar.

8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda nima asosiy o'rin tutadi?

- A. fuqarolik;
- B. faoliyat olib borilayotgan joy;
- C. yashash joyi;
- D. yashash muddati;
- E. faoliyat turi.

9. O'zbekiston fuqarosi AQSh ga mahsulotni Rossiyada turib sotayotgan bo'lsa, bu operatsiya . .

- A. xalqaro savdo;
- B. ichki savdo;
- C. aralash savdo;
- D. davlat bojlari;
- E. to'g'ri javob yo'q.

10. Xalqaro savdoning rivojlanishi mamlakatlarni

- A. mustaqil qildi;
- B. o'zaro bog'ladi;
- C. bir-biridan uzoqlashtirdi;
- D. nota'sirchan qilib qo'ydi;
- E. rivojlantirdi.

11. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar nechta asosiy formaga ega?

- A. 5 formaga;
- B. 8 formaga;
- C. 4 formaga;
- D. 7 formaga;
- E. 6 formaga.

12. Qaysi Yevropa mamlakatida birichi bor O'zbekiston Respublikasining elchixonasi ochilgan?

- A. Fransiyada.
- B. Buyuk Britaniyada.
- C. Germaniyada.
- D. Italiyada.
- E. Belgiyada.

13. Adam Smitning fikriga kura millat va xalqlarning boyligining negizida . . . yotadi.
A. xom ashyo resurslarining mavjudligi .
B. mehnat taqsimoti.
C. milliy daromad.
D davlat byudjeti
E. u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda ustunligi.

14. Yevropa valyuta tizimiga xos bulgan xususiyat qaysi?
A. klassik oltin monetar standarti.
B. oltin deviz va Yevrodollar standarti.
C. EKYU standarti va valyuta kurslarining 2,25 % chegarasidagi birgalikdagi "suzishi".
D. SDR stnadarti va erkin suzuvchi valyuta kursi.
E. yagona Yevropa valyutasi YEVRO ning naqd ko'rinishi.

15. Mamlakatning to'lov balansi
A. mamlakatga va mamlakatdan kapitalning oqib kelishi va ketishini belgilaydi.
B. tovar va xizmatlar eksporti/importini va investitsiyalardan tushadigan daromadning umumiy hajmini belgilaydi.
C. bir oy davomida bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan amalga oshirilgan barcha to'lovlar va tushumni belgilaydi.
D. valyuta kursi tebranishlarini tekislash maqsadida xorijiy valyutani sotib olish va sotishni belgilaydi.
E. bir kvartal davomida bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan amalga oshirilgan barcha to'lovlar va tushumni belgilaydi.

16. Kross-kurs bu
A. dollarning boshqa valyutalarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri kotirovksi
B. dollarning boshqa valyutalarga nisbatan bilvosita kotirovkasi.
C. milliy valyutaning suzuvchi va belgilangan valyuta kurslari orasidagi nisbat.
D. valyutani birjadan tashqaridagi bozorlarda sotilish narxi.
E. bu bir valyutaning boshqa valyutaga nisbatan uchinchi valyuta vositasida ifodalanishi.

17. GATTning faoliyat ko'rsatishi davrida necha raund o'tkazilgan?
A. 4 ta. B 6 ta. C. 8 ta. D. 10 ta. E. 11 ta.

18. USTdagi O'zbekistonning o'rni qanday?
A. yetakchi.
B. ishtirokchi.
C. kuzatuvchi.
D. koordinator.
E. autsayder mamlakat.

20. Fransuz iqtisodchisi Mishel Pebroning fikriga ko'ra "erkin savdo va ochiq iqtisodiyot, bu"
A. ushbu jarayonning barcha sub'ektlari taraqqiyotining kafolatidir.
B. rivojlanayotgan mamlakatlar uchun inqirozga olib keluvchi yo'l.
C. yetakchi iqtisodiyot ega mamlakatlar uchun juda qulay o'yin qoidasi.
D. rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qulay sharoitlar.
E. jahon iqtisodiyotining rivojlanishi kafolati.

Testlar

21. Zamonaviy XIM da nechta integratsion jarayon bosqichi mavjud?

A. 1ta B. 2ta C. 3ta D. 4ta E. 5ta

22. Xalqaro ixtisoslashuv natijasida mamlakatlarning 4 ta guruhga bo'linishi yuz berdi, ushbu guruhlarning to'g'ri kombinatsiyasii ko'rsating.

- qazib oluvchi sanoat mahsulotlarini beruvchi mamlakatlar.
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashgan mamlakatlar.
- qayta ishlash, qazib olish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar.
- qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar.
- bevochta sotish bilan shugullanuvchi mamlakatlar (dunyoning savdo markazlari) va vositachi mamlakatlar.

A. 1, 2, 4, 5. B. 1, 2, 3, 4.

C. 1, 2, 3, 5. D. 1, 3, 4, 5.

E. to'g'ri kombinatsiya yo'k.

23. Aviatexnikani yetkazib beruvchi va ishlab chikaruvchi eng yirik mamlakatlar qaysilar?

A. *Angliya, Germaniya, AQSh, Rossiya, Fransiya.*

B. *AQSh, Yaponiya, Angliya, Italiya, Germaniya.*

C. *AQSh, Italiya, Germaniya, Fransiya, Angliya.*

D. *Rossiya, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Angliya.*

E. *Xitoy, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Angliya.*

24. Rim shartnomasini qaysi davlatlar imzolagan, qachon va ularning maqsadi nima bo'lgan?

A. *Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg; 1957 yil; bojxona bojlarini kamaytirishi va yagona bozorni tuzish orqali iqtisodiy hamkorlik olib borish.*

B. *Buyukbritaniya, Italiya, Belgiya, Daniya, Gollandiya, Fransiya; 1957 yil; yagona bojxona ittifoqini tuzish.*

C. *Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Buyukbritaniya; 1961 yil; siyosiy ittifoq.*

D. *Germaniya, Buyukbritaniya, Italiya, Gollandiya, Fransiya, Daniya, Ispaniya, Islandiya, Shvetsiya, Lyuksemburg, Belgiya, Portugaliya, Avstriya, Gretsiya, Finlyandiya; 1993 yil; Yevropa xamjamiyatini tuzish.*

E. *to'g'ri javob yo'k.*

25. Xalqaro savdoda hozirgi kunda nechta asosiy xalqaro naqdsiz valyuta turlari ishlatiladi?

A. 1 B. 2 C. 3 D. 4

E. *bunday valyuta ko'rinishlari yo'q.*

26. Importga bo'lgan ichki talab ... ga teng.

A. *eksport va import o'rtasidagi farq.*

B. *ichki talab va taklif o'rtasidagi farq.*

C. *ichki va tashqi bozordagi narxlar far'ining taklif hajmlarining farqiga nisbati.*

D. *ichki va tashqi bozordagi taklifning yig'indisi.*

E. *ichki bozordagi talab summasi + tashqi bozordagi talab va taklif o'rtasidagi farq.*

27. Proteksionizmning ma'muriy choralarini qaysilar?

- A. paratarif choralar, texnik standartlar, subsidiyalash.
- B. texnik barerlarni qo'llash, upakovka va markirovka shartlari, eksportni ixtiyoriy cheklash.
- C. kvotalash, litsenziyalash, davlat monopoliyalari.
- D. texnik standartlar, davlat monopoliyalari, paratarif choralar.
- E. to'g'ri javob yo'k.

28. Uzoq xorij mamlakatlaridan qaysi biri Uzbekistonning tashqi tovar aylanmasida eng katta ulushga ega?

- A. Koreya.
- B. Germaniya.
- C. Rossiya.
- D. AQSH.
- E. Italiya.

29. Agar evroning real kimmatlashuvi yuz bersa, u holda . . .

- A. Germaniyada bir birlik mahsulot tarkibidagi ish xaqiga nisbiy xarajatlar kamayadi;
- B. Nemis tovarlarining jahon bozorida raqobatbardoshligi ortadi;
- C. Germaniyaning joriy operatsiyalari balansini yaxshilanadi;
- D. Jahon bozorida nemis tovarlari qimmatlashadi;
- E. Germaniyaning sof eksporti ortadi.

30. Qayd etilgan valyuta kursiga nisbatan aytilgan quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?

- A. Tashqi savdoga kuchli bog'liq bo'lgan katta bo'lmagan ochiq iqtisodiyotlar uchun afzal;
- B. Mustaqil pul-kredit siyosatini o'tkazish imkoniyati bo'lmaydi;
- C. To'lov balansini muvozanatga keltiruvchi "avtomatik stabilizator" rolini bajaradi;
- D. Mamlakat pulga talabda kutilmagan o'zgarishlarga duch kelgan holatda eng ma'qul.

31. Qisqa muddatli oraliqda boshqa shart-sharoitlar bir xil bo'lganda milliy valyuta devalvatsiyasi natijasida sof eksport miqdori (NX):

- A. ortadi;
- B. kamayadi;
- C. avval ortadi, so'ngra kamayadi;
- D. avval kamayadi, so'ngra ortadi.

32. Agar qayd etilgan valyuta kursi sharoitida Markaziy bank valyuta bozorida intervensiya o'tkazadi va o'zining valyuta zahiralarni sarflaydi. Pul taklifida o'zgarishga yo'l qo'ymaslik uchun Markaziy bank:

- A. hisob stavkasini oshirishi kerak;
- B. majburiy zahiralarni me'yorini oshirishi kerak;
- C. ichki aktivlar miqdorini ko'paytirishi kerak;
- D. ichki aktivlar miqdorini kamaytirishi kerak.

33. Sof xorijiy aktivlarni tavsiflovchi quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri:

- A. agar uzoq muddat oralig'ida mamlakat joriy operatsiyalar balansida kamomadga ega bo'lsa, uning sof xorijiy aktivlari miqdori salbiy bo'ladi va mamlakat netto-qarzdorga aylanadi;
- B. agar uzoq muddat oralig'ida mamlakat joriy operatsiyalar balansida ijobiy qoldiqqa ega

bo'lsa, uning sof xorijiy aktivlari miqdori ortib boradi va mamlakat netto-kreditorga aylanadi;
C. davlat byudjeti kamomadini usishi, agar u investitsiyalarga nisbatan xususiy jamgarmalarning tezroq usishi bilan birgalikda kuzatilmasa, mamlakatning sof xorijiy aktivlarining kamayishiga olib keladi;
D. sof eksport va mamlakat sof rasmiy valyuta zahiralari miqdori mamlakatning sof xorijiy aktivlarini tashkil qiladi.

34. Kapital yuqori darajada harakatda bo'lgan ochiq iqtisodiyotda qayd etilgan valyuta kursi sharoitida rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosati:
A. daromadning ortishiga olib keladi;
B. daromadning kamayishiga olib keladi;
C. foiz stavkasining o'sishiga olib keladi;
D. daromadga ta'sir ko'rsatmaydi.

35. Kapital yuqori darajada harakatda bo'lgan ochiq iqtisodiyotda qayd etilgan valyuta kursi sharoitida tashqi savdoni cheklashlar siyosati samarali bo'ladi, chunki:
A. valyuta qadrsizlanishi yuz beradi;
B. qayd etilgan valyuta kursini quvvatlash maqsadida Markaziy bank pul taklifini ko'paytiradi;
C. sof eksportidagi o'zgarishlar foiz stavkasini tushib ketishiga olib keladi;
D. valyuta qadrsizlanishi foiz stavkasining miqdori bilan teng bo'lishi kuzatiladi.

36. Agar iqtisodiyot erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida ichki va tashqi

barqarorlik hamda kapital past darajada harakatda bo'lganda, davlat xarajatlarini ko'paytirilishi:

- A. valyuta kursi va foiz stavkasini ortishiga olib keladi;
- B. valyuta kursi va foiz stavkasini kamayishiga olib keladi;
- C. valyuta kursini ortishi va foiz stavkasini kamayishiga olib keladi;
- D. valyuta kursini kamayishi va foiz stavkasini ortishiga olib keladi.

37. Proteksionistik tashqi savdo siyosati suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida daromad darajasiga ta'sir qilmaydi, chunki:

- A. sof eksport ortadi, biroq investitsiya kamayadi;
- B. valyuta kursi ortadi, bu sof eksportning boshlangich ko'payishini neytrallashtiradi;
- C. importni qisqarishi eksportning usishiga ekvivalent;
- D. yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

38. Ochiq iqtisodiyotda suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosati:

- A. daromadning ortishiga olib keladi;
- B. daromadning kamayishiga olib keladi;
- C. daromad darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi.
- D. kapital harakatchanligi darajasiga bog'liq ravishda daromad darajasining ortishiga ham, kamayishiga ham olib kelishi mumkin.

MASALALAR

1-masala. Faraz qilaylik, A mamlakat va B mamlakat mamlakatlari faqat ikki xil tovar - shakar va po'lat ishlab chiqarishadi, bu tovarlarga ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi jadvalda keltirilgan, muqobil xarajatlar ishlab chiqarishning har qanday hajmida bir xilda qoladi.

	1 tonna po'lat ishlab chiqarish uchun xarajatlari	1 tonna shakar ishlab chiqarish uchun xarajatlari
A mamlakat	150	100
B mamlakat	120	120

a) A mamlakat po'lat ishlab chiqarishda mutloq ustunlikka egami?

b) B mamlakat shakar ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka egami?

c) Erkin savdo sharoitida A mamlakat va B mamlakat qaysi tovarlarni eksport va import qiladi?

d) A mamlakat va B mamlakat o'rtasida erkin savdo sharoitida po'lat va shakarning jahon bahosi qaysi chegarada o'rnatiladi?

2-masala. Quyida A mamlakat va B mamlakat mamlakatlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari jadvali berilgan. Faraz qilaylik, talab tarkibi shundayki, agar ikki mamlakat o'rtasida savdo bo'lmasa, A mamlakatda 8 mingta avtomobil va 3 ming tonna guruch, B mamlakatda esa 8 mingta avtomobil va 9 ming tonna guruch ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi.

a) A mamlakat va B mamlakat uchun qaysi tovarlarga ixtisoslash foydaliroq?

b) Ixtisoslashish natijasida avtomobil va guruch ishlab chiqarishning umumiy hajmi qanchaga o'sadi?

c) Bitta avtomobilning jahon bahosi qanday oraliqda o'rnatilishi mumkin?

d) Faraz qilaylik, jahon bahosi 1 ta avtomobilga 1 tonna guruch darajasida o'rnatilsin va tashqi savdo hajmi 10 mingta avtomobil va 10 ming tonna guruchni tashkil etsin. Har ikki mamlakat ixtisoslashuvdan qancha foyda ko'radi?

3-masala. Faraz qilaylik, X mamlakatda bug'doyga talab funksiyasi:

$D = 100 - 20R$, taklif funksiyasi: $S = 20 + 20R$ ko'rinishga ega.

a) X mamlakatga importga talab funksiyasini aniqlang va importga talab egri chizilini chizing. Tashqi savdo bo'lmaganda buhg'oy narxi qanday bo'ladi?

Endi Y mamlakatni ko'raylik, bu yerda bug'doyga talab funksiyasi:

$D^* = 80 - 20R$, taklif funksiyasi: $S^* = 40 + 20R$ ko'rinishga ega.

b) Y mamlakatga eksport taklifi funksiyasi ko'rinishini aniqlang va eksport taklifi egri chizilini chizing. Tashqi savdo bo'lmaganda Y mamlakatda bug'doy narxi qanday bo'ladi?

c) Faraz qilaylik X va Y mamlakatlar o'rtasida savdo yo'lga qo'yildi va transport xarajatlari nolga teng. Bug'doyning jahon narxi

Masalalar

qay darajada o'rnatiladi? Savdo hajmi qanday bo'ladi?

4-masala. Jadvalda A mamlakatda bug'doy va shakar ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymatda va milliy daromadda turli omillarning ulushi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ishlab chiqarish omillari	Bug'doy	Shakar	Milliy daromad
mehnat	0,35	0,20	0,30
yer	0,45	0,20	0,35
kapital	0,20	0,60	0,35

Faraz qilaylik, A mamlakat bug'doy ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega va boshqa mamlakatlar bilan savdo munosabatlarini o'rnatilish tufayli bug'doyni eksport, shakarni import qila boshlaydi.

a) Har bir omil (mehnat, yer, kapital) uchun eksportga ixtisoslashtirish ko'rsatkichlarini $S_i, x/m$ hisoblang.

b) Agar omillar tarmoqlar orasida umuman harakatlana olmasa, savdoning kengayishi natijasida kim yutadi? Kim yutqazadi?

c) Agar omillar mamlakat chegarasida mutloq harakatchanlikka ega bo'lsa, bu holatda kim yutadiyu, kim yutqazadi?

5-masala. Kichik mamlakat X tovarni import qiladi. Bu tovarning jahon bahosi 10 \$. X tovarni bu mamlakatdagi ichki taklifi $S = 50 + 5P$ tenglama bilan aniqlanadi. Talab egri chizih esa: $D = 400 - 10R$ ko'rinishga ega. Faraz qilaylik, mamlakatda X tovar birligiga 5 \$ miqdorida maxsus tarif belgilandi. Bojxona bojining quyidagilarga ta'sirini aniqlang:

- iste'molchilar farovonligiga;
- ushbu mamlakatdagi X tovarni ishlab chiqaruvchilar daromadlariga;
- davlat byudjetining daromad qismiga;
- mamlakat farovonligiga.

6-masala. Braziliya shakar eksportiga bir tonna shakar uchun 20 \$ miqdorida tarif joriy etdi, jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi miqdorlarni aniqlang.

	Tarif bo'lmaganda		Tarif bo'lganda	
Shakarning jahon narxi	300 dollar	1 tonna uchun	300 dollar	1 tonna uchun
Ichki iste'mol hajmi	6 mln. tonna		8 mln. tonna	
Ichki ishlab chiqarish hajmi	22 mln. tonna		20 mln. tonna	

- Braziliyalik iste'molchilarning tarif joriy etilishi tufayli yutug'i;
- Braziliyalik ishlab chiqaruvchilarning tarif joriy etilishi tufayli yutqazishi;
- Davlat byudjetiga tarif yihimidan tushumlar miqdori;
- Shakarga eksport boji joriy etilishining Braziliya milliy farovonligiga sof ta'siri.

7-masala. Faraz qilaylik, A mamlakat samolyot ishlab chiqaradi. Ichki bozorda bitta samolyot narxi - 60 mln. dollar. Samolyot ishlab chiqarish uchun zarur ehtiyoj qismlarning 50 foizi chetdan sotib olinadi. Import qilingan ehtiyoj qismlarning tayyor mahsulotdagi ulushi 25 foizni tashkil etadi. A mamlakatdagi milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va bandlikni qo'llab-quvvatlash uchun bojxona bojini joriy etildi. Unga ko'ra import qilingan

samolyot uchun bojxona boji stavkasi 15 foiz, samolyotsozlikda foydalaniladigan import qilingan materiallar va ehtiyoj qismlar uchun esa - 10 foizga teng. Ushbu holda A mamlakatda samolyotsozlikni boj orqali himoyalashning fakik darajasi qanday? (Qo'shimcha qiymat usuli orqali aniqlang).

8-masala. Fudji mamlakati kichik davlat (ya'ni u jahon narxlariga ta'sir eta olmaydi) va bir qop yonhoqni 10 dollardan import qiladi. Ichki bozorda yong'oqqa talab va taklif egri chizih quyidagi tenglamalar orqali aniqlanadi: $D = 400 - 10R$; $S = 50 + 5R$. Faraz qilaylik, Fudji hukumati yong'oq importini 50 qopgacha cheklamoqchi bo'lsin. Quyidagilarni hisoblang:

- import hajmi qanchaga kamayadi;
- ichki narxga qanchaga ko'tariladi;
- iste'molchilarning yutqazishi miqdori;
- ishlab chiqaruvchilarning yutuhi miqdori;
- agar import uchun litsenziyalar ochiq raqobatli kim oshdi savdosida sotilsa, kvota joriy qilishdan mamlakatga umumiy ta'siri.

9-masala. Faraz qilaylik, Yaponiya Frantsiyaga avtomobillar eksportiga ko'ngilli eksport cheklashlarini joriy etdi. Ma'lumki, bu cheklashlar oqibatida Frantsiyaga import hajmi 60 mingtadan 40 mingtagacha kamaydi, avtomobil narxi 1000 dollarga oshdi. Bu ma'lumotlar asosida Ko'ngilli eksport cheklashlari natijasida avtomobillar importiga 500 dollar miqdorida maxsus bojxona tarifi o'rnatilgan sharoitda Frantsiya turmush farovonligining yo'qotishini hisoblang.

10-masala. Bir necha eksportyor mamlakat shakarining jahon narxini ko'tarish

maqsadida kartel tuzdilar. Kartelga a'zo mamlakatlar jahon shakar bozorining 25 foizini nazorat qilishadi. Shakarga jahon talabining elastikligi 0,7 ga teng, kartelga a'zo bo'lmagan mamlakatlardan shakar yetkazib berish elastikligi 0,4 ni tashkil etadi. Kartel uchun jahon narxini ko'tarishning eng optimal miqdorini hisoblang.

11-masala. A mamlakat va B mamlakat mamlakatlarida mehnat bozori quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi. A mamlakatda mehnatga talab va taklif funksiyalari: $DL = 100 - 5W$ va $SL = 60 + 3W$ ko'rinishga ega, bu yerda W - bir soatdagi real ish haqi. B mamlakatda mos funksiyalar ko'rinishi: $DL1 = 120 - 3W$ va $SL1 = 40 + 5W$.

a) Har ikki mamlakatda bandlik hajmi (mln. kishi) va barqaror ish haqi darajasi (soatiga dollar) qanday?

b) Ishchi kuchi migratsiyasining yo'nalishini aniqlang.

c) Faraz qilaylik, har ikki mamlakatda emigratsiya va immigratsiyaga barcha cheklashlar olib tashlangan. Buning natijasida emigratsiya mamlakatida ish haqi darajasi 1 dollarga oshdi. Bu mamlakatdan emigratsiya hajmini toping.

d) Qabul qiluvchi mamlakatda ish haqining yangi darajasini aniqlang.

12-masala. A mamlakatning savdo balansi - 110 mlrd. doll., joriy operatsiyalar balansi - 105 mlrd. doll., xorijiy valyuta rasmiy zahiralarning ko'payishi - 5 mlrd. doll. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'hri?

a) Rasmiy hisob-kitoblar balansining ijobiy qoldig'i +5 ga teng.

Masalalar

b) Sof xizmat ko'rsatishlar va joriy transfertalar ijobiy miqdorni tashkil etadi.

c) A mamlakatga kapital kirib keladi.

d) A mamlakatda milliy jamharmalar investitsiyalardan ko'p.

Holat	U	S	I	G	NX	Milliy jamg'armalar
1	5000	300	7	100		
2	5000	300	9	100		
3	5000	320	9	900		

13-masala. Iks mamlakatning to'lov balansi ma'lumotlariga asoslanib quyidagi savollarga javob bering. (barcha raqamlar mlrd. dollarda).

Tovar eksporti +80

Tovar importi -60

Xizmatlar eksporti +30

Xizmatlar importi -20

Investitsiyalardan sof tushumlar -10

Sof transfertlar +20

Kapital kirib kelishi +20

Kapital chiqib ketishi -80

Rasmiy zahiralalar +20

a) Savdo balansi miqdori qanday? b) Joriy operatsiyalar balansi miqdori qanday?

c) Kapital harakati balansi miqdori qanday? d) Iks mamlakatning rasmiy zahiralari balansi qoldihi qanday?

14-masala. To'liq bandlik bo'lmagan iqtisodiyotda davlat xarajatlari 2 mlrd. doll. ga ortdi. Agar import qilishga chegaraviy mayl 0,2 ga, iste'molga chegaraviy mayl 0,9 ga teng bo'lsa, milliy daromad qanchaga ortadi? (Tashqi dunyo bilan teskari aloqalar hisobga olinmaydi.) Davlat xarajatlarining bunday ortishining mamlakat importi uchun sof ta'sirini tahlil qiling va hisoblang.

Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Yuqorida keltirilgan har bir holat uchun joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobi qoldig'ni hisoblang.

15-masala. Iqtisodiyot quyidagi formula bilan ifodalangan:

$$C = 40 + 0,7(Y - T), I = 150 - 8r.$$

Iste'mol xarajatlari 530, haqiqiy foiz stavkasi 7% ga teng, davlat jamharmalari esa 10 ga teng. Joriy operatsiyalar hisobining buromadi (kamomadi)ni hisoblang.

16-masala. Quyidagi ma'lumotlarni qarab chiqing: xorijiy tovar va xizmatlar iste'moli - 100, milliy tovar va xizmatlar iste'moli - 900, xorijiy tovar va xizmatlarga investitsion xarajatlar - 20, milliy tovar va xizmatlarga investitsion xarajatlar - 180, milliy tovar va xizmatlarni davlat tomonidan xarid qilinishi - 240, soliqlar - 450, byudjet kamomadi - 60, sof eksport - 200.

Ma'lumotlar kelib chiqqan holda umumiy eksport nimaga teng?

17-masala. AQShda dollar 8 frantsuz frankiga teng. Ayni shu dollar 2 shveysariya frankiga sotilishi mumkin. Frantsuz frankining shveysariya frankiga nisbatan valyuta kursini aniqlang.

18-masala. Quyida funt sterling bozorida talab va taklif kartasi berilgan:

Funt bahosi (dollarida)	2,00	2,10	2,20	2,30	2,40	2,50
Funt taklifi hajmi (mln.)	160	170	180	190	200	220
Funtga talab (mln.)	200	190	180	170	160	150

a) AQSh federal rezerv tizimi: 1 funt sterling = 2,10 dollar darajasida valyuta kursi belgiladi. FRT bu holatda funtlarni sotishi kerakmi yoki sotib olishi? Agar ha bo'lsa qancha miqdorda?

b) Bu holatda AQShning rasmiy valyutalarida qanday o'zgarish bo'ladi?

19-masala. Myunxenda bratvurst 2 marka, Nyu-Yorkda xot-dog 1 doll. (bratvurst va xot-dog bu sosiskali non) turadi.

a) 0,5 doll. = 1 marka valyuta kursida, bratvurstning xot-dogda ifodalangan narxi qanaga?

b) Shu holatlarda 0,4 dollar 1 markaga teng bo'lsa, nisbiy baho qanday o'zgaradi?

c) Dastlabki vaziyatga nisbatan xot-dog bratvurstga nisbatan arzonlashdimi yoki aksincha?

20-masala. Kichik ochiq iqtisodiyotda ishlab chiqarish miqdori berilgan ishlab chiqarish funksiyasi darajasidadir. Iste'mol (S) daromadga bevosita bog'liq va $S=80+0,8(Y-T)$ ga teng. Avtonom sof soliqlar (T) - 150, investitsiyalar (I) - 100, davlat xarajatlari (G) - 200 ga teng. Sof eksport $NX=20+30Y^*/R=80$. Davlat xarajatlari 30 ga ko'payganda milliy valyuta qancha miqdorda qadrsizlanadi

(qadri oshadi)? Bunda sof eksport miqdori qancha bo'ladi? (masala yechimini grafik ravishda ifodalang).

21-masala. Iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish - 2000, rezidentlarning tovar va xizmatlarga jami xarajatlari - 2300, kapital harakati hisobi - +200 ga teng. Agar MB ichki kreditni 85 foizga, pul multiplikatorini 2 ga oshirsa, iqtisodiyotdagi pul miqdori qanchaga o'zgaradi?

22-masala. Kichik ochiq iqtisodiyotni qarab chiqaylik. U quyidagi tenglamalar va parametrlar bilan berilgan:

$$Y = S + I + G + NX \text{ (daromad),}$$

$$VR = NX + KA \text{ (to'lov balansi),}$$

$$S = 170 + 0,6(Y - T) \text{ (iste'mol),}$$

$$T = 200 \text{ (soliqlar),}$$

$$I = 100 - 4i \text{ (investitsiyalar),}$$

$$G = 350 \text{ (davlat xarajatlari),}$$

$$NX = 50 - 0,1Y \text{ (sof eksport),}$$

$$KA = 55 + 0,4(i - i^*) \text{ (kapital scheti),}$$

$$(M/P)d = L = 0,75Y - 6i \text{ (pulga talab),}$$

$$MsR = 735 \text{ (haqiqiy pul taklifi).}$$

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

a) bu mamlakatda kapital safarbarligi darajasi qanday - yuqori yoki past?

b) agar mamlakatda suzub yuruvchi valyuta kursidan foydalanilsa, daromad miqdori va foiz stavkasi qanday bo'ladi (ichki va tashqi muvozanatda)?

c) daromadning berilgan muvozanat darajasida to'lov balansi qoldig'i nolga teng bo'lishi uchun ichki va jahon foiz stavkalari farqi qanday bo'lishi kerak?

ADABIYOTLAR

Shavkat Mirziyoyev. 2017-2021 Harakatlar strategiyasi. T: Adolat 2017.

Sh.M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 104 b.

«Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год.

2014 GLOBAL R&D FUNDING FORECAST DESEMBER 2013 [www. rdmag. com](http://www.rdmag.com)

2016 Global R&D Funding Forecast. Winter 2016, p. 21.

Alimov A., Hamedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. : "O'AJBNT" markazi. 2004. , 37 b. (489 b.)

Baldwin, Richard E., Martin, Philippe (1999). Two Waves of Globalization: Superficial Similarities, Fundamental Differences. NBER, Working Paper 6904. [http://www. nber. org/papers/w6904](http://www.nber.org/papers/w6904)

Baldwin, Robert E. (2008). The Development and Testing of Heckscher-Ohlin

Trade Models. Cambridge, London, The MIT Press. [http://82. 179. 249. 32:2101/lib](http://82.179.249.32:2101/lib)

Bastiat, Frédéric (1845). Petition of the Candle Makers. Economic Sophisms, 1845. [http://www. econlib. org/library/Bastiat](http://www.econlib.org/library/Bastiat)

Bensidoun, Isabelle, Ünal-Kesenci, Deniz (2008). Globalisation in Services. From Measurement To Analysis. OECD Statistics Working Paper, No.3. [http://www. oecd- ilibrary. org/economics/globalisation](http://www.oecd-ilibrary.org/economics/globalisation)

Bernard, Andrew B., Jensen, J. Bradford, Redding, Stephen J., Schott, Peter K. (2007). Firms in International Trade. The Journal of Economic Perspectives. Vol. 21, No. 3 (Summer), p. 105-130. [http://www. jstor. org/discover/10. 2307/30033737](http://www.jstor.org/discover/10.2307/30033737)

Brown, Drusilla, Deardorff, Alan and Stern, Robert (2003). The Effects of Multinational Production on Wages and Working Conditions in Developing Countries. NBER Working Paper No. 9669. [http://www. nber. org/chapters/c9541. pdf](http://www.nber.org/chapters/c9541.pdf)

Buckley, Peter J., Ghauri, Pervez N. (2004). Globalisation, Economic Geography and the Strategy of Multinational Enterprises. Journal of International Business Studies. Vol. 35, No. 2 (March), p. 81-98.

Changing Patterns of Global Trade (2011). IMF. [http://www. imf. org/external](http://www.imf.org/external)

Estevadeoral, Antoni, Frantz, Brian, Taylor, Alan M. (2003). The Rise and Fall of World Trade, 1870-1939. The Quarterly Journal of Economics, vol. 118, No. 2 (May), p. 359-407. [http://www. nber. org/papers](http://www.nber.org/papers)

Globalisation, Comparative Advantage and the Changing Dynamics of Trade. OECD, 2011. <http://www.oecd-ilibrary.org/trade>

Greenaway, David, Kneller, Richard (2007). Firm Heterogeneity, Exporting and Foreign Direct Investment. *Economic Journal*. Vol. 117, Issue 517 (February), F134-F161.

Herdegen M. *Principles of International Economic Law*. 2nd Edition. — Oxford University Press, 2016. — 552 p.

International Migration Outlook 2012. OECD, 2012. <http://www.oecd-ilibrary.org>

Irwin, Douglas A. (2009). *Free Trade Under Fire*. Princeton University Press, 3rd ed. ch. 2.

Jansen, Marion, Peters, Ralf, Salazar-Xirinachs, José Manuel (2011). *Trade and Employment. From Myths to Facts*. ILO, Geneva. <http://www.ilo.org>

Krugman Paul R., Obstfeld Maurice, Melitz Marc J. *International Economics. Theory and Policy*. 11th ed. — Pearson, 2018. — 803 p.

Lanz, Rainer, Miroudot, Sebastien (2011). *Intra-Firm Trade. Patterns, Determinants and Policy Implications*. OECD Trade Policy Working Papers, No. 114. <http://search.oecd.org/officialdocuments>

Markusen, James (1995). The Boundaries of Multinational Enterprises and the Theory of International Trade. *Journal of Economic Perspectives*, Vol. 9, No. 2 (Spring), p. 169-189. <http://82.179.249.32/2147>

Mattoo, Aaditya, Stern, Robert M., Zanini, Gianni (ed.) (2008). *A Handbook of International Trade in Services*. Oxford. <http://economics.adelaide.edu.au>

Naisbitt *Global Paradox* N. Y. 1994 p. 11

Nazarova G. G., Xaydarov N. X. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. TDIU. T. : 2005 y.

Newfarmer, Richard, Shaw, William, Walkenhorst, Peter (eds.) (2009). *Breaking Into New Markets. Emerging Lessons For Export Diversification*. The World Bank. <http://paperc.de/>

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish kengashining 2000 yil 1 fevridagi yig'ilishida qilgan ma'ruzasini "Xalq so'zi", 2000, 2 fevral.

OECD (2014), *OECD Science, Technology and Industry Outlook 2014*, OECD Publishing.

O'Rourke, Kevin H., Williamson, Jeffrey G. (2002). When Did Globalisation Begin? *European Review of Economic History*, No. 8, p. 23-50. <http://www.nber.org/papers/w7632>

Postindustrial dunyo va globalashuv jarayoni. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. M. 2000 №3 - 91 b.

R&D Magazine Winter 2016, p. 7.

Rodrik, Dani (1997). *Has Globalisation Gone Too Far?* Washington: Institute for International Economics. Introduction.

Taylor, Timothy G., Seale, James L. (2002). *International Trade and the Firm*. in: Ch. Moss, G. Rausser, A. Schmitz, T. Taylor, D. Zilberman (eds) (2002). *Agricultural Globalization, Trade and the Environment*. Boston, Dordrecht, London, Kluwer Academic Publishers, 2002, p. 329-343.

Vaxabov A. V. va boshq. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik*. — T: Bektria press, 2015. - 584 b.

- WIPO statistics database, Oktober 2014.
www.wipo.int
- Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебник. М. 2004 г.
- Авдулов А.Н. Парадигма современного научно-технического развития / А.Н.Авдулов, А.М.Кулькин. - М.: ИНИОН, 2011. - 302с.
- Акаев А.А. Среднесрочная импортозамещающая модернизация – пусковой механизм стратегии формирования инновационной экономики России. //Модернизация. Инновации. Развитие, №2(14), 2013. С. 6
- Барабашев А.Г., Бромберг Г.В. Интеллектуальная собственность и государство: зарубежный опыт. – М. : ИНИЦ Роспатента, 2004. – с. 80
- Боков А. Этапы и направления государственной научно-технической политики в постсоветский период // Власть. - 2010. - N 8. - С. 95-98.
- Булатов А.С. Мировая экономика. Учебник. М. : Юристъ. 2003 г.
- Волгина Н.А. Международная экономика: Учебное пособие. – М. : Эксмо, 2006. -736 с.
- Георг Фишер, «Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы», М. 2000 год.
- Глобализация экономики и интернационализация системы охраны интеллектуальной собственности. -М. ИНИЦ Распечатка – 2002. -С 3
- Гурова М.В Интеллектуальная собственность в инновационном развитии мировой экономики. - Автореферат диссертации на саискание ученой степени кандидата экономических наук. - М. 2010,с 12
- Дюмулен И. Всемирная торговая организация. М. : Экономика. 2003г.
- Зверев Ю.М. Мировая экономика и МЭО. Калининград. 2002 г.
- Иванов И. Д. Российские предприятия в открытой рыночной экономике. М., Общество сохранения литературного наследия, 2011.
- Игорь Пугач «Экономическое Обозрение» декабрь, 1998 год.
- Киреев А. Международная экономика. В 2-х ч. Часть 1. М. : 2002 г.
- Киреев А. Международная экономика. В 2-х ч. Часть 2. М. : 2003г.
- Королев И.С. (ред.) Мировая экономика. Глобальные тенденции за 100 лет. М.: Юристъ, 2003. Гл. 1, 6.
- Кохно П. Приоритеты научно-технологического развития // Общество и экономика. - 2012. - N 2. - С. 41-58.
- Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. СПб. :Питер. 2002г.
- Кругман П.Р., Обстфельд М. Международная экономика. Теория и политика. М., Питер, 2004.
- Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учеб. М. : 2005 г.
- Ломакин В. Мировая экономика. Учебник. М. : Юнити-Дана. 2002 г.
- Международные экономические отношения. Учебник. Под ред. Б.М.Смитиенко. М., ИНФРА-М, 2005-2012.
- Миклашевская Н. Международная экономика. Учебник. 3-е издание. М.: 2001г.
- Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник для

бакалавриата и специалитета / А.И.Погорлецкий [и др.]; под редакцией А.И.Погорлецкого, С.Ф.Сутырина. — Москва: Издательство Юрайт, 2019 - 499 с.

Мировая экономика в 2 ч. Часть 2.: учебник для вузов / Р. И. Хасбулатов [и др.]; под редакцией Р. И. Хасбулатова. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 691 с.

Н. Иванов Глобализация ва проблемы оптимальной стратегии развития (Мировая экономика и международные отношения) М. 2000 й. №2 - 15 с.

Носачевская Е.А. О научно-техническом и инновационном потенциале России // ЭКО. - 2011. - N 8. - С. 5-15.

Овчинников Г.П. Международная экономика. СПб, 1998;

Паньков В. С. Глобализация экономики: сущность, проявления, вызовы и возможности для России. — Ярославль: Издательский дом «Верхняя Волга», 2009.

Погорлецкий А. И. Экономика зарубежных стран. С. -П. , 2000 г.

Пугель Т.А. Линдерт П.Х. Международная экономика. М. , Дело и Сервис, 2003.

Р. Кох Менеджмент и финансы от А до Я - СПб «Питер» 1999 г. - С 65

Радаев В. В. Что такое конкуренция? // Экономическая социология. 2003. Т. 4. №2. с. 16-25. <http://ecsoc.hse.ru/data>

Скурко Е. В. ВТО: введение в правовую систему. ФиС. 2003 г.

Спиридонов И. А. Мировая экономика. Уч. пос. Инфра-М. 2002 г.

Стровский Л. Международные экономические отношения. Юнити-Дана. 2003 г.

Тэор Т. Р. Мировая экономика. Питер. 2002 г.

Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. —М. , 2000. — 12 с.

Худоренко, Е. А. Мировая экономика и международные экономические отношения в схемах и таблицах : учебник для вузов / Е. А. Худоренко, Н. Е. Христолюбова. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 266 с.

Щенин, Р. К. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник для академического бакалавриата / Р. К. Щенин, В. В. Поляков ; под редакцией Р. К. Щенина, В. В. Полякова. — Москва : Издательство Юрайт, 2015. — 446 с.

<http://market.yandex.ru/catalog.xml>

<http://www.bilimdon.uz>

<http://www.cer.uz>

<http://www.gov.uz>

<http://www.iskran.ru>

<http://www.wesmirbooks.ru>

<http://www.bizbook.ru>

<http://www.worldbank.org>

<http://www.wto.org>

Darslikda foydalanilgan jadval, rasm va diagrammalar mundariyasi

MUQADDIMA	11
KIRISH	13
Birinchi qism. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: rivojlanish	15
<i>I bob. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: nazariy asoslari va harakatlantiruvchi kuchlari</i>	16
1.1-rasm. Xo'jalik faoliyatining baynatminallashuv bosqichlari	17
<i>II bob. Globallashuv va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari</i>	29
<i>III bob. Global mintaqaviy milliy moliya bozorlari</i>	37
3.1-rasm. Jahon moliya bozorining tasnifi	43
3.1-jadval. Jahon moliya oqimlari: kapital kiritish va chiqarish hajmi (million AQSh dollari)	48
3.2-jadval. Jahon moliya resurslarining geografik tarkibi dinamikasi (mlrd AQSh dollarida)	49
<i>IV bob. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik</i>	59
<i>V bob. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zaruriyati va tendensiyalari</i>	62
5.1-rasm. Innovatsiya intellektual tovar sifatida	69
5.1-jadval. 2008 yili texnologiyalarning global savdosi	75
5.2-jadval. Dunyoning eng yirik novator mamlakatlar	76
5.2-rasm. Intellektual mulk ob'ektlari bilan savdoning yo'nalishlari	79
5.3-jadval. Dunyo mamlakatlarning innovatsion rivojlanish bo'yicha xalqaro reytingi	86
5.4-jadval. Global ITTKI xarajatlarida ayrim mamlakatlar ulushi, foiz hisobida	86
5.5-jadval. ITTKI xarajatlari bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari	87
5.6-jadval. BRIKS, NAFTA va El ning jahon yuqori texnologik tovarlar ishlab chiqarish hajmidagi hissasi, %	88
5.7-jadval. Dunyo mamlakatlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi o'rni, 2015 y. (%)	88
5.8-jadval. Jahondagi intellektual mulk huquqi savdosida patent talabnomalarining umumiy soni va rezidentlarning geografik tarkibi	89
5.1-diagramma. AQSH, Xitoy va El mamlakatlarida ITTKI xarajatlari dinamikasining o'zgarish istiqbollari	90
5.9-jadval. Janubi-Sharqiy Osiyoning ayrim mamlakatlari innovatsiya siyosati xususiyatlari	92
5.2-diagramma. Dunyoning ayrim mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot tarmoq tarkibining sifat o'zgarishi	93

5.3-diagramma. AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniyada mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari, %	94
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	96
IKKINCHI QISM. XALQARO IQTISODIYOT ASOSLARI	98
BIRINCHI BO'LIM. XALQARO IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI	99
<i>I bob. Xalqaro iqtisodiyot asoslari faniga kirish</i>	99
I. I. XALQARO SAVDONING KLASSIK NAZARIYALARI	112
<i>II bob. Merkantilizm va uning chegaralanganligi</i>	112
2.1-jadval. David Xyumning "narx-oltin-oqimlar" modeli.	114
<i>III bob. Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari</i>	117
3.1-rasm. Nisbiy jahon narxining shakllanishi.	119
3.2-rasm. Savdo natijasida iste'molning ortishi.	121
3.3-rasm. Bir necha tovarlar bilan o'zaro savdo modelida nisbiy ish haqi.	123
<i>IV bob. Ishlab chiqarish omillari nisbatli nazariyasi</i>	127
4.1-jadval. Tashqi savdoning klassik nazariyalardagi gipotezalar.	128
4.1-rasm. Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganligi holatidagi ishlab chiqarish imkoniyatlari chegaralari.	130
4.2-a rasm. Xeksher-Olin teoremasi.	131
4.2-b rasm. Xeksher-Olin teoremasi.	132
4.3-rasm. Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi.	135
I. II. XALQARO SAVDODA UMUMIY MUVOZANAT	140
<i>V bob. Xalqaro savdoning standart modeli</i>	140
5.1-a rasm. Savdo bo'lmagan sharoitdagi muvozanat (O'zbekiston).	141
5.1-b rasm. Savdo bo'lmagan sharoitdagi muvozanat (Yaponiya).	142
5.2-a rasm. Savdo sharoitdagi muvozanat (O'zbekiston)	144
5.2-b rasm. Savdo sharoitdagi muvozanat (Yaponiya)	144
5.3-rasm. Savdodan va ixtisoslashuvdan keladigan yutuq.	146
5.4-rasm. Bir tovarni ikkinchisidan ustun ko'rish asosidagi xalqaro savdo.	148
<i>VI bob. Xalqaro savdodagi umumiy muvozanat nazariyasi va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari</i>	150
6.1-a rasm. Umumiy muvozanat modelida o'zaro talab.	150
6.1-b rasm. Umumiy muvozanat modelida o'zaro talab.	151

Darslikda foydalanilgan jadval, rasm va diagrammalar mundarijasi

6.1-c rasm. Umumiy muvozanat modelida o'zaro talab.	153
6. 2-jadval. Ekspart va importning qiymat bazasi.	154
6. 3-jadval. Jahon ishlab chiqarishi va jahon eksportining o'sish sur'atlari (% da).	155
6. 4-jadval. Alohida mamlakatlar guruhi tashqi savdosining o'sish sur'atlari (% da).	155
VII bob. Xalqaro savdoni tahlil qilish vositalari	157
7. 1-rasm. Savdo sharti.	157
7. 2-rasm. O'rnini qoplash va daromad samarasi.	160
7. 3-a rasm. Eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish	162
7. 3-b rasm. Import o'rnini qoplashga qaratilgan o'sish.	162
7. 1-jadval. Iqtisodiy o'sishning alohida olingan mamlakat savdo shartiga ta'siri.	163
7. 4-rasm. Daromadning qayta taqsimlanishini savdo shartlariga ta'siri.	164
VIII bob. Xalqaro savdoda sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli	168
8. 1 rasm. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli taklifning shakllanishi.	168
8. 2 rasm. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli taklifning shakllanishi.	169
8. 3-rasm. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modelida talab va taklif muvozanati.	170
I. III. XALQARO SAVDONING MUQOBIL NAZARIYALARI	172
IX bob. Xalqaro savdo klassik nazariyalarining rivojlantirilishi	172
9. 1-jadval. Xalqaro savdo nazariyalarining rivojlantirilishi	173
X bob. Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi	176
10.1-jadval. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish	176
10. 1-a-rasm. Mehnatning kamayib boruvchi qaytimi. (Mehnatning to'liq mahsuli)	177
10. 1-b-rasm. Mehnatning kamayib boruvchi qaytimi. (Mehnatning chegaraviy mahsuli)	178
10. 2-rasm. Maxsus ishlab chiqarish omili mavjud bo'lgan sharoitda mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari.	179
10. 3-rasm. Harakatchan omilning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi.	181
10. 4-rasm. Maxsus ishlab chiqarish omillari ta'sirida taklifning o'zgarishi.	182
10. 5-rasm. Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasida xalqaro savdo.	184
XI bob. Xalqaro savdoning daromadga ta'siri	186
11. 1-jadval. Savdo natijasida keladigan daromadning taqsimlanishini tushuntiruvchi nazariyalar	187
11. 1-rasm. Ishlab chiqarish omili narxining tovar narxiga bog'liqligi.	190
11. 2-rasm. Ishlab chiqarish omili miqdorining ortishining ishlab chiqarishga bog'liqligi.	192

XII bob. Keng ko'lamlilik samarasi, nosog'om raqobat	195
12.1-rasm. Keng ko'lamlilik samarasi modelida xalqaro savdo.	196
12. 2-rasm. Monopolistik raqobat sharoitida xalqaro savdo	200
XIII bob. Tarmoq doirasidagi xalqaro savdo nazariyasi va xalqaro savdoda talab va revers nazariyalari	202
13.1-jadval. Tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqi	202
13. 1-rasm. Gomogen tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdo	203
13. 2-rasm. Differensatsiyalashgan tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdo	205
13. 2-jadval. Tarmoqlararo va tarmoq ichidagi savdoning o'zaro bog'ligligi.	206
13. 3-rasm. Kesishuvchi talab xalqaro savdoning asosi sifatida.	208
13. 4-rasm. Ishlab chiqarish omillari reversi fenomeni.	210
Bo'lim bo'yicha rezyume	213
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	218
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	220
IKKINCHI BO'LIM. ERKIN SAVDO VA PROTEKSIONIZM	221
XIV bob. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish	221
XV bob. Bojxona bojlari va bojxona tariflari	230
15.1-rasm. Import bojining milliy iqtisodiyotga ta'siri.	233
XVI bob. Xalqaro savdoni tartibga solish	236
16.1-jadval. USTga a'zo mamlakatlar. (As of 1 August 2017)	241
16.2-jadval. USTga a'zo bo'lishga harakat qilayotgan mamlakatlar.	245
XVII bob. Xalqaro tovarlar nomenklaturasi va xalqaro savdodagi o'zgarishlar	247
17. 1-jadval. Xalqaro standart savdo klassifikatsiyasi	248
17. 2-jadval. Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi (1998 y.)	251
XVIII bob. Xalqaro savdoda narx belgilash	256
18.1-jadval. Narxni to'liq xarajatlar usuli bilan aniqlash. (oylik xarajatlar, doll.)	257
18. 2-jadval. Narxni to'g'ri xarajatlar usuli bilan aniqlash (oylik xarajatlar, doll.)	258
XIX bob. Tashqi savdo balansi	260
19. 1-jadval. Tashqi savdo balansiga ta'sir qiluvchi omillar.	261
Bo'lim bo'yicha rezyume	262
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	263

Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	265
UCHINCHI BO'IM. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI	267
XX bob. Kapital olib chiqishning mohiyati va shakllari	267
20.1-jadval. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankiga a'zo mamlakatlar.	270
20.2-jadval. Xalqaro moliyaviy korporatsiyaga a'zo mamlakatlar.	272
20.3-jadval. Xalqaro taraqqiyot uyushmasiga a'zo mamlakatlar.	274
20.4-jadval. Investitsion majarolarni tartibga solish xalqaro markaziga a'zo mamlakatlar.	276
20. 5-jadval. Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentlikga a'zo mamlakatlar.	277
XXI bob. Xalqaro kapitalning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri yo'nalishlari	282
21. 1-jadval. Dunyoning 2017 yildagi eng yirik 10 ta kompaniyasi.	283
21.2-jadval. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari	287
XXII bob. Xalqaro kredit	291
XXIII bob. Xalqaro iqtisodiyotda transmilliy korporatsiyalarning tutgan o'ri	295
23. 1-jadval. Dunyoning yirik kompaniyalari	297
Bo'lim bo'yicha rezyume	300
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	302
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	302
TO'RTINCHI BO'IM. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI	304
XXIV bob. Xalqaro valyuta hisob-kitob munosabatlari	304
XXV bob. Valyutaga talab va taklif	320
25. 1-jadval	324
XXVI bob. To'lov va hisob-kitob balansi	326
26.1-jadval. To'lov balansi tuzilmasi.	331
26. 2-jadval. Xalqaro soddalashtirilgan to'lov balansi	333
Bo'lim bo'yicha rezyume:	334
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	335
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	336
BESHINCHI BO'IM. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI	337
XXVII bob. Jahon ishchi kuchi bozori	337
XXVIII bob. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga ta'siri	341

28.1-rasm. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligi.	341
Bo'lim bo'yicha rezyume	345
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	345
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	346
OLTINCHI BO'LIM. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA	347
XXIX bob. Jahon xo'jaligida integratsiya jarayonlari	347
29.1-rasm. Integratsiya natijasida savdoni yaratish samarasi.	350
29. 1-jadval. Integratsion birlashmalar ko'rinishlari	355
XXX bob. Yevropa Ittifoqi	356
30. 1-jadval. Yevropa Ittifoqi 2004 1 maydan oldin va keyin.	357
Bo'lim bo'yicha rezyume	359
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	360
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	360
YETTINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA	362
XXXI bob. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati	362
31.1- diagramma. Eksport va import dinamikasi (mln. doll.)	367
31.2- diagramma. Eksport va import o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)	368
31.3-diagramma. Eksportning tovar tarkibi (%)	369
31.4-diagramma. Importning tovarlar tarkibi (%)	370
31.5-diagramma. O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan tashqi savdosi dinamikasi (mln. AQSh. dollari)	371
31.6- diagramma. MDH davlatlari bilan tashqi savdoning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)	372
31.7-diagramma. O'zbekiston Respublikasining uzoq xorij davlatlari bilan tashqi savdosi dinamikasi (mln. AQSh. dollari)	373
31.8- diagramma. Uzoq xorij davlatlari bilan tashqi savdoning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)	374
31.9- diagramma. 2016-2017 yillarda O'zbekistonning asosiy hamkor davlatlarga eksportining o'sishi (%) (oldingi yilga nisbatan foizda)	374
31. 10-rasm. Eksportda kichik biznesning ulushi	375
31.11-diagramma. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar	377

Darslikda foydalanilgan jadval, rasm va diagrammalar mundarijasi

(min. AQSH dollari)	377
31. 12-diagramma. 2016 yilda hududlarning Respublika bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi (foizda)	378
31. 13-diagramma. 2016 yil investorlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar	378
31. 14-diagramma. Asosiy xorijiy investorlarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushining o'zgarish dinamikasi	379
31. 15-diagramma. Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	379
31. 16-diagramma. Alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar	381
Bo'lim bo'yicha rezyume	382
Bo'lim bo'yicha nazorat savollari	383
Bo'lim bo'yicha muhokama uchun muammolar	383
GLOSSARIY	384
TESTLAR	393
MASALALAR	399
ADABIYOTLAR	404
Darslikda foydalanilgan jadval, rasm va diagrammalar mundarijasi	408
СОДЕРЖАНИЕ	415
CONTENT	422

СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие

Введение

Первая часть. Глобализация мировой экономики: тенденции и факторы развития

Глава I. Глобализация мировой экономики: теоретические основы и движущие силы

Глобализация – как высшая степень интернационализации мировой экономики

Влияние глобальных процессов на развитие национальной экономики

Глава II. Глобализация и современные тенденции развития международной торговли

Особенности международных экономических отношений в условиях глобализации

Глобализация и либерализация – как новая тенденция развития международной торговли.

Глава III. Глобальные, региональные, национальные финансовые рынки

Суть глобализации мировой валютной системы и ее последствия

Функции современной мировой финансовой системы и необходимость ее регулирования

Классификация мирового финансового рынка

Основные особенности развития международных финансовых рынков в условиях глобализации и влияющие на нее факторы

Глава IV. Экономическая безопасность в условиях глобализации

Глава V. Необходимость инновационного развития национальных экономик в условиях глобализации и ее тенденции

Концептуальные основы создания и совершенствования национальной инновационной системы на современном этапе

Направления влияний глобализации мирового хозяйства на инновационное развитие национальной экономики

Мировой опыт инновационного развития и приоритеты совершенствования национальной инновационной системы

Вторая часть. Основы международной экономики

Глава I. Введение в курс «Мировая экономика и международные экономические отношения»

Этапы развития международной экономики

Мировой рынок и основные формы современных международных экономических отношений

Своеобразные черты международной экономики в условиях глобализации мирового хозяйства

Основные показатели участия стран в международной экономике

Факторы производства и их международный обмен как материальная основа мировой экономики

Особенности движения товаров и услуг на мировом рынке

Мировой рынок информации и технологий

Резюме

Контрольные вопросы

Проблемы для обсуждения

Первый раздел. Теоретические основы международной торговли

I. I. Классические теории международной торговли

Глава II. Меркантилизм и его ограниченность

Золото – как основа богатства государств

Основные черты внешнеторговой политики

Недостатки меркантилизма

Разделение труда – основа экономического роста

Глава III. Теории абсолютных и сравнительных преимуществ

Модель абсолютных преимуществ

Альтернативная цена и соотношение цен при торговле

Выигрыш от торговли

Торговля несколькими товарами

Значение теории сравнительных преимуществ

Глава IV. Теория соотношения факторов производства

Исходные постулаты

Различная обеспеченность факторами производства

Выравнивание цен на факторы производства

Парадокс Леонтьева и его суть

I. II. Общее равновесие в международной торговле

Глава V. Стандартная модель международной торговли

Интересы производителей и потребителей

Баланс в условиях отсутствия торговли

Баланс в условиях торговли

Выигрыш от торговли

Торговля между малой и большой странами

Торговля в условиях различия в предпочтении одного товара относительно другого

Глава VI. Теория общего равновесия в международной торговле и современные

тенденции развития международной торговли

Особенности взаимного спроса

Международный баланс

Принципы стоимостной оценки

- Основные тенденции развития
- Глава VII. Основные инструменты анализа международной торговли
- Условия торговли
- Эластичность экспорта и импорта
- Эффект дохода и замещения
- Типы экономического роста
- Эффект перераспределения доходов
- Глава VIII. Модель торгуемых и неторгуемых товаров в международной торговле
- Формирование предложения
- Формирование спроса
- Баланс торгуемых и неторгуемых товаров
- I. III. Альтернативные теории международной торговли
- Глава IX. Развитие классических теорий международной торговли
- Ограниченность классических теорий
- Нетрадиционные подходы
- Глава X. Теория специфических факторов производства
- Специфические и мобильные факторы
- Внутренний баланс
- Международный баланс
- Глава XI. Влияние международной торговли на доходы
- Распределение доходов от торговли
- Распределение доходов в модели специфических факторов производства
- Влияние изменения товарных цен на доходы от факторов производства
- Влияние предложения факторов на доходы от производства
- Эффект усиления
- Глава XII. Эффект масштаба и несовершенная конкуренция
- Торговля на основе эффекта масштаба
- Торговля в условиях монополистической конкуренции
- Глава XIII. Теория внутриотраслевой международной торговли, теория спроса и реверса международной торговли
- Различия внутриотраслевой и межотраслевой торговли
- Модель внутриотраслевой торговли
- Измерение внутриотраслевой торговли
- Пересекающийся спрос
- Реверс факторов производства
- Резюме
- Контрольные вопросы
- Проблемы для обсуждения

Второй раздел. Свобода торговли и протекционизм

Глава XIV. Государственное регулирование внешней торговли

Суть внешнеторговой политики

Своеобразные черты свободной торговли и протекционизма

Положительные и негативные стороны протекционизма

Основные инструменты государственного регулирования внешней торговли

Тарифные методы регулирования внешней торговли

Основные виды нетарифного ограничения внешней торговли

Глава XV. Таможенные пошлины и таможенные тарифы

Сущность таможенных пошлин и ее виды

Основные формы тарифной политики

Выигрыш производителей от введения протекционных мер.

Тактические и стратегические последствия протекционизма

Ухудшение благосостояния потребителей в условиях протекционизма

Глава XVI. Регулирование международной торговли

Сущность и виды межгосударственного регулирования внешней торговли

Деятельность КОКОМ

Причины заключения ГАТТ

Принципы, функции и структура ГАТТ

Создание Всемирной торговой организации (ВТО) и ее отличие от ГАТТ

Принципы, цели и функции Всемирной торговой организации

Структура и деятельность Всемирной торговой организации

Глава XVII. Международная товарная номенклатура и изменения в международной торговле

Особенности международных товарных номенклатур

Динамика международной торговли

Направления основных товаропотоков

Глава XVIII. Ценообразование в международной торговле

Цены и теория ценообразования

Основные механизмы формирования цен

Система и функции мировых цен

Глава XIX. Внешний торговый баланс

Общая характеристика баланса внешней торговли

Факторы, влияющие на внешнеторговый баланс

Резюме

Контрольные вопросы

Проблемы для обсуждения

Третий раздел. Международная миграция капитала

Глава XX. Сущность и формы вывоза капитала
Мировой рынок капитала и стадии его развития
Формы вывоза капитала
Теория экспорта капиталов
Деятельность группы Всемирного банка
Сущность и значение прямых иностранных инвестиций
Особенности портфельных инвестиций
Понятие инвестиционного климата
Глава XXI. Направления влияния международного движения капитала на национальную экономику
Основные тенденции изменения направленности инвестиционных потоков
Современная географическая структура международного движения капитала
Значение иностранных инвестиций для стран-экспортеров
Роль иностранных капиталовложений в экономике стран-импортеров
«Свободные экономические зоны» как инструмент привлечения иностранных инвестиций
Глава XXII. Международный кредит
Формы международного кредита
Международные кредитные рынки
Сущность проблемы внешнего долга
Возможные пути преодоления кризиса внешней задолженности
Глава XXIII. Роль транснациональных корпораций в международной экономике
Сущность, структура и виды международных корпораций
Место и роль ТНК в мировой экономике
Новые формы деятельности ТНК: лизинг и факторинг
Резюме
Контрольные вопросы
Проблемы для обсуждения
Четвертый раздел. Международные валютно-кредитные отношения
Глава XXIV. Международные валютно-расчетные отношения
Сущность валютно-расчетных отношений в структуре международной экономики
Сущность понятия «валюта»
Современные особенности мировой валютно-финансовой системы
Формы международных расчетов
Валютные клиринги
Сущность валютных ограничений
Характер и условия конвертируемости валюты
Основные характеристики валютного курса

Факторы, влияющие на валютный курс

Глава XXV. Спрос и предложение валюты

Виды валютных режимов

Валютные риски и способы их страхования

Виды валютных рынков

Характеристика основных типов валютных операций

Глава XXVI. Платежный и расчетный баланс

Сущность и структура платежного баланса

Международная унифицированная схема платежного баланса

Средства регулирования платежного баланса

Резюме

Контрольные вопросы

Проблемы для обсуждения

Пятый раздел. Международная миграция рабочей силы

Глава XXVII. Мировой рынок рабочей силы

Сущность и причины возникновения мирового рынка рабочей силы

Основные направления и центры трудовой миграции

Виды международной трудовой миграции

Глава XXVIII. Влияние миграции рабочей силы на национальную экономику

Экономические выгоды международной трудовой миграции

Основные экспортеры на мировом рынке труда

Влияние миграционных процессов на экономику стран-импортеров

Суть проблемы «Утечки мозгов»

Резюме

Контрольные вопросы

Проблемы для обсуждения

Шестой раздел. МЕЖДУНАРОДНАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ

Глава XXIX. Интеграционные процессы в мировом хозяйстве

Начальные условия и сущность международной экономической интеграции

Основные центры интеграционных процессов

Влияние интеграционных процессов на национальную экономику

Типология интеграционных групп

Сущность зон свободной торговли (ЭСР)

Таможенные союзы

Общий рынок

Экономический союз

Глава XXX. Европейский Союз

Эволюционные этапы развития, цели, принципы Европейского союза

Структура Европейского Союза, проблемы на современном этапе и перспективы
Резюме
Контрольные вопросы
Проблемы для обсуждения
Седмой раздел. Республика Узбекистан в системе международных экономических отношений
Глава XXXI. Внешнеэкономическая политика Узбекистана
Либерализация внешнеэкономической деятельности в Узбекистане и повышение национальной конкурентоспособности
Анализ динамики внешней торговли Узбекистана
Место Узбекистана на мировом рынке капитала
Резюме
Контрольные вопросы
Проблемы для обсуждения
Глоссарий
Тесты
Задачи
Литературы
Содержание таблиц, диаграмм и рисунков в учебнике

CONTENT

Foreword

Introduction

First part. Globalization of the world economy: trends and development factors

Chapter I. Globalization of the world economy: theoretical foundations and driving forces

Globalization - as the highest degree of internationalization of the world economy

The influence of global processes on the development of the national economy

Chapter II. Globalization and current trends in the development of international trade

Peculiarities of international economic relations in the context of globalization

Globalization and liberalization - as a new trend in the development of international trade.

Chapter III. Global, regional, national financial markets

The essence of the globalization of the world monetary system and its consequences

Functions of the modern world financial system and the need for its regulation

Classification of the world financial market

Main features of the development of international financial markets in the context of globalization and the factors affecting it

Chapter IV. Economic security in the context of globalization

Chapter V. Necessity of innovative development of national economies in the context of globalization and its trends

Conceptual foundations for the creation and improvement of the national innovation system at the present stage

Directions of the influence of the globalization of the world economy on the innovative development of the national economy

World experience of innovative development and priorities for improving the national innovation system

The second part. The fundamentals of the international economy

Chapter I. Introduction to the course "World Economy and International Economic Relations"

Stages of development of the international economy

The world market and the basic forms of modern international economic relations

Peculiar features of the international economy in the context of the globalization of the world economy

Main indicators of countries' participation in the international economy

Factors of production and their international exchange as the material basis of the world economy

Features of the movement of goods and services in the world market

World market of information and technologies

- Summary of the section
- Control questions
- Problems for discussion
- The first section. Theoretical Foundations of International Trade
- I. I. Classical Theories of International Trade
- Chapter II. Mercantilism and its limitations
- Gold as the basis of the wealth of nations
- The main features of foreign trade policy
- The disadvantages of mercantilism
- The division of labor is the basis of economic growth
- Chapter III. Theories of absolute and comparative advantages
- The model of absolute advantages
- Alternative price and price ratio for trade
- The gain from trading
- Multiple goods trading
- The importance of the theory of comparative advantage
- Chapter IV. Theory of the ratio of factors of production
- Initial postulates
- Various factors of production
- The equalization of prices for factors of production
- The paradox of Leontief and its essence
- I. II. General equilibrium in international trade
- Chapter V. The Standard Model of International Trade
- Interests of producers and consumers
- Balance in the absence of trade
- Balance in terms of trade
- The gain from trading
- Trade between small and large countries
- Trade in conditions of difference in the preference of one commodity relative to another
- Chapter VI. The theory of general equilibrium in international trade and the current trends in the development of international trade
- Peculiarities of mutual demand
- International balance sheet
- Principles of valuation
- Main development trends
- Chapter VII. Basic Instruments for Analyzing International Trade
- Terms of trade
- Elasticity of exports and imports

- The effect of income and substitution
- Types of economic growth
- The effect of income redistribution
- Chapter VIII. Model of traded and non-traded goods in international trade
- Forming a proposal
- Formation of demand
- Balance of traded and non-traded goods
- I. III. Alternative Theories of International Trade
- Chapter IX. The development of the classical theory of international trade
- Boundedness of classical theories
- Non-traditional approaches
- Chapter X. Theory of specific factors of production
- Specific and mobile factors
- Internal balance
- International balance sheet
- CHAPTER XI. The impact of international trade on income
- Distribution of income from trade
- Distribution of income in the model of specific factors of production
- The effect of changes in commodity prices on income from factors of production
- Influence of supply of factors on income from production
- Effect of amplification
- CHAPTER XII. The scale effect and imperfect competition
- Trade on the basis of economies of scale
- Trade in conditions of monopolistic competition
- Chapter XIII. The theory of intra-industry international trade, the theory of demand and reversal of international trade
- Differences in Intra-Industry and Intersectoral Trade
- Model of intra-industry trade
- Measurement of intra-industry trade
- Cross-cutting demand
- Reverse of factors of production
- Summary
- Control questions
- Problems for discussion
- The second section. Freedom of trade and protectionism
- CHAPTER XIV. State regulation of foreign trade
- The essence of foreign trade policy
- Peculiar features of free trade and protectionism

- Positive and negative aspects of protectionism
- The main instruments of state regulation of foreign trade
- Tariff methods of foreign trade regulation
- The main types of non-tariff restrictions on foreign trade
- Chapter XV. Customs Duties and Customs Tariffs
- The essence of customs duties and its types
- Basic forms of tariff policy
- Winning producers from the introduction of protection measures.
- Tactical and strategic consequences of protectionism
- Deterioration of welfare of consumers in the conditions of protectionism
- Chapter XVI. Regulation of international trade
- The essence and types of interstate regulation of foreign trade
- Activities of KOKOM
- The reasons for the conclusion of GATT
- Principles, functions and structure of GATT
- Establishment of the World Trade Organization (WTO) and its difference from GATT
- Principles, objectives and functions of the World Trade Organization
- Structure and activities of the World Trade Organization
- Chapter XVII. International Commodity Nomenclature and Changes in International Trade
- Features of international commodity nomenclatures
- Dynamics of international trade
- Directions of the main trade flows
- Chapter XVIII. Pricing in International Trade
- Pricing and pricing theory
- Basic pricing mechanisms
- The system and functions of world prices
- Chapter XIX. External trade balance
- General characteristics of the balance of foreign trade
- Factors affecting the foreign trade balance
- Summary
- Control questions
- Problems for discussion
- The third section. International migration of capital
- Chapter XX. Essence and forms of export of capital
- World capital market and its development stages
- Forms of export of capital
- Theory of export of capital
- Activities of the World Bank Group

- The essence and significance of foreign direct investment
- Features of portfolio investments
- The concept of an investment climate
- Chapter XXI. Directions of influence of the international capital flow on the national economy
- The main trends in the direction of investment flows
- The current geographical structure of international capital flows
- Importance of foreign investment for exporting countries
- The role of foreign investment in the economy of importing countries
- "Free economic zones" as an instrument for attracting foreign investments
- Chapter XXII. International credit
- Forms of international credit
- International credit markets
- The essence of the external debt problem
- Possible ways to overcome the external debt crisis
- Chapter XXIII. The role of transnational corporations in the international economy
- The essence, structure and types of international corporations
- Place and role of TNCs in the global economy
- New forms of TNC activities: leasing and factoring
- Summary
- Control questions
- Problems for discussion
- The fourth section. International Monetary and Credit Relations
- Chapter XXIV. International monetary settlement relations
- The essence of monetary relations in the structure of the international economy
- The essence of the concept of "currency"
- Modern features of the world monetary and financial system
- Forms of international payments
- Currency clearing
- The essence of currency restrictions
- The nature and conditions of currency convertibility
- Main characteristics of the exchange rate
- Factors affecting the exchange rate
- Chapter XXV. Currency Demand and Supply
- Types of currency regimes
- Currency risks and methods of their insurance
- Types of foreign exchange markets
- Characteristics of the main types of currency transactions
- Chapter XXVI. Payment and settlement balance

- The essence and structure of the balance of payments
- International Unified Balance of Payments Scheme
- Means of regulation of the balance of payments
- Summary
- Control questions
- Problems for discussion
- The fifth section. International Labor Migration
- Chapter XXVII. The world labor market
- The essence and causes of the emergence of the world labor market
- The main directions and centers of labor migration
- Types of international labor migration
- The sixth section. INTERNATIONAL ECONOMIC INTEGRATION
- Chapter XXIX. Integration processes in the world economy
- The initial conditions and the essence of international economic integration
- The main centers of integration processes
- Influence of integration processes on the national economy
- Typology of integration groups
- The essence of free trade zones (ESZ)
- Customs unions
- Common Market
- The Economic Union
- Chapter XXX. European Union
- Evolutionary stages of development, goals, principles of the European Union
- Structure of the European Union, problems at the present stage and prospects
- Summary
- Control questions
- Problems for discussion
- The Seventh section. The Republic of Uzbekistan in the system of international economic relations
- Chapter XXXI. Foreign Economic Policy of Uzbekistan
- Liberalization of foreign economic activity in Uzbekistan and increase of national competitiveness
- Analysis of foreign trade dynamics in Uzbekistan
- The place of Uzbekistan in the world capital market
- Summary
- Control questions
- Problems for discussion
- Glossary

Content

Tests

Tasks

Literature

The contents of tables, diagrams and figures in the textbook

“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” darsligiga

ANNOTATSIYA

Tavsiya etilayotgan ushbu darslik jahon iqtisodiyotining globalashuvi, xalqaro iqtisodiyot (XI) tizimining rivojlanish bosqichlari, uning tarkibiy qismlari: xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, xalqaro kapital harakati, xalqaro valyuta-moliya bozori, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, xalqaro iqtisodiy integratsiya sohalarining eng muhim masalalariga bag'ishlangan.

Darslik o'quv-uslubiy materiallar – asosiy tushunchalar glossariysi, adabiyotlar ro'yxati, muhokama uchun savollar, masalalar va testlarni o'z ichiga olgan. Mazkur o'quv adabiyoti o'qituvchilar, talabalar, tadbirkorlar, zamonaviy XI muammolari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga tavsiya etiladi.

Аннотация

Учебнику «Мировая экономика и международные экономические отношения»

Предлагаемый учебник представляет собой базовый курс основы международной экономики. В нем рассматриваются глобализационные процессы в мировой экономике, этапы развития международной экономики, основные проблемы ее составных частей: международная торговля товаров и услуг, международная мобильность факторов производства, международный валютный и финансовый рынок, международная миграция рабочей силы, международная экономическая интеграция. В учебник также включены учебно-методические материалы — словарь основных понятий, список рекомендуемой литературы, глоссарий, вопросы для обсуждения, задачи, упражнения, тесты. Адресован студентам, аспирантам, преподавателям, научным и практическим работникам.

ANNOTATION

The textbook "World Economy and International Economic Relations"

The suggested textbook is the basic course of the fundament of an international economy. It examines the stages of the development of the international economy; the main problems of its are: international trade in goods and services, international mobility of factors of production, the international currency and financial marketing, international migration of labor, international economic integration. The textbook also includes educational and methodological materials - a dictionary of basic concepts, a list of recommended literature, a glossary, questions for discussion, tasks, exercises and tests. The textbook is addressed to both Bachelor's and Master's degree students, teachers, scholars and practical workers.

O'quv adabiyoti

A. M. ALIMOV,

E. A. MAXMUDOV, N. X. XAYDAROV

JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

Muharrir **Z. Norqo'ziyeva.**

Sahivalovchi **M. Xolmirzayev**

Rassom **N. Xaydarov**

Nashriyot litsenziyasi AI № 303 21.06.2017.

Bosishga ruxsat etildi --.02.2020. Bichimi 60x84 ¹/₈ Ofset bosma.
28.5 nashr t. 28.75 bosma t. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 335.

«Zilol buloq nashriyoti» MChJ, Toshkent shahar,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

«Saydana-Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh. Qamarniso, 3. Tel.: +99891 162-08-43.
E-mail: Saydana-print@mail.ru

